

QUNDUZXON HUSANBOYEVA, ROZA NIYOZMETOVA

ADABIYOT O'QITISH METODIKASI

BIRINCHI KITOB



QUNDUZXON HUSANBOYEVA, ROZA NIYOZMETOVA

ADABIYOT O'QITISH METODIKASI

**Pedagogik yo'nalishdagi oliy o'quv yurtlari o'zbek tili va
adabiyoti fakulteti talabalari uchun darslik**

BIRINCHI KITOB

**Toshkent
"Innovatsiya-Ziyo"
2022**

UO'K: 82(072)(07)
KBK: 83.3ya7
H 84

378
H 84

Qunduzxon Husanboyeva, Roza Niyozmetova
Adabiyot o'qitish metodikasi. Darslik. - Toshkent:
"Innovatsiya-Ziyo", 2022, 400 b.

Mazkur "Adabiyot o'qitish metodikasi" darsligi amaldagi o'quv rejasida asosidagi o'quv dasturiga tayanib yaratilgan. Unda adabiyot o'qitishning eng dolzarb masalalari bugungi kun talablari nuqtai nazaridan yoritib berilgan. Darslik pedagogik yo'nalishdagi oliy o'quv yurtlari o'zbek tili va adabiyoti fakultetlari talabalariga mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir:

Q. Yo'ldoshev,

pedagogika fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

S. Matchonov,

pedagogika fanlari doktori, professor


S. Qambarova,

pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD), dotsent

Ushbu darslik O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 28-avgustdagi 375-sonli qarori bilan (guvohnoma raqami № 375-053) nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-8233-8-9

Q. Husanboyeva, R. Niyozmetova, 2022.
"Innovatsiya-Ziyo", 2022.



MUNDARIJA

I KITOB

Kirish	6
1-mavzu. Adabiyot o'qitish metodikasining umumnazariy masalalari. (Maqollar)	9
2-mavzu. Adabiyot o'qitish metodikasi ilmi tarixi va shakllanish taraqqiyoti. (Kichkina shahzoda)	21
3-mavzu. Adabiyot o'qitish metodikasining boshqa fanlar bilan aloqasi va adabiyot darslarida Integratsiya. (Yurt qayg'usi)	46
4-mavzu. Adabiyot o'qitish metodikasi kursining mazmuni va qurilishi. (Susambil)	61
5-mavzu. Adabiyot o'qitish metodikasi asosiy tamoyillari va yondashuvlari. (Oygul bilan Baxtiyor)	81
6-mavzu. Bo'lajak o'qituvchilar kompetentligini shakllantirishda adabiyot o'qitish metodikasi fanining o'rni va roli. (Uch og'a-ini botirlar)	103
7-mavzu. Adabiy ta'limda mustaqil fikrlashning ahamiyati (Oltovlon va yettinchi)	118
8-mavzu. Ta'lim texnologiyalari. Adabiy ta'limda hamkorlikda o'qitish texnologiyasidan foydalanish. (M. Yusuf she'riyati)	148
9-mavzu. O'quvchi ma'naviy kamolotini ta'minlashda muammoli ta'lim texnologiyasining o'rni. (Hellados)	174
10-mavzu. Pedagogik innovasion texnologiyalar va adabiy ta'lim. (Mahbub-ul qulub)	202
11-mavzu. Modulli ta'lim texnologiyasi xususiyatlari va adabiyot o'qitishda undan foydalanish. (Nido)	220
12-mavzu. Didaktik o'yinlar texnologiyasi va uning adabiy ta'limdagi o'rni. (Urushning so'nggi qurboni)	238
13-mavzu. Sinov darslari texnologiyasining adabiy ta'limdagi ahamiyati. (Naqorat)	258
14-mavzu. Adabiy ta'limda erkin tarbiya texnologiyasining o'rni. (Go'zal)	273
15-mavzu. Axborot-kommunikativ texnologiyalar va adabiyot darslarida ko'rsatmalilik. (Qiyomatga qolmagan qasos)	288

16-mavzu. Adabiyot o'qitishda multimedia texnologiyasining o'rni va roli. (Kuntug'mish)	311
17-mavzu. Adabiy ta'lim metodlari va usullari hamda ularning o'zaro aloqadorligi. (Oq kema)	324
18-mavzu. Blum taksonomiyasi va adabiy ta'lim. Adabiyot o'qitish metodikasi fanida motivatsiya. (Yovvoyi yo'rg'a)	354
19-mavzu. Badiiy asar ustida ishlashning shakli va mazmuniga ko'ra turlari. (Tog'ay Murod ijodini o'rganish)	372
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	391

II KITOB

20-mavzu. Asarlarni janri va obrazlar tizimiga ko'ra o'rganish. (Muzqaymoq)	6
21-mavzu. Epik turga mansub asarlar ustida ishlash yo'llari. (Haqiqatdan tug'ilgan afsona)	28
22-mavzu. Lirik turga mansub asarlarni o'rganishdagi o'ziga xosliklar. (F. Sulaymon she'rlari)	43
23-mavzu. Dramatik tur va janrdagi bitiklar bilan ishlashning xususiyatlari. (Temir xotin)	59
24-mavzu. Mumtoz adabiyot namunalarini o'rganish metodikasi. (Sariq devni minib)	75
25-mavzu. Adabiy-nazariy tushunchalarni o'rganish. (Bemor)	98
26-mavzu. Asarlar yuzasidan tuzilgan savol-topshiriqlar ustida ishlash. (Ming bir jon)	117
27-mavzu. Adabiyot o'quv fanidan beriladigan uy vazifalari. (Adabiyot muallimi)	131
28-mavzu. Yozuvchi tarjimai holining berilishiga xos xususiyatlar. (O'tmishdan ertaklar. Sarob)	157
29-mavzu. Adabiyot darslarida o'quvchilarni asar qahramonlarini baholashga o'rgatish. (Mening o'g'rigina bolam)	175
30-mavzu. Adabiyotdan dars shakllari. (Shum bola)	193
31-mavzu. Adabiyot darslarida o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish yo'llari. (Oqbo'yin)	206
32-mavzu. Adabiy ta'limga tasviriy san'at namunalarini o'qishga o'rgatish amaliyoti. (dars ishlanmasi).	220

33-mavzu. Adabiyot o'qitishda inshoning o'rni va uni tashkil etish yo'llari. (Hayotga muhabbat)	242
34-mavzu. O'qish turlari va ularning xususiyatlari. O'qishning adabiy ta'limdagi ahamiyati (Go'ro'g'lining tug'ilishi)	269
35-mavzu. Virtual laboratoriyalar va ularning adabiyot o'qitishdagi o'rni. (Afandining qirq bir pashshasi)	292
36-mavzu. Sun'iy intellekt va adabiy ta'lim. (Ravshan)	313
37-mavzu. Adabiyot darslarini kuzatish va tahlil qilish (Vaqt. Sog'inch).....	331
38-mavzu. PIRLS, PISA, TIMSS va Flash Index tadqiqotlari hamda ularning adabiy ta'lim bilan bog'liqlik darajasi (Odil Burgutshoh va «Zamburug'» laqabli josus haqida ertak)	351
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	382

KIRISH

Pedagogika ilmi va amaliyotida ko'p zamonlardan beri ta'lim tarbiyadan ustuvor sanalib kelinayotganini bo'lajak hamkasblarimiz talabalik yillarida o'zlashtirayotgan bilimlari asnosida payqagan bo'lishlari kerak.

Yurt mustaqilligiga erishilgandan keyin nafaqat ijtimoiy-siyosiy hayotda, balki ta'lim-tarbiya jarayonida ham jiddiy o'zgarishlar amalga oshirila boshlandi. Endilikda shakllanib kelayotgan yosh avlodning ma'naviyatini sog'lomlashtirish, ularga bilimlarni tayyor holda berishdan ko'ra mustaqil fikrlashga yo'naltirish va ta'lim jarayonida o'quvchilarni mute ijrochilikdan erkin ishtirokchi darajasiga ko'tarishning yangi-yangi yo'llari qidirilmoqda.

O'qitishning asosiy ashyolari bo'lmish darslik, metodik qo'llanma, metodik tavsiyalarni yangilash va takomillashtirish bilan birga, ruhan sog'lom, aqlan barkamol, o'z fikri hamda qarashlariga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalash ham ustuvorlik kasb etmoqda. Yoshlar tarbiyasida bir xil fikrlaydigan, yagona xulosaga keladigan avlodni shakllantirish o'miga ma'naviy sifatlarning yetakchiligi, bola tuyg'ularining injaligi, uning ko'ngil istaklari, ma'naviyat shakllantirishda milliy an'analarğa tayanish lozimligiga-da diqqat qaratilmoqda.

Mustaqillikning dastlabki bosqichida paydo bo'lgan ayrim qiyinchiliklar egamanlikning chorak asri davomida ham to'laligicha bartaraf etilgani yo'q. O'tmish tuzumning qator illatlaridan qutulish uchun ruhiyati mustaqillik davrida shakllangan avlod yetilishi kerak.

To'g'ri, mamlakatimiz o'z mustaqilligiga erishgan yillarda tug'ilgan farzandlarning oldi bugun o'ttizga kiryapti. Lekin ularning barchasi shaxs sifatida erkinmi? Ular ruhan ozodmi? Ma'naviyati sog'lommi? Mana shu savollar kishini o'ylantiradi. Ruhan mustaqil bo'lgan, o'z haq-huquqini tanigan, ichida «Men»i bor kishilar tomonidan tarbiyalangan bolalargina tom ma'noda mustaqil shaxs bo'lib shakllanishlari mumkin. Chunki o'zi ma'naviy noto'kis, umuminsoniy va milliy qadriyatlardan yiroq, fikran qashshoq odam o'zgalarni aqlan ham, ruhan ham sog'lom qilib tarbiyalay olmaydi. Ya'ni «har qanday tarbiya avval tarbiyachini tarbiyalashdan boshlanishi» kerak.

Shuni alohida ta'kidlash o'rinliki, avlodlarni milliy qadriyatlar asosida ma'nan sog'lom qilib tarbiyalashda badiiy adabiyotning o'рни

beqiyos. Lekin badiiy asardagi kitobxon shaxsiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan jihatlar, matnda aks etgan hayotiy va badiiy haqiqatlarni ilg'ash, ularning ko'ngilni tozalashga xizmat qiladiganlarini topib, o'z tabiatiga singdirish shakllanayotgan shaxsda osonlik bilan kechadigan jarayon emas. Ta'lim-tarbiya tizimida bu kabi murakkab va mas'uliyatli ishlarni amalga oshirish «Adabiyot o'qitish metodikasi» deb nomlanuvchi fan va o'z kasbini yaxshi ko'radigan, yaxshi biladigan o'qituvchining zimmasida.

Ma'lumki, har qanday o'quv predmeti bo'yicha yaratilgan dasturning "Uqtirish xati"da ta'lim mazmuni va uni o'zlashtirishning muhim jihatlariga alohida urg'u beriladi. Unda o'qituvchiga mazkur predmetni o'tish jarayonida alohida e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan o'rinlar ko'rsatib beriladi. O'qituvchilarning ko'pchiligi shu "Uqtirish xati"ni o'qimagan uchun o'quv fanining maqsadi, vazifalari va mazmuniga xos bo'lgan ustuvor jihatlar haqida to'liq tasavvurga ega bo'lolmay qoladi. Albatta, barkamol avlodni shakllantirmoqchi bo'lgan o'qituvchiga "Uqtirish xat"idagi yo'riqlar kamlik qiladi. O'qituvchiga bu yo'nalishda maxsus metodik ko'rsatmalar, dars ishlanmalari va maslahatlar ham kerak.

Mazkur «Adabiyot o'qitish metodikasi» oliy o'quv yurtlarining o'zbek tili va adabiyoti fakultetlari talabalari, ya'ni bo'lajak adabiyot o'qituvchilari uchun bir mayoq darajasidagi yo'lko'rsatkichdir. Unda majburiy ta'lim tizimida adabiyot darslarini uning maqsadiga muvofiq tarzda, imkon qadar samaraliroq tashkil etish uchun zarur bo'lgan bilimlarni qamrab olishga harakat qilingan. Darslikning yutuqlari o'zi bilan, albatta, lekin kamchiliklarini bartaraf etib, uni yanada takomillashtirishda mutaxassis va amaliyotchilarning xolis fikr-mulohazalari katta yordam beradi.

Qo'llanma takomillashtirilib, o'quv jarayonidagi barcha nozik jihatlarini imkon qadar hisobga oladigan holatga keltirilishi maqsadga muvofiq, albatta. Chunki u respublika ta'lim muassasalarida faoliyat yuritadigan minglab bo'lajak o'qituvchilar faoliyatini tashkil etishga asos bo'ladigan manbadir. U qanchalar mukammal bo'lsa, millatning ma'naviy kamolotini ta'minlash ishi shuncha badastir bo'ladi. Shu boisdan bu borada aytilgan har qanday fikr, taklif va mulohazalar, albatta, o'ylab ko'riladi, lozim topilganlari inobatga olinadi.

Hurmatli talabalar! Mazkur darslikdagi mavzular bo'yicha tuzilgan savol-topshiriqlar Sizlardan o'qiganlaringizni so'zma-so'z takrorlashni emas, balki barcha o'quv fanlari bo'yicha o'zlashtirgan

bilimlaringizga tayangan holda o'ylab ko'rib, o'z mustaqil fikringizni aytishni nazarda tutgan holda tuzilgan. Yana shuni ham ta'kidlash joizki, mavzular bo'yicha taqdim etilgan savol va topshiriqlar zimmasiga matn mazmunida siz bilishingiz, nafaqat bilishingiz, balki bo'lajak adabiyot o'qituvchisi sifatida ongingiz hamda ruhiyatingizga joylab olishingiz shart bo'lgan jamiki muhimlarga sizning e'tiboringizni qaratish yuki ortilgan. Ertangi amaliy faoliyatingizda sizga suv bilan havodek zarur bo'ladigan muhim jihatlarni nazaringizdan chetda qolib ketishiga yo'l qo'ymaslikka harakat qilingan. Ularning barchasiga, hamma birdek javob bera olmasligi ham mumkin, bu shart ham emas, albatta. Chunki Xudoning har bir yaratig'i o'z qobiliyati va qiziqishlari, o'z iqtidori va intellektual imkoniyatlariga ega. Hammadan bir xil bilim talab qilish aqlli ish emas. Har kim aqli yetganicha ish tutadi. Gap shundaki, bilimli, o'z yurti va millatining kelajagi uchun og'riydigan, O'zining ham shaxs, ham o'qituvchi sifatida ma'naviy kamolotini ta'minlashga yuz tutgan Shaxslar o'rtachalarning qurboni bo'lib qolmasligi uchun shu murakkab yo'l tanlandi. Mukammallik sari intilgan talabalar ularning barchasiga javob berishga intilishlari, o'zlarini sinab ko'rishlari tabiiy, albatta. O'zingizni kuzating-a, berilgan savol-topshiriqlarning mohiyatiga kirib ularga o'z bilimingiz, saviyangiz va dunyoqarashingizdan kelib chiqib javob berganingiz sari ma'nan ko'tarilayotganingizni his qilasiz. Bu jarayonda sizga oq yo'!!!! To'g'ri tushunganingiz uchun rahmat!

Savol va topshiriqlar:

1. Nima deb o'ylaysiz, Siz millat ertasini ta'minlaydigan yosh avlodni tarbiyalashga ruhan qodirmisiz? Shunday mas'uliyatni zimmangizga ola bilasizmi? Fikringizni asoslang.

2. Ruhiyatingizga bir nazar tashlab ko'ring-chi, tabiatiningizda tanlagan kasbga, bo'lajak o'quvchilaringizga muhabbat mavjudmi? Aks holda, nima qilishingiz kerak deb o'ylaysiz?

3. O'zingizning o'quvchilik davringizni xotirlang - nimalardan qoniqmagansiz: shaxs sifatida o'qituvchingizdanmi, o'quv ashyosi sifatida darsliklardanmi? Fikringizni asoslang. Adabiy ta'limda qanday o'zgarishlar qilgan bo'ladingiz?

4. Mazkur darslikni shakllanayotgan bir o'qituvchi sifatida kuzatib boring. Yutuq va kamchiliklarini kashf etgan joyingizda, kitobning hoshiyasiga yozib boring. Bir kun uchrashib, fikrlashamiz.

I-MAVZU. ADABIYOT O'QITISH METODIKASINING UMUMNAZARIY MASALALARI

Reja:

1. *Adabiyot o'qitish metodikasining pedagogika tizimiga mansub mustaqil fan ekanligi.*
2. *Adabiyot o'qitish metodikasining umumnazariy masalalari.*
3. *Adabiyot o'qitish metodikasining obyekti va predmeti.*
4. *Adabiyot o'qitishning maqsadi va vazifalari.*
5. *Adabiyot o'qitishning dolzarb muammolari.*
6. *Badiiy matnning didaktik tahlili namunasi.*

“Adabiyot o'qitish metodikasi” pedagogik fanlar tizimiga mansub o'laroq, ilmning alohida turi bo'lish uchun qo'yiladigan uch talabning barchasiga¹ javob bera oladi. Birinchidan, adabiyot o'qitish metodikasi o'rganadigan soha ilmdagi boshqa biror o'quv fani tomonidan o'rganilmaydi. Ikkinchidan, mazkur fan ishlaydigan soha, ya'ni adabiy ta'limning har bosqichi (maktabgacha, boshlang'ich, o'rta, yuqori va oliy ta'lim)da badiiy asarlar ustida ishlashning optimal va samarali yo'llarini tadqiq etish, adabiy ta'limning nazariy asoslarini ishlab chiqish ulkan ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Uchinchidan, adabiyot o'qitish metodikasi fan sifatida o'ziga xos tadqiqot obyekti, predmeti, maqsad-vazifalari, mazmuni va usullariga ega.

Adabiyot o'qitish metodikasi badiiy adabiyotni o'qitish jarayoni bilan bog'liq qonuniyatlarni o'rganadi. Unda adabiyotshunoslik bilan pedagogikaning ayrim xususiyatlari uyg'unlashadi. Ya'ni adabiyotshunoslik alohida fan sifatida adabiyot tarixi, nazariyasi va adabiy jarayon muammolari bilan shug'ullansa, pedagogika bola tarbiyasi qonuniyatlari bilan mashg'ulligi ma'lum.

Ammo bu ikkala fan ham uzluksiz ta'lim jarayonida adabiyotdan nimani va qanday o'qitilishi kerakligi masalasini hal qilib bera olmaydi. Adabiyot o'qitish metodikasi ilmi har ikki fan xususiyatlarini o'zida mujassamlashtiradi.

Ma'lumki, inson dunyoga kelishi bilan adabiyotga oshno bo'ladi. Ya'ni, ilk kunlardan oq uning qulog'i orqali ruhiyatiga ona allasi kirib

¹Адабиёт ўқитиш методикаси. (Педагогика институтлари ва университетларнинг филология факультетлари учун дастурий қўлланма). Тузувчилар: К. Йўлдошев, О. Мадаев, А. Абдураззоков. – Т.: РТМ, 1994. 11–12-бетлар.

boradi. Alla – adabiyot. Inson o‘ziga belgilab berilgan umrni yashab o‘tarkan, uni so‘nggi yo‘lga kuzatishda yaqinlarining yo‘qlov yig‘isi, marsiyalar yo‘ldoshlik qiladi. Bu ham adabiyot.

Demak, adabiyot insonning butun umri davomida unga hamrohlik qiladi. Lekin shu narsa ham ayonki, ertaklarni eshitib qo‘ya qolish, she‘rlarni yodlash yoki topishmoqlarni topish odam ma‘naviy kamolotiga o‘zidan-o‘zi to‘liq ta‘sir ko‘rsata olmaydi.

Adabiyot bilan ishlash yo‘llariga, ya‘ni adabiyot o‘qitish metodikasiga ota-ona ham, tarbiyachi ham, o‘qituvchi ham o‘ziga xos tarzda ehtiyoj sezadi.

Odamning ko‘ngliga – undagi Allohning mulkiga ijobiy tuyg‘ularni olib kiradigan, ruhiyatini sog‘lomlashtiradigan, ma‘naviyatini tozalaydigan adabiyotdan to‘g‘ri foydalanishni ham bilish kerak.

Bu – pedagogika. Badiiy adabiyotdan to‘g‘ri foydalanish shakllanib kelayotgan shaxsning ma‘naviy kamoloti garovidir. Ko‘rinadiki, adabiyot bilan ishlash metodikasining mavqei inson kamoloti uchun adabiyotning o‘zidan ortiq bo‘lsa ortiq, lekin kam emas.

Inson o‘z umrining turli bosqichlarida jisman ham, ruhan ham, aqlan ham turlicha taraqqiy topishi, har birining o‘ziga xos tarzda rivojlanishi psixologiya ilmida isbotlangan.

Ayni zamonda, har davrda inson o‘ziga xos mazmundagi adabiyotga ehtiyoj sezadi. Masalan, hayotining maktabgacha bo‘lgan bosqichida har qanday bola ma‘naviyatini sog‘lomlashtirishda maktabgacha adabiy ta‘limning o‘ziga xos o‘rni bor.

Tarbiyachi tomonidan adabiyotni to‘g‘ri idrok etishga yo‘naltirilgan bola diqqat bilan eshitishga, eshitganlarini uqib olishga, mustaqil ishlashga, o‘zgalarning fikrlarini ilg‘ashga, o‘zi va boshqalarning tuyg‘ular olamini kuzatishga, o‘zgani tuyishga o‘rgana boradi. Olamni, Odamni va O‘zligini kashf qila boshlaydi. O‘z ichki “men”ining shakllanishida o‘zi bevosita ishtirok etadi.

Shu ma‘noda, badiiy asarlar ustida ishlashga bag‘ishlangan mashg‘ulotlarda taqdim etilgan o‘quv materiallari mazmunan ta‘lim-tarbiya jarayoni oldiga qo‘yilgan maqsadlarga mutanosib bo‘lishi taqozo etiladi.

Ya‘ni maktabgacha ta‘lim muassasalari tarbiyalanuvchilari bilan birgalikda ishlash uchun mo‘ljallangan har qanday badiiy asar o‘quv

materiali sifatida o'z mazmun-mohiyati, didaktik xususiyatlari bilan har xil guruhlardagi eng bilag'on tarbiyalanuvchidan ham bir pog'ona balandda turishi, shu bola ham o'quv materiali ustida ishlaganda o'zi uchun qiziqarli ma'lumotlarni olishi, ma'lum maqsadlarga erishishda bu o'quv materiali tayanch vazifasini o'tashi maqsadga muvofiqdir. Bu maktabgacha adabiy ta'limning vazifasi.

Bola maktabgacha ta'limni yakunlab maktabning boshlang'ich bosqichiga o'qishga kirganda uning nafaqat jismoniy, balki ruhiy-ma'naviy taraqqiyotida ham katta o'rgarish sodir bo'ladi. U o'qituvchisini eng bilag'on shaxs hisoblaydi.

O'qituvchisining aytganlariga so'zsiz quloq osish, ishonish, unga o'xshashga intilish – boshlang'ich sinf o'quvchilariga xos bo'lgan umumiy xususiyat. Boshlang'ich sinf o'quvchisi uchun o'qituvchi – eng buyuk shaxs. U o'qituvchisi talablariga ixtiyoriy ravishda, astoydil bo'ysunadi.

Kichik o'quvchilarning ko'pchiligi o'qituvchisi aytganlarini quloq qoqmay bajaradi va doimiy ravishda uning ko'rsatmalarini kutishga moyil bo'ladi.

O'qituvchi qanday va nimani o'qitishidan qat'i nazar, uni bilib olish kerak deb hisoblaydi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari nazarida o'qish – ko'r-ko'rona ijrochilik, o'qituvchisiga taqlid, ustoz aytganlarini takrorlashdan iboratday tuyuladi. Mazkur davr pedagogik jihatdan bolada insoniy sifatlarni shakllantirishda o'qituvchi uchun eng qulay bosqich sanaladi. Va bu bosqichda ham adabiyotning o'z beqiyos o'rimi bor. Undan maqsadga muvofiq foydalanishni bilish, ya'ni boshlang'ich adabiy ta'limni to'g'ri tashkil eta bilish o'qituvchining pedagogik burchidir.

Ko'rinadiki, adabiyot o'qitish kechimi ta'limning har bosqichida o'z ish faoliyatiga ega bo'lgan, o'ziga xos yondashuvni talab qiladigan uzluksiz va uzviy jarayondir.

Adabiyot o'qitish metodikasi alohida fan sifatida maktabgacha ta'lim uchun ham, boshlang'ich sinflar uchun ham, o'rta, yuqori va oliy ta'lim uchun ham zarur hisoblanib, uning o'z obyekti va predmeti, maqsad va vazifalari, mazmuni va metodlarini aniqlab olish zarur. Bizgacha yaratilgan soha darsliklariga tayangan holda "Adabiyot o'qitish metodikasi" fanining **obyektini uzluksiz ta'lim tizimidagi adabiyot darslari**, deya ko'rsatish mumkin.

Mazkur fanning **predmeti** esa *uzluksiz ta'lim tizimida badiiy*

adabiyotning o'qitilishiga doir didaktik ashyolar va qonuniyatlar hamda badiiy asarni o'rganishda o'qituvchi-o'quvchi munosabatlaridagi hamkorlik jarayonidir.

«Adabiyot o'qitish metodikasi» fanining **maqsadi** adabiyot o'qituvchisining kasbiy kompetentligini shakllantirish, unga yoshlar ma'naviyatini qaror toptirishda badiiy asarning ta'sir kuchidan oqilona, optimal (eng oson, qulay, ma'qul) va samarali foydalanish yo'llarini o'rgatishdan iborat.

Adabiyot o'qitish metodikasi fani adabiyot darslarining ta'lim muassasalarida o'rganiladigan boshqa o'quv fanlaridan farqini ko'rsatish; adabiy ta'limdagi an'anaviy va novatorlik yondashuvga xos jihatlarni o'rganish; pedagoglarda adabiy ta'lim uchun optimal variantlarni belgilashda zarur bo'ladigan ko'nikmalarni shakllantirish; adabiyot darslarida o'qituvchi va o'quvchi faoliyati hamda ularning o'zaro munosabatidagi o'ziga xosliklar bilan tanishtirish singari vazifalarni o'z ichiga oladi.

Shundan kelib chiqiladigan bo'lsa, “Adabiyot o'qitish metodikasi” fanining **vazifalari** o'qitish jarayonida ta'limning samarali metod va usullaridan foydalanish yo'llarini o'rgatish, badiiy asar tahlilida o'quvchi ma'naviyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan jihatlarni ochish hamda undan maqsadga muvofiq tarzda foydalana bilishga yo'naltirishdan iborat.

“Adabiyot o'qitish metodikasi” fanining **mazmuni** ta'lim texnologiyalari, metodlari, usullari, shakllari va ularning o'ziga xos xususiyatlari, badiiy asar bilan bog'liq nazariy hamda didaktik tushunchalar, adabiy matn bilan ishlash jarayonida o'qituvchi-o'quvchi munosabatlaridagi xususiyatlar, ularning faoliyatini to'g'ri tashkil etish yo'llarini o'z ichiga oladi. «Adabiyot o'qitish metodikasi» fanining **ilmiy-tadqiqot metodlari** qatoriga:

– fanga doir ma'lumot yig'ishning aniq maqsadga yo'naltirilganligi;

– ilg'or tajribalarni o'rganish, tahlil qilish va ommalashtirish, ta'lim hujjatlarini tahlil qilish, o'qituvchi hamda o'quvchilar bilan individual suhbatlar tashkil etish kabilarni o'z ichiga oladigan kuzatish;

– sinalmagan pedagogik hodisalarni har xil sharoitlarda o'rganish maqsadida qo'yilgan ilmiy tajriba ko'rinishidagi eksperiment;

- ma'lum maqsadga yo'naltirilgan, aniq sharoit va tartibda o'tkaziladigan, o'quvchilarning ta'limiy hamda rivojlanish darajasini aniq o'lchaydigan tekshiruv tizimi bo'lmish test;

- ma'lumotlarni oldindan maxsus tayyorlangan savollar va anketalar ko'magida yalpi tarzda yig'ish shaklidagi anketa so'rovnomalari; ta'lim jarayonining son ko'rsatkichlari aniqlanishiga yo'naltirilgan statistik tahlil; metodik merosni tanqidiy o'rganish; o'quvchi ijodi namunalarini o'rganish va hk.larni kiritish mumkin.

Talabalar «Adabiyot o'qitish metodikasi» kursini to'la o'zlashtirsalar, adabiy ta'limning metod va usullari haqida to'liq bilimga ega bo'lishlari, har qanday badiiy matnni ham ilmiy-filologik, ham didaktik, ham o'quvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda tahlil eta olishlari, adabiyot darslarini samarali tashkil eta bilishlari, o'quvchilar bilan professional muloqotga kirisha olishlari mumkin bo'ladi.

Ya'ni talabalar:

- ona tili va birorta chet tilda shaxslararo hamda madaniyatlararo masalalar yuzasidan og'zaki va yozma ravishda kommunikativ aloqaga kirisha olishlari;

- jamoa bilan ishlashda ularga xos bo'lgan ijtimoiy, etnik, madaniy va diniy tafovutlarga bag'rikenglik bilan yondasha olish malakasini egallagan bo'lishlari;

- filologik yo'nalishdagi ilmiy bilimlarni o'zlashtirish jarayoniga oqilona rahbarlik qilish ko'nikmasini egallashlari;

- maktab yoki boshqa ta'lim muassasalarida adabiyotdan sinfda va sinfdan tashqari ishlarni tashkil eta bilishlari;

- adabiyot mashg'ulotlarini mavjud ilg'or metodlar asosida tashkil qilish uchun zarur bo'lgan o'quv-metodik materiallarni tayyorlash ko'nikmasini egallagan bo'lishlari;

- o'quvchilarga filologik, didaktik ta'lim berish va tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish malakasiga ega bo'lishlari;

- professional faoliyatlarida har bir o'quvchi shaxsiga xos bo'lgan individual xususiyatlarni bilish va adabiy ta'lim amaliyotida qo'llay olish ko'nikmalarini egallagan bo'lishlari talab qilinadi.

Xulosa qilib aytganda, adabiyot o'qitish metodikasi ilmi adabiyot bilan ishlashning har bosqichida o'ziga xos ish uslubini talab qiladigan, o'zining ilmiy unsurlariga ega bo'lgan alohida fandır.

Badliy matnning didaktik tahlili namunasi

“Maqollar” mavzusini muammoli o‘rganish

5-sinflar «Adabiyot» darsligi¹da taqdim etilgan xalq og‘zaki ijodi namunalari, xususan, «Maqollar» mavzusini (1 soat) **muammoli o‘rganish** xususida gapirib shuni aytish mumkinki, o‘qituvchi darsga tayyorlanish jarayonida bir qator maqollarni ajratib olishi va ularning mazmuni asosida muammoli vazifalar tayyorlashi taqozo etiladi. Chunki darslikda to‘qsonga yaqin maqol taqdim etilgan va bir soat moboynida ularning barchasini sharhlab o‘rganish, didaktik tahlilga tortish aslo mumkin emas.

Maqollar ustida ishlashga ajratilgan adabiyot darsida ularni o‘rganishga quyidagi talqin asosida yondashish taqozo etiladi: *“Maqollar xalq og‘zaki adabiyoti namunasi sifatida. Maqollarda xalq milliy tafakkuri qaymog‘ining aks etishi. Maqollarning shakliy tuzilishi, ularga xos qisqalik, ta’sirchanlik, teranlik kabi xususiyatlar haqida ma’lumot. Maqollarning kishilarni ezgu insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalash vositasi ekanligi. Maqollarning mavzu doirasi. Vatanparvarlik, do‘stlik, ilm va kasb-hunar, oila, odob, tarbiya haqidagi maqollar”*². Chunki bu talqin adabiy ta’limning umumiy maqsadi asosida belgilangan.

Ma’lumki, adabiyot darslarida o‘rganish uchun taqdim etilgan har qanday asar – u ertak yoki doston bo‘ladimi, maqol yoki matal bo‘ladimi, didaktik tahlilga tortilmas, mazmun-mohiyatiga kirilmas, o‘quvchilar orasida muhokama qilinmas ekan, ularning samaradorlik darajasi hamisha past bo‘ladi. Ularni shunchaki o‘qib qo‘ya qolish o‘quvchi ma’naviyatiga minimal darajadagi ozuqani beradi. Shu bois, o‘qituvchi har xil yo‘nalishdagi bir nechta maqolni ajratib olgani va ularning ustida ishlash uchun har birining mazmuni asosida muammoli savol yoki muammoli topshiriq tayyorlashi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Masalan:

I. Birni ko‘rib, fikr qil, Birni ko‘rib, shukur qil.

Muammo: *“Fikr qilmaslik va shukur qilmaslik oqibati nima*

¹ Ahmedov S. va boshq. Adabiyot. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. I qism. Uchinchi nashr. – T.: «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2015. – 176 b.

² Умумий урта таълим мактабларининг 5–9-синфи учун адабиётдан ўқув дастури. – Т.: РТМ, 2017. – 9-б.

bo'lishi mumkin?"

O'quvchilarni muammoning yechimi sari yo'naltiruvchi mantiqiy savol va topshiriqlar:

1. "Fikr qilish"ni qanday tushunasiz? U qanday amalga oshiriladi?
2. Nima uchun odam fikr qilishi kerak deb o'ylaysiz?
3. "Birni" deganni qanday tushundingiz? Bu "bir" nima yoki kim?
4. "Shukur qilish", Sizningcha qanday bo'ladi?
5. Kimga va nima uchun shukur qilinadi deb o'ylaysiz?

II. Izzat tilasang, ko'p dema, Sihat tilasang, ko'p yema.

Muammo: *«Ko'p deyish va izzat bilan ko'p yeyish va sihatning bir-biriga qanday aloqasi bor?»*

O'quvchilarni muammoning yechimi sari yo'naltiruvchi mantiqiy savol va topshiriqlar:

1. Sizningcha, izzat nima? "Sihat"ni qanday tushundingiz?
2. "Ko'p dema"ni o'z so'zlaringiz bilan tushuntirib bering.
3. Ko'p gapirishning odam izzat-hurmatiga qanday zarari bo'lishi mumkin deb o'ylaysiz?
4. Ko'p ovqat yeyishning salomatlikka qanday zarari bo'lishi mumkin, nima deb o'ylaysiz?
5. Nima deb o'ylaysiz, izzat-hurmat va salomatlikning inson shaxsi hamda hayoti uchun qanday ahamiyati bor? Ular bo'lsa nimaga erishiladi-yu bo'lmasa odam nima yo'qotadi?

III. Oltovlon ola bo'lsa, Og'zidagini oldirar. To'rtovlon tugal bo'lsa, Tepadagini endirar.

Muammo: *«Og'zidagini oldir»ish bilan «Tepadagini endir»ishning odam uchun ahamiyati nimada?»*

O'quvchilarni muammoning yechimi sari yo'naltiruvchi mantiqiy savol va topshiriqlar:

1. Nima deb o'ylaysiz, "oltovlon" deganda nima nazarda tutilayotgan bo'lishi mumkin?
2. "Ola bo'lish" haqida o'ylab ko'ring. Uni qanday tushundingiz?
3. Sizningcha, "og'zidagi" degani nima degani?
4. "To'rtovlon" deganda, Sizningcha, nima haqida gap ketyapti?
5. "Tepadagi" so'zini qanday tushundingiz? "Endirmoq" so'zi

nimani anglatishini bilasizmi?

6. “Tepadan enish” haqida eshitganmisiz? Fikringizni sharhlab, o‘rtoqlaringizga tushuntirib bering.

IV. Do‘st achitib gapirar, dushman – kuldirib.

Muammo: «*Achitib gapirgan do‘stdan kuldirib gapirgan dushman yaxshi*». O‘quvchilarni muammoning yechimi sari yo‘naltiruvchi mantiqiy savol va topshiriqlar:

1. “Achitib gapirish”ni qanday tushunasiz?

2. Do‘st, Sizningcha, o‘zi sizga do‘st bo‘lsa, nima uchun achitib, dilingizni og‘ritib gapiradi?

3. Dushman sizga do‘st bo‘lmasa ham sizni kuldirib, yaxshi gapiradi. Buning tagida qanday haqiqat yashiringan bo‘lishi mumkin, nima deb o‘ylaysiz?

4. Nima deb o‘ylaysiz, bu maqolni tuzgan xalq mana shu haqiqatni bilmaydimi? Yoki bu fikrning tagida biz bilmaydigan boshqa bir kuchli haqiqat bormi? O‘ylab ko‘ring.

5. Har ikkalasi (do‘st bilan dushman)dan qaysi birining gapi siz uchun foydali deb o‘ylaysiz? Nega bunday xulosaga keldingiz?

V. Yaxshi bilan yursang, yetarsan murodga. Yomon bilan yursang, qolarsan uyatga.

Muammo: “*Murodga yetish*” nima uchun muhim-u “*uyatga qolish*” nimasi bilan yomon? Har ikkalasi siz uchun qanchalar ahamiyatli?”

O‘quvchilarni muammoning yechimi sari yo‘naltiruvchi mantiqiy savol va topshiriqlar:

1. Nima deb o‘ylaysiz, “yaxshi” kim? Uning yaxshiligini nimalarda ko‘rish mumkin, Sizningcha?

2. “Murodga yetish”ni qanday tushunasiz? Odam murodiga yetmasa, nima bo‘ladi, Sizningcha? Bu yaxshimi yomonmi? Nima uchun?

3. “Yomon”ning sifatleri nimalardan iborat? Nega u bilan yursangiz uyatga qolishingiz mumkin?

4. Nima deb o‘ylaysiz, yaxshi bilan yomonni qanday aniqlash mumkin?

VI. El qo‘risang, o‘zarsan, Qo‘rimasang, to‘zarsan.

Muammo: “Elni qo‘rish yoki qo‘rimaslikning sizga qanday aloqasi bo‘lishi mumkin?”

O‘quvchilarni muammoning yechimi sari yo‘naltiruvchi mantiqiy savol va topshiriqlar:

1. Sizningcha “el” kim? Elni “qo‘rish”ni qanday tushunasiz?
2. Elni qo‘rish bilan sizning hayotda o‘zib ketishingizda qanday aloqa bo‘lishi mumkin, nima deb o‘ylaysiz?
3. “To‘zish”ni qanday tushunasiz? Buning odamga qanday aloqasi bo‘lishi mumkin?
4. Bu to‘zish bir sizga aloqadormi yoki butun elga tegishli bo‘lishi mumkinmi?
5. El to‘zib ketsa, nima bo‘ladi? Siz buni qanday tushunasiz?
6. To‘zib ketgan ellar haqida nima bilasiz?

VII. Yeridan ayrilgan yetti yil yig‘lar, Elidan ayrilgan o‘lguncha yig‘lar.

Muammo: “Yer – Vatan – El. Odam uchun qay biri muhim?”

O‘quvchilarni muammoning yechimi sari yo‘naltiruvchi mantiqiy savol va topshiriqlar:


1. “yeridan ayrilish”ni qanday tushunasiz? Bu so‘z maqolda o‘z ma‘nosida ishlatilyaptimi yoki ko‘chma ma‘nodami? Fikringizni asoslang.
2. “Yer” so‘zi ko‘chma ma‘noda nimani anglatadi, bilasizmi?
3. Eldan ayrilish bilan Vatandan ayrilishning bir-biridan farqi bormi? Bor bo‘lsa, nimada?
4. Har ikkalasidan ayrilishni qanday tushunasiz? Bu ayriliqning o‘lim bilan qanday aloqasi bo‘lishi mumkin?

VIII. Olim bo‘lsang, olam seniki!

Muammo: “Odam”. “Olam”. “Olim”. Bu uchala tushunchalarning sizga qanday aloqasi bor?

O‘quvchilarni muammoning yechimi sari yo‘naltiruvchi mantiqiy savol va topshiriqlar:

1. “Olim bo‘lish”ni qanday tushunasiz?
2. “Odam bo‘lish” deganda nimani tushunasiz? Odamlikka qo‘yilgan mezonlar haqida o‘ylab ko‘ring.
3. Olim bo‘lish osonmi, odam bo‘lishmi? Har ikkalasining mezonlari qachon va kim tomonidan qo‘yilgani haqida o‘ylab ko‘ring.



4. Nima deb o'ylaysiz, siz uchun olim bo'lish muhimmi, odam bo'lishmi? Nega shunday deb o'ylaysiz?

5. Nima, olim bo'lish yomonmi? Unda nega bu maqolda olimlik ilgari surilyapti?

6. Olam odam uchun muhimmi, olim uchunmi? Bu muhimlik, Sizningcha nimadan iborat?

7. "Olam seniki"ni qanday tushundingiz? Olam sizga kerakmi? Nima uchun?

IX. Hunarli kishi xor bo'lmas.

Muammo: *"Hunarli" va "O'qimishli". Har ikkala tushunchadan qaysi biri odam uchun muhim?*

O'quvchilarni muammoning yechimi sari yo'naltiruvchi mantiqiy savol va topshiriqlar:

1. Nima deb o'ylaysiz, hunar nima?

2. "Xorlik"ni qanday tushunasiz?

3. O'qimishli odam ham xor bo'lishi mumkinmi? Nima uchun?

4. "Hunarli" va "O'qimishli" odamga misol keltiring.

5. Siz qay birini tanlaysiz? Nima uchun?

X. Bilmam, Mavlo naylar, Naylasada go'zal aylar.

Muammo: *"Mavlo (Alloh)ning go'zal bo'lmagan ishlari zamiridagi go'zallik nimadan iborat? Bu go'zal bo'lmagan go'zallikning sababchisi kim yoki nima?"*

O'quvchilarni muammoning yechimi sari yo'naltiruvchi mantiqiy savol va topshiriqlar:

1. "Naylar" so'zini qanday tushundingiz?

2. Allohning bandalar yaxshi tutumlarini rag'batlantirishi sababi nimada deb o'ylaysiz?

3. Noto'g'ri xatti-harakatlar uchun jazolanishning sababi nimada, Sizningcha? Bu ham Allohning go'zal tutumimi? Uning go'zalligi nimada deb o'ylaysiz?

4. Yaratuvchi qudratning rag'bati ham, jazosi ham nima uchun go'zal baholanishi haqida o'ylab ko'ring.

Amaliy faoliyatda, ya'ni dars jarayonida o'quvchilarga muammo va uning mazmun-mohiyati haqida ma'lumot berishning hojati yo'q. Beshinchi sinf yoshidagi o'quvchilar uchun buning ahamiyati ham,

qiziqi ham yo'q. O'qituvchi maqolni o'qib uni xattaxta (yoki ekran)da namoyish etadi va maqol matni mazmuni yuzasidan yuqorida taqdim etilgan savol-topshiriqlar ustida suhbat tashkil etadi. Suhbat oxirida maqol mazmuni yuzasidan tuzilgan muammoli savolni o'rtaga tashlab bu borada o'quvchilarning fikrlari so'raladi. Har bir sinfda har bir o'quvchi o'z imkoniyati doirasida muammo atrofida mulohaza yuritadi, o'z fikr-munosabatiini aytadi. O'qituvchi rahbarligida fikrlar umumlashtirilib masalaning yechimi topiladi. Sinflar yuqorilab borilgani sari o'qituvchining bunday umumlashtiruvchi faoliyatiga o'rin qolmaydi. Chunki har bir o'quvchi o'z fikri va xulosasida qolishi kerak. Adabiy ta'lim uchun bu juda muhim natija hisoblanadi.

Savol va topshiriqlar:

1. Adabiyot o'qitish metodikasi fan sifatida ilmning alohida turi bo'lish uchun qo'yiladigan talablarga javob bera olishini bildingiz va bu talablar bilan tanishdingiz. Aytinch, ularni qanday tushundingiz? Mavzu bilan tanishish asnosida anglaganlaringizni o'z so'zingiz bilan, misollar keltirgan holda ifodalab bering.

2. Adabiyot o'qitish metodikasi fanining adabiyotshunoslik va pedagogika fanlaridan farqli jihatlarini bir asar misolida sharhlab tushuntirib bering.

3. Mazkur fanning predmetini qayta o'qing. Undagi: "*badiiy adabiyotning o'qitilishiga doir didaktik ashyolar va qonuniyatlar*"ni qanday tushundingiz? Fikringizni asoslang.

4. «Adabiyot o'qitish metodikasi» fanining maqsadiga e'tibor qiling: "... o'qituvchi va tarbiyachining kasbiy kompetentligi" deganda nimalarni angladingiz? "Umumiy pedagogika" kursidan olgan bilimlaringizga tayanib javob bering. Bu gap sizga qanchalik daxldor deb o'ylaysiz?

5. Adabiyot o'qitish uchun: "*yoshlar ma'naviyatini qaror toptirishda badiiy asarning ta'sir kuchidan oqilona va samarali foydalanish*"ning ahamiyatini qanday tushundingiz? Fikringizni kursdoshlaringiz bilan bo'lishing.

6. Ushbu fanning zimmasiga ortilgan vazifalarga e'tibor qiling: "*...badiiy asar tahlilida o'quvchi ma'naviyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan jihatlar*", Sizningcha, nimalardan iborat bo'lishi mumkin? Fikringizni bir asar misolida asoslashga urinib ko'ring.

7. Adabiyot darslarida badiiy bitiklardan: "*...maqsadga muvofiq*

tarzda foydalana bilish”, Sizningcha nimani anglatadi? Qanday maqsad nazarda tutilayotgani haqida o‘ylab ko‘ring.

8. “Adabiyot o‘qitish metodikasi” fanining mazmunida aks etgan: “...*matn bilan ishlash jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatini tashkil etish*” masalasini qanday angladingiz? Bu faoliyatning bir qismi bevosita Sizga daxldor ekaniga diqqat qilgan holda “subyekt-obyekt” va “subyekt-subyekt” munosabatlarini pedagogik bilimlaringiz asosida sharhlang. Fikrlaringiz borasida kursdoshlaringiz bilan maslahatlashing.

9. Talabaga, ya’ni Siz – bo‘ljak o‘qituvchiga qo‘yilayotgan talablarga diqqat qiling. Ular orasida sizning qo‘lingizdan kelmaydiganlari bormi? O‘zingizda ularning barchasini egallashga moyillikni his qilyapsizmi? Aks holda nima qilish kerak deb o‘ylaysiz?

10. O‘rganish uchun taqdim etilgan har bir maqol mazmuni yuzasidan taklif etilgan muammolarning yechimi ustida mulohaza yuriting. Bu yo‘nalishdagi savollarga javob bering. O‘zingizni sinab ko‘ring.

11. Berilgan o‘nta maqolni oddiy didaktik tahlilga tortgan holda o‘rganish yo‘llarini tavsiya eting. Qay birida samaradorlik kuchli ekanini aniqlang. Fikringizni misollar bilan isbotlang. Auditoriyada birgalashib muhokama qiling.

12. “Men tanlagan kasb va unga munosabatim” mavzusida esse yozing. O‘qituvchilik kasbi, unga muhabbat, o‘qituvchilik burchi va mas’uliyati kabi masalalar ruhiyatingizda qanchalik o‘rin egallaganligi haqida yozma mulohaza yuriting.

2-MAVZU. ADABIYOT O'QITISH METODIKASI ILMI TARIXI VA SHAKLLANISH TARAQQIYOTI

Reja:

1. *Adabiyot o'qitish metodikasining tarixi va shakllanishi.*
2. *Adabiyot o'qitish metodikasi fanining o'tmishdagi buyuk allomalar, mudarris olimlarning qarashlariga tayanishi.*
3. *Metodik fikrlar tarixining o'zbek xalqi va millat adabiyoti taraqqiyoti bilan bog'liqligi.*
4. *Fanning mustaqillik davridagi rivojlanish tamoyillari.*
5. *Badiiy matnning didaktik tahlili namunasi.*

Adabiyot o'qitish metodikasi fanining tarixi haqida gapirib shuni aytish mumkinki, insoniyat tarixida og'zaki va yozma adabiyot paydo bo'lgandan buyon uni odamlar ruhiyatiga ta'sir qila oladigan darajaga yetkazish bilan bog'liq muammolar haligacha o'zining to'liq yechimini topganicha yo'q.

Xususan, o'zbek adabiyotini o'qitish nazariyasi hamda metodikasi tarixi haqida gapirilarkan, uni yaqin-yaqinlargacha ham, asosan, rus inqilobi bilan bog'liq holda talqin va targ'ib etilganini ta'kidlab o'tish joiz. Aslida, turkiy xalqlarda adabiyot o'qitish bilan bog'liq masalalar juda qadim zamonlarga borib taqaladi. Adabiyotlarga tayanib bu muammoning boshi O'rxun-Enasoy yodgorliklarida o'z aksini topgan, deyish mumkin. Adabiyot va badiiy so'zning mohiyatiga kirish masalalari Sharq xalqlari, jumladan, o'zbek xalqi hayotida har doim juda katta ijtimoiy-ma'naviy ahamiyatga ega bo'lib kelgan.

Masalan, O'rta Osiyoning ulug' mutafakkiri Abu Nasr Forobiy ovoz va nutqning tarbiyaviy ahamiyatiga alohida e'tibor berib, «Ilmlarning kelib chiqishi» («Ixso ul-ulum») nomli risolasida badiiy asarni ifodali o'qish, o'qiganini hikoya qilib berish zo'r san'at ekanini alohida ta'kidlagan. Uningcha, hikoyachilik san'atini yaxshi egallagan kishilar «hakim» deyiladi. O'qish va notiqlik san'atini chuqur egallagan shaxslar esa faylasuflar, donishmandlar bilan tenglashtiriladi.

Qomusiy olimlardan yana biri Abu Ali Ibn Sino badiiy asarning inson ruhiyatiga ta'siri haqida gapirib, g'azal eshitilganda ko'ngil kishilarining ahvoli shodlik va kulguga yoki g'amginlik va yig'iga

moyil bo'lishini, ayniqsa, judolik va hajr tilga olinganda bu holatlar ortishini alohida ta'kidlaydi.

Abu Rayhon Beruniy ham "Avesto", arab adabiyoti, «Kalila va Dimna» va hind adabiyotiga oid ko'plab asarlarni tahlil qilib ularni, qiyoslarkan, kitobxonni ulardan o'rnak va namuna olishga chaqiradi.

Mahmud Qoshg'ariyniig "Devonu lug'otit turk" asarida ham alohida, birgalashib va ko'plashib o'qish haqida qarashlar mavjudligini ko'rish mumkin.

Yusuf Xos Hojib ham o'z bitiklarida so'z va uning ma'nolariga alohida to'xtalib o'tgan. U badiiy so'zni «*muqaddas hodisa*» deb biladi. Insonning aql-u zakovati shu hodisalarni ajrata olishida namoyon bo'lishini ta'kidlaydi. So'z va u tashiydigan ma'nolarni bilish uchun tarbiyalanuvchi bunga yo'naltiruvchi shaxsga ehtiyoj sezishini aytadi. Ko'rinadiki, hamma zamonlarda ham badiiy so'z va uning tahliliga zarurat bo'lgan.

Alisher Navoiy, Bobur, Munis va boshqa adiblar ijodida ham badiiy so'zning inson tarbiyasiga, uning ma'naviy kamolotiga ta'siri bilan bog'liq qimmatli fikrlarni juda ko'plab uchratish mumkin.

XVII asrdan XIX asrning birinchi yarmigacha o'tgan davrda, ayniqsa, XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlarida Turkistonda pedagogik, metodik fikr o'ziga xos tarzda rivojlandi. Masalan, Dilshod Barno (1800–1906) asarlaridan uning ellik bir yil maktabdorlik qilganini, to'qqiz yuzga yaqin qizni savodli qilib chiqarganini, ulardan yaqin to'rttdan bir qismi «tab'i nazmi bor» shoira, oqila qizlar bo'lib yetishganini ko'rish mumkin. Anbar Otindek taniqli shoira ham Dilshod Barno maktabining o'quvchisi bo'lganini ta'kidlash o'rinlidir.

Adabiyot o'qitish ishiga o'tgan asr boshlarida alohida e'tibor qaratildi. Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon kabi shoir va yozuvchilar xalqining ma'rifatli bo'lishi ma'naviy kamolotning asosi ekanini nazarda tutib izlandilar, yangicha mazmundagi asarlar yaratishga kirishdilar.

Masalan, Behbudiy o'zining «Padarkush» nomli bitigida ma'rifatning inson hayoti, insoniyat taqdiri uchun qanchalik katta ahamiyat kasb etishini namoyish etgan. U bir qator badiiy va ilmiy-pedagogik asarlarida milliy va insoniy qadriyatlarni anglashda ma'rifatli bo'lish zarurligini alohida ta'kidlagan.

Abdulla Avloniy ham o'z davrida chop etilgan «Birinci muallim», «Ikkinchi muallim», «Turkiy Guliston yoxud Axloq», «Maktab gulistoni» singari asarlarida, bosilmay qolgan «Uchinchi muallim», «Maktab jug'rofiyasi», «Hisob masalalari» singari darsliklarida yosh avlodni ma'rifatli bo'lishga undagan bo'lsa, «Maktab Gulistoni» darsligida bevosita adabiy ta'lim haqida so'z yuritib badiiy asarlarni ifodali o'qish, yakka va ko'pchilik bo'lib o'qish, ichdan o'qish, dialog, dramatik asarlarni o'qish yo'llari haqida ma'lumot beradi.

Hamza Hakimzoda Niyoziy esa 1914–15-yillarda boshlang'ich maktablar uchun «Yengil adabiyot», «O'qish kitobi», «Qiroat kitobi» singari darsliklar yozgan bo'lib, muallif ularda o'qish, matn ustida mustaqil ishlash, sinfdan tashqari o'qish ishlariga alohida e'tibor bergan. Hamza o'z darsliklarida badiiy so'z ko'magida o'quvchilarning ma'rifiy va ma'naviy yetukligini ta'minlashni nazarda tutgan.

Fitratning shu davrda yaratilgan «Adabiyot qoidalari» kitobini nafaqat adabiyot nazariyasiga, balki adabiyottanuv masalasiga, uni o'qitish ishlariga ham oid qo'llanma deb atash mumkin.

«Adabiy o'qish» atamasi ta'lim amaliyotiga o'tgan asrning 30-yillarida kirib keldi. Adabiy o'qish uchun tanlangan asarlarni g'oyaviy-badiiy tahlil qilish asosiy o'rinni egallardi, ya'ni badiiy asardan siyosiy, partiyaviy g'oya axtarilardi. Asarlar badiiy, estetik mazmuniga qarab emas, ijtimoiy davrga qanchalik xizmat qilishiga qarab tanlanardi.

O'sha davrlarda yaratilgan «Adabiyot dasturi» tarixiylik asosiga ega bo'lib, unda klassik hamda so'nggi davr adabiyotining yirik namoyandalari asarlaridan namunalar taqdim etilgan. Ammo, bu dasturda ayrim badiiy asarlarni o'zlashtirish emas, balki yozuvchilarning hayoti va ijodini bayon etish, ijodning ijtimoiy-siyosiy mohiyatini, yozuvchining sinfiy mavqeyini ochishga ko'proq e'tibor berilgan.

Sovetlar davridagi kommunistik partiya talablarining adabiyot o'qitish jarayoniga hukmron tamoyil sifatida kiritilishi ta'lim tizimida adabiyotning o'qitilishini bir yoqlamalilikka olib keldi. «To'liqsiz o'rta va o'rta maktablar uchun programmalar» (1938)da adabiy asarni o'qishga asosiy urg'u berilgan. Sal keyinroq tuzilgan «O'rta maktab programmaları» (1940)da o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini

o'stirishga ma'lum darajada e'tibor berilgan, asarni ifodali o'qish, savol va topshiriq hamda mashqlar asosida asarning g'oyaviy mazmunini o'zlashtirish tavsiya etilgan. Tanlanadigan asarlarning o'quvchilar yoshi va bilim saviyasiga mos bo'lishiga ma'lum darajada e'tibor qaratilgan.

1934-yilda A. Sa'diy tomonidan «O'rta maktablarda adabiyot o'qitish nazariyasi va metodikasining asosiy masalalari» degan maxsus kitob yaratildi. Unda adabiyotni maxsus fan sifatida o'qitish, bolaga adabiy ta'lim berishda tegishli izchillik va mantiqiy qoidalar bo'lishi ko'rsatib o'tilgan.

I.Sultonovning «Adabiyot nazariyasi» (1940) darsligining yaratilishi faqat adabiyotning umumiy qoidalari, uning nazariy masalalarini umumlashtirishi bilangina emas, balki bu nazariy tushunchalarning ta'lim jarayoniga olib kirilishi uchun ham qulay zamin yaratdi.

O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi fanining rivojida 50-yillarda faoliyat ko'rsata boshlagan ko'plab olimlarning xizmati katta.

S. Dolimov, G. Karimov, N. Mallayev, H. Ubaydullayev, Q. Ahmedov, A. Zunnunov, S. Ismatov singari olimlar bu sohaning mustaqil fan sifatida kamol topishiga munosib hissa qo'shganlar. Ularning adabiyotshunoslikning turli sohalaridagi, metodika ilmidagi xizmatlari tufayli o'rta maktablar uchun tuzilgan dastur va darsliklar ma'lum darajada muntazamlik kasb eta boshladi. «Adabiyot o'qitish metodikasi» deb nomlangan birinchi darslik S. Dolimov va H. Ubaydullaevlar (1967) tomonidan yaratilgan¹.

Darslikda ifodali o'qish, uning mazmun va mohiyati, turlari haqida yaxlit ma'lumotlar berilgan. Kitobda adabiyot o'qitishdagi nazariy asoslardan tortib, uning bevosita amaliyotdagi holatlarigacha bo'lgan hodisalar qamrab olingan. Bundan tashqari, adabiyot o'qitish metodikasi va uning nazariy asoslari, adabiy o'qish, adabiy o'qish yuzasidan sinfdan hamda maktabdan tashqari ishlar, rejalashtirish va jihozlash singari masalalari ham qamrab olingan. Amaliy faoliyat bilan aloqador masalalarga katta e'tibor berilganligi kitobning asosiy yutug'idir. Mualliflar har bir nazariy muammoni aniq misollar bilan

¹Долимов С., Убайдуллаев Х., Ахмедов К. Адабиёт ўқитиш методикаси. Университетларнинг филология факультетлари ва педагогика институтларининг тил ва адабиёт факультетлари учун қўлланма. – Т.: Ўқитувчи, 1967. – 448 б.

dalillashga harakat qilishgan. Shunga qaramay, unda o'sha davr mafkurasining kuchli ta'siri ochiq sezilib turadi.

S. Dolimovning «5-sinf «Vatan adabiyoti» xrestomatiyasi uchun metodik qo'llanma» nomli kitobi¹ varaqlanganda kishida o'tgan asrning 70-yillarida o'zbek adabiyotini o'qitishdagi o'ziga xosliklar haqida muayyan tasavvur paydo bo'ladi. Bu asar o'z davrida adabiyot darslari samaradorligini ta'minlash uchun amaliy tavsiyalarga boyligi bilan e'tiborlidir.

Qudrat Ahmedov ham o'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi ilmiga ma'lum hissa qo'shgan olimlardandir. «Hamza Hakimzodaning «Boy ila xizmatchi» dramasi o'rganish» nomli tadqiqot ishi² olimning bu sohaga qo'shgan hissasi namunasidir.

Adabiyot o'qitish metodikasi fani rivojida Asqar Zunnunovning ham o'ziga yarasha xizmati bor. A. Zunnunov o'zbek adabiyoti o'qitish metodikasiga oid ko'plab kitoblarida o'z davrining talablaridan kelib chiqqan holda faoliyat olib borgan. Uning «Maktabda G'afur G'ulom hayoti va ijodini o'rganish», «O'zbek adabiyoti metodikasi tarixidan ocherklar», R. Usmonov bilan hamkorlikda yaratgan «7-sinf «Vatan adabiyoti» darslik-xrestomatiyasi uchun metodik qo'llanma», «Adabiyot o'qitish metodikasi»³ singari bir qator asarlari shular jumlasidandir.

Mamlakatimiz o'z mustaqilligiga erishganidan keyin adabiyot o'qitish metodikasi ilmida ham keskin o'zgarishlar yuz bera boshladi. Chunki egamanlik ta'lim tizimi, xususan adabiy ta'lim oldiga ma'naviy komillik sari yuz tutgan avlodni shakllantirish vazifasini qo'ydi. Ma'lumki, Komil shaxs tarbiyalash yuki hamma zamonlarda adabiyotning zimmasida bo'lgan. Bu davr metodistlarining har biri mazkur vazifani o'z imkoniyatlari darajasida uddalashga harakat qilmoqdalar.

¹Долимов С. 5-сиф «Ватан адабиёти» хрестоматияси учун методик қўлланма. – Т.: Ўқитувчи, 1968. – 103 б.

²Ахмедов Қ. Ҳ. Ҳ. Ниёзийнинг «Бой ила хизматчи» драмасини ўрганиш. – Т.: Ўқитувчи, 1968. – 67 б.

³Зуннунов А. 3. Ўзбек адабиёти методикаси тарихидан очерклар. – Т.: «Ўқитувчи» 1973. – 234 б.; Зуннунов А. Ўзбек адабиёти методикаси тарихидан очерклар. Ўқитувчилар учун қўлланма. – Т.: Ўқитувчи, 1975. – 160 б.; Зуннунов А., Ҳотамонов Н. Адабиёт назариясидан қўлланма. Ўрта мактабларнинг юқори синф ўқувчилари учун. – Т.: Ўқитувчи, 1978. – 189 б.; Зуннунов А. 3. Мактабда Гафур Гулом ҳаёти ва ижодини ўрганиш. – Т.: Ўқитувчи, 1979. – 60 б.; Зуннунов А. 3., Усмонов Р. 7-синф «Ватан адабиёти» дарслик-хрестоматияси учун методик қўлланма. – Т.: Ўқитувчи, 1980. – 130 б. Зуннунов А., Алиев А. Адабиётни бошқа ижтимоий фанларга боғлаб ўрганиш. – Т.: «Ўқитувчи», 1982. – 145 б.; Зуннунов А. 3., Ҳотамонов Н., Эсонов Ж., Иброхимов А. Адабиёт ўқитиш методикаси – Т.: «Ўқитувчи», 1992. – 271 б.; Зуннунов А. Педагогик тадқиқот методикаси. – Т.: Ўқитувчи, 2000. – 136 б.

Mazkur davrning keksa avlodi sanalmish prof. To'xtamurod Boboyev 1930-yilda Samarqand viloyatining Xatirchi tumanida tug'ilgan. 1956-yilda Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universitetining O'zbek filologiyasi fakultetini tamomlagan.

T. Boboyev 1967-yilda "O'zbek prozasida ijobiy qahramon muammosi" mavzusida nomzodlik, 1998-yilda "Oliy o'quv yurtlarida o'zbek she'riyati poetikasini o'rganish" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan. U yuzdan ortiq ilmiy va o'quv-metodik asarlar muallifi. Olimning "Adabiyotshunoslikka kirish", "She'r ilmi ta'limi", "Adabiyotshunoslik asoslari", "Aruz vaznlarini o'rganish", "O'zbek she'r tuzilishi asoslarini o'rganish", "Qofiya ilmi saboqlari", "Badiiy san'atlar" kabi o'quv qo'llanmalari, "Zamondoshimiz – adabiyotimiz qahramoni" nomli monografiyasi, oliy o'quv yurti talabalari uchun yozilgan "Adabiyotshunoslik asoslari" darsligi adabiyot o'qitish ilmi amaliyotida bugun ham qo'llanilib kelinmoqda.

T. Boboyev «She'r ilmi ta'limi» nomli metodik-qo'llanmasida bo'g'insiz she'r misralarini tasavvur qilib bo'lmasligini, she'rning qalbi bo'lmish musiqiylik va ritmni vujudga keltirishda eng faol ishtirok etuvchi unsur bo'g'in ekanini ta'kidlab: *"Barmoq tizimida bo'g'inlar turoqlarni, turoqlar turkumni, turkum vaznni, vazn ritmni, ritm musiqiylik, musiqiylik poetik g'oyani vujudga keltiradi. She'r unsurlari bir-biri bilan uzviy bog'liqlikda, bir-biri bilan mustahkam aloqaga kirishgandagina o'z vazifasini o'tay oladi"*, - deb yozgan edi. Olimning metodik tavsiyalaridan adabiyot o'qituvchilari she'r tahlilida amaliy foydalanishlari mumkin.

Egamanlik davri o'zbek adabiyot o'qitish metodikasi fani rivojida prof. U. Dolimovning o'ziga xos o'rni bor. Ulug'bek Dolimov 1939-yilda Toshkent shahrida tug'ilgan, 1962-yili ToshDU (O'zMU) filologiya fakultetini tamomlagan. 1971-yilda "Ma'rifatparvar shoir Is'hoqxon Ibratning hayoti va ijodi" mavzusida nomzodlik, 2008-yili "Jadid maktablari: ularda ona tili va adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy hamda amaliy asoslari" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi.

U O'zbekiston va xorijda e'lon qilingan 200dan ortiq ilmiy maqolalar, "Ma'rifat darg'alari" (prof. B. Qosimov bilan hamkorlikda), "Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti" nomli darslik (hammualliflikda), "Is'hoqxon Ibrat", "Turkistonda jadid maktablari",

"Milliy uyg'onish pedagogikasi" "O'zbek pedagogik ensiklopedik so'zligi" (hammualliflikda) kabi o'ndan ortiq kitoblar muallifi.

Ulug'bek Dolimovning "Milliy uyg'onish pedagogikasi" asari olimning adabiyotshunoslik va pedagogika sohasidagi bilimlari uyg'unligida yaratilgan. Kitobda an'anaviy mahalliy maktablar va ularda o'qitish usullari, madrasa ta'limi, o'lkada Rusiya hukmronligi o'rnatilgandan keyin tashkil etilgan rus-tuzem maktablari, ularda o'qitish mazmuni va metodlari, jadid maktablarining shakllanishi, ular rivojida hayriya jamiyatlarining ahamiyati, yangi o'qitish metodi – "usuli savtiya"ning nazariy hamda amaliy asoslari, jadid maktablarida ona tili va adabiyot o'qitish masalalari va butun Turkiston o'lkasi bo'yicha maorif tutumlari, ulardagi ilk yangi maktablar to'raligicha qanrab olingan. Kitobning ikkinchi qismi Milliy uyg'onish davri pedagogikasining eng yetuk namoyandalari hayoti, faoliyati va ijodiga bag'ishlangan tugal adabiy-pedagogik portretlardan tashkil topgan. Is'hoqxon Ibrat, Siddiqiy-Ajziy, Saidrasul Saidaziziy, Vasliy Samarqandiy, Behbudiy, Shakuriy, Munavvarqori, Avloniy, Sadridin Ayniy, So'fizoda, Hoji Muin, Fitrat, Hamza, Elbek, Shokirjon Rahimiy singari jadid maorifchilari haqida dalillar, tahlillar, ilmiy mushohadalar va umumlashmalar o'z ifodasini topgan. Bir so'z bilan aytganda, Ulug'bek Dolimov ilk bor pedagogika ilmida jadid pedagogikasining butun mohiyati va ko'لامي bilan birlamchi manbalar asosida tadqiq etgan olimdir.

O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi sohasiga o'z munosib hissasini qo'shgan olim prof. Safo Matjonov 1947-yil 23-yanvarda Qoraqalpog'istonning Amudaryo tumanidagi Qipchoq qishlog'ida ziyoli oilasida tug'ilgan.

1965-69- yillarda Nizomiy nomidagi TDPIda tahsil olgan. S. Matjonov 1983-yilda "70-yillar bolalar qissalarida syujet" mavzusida nomzodlik, 1998-yilda "Umumiy o'rta ta'lim tizimida adabiyotdan mustaqil ishlarni tashkil etish usullari" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan.

Safo Matjon – bolalar adabiyoti bilimdoni. Olimning ilmiy-ijodiy izlanishlari o'tgan asrning 70-yillari ikkinchi yarmidan boshlanib, asosan bolalar adabiyoti va kitobxonligi, ta'lim-tarbiya masalalariga bag'ishlangan. Bu ikki yo'nalish bugungi kungacha olim izlanishlarining asosini tashkil etib kelmoqda.

Professor S. Matjonning o'tgan vaqt maboynida yaratgan "Bolalar she'riyatida lirik qahramon", "Hayot haqiqati va badiiy haqiqat", "Og'ir yillar qissasi", "Qahramonning ta'sir kuchi", "Shoir ko'p, ammo...", "Bolalar kitobxonligi", "Oila – maktab – kitobxon", "Hikoya qanday o'qiladi?", "Poklanish davri va bolalar adabiyoti", "Bolalar adabiyoti: san'atmi yo tarbiya", "Komillik mezonlari" kabi turli yillarda chop etilgan ko'plab maqolalari, shuningdek, "Bolalar adabiyotini sinfdan tashqari o'qish", "Tiriklik suvi", "Kitob o'qishni bilasizmi?", "O'qish kitobi" (4-sinf uchun hammualliflikda yaratilgan) darsligi, "Uzluksiz ta'lim tizimida adabiyotdan mustaqil ishlarni tashkil etish usullari", "Maktabda adabiyotdan mustaqil ishlar" kabi yigirmadan ortiq adabiy-tanqidiy maqolalar to'plami, darslik, o'quv qo'llanma hamda monografiyalarining yetakchi g'oyasini kitobxonlik, bolalar nasri syujeti, adabiyot o'qitishning dolzarb muammolari tashkil etadi. Olim sinfdan tashqari mustaqil ishlarga oid qo'llanmalarida komil inson tarbiyasini bosh masala qilib qo'yadi, badiiyat va ma'naviyat muammolari ilmiy, ilmiy-metodik ishlarining yetakchi mavzusi sifatida namoyon bo'ladi.

Olimning ilmiy yo'nalishlaridan birini tashkil etuvchi kitob va kitobxonlik muammolari ham o'zining ilmiy-amaliy ahamiyati bilan alohida e'tiborga loyiq.

Ushbu mavzudagi bir qator o'quv qo'llanmalari bilan birga "Kitob o'qishni bilasizmi" nomli kitobida kitobxonlik madaniyati haqida so'z yuritiladi, badiiy asarni o'qish va uqish salohiyati haqida qimmatli mulohazalar bayon etiladi: *"Siz darsliklardan hayot va uning qonuniyatlari haqidagi bilimlar bilan tanishasiz, ularni aql kuchi bilan qabul qilasiz, xotirangizda qayd etasiz. Ammo bu bilim va xulosalar hissiyotingizga zarracha ta'sir ko'rsatmaydi. Badiiy asarni o'qiganda sizdagi bu "loqaydlik" faol munosabatga almashinadi. Qalbingiz cheksiz shodliklarga chulg'anadi – ruhlanasiz, g'azablanasiz, iztirob chekasiz. Chunki u qalb dardi tufayli yaratilgan, dard esa suhbatdoshni bafarq qoldirmaydi"*¹.

Pedagogika fanlari doktori Safo Matjonov bugungi kunda ham adabiyot o'qitish muammolari va shakllanib kelayotgan yosh

¹ Safo Matjon. Kitob ukiшни bilasizmi? – T.: "Ukituvchi", 1993, 11-bet.

aylodning ma'naviy kamoloti yo'lida kitobning ahamiyati, o'rni va roli haqida izlanishlarini davom ettirmoqda¹.

O'zbek adabiyot o'qitish metodikasi ilmida o'z salmoqli hissasi bilan yetakchi o'rinlardan birini egallab turgan olim prof. Qozoqboy Yo'ldoshev 1949-yilning 9-mayida Sirdaryo viloyati Boyovut tumanidagi Dehqonobod qishlog'ida tug'ilgan. 1970-yilda Sirdaryo pedagogika institutini bitirgan.

Q. Yo'ldoshev 1985-yilda "O'zbek satirik hikoyalarida xarakter tasviri evolyutsiyasi" mavzusida nomzodlik, 1997-yilda "Yangicha pedagogik tafakkur va umumta'lim maktablarida adabiyot o'qitishning ilmiy-metodik asoslari" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi.

Q. Yo'ldoshevning jami yetti yuzga yaqin ilmiy ishlari orasida 130dan ortig'i mamlakat umumta'lim maktablari o'quvchilari uchun yaratilgan darslik va o'qituvchilarga mo'ljallangan metodik qo'llanmalardan iborat. Bulardan tashqari, Qozog'iston Respublikasidagi o'zbek maktablarining 5-11-sinflari uchun yaratilgan, bir necha o'n yillardan beri qayta-qayta nashr etilib kelinayotgan "O'zbek adabiyoti" darsliklari va ularning har biri uchun yozilgan metodik qo'llanmalar, Qirg'iziston Respublikasidagi o'zbek maktablari 6-,7-,8-sinflari uchun yozilgan "O'zbek adabiyoti" darsliklari olimning metodik tadqiqotlari ko'lamidan dalolatdir.

Prof. Q. Yo'ldoshevni adabiyot o'qitish metodikasi ilmida burilish yasadi, - deyish mumkin. Olim tubdan o'zgargan jamiyatdagi adabiy ta'limni mohiyatan o'zgartirishning ijtimoiy, ilmiy va pedagogik asoslarini ko'rsatib berdi.

U adabiy faktlarni bildirishning o'zi adabiyot saboqlari uchun maqsad emasligini, badiiy asar bilan tanishish o'quvchilarda ezgu ma'naviy sifatlar shakllantirishga qaratilishi kerakligini ta'kidlab yozadi: *"Aslida adabiyot tarixiga daxldor biror dalilni sharillatib aytib bera oladigan, ammo ma'naviyatida ezgu fazilatlar bo'lmagan o'quvchidan ko'ra, ...badiiy asarlarning qahramonlariga xos insoniy fazilatlarini o'z tabiatiga singdirgan, sirdan qaraganda, nofaolday tuyuladigan o'quvchilar jamiyatimiz uchun ko'proq zarurdir"*².

¹ C. Matjonov haqidagi ma'lumotlar uning 70 yilligiga bag'ishlab tayyorlangan "Til va adabiyot ta'limining dolzarb masalalari" nomli maqolalar to'plamidan olindi (Toshkent: TDO'TAU, 2017.).

²Йулдошев Қ. Адабиёт ўқитишининг илмий-назарий асослари. – Т.: Ўқитувчи, 1996, 42-бет.

Olim adabiy ta'limni tubdan yangilashda uning milliy-tarixiy ildizlariga tayanish kerakligini alohida ta'kidlaydi: *“Qadim Turkistondagi maktablarda badiiy adabiyot asrlar davomida tajalli nazariyasiga tayanilgan holda o'qitilib kelingan. Negaki, ...chinakam badiiy asarlarning asosiy qismi yaratilishida tajalli tamal toshi vazifasini o'tagandir. Bu nazariyaga tayanadigan adabiy ta'lim o'quvchilarda ma'naviy sifatlarning shakllanishiga, bolalarda yaratuvchining qudratidan hayratlanish, qahridan qo'rqish, go'zalligidan zavqlanish singari xislatlarni barpo etishga ahamiyat beradi. O'quvchilarning qalbini tarbiyalashga, tuyg'ularini, hissiyotlarini noziklashtirishga diqqat qiladi. Tajalli asosida ish ko'radigan adabiy ta'lim komil shaxs tarbiyalashni maqsad deb hisoblaydi”*¹.

Olim o'quvchilar ma'naviyatini shakllantirishda asarlarning o'quv tahlili ustuvor mavqeda bo'lishi lozimligini qayd etadi.

Mustaqil yurtimizda adabiyot o'qitish jarayonining yo'nalishini belgilab beruvchi “Adabiy ta'lim konsepsiyasi” nomli bosh hujjatni yaratishda ham Q. Yo'ldoshev ilg'or qarashlarga tayangan. Uning rahbarligida yaratilgan adabiy ta'lim standarti, dasturi, ular asosida yaratilgan darslik, o'quv va metodik qo'llanmalarda milliy qadriyatlar va estetik asoslar ustuvorlik qiladi.

Q. Yo'ldoshev «Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari»² kitobida adabiy ta'lim tizimini tubdan yangilashning ilmiy-nazariy va tashkiliy tamoyillarini ishlab chiqqan. Asarda olim o'quvchilarga tayyor tushunchalar berish emas, balki badiiy matn asosida o'quvchilarda ma'naviy qarashlar, estetik did qaror topdirish birlamchi ahamiyatga ega ekanini ko'rsatib bergan. U «Adabiyot o'qitish metodikasi» qo'llanmasi mualliflaridan biri sifatida adabiy ta'limning o'zak masalalariga yangicha yondashuv namunasini ko'rsatgan.

Olimning adabiy ta'limni «...yangi ijtimoiy ong talablari darajasida tashkil etishning tamoyillarini belgilash pedagogika nazariyasi uchun ham, adabiyot o'qitish metodikasi uchun ham, tarbiya amaliyoti uchun ham kechiktirib bo'lmaydigan zarurat»³ ekanini alohida ta'kidlashi adabiyot o'qitishni yangilashning muhim masalalarini ko'zda tutadi. Milliy va chet eldagi ilg'or

¹ Йулдошев Қ. Адабиёт ўқитишнинг илмий-назарий асослари. – Т.: Ўқитувчи, 1996, 81-бет.

² Йулдошев Қ. Адабиёт ўқитишнинг илмий-назарий асослари. – Т.: Ўқитувчи, 1996, 22-бет.

³ Йулдошев Қ. Адабиёт ўқитишнинг илмий-назарий асослари. – Т.: Ўқитувчи, 1996, 178-бет.

pedagogik qarashlarni qiyoslab o'rganish, adabiyot o'qitishda tayyaniladigan metodik, pedagogik va estetik asoslarga yangilanayotgan pedagogik tafakkur nuqtai nazaridan yondashuv olimning ilmiy tadqiqotlari qimmatining oshuviga sabab bo'ldi.

Mustaqillikning ilk yillarida umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun "Adabiyot" o'quv fanidan dastur va darsliklarning yangi avlodini yaratishning nazariy asoslarini belgilab olish zarur edi. Q. Yo'ldoshev tomonidan «Adabiyot o'qitish konsepsiyasi» ishlab chiqildi. So'ngra shu yo'nalishning "Davlat ta'lim standarti" (Q. Husanboyeva bilan hamkorlikda) yaratildi. Ushbu davlat ahamiyatiga molik rasmiy hujjatlarga tayangan holda "Adabiyot" dasturi va darsliklarning yangi avlodi yozildi. Bularning yaratilishida olimning xizmatlari katta bo'ldi.

Q. Yo'ldoshevning "Adabiyot" darsliklari pedagogika, metodika, psixologiya va adabiyotshunoslik ilmidagi eng yangi qarashlarga tayangan holda yaratilib, yangi davr nafasini aks ettirishiga alohida e'tibor qaratdi. Uning darsliklarida:

- badiiy matnga estetik hodisa sifatida qarab, o'quvchilarga badiiy so'zning sehri, jozibasini tuydirish ko'zda tutilgan;
- o'quvchiga tayyor bilimlar berilmagan, badiiy matnlar zamiridagi haqiqatlarni o'zi o'qib o'zlashtirishiga urg'u berilgan;
- badiiy asar qahramonlari ijobiy-salbiyga ajratilmay, bolalarga qahramonlarning har biri timsolida insonga xos yaxshi-yomon sifatlarini mustaqil kashf etish imkoni yaratilgan;
- badiiy asarlar mualliflar qolipiga solinmagan, har bir o'quvchi savol-topshiriqlar bilan ishlash natijasida matn bo'yicha o'z xulosasiga kelishi, asar tahlili orqali har bir bola badiiy va hayotiy haqiqatlarni o'zi kashf etishi ko'zda tutilgan;
- o'quvchilar shunchaki tinglovchidan mashg'ulotning erkin ishtirokchisiga aylantirilgan, o'quvchi-o'qituvchi munosabatlari yangicha yo'lga qo'yilgan.

Egamanlik davridagi "Adabiyot" dastur va darsliklarining ikkinchi, uchinchi avlodlari bevosita Q. Yo'ldoshev rahbarligida yaratilgan. Bundan tashqari, "Adabiyot" darsliklariga qo'yiladigan talablar», "Adabiyot" majmualariga qo'yiladigan talablar» kabi rasmiy-metodik hujjatlarga ham u mualliflik qilgan. Mazkur didaktik ushlyolarda jahon pedagogikasi, adabiyotshunosligi va metodika ilmining yutuqlari aks etgan. Q. Yo'ldoshev yangilangan adabiy ta'lim

o'quvchining o'z ustida ko'proq ishlashi, izlanishi, matnni tahlil qilishi, u haqda mulohaza yuritib, fikr aytishi, boshqalarnikidan farq qiladigan xulosa chiqarishi, o'zida ezgu insoniy sifatlar shakllantirishda shaxsan ishtirok etishini ko'zda tutadi.

Olimning «Adabiy saboqlar 8»¹ kitobi umumta'lim maktablarining 8-sinf «Adabiyot» darsligidan foydalanish yuzasdan metodik qo'llanmadir. Qo'llanmada: «*O'qituvchi bu sinfda o'rganilishi mo'ljallangan asarlarni o'quvchilar bilan birgalikda tahlil qilishda badiiy matndan kelib chiqadigan ijtimoiy, siyosiy, milliy, ma'naviy mazmundan ham ko'ra, asarlar estetik xususiyatlarining o'zlashtirilishiga ko'proq e'tibor qarotishi shart*»² ekani alohida ta'kidlangan. Chindan ham o'qigan badiiy asar zamiridagi estetik jozibani his qilgan o'quvchida ezgu ma'naviy va intellektual sifatlar shakllanishi oson kechadi. Chunki bunday o'quvchida ruhiyat uyg'oq bo'ladi.

Agar adabiyotshunos uchun asarda aks etgan adibning ko'ngil dunyosini kashf etish muhim bo'lsa, adabiy ta'lim uchun bu yumushning qimmatini bir necha hissa ortadi. Chunki adabiyotshunos adiblarni ruhlantirgan ko'ngil mavjlanishini tadqiq etsa, metodist olim bolaning oydan oyga, yildan yilga turfalanib, o'zgarib boruvchi ruhiyatini, tafakkur darajasini ham nazarda tutgan holda ish ko'rishi lozim bo'ladi. Bola qaysi yoshda nimani qanday his etadi, qaysi kechinmalarni tuya oladi, qay bosqichda qanday matnni anglay oladiyu, nimalar uning ruhiy rivojiga turtki berishi bilan bog'liq jihatlarni hisobga olgan holda nechanchi sinf o'quvchisiga qaysi asarni o'rganish maksimal foyda keltirishini tayin etish uchun tinimsiz izlanish, bilimdonlik va sabr-matonat kerak bo'ladi.

Olimning «Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari» nomli monografiyasi, umuman, pedagogika, xususan, adabiyot o'qitish metodikasi ilmi ravnaqiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Asarda olim mustaqillik sharoitida o'zgargan jamiyatning ideallarini aniqlash, bu ideallarni shakllanayotgan shaxslarning ma'naviy-xulqiy sifatlariga aylantirishning ilmiy-amaliy asoslarini ishlab chiqish pedagogika fani oldida turgan asosiy vazifa ekanligini qayd etgan holda sog'lom pedagogik falsafa va yangilangan milliy pedagogikaning yetakchi

¹ Иудюшев Қ. Адабий сабоқлар. 8. Умумтаълим мактабларининг 8-синф «Адабиёт» дарслиги учун методик қўлланма. – Т.: Шарк, 2004.

² Уша асар, 7-бет.

xususiyatlarini tayin etdi, pedagogik tafakkur yangilangan sharoitda tarbiyaning yo'nalishi, tarbiyalanuvchi va tarbiyachi munosabatlari tabiatini belgilab berdi.

Q. Yo'ldoshev badiiy asar tahlilining nazariy-metodik masalalari ustida jiddiy izlanishlar olib borib, "Badiiy tahlil asoslari" kitobini yaratdi. Bu asarda tahlil turlari, yo'nalishlari, tamoyillari va tahlilga qo'yiladigan talablar tizimi ishlab chiqilgan bo'lib, bu qarashlar respublika ta'lim muassasalarida adabiyot o'qitishning yangi bosqichga ko'tarilishiga turtki beradi. Olim badiiy asar tahlili shaxs va millat ma'naviyatini shakllantirish omili ekaniga alohida e'tibor qaratadi.

Butun pedagogik faoliyatini adabiyot o'qitish metodikasi ilmiga bag'ishlagan olim filologiya fanlari doktori, professor B. To'xliyev 1954-yil 11-martda Tojikiston Respublikasi Xo'jand (hozirgi So'g'd) viloyatining Asht tumanidagi O'zbekoqjar qishlog'ida tug'ilgan. U 1983-yilda "Qutadg'u bilig"ning poetikasi" mavzusida nomzodlik, 1992-yilda "Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari va turkiy xalqlar folklori" mavzusida doktorlik dissertasiyasini himoya qilgan.

Olim o'z mehnat faoliyatini o'qituvchilikdan boshlagan. Professor B. To'xliyev hozirgacha uch yuzdan ortiq ilmiy ishlar e'lon qilgan. Ular orasida 8ta monografiya, 5ta darslik, 20ta o'quv qo'llanma bo'lib, ular salmoqli ilmiy qimmat kasb etadi.

Uning umumiy o'rta ta'lim maktablari 9-, 10-sinflari va akademik litseylarning 1-bosqichi uchun «Adabiyot» (hamkorlikda) darslik va darslik-majmualari, kasb-hunar kollejlari va oliy maktab uchun "Pedagogika tarixi" darsligi bugungi ta'lim amaliyotida qo'llaniladi. Bundan tashqari, olimning oliy ta'limning bakalavriat hamda magistratura bosqichlari uchun "Adabiyot o'qitish metodikasi", "O'zbek tili o'qitish metodikasi", "Darsliklar ustida ishlash", "Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi" singari bir qator o'quv adabiyotlari ham nashr etilgan. B. To'xliyevning Qirg'iziston Respublikasi umumta'lim maktablari 9-sinfi uchun "O'zbek adabiyoti" (hamkorlikda) darslik-majmuasi, oliy o'quv yurtlarining qoraqalpoq guruhi talabalari uchun "O'zbek tili" (hammualliflikda) o'quv qo'llanmalari ham chop etilgan.

Professor B. To'xliyevning: «Qadimgi turkiy yozma yodgorligi «Qutadg'u bilig», "Irq bitig – Qadimiy hikmatlar", "O'lmas obidalar", "Donolar gulshani" (hammualliflikda), "Yusuf Xos Hojib. «Qutadg'u bilig», "Bilim-ezgulik yo'li", "Yusuf Xos Hojib. "Qutadg'u bilig"

to'rtliklari" (hammuallif), «Hozirgi o'zbek adabiy tili» darslarida yuksak ma'naviyatli shaxs tarbiyasi" (hammuallif), "Moddiy va ma'naviy hayot uyg'unligi Yusuf Xos Hojib talqinida" (1-kitob), "Adabiyot o'qitish metodikasi (amaliy mashg'ulotlar)", "Til va adabiyot ta'limining zamonaviy texnologiyalari" (hammuallif), "Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodi (Albom-qo'llanma)", "Alisher Navoiy hayoti va ijodi (Albom-qo'llanma)", "Yusuf Xos Hojib va turkiy xalqlar folklori", "Badiiy asarni sharhlab o'rganish", "Qutadg'u bilig" (nasriy bayoni) singari ishlari adabiyot o'qitish ilmi va amaliyoti uchun o'z munosib hissasini qo'shib kelmoqda.

Professor B. To'xliyev qalamiga mansub "Adabiyot o'qitish metodikasi"¹ o'quv qo'llanmasi filologik yo'nalishdagi universitetlar va pedagogika oliy o'quv yurtlari bakalavriat bosqichi talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, u muallif tomonidan yaratilgan yangi o'quv dasturi, ishchi dastur hamda DTS mazmun-mohiyati, talablari asosida nashrga tayyorlangan. Kitobning yana bir ahamiyatli jihati shundaki, unda XX asrning 60-yillaridan to bugunga qadar adabiyot o'qitish metodikasi sohasida izlanishlar olib borgan, respublika adabiy ta'limi tamal toshini qo'ygan S. Dolimov, H. Ubaydullayev, Q. Ahmedov, A. Zunnunov singari metodist olimlar faoliyati o'zbek metodikasi fani tarixi bilan bog'lab yoritilgan. Ayni damda muallif mustaqillik yillarida shakllangan Qozoqboy Yo'ldoshev, Safo Matjon va Marg'uba Mirqosimova kabi metodist olimlar faoliyatini ham yoritgan. Avlodlar davomiyligi, fanning uzviy va uzluksiz rivojida muhim ahamiyat kasb etgan adabiy ta'lim muammolari, fan sohasidagi yangilanishlar ushbu qo'llanmaning birinchi, ikkinchi va uchinchi fasllarida aks etgan bo'lsa, keyingi boblarda badiiy asarlarni o'rganish va o'quvchilarda badiiy tahlil malakasini shakllantirishning samarali usullariga diqqat qaratilgan. Adabiyot darslarini zamon talablari darajasida tashkil qilish omillari, o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish muammolari yaxshi yoritilgan.

Olimning "Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi" nomli qo'llanmasi esa magistratura bosqichi "O'zbek adabiyoti" mutaxassisligida tahsil oladigan magistrantlarga mo'ljallangan. Kursning maqsad va vazifalarini yoritgan ekan, muallif quyidagilarni

¹ Тухлиев Б. Адабиёт ўқитиш методикаси. Ўқув қўлланма. – Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2010.

alohida ta'kidlagan: *“Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi fani badiiy adabiyotning o‘ziga xosligi, paydo bo‘lishi va rivojlanishidagi tarixiy taraqqiyoti jarayonini, hozirgi holatini, muammolarini o‘rganuvchi, ularni ta‘lim oluvchilarga o‘rgatuvchi fanlarning pedagogik imkoniyatlari haqida bahs yuritadi”*¹.

Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi har bir yo‘nalish va mutaxassislik mazmunini o‘zida ifoda qiluvchi kasbiy fanlarni o‘qitish muammolarini qamrab olishi kerak. Unda umumiy o‘rta ta‘lim, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari va oliy ta‘lim bosqichlarida adabiyot o‘qitishning o‘ziga xosliklari haqida bilim va tushunchalar shakllantirish yo‘llari ko‘rsatilgan. Qo‘llanmada bo‘lajak adabiyot o‘qituvchilariga o‘quv, metodik, tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish; bir soatlik mashg‘ulotni rejalashtirish; ma‘ruza matnini tuzish; o‘quvchilar mustaqil ishlarini tashkil etish haqida tushunchalar berilgan. Folklor asarlari, mumtoz va yangi o‘zbek adabiyoti namunalarini o‘rganishning samarali usullarini yoritgan. Magistrarning mustaqil ishlari uchun topshiriqlar va ularning mazmuni, tavsiya qilinuvchi adabiyotlar ro‘yxati berilganligi talabalarni ilmiy-ijodiy izlanishlarga, matn bilan ishlashga, badiiy asarlarni biografik, struktural, qiyosiy tahlil qilishga yo‘llaydi².

Adabiyot o‘qitish metodikasi sohasidagi mutaxassislardan yana biri prof. Marg‘uba Mirqosimova 1960-yilda Toshkent shahrida, ziyoli oilasida tug‘ilgan. 1985-yilda “70–80-yillar o‘zbek romanlarining janr va uslub xususiyatlari (O. Yoqubov va P. Qodirov romanlari misolida)” mavzusida nomzodlik, 1995-yilda “O‘quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish usullari” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan.

Olimning hozirgi o‘zbek adabiyoti, adabiyot nazariyasi va o‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi yo‘nalishlari bo‘yicha ikkita darslik, bitta monografiya, o‘n beshdan ortiq o‘quv va uslubiy qo‘llanmalari hamda ikki yuz ellikka yaqin ilmiy maqolalari nashr qilingan. Shulardan “Badiiy asar tahlili metodikasi”, “O‘quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari”, “Janr va mahorat” mavzusidagi monografiyalari, “Badiiy asar tahlili”, “Hozirgi

¹ Тухлиев Б. Maxsus fanlarni ukitish metodikasi. – Т.: ТДПУ, 2008. 5-6-бет.

² То‘хлиев haqidagi ma‘lumotlar uning 60 yilligiga bag‘ishlab chop etilgan «Badiiy asarlarni sharhlab o‘rganish: tarix, tajriba va texnologiya» nomli maqolalar to‘plamidan olindi. – Т.: «Баё» МЧЖ, 2014. 435 б.

adabiy jarayon” kabi o‘quv qo‘llanmalari, “Ta’lim bosqichlarida A.Oripov hayoti va ijodini o‘rganish”, “O‘quvchilarda ma’naviyatni yuksaltirishda badiiy asarlar tahlilidan foydalanish”, “Hozirgi o‘zbek adabiyoti namunalarini sharhlab o‘rganish” singari metodik qo‘llanmalari adabiy ta’lim amaliyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

«O‘quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari» nomli monografiyasida¹ muallif o‘quvchilarda adabiy tahlil ko‘nikmasini shakllantirish va rivojlantirishda kutilgan natijalarga erishish uchun uzviylik hamda uzluksizlik tamoyiliga tayanish lozimligini ilmiy jihatdan asoslab bergan.

Olim badiiy tahlilning elementar namunalarini boshlang‘ich sinflardan boshlash kerakligini alohida ta’kidlagan. Bu asarda o‘quvchilarning adabiy tahlil bo‘yicha ko‘nikma va malakalarini shakllantirishning ilmiy-metodik asoslari sifatida yozuvchining ijodiy mahoratini o‘rganish muammosi katta ahamiyat kasb etishi ta’kidlangan.

Muallif qarashlarini maktab «Adabiyot» darsliklariga kiritilgan Atoyi, Alisher Navoiy va Abdulla Qahhor singari ijodkorlar hayot yo‘li hamda ijodiy mahorati tadqiqi asosida isbotlagan.

Kitobda o‘quvchilarda badiiy asar ustida ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishda adabiy-nazariy tushunchalarning o‘rni haqida ham alohida so‘z yuritilgan.

Professor M. Mirqosimova o‘zining “Adabiy tahlil metodikasi” qo‘llanmasida pedagogik yo‘nalishda tahsil olayotgan talabalarning kasbiy tayyorgarligini oshirishga alohida e’tibor qaratib: *“Mustaqil ijodiy izlanishlar chog‘ida o‘quvchilar o‘zaro muloqotda bo‘ladilar, tadqiqotlari yuzasidan o‘qituvchiga savollar bilan murojaat etadilar. O‘qituvchi ularning mustaqil izlanishlari qay yo‘sinda ketayotganligidan xabardor bo‘ladi, zarur maslahatlar beradi, o‘quvchilar faoliyatini boshqaradi.*

Belgilangan muddat yaqinlashgan sayin o‘quvchilarning mustaqil ijodiy izlanishlari ham yakunlanib boradi.

¹ Миркосимова М. Уқувчиларда адабий таҳлил малакасини шакллантириш ва тақомиллаштириш асослари. – Т.: «Фан», 2006.

O'qituvchi ularning mustaqil mulohazalari bilan tanishib, zarur o'rinlarni to'ldiradi, yakuniy mashg'ulotni tashkil etadi"¹ tarzidagi xulosaga keladi.

Marg'uba Mirqosimova o'quvchilarning yozuvchi hayoti va ijodiga oid ma'ruzalari, ayrim asarlar yuzasidan referat ishlarini tashkil etishga oid qator metodik tavsiyalar ham yaratgan. Olim adabiyot o'qituvchisi mustaqil ijodiy tadqiqot olib borayotgan o'quvchilar nimalarga ahamiyat berishlari yuzasidan maslahatlar berishi lozimligini ta'kidlaydi.

Muallifning fikricha, ular quyidagilardan iborat: *"ijodkor hayotiga oid ma'lumotlar bilan tanishishda tarixiy sharoit va o'sha davrdagi adabiy muhitga e'tiborni qaratish; yozuvchi yaratgan asarda zamonasining qanday dolzarb ijtimoiy-ma'naviy masalalari aks etgan va ularga nisbatan ijodkor munosabatini belgilash; yozuvchi badiiy mahoratiga badiiylilik va haqqoniylik talablari asosida baho berishda xilma-xil asarlarni qiyosiy o'rganish; ijodkor uslubining shakllanishiga ta'sir etgan adabiy an'analar, ijodiy ta'sir va shaxsiy izlanishlar ahamiyatiga e'tibor berish; yozuvchi hayoti va ijodini yorituvchi adabiyotlardan... foydalanish"*².

Olimning adabiyot o'qitish metodikasiga doir qarashlari fanning mazkur sohasi taraqqiyotida o'ziga xos o'rin tutadi.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek "Adabiyot o'qitish metodikasi" ilmi o'zining qariyb yetmish yillik tarixida o'ziga xos va mos yo'ldan rivojlanib, takomillashib bormoqda.

Har davrning o'ziga xos muammolari va masalalar yechimi borasida izlanishlar olib bormoqda. Adabiyot o'qitish metodikasi ilmida V. Qodirov, E. Abduvalitovlar doktorlik (DSs), H. Suyunov, A. Bolibekov, M. Sariboyeva va hk. tadqiqotchilar nomzodlik, M. Hazratqulov, G. Fayzullayeva, M. To'ychiyeva, S. Qambarova, O. Boltayeva, I. Rahimova, O. To'raqulova va hk. bir qator mutaxassislar PhD dissertatsiyalarini himoya qildilar.

Keyingi avlodning har biri adabiyot o'qitish metodikasi ilmidagi u yoki bu muammoning yechimini topishga va adabiy ta'limning samarali tashkil etilishiga o'z munosib hissalarini qo'shib bormoqdalar.

¹ Мирқосимова М. Адабий таҳлил методикаси. –Т.: РЎММ, 1993. – 27-б.

² Мирқосимова М. Адабий таҳлил методикаси. –Т.: РЎММ, 1993. – 19-бет.

Badiiy matnning didaktik tahlili namunasi

“Kichkina shahzoda” asarini o‘rganish

Umumta’lim maktablarining 5-sinfi dasturida Antuan de Sent-Ekzyuperining “Kichkina shahzoda” asarini o‘rganish uchun to‘rt soat ajratilgan.¹ Asarni o‘rganishga yo‘naltiruvchi dasturiy talqin quyidagicha: *“Ertak-qissada bolalar olamining mahorat bilan tasvir etilishi. Unda abadiyat va foniylilik, hayot, muhabbat va o‘lim muammosining o‘ziga xos tarzda tasvir etilishi. Kichkina shahzoda obrazi. Ertakdagi boshqa obrazlar va ular o‘rtasidagi munosabat. Ertakda bolalar ruhiyatiga xos xususiyatlarning yorqin ifodalanganligi. Ertakning tarbiyaviy ahamiyati”*.

Metodika ilmida badiiy asarlarni bo‘laklarga bo‘lib o‘rganishda istagan joyda to‘xtab, keyingi darsda davom etish usuli ma’qul emasligi aytiladi. Buning o‘ziga xos pedagogik, psixologik sabablari bor. O‘qituvchi “Kichkina shahzoda”ni uning boblariga tayanib, to‘rt soatga rejalashtirib olishi va har darsda o‘qilgan bo‘lakning tahlilini amalga oshirishi ham mumkin. Yoki 40–45 daqiqa davomida darslikda berilgan parcha to‘liq o‘qib chiqilib, so‘ngra o‘quvchilar bilan birga uning **didaktik tahliliga** o‘tsa ham bo‘ladi.

O‘qituvchilarning Antuan de Sent-Ekzyuperi qalamiga mansub “Kichkina shahzoda” qissasi²ni o‘rganish qiyinligi borasidagi e’tirozlarida jon bor. O‘quvchilarning uni anglashi qiyin kechayotganini ham tushunish mumkin. Chunki asar bizning milliy ruhiyatimizga uncha yaqin emas. Bizning bolalar hamisha kattalarni haq deb biladilar. O‘zbekning milliy-axloqiy xususiyatida kattalarni tanqid qilish, ularning xatti-harakatlariga tahrir kiritish hissi yo‘q. Bu o‘zbekcha axloqiy me’yor bolalarning genida mavjud. Ayrim 5-sinf o‘quvchilarining asardan ma’naviy zavq ola olmayotganliklari va qissa qahramonini his qilmayotganliklarining sababi ham shundan bo‘lsa, ehtimol.

“Kichkina shahzoda” qissasi dunyodagi ko‘p tillarga tarjima qilingan. Unda Antuan de Sent-Ekzyuperi nihoyatda nozik qalbli,

¹ Умумий урта таълим мактабларининг 5-9-синфи учун адабиётдан ўқув дастури. “Маърифат” газетаси, 2007 йил, 4-, 7-, 9-октябрь.

² Ahmedov S. va boshq. Adabiyot. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. 2-qism. *Uchinchi nashr* – T.: «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent, 2015. – 68–89-b.

xayolot olami boy, sog'lom mantiq asosida yashaydigan o'zga tayyorlik bolakay timsolini yaratgan. Kichkina shahzoda yaxshini yomondan, go'zalni xunukdan farqlay olmaydigan, fantaziyasi qotib qolgan kattalar ruhiyatini tushunmaydi. Hodisalarga tor manfaat yuzasidan qaraganligi, bag'ri keng bo'lolmagani uchun bir-birini anglamay, bir marta beriladigan hayotda maza qilib yashash o'rniga urushlarni, qirg'inlarni o'ylab topadigan kattalar shahzodaning kinoyaviy nazari bilan tasvir etiladi. O'quvchilarga asardagi mana shu haqiqatlarni kashf etishda ko'maklashish kerak. Buning uchun o'qituvchiga asar matni yuzasidan tayyorlangan savol-topshiriqlar yordam beradi.

Afsuski, darslikda taqdim etilgan savol-topshiriq (ular umuman makkizta bo'lib, shulardan beshtasi bevosita asar matni bilan bog'liq. Ular ham o'quvchini matni bevosita qayta hikoyalashga yo'naltirilgan)lar bilan o'quvchilar asarning mohiyatiga kirolmaydilar. Shuning uchun o'qituvchi asar matnidagi diqqatga sazovor o'rinlarni savol yoki topshiriqqa aylantirib, ularga o'quvchilarning e'tiborini qaratishi kerak bo'ladi.

Asar tahlilining asosiy quroli bo'lmish savol-topshiriqlarga qo'shimcha ravishda taqdim etiladigan didaktik ashyolarning dastlabkisi:

1. "Qissa qahramoni chizgan rasmga kattalarning munosabati, ularning jug'rofiya, tarix, arifmetika va husnixatni o'rganish borasida bergan maslahatlari hamda shu sababli *"rassomlikning porloq istiqbolidan voz kechishga majbur bo'lgani"*ga o'z munosabatingizni bildiring!" – topshirig'iga javob berish uchun o'quvchilar mustaqil mulohaza yuritishlari kerak bo'ladi. Avvalo, jungli haqida xayol surish uchun u haqda biror narsa bilish kerak. Unga xos jihatlarni tasavvur qilish kerak. Bolaning xayolot olami chegara bilmaydi. Xayolda aqlga sig'maydigan ishlar ham oppa-oson sodir bo'laveradi. Hikoyachining rasm chizishga undagan narsa ham undagi xayol ufqining kengligi bo'lsa, ajabmas. Maslahat bergan, uzoqni ko'ra biladigan kattalarning haq ekani ko'rinib turgan esada, ular nafaqat asar qahramoniga, balki shu darsda o'tirganlarga ham yoqmasligi mumkin. Lekin baribir, kattalar haq ekanini o'quvchilar ichdan tuyib turadilar. O'qituvchi o'quvchilarining javoblaridan buni ilg'ashi mumkin. Lekin kattalarning "aqliligi" bilan shakllanib kelayotgan

iste'dod yo'qqa chiqarilmadimi? Kattalar bu bilan hisoblashishlari mumkinmidi, kerakmidi? Bolalar shular haqida ham o'ylab ko'rsinlar.

2. "Muallifning bolalikda chizgan dastlabki surati haqida kattalarning: *"Shlyapaning nimasi qo'rqinchli ekan?"* shaklida munosabat bildirishlari sababi haqida o'ylab ko'ring. Kattalarning tashqi o'xshashlikka e'tiborlari, xayoli uzoqlarga parvoz qilmasligiga qanday qaraysiz? O'zingizning bolalikdagi "suratchi"liklaringizni ham yodga oling". Bu savol-topshiriqlar o'quvchilarni o'z atrofidagi kattalarga asar qahramoni nazari bilan qarashga undaydi. Masalaga chuqurroq yondashishga qodir o'quvchilar o'z hayotidagi har xil vaziyatlarga kattalarning munosabatini eslab, uni o'z nazari bilan qayta baholaydi. Balki bu haqda so'zlab ham berar. O'qituvchi bu imkoniyatni qo'ldan bermasligi kerak.

3. "Hikoyachining: *"Axir, kattalarga hamma narsani doim tushuntirib borish kerak-da"* degan ta'kidiga qanday munosabat bildirasiz?" – savoli o'quvchilarni bir oz o'ylantirishi tabiiy. O'zbek bolalari nazarida kattalar hamma narsani bilishadi va ular ko'pincha haq bo'ladilar. Ekzyuperining qahramoni esa kattalarning haqligiga shubha qilyapti. Endi o'quvchilarda ikki xil nazar paydo bo'ldi. Ular asar qahramonini o'zlari bilan solishtirishlari mumkin. Ayrimlar qay biri to'g'ri ekanini ajratolmay, mavhum bir holatda tahlilda ishtirok etaveradi. Lekin bu ikkilanish ham uning shaxsiyati shakllanishida ahamiyatga egaligi tayin.

4. "Asardagi: *"Kattalar hech qachon o'zlaricha biron narsani tushuna olmaydilar, ularga hadeb hijjalab tushuntirib beraverish esa oxir-oqibat bolalarning ham joniga tegib ketadi"* tasviriga munosabat bildiring" – tarzidagi hazilomuz yo'sindagi bu fikrda ham asar qahramoni haqdir. Bolalar o'zlarining har bir qilgan nojo'ya ishlari uchun kattalarga hisob beraverishdan qiynalganlarini eslab, qahramonni yaxshi ko'rib qolishlari ham mumkin. Va bu, ehtimol, yaxshidir. Bu o'quvchilar va adabiy qahramon bir-birlarini tushunib borayotganidan dalolat beradi.

5. O'quvchini mustaqil mulohaza yuritishga undaydigan naybatdagi topshiriq, ya'ni hikoyachining: *"Kattalar orasida uzoq vaqt yashadim. Ularni yaqindan ko'rdim, bildim. Va bundan, tan olishim kerakki, ular haqidagi fikrim yaxshi tomonga o'zgarmadi"*, – degan xulosasiga e'tibor qiling. Asarda kattalar va bolalarning bu tarzda qarama-qarshi qo'yilayotganligi sababi haqida o'ylab ko'ring" –

topshirig'i bolalarni ancha o'ylantiradi. Avvalo, "kichkina rassom"ning kattalar haqidagi fikri qanaqa ekanini bolalar matnga murojaat qilib, bir esga olishadi. So'ng ular o'rtasidagi munosabatlarga, qarama-qarshiliklarning sabablariga e'tibor qaratiladi. Uning nazarida, kattalar bolalarni tushunmaydilar. Ularning o'z belgilab olgan yo'llari bor va bolalar xohlaydilar-mi-yo'qmi, bundan qat'i nazar, shu yo'ldan borishlarini talab qiladilar. Kattalar hayotiy tajribalari, bilimi va aqli yetovida bolaga nisbatan uzoqroqqa qaraydilar, kichiklarning fe'l-atvori, qiziqishlari, intellektual imkoniyatlarini hamisha ham hisobga olib o'tirmay, o'z mantiqlaridan kelib chiqib, talab qo'yadilar. Holbuki, bolakaylar – xayolot kishilari. Oradagi qarama-qarshiliklarning sababi ham shunda.

6. Yuqoridagi: "*Men shu tariqa yolg'izlikda yashardim, dilimni anglaydigan biror hamdardim yo'q edi...*", – shaklidagi anduhli xulosaga munosabat bildiring. Hikoyachining yolg'izligi sababi haqida o'ylab ko'ring" topshirig'ini bajarish uchun ham bolalar fikrlashga majbur bo'lishadi. Kattalardek mulohaza yuritadigan "kichkina shahzoda" qarashlarini o'ziday qabul qiladigan hamdard yo'qligi tufayli o'zini yolg'iz deb hisoblaydi. Chindan ham, kishining atrofida hamfikir, dildosh odamlar bo'lmasa, u o'zini yolg'iz sezadi. Uning bu holatini, vaziyatidan kelib chiqib, kattalar ham, kichiklar ham tushunishi, uning anduhli xulosasiga qo'shilish mumkin.

7. "Kichik shahzodaning hikoyachidan aynan qo'zichoq chizib berishni so'rganligi sababi haqida mulohaza yuriting. Sizningcha qo'zichoqda qanday ramziy ma'no bor?" savoliga javob berish uchun bolalar matnga murojaat qiladilar. Kichik shahzoda iltimosining sababi va qo'zichoqdagi ramziy ma'no ular o'rtasidagi suhbatda anglashilishi zarur. Agar bolalar buni ilg'ay olmasalar, o'qituvchi shu topshiriqni uy vazifasi sifatida qo'yishi ham mumkin. Toki, o'quvchilar o'ylashda davom etsinlar.

8. "Shahzodaning bo'g'ma ilon va fil suratini ko'rib: "*Yo'q, yo'q! Menga ilon ham, fil ham kerak emas! Ilon haddan tashqari xavfli, fil esa haddan tashqari katta*", – deya munosabat bildirgani haqida o'ylang" topshirig'i o'quvchilarni shahzodaga yanada yaqinlashtiradi. Bolalar bir-birlarini, deyarli hamisha yaxshi tushunadilar. Shahzodaning rasmda ifodalangan tasvirni darhol anglab, unga munosabat bildirgani sababi shunda. Topshiriq yordamida o'quvchilar shunday mulohaza yuritishga yo'naltiriladi.

Shu o'rinda shahzodaning chizilgan suratlarga bildirgan quyidagi e'tirozlariga o'quvchilar diqqati tortilishi kerak: "*U rasmni sinchiklab ko'zdan kechirgach:*

- *Yo'q, bu qo'zichoq judayam ori-q-ku, – dedi. – Boshqasini chizib ber.*

Men boshqa qo'zichoq rasmini chizdim.

Yangi do'stim xushfe'llik bilan muloyim jilmayib qo'ydi.

- *Bu qo'zichoq emas-ku, – dedi u. – O'zing ham ko'rib turibsan-a, qo'chqor-ku bu. Ana, shoxiyam bor...*

Men qo'zichoqni tag'in boshqatdan chizdim. Biroq, bu rasm ham unga ma'qul bo'lmadi.

- *E, buning o'lguday qari-ku. Menga uzoq yashaydigan qo'zichoq kerak".*

Bolalar chizilgan rasmni bunchalik oson tushunib, tez tahlil qila oladigan kichik shahzoda bilan filni yutib yuborgan ilon suratini shlyapa deb o'ylagan kattalarni taqqoslashlari kerak. O'quvchilar qarashlar xilma-xilligining sabablari haqida o'ylasinlar: balki kattalar katta bo'lgani uchun suratni tushunishmagandir? Balki oradagi masofa juda uzoqdir? Balki kattalar hayot tashvishlari va muammolari bilan bo'lib bolalardan juda ham uzoqqa ketib qolishgandir?

9. Qo'zichoqni kunduzlari bog'lab qo'yish uchun arqon bermoqchi ekanini eshitib: "*Kichkina shahzodaning qoshlari chimiril*"ganligi sababi haqida o'ylab ko'ring. Uning: "*Bog'lab qo'yasan? Nima keragi bor buning?*", – degan savollariga tayanib, uning qanday bola ekani haqida fikr bildiring" topshirig'i ham bolalarni anchagina o'ylantiradi. Yerliklarning nazari bilan o'zga sayyoralik yigitcha ko'zqarashi orasidagi tafovutga, ularning har biri o'z sharoitidan kelib chiqib ish tutayotganiga o'quvchilar e'tiborini tortish kerak. Ehtimol, kichkina shahzoda sayyorasi juda kichik bo'lgani uchun shunday deyayotgandir!? Balki qo'zichoqning ozodligiga daxl qilmaslik uchundir. Buni o'quvchilar o'zlari aniqlaganlari va fikrlarini asoslaganlari ma'qul.

10.1909-yilda yangi sayyorani kashf qilgan olim haqidagi: "*O'shanda astronom ajoyib kashfiyoti haqida xalqaro astronomiya kongressida ma'ruza qilgan, ammo uning gapiga biror kimsa ishonmagan, chunki u turkcha kiyingan edi*" tarzidagi izohga munosabat bildiring. Gap til haqida emas, kiyim to'g'risida ekaniga e'tibor qiling, buning sabablari haqida o'ylab ko'ring.

11. *“O’sha astronom 1920-yili kashfiyoti haqida tag’in ma’ruza qildi. Bu safar u eng so‘nggi modada kiyingan edi – hamma uning gapini ma’qulladi”* tasvirni izohlang. Kattalar qaroridagi mantiq haqida o‘ylab ko‘ring” – topshiriqlarini bajarish asnosida bolaning kattalar haqidagi tasavvuri namoyon bo‘ladi. Bu masalaga o‘quvchilar o‘zlarining jaijigina hayotiy tajribalariga asoslanib javob berishga undalsa, maqsadga muvofiq bo‘lardi.

12. Asardagi: *“Ana shunaqa g‘alati xalq bu kattalar. Ular xafa bo‘lib o‘tirishga arzimaydi. Bolalar kattalarga nisbatan kengfe‘l va kechirimli bo‘lishlari lozim”*, – degan xulosaga munosabat bildiring - topshirig‘idagi talabni o‘quvchilar o‘zlaricha qabul qilishlari tayin. Bolalikdan kengfe‘llikni, kechirimlilikni o‘z tabiatlariga singdirishni eplay olsalar, bizdan keyingi kattalar bizdan yaxshiroq bo‘lishiga kafolat yaratiladi.

13. Asardagi: *“...dunyoda do‘stlarni unutib yuborishdan ham qayg‘uliroq narsa yo‘q”*, – xulosaga munosabatingizni bildiring”.

14. Hikoyachining: *“...afsuski, men quticha devorlariaro qo‘zichoqni ko‘rishga qodir emasman. Balki men kattalarga ozroq o‘xshab ketarman”* tarzidagi anduhi sababi to‘g‘risida o‘ylab ko‘ring” topshiriqlariga javob berish uchun ham asar matniga qayta murojaat qilish kerak bo‘ladi.

“Kichkina shahzoda” qissasidan keltirilgan parchalar mazmuni asosida taqdim etilgan yuqoridagi savol va topshiriqlarning barchasiga sinfdagi hamma o‘quvchilardan birdek javob talab qilish yoki javob bo‘lmagan savollarga o‘qituvchining o‘zi javob berishi adabiyot o‘qitish metodikasi ilmi amaliyotida mutlaqo noto‘g‘ri tutum. Agar savollarga o‘quvchilar javob bera olmasalar, ular ochiq qolaverishi mumkin. Muhimi, o‘quvchilar shu haqda o‘ylab ko‘rdilar, o‘zlarini ham aqlan, ham ruhan zo‘riqtirdilar. Savol ko‘ngillariga kirdi. Bu, albatta o‘z natijasini beradi. Buni o‘qituvchi ma‘lum vaqt o‘tgach anglay boshlaydi.

O‘qituvchi o‘quvchilarga uy vazifasi sifatida o‘z tasavvurlaridagi shahzodani, hikoyachi va uning chizgan suratlarini chizishni yoki ulardan chizilgan suratlariga sharh yozishni talab qilish mumkin. Har ikkala topshiriqning natijasi ham ijod mahsuli hisoblanadi. Ijod esa mustaqil fikr natijasi bo‘lib, o‘quvchini yana mustaqil fikrlashga undaydigan omildir.

Savol va topshiriqlar:

1. Abu Nasr Forobiyning: "...badiiy asarni ifodali o'qish, o'qiganini hikoya qilib berish zo'r san'at ekani" borasidagi fikrini o'ylab ko'ring. O'qiganini qayta hikoyalash ta'lim tizimining qaysi bosqichida ko'proq samara beradi deb o'ylaysiz? Nima uchun? Fikringizni asoslang.

2. Abu Ali ibn Sino ta'kidlagan: "...g'azal eshitilganda ko'ngil kishilarining ahvoli shodlik va kulguga yoki g'amginlik va yig'iga moyil bo'lishini, ayniqsa, judolik va hajr tilga olinganda bu holatlar ortishi" haqidagi fikrni, Sizningcha, qanday tushinish mumkin? O'zingizni hech kuzatganmisiz? Sizda shunday holat yuz beradimi? Nazaringizda bu nimadan dalolat beradi? Fikringizni asoslashga harakat qiling.

3. Yusuf Xos Hojib badiiy so'zni «muqaddas hodisa» deb biladi. Sizningcha, so'zning muqaddasligi nimadan iborat? So'zning ta'sir qudratini hech tuyganmisiz? Hayotingizdan misollar keltirib fikringizni asoslang.

4. XVII–XIX asrlar adabiy ta'limidagi yetakchi g'oyalarni jadidlar adabiy ta'limiga xos bo'lgan asosiy xususiyatlar bilan taqqoslab ko'ring. O'xshash va farqli jihatlarni aniqlang. Sizning nazaringizda qaysi davr adabiy ta'limining mazmun-mohiyati bugungi adabiyot o'qitish talablariga monand keladi?

5. Jadidlar davri adabiy ta'limi bilan sovetlar zamonidagi adabiyot o'qitishni o'zaro qiyoslang. Ularning maqsadi va mazmunida qanday tafovutlarni ko'rish mumkin, Sizningcha? Nima deb o'ylaysiz, ularning qaysi biri inson shaxsiga yaqinroq? Nimasi bilan? Fikringizni aniq misollar yordamida asoslashga urinib ko'ring.

6. S. Dolimov, Q. Ahmedov, S. Ismatov va A. Zunnunovlarning adabiy ta'lim metodikasi bilan bog'liq qarashlarini taqqoslang. Qay birining fikrlarida zamon va jamiyat emas inson shaxsiga moyillik nisbatan ustuvor ekanligini asarlari misolida ko'rsatishga urinib ko'ring. Buning uchun zaruriy adabiyotlarga murojaat qilishni unutmang.

7. T. Boboyevning asarlarida bevosita adabiyot o'qitish metodikasi ilmiga daxldor qanday qarashlarni ilg'adingiz? Olimning bu sohadagi yetakchi qarashlari, Sizningcha, nimalardan iborat?

8. U. Dolimovning "Milliy uyg'onish pedagogikasi" asarida qayd etilgan "usuli savtiya" metodi haqida nimalarni bilasiz? Bu haqda

manbaalarga murojaat qiling. Mazkur metodning bugungi “an’anaviy”, “ mantiqiy” va “interfaol” metodlardan farqli va o‘xshash jihatlarini aniqlang.

9. Metodist olim S. Matjonovning mazkur sohaga daxldor yetakchi qarashlari nimalardan iborat deb o‘ylaysiz? Ularga o‘z munosabatingizni bildiring.

10. Zamonaviy adabiy ta’limda keskin burilish yasagan olim Q. Yo‘ldoshevning asosiy g‘oyalari nimalardan iborat ekanini ochib bering. Uning asarlaridan olingan iqtiboslarning mohiyatiga kiring va qarashlaringizni kursdoshlaringiz bilan bo‘lishing.

11. Q. Yo‘ldoshev qarashlaridagi afzalliklar nimalardan iborat ekanini sanab bering. Ularning ahamiyati haqida birgalikda fikrlashing.

12. B. To‘xliyevning adabiyot o‘qitish metodikasi ilmiga qo‘shgan hissasi nimalardan iborat ekanini aniqlang. Ulardagi asosiy g‘oyalarni topishga urinib ko‘ring.

13. Sizningcha, M. Mirqosimovanning adabiy ta’lim metodikasi ilmiga qo‘shgan hissasi nimalardan iborat? Uning qaysi fikrlari bugungi amaliyot uchun samarali, sizning nazaringizda? Fikringizni asoslang.

14. “Kichkina shahzoda” didaktik tahlili bilan bog‘liq savollarga o‘zingiz javob berishga urinib ko‘ring. O‘zingizni o‘zingiz taftish qiling.

15. Bugun amalda bo‘lgan “Adabiyot” darsliklarini yozma tahlilga torting. Ulardagi didaktik ashyolarning mazmun-mohiyatini mazkur bo‘limda o‘qiganlaringiz bilan taqqoslang. Oradagi tafovutni nomma-nom sanang. Kursdoshlar hamkorlikda muhokama qiling, o‘z xulosalaringizni chiqaring.

3- MAVZU. ADABIYOT O'QITISH METODIKASINING BOSHQA FANLAR BILAN ALOQASI VA ADABIYOT DARSLARIDA INTEGRATSIYA

Reja:

1. *Adabiyot o'qitishda fanlararo aloqa.*
2. *Adabiyotni boshqa fanlar bilan bog'lab o'qitishning xususiyatlari.*
3. *Integratsiya va uning mohiyati.*
4. *Integratsiyalashgan ta'lim.*
5. *Badiiy matnning didaktik tahlili namunasi.*

Bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamonda yangi fikr, yangi g'oya va innovatsiyalarga tayangan ta'lim tizimi oldinga intilishga, erishgan darajasidan bir pog'ona yuqoriga ko'tarilishga qodir bo'lishi kerak. Adabiy ta'lim sohasida bu, o'z navbatida, metodist olimlar, amaliyotchi va bo'lajak o'qituvchilardan yangi nazariya va paradigma (misol, model, namuna)larni o'rganish, ilmiy tadqiqot ko'lamini kengaytirish, dunyo ta'limshunosligi yutuqlaridan xabardor bo'lish hamda ularni o'z faoliyatida qo'llashni, ishlata bilishni talab etadi.

Shu ma'noda, yangidan-yangi ilmiy tadqiqot sohalarini belgilash zamonaviy (asli klassik bo'lgan) fanlar taraqqiyoti mahsuli bo'lgan fanlararo aloqani o'rganish, shu doiradagi tadqiqot dasturlarini belgilab olish zaruriyati paydo bo'ladi. Fanlararo aloqa tushunchasi zamonaviy tadqiqot va turli bilim sohalarining o'zaro ta'siri hamda bog'liqligini anglatadi.

Har qanday sohada ilmiy izlanishlar olib borayotgan tadqiqotchi o'zi ko'targan muammoga chuqurroq va kengroq yechim topish uchun belgilangan mavzu asosida boshqa fanlarga xos bo'lgan metodologiya, metod va usullardan foydalanadi. Masalan, falsafa turli tabiiy, diniy, tarixiy fanlar yig'indisi (integratsiyasi)dan iborat fan.

Tadqiqotchi tanlangan mavzuni kengroq sharhlash va mohiyatini ochib berish maqsadida yoki hayotiy hodisalar haqida bir butun tasavvur uyg'otadigan tabiiy-ilmiy nazariyalar yaratishda yordam beradigan bilimlarga tayanadi va ulardan foydalanadi. Shu fanlaraoro aloqani anglatadi.

Fanlararo aloqa aspektlari sifatida fan va texnikaning jadal rivojlanishi, texnologiyalarning tinimsiz yangilanib, takomillashib borishi, ishlab chiqarishda innovatsiyalarning qo'llanilishi hamda bu boradagi bilimlarning amaliyotga tatbiqi o'z-o'zidan fanlararo aloqani taqozo etadi.

Ya'ni, fanlararo aloqa – ta'limda bir nechta fanning ichki birligiga erishiladigan individual o'quv predmetlari mazmuni o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, shuningdek, bir nechta turli xil o'quv fanlarida qamrab olingan mavzuga doir masalalarni bir butun shaklda birlashtirib taqdim etishni anglatadi.

Bugungi axborotlashgan zamonda ta'lim tizimi, xususan, adabiyot o'qitish kechimida fanlararo aloqning zurluriyati:

– jahon hamjamiyati ilmiy tafakkurida tizimli va funksional yangilanishlar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Bunday jamiyatda ta'lim amaliyotiga innovatsion texnologiyalarni joriy etish, mustaqil, mantiqli, ijodiy (kreativ) fikrlash va mustaqil faoliyat ko'rsatish, ishlab chiqarishning yangi usullari hamda vositalaridan keng foydalanish ta'limiy ehtiyoj darajasiga ko'tarildi. Shunday ekan, ijodiy faoliyatni boshqarish, ilmiy tafakkur rivojini ta'minlash qonuniyatlarini aniqlashda fanlararo aloqa ta'minlanishi taqozo etiladi;

– fan va texnika taraqqiyoti ko'lami, uning konseptual ahamiyati bilish imkoniyatlarining kengayishini taqozo etmoqda. Bu, o'z navbatida, fanlar o'rtasidagi bog'lanishlarning bemisl kengayib borishiga, fan metodologiyasi qonuniyatlarining murakkablashib borishiga zamin tayyorlayapti. Shu ma'noda, fanlar o'rtasidagi aloqadorlikni izchil o'rganishda bu yondashuvning mazmun-mohiyatini kompleks tadqiq etish, uning ichki tuzilmasi va tamoyillarini aniqlash dolzarb ahamiyat kasb etadi;

– adabiyot o'qitish metodikasi sohasida fanlararo aloqaning konseptual asoslari sifatida adabiyotshunoslik, ona tili, tarix, botanika, zoologiya, tabiatshunoslik singari fanlarning nazariy masalalari muhim ahamiyat kasb etadi.

– Shu jihatdan, fanlararo aloqa adabiyot o'qitish metodikasi fani muammolarini tadqiq etishda qo'l keladi, ularning konseptual, metodologik jihatlarini to'laroq ochishda ilmiy tadqiqotchilarga ko'maklashadi. Mazkur yondashuvlarni nafaqat ilmiy tadqiqot jarayoniga, balki adabiy ta'lim amaliyotiga ham joriy etish istalgan samarani beradi;

fanlararo aloqaning nazariy va amaliy ahamiyati hozirgi postneklassik¹ fanlardagi yechimida aniq namoyon bo'ladi. Bu tamaddun taraqqiyotini ta'minlashda, ekologik muammolarni bartaraf etish va hokazolarda muhim rol o'ynaydi².

Ma'lumki, ta'lim tizimi, xususan, adabiy ta'lim ilmi va amaliyotiga innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish, mustaqil va ijodiy fikrlashga, innovatsion faoliyatga ehtiyoj hamda zaruriyat ortib bormoqda. Shu ma'noda, mamlakat ilm-fan taraqqiyotini ta'minlashda fanlararo aloqaning nazariy va amaliy ahamiyati yana bir bor dolzarblik kasb etadi.

Fanlararo aloqa kommunikatsiya shakli sifatida ham o'ziga xos ma'no-mazmun kasb etadi. Bunday yondashuv – fanlararo aloqadagi epistemologiya³ ning funksiyasini o'zgartiradi. Shuningdek, fanlararo bilish nazariyasi epistemologiya shakliga o'zgaradi. Ya'ni fanlararo aloqa bugun yangi ilmiy paradigma sifatida namoyon bo'ladi. Fanlararo aloqa, transdissiplinar⁴ kabi yondashuvlar mutaxassislar, ta'lim sohasida o'quv fani mutasaddilarining o'zaro hamkorligi va birgalikdagi faoliyatini taqozo etadi.

Fanlararo aloqa tushunchasi borasidagi qarashlarga xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, ilmiy va ijtimoiy tafakkurda fanlararo aloqaning shakllanishi, avvalo, oliy ta'lim tizimida o'qitilib kelinayotgan fanlarni o'qitish metodikasi fani doirasidagi mavzular bilan bog'liq. Shu jihatdan qaraganda fanlararo aloqa tushunchasi hozirgi kunda oliy ta'lim, xususan, o'qituvchilar tayyorlash tizimida birinchi blok fanlar sirasida turgan fanni o'qitish metodikasida o'qituvchilar tayyorlashning muhim asoslaridan biridir.

¹ **Postneklassik fan** – bu 70-yillarda boshlangan fanlarning zamonaviy fan sifatida shakllanishi. Bu konsepsiya muallifi akademik V.S.Stepin. Bunday yangidan shakllanish bosqichining xususiyatlaridan biri – fanlarning o'zaro aloqasi, bog'liqligi bo'lib, sanoatning eskirgan ehtiyojlarga xizmat ko'rsatishi tamoyilining yangilangan vaziyatlarda qo'llanishidir. Postneklassik fanlarning xarakterli xususiyati sinergetika(hamkorlik)dir. Postneklassik fanlar muammolarning XVII asrning klassik(dunyoning mexanik tasviriga asoslangan) ilm bilan XIX asr oxiri – XX asrning birinchi yarmidagi noklassik(dunyoning har xil ilmlar asosidagi tavsifi borasida) ilmnining hamkorligi shaklida tushuniladi.

² <https://infourok.ru/integraciya-i-mezhpredmetnie-svyazi-1095892.html>;

https://studme.org/162240/pedagogika/mezh-predmetnye_svyazi_obuchenii_tehnologii/

³ **Epistemologiya** qadimgi yunon tilidan olingan bo'lib, ilmiy bilim, fan, ishonchli bilim ma'nolarini anglatuvchi falsafiy-metodologik fan sanaladi. Bilim, uning tuzilishi, tarkibi, faoliyati va rivojlanishini o'rganadi. Ko'pincha (ayniqsa ingliz tilida) bu so'z gnoseologiyaning sinonimi sifatida tushuniladi. Bu ikkita tushunchani farqlashdagi asosiy xususiyat shundan iboratki, epistemologiya subyekt-obyekt munosabatlarini o'rganadi, gnoseologiya obyekt-bilim munosabatlarini o'rganadi.

⁴ **Transdissiplinar** (transdissiplinar yondashuv) – bu ilmiy dunyoqarashni kengaytirish usuli. Ya'ni biror-bir ilmiy qashni bir soha doirasida cheklanib qolmay professional faoliyat yuritishdir.

Ilm-u fan taraqqiyoti ko'z ilg'amas darajada tezlashgan davrda fanlar integratsiyasi uzluksiz ta'limni yo'lga qo'yishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Integratsiya atamasi lotincha *integratio* so'zidan olingan bo'lib *qo'shilish, birlashish* ma'nolarini anglatadi. Kengroq ma'noda aytiladigan bo'lsa, "integratsiya" tushunchasi umumiy bir maqsadga xizmat qiladigan har xil sohalar, yo'nalishlarni birlashtirish, ma'lumotlarni integratsiyalash, maktabda o'quv fanlarini bir-biriga singdirib yuborish, manbalarda mavjud bo'lgan materiallardan ma'lum maqsad asosida umumlashtirgan holda foydalanish kabilarni nazarda tutadi.

Integratsiyalashgan ta'lim va fanlararo aloqa bir-birini to'ldiradigan ikki xil tushuncha. Fanlararo aloqada o'quvchining ma'lum bilimlarni o'zlashtirish jarayonida u yoki bu muammoni imkon qadar chuqur anglash hamda olingan bilimlarni amaliyotga samarali joriy etishiga imkon berish maqsadida o'quv fanlari orasida o'rnatiladigan aloqa nazarda tutiladi¹.

Integratsiya esa fanlararo aloqaga, ya'ni umuman fanlar, o'quv fanlari, ularning bo'lim va mavzulari bo'yicha olingan bilimlarga tayanilgan holda o'rganilgan masalaga xos bo'lgan yetakchi g'oyalardan hamda hodisalarning izchil, har jihatdan chuqur hamda serqirra ochilishi demakdir.

Biror muammoning yechimini fanlararo aloqaga asoslangan holda integratsion o'rganish uchun o'qituvchi, avval maqsadni aniq belgilab olishi, o'rganiladigan materialni qayta qarab chiqishi, uning samarali o'zlashtirilishi uchun mos metodlarni tanlashi, dars jarayonini tashkil etishning shakli va zaruriy ashyolarini aniqlashi hamda olinadigan natijalarni oldindan belgilab chiqishi taqozo etiladi.

Fanlararo aloqa xarakteridagi integratsiyalashgan darslar tizimi ma'lum o'quv fani bo'yicha yil davomidagi mashg'ulotlarning maksimal qismini tashkil etishi lozim. O'zlashtirilgan bilimlarning har xil aspektida ochilishi, masalan, biror badiiy asar mazmunidagi voqea-hodisalarning ham geografik, ham biologik, ham botanik, ham psixologik bilimlarga tayanilgan holda va insoniy tuyg'ular (psixologik) asosida ochib berilishi shakllanib kelayotgan shaxsning fikrlash, his qilish, qayg'udosh bo'lish singari jihatlardan rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

¹ <http://dic.academic.ru/>

Oliy o'quv yurtlarida adabiy ta'lim, fan va maktab integratsiyasi ta'limiy, ilmiy va amaliy potentsaldan umumiy manfaatlar yo'lida foydalanishni nazarda tutadi. Ma'lum faoliyatlarning Integratsiyalashuvi jarayoni samaradorlik va tejamkorlikni ta'minlaydi, ilmiy jarayonni jadallashtiradi, ayni zamonda dunyo hamjamiyatidagi fan va oliy ta'limning intellektual potentsalidan unumli foydalanish imkonini beradi. Adabiy ta'limda mavjud tajribalarni umumlashtirish, tahlillash va foydalanish bu jarayonning barcha ishtirokchilariga katta samara keltirishi mumkin. Adabiy ta'lim, fan va maktabning Integratsiyalashuvi bo'lajak o'qituvchini tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik yo'nalishdagi oliy o'quv yurtlari adabiy ta'limi jarayonini integratsiyalashni quyidagi tizimda ko'rish mumkin:

- o'quv, ilmiy va maktab amaliyoti kompleksi integratsiyasi;
- oliy o'quv yurti va maktab tizimi integratsiyasi;
- adabiyot o'qitish metodikasi kafedra va maktab o'quv-metodik birlashmalari integratsiyasi;
- ilmiy-o'quv va amaliy markazlar integratsiyasi;
- talabalarni ma'lum yo'nalishlarga individual tayyorlashda integratsiya;
- mutaxassislar va talabalarining ijodiy jamoasi integratsiyasi va hk.¹

Adabiy ta'limni integratsiyalash bo'yicha taqdim etilgan bu shakllarning har biri alohida ta'lim muassasalari va turli shart-sharoitlarda o'z xususiyatiga ega, albatta. Ayni zamonda, ta'lim amaliyotini integratsiyalashning bu shakllarida ularning barchasi uchun umumiy bo'lgan jihatlar ham mavjud.

Masalan, "o'quv, ilmiy va maktab amaliyoti kompleksi integratsiyasi"da bo'lajak adabiyot o'qituvchisining adabiyot va ona tili o'qitish metodikasi, adabiyotshunoslik, pedagogika, tarix va hk. fanlar orqali o'zlashtirgan bilimlarini maktab amaliyotida, badiiy asarlar tahlili jarayonida umumlashtirgan holda qo'llay bilishi nazarda tutiladi. Shu maqsadda oliy pedagogik ta'limda pedagogik amaliyotlar tashkil etilgan.

Pedagogik yo'nalishdagi oliy o'quv yurtining amaliy faoliyati maktab bilan hamkorliksiz samarali bo'lmaydi. Shu ma'noda, oliy

¹ <https://ru.wikipedia.org/wiki>. Википедия. Свободная энциклопедия.

o'quv yurti va maktab tizimi integratsiyasi katta ahamiyat kasb etadi. Garchi maktab ham, oliy o'quv yurti ham uzluksiz ta'limning turli bosqichlari bo'lsa-da, bo'lajak o'qituvchini tayyorlashda ularning integratsiyasi taqozo etiladi.

Oliy o'quv yurtlari filologiya fakultetlari adabiyot o'qitish metodikasi kafedralari maktablardagi ona tili va adabiyot bo'yicha o'quv-metodik birlashmalari bilan hamkorlik qilishi, bir-birini zaruriy ilmiy yangiliklar, nazariy bilimlar va amaliyotdagi o'zgarishlar bilan ta'minlab borishi zarurdir.

Bo'lajak adabiyot o'qituvchilari ta'lim markazlarining ish faoliyati, dastur, darslik va boshqa didaktik ashyolarning yaratilish jarayoni, ularga qo'yilayotgan talablar haqidag tasavvurga ega bo'lishlari o'ta foydalidir. Oliy o'quv yurtlari filologiya fakultetlari talabalarini "ma'lum yo'nalishlarga individual tayyorlash integratsiyasi" shakli ham kompetentli o'qituvchilarni tayyorlashda katta ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, har bir inson o'ziga yarasha qobiliyat, iqtidor va imkoniyatlarga ega. Oliy ta'lim tizimida talabalarga xos individual xususiyatlarni ilg'ab, ularni ma'lum sohalariga yo'naltirishda bunday integratsiya katta ahamiyat kasb etadi.

Bo'lajak adabiyot o'qituvchilarining maktablarda ish olib borayotgan tajribali o'qituvchilar, olimlar, shoir va yozuvchilar bilan hamkorlik qilishi, bu sohalarining xususiyatlaridan xabardor bo'lishi "mutaxassislar va talabalarining ijodiy jamoasi integratsiyasi"ni yuzaga keltiradi.

Davr bo'lajak adabiyot o'qituvchilarining oldiga yangicha talablar qo'yimoqda. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligi ularning ilmiy salohiyati bilan o'lchanadi. Zamonaviy adabiyot o'qituvchisi o'z maqsad va vazifalarini o'quvchilarning maqsad va vazifalariga moslashtira bilishi taqozo etiladi.

Kelajakda adabiyot o'qitish ishi bilan shug'ullanadigan talabalarining adabiy ta'lim bo'yicha olgan bilimlari o'qitish amaliyotida ona tili, adabiyotshunoslik, tarix, pedagogika, fanatshunoslik fanlari bo'yicha bilimlari bilan bevosita, ruhshunoslik, tabiatshunoslik, biologiya va boshqa bir qator fanlar bilan esa bilvosita integratsiyalashadi.

Masalan, Shayxzodaning 5-sinf «Adabiyot» darsligidan o'rin olgan «Iskandar Zulqarnayn» dostonini o'tishda tarix;

O‘Hoshimovning «Dunyoning ishlari» qissasini o‘rganishda ruhshunoslik; Nodar Dumbadzening «Hellados» hikoyasini o‘rganishda geografiya; Janni Rodarining 6-sinf «Adabiyot» darsligidan o‘rin olgan «Hurishni eplolmagan kuchukcha» hikoyasini o‘rganishda zoologiya; Abdulla Qahhorning «Bemor», Odil Yoqubovning «Muzqaymoq» hikoyalari, Erkin Vohidovning «Nido» dostonlarini o‘rganishda tarix; Gulxaniyning «Zarbulmasal» asari, Chingiz Aytmatovning «Oq kema» qissasi singari adabiy materiallarning mohiyatiga kirishda zoologiya va botanika fanlari aloqadorlikka tayanish, ya'ni shu o‘quv fanlarini o‘rganish jarayonida o‘zlashtirilgan bilimlarni integratsiyalagan holda amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Badiiy matnning didaktik tahlili namunasi

“Yurt qayg‘usi”ni o‘rganish

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari 5-sinf “Adabiyot” darsligida “Vatanni sevmoq iymondandir” ruknida Abdurauf Fitratning “Yurt qayg‘usi I”, “Yurt qayg‘usi II” deb nomlanadigan sochma she’rlari taqdim etilgan bo‘lib, uning o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilishiga ikki soat ajratilgan. Bu asarni “**Fikriy hujum**” metodidan foydalanib o‘tish yo‘lini amalda quyidagicha ko‘rish mumkin.

Fitratning ushbu asarini o‘rganishga bo‘lgan dasturiy talab: *“...shoirning “Yurt qayg‘usi” deb nomlangan she’rlarining yaratilish sabablari. She’rda Vatan ozodligi, har bir odamning Vatan taqdiri oldidagi javobgarlik tuyg‘usining ta’sirchan tasvirlanishi. She’rdagi samimiylilik va ifoda qudrati”*¹ni o‘quvchilarga anglatishdan iborat. Darslikdagi asar matniga shu nazar bilan yondashish va savol-topshiriqlar shu talqin talabida tuzilishi kerak. O‘qituvchi ham darsning maqsadini belgilashda shu talqindan kelib chiqishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Dars boshida o‘qituvchi Fitrat shaxsi haqida kichkinagina kirish so‘zi qilishi kerak bo‘ladi. Uning hayotidan olingan quyidagi: *“Turkiyadan dunyoqarashi jiddiy o‘sib qaytgan Fitrat Buxoroda*

¹ Umumий урта таълимнинг давлат таълим стандарти ва дастури. Адабиёт. 164-244-бетлар.
//Таълим тараққиёти. 1-махсус сон. Шарқ матбаа-концерни. 1999 йил.

judiuchilik harakatining shakllanishi va kengayishida faol qatnashdi. Bu harakatning asosiy maqsadi Turkistonni mustamlaka kishanlaridan ozod etish, buning uchun xalqda ozodlikka tashna ruh paydo qilish, ma'rifat ko'zini ochish, ijtimoiy ongini o'stirish edi" lavhasini o'qib berishi kerak bo'ladi. Vatan haqida shunday bitik yaratgan, qalbida yurtiga buncha katta muhabbati bor o'g'lonning shaxsi qanaqa bo'lganligini o'quvchilar tasavvur qilishlari kerak. Shundan so'nggina "Yurt qayg'usi" she'ri o'qishiga o'tiladi.

"Yurt qayg'usi" – sochma she'r. Misralar qofiyaga solinmagan. Fikrlar nasriy shaklda ifodalangan bo'lsada, ichki tartibga asoslangan, ahiddatli musiqiyligi borligi uchun ham u she'r. Asar shunday ohang bilan o'qilishi kerakki, ifodada dard, alam yaqqol ifodalansin. O'quvchining she'r ruhini o'qituvchisining o'qish ohangidan tuyishi dars samaradorligini ta'minlaydi. So'ngra uning tahliliga kirishiladi. Asar matni yuzasidan o'rtaga tashlanadigan savol-topshiriqlar o'qituvchi bilan o'quvchi birgalikdagi faoliyatining yetaklovchisi bo'ladi. "Yurt qayg'usi" she'ri yuzasidan taqdim etilgan savol-topshiriqlar o'rtaga tashlanganda ham o'qituvchi tomonidan asardan keltiriladigan namunalar o'z ohangi bilan o'qilishi kerak. Shunda ularning ta'sir kuchi saqlanib qoladi.

Avval: "She'rdagi: *"bag'rim yoniq, yuzim qora, ko'nglim siniq, bo'ynim bukik"* singari alamli iqrorlar sababi nimada deb o'ylaysiz?" – savoli o'rtaga tashlanadi va bu bilan o'quvchilar mulohaza yuritishga undaladi. O'quvchilar shoir va uning timsolida butun millatning shunday holatga tushishiga sabab bo'lgan holatlar haqida o'ylashga yo'naltiriladi. Buning uchun o'qituvchi zarur bo'lsa qo'shimcha savollar berish orqali o'quvchilarni asardagi fikrlar mohiyatini anglashga undashi maqsadga muvofiq. O'quvchilar qadim Turonning Chor Rossiyasi tomonidan bosib olingani haqida balki bilar, balki bilmas. Birortasi bu haqda fikr ayta olsa tuzuk, fikr bo'lmasa, o'qituvchi vatan tarixining shu davriga bog'liq ma'lumotlar berishi kerak bo'ladi.

"Nomusini bot kishilarning oyog'lari ostinda ko'rub, turklik qoni qaynag'ay, musulmonlik hamiyati toshgay, tamug' olovlari kabi sachragay. Lekin o'z kuchsizligini anglab, qaytib o'tirgan va qon yig'lagan turkning holini arz etarga keldim, xoqonim!" satrlarida turk ruhining qaynashi va o'zligi aks etgan o'rinlarni ko'rsating" topshirig'i ham o'quvchilarni o'ylantirishi aniq. Shoir yurtning

hamiyatli bir o'g'loni sifatida Vatanning yotlar qo'lida ekanidan eziladi, lekin qo'ldan hech narsa kelmaydi. Umuman, "Yurt qayg'usi"ni o'zlashtirish uchun o'quvchilar aqlarini anchagina zo'riqtirishlariga to'g'ri keladi. Unda shoir or-nomusi, g'ururi o'zgalarning oyog'i ostida toptalayotgan butun turkning qoni, ruhi, musulmonlik hamiyati nomidan gapiradi, o'z zaifligidan qon yig'laydi. Mazkur savol ustida ishlash jarayonida o'quvchi erkning, mustaqillikning qimmatini tuya boradi.

Asardagi: *"turkning nomusi, e'tibori, iymoni, vijdoni zolimlarning oyog'lari ostida qoldi. Turkning yurti, ulog'i, o'chog'i, Turoni yot qo'llarga tushdi"* tarzidagi ta'kidga e'tibor qiling" topshirig'ini bajarish jarayoni ham o'quvchilarga o'sha davrdagi holatni anglatadi. Faqat o'quvchilarga buni aniqroq tasavvur qilishga ko'maklashish kerak. *"Zolimlarning oyog'lari ostida qolgan"*, *"yot qo'llarga tushgan"* kabi iboralarning mohiyatiga kirish uchun ularning har biriga alohida to'xtalish, izoh berish kerak bo'ladi. Turkistonni bosib olgan ruslar, avvalo, uning tili va ma'naviyatini oyoqosti qildilar. Turkning ruhini sindirishga urindilar. Turkning qadim qadriyatlarini yo'qotish payida bo'ldilar. O'zlarining madaniyatini majburiy olib kira boshladilar. Mana shu kabi odam anglashi oson bo'lmagan yashirin tarzda, zimdan qilingan hujumlar o'z davrida Fitratning dilini og'ritgan.

"Sening omonatingga xiyonat qilganlarni ez, ur, o'ldur!" shaklidagi chaqiriq kimga qaratilgan va "xiyonatchi" kim deb o'ylaysiz?" savoli ham kishini o'ylantiradigan og'ir so'rov. "Asar qahramoni kimga murojaat qilyapti?", "u "omonat" deganda nimani nazarda tutyapti?" kabi qo'shimcha savollar bilan asosiy savolni bir oz soddalashtirish, so'ng xiyonatchilar haqida gaplashish mumkin. Xiyonatchilar haqida bolalar fikr aytolmasa, o'qituvchi o'z qarashlarini o'rta taqda tashlab, bolalarni bu haqda o'ylab ko'rishga undagani ma'qul. Mazkur vaziyat o'sha davrdagi xonliklar, ular orasidagi kelishmovchiliklar, yurtdagi parokandalik, ularga omonat qoldirilgan yurtni asrolmaganliklari, birikib umumiy dushmanga qarshi kurashaolmaganliklari oqibati. Shoir bobokaloni Amir Temur maqbarasi oldida, ne mashaqqatlar bilan yurtini bosqinchilar qo'ldan ozod qilib, avlodlar qo'liga omonat topshirgan hoqon poyida tiz cho'kib uning ruhi oldida munojot qilmoqda. Bu juda og'ir vaziyat. O'qituvchi ehtiyot bo'lishi kerak: o'quvchilarning ruhiyatida

tushkunlik kayfiyati paydo bo'lmisligi, ularda iftixor tuyg'usi yotakchilik qilishiga erishish lozim.

Shoirning: "...*yuqorida aytdigim ishlarning hammasiga o'zim sabab bo'ldim, barchasini o'zim qildim, sening Turoningni o'zim talatdim, sening turkingni o'zim ezdirdim, sening omonatlaringga xiyonat o'zim qildim*",- degan iqrori to'g'risida nima deysiz? Siz ham Fitratni xiyonatchi hisoblaysizmi?" savollari o'quvchilarni mustaqil mulohazaga undaydi. Asl holatni tasavvur qilgan, Fitratning shaxsidan xubardor bo'lgan o'quvchilar shoir "o'zim" deganda butun turkni, xon-u xoqonlarni nazarda tutayotganini anglaydilar.

Navbatdagi: "asardan olingan: *"men qo'limga topshirdig'ing qiltchni tashlab cholg'uni olmasa edim, Turonim talanmas edi!.."* satrlariga alohida e'tibor bering. Yurt uchun kurashish o'rniga cholg'u bilan ko'ngil ochish oqibati xayrli bo'ladimi?" so'rog'iga javob berish uchun ham o'quvchilar ancha o'ylanishlari lozim bo'ladi. Demak, yurt ulug'larining aysh-ishrat bilan band bo'lishi, o'z ko'nglini xushlash bilan o'voraliq butun mamlakatga, millatga qimmatga tushadi. O'quvchilar bu savolga javob bera olishmasa, o'qituvchi ham o'z fikrini o'zida saqlab turishi, bu masala haqida o'ylab ko'rishni, uyda kattalar bilan maslahatlashishni, so'ngra keyingi darsda javob berish mumkinligini aytishi o'rinlidir. Bunday ulkan ishlarga uydagi kattalarning ham e'tiborini tortish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Muallifning: *"men yolg'iz yozuqlarimni iqror etarga emas, Turonga berdigim zararlarni to'lamoq uchun keldim, xoqonim. Mendan nafrat etma!"*, - degan o'tinchi sizga qanday ta'sir qildi? Nega?" – savoli ham har qanday o'quvchini o'ylantiradi. Avval Turonga berilgan zarar haqida o'quvchilarning fikrini so'rash kerak. U zarar kim tomonidan berilgan? Nega shoir "*berdigim zararlarni*" deyapti? Turonga berilgan zararlarning uning tomonidan bo'lganmi yoki millat uchun qayg'urmaydigan, millat va mamlakat taqdiri uchun dili og'rimagan bir guruh mansabdorlar, o'sha davrning hukmdorlari, bosqinchilar bilan til biriktirib, o'z huzur-halovatini millatning taqdiridan ustun qo'ygan sotqinlar tomonidanmi? O'quvchilarning fikrini mana shu tomonga yo'naltirish kerak. Faqat bunga javobni ularning o'zlari topishlari zarur. Shoir o'z shaxsini nazarda tutayaptimi yoki millatning har bir ulug'inimi ekani aniqlangach, shoir o'tinchining ta'siri va buning sabablari haqida gapiriladi. Bu o'rinda o'quvchi o'z dunyoqarashi, o'z ko'ngliga tayanadi. "*Turonga*

berdigim zararni to'lamog uchun keldim" jumlasini qanday tushunish borasida ham o'quvchilarning fikri bir qadar zo'riqishi mumkin. Bu zararni, Ona Vatanga, muqaddas zaminga berilgan zararni nima bilan to'lash mumkin? Uni to'lash mumkinmi? Hatto jonni berganda ham bu to'lovdan qutulish mumkinmi? Bir kishining joni, qoni Vatan uchun, Ona Zamin uchun kerakmi? O'quvchilarga mana shunday ko'makchi savollarni berib, bunday fikrlar haqida o'yga toldirish adabiy ta'limning maqsadiga muvofiq keladi.

"She'r qahramonining qat'iy qarori ifodasiga e'tibor qiling: *"sening dunyoda sig'magan g'ayratingga ont ichamanki, Turoning eski sharaf va ulug'ligini qaytarmasdan burun oyoqdan turmasman"*. O'quvchilarning e'tibori avval *"dunyolarga sig'magan g'ayrat"* egasi kim ekaniga qaratiladi. *"Turanning eski sharaf va ulug'ligi"* deganda qaysi davr nazarda tutilayotganini ham o'quvchilardan bir so'rab boqqan ma'qul. Shunda tarbiyalanuvchilarning bu qarorga e'tibori ortadi. G'ayrati dunyolarga sig'magan Amir Temur Ona Yurtini jumla jahonga tanitgan, uning sharafi va ulug'ligini jon bilan, qon bilan himoya qilgan, ko'klarga ko'targan. Fitrat singari ruhiyati uyg'oq o'g'lonlar hech qursa so'zi bilan millatni uyg'otmoq, uni oyoqqa turg'izmoq istaydi.

O'quvchilar "Turon", "Turkiston", "turk" va "turklik" tushunchalari haqida o'z bilganlaricha javob bersinlar. Bu o'quvchilar oldiga savol shaklida qo'yilishi kerak. O'qituvchi javoblarni to'ldirib, mukammallashtirishi mumkin. O'quvchining aqlini zo'riqtiruvchi bu kabi savol va topshiriqlar bilan qo'zg'ash uni bor g'ayratini ishga solishga majbur etadi.

O'qituvchining vazifasi aytilgan har bir fikr va g'oyani, xulosa va munosabatni yozib borish yoki eslab qolishdan iborat. U avvaldan bunga tayyorlanishi talab qilinadi. Toki, o'quvchilarning birorta ham fikri uning nazaridan chetda qolmasin. Bu metodda fikrlar soni, mazmuni, mantiqiylik darajasi, asosi va isbotining nechog'li kuchliligi baholanadi, rag'batlantiriladi. Yuqoridagi tahlil asosida asar mohiyatiga kirgan, shoirning muhabbat, dard va iztiroblarini his qilgan, uni o'zbekning bir o'g'loni sifatida anglagan o'quvchi ma'naviyatida o'sish sodir bo'ladi.

Ikkinchi darsda "Yurt qayg'usi II" she'ri o'tiladi. Bu ikki soatni birlashtirish maqsadga muvofiq emas. O'quvchiga she'rning birinchi qismini o'zlashtirish va mag'zini chaqish ham oson bo'lmaydi.

Birinchi qismdagi Vatanga muhabbat, uning uchun og'rish, qayg'urish, burchlilik hissini tuyish, aytilganlarni "hazm qilish" uchun o'quvchi aqlan anchagina zo'riqadi. Sochmani yod olish ham o'ziga yarasha vaqt talab qiladi.

Majmuadagi ikkinchi she'r ham xuddi birinchisi singari o'qilib tahlilga tortiladi. Yuqoridagi tarzda maxsus savol-topshiriq ustida ishlanadi, ularni o'quvchilar anglab olishlari uchun yordamchi savollar tuziladi. Javoblar yozib borilib, ularga munosabat bildiriladi.

Asar tahliliga kirishganda: "Sochma she'rda yigitning xayolini o'g'irlagan sohibjamol "xotun", sizningcha, kimning yoki nimaning timsoli? She'rda asosiy qahramonning: *"bir xotunki, egnida ipakli, lekin yirtiq va eski bir ko'ylakdan boshqa bir kiyim yo'q"* tarzida tasvirlanganligi sabablari haqida o'ylab ko'ring" degan birinchi savol-topshiriq o'rtaga tashlanganda o'quvchilar uning mohiyatiga kirishi uchun: "Xotun"ning sohibjamolligiga e'tibor qiling, ustidagi ko'ylak ipakli ekani nimadan dalolat beradi?", "Uning nega hozir eski va yirtiqligi haqida o'ylab ko'ringchi" singari qo'shimcha savollar berilishi maqsadga muvofiq. Bu sohibjamol turk – o'zbek ayoli. Turkiston timsoli. U o'zbek uchun dunyodagi barcha sohibjamollardan go'zalroq. U ayol bir zamonlar shunday to'q, ham ma'nan, ham moddiy boy bo'lgan. Shuning uchun ham egnidagi ko'ylagi "ipakli". Mustamlakachilar uning bor bud-shudini, egnidagi ipakli ko'ylagidan boshqa hamma narsasini tortib olganiga ancha bo'lgan. Shuning uchun ham ayolning egnidagi yaka-yolg'iz ko'ylagi ham eskirib, yirtilib ketgan. O'qituvchi bu fikrlarni o'zi aytmay, o'quvchilarni shunday xulosa chiqarishga, shu haqiqatni o'zlari topishiga, anglashiga yo'naltirishi kerak. Bu haqiqatlarni har bir bola o'zi uchun o'zi ochishi maqsadga muvofiqdir. Shunda u ta'lim jarayonidan huzur qiladi, lazzat tuyadi. Bu tuyg'u uni yanada faollashtiradi.

Navbatdagi: "Asarda o'tli bir yonish bilan berilgan: *"yonimda, ko'zimda, miyamda, yuragimda nima axtarasan, nechuk ketmaysan? Qayg'u tutunlari ichra yog'dusiz qolg'an ko'zlaring yosh yomg'urlarin nechuk to'kadur?"* savollariga javob topishga urinib ko'ring" topshirig'i ham tarbiyalanuvchilarni anchagina o'ylantiradi. Avval savolning birinchi qismi haqida. "Ayol timsoli nega shoirning ko'zi, miyasi, yuragidan nari ketmayapti?", "Bu yerda gap ayoldami yoki shoirning o'zidami?", "Balki shoir o'zi uni ongidan, ko'nglidan

quvib chiqara olmayotgandir?”, “Bunga uning ruhan balandligi, ma’nan yetukligi erk bermayotgandir?”, “Eli, yurti uchun qayg’uradigan odam bo’lgani uchun bu vaziyatga, mamlakatdagi holatga befarq qaray olmayotgandir?” O’qituvchi o’quvchilarni mana shularni anglashga yo’naltirishi kerak. Shunda ular Fitratning kimligi va asarining mohiyatini anglyadilar.

So’ng o’quvchilar ayolning ko’zlari “yog’dusiz qolgan” haqida o’ylab ko’rishga undaladi. Insonning ko’zi qachon yog’dusiz qolishi mumkin? Balki jon jismni tark etgandadir? Yoki inson o’lik singari hissiz, ruhsiz bo’lib qolganidadir? Ayolning ko’zlari nechun yog’dusiz qolgan? Balki u hamma narsasidan, eri, farzandlaridan judo bo’lganidadir!? Yoki ularning ham jismi boru g’ururi, joni, dillari boru sha’ni, ori yo’qligidan ezilayotgandir!? Shu tufayli unga hayotning hech qanday qizig’i qolmagandir!? Balki shuning uchun uning jismi boru ruhi yo’qdir!? Shuning uchun ko’zlarida ham nur yo’qdir!? Shu sabab ko’zlaridan tinimsiz yosh yomg’irlari to’kilar!? Bu kabi o’ylar o’quvchilarning shuuridan o’tishi kerak. Buning uchun o’qituvchi dars jarayonida shu fikrlarni soddaroq yo’sinda savol shaklida davraga tashlashi, o’quvchilarning fikr yo’nalishini shu tomonga oqilona bura bilishi kerak bo’ladi.

O’quvchilar fikr-u qarashlarining o’qituvchi yetovida ketayotganini ilg’amagani, asardan chiqadigan ma’noni go’yo o’zlari kashf qilayotganday his etganlari maqbul. Mustamlaka davridagi o’zbek ayollarining ahvolini anglagan, ular uchun dili og’rigan muallifni o’quvchilarga anglatish, uning asar zamiridagi dard va iztiroblarini tuydirish o’quvchilar shaxsining o’sishiga sabab bo’ladi.

“Muallifning: *“bildim... bildim... angladim! Sen mening Vatanimsan, Vatanimning mungli xayolisan”* tarzidagi kashfiyoti nimaga asoslangan? Asar qahramonini bezovta qilgan ayol – vatan ekanligi qanday bilib olindi?” savoliga javob berish uchun o’quvchilar matnga murojaat qilishlari kerak bo’ladi. Ayolga xos bo’lgan barcha jihatlar bilan o’sha davrdagi Turkistonning ahvoli taqqoslanadi. Shunga tayanib, bu savolga javob beriladi.

“Asardagi: *“Ey, muqaddas Turonimning xayoli, ketmay tur, ayrilma. Yonimda, ko’zlarimda, yuragimda, vijdonimda qol, ketma. Yurtim, Turonim, sendan ayrilmoq, mening o’limim”* tarzidagi xitob mazmunini chaqishga urinib ko’ring.” O’quvchi shu xitob mazmuniga tayangan holda asl o’zbekning, chin o’g’lonning shaxsi haqida

tasavvurga ham ega bo'lishi tayin. Vatanga muhabbat, uning uchun qayg'urish tuyg'usi chaqiriqlar bilan emas, samimiy fikrlarni tuyish orqali shakllanadi. Kishi ko'nglidagi muhabbati haqida hayqirmaydi. Uning og'riqlari, iztiroblari haqida jar solmaydi. Ko'ngildagi tuyg'u ikkinchi ko'ngil bilan tuyiladi. Muhabbat shu yo'l bilan "yuqadi".

"Muallif tilidan aytilgan: *"sening uchun o'lmoq – mening urikligimdur"* shaklidagi xitobning ma'nosini anglating". Bu topshiriqqa javob yuqoridagi faoliyat ta'sirida qalbi uyg'ongan, ruhiy muvozanatdan chiqqan, loqaydlikdan xalos bo'lgan, emotsional holatdagi o'quvchining qalbi qa'ridan chiqadi.

"Men sening uchun tirildim, sening uchun yasharman, sening uchun o'lurman" singari otashin ta'kidlar nimani anglatishini izohlang. *"Ey, turklikning muqaddas o'chog'i! O'lim sening o'limingni istaganlarga, nafrat seni ko'mgani kelganlarga!"* tarzidagi chaqiriqlar sizning ko'nglingizda qanday munosabatlar uyg'otdi? *"Turklikning muqaddas o'chog'i"* qayer deb o'ylaysiz?" kabi savol-topshiriqlar ham o'quvchini o'ylashga majbur etadi. Ular ustida ishlash mobaynida o'quvchi murg'ak qalbi bilan nimanidir tuysa, shuuri bilan nelarnidir anglasa, adabiy ta'limning bosh maqsadiga erishish yo'lida salmoqli qadam tashlangan bo'ladi.

Uyga vazifa sifatida o'quvchilarga sochma she'rni yodlashni ixtiyoriy ravishda topshirish mumkin. Yoki Turkiston va Turon davlatlari suratini chizishni ham taklif qilish mumkin. Yoxud Vatan haqida she'r yozishni ham o'ylab ko'rishlarini aytish kerak. Mayli, Fitratnikidek sochma she'r bo'lsa ham, o'quvchilar o'z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda uy vazifasini bajarib keladilar.

Savol va topshiriqlar:

1. "Integratsiya" tushunchasi borasida internet orqali materiallar to'plang va mazkur bo'limdan o'zlashtirgan bilimlaringizni taqqoslang. Fikrlashing.

2. "Fanlararo aloqa" atamasi bilan bog'liq bilimlaringizni internet orqali topgan ma'lumotlar bilan to'ldiring. Bilganlaringizga nimalarni qo'shimcha qila olasiz?

3. Integratsiyaning yuqoridagi shakllarini kursdoshlar birgalikda tahlil qiling. Qarashlaringizni asoslashga urining.

4. Yuqorida sanalgan "Bemor", "Muzqaymoq" va "Nido" dostonlarida fanlararo aloqa nuqtai nazaridan umumiy jihatlar

nimalardan iborat ekanini va ularning integratsiyasi qay jihatdan o'rganilishini o'qituvchingiz bilan birgalikda aniqlang. Asarlardan misollar keltirib, qarashlaringizni isbotlang.

5. *“Zamonaviy adabiyot o'qituvchisi o'z maqsad va vazifalarini o'quvchilarning maqsad va vazifalariga moslashtira bilishi taqozo etiladi”*, degan fikrni qanday tushundingiz? Sizningcha, o'qituvchining maqsad va vazifalari nimalardan iborat? O'quvchilarning maqsadi va vazifalari, nazaringizda, qanday sharhlanadi?

6. Ko'rsatib o'tilgan *“Zarbulmasal”* bilan *“Oq kema”*ni zoologik bilimlardagi qaysi jihatlar bilan integratsiyalash mumkinligi haqida o'ylab ko'ring. Xulosalaringizni misollar bilan asoslang.

7. Matndagi: *“Fanlararo aloqada o'quvchining ma'lum bilimlarni o'zlashtirish jarayonida u yoki bu muammoni imkon qadar chuqur anglash hamda olingan bilimlarni amaliyotga samarali joriy etishiga imkon berish maqsadida o'quv fanlari orasida o'rnatiladigan aloqa nazarda tutiladi”* tarzidagi qoidani biror badiiy asar misolida o'z so'zlaringiz bilan tushuntirib bering.

8. Yuqorida keltirilgan: *“Integratsiya esa fanlararo aloqaga, ya'ni umuman fanlar, o'quv fanlari, ularning bo'lim va mavzulari bo'yicha olingan bilimlarga tayanilgan holda o'rganilgan masalaga xos bo'lgan yetakchi g'oyalar hamda hodisalarning izchil, har jihatdan chuqur hamda serqirra ochilishi demakdir”* shaklidagi iqorni o'zingiz xohlagan badiiy matn asosida izohlashga urinib ko'ring.

9. *“Pedagogik yo'nalishdagi oliy o'quv yurtlari adabiy ta'limi jarayonini integratsiyalash tizimi”* bilan bog'liq fikrlarni izohlang. Qarashlaringizni asoslashga urinib ko'ring.

10. *“Nido”* dostonida inson tuyg'ulari tasviri” mavzusida insho yozing. Bir-biringizning ishingizni tekshirib, xato va kamchiliklarini bartaraf etish yo'llarini muhokama qiling.

4-MAVZU. ADABIYOT O'QITISH METODIKASI KURSINING MAZMUNI VA QURILISHI

Reja:

1. *"Adabiy ta'lim konsepsiyasi" dagi yetakchi g'oyalar.*
2. *Davlat ta'lim standarti va undagi talablar.*
3. *Dastur va darsliklar haqida.*
4. *"Adabiyot" darsliklarining mazmunini belgilash tamoyillari.*
5. *"Adabiyot" darsliklariga qo'yilgan talablar.*
6. *Badiiy matnning didaktik tahlili namunasi.*

Mustaqillikning ilk davrida, milliy tarbiyashunoslikni yangilashga qaratilgan, pedagogika ilmi va amaliyotida shu vaqtga qadar mavjud bo'lmagan rasmiy pedagogik hujjat – fanlar bo'yicha ta'lim konsepsiyalari yaratildi. Shular qatorida "Adabiy ta'lim konsepsiyasi" ham ishlab chiqilib, unda yangilangan pedagogik tafakkur sharoitida adabiyot o'qitishning maqsad va vazifalari belgilab berildi¹. Maqsad va vazifalarning yangilanishi adabiy ta'limning mazmuni hamda o'qitish usullarini ham o'zgartirishni taqozo qildi.

"Adabiy ta'lim konsepsiyasi" dagi yetakchi g'oyalar asosida adabiyot o'qitish bo'yicha «Davlat ta'lim standarti» yaratilib, unda turli sinflarning dastur va darsliklarida ko'zda tutilishi hamda o'quvchilar o'zlashtirishlari shart deb belgilangan bilim, ko'nikma, malakalar va ma'naviy sifatlarning minimal ko'rsatkichlari ham o'z ifodasini topdi². DTSning minimal talablar qismi ta'lim jarayonida qatnashayotgan sog'lom bola erishishi shart bo'lgan marra hisoblanib, u davlat tomonidan muayyan bosqichni bitirayotgan o'quvchiga qo'yiladigan talabni anglatadi. "Adabiy ta'lim standarti" da belgilangan mezonlarga tayanib yangidan tuzilgan «Adabiyot» dasturida maktabda adabiyot o'qitishning maqsadi yo'lida soha mutaxassislari tomonidan o'quvchi o'zlashtirishi lozim deb topilgan bilimlar tizimi aks etdi³. Shu asosda konsepsiya ham, standart ham bugungacha takomillashtirilib kelinmoqda.

¹ Йўлдошев Қ. Узлуксиз адабий таълим йўриғи (концепцияси). –Т.: ЎзПФТИ, 1995.

² Йўлдошев Қ., Хусанбоева Қ. Адабий таълим давлат стандарти. //Таълим тараққиёти. 1-махсус сон, 1999. –141– 163-бетлар.

³ Узлуксиз урта таълим мактабларининг 5–9-синфлари учун адабиётдан ўқув дастури. – Т.: "Маърифат" газетаси 2007 йил 4, 7, 11 октябрь сонлари.

“Adabiy ta’lim konsepsiyasi”da aytilishicha, dasturda o’quvchilarga berilishi ko’zda tutilgan bilimlar hajmi, albatta, davlat ta’lim standartidagi minimal talablardan yuqori bo’ladi. Negaki, DTSning minimal talablarini hamma o’zlashtirishi shart bo’lgani holda dasturda taqdim etilgan bilimlarni barcha o’quvchilar to’la bilishga majbur emaslar. Ma’lum o’quv fani bo’yicha dastur talablarini o’zlashtirish har bir o’quvchining qiziqishi, qobiliyati, iqtidori, ehtiyoji va intellektual imkoniyatlariga bog’liqdir.

Ta’lim standartlari davlat ahamiyatiga molik pedagogik hujjat sanalib, uzoq muddatga mo’ljallanib tuziladi va hukumat tomonidan tasdiqlanadi. Dastur esa DTS talablari asosida yaratilib, ta’lim vazirligi tomonidan tasdiqlanadi. Ma’lum muddat o’tib, barcha o’quvchilarning bilim, ko’nikma va malakalari DTSning minimal talablaridan yuqorilab ketganda, ya’ni o’quvchilarning ko’pchilik qismi dastur talabiga javob bera oladigan darajaga yetganda, ta’lim standarti talablarini ko’tarish va millat a’zolari saviyasi, bilimdonligi darajasi o’lchovini yuksaltirish maqsadida DTSlar qayta ishlanib, takomillashtiriladi. DTSga muvofiq ravishda o’quv dasturlari talabi ham yuqorilab boradi. Adabiy ta’lim standartining minimal talablari dasturlarda aks etgan bilim, ko’nikma, malaka va ma’naviy sifatlarning ma’lum miqdorini qamrab oladi. DTSning minimal talablari ta’lim tizimida o’qituvchi ham, o’quvchi ham, ota-ona ham ko’nikib qolgan besh balli baholar tizimiga solinganda – “o’rta”ni tashkil etadi. Standart talabini bajargan o’quvchi o’rtacha o’quvchi hisoblanadi.

Ma’lumki, inson tafakkuri yordamida ko’zi bilan ko’rganlaridan ko’proq narsalarni bilib oladi. Faqat ko’rgazmaga tayangan ta’limda esa o’quvchidan qancha ko’rgan bo’lsa shuncha bilish talab qilinadi. Bu hol o’quvchining bilimini chegaralab, toraytirib qo’yadi. Ta’limni yengillatish tarbiyaviy tamoyillarga hamisha ham to’g’ri kelavermasligi, afsuski, ancha kech payqaldi. Ta’lim-tarbiya jarayonini haddan ortiq yengillatish katta bolaga ovqatni chaynab berishga o’xshaydi. Holbuki, bolaning to’g’ri o’sishi uchun uning o’zini ovqat yeyishga o’rgatish muhimroq.

Ta’lim tizimida ham u yoki bu bilimlarni o’quvchi miyasiga “quyib” qo’ygandan ko’ra uni mustaqil fikrlab, mulohaza yuritib, mehnat qilib o’zlashtirishiga yo’naltirish maqsadga muvofiqdir. Ijtimoiy muhit tufayli bola umrining har bir kunida uning fe’lida

tabiatan mavjud bo'lgan sifatlarga hamohang yangi axloqiy sifatlar paydo bo'ladi. Bugungi ta'lim-tarbiya jarayonida ham qiyin va chigal masalalarni hal etishda o'quvchining o'z imkoniyatlaridan foydalanishga intilishi foydalidir. Agar shakllanayotgan shaxsda biror fazilatni tarbiyalash lozim deb topilsa, unga shu fazilat bilan bog'liq nasihatlarini o'qimay, avval o'sha ma'naviy sifatning mohiyati va zarurati haqida ma'lumotlar to'plashni talab qilish, so'ng uning bu yo'ldagi harakatiga yo'nalish berish o'rinli bo'ladi. Ana shunda shakllantirilishi istalgan fazilat bolaning o'zi tomonidan mehnat-mashaqqat bilan o'zlashtirilib, xotirasiga emas, tabiatiga o'rnatiladi.

O'qituvchilarga ta'lim-tarbiya jarayonining har bosqichida hikoya, suhbat, ma'ruzalar qildirish, muammoli mashqlar bajartirish, mehnat topshiriqlari, ta'lim beruvchi o'yinlar, o'quv-munozaralari, ta'lim jarayonidagi rag'batlantirish va tanbeh berish, o'quv materialini muammoli tarzda o'rgatish, muammoli suhbat, tadqiqotlar, induktiv va deduktiv muhokamalar, kitob bilan mustaqil ishlash, ta'limda zamonaviy mashinalardan foydalanish, dasturlashtirilgan ta'lim, og'zaki so'rov, yozma ishlar, ijod, mustaqil nazorat ishlari singari usullar juda foydali. Lekin bugungi pedagogika nafaqat yetuk bilimli mutaxassis, balki sog'lom ma'naviyatli shaxs, barkamol inson shakllantirishni talab qilmoqda. Buning uchun o'qituvchilarga barkamol shaxsni tarbiyalash yo'llarini o'rgatish, ularni shunday maqsad uchun zarur bo'lgan metodik qo'llanmalar, pedagogik ushbyolar bilan qurollantirish zarur.

“Adabiyot” darsliklarining mazmunini belgilash tamoyillari. Hozirgi sharoitda o'quvchilarni ham ruhan, ham aqlan, ham jisman yetuk qilib shakllantirish uchun milliy pedagogika ilmi va uzluksiz ta'lim amaliyotida oldingidan tamomila yangicha yo'sinda ish olib borish taqozo etilmoqda.

Ta'limning dastlabki boshlang'ich bosqichi o'quvchilar ma'naviyatini shakllantirishda o'qish darslarining o'rnini beqiyos. O'qituvchi tomonidan o'qish kitobidagi asarlarni to'g'ri idrok etishga yo'naltirilgan o'quvchi mustaqil ishlashga, uqib o'qishga, o'zgalarning fikrlarini ilg'ashga, o'zi va boshqalarning tuyg'ular olamini kuzatishga va tuyishga o'rgana boradi. Olamni, Odamni va O'zligini kashf qiladi. O'z ichki “men”ining shakllanishida o'zi bevosita ishtirok etadi.

Darsliklar bunday pedagogik vazifalarning bajarilishida eng katta ko'makchi sanaladi. Darsliklarda taqdim etilgan o'quv materiallarining dasturiy talqini ta'lim-tarbiya jarayonidan kutilgan maqsadlarga mutanosib bo'lishi kerak. Afsuski, adabiy ta'limning dastlabki bosqichi didaktik ashyolaridan biri bo'lgan "O'qish kitobi" darsliklari ko'p jihatdan bu talablarga to'la javob berolmaydi. Boshlang'ich sinflar "O'qish kitobi" darsliklarini tuzishda kichik o'quvchilarning ruhiyati, intellektual saviyasi yetarli o'rganilmagan. Aytish kerakki, bugungi boshlang'ich sinf o'quvchilari mualliflar tasavvur qilganlaridan ko'ra bilimlir oq va aqllir oq. "O'qish kitob"larining umumiy tahliliga tayanib shuni aytish mumkinki, boshlang'ich sinf o'quvchilarida insoniy sifatlarni shakllantirishda bolalarning kuchi, aqli va imkoniyatlaridan unumli foydalanilmayapti.

Darsliklarda o'rganish uchun taqdim etilgan o'quv materiallarining ko'pchiligi jo'n, hayotiy haqiqatdan uzoq. Bir qismi esa quruq nasihatbozlikka qurilgan. Ular mavzudan kelib chiqib, mualliflar tomonidan shunchaki "to'qib" tashlanganday. Asarlar matni yuzasidan tuzilgan: "Nima uchun Ona Yer deymiz? Javobni matndan topib o'qing va o'qiganingizni yod oling", "Navoiyning istagi ifodalangan misralarni o'qing", "Yakshanba kuni qanday voqea yuz berdi?", "Ota-ona o'z farzandiga nisbatan qanday iborani ishlatadi?" kabi savol-topshiriqlar bolaning matn mazmunini takrorlashiga xizmat qiladi, xolos.

"Asar mazmunidan nimalarni tushundingiz?", "... deganda nimani tasavvur qilasiz?", "Nima deb o'ylaysiz, Shiroq nega qo'yini boqib yuravermay qabila boshliqlarining oldiga keldi? Uni bunga undagan kuch nima ekanini ayta olasizmi?", "...tarzidagi tasvirni o'z so'zlaringiz bilan ifodalashga urinib ko'ring. Uni siz qanday tushundingiz?" singari kichik o'quvchilarni fikrlash va matn mohiyatiga kirishga yo'naltiradigan, asardan badiiy zavq va ma'naviy ozuqa olishga undaydigan, o'z qarashlarini aytishga qaratilgan savol-topshiriqlar deyarli uchramaydi.

Matn yuzasidan tuzilgan mantiqli, o'ylantiradigan savollarga sinfdagi o'quvchilarning barchasi javob berishi shart emas, albatta. Muhimi, savol bilan ularni bezovta qilish. Agar o'qituvchi kichik o'quvchilarni matn ustida uzluksiz ravishda shunday ishlataversa, bolalar bunga o'rganib boradilar va ularda istalgan ko'nikma hosil bo'ladi. Natijada bola fikr kishisi bo'lib yetishadi.

O'quvchilarni badiiy asarlar ko'magida ma'naviy barkamollikka yo'naltirish nuqtai nazaridan umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'rta va yuqori sinflari "Adabiyot" darsliklarining didaktik ta'minoti haqida ham yaxshi gap aytish qiyin. Mustaqillikkacha foydalanilgan va 1991-yildan 1999-yilgacha qo'llanilgan ikki avlod darsliklarining, bir-biridan farqli tomonlari, yutuqlari haqida juda ko'p gapirilgan. Lekin kamchiliklariga ko'z yumilgan. Bu darsliklarning o'xshash jihatlariga ham ko'pda e'tibor qaratilmagan:

1. O'quvchilar uchun yozilgan har ikkala avlod darsliklarida ham bilimlarni o'zlashtirishda o'quvchilarning ishtiroki deyarli ko'zda tutilmaydi. Ularda o'quvchilarning vazifasi darslik mualliflarining aytganlarini o'qituvchisi ko'magida xotirasiga joylab olishdan iborat deb qaralgan.

2. Yaratilgan darsliklarning har ikkala avlodi ham o'quvchilarning xotirasi hisobidan ish ko'rishga qaratilgan. Ya'ni, darsliklarda bitilganlarni eslab qoladigan xotirasi kuchli bola– yaxshi o'quvchi. Xotirasi zaifroq o'quvchi yangi dars bayonida o'qituvchisidan bilgan, uni mustahkamlashda o'rtoqlaridan eshitgan narsalarni uyda darsligidan takrorlab o'qiydi, keyingi darsda qaytarib aytib berib bahosini oladi.

3. Har ikkala avlod darsliklarida ham bilim berish birinchi o'rinda turadi. Butun umr adabiyot o'qitish bilan emas, adabiyot ilmi bilan shug'ullangan darslik mualliflari o'z bilganlarini tayyor holda o'quvchilarga taqdim etganlar. O'quvchilar darsliklardagi tayyor bilimlarni xotirasiga joylab olishlari, kifoya? - deb qaralgan. Vaholanki, bugungi pedagogika ilmida o'quvchilar xotirasini rivojlantirishga qaratilgan faoliyat maqsadga muvofiq emasligi aytiladi.

4. Darsliklarning har ikkala avlodida ham adabiyotni o'qitishga pedagogik yondashuv emas, filologik qarash ustuvorlik qiladi. Chunki bu darsliklarning ko'pi adabiyot o'qitish metodikasi ilmidan yaxshi xabardor bo'lmagan mualliflar tomonidan yaratilgan. Adabiyot o'qitish metodikasining alohida fan ekanligi, uning o'z qonuniyat va kategoriyalari borligi, uni maxsus o'rganish taqozo etilishini mutasaddilar inobatga olishmagan. Tan olish kerakki, maktab darsliklarining ko'pchilik mualliflari – adabiyotshunoslik ilmining darg'alari. Faqat ular adabiyot o'qitish metodikasi ilmi bilan alohida shug'ullanishmagan. Agar shug'ullanganlarida edi, eng kamida

bolalarga bilim berish, ularni o'qitish emas, ularni bilim olishga o'rgatish, o'zlarini o'qiydigan qilish masalasi jahon pedagogikasida XX asrning 50-yillarida ko'tarilganini bilgan va darsliklarni tuzishda buni albatta inobatga olgan bo'lardilar.

5. Ikkinchi avlod darsliklarining ko'pchiligi – o'z uslubi bilan sovet davrida yaratilgan darsliklarga nisbatan ham o'quvchilardan ancha yiroq. Badiiy asarlardan parcha berish, uni darslik muallifi istaganday tahlil qilish hamda shuni millatning barcha bolalari xotirasiga joylashga urinish, butun avlodni bir xil fikrlaydigan, asar yuzasidan darslik muallifi fikrini qaytaradigan holda tayyorlash maqsadiga xizmat qilmaydi.

Bunday kamchiliklar sanog'ini yana davom ettirish mumkin. Lekin maqsad bu emas. Yangi avlod darsliklari pedagogik qonuniyatlarni, o'quvchilar psixologiyasini yaxshi biladigan, adabiyot o'qitish ilmi bilan shug'ullangan, adabiy ta'limning maqsad va vazifalaridan xabardor mutaxassis tomonidan yaratilishi kerak. Darslik yaratishda jahon pedagogikasi va milliy tarbiyashunoslikdagi ilg'or g'oyalarga tayanilishi maqsadga muvofiqdir.

O'quvchiga tayyor bilimlar berilmay, DTS talablari asosida dasturda o'rganishga taqdim etilgan bilimlarni o'z mehnati bilan o'zlashtirishiga erishish maqsadga muvofiqdir. Ma'lumki, mehnat bilan erishilgan har qanday narsa bir umr yodda qoladi va kerak bo'lganda, hayotga tadbiiq etiladi.

Darsliklardagi matnlarni idrok etish mualliflarning qolipiga solinmasligi, tahlilda faqat ularning xulosalariga asoslanilmasligi lozim. Adabiyotdan tuziladigan o'quv ashyolarida adabiy matn yuzasidan tuzilgan savol-topshiriqlar bilan ishlash natijasida har bir bolaning o'zi xulosa chiqarsin, asar tahlili yordamida o'z hayotiy haqiqatini kashf etsin. Asar bo'yicha har bir o'quvchining o'z qarashi bo'lsin.

Darsliklar o'quvchini ta'lim jarayonining obyekti bo'lish maqomidan darsning o'qituvchi bilan teng huquqli subyekti, ijrochisi darajasiga ko'tarilishi kerakligi ko'zda tutilib yaratilishi joiz. Ularni oddiy ijrochilikdan ta'lim jarayonining subyekti – bevosita ishtirokchisi martabasiga ko'tarish kerak. O'qituvchi o'quvchilarning mehnatini to'g'ri boshqarib tura bilsa, ular bilishlari kerak bo'lgan badiiy va hayotiy haqiqatlarni o'zlari kashf etadilar.

Biror badiiy asar va uning mazmunini qayta eslashga qaratilgan savollar tuzib qo'yish darslik yaratish degani emas. Adabiyot darsliklarining o'ziga xos ilmiy-pedagogik talablari, zimmasiga ortiladigan ijtimoiy-didaktik yuk bor. Duch kelgan o'qituvchi darslik yaratolmagani singari, metodika ilmi bilan maxsus shug'ullanmagan filolog ham yaxshi darslik yarata olmaydi. «Adabiyot» darsliklari, millat kelajagi ma'naviyatining shakllanishi omili sanaladi. Darslik yaratishga da'vo qilayotgan olimlar mana shu mas'uliyatni unutmasliklari kerak.

Ta'lim mazmunini tashkil etadigan o'quv rejasi, ta'lim konsepsiyasi va standarti, dastur, darslik, metodik qo'llanma singari vositalar o'qituvchi shaxsi bilan muvofiqlashgan holdagina o'qitish kechimi samarali bo'ladi. Chunki o'quv jarayonining qanday ma'no-mazmun kasb etishi bevosita o'qituvchining shaxsi, uning saviyasi, bilimi va mahoratiga bog'liq. Jamiyat va ta'lim jarayonidagi o'zgarishlarni ro'yobga chiqaradigan ham, o'quvchi bilan bevosita yuzma-yuz turadigan ham o'qituvchi.

Ma'lumki, umumta'lim maktablarida yigirmadan ortiq o'quv fani o'rganiladi. Ularning ko'pchiligi bevosita o'quvchi tafakkurini o'stirish, bilim berish maqsadiga yo'naltirilgan. Ayrim fanlar esa bolaga kasb-hunar o'rgatishga xizmat qiladi. O'quv fanlari orasida faqat adabiyot bevosita bolaning ko'ngli, uning ruhiyati va ma'naviyatini kamolga etkazish vositasi hisoblanadi. Adabiyot darslari mutaxassis shakllantirish uchun emas, shaxs ma'naviyatini tarbiyalashga xizmat qiladi. Shu bois adabiy ta'lim jarayonida sof adabiyotshunoslikdan bilim berish emas, balki, inson ko'nglini tarbiyalash ustuvor bo'lmog'i maqsadga muvofiqdir.

Adabiyot darslarida badiiy asarlar tahlil qilinib, qahramonlarning xatti-harakatlari muhokama etilish jarayonida o'quvchilar odam va olam sirlarini o'rganadilar, asar muallifi va adabiy qahramonlar timsolida insonni kashf etadilar, oxir-oqibat navqiron fuqaro o'zligini anglay boshlaydi. O'zligini anglagan, mustaqil nuqtai nazariga ega bo'lgan odam o'z takdirini boshqalar hal qilib yuboraverishiga yo'l qo'ymaydi.

Insonga xos xususiyatlar bevosita ruhiyat bilan bog'liq bo'lgani uchun ham bugun ma'naviyat tarbiyasi mamlakat miqyosidagi muhim vazifaga aylandi. Ma'naviyatni tarbiyalash esa maktabda, asosan, adabiy ta'lim tizimi zimmasiga yuklanadi. To'g'ri, barcha o'quv

fanlari zimmasida ma'lum darajada ma'naviyatni shakllantirish vazifasi bor. Biroq, adabiy ta'lim bu borada karvonboshilik qiladi. Chunki uning tadqiqot obyektining o'zi – inson. Adabiyot darslarida odamning ichki olami, his-tuyg'ulari, kechinmalari, hayajonlari, iztiroblari o'rganiladi, tahlil qilinadi, munosabat bildiriladi. Inson umri davomida turli vaziyatlarning paydo bo'lish sabablari va oqibatlari aniqlanadi, muammolarning yechimi ustida o'yga tolinadi.

“Adabiyot” darsliklari balog'atga yetgan, badiiy so'z bilan muayyan darajada qiziqadigan yoki ma'lum darajada shu sohaga bog'liq bo'lgan kishilar uchun emas, balki o'sib kelayotgan yosh avlod uchun tuzilishi sababli ham darsliklarning adabiyotshunos yoki pedagog olim tomonidan yaratilgani katta ahamiyat kasb etadi.

“Adabiyot” darsliklarini yaratishda nazarda tutilishi lozim bo'lgan jihatlardan yana biri shuki, har bir sinfda o'quvchining intellektual va ruhiy xususiyatlari o'ziga xos bo'ladi. Shu bois ta'limning biror bosqichida o'quvchi tomonidan boy berilgan imkoniyatlar o'rmini hech qachon qoplab bo'lmaydi. O'z vaqtida qo'llangan tarbiyaviy tadbirlar bolaning shaxsi, jismi, ruhiyati takomili uchun ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ta'limning har bosqichida bolaning fikrlash qobiliyati shu yoshdagi ruhiy va intellektual imkoniyatlari doirasida rivojlana boradi. Xususan, adabiyot darslarida amalga oshiriladigan badiiy asar tahlili uni o'z shaxsiy fikriga, munosabatiga ega bo'lib borishini ta'minlaydi.

Masalan, boshlang'ich sinflar adabiy ta'limida o'quvchi badiiy asar qahramonlariga shunchaki taqlid qiladi, ularga ergashadi; adabiy ta'limning o'rta bosqichida esa uni asar qahramonlarining axloqiy sifatleri, ichki dunyosi, xarakterining shakllanishi va bunga turtki bo'lgan omillar ko'proq qiziqтира boshlaydi. Ammo yosh bola qahramon shaxsiga xos bo'lgan barcha xususiyatlarni inobatga olgan holda baholashga qodir bo'lmaydi. Ko'pincha u qahramonning ba'zi fazilatiga urg'u berib, uning shaxsini biryozlama baholaydi.

Majburiy ta'lim tizimining yuqori bosqichiga qadam qo'ygan o'quvchi esa muallim yoki ota-onasining aytganlari, kitob va darsliklarda o'qiganlariga tanqidiy nazar bilan qaray boshlaydi. Ko'pincha muallimning fikr-mulohazalaridan, darslikdan xato topishga intiladi, o'z pozitsiyasida qattiq turib, bahslashishga moyil bo'ladi. Darsliklarni tuzishda bola taraqqiyotining har bir bosqichiga xos bo'lgan shu kabi jihatlar hisobga olinishi, o'quvchilarning ruhiy, jismoniy va jinsiy xususiyatlari, intellektual imkoniyatlaridagi

o'zgarishlar mualliflarning nazaridan chetda qolmasligi kerak bo'ladi. Darsliklar o'quvchilarning har bir yoshdagi ichki "men"iga moslashishi, sinfdagi eng bilimdon, bilimga chanqoq o'quvchini ham ortidan ergashtira olishi lozim. Shunda o'quvchilarga darsliklar bilan muloqot malol kelmaydi, ularda o'zining ichki ehtiyojlarini qondirishga xizmat qilayotgan darslikka, predmetga mehr uyg'onadi.

Dastur va darsliklar mazmuniga shu nuqtai nazar bilan yondashilganda ma'lum bo'ldiki, o'tgan asrning 40-yillarigacha bo'lgan davrda yaratilgan darsliklarda yozuvchilarning tarjimai hollari, asar yuzasidan savol-topshiriqlardan boshqa hech qanday qo'shimcha ma'lumot berilmagan. Asar matni ustida ishlash uchun taqdim etilgan savol-topshiriqlarning zimmasiga voqealarni yodga solishdan boshqa deyarli hech qanday didaktik vazifa yuklatilmagan. Ular, asosan matnning qayta bayoniga qaratilgan. O'sib kelayotgan avlodning dunyoqarashini shakllantirish nazardan chetda qolib, ularni siyosatga bo'ysundirilgan adabiyot bilan tanishtirishgina ko'zda tutilgan.

Sovet davrida keyingi yillarda nashr etilgan darsliklarda ham tub o'zgarish sodir bo'lmagan. Darsliklarda o'zbek mumtoz adabiyotidan tanvsiya etilgan asarlarning faqat lug'ati taqdim etilgani, matni o'zlashtirishga xizmat qiladigan didaktik ashyolarning yo'qligi ularni shunchaki, yuzaki o'rganish ko'zda tutilganini ko'rsatadi. Bu davr darsliklarida ham ko'zga tashlanadigan bir illat ularda rus adabiyotidan qilingan tarjimalar ustuvorlik qilganidir. Mumtoz adabiyot namunalari, masalan, «Farhod va Shirin»ning mazmuni qisqacha bayon etilgan, u haqda umumiy gaplar aytilgan. Topshiriqlarning deyarli hammasi «asarning falon-falon bobini qisqartirib so'zlab bering» shaklida bo'lsa, savollar uning matnini qayta hikoyalashni talab qiladi. Darsliklardan o'rin olgan har bir davr adabiyoti bo'yicha yozilgan unumlashma maqolalar ham mafkuraga bo'ysundirilgani, mazmunan sayozligi bilan ajralib turadi.

Bunday holat XX asrning 80-yillarda yaratilgan «Vatan adabiyoti» nomli darsliklarda ham davom etadi. Bularda ham o'qish uchun taqdim etilgan asarlarning siyosiy-mafkuraviy talqini, obrazlar tahlili, asar haqida darslik mualliflarining qat'iy xulosalari beriladi. «Asar haqida»gi maqolalarda asar matni tahlil qilinadi. Bunday yondashuv natijasida o'quvchi asarni o'qimaydi va uning mazmuni haqida o'ylanmaydi. Barcha adabiyot darsliklarida siyosiy chaqiriq va

nasihatimiz gaplar keragidan ziyoda. Obrazlar ijobiy va salbiy guruhlarga ajratilib, mehnatkash xalq vakillari istisnosiz yaxshi, boy tabaqa vakillari yoppasiga yomon, deb talqin etiladi. Obrazlar yuzasidan darslik mualliflarining qat'iy to'xtamlari bildirilgan. O'quvchidan shularni o'qib, takrorlab berishgina talab etiladi. Biror joyda ham "O'z fikringizni ayting", "Munosabatingizni bildiring" yoki "Falon asarni topib o'qing" qabilidagi topshiriq uchramaydi. O'quvchining asarni o'qishi, u haqda o'ylashi yoki munosabat bildirishi mualliflarni qiziqtirmagan.

1991-yildan adabiy ta'limning maqsadi, darsliklarning mazmuni bir qadar o'zgargan. Lekin eski davrga xos kamchiliklar birdaniga barham topmagan, albatta. Hali mamlakat mustaqilligi qo'lga kiritilmasdan oldin yaratilgan darsliklardagi rus adabiyoti namunalari kamaytirilib, mantiqqa muvofiq miqdorga keltirilgan. Masalan, 5-8-sinflar uchun tuzilgan «Vatan adabiyoti» darslik-xrestomatiyalari mundariyasi yangi-yangi asarlar bilan boyigan. Biroq, ular hali yangilangan adabiy ta'limning maqsadiga – «...sog'lom e'tiqodli, umuminsoniy qadriyatlarini angelaydigan, axloqan barkamol, o'z xatti-harakatlariga ma'naviy mas'ul bo'la oladigan yetuk shaxsning ma'naviy dunyosini shakllantirish»ga xizmat qiladigan darajada emasdi. Boz ustiga, «Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati»dan ko'chirib olingan yaxlit ilmiy parchalar darsliklar hajmining 40 foizga yaqinini tashkil etardi. Vaholanki, bu bosqichda o'quvchini asarning mohiyatiga olib kirish, badiiy so'z bilan unga ta'sir ko'rsatish, uni so'z sehriga oshno qilish orqali ma'naviy qiyofasini shakllantirish muhim edi. Bu – adabiy ta'limning asosiy vazifasi hisoblanardi. Ravshanki, nazariy ma'lumotni bilish bilan bolaning ma'naviy dunyosi shakllanib qolmaydi. «Achavotda qanday voqea yuz berdi?», «Ko'kterak bozorida Omon bilan Shumbola nimalar qilishdi?», «Asarning kirish qismi mazmunini so'zlab bering» (5-sinf), «Ona Yerga muhabbat tuyg'ulari ifodalangan misralarni qayta o'qing. Mazmunini o'z so'zingiz bilan izohlang», «She'rning har bir bo'limiga sarlavha toping», «Reja asosida hikoyaning mazmunini so'zlab bering», «Bola durbin orqali nimalarni ko'rdi?», «Dialogni rollarga bo'lgan holda ifodali o'qing» (6-sinf), «8-qism mazmunini so'zlab bering», «3-qismda kimlar haqida so'z yuritiladi?» (7-sinf) kabi savol-topshiriqlar o'quvchilarda ma'naviy fazilatlar shakllantirishga xizmat qilolmaydi.

1991-yilda "O'zbek adabiyoti" fani bo'yicha yangi ruhdagi dastur yaratildi, 1993-yilda ana shu dastur asosida darsliklar chop etildi. Bu borada 7-8-sinflar darsliklari adabiy ta'lim maqsadiga yaqinlashtirilgani, o'quvchilar yosh va ruhiy xususiyatlarini ko'p darajada hisobga olganligi bilan ajralib turadi. Shuningdek, 9-, 10-, 11-sinflarning "Adabiyot" darslik va majmualari ham pedagogik maqsadga muvofiq darajada tuzilgan. Aytilgan darsliklar bilan tanishilganda, mualliflarning adabiyotga doir bilimlarni o'smirlarga yetkazish yo'lida astoydil harakat qilganliklari ko'zga tashlanadi. Faqat, bu darsliklarda ham maktabdagi adabiy ta'limning bosh maqsadi ba'zan-ba'zan nazardan qochirilgandek tuyuladi. Darsliklarda takrorlarga yo'l qo'yilgan: asarlari bir necha sinfda o'rganiladigan adiblarning tarjimai hollari deyarli bir xil qaytarilgan. Shu bilan birga, tazkirachilik va tazkira yozgan kishilar, sayohatnomalar haqidagi ma'lumotlar, adabiyotshunoslikning uzundan-uzoq tarixi, "Shohnoma", "Boburnoma", Bayoniy, Almaiy, Ibrat kabi adiblarning hayoti va ijodi, mumtoz adabiyotga xos bo'lgan she'riy san'at namunalari ko'paytirib yuborilgan. Hamzaning 7-sinf darsligida berilgan she'rlari negadir 11-sinfda yana takrorlanadi. Bu darsliklarda ham o'quvchilarga imkon qadar ko'proq ma'lumot berishga urinish ustuvorlik qilgan.

6-sinfda O'tkir Hoshimovning "Urushning so'nggi qurboni" hikoyasini o'rganish uchun uch soat ajratilgan. Vaholanki, asarning matnini o'qish uchun darsning 23 – 25 daqiqasi kifoya qiladi. Birinchi darsning qolgan qismi va ikkinchi soat asar ustida ishlashga bema'lol yetadi. Mazkur asar uchun ajratilgan uchinchi soat ortiqcha. Bunday holatni boshqa darsliklarda ham uchratish mumkin. Aslida, shu yozuvchining "Dehqonning bir kuni" va "Dehqonning bir tuni" hikoyalari ham darslikka kiritilsa, maqsadga muvofiq bo'lardi. Ayon bo'ladiki, ushbu darsliklarga material tanlash va vaqt taqsimoti unchalik to'g'ri bo'lmagan. Bunday kamchiliklarga yo'l qo'yilishining sababi shundaki, bu darsliklar pedagog-mutaxassis tomonidan yozilmagan, hech bo'lmaganda, tahrir qilinmagan.

1991–1992- va 1993–1999-yillarda yaratilgan ikki avlod darsliklarida mavjud bilimlarni o'zlashtirish jarayonida bolalarning o'zlari mustaqil ishtirok etishi, fikrlashiga yetarlicha e'tibor berilmagan. O'quvchilarning vazifasi darslik mualliflari nima degan bo'lsa, o'shani o'qituvchisining ko'magida o'zlashtirib olishdan

iborat, deb qaralgan. "Adabiyot" darsliklarining har ikkala avlodi ham fikrlatishni emas, faqat xabardor qilishni, o'zlashtirishni nazarda tutgan. Ko'pchilik darsliklarda ma'lumot berish bosh maqsad bo'lib turadi va o'quvchilarga mualliflarning tayyor qarashlari taqdim etiladi. Ularda barcha o'quvchilarni adabiyotshunos qilib tarbiyalash maqsad etib qo'yilganday tasavvur paydo bo'ladi kishida.

Istiqloq davrida yaratilgan ikkinchi avlod darsliklarining ko'pchiligi uslubi, bolalar dunyoqarashiga mosligi jihatidan birinchisiga nisbatan ham bo'shroq. Birinchi avlod darsliklarining ayrimlarida pedagogik tamoyillarga amal qilingani ko'zga tashlanib turadi.

Bugun adabiy-estetik tarbiya borasida adabiy ta'lim oldida turgan vazifalarni bajarish uchun "Adabiyot" darsliklarini yaratish va ulardan foydalanish bo'yicha quyidagi talablar qo'yiladi:

- bolaning yoshi, shaxsi, dunyoqarashi doimo adabiy ta'lim jarayonining diqqat markazida bo'lishi kerak. Darsda o'quvchi shaxsini shakllantirish asosiy vazifaga aylantirilishi zarur. Adabiyot saboqlarida shakllanib kelayotgan avlodni filolog mutaxassis qilish emas, balki sog'lom ma'naviyatli odam sifatida tarbiyalash maqsad sanalishi kerak. O'quvchilar o'rganilayotgan asar qahramonlarini jonli odamlar sifatida tushunishlari, tuyishlari va ulardan ibrat olishlari darkor. Adabiy ta'limda darslik ham, dars ham bolaning ruhiy-ma'naviy tarbiyasi, uning o'zligini shakllantirishga xizmat qilishi kerak;

- adabiyot darslari o'quvchilarda so'z yordamida go'zal sifatlar, ijobiy fazilatlar tarbiyalashi kerak. Go'zal xulqli kishilarning so'zi ham, ishi ham o'ziga munosib ekani badiiy so'z orqali anglashiladi. Shuni anglab yetgan bola o'zini o'zi nazorat qilib, ma'naviy kamolot sari intiladi. Bunday olijanob vazifalar bevosita asarlar tahlili, ular yuzasidan tuzilgan savol-topshiriqlar ustida ishlash yo'li bilan amalga oshiriladi. "Adabiyot" darsliklarida taqdim etilgan asarlar ham, ularning matni yuzasidan kiritilgan didaktik ashyolar ham o'z zimmasiga ma'naviyat shakllantirish yukini olishi zarur;

- o'quvchilarda o'rganilayotgan asar yuzasidan munosabat paydo qilish, ularni mustaqil xulosalar chiqarishga o'rgatish diqqat markazida turishi lozim. "Adabiyot" darsliklaridagi savol-topshiriqlar o'quvchini mustaqil fikrlashga, asar qahramonining xatti-harakat va kechinmalariga munosabat bildirishga yo'naltirsin. Darslikda

mualliflarning asar va uning qahramonlari haqidagi qarashlari ochiq ko'rinib turmasligi maqsadga muvofiq. Asar o'qilib, tahlil etilgach, uning ma'no-mazmuni, har bir qahramoni haqida o'quvchi o'z fikri, qarashi, munosabati va xulosasini bildira olsun. Darsliklardagi didaktik ashyolar shu maqsad ijrosiga xizmat qilishi zarur;

- "Adabiyot" darsliklari o'quvchilarni o'z ma'naviyatini shakllantirish uchun o'zlari harakat qilishga yo'naltiradigan tarzda tuzilishi zarur. Badiiy asarning o'quv tahlili jarayonida, adabiy qahramon shaxsiga doir munozaralar vaqtida har bir o'quvchining fikr aytish va munosabat bildirishiga erishilishi muhim. Munosabat bildirish jarayonida bola, o'zi sezmaganda holda, o'z ma'naviyatini shakllantirayotgan bo'ladi. Bu jarayonni to'g'ri yo'naltirish o'qituvchining eng muhim vazifasidir;

- o'quvchining har qanday mo'jaz kashfiyoti ham rag'batlantirilishi lozim. Badiiy asar zamiridagi badiiy-estetik topilmalarni o'quvchilarning o'zlari kashf etishlariga erishish kerak. Darsliklar shunga qaratilmog'i zarur. Inson uchun o'zi qilgan kashfiyot o'ta qadrlidir. Adabiyot darslarida shu holat hisobga olinadi, bolalarda adabiyotga nisbatan chinakam muhabbat uyg'onadi;

- tarbiya jarayonida o'quvchining bevosita ishtirok etishiga erishilishi zarur. Buning uchun darsliklarda o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlari maksimal darajada hisobga olinishi kerak. O'qish davrining ma'lum bosqichlarida o'quvchi tabiatan nasihatlarini xushlamaydigan, kattalarning ortiqcha e'tiboridan g'ashlanadigan, ehtiyotkorligidan og'rinadigan bo'ladi. Odob-axloq va hikmat xazinasi bo'lmish adabiyot olamiga bolaning o'z ixtiyori bilan kirishi, matnlar ustida mustaqil ishlashiga erishish orqali o'quvchida o'z-o'zini tarbiyalash ko'nikmasi shakllantiriladi. U muayyan bir asar yoki uning qahramoniga munosabat bildirar ekan, o'z qarash, munosabat va nuqtai nazariga ega bo'lib boradi. Insonning ichki "men"i, dunyoqarash va e'tiqodi shu tariqa shakllanadi. Yaratilajak darsliklarda shu holat inobatga olinmog'i dardkor;

- adabiy ta'lim jarayonida pedagogik hamkorlik bo'lishiga erishish kerak. Ta'lim tizimida o'qituvchining yakka hokimligiga barham berish vaqti keldi. Bugungi adabiy ta'limda bunday munosabat mutlaqo samara bermaydi. Adabiyot saboqlari teng huquqli hamkorlarning birgalikdagi faoliyati bo'lishi, ya'ni o'quvchilar ham, o'qituvchi ham birday ishlashi va izlanishi lozim;

- o'quvchilarni darslarda o'rganilayotgan asar qahramonlariga ijobiy yoki salbiy obraz deb emas, balki o'ziga xos o'zgaruvchan fe'l-atvor egasi bo'lgan insonlar deb qarashga o'rgatish zarur. Yaratilajak yangi avlod darsliklarida har bir adabiy personajni jonli odam sifatida talqin etish, uning ichki olami, kechinmalari, xatti-harakatlari zahirida uning shaxsligiga xos belgilar yotganligini anglatish ustuvorlik qilishi kerak. Darslikdagi savol-topshiriqlar ko'magida o'quvchilar qahramonlarni o'zlari kashf etishlari maqsadga muvofiq. Darsliklarning didaktik ashyolari o'quvchilarning personajlar orqali o'zligini topib borishlariga qaratilishi zarur;

- adabiyot darslari o'quvchilarni asar qahramonlarining kechinma va xatti-harakatlari orqali insonni baholashga o'rgatishi lozim. O'quvchilarda personajlarning shodlik va qayg'ulariga sherik bo'lish, ular haqda o'ylash va mulohaza yuritish, ularni anglash va qadrlash orqali odamiylik sifatlarini qaror toptirishga erishish darsliklarning vazifasi hisoblanadi;

- adabiyot bo'yicha yaratiladigan darsliklar o'quvchilarda ezgu ma'naviy qiyofa shakllantirishga qaratilmog'i lozim. Darsliklarda hech narsa qolipga solinmasligi kerak.

- O'quvchidan darslik muallifi yoki o'qituvchining fikrlarini quruq takrorlash talab qilinmasligi lozim. Savol-topshiriqlar bilan ishlash jarayonida asar mohiyatiga kirib borayotgan, o'z fikr va munosabatlarini asardan misollar keltirib asoslayotgan, munosabat bildirayotgan o'quvchini shakllantirish "Adabiyot" darsliklarining asosiy vazifasidir.

Xullas, yangi yo'nalishda yaratiladigan darsliklar mazmuniga ham, didaktik ashyolariga ham yuqoridagi talablar nuqtai nazardan yondashilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. "Adabiyot" darsliklariga milliy va chet ellar adabiyotidagi eng sara badiiy asarlar kiritilishi lozim. Lekin adabiyot olamidagi eng zo'r asarlarning barchasini darslikka joylab bo'lmaydi.

Darsliklarning, undagi didaktik ashyolarning vazifasi o'quvchini o'sha eng zo'r asarni qidirib topib o'qiydigan darajaga keltirishdan iborat. Afsuski, bugun maktabda adabiyotdan dars berayotgan o'qituvchilar tomonidan bu haqiqat anglab yetilganicha yo'q. Ularga ko'mak berish maqsadida "O'qituvchi kitobi" metodik qo'llanmalari chop etilmoqda.

Biroq, bular hali yetarli emas. Bizningcha, "Adabiyot" darsliklariga kiritilgan har bir badiiy asarni o'rganish yo'llari bo'yicha maxsus ishlanmalar yaratish zarur.

Ko'rinadiki, maktab adabiy ta'limida samaradorlikka erishishda paxta darslikka ega bo'lish hal qiluvchi ahamiyatga ega. Lekin har qanday yuksak qurilma mustahkam poydevorga tayansagina uzoq turgani kabi, "Adabiyot" darsliklarining samaradorlik darajalari ham boshlang'ich sinflar «O'qish kitobi» darsliklarining saviyasiga ko'p jihatdan bog'liqdir.

Psixologiya ilmidan ma'lumki, darsda o'zlashtiriladigan bilimga o'quvchining qiziqishi uyg'otilsa, o'qish-o'rganish unga hech qachon qiyin bo'lmaydi. Me'yordagi o'quv qiyinligi o'quvchiga malol kelmaydi. O'quvchining maktabdan tashqarida kechadigan hayoti yaxshilab o'rganilsa, u o'zini qiziqtirgan hamma ishni qilgisi, bajargisi kelganini ko'rish mumkin. Bola o'z harakatlarining natijasini ko'rishni istaydi. Bu yo'lda qiynalishi, yiqilib-surinishi, kuyib-yonishi mumkin, lekin ortga qaytmaydi.

Tuzukkina savodxon, o'qituvchisi fikrlarini juda chiroyli takrorlay oladigan ayrim o'quvchilar o'z fikrini ifodalashi kerak bo'lganda qiynaladi, o'z fikrini aytishdan qo'rqadi. Afsuski, ko'pchilik o'quvchilar mustaqil fikr-mulohazalarini, shaxsiy qarashlarini yuzaga chiqarmay maktabni bitirib ketayotirlar. Bilim berish jarayonida bolalarning mustaqilligiga diqqat qilmaslik – tarbiyachining katta xatosi.

Zarur bilimlarni mehnat qilib o'zlashtirishdan ma'naviy ozuqa olish mumkinligi, bu yo'ldagi mehnat o'quvchining ehtiyojiga aylanishi, uni ma'naviy qaramlikdan qutqarishi, bola ongiga singdirilishi kerak.

O'quvchi mehnatini tashkil eta bilmaslik, bolaning o'zini bilim olish yo'lida ishlata olmaslik darslik muallifining ham, o'qituvchining ham kechirib bo'lmaydigan xatosi hisoblanadi.

Xulosa shuki, tuyg'ulari to'g'ri tarbiyalangan, ko'ngil mulki obod bo'lgan boladan yomonlik chiqmaydi. U ezgulik yo'lida yonib yashaydigan chinakam barkamol inson bo'lib yetishadi. Adabiy ta'limning har bosqichi: maktabgacha, boshlang'ich, o'rta, yuqori va oliy o'qitish kechimidagi barcha didaktik ashyolar shunga xizmat qilmog'i millat va mamlakat kamoli, obodligi garovidir.

Badiiy matnning didaktik tahlili namunasi

“Susambil” ertagini o‘rganish

Beshinchi sinflar adabiyot darslarida “Susambil” ertagi matni ustida ishlash uchun ikki soat rejalashtirilgan va bunga birinchi darsning 21–22 daqiqasi sarflanadi¹. Qolgan ikkinchi soat to‘lig‘icha asarning tahliliga bag‘ishlanadi. Ertak matni ustida ishlaganda o‘qituvchi ertakdagi jonivorlar obrazining mohiyatini, Susambil adolat qaror topgan va hamma baxtli yashaydigan afsonaviy yurtning timsoli ekanligini, asarning tili, undagi ramzlar va badiiy ifoda xususiyatlarini ochishga e‘tibor qaratishi lozim bo‘ladi.

Asar bilan tanishtirishda ba‘zi o‘qituvchilar badiiy asar matnini navbat bilan o‘quvchilarga o‘qitadilar. Bu bilan o‘zlaricha sinfdagi hamma o‘quvchilarni mashg‘ulotga jalb etgandek bo‘ladilar. Asar matni bilan birinchi marta tanishayotgan o‘quvchi uning qayerini qanday o‘qishni, qaysi o‘rniga ko‘proq e‘tibor berishni bilmaydi, shu sabab, bir xil ohangda o‘qiyveradi. Qolaversa, o‘quvchilarning o‘qish tezligi, saviyasi, ifoda usuli ham har xil. Notanish matnni sinfdagi o‘quvchilarga terma holda o‘qitish o‘rganilajak asarning badiiy tarovatini, ta‘sir kuchini yo‘qqa chiqarib, o‘quvchilarning qiziqishini susaytirib qo‘yishi mumkin. Shuning uchun ham o‘qituvchi o‘zlashtirilayotgan badiiy matnni maxsus tayyorgarlikdan so‘ng o‘zi o‘qib bergani metodik jihatdan to‘g‘ri bo‘ladi.

O‘qish jarayonida o‘quvchilardan o‘z darsliklaridan matnni kuzatib borishlari talab qilinishi lozim. Bu, o‘z navbatida, o‘quvchilarning ko‘zlarini tez o‘qishga, quloqlarini uqib, ifodali o‘qishga o‘rgatadi. Mutolaa davomida o‘quvchilarning ruhiyatiga o‘rnashib qolishi lozim deb topilgan so‘z va iboralar, badiiy asarning tiliga xos bo‘lgan betakror jihatlarni belgilab borishni so‘rash maqsadga muvofiq bo‘ladi. O‘quvchi asar matni bilan ishlaganda, mana shu belgilangan o‘rinlarga e‘tibor qaratadi. Belgilangan so‘z yoki ibora diqqat bilan o‘qib o‘tilsa, o‘quvchining shuurida chizgi qoldiradi. O‘z vaqtida nazarga tushgan bu chizgi ma‘naviy kamolot uchun ahamiyatli bo‘lishi tabiiy.

¹ O‘quv dasturi. Adabiyot. 5–11–sinflar. – T.: RTM, 2018.

Matn o'qib bo'lingach, ushbu asarni o'rganishni taqqoslash metodl asosida tashkil etish mumkin. Bunda ertakdagi timsollar taqqoslanadi. Avval o'quvchilarning diqqati eshakning taqdirini tubdan o'zgartirib yuborgan sababni aniqlashga qaratiladi: "Eslab ko'ringchi, eshakning taqdirini keskin o'zgartirib yuborgan narsa nima?" O'quvchilar eshak taqdirining tubdan o'zgarishiga sabab bo'lgan omillarni matndan izlay boshlaydilar. Eshakning hech qizg'animay, o'z yemishidan ho'kizga berishi taqdirining keskin o'zgarishiga sabab bo'lgani, shu ishi uchun egasi tomonidan jazolanishiga o'quvchilar munosabat bildirsinlar. Bu jarayonda o'quvchilar ularning har ikkisi: inson va eshakka xos bo'lgan fe'l-atvorni taqqoslaydilar. Taqqoslash asnosida ikki timsol tabiatiga xos bo'lgan yaxshi va yomon sifatlar ochilib, ularga o'quvchilar tomonidan munosabat bildiriladi.

"Eshakning shuncha qiyinchiliklarga qaramay ho'kizdan nolimaganini qanday tushuntirish mumkin? Bu uning xarakteridagi fazilatmi yoki kamchilikmi?" degan savol ham o'quvchilarning tafakkurini charxlaydi. Kimdir buni yutuq deb hisoblar, kimdir kamchilik deb biladi. Muhimi, har bir o'quvchi nega shunday deb o'ylaganini asoslashi kerak.

Fikrlar yakunidan so'ng taqqoslash obykti safiga xo'roz ham qo'shiladi, ho'kiz, eshak, xo'rozning hayoti qiyoslanadi, ularga odamlarning munosabati haqida fikrlashiladi. So'ng o'quvchilarning diqqati hayvonlarning uydan qochishiga, odamlardan bezishiga sabab bo'lgan omillarni aniqlashga qaratiladi. O'quvchilarning oldiga "Odamlarning hayvonlarga shunday munosabatda bo'lishiga asos bo'ladigan sabablarni toping. Nega odamlar shunday qilishadi?" tarzida masala qo'yilsa va bolalar bunga munosabat bildirsalar dars samarali bo'ladi.

"Eshak, xo'roz, ho'kiz-ku odamlarning o'zlariga adolatsiz munosabatidan bezib, Susambilni izlab yo'lga chiqishibdi. Kalamush va arilarni qochqinlar to'dasiga qo'shgan omil haqida fikr yuriting" topshirig'i o'quvchilarni matnga qayta murojaat qilishga majbur qiladi. Bu jarayonda yana taqqoslash ishlari amalga oshiriladi. Kalamushlar bilan arilarni Susambilga ketishga majbur qilgan asoslarni jiddiy izlagan o'quvchi matndan topadi. Chunki bu sabablar ertakda alohida ko'rsatilgan. Faqat bu sababni o'quvchi kitobdan o'qib bermay, o'z so'zlari bilan ifodalab berishiga erishish kerak

bo'ladi. Shundan so'ng o'quvchilar hayvonlarning birlashishiga yana qanday sabablar borligini o'ylab ko'rsinlar. Bu savolga matnda tayyor javob yo'q. O'quvchilar mustaqil mulohaza yuritib, asar mazmunidan xulosa chiqarib, o'z fikrini aytishi kerak bo'ladi.

“Susambil yurti aslida bormi yoxud ahillik, bir-birini tushunishga, o'rni kelsa, kechirishga, zarur bo'lsa, yordam berishga tayyorlik tuyg'usi har qanday joyni o'shandiq baxtlar vodiysiga aylantiradimi?” degan masala o'quvchilarning ruhiyatini muvozanatdan chiqarishi tabiiy. Ertakda ko'tarilgan ahillik, samimiylik, o'zaro oqibat, bir-birini tushunish, ayash, zarur bo'lganda ko'maklashish, kechirimli bo'lish kabi insoniy sifatlar haqida gap ketganda, o'qituvchi nasihatgo'ylik qilmagani ma'qul. Shunday sifatlarga ega bo'lgan kishilargina Susambilday ozod va obod mamlakatda hayot kechirishga munosib ekanliklari haqidagi xulosani savolga javob berish asnosida o'quvchilarning o'zlari chiqarishlari kerak. Mana shu haqiqat har qanday ma'ruza-yu nasihatlardan ko'ra samaraliroq natija beradi.

Bundan tashqari, o'qituvchi vaqtiga qarab o'quvchilarini mustaqil mulohaza yuritishga undaydigan: “Ertakda ayb qilganni kechirish, og'ir kunda sabr-toqatli bo'lishga undash singari fikrlar qaysi o'rinlarda ko'zga tashlanadi? Maqtanchoq bo'rilarga xos jihatlarni ko'rsating. “Uch og'a-ini botirlar” ertagidagi otaning bolalariga nasihatida aytilgan qaysi illat bilan bo'rilarning kerilishlari o'rtasida bog'liqlik bor deb o'ylaysiz? Aslida bo'rilarga qaraganda ancha ojiz bo'lgan jonivorlarning qudrati nimada ekanligini tushuntiring. “Azroil”, “go'rkov”, “so'fi”, “eshon” timsollarini taqqoslang. Har bir jonivorga tavsif bering va ularni ertakda tasvirlangan odamlar bilan solishtiring. Qay biri sizga ma'qulroq? Nima uchun?” singari savol-topshiriqlarni o'rtaga tashlashi o'quvchilarning asar mazmun-mohiyatini chuqurroq anglashlariga ko'maklashadi.

O'qituvchi o'quvchilarini insonga xos fazilat va illatlar ustida o'ylab ko'rishga yo'naltirishi lozim. “Inson tabiatidagi qaysi f'el-atvor va tuyg'ularni fazilat deb, yaxshi sifatlar deb ataymiz-u qaysilarini kamchilik, illat, yomon sifatlar deb bilamiz? Nega bu sifatlarning biri yaxshi-yu ikkinchisi yomon? Buni bizga kim belgilab bergan? Bu sifatlarning qaysi birini egallaganimiz ma'qul va buni kim baholaydi? Bu borada kattalarning jazolashi yoxud maqtashi kifoyami yoki fazilatli yoinki illatli bo'lishning boshqa oqibatlari ham bormi?” singari savollarni alohida qog'ozga yozib hammaga tarqatish, keyingi

darsda shu haqda suhbatlashishlarini ma'lum qilib uyda kattalar bilan birgalikda o'ylashib ko'rishni tavsiya etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shular haqida o'ylab ko'rgan, bu haqda ota-onasi, bobo-buvisi bilan maslahatlashgan bola loqaydlik illatidan yiroq bo'ladi.

Ikkinchi darsning oxirida uy vazifasi sifatida o'quvchilarga o'takning "Susambilga kelib ko'p rohatlanib qolishibdi..." degan joyidan boshlab ikkinchi, uchinchi tugashini to'qib kelishni ham topshirish mumkin. Bu o'quvchilar uchun yoqimli mashg'ulot bo'libgina qolmay, ularning xayolparastlik, ijodiy va mustaqil fikrlash qobiliyatlarining o'sishiga ham ko'maklashadi.

Savol va topshiriqlar:

1. "Adabiy ta'lim konsepsiyasi" bilan adabiyotdan "Davlat ta'lim standarti" o'rtasida qanday farq bor deb o'ylaysiz? Har ikkala hujjatning yetakchi xususiyatlari haqida mulohaza yuriting.

2. Nima deb o'ylaysiz, adabiy ta'lim bo'yicha davlat ta'lim standarti bilan adabiyotdan o'quv dasturi o'rtasida qanday tafovut mavjud? Har qaysisining asosiy jihatlari nimalardan iborat?

3. Adabiy ta'lim bo'yicha tuziladigan "Dastur" va "Darslik" singari pedagogik hujjatlarning ayricha tomonlarini qaysi belgilaridan ko'rish mumkin? Qaysi biri kimga tegishli?

4. "Adabiyot" darsliklarining 1991-1999-yillardagi ikki avlodiga kos bo'lgan o'xshash va farqli jihatlarni ikki ustunga yozing. Ularni taqqoslang. To'plagan ma'lumotlaringizga tayanib amaldagi "Adabiyot" darsliklarini tahlilga torting. Munosabat bildiring. Fikrlaringizni qo'lingizdagi ma'lumotlarga tayanib asoslang.

5. "Adabiyot" darsliklariga qo'yilgan talablarni qayta o'qing. Ularning har birini alohida tahlilga torting. Munosabat bildiring.

6. Yuqorida aytilgan: "*bilimlarni o'quvchi o'z mehnati bilan o'zlashtirishi*" haqidagi fikrni qanday tushundingiz? Sizningcha bu adabiyot darslarida qanday amalga oshiriladi?

7. Yuqorida ta'kidlangan: "*Darsliklar tarbiyalanuvchini ta'lim jarayonining obyekt bo'lish maqomidan darsning o'qituvchi bilan teng huquqli subyekt, ishtirokchisi darajasiga ko'tarilishi kerakligi ko'zda tutilib yaratilishi joiz*" degan fikrni izohlang. Bu darsliklarda qanday aks etadi deb o'ylaysiz?

8. Matnda: "*Tuzukkina savodxon, o'qituvchisi fikrlarini juda chiroyli takrorlay oladigan ayrim o'quvchilar o'z fikrini ifodalashi*"

kerak bo'lganda qiynaladi, o'z fikrini aytishdan qo'rqadi", degan fikr bor. Uni sharhlashga urinib ko'ring. O'quvchilarga xos bo'lgan bu illatlarning sababi haqida mulohaza yuriting. Fikringizni asoslang.

9. "Adabiyot" darsliklariga qo'yilgan talablar orasida: *"Darsliklar o'quvchilarni o'z ma'naviyatini shakllantirish uchun o'zlari harakat qilishga yo'naltiradigan tarzda tuzilishi zarur"*, degan fikr bor. Siz buni qanday tasavvur qilasiz?

10. "Erkin Vohidov mohir g'azalnavis" mavzusida insho yozing. Unda shoirning g'azalchilikdagi muvaffaqiyatlarini misollar asnosida ochib bering. Bir-biringizning insholaringizni tekshiring, muhokama qiling.

6-MAVZU. ADABIYOT O'QITISH METODIKASI ASOSIY TAMOYILLARI VA YONDASHUVLARI

Reja:

1. Ta'lim tamoyillari.
2. Ta'lim tamoyillarining o'qitish jarayonidagi o'rni.
3. Umumiy tamoyillar va ularning tasnifi.
4. Adabiyot o'qitishda yetakchi tomoyillar va uning o'ziga xos xususiyatlari.
5. Ta'limning kreativ va kognitiv yo'nalishlari.
6. Badiiy matnning didaktik tahlili namunasi.

Ta'lim tamoyillari (prinsplari – lotincha *principum* – negiz, boshlang'ich) – ta'lim kechimini tashkil etishda tayaniladigan eng muhim qoida va qarashlar tizimi. Tamoyillar pedagogik amaliyotni to'g'ri tashkil etish ehtiyoji natijasida vujudga kelgan. Tamoyillar o'qitish jarayoniga qo'yiladigan talablar majmuasidir. Ta'lim tamoyillarini quyidagilarga ajratish mumkin:

- rivojlantiruvchi ta'lim va tarbiya tamoyili;
- ta'limning hayot bilan bog'liqligi tamoyili;
- ta'limning ilmiyligi tamoyili;
- ta'limning tizimliliigi va izchilligi tamoyili;
- o'qituvchi rahbarligida o'quvchilarning ongliligi va ijodiy faolligi tamoyili;
- ta'limning ko'rsatmaliligi va o'quvchilarning nazariy fikrlash qobiliyatini o'stirish tamoyili;
- ta'lim jarayonida o'quvchilarning mustahkam bilimga ega bo'lish tamoyili;
- ta'limning o'quvchilar shaxsini e'tiborga olgan holdagi jamoaviyligi tamoyili.

Ta'limning ushbu tamoyillari ayrim-ayrim holda emas, balki bir-biri bilan uzviy bog'langan holda amalga oshiriladi. O'qitishning juda ko'p tamoyillari mavjud bo'lsa ham, hamma pedagoglar uchun amal qilinishi shart bo'lgan quyidagi bir qator umumiy tamoyillar mavjud:

1. O'qitishning tarbiyalovchi va kamol toptiruvchi tamoyili.
2. Ilmiylik, tizimlilik va izchillik tamoyili.
3. Ta'limning amaliy hayot bilan bog'lanishi tamoyili.
4. Onglilik va faollik tamoyili.

5. Ko'rsatmalilik tamoyili.
6. Tushunarlik tamoyili.
7. Puxtalik va boshqa tamoyillar.

Ta'lim kechimida mana shu tamoyillarga rioya qilinishi shart. Ammo predmetlarning mazmuniga, o'quvchilarning yosh xususiyatlariga, ko'rsatmali qo'llanmalar mavjudligiga bog'liq holda tamoyillarning nisbati hamda mazmuni ma'lum darajada o'zgaradi. Masalan, ko'rsatmalilik tamoyili tabiatshunoslikni o'qitish jarayonida tajribalarni namoyish etish bo'lsa, tilni o'qitishda grammatik jadvallarni ko'rsatish, darstaxtaga yozish, chizmalar chizish va hokazolardan iborat bo'ladi. Lekin har qanday predmetni o'qitishda jonli mushohada, ya'ni narsa va hodisalarni muayyan idrok etish, fikrlash tamoyillariga amal qilish, nazariy xulosalarni tushunish va bilish, ularni tajribada, hayotda qo'llay olish zarur¹.

Adabiyot darslarini tashkil etishda esa o'quvchini ezgu ma'naviyatli shaxs sifatida shakllantirish uchun ta'limning quyidagi tamoyillari yetakchilik qiladi:

- *dars tartibini o'zgartirish*. Bunga ko'ra darslar an'anaviy yo'sinda, ya'ni tashkiliy qism, uy vazifasini so'rash va uni mustahkamlash, yangi dars bayoni va uni mustahkamlash, uyga vazifa berish tarzida amalga oshirilmaydi. Dars jarayoni dasturda taqdim etilgan yangi asar ustida ishlanayotganda, o'quvchilarning avvalgi bilimlari, hayotiy tajribalariga tayangan holda bahsli-munozarali savollar berish va o'quvchilarning mustaqil ishlashlarini ta'minlash asosida tashkil etiladi. Bu jarayonda bir xillikdan, takrorlardan qochgan holda har xil ta'lim metodlaridan foydalaniladi. O'quvchilar asarni tahlil qilishdagi ishtiroklariga qarab baholanadi. Uy vazifalari o'quvchilardan mustaqil fikrlashni va ijodiy ishlashni talab qiladigan tarzda beriladi;

- *o'qitishning hayot bilan aloqadorligi*. An'anaviy ta'limda darslarning hayot bilan aloqadorligini ta'minlash o'qituvchining vazifasi hisoblanadi. O'quvchining ma'naviy kamolotiga qaratilgan darslarda hayotiy hodisalar asosida fanning tushuncha va qonuniyatlarini ularning o'zlari o'zlashtiradilar, nazariyadan yana hayotga qaytadilar. O'qituvchi yo'naltiruvchi savol-topshiriqlari va

¹ Ўзбек педагогик энциклопедик сўзлиги. (К. Йўлдош, У. Долимов, К. Хусанбоева, А. Сулаймонов, М. Йўлдошева, О. Сафаров.) – Т.: Chashma print, 2014. 446-бет.

vazifalari bilan bu jarayonga rahbarlik qiladi. O'quvchilar o'zlari topgan ilmiy va hayotiy haqiqatlarga hurmat bilan qaraydilar. Nazariy tushunchalar mavjud borliqni anglash yo'li bilan tiniqlashadi va chuqurlashadi. O'quvchilar adabiy qahramonlar shaxsi va asarda ifodalangan narsa-hodisalarni tahlil qilish bilan o'zlari hayotda duch kelishlari mumkin bo'lgan har xil hodisalarning asosini topishga o'rganadilar.

Ta'limning hayot bilan to'laqonli aloqasi o'qitishning tashkiliy jihatlari va metodlari o'rtasida uzviylikni talab qiladi. Ta'lim tizimi amaliyotiga har xil sun'iy metod va usullarni olib kiravermay, ularning hayot, mavjud tabiiy qonuniyatlar bilan bog'liq bo'lishiga erishish kerak. O'quvchi darsda o'rgangan bilimlarini hayotda qo'llasin yoki hayotda ko'rganlari asosida darsda o'z kuchi bilan ilmiy xulosa chiqarsin. Shundagina berilgan bilimlar o'quvchining xotirasigagina emas, tafakkur va ruhiyatiga o'rtnashib, uning ko'ngil mulkiga aylanadi. Maktabda bir narsani eshitib, hayotda boshqa narsani ko'rgan o'quvchida darslarda singdirilgan haqiqatlarga ishonch yo'qoladi. Eng to'g'ri yo'l – hayotiy haqiqatlar asosida tarbiyalash. Haqiqat qanchalik achchiq, murakkab va yoqimsiz bo'lmasin, foydalidir. U oxir-oqibat shakllanayotgan shaxsga hayotning asl mohiyatini ochib beradi. Unga hayot qiyinchiliklarini yengishning to'g'ri yo'lini tanlash imkonini beradi;

- *o'quvchiga mustaqil faoliyat uchun topshiriqlar berish.* Adabiy ta'limni uyushtirishning bu tamoyilida uy vazifasini so'rash har xil mustaqil ishlarni yalpi yoki guruh tarzida bajartirish orqali amalga oshiriladi. Yangi mavzuni o'zlashtirishga ham o'quvchilar topshiriqlarni mustaqil bajarish asnosida, ya'ni o'zi mehnat qilgan holda erishadi. Mustaqil ishlar ijodiy yoki yarim ijodiy tarzda taqdim etiladi. 3-4 daqiqada bajariladigan qisqa muddatli mustaqil ishlar ham o'quvchilarni faollashtiradi;

- *ta'limni individuallashtirish.* Maktab adabiyot darslari jarayonini individuallashtirish bilimlarni o'zlashtirishda bo'shliq bo'lishiga yo'l qo'ymaslik uchun o'quvchilarning har biri bilan maksimal darajada alohida ishlashdan iboratdir. Har bir o'quvchi bilan alohida ishlashda uning individual xususiyatlari, bilim o'zlashtirishdagi o'ziga xosligi, xotirasi, o'zlashtirish darajasi, xarakteri va qiziqishlari albatta, inobatga olinishi shart;

- *oldinni ko'ra bilish*. Bu tamoyil mohiyati o'qituvchining o'quvchi faoliyati natijalarini oldindan ko'ra bilishida namoyon bo'ladi. O'qituvchining bunday fazilati o'quv materialini tanlashi va darsga tayyorlanishida katta ahamiyat kasb etadi. Adabiy ta'limda o'quvchilar ma'naviy kamolotini ta'minlashda ularning yangi bilimlarni kashf etib o'zlashtirishi ham o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarning bu jarayondagi faoliyati obyektiv-subyektiv o'ziga xosliklari bilan ajralib turadi. Bu jarayonning obyektiv o'ziga xosligi shuki, o'quvchi bilimlarni kashf qilib o'zlashtirar ekan, fanga ham, o'quv predmetiga ham, ta'lim metodlariga ham hech qanday yangilik kiritmaydi. U bilimlarni o'zi uchun qayta yaratadi, mavjud ilmiy va hayotiy haqiqatlarni o'zi uchun o'zi kashf qiladi. Subyektiv o'ziga xosligi shundaki, o'quvchi ta'lim jarayonida o'zi avval duch kelmagan, bilmagan narsalarni shu vaqtgacha foydalanmagan yangi metodlar yordamida o'zlashtiradi. Bilim olishning bunday yo'llari o'rganilgan bilimlarning yangi jihatlarini ko'rish, ularni mustaqil tarzda chuqurlashtirish nuqtai nazaridan diqqatga loyiqdir.

Bilim olish jarayonida hayratlanarli, kutilmagan hodisalar bilan to'qnashish o'quvchi shaxsida o'ziga ishonch hissini paydo qiladi. Bugungi ta'lim jarayonida o'quvchilarning ma'naviy kamolotini ta'minlashda ikki narsa hisobga olinishi zarur. Birinchidan, o'quvchilar ongida fanga doir qonuniyatlar va ularning o'zaro aloqasi nechog'lik mukammal aks etganligini aniqlash. Ikkinchidan, shu asnoda bilimlarni o'zlashtirishga intilish uyg'otib, uni qo'llab-quvvatlash, mustahkamlash.

Tarbiyalanuvchilarning mustaqil fikrlash va mustaqil ravishda bilim olishga qiziqishining shakllanishiga o'qituvchi bilan o'quvchilar orasidagi, shuningdek, sinfdagi bolalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar ham katta ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchi o'quvchilarining ichki dunyosiga chuqurroq kirishi, ularning har biriga xos bo'lgan qiziqish motivlarini o'rganishi lozim. Muallimning o'quvchi intellektual kuchiga ishonchi tarbiyalanuvchining mustaqil fikrlash va bilim olishga bo'lgan qiziqishini uyg'otuvchi motivdir. O'quvchining imkoniyatini ocha bilish – o'z vaqtida, ishonarli ravishda, tarbiyalanuvchining yoshiga xos xususiyatlari, ehtiyoj va qiziqishlarini bilgan holda, uni hayotiy tajribasi, aqliy hamda jismoniy kuchi, qobiliyatini namoyish qilishga undashdir.

O'qituvchi o'z ishiga ijodiy yondashsa, albatta, o'quvchilar faoliyatida o'z aksini topadi va ularning yetuk shaxslar sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. O'qituvchining loqaydlik bilan majburiyat ostida qilayotgan mehnati o'quvchida salbiy hislarni qo'zg'otishi, uning bilim olishga bo'lgan intilishini so'ndirishi tayin. O'quvchining mustaqil bilim olishga bo'lgan intilishini to'xtatadigan yoki susaytiradigan holatlardan biri dars jarayonidagi bir xillikdir. Bir xil harakatlar, tuyg'ular, fikrlar inson ongini bo'm-bo'sh qilib qo'yadi. Inson asablari tizimi va tafakkuri sheriklikda faoliyat ko'rsatadi. Faoliyatsiz insonning asab tizimi ham zarur darajada rivojlanmaydi. Asab tizimining taraqqiyoti faqat uning tinimsiz harakati bilan amalga oshadi. Intellect esa uning tarkibiy qismlari ishlab turgandagina rivojlanadi.

Afsuski, bugun ham ta'lim jarayonida o'quvchilar tafakkurining faol ishlashi, bilimlarni mustaqil ravishda o'zlashtirishini ta'minlash borasida yetarlicha harakat qilinmayapti. Ko'p hollarda bunday ishlar bolalar va o'smirlarning mustaqil fikrlashlari, ijodiy ishlashlari uchun emas, balki ularning xotirasiga, tayyor holda olingan bilimlarni eslab qolishlariga qaratilmoqda. O'qituvchilarda bundan qutilish va bugungi pedagogik talablarga moslashish jarayoni juda sekin kechmoqda.

Zamonaviy adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilar bilimlarni ixtiyoriy ravishda o'zlashtirishlariga yo'naltirishda quyidagi tamoyillar ham mavjudki, bulardan ta'lim amaliyotiga daxldor har qanday mutaxassis xabardor bo'lmog'i talab qilinadi:

- *o'quvchi shaxsini ustuvor mavqega ko'tarish.* Bugungi milliy pedagogika uchun tarbiyalanuvchilarning toza ko'ngilli, ruhan yaxshiliklarga moyil shaxs bo'lib yetishishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu, o'z navbatida ularning yaxshi mutaxassis bo'lib shakllanishlari garovi hamdir. O'sib kelayotgan avlodning bilimli va malakali mutaxassis bo'lishi bilan birga sog'lom ma'naviyat egasi bo'lishi ham davr talabidir. Ma'lumki, sinfdagi har bir o'quvchi o'z tabiati, iqtidori, qobiliyati, qiziqishlari va imkoniyatlari bilan betakror yaratiqdir. Ularning hech biri ikkinchisini takrorlamaydi. Shuning uchun har bir o'quvchining o'ziga xos qobiliyat va imkoniyatlarini inobatga olgan holda vazifalar berish hamda bilimlarni ham individual tarzda so'rashni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqdir. Toki, qaysidir bir o'quvchiga berilgan ulkan qobiliyat behuda qurbon bo'lmasin,

o'rtacha iqtidorli ikkinchi o'quvchi esa o'z imkoniyatidan tashqari vazifani bajarolmay, o'ziga ishonchini yo'qotmasin;

- *ma'naviyat ustuvorligini ta'minlash.* Ma'lumki, maktabda yigirmadan ortiq o'quv fani o'qitiladi. Ularning ko'pchiligi bolaga bilim beradi (til, matematika, fizika va hk.). Bir qismi kasb-hunarga yo'naltiradi (mehnat, chizmachilik darslari), ayrimlari o'quvchining jismi rivojiga (jismoniy tarbiya darslari) xizmat etsa, ba'zilari o'quvchilarda toza ko'ngil shakllantirilishi uchun (adabiyot, tasviriy san'at, musiqa darslari) o'rgatiladi. Bu o'quv fanlari oldida milliy pedagogikaning bosh maqsadi bo'lmish o'quvchilarda ezgu ma'naviy sifatlarni shakllantirish turmog'i lozim. Adabiyot darslarida badiiy so'z yordamida o'quvchini so'zdan ta'sirlanish, uni tuyish va undan bahra olishga o'rgatish orqali inson shaxsiyatida go'zal sifatlar, ijobiy fazilatlarni tarbiyalash mumkin. Go'zal xulqli, sog'lom ma'naviyatli kishilarning so'zlari ham, ishlari ham o'zlariga munosib ekani, toza ko'ngil sohibi hamisha rag'bat va marhamatlarga munosibliyi adabiyot orqali anglashiladi. Bu ishlar bevosita badiiy asarlarni o'rganish, matnlarni tahlil qilish yo'li bilan amalga oshiriladi;

- *tarbiyalanish va bilim olishda o'quvchining o'z ishtirokini ta'minlash.* O'quvchi ma'naviy kamolotini ta'minlash maqsadida badiiy asar tahlili jarayonida ular matnda aks etgan voqea-hodisalar, qahramon shaxsi, xatti-harakati, iztiroblari, xursandchiligi borasidagi muhokamalarda fikr aytishga, biror qarash yoki faoliyatni yoqlash yoxud qoralashga undaladi. Bu ish asar matni yuzasidan taqdim etilgan savol-topshiriqlar ko'magida, muammoli vaziyatlar yordamida amalga oshiriladi. Savollarga javob berish asnosida o'quvchi asar matniga murojaat qiladi, izlanadi, o'rtoqlarini eshitadi, o'z qarashlarini aytadi, uni boshqalarniki bilan solishtiradi, nazorat qiladi, xulosalar chiqaradi. Mana shunday faoliyat jarayonida o'quvchi o'z ma'naviyatini shakllantirish, o'z-o'zini tarbiyalash yo'lida mehnat qiladi.

Adabiyot odoblar xazinasidir va bu xazinaga o'quvchining o'z ixtiyori bilan kirishini ta'minlash orqali adabiyot darslarida asarlar ustida ishlash, munosabat bildirish mobaynida o'z-o'zini tarbiyalashini amalga oshirish mumkin bo'ladi;

-*o'quvchiga kashf etish lazzatini tuydirish.* Badiiy asarga uning muallifi tomonidan singdirilgan, darslik yaratuvchilar tomonidan ilg'angan badiiy va hayotiy haqiqatlarni o'quvchi o'zi uchun o'zi

kashf etishi kerak. O'quvchiga asar qahramonlariga xos ma'naviy sifatlarni matn yuzasidan tuzilgan savol-topshiriqlar ko'magida kashf etish imkoni yaratilishi lozim. Kashf etish hamisha lazzatli, o'quvchilarga ham ana shu lazzatni tuyish imkonini berish kerak. Kashf etish lazzati o'quvchini asar mohiyatiga chuqurroq kirishga, yangi-yangi topilmalar qilishga undaydi. Odam o'ziga huzur bergan ichmi yana va yana qilgisi, uni chuqurlashtirib, o'sha huzurni qayta uygisi keladi. Adabiyot darslarining insonga xos bo'lgan mana shunday tabiiy sifatlarni bilan hamohang kechishi o'quvchi shaxsiyatida sog'lom ma'naviyat kishisini tarbiyalaydi;

- *pedagogik hamkorlikni ta'minlash.* Adabiyot darslarida o'qituvchi hokim emas, balki hamkor bo'lishi kerak. Bilimlarni o'zlashtirish va tarbiyalanish o'qituvchi-o'quvchi hamkorligida o'quvchining o'zi tomonidan amalga oshiriladi. O'qituvchining darsdagi asosiy vazifalari asarni ifodali, ta'sirli o'qib berish va asar matnini yuzasidan darslikda berilgan yoki o'zi tuzgan savol-topshiriqlarga e'tibor tortib, javoblarni, bildirilayotgan fikrlarning mantig'i, mustaqilligi, asoslanganligi, tanqidiyligi, chuqurligi darajasini nazorat qilishdan iborat. O'qituvchi zarur bo'lib qolganda, o'z munosabatini katta yoshli va tajribali hamkor sifatida bildirishi, o'quvchilarning fikr aytishiga imkon berishi, ularda munosabat uyg'otishi kerak. Dars jarayoni subyektlarning birgalikdagi faoliyatiga aylanishi lozim;

- *asarni qahramonlariga obraz emas, inson deb qarash.* Ma'naviyatning sog'lomlashuviga yo'naltirilgan adabiyot darslarida har bir adabiy qahramonni ijobiy yoki salbiy obraz deb emas, jonli inson sifatida o'rganish, uning ichki olami, kechinmalari, shodlik va iztiroblari, xatti-harakati zahirida shaxs mavjudligini anglash hamda uni tuyishga o'rganish ustuvorlik qiladi. Badiiy timsolga o'z shodligi-yu iztiroblari bilan o'quvchiga bevosita daxldor shaxs deb qarash talab qilinadi. Badiiy asarda tasvirlangan o'ta yomon odamning ham yaxshi sifatlari va juda yaxshi insonning ham o'ziga xos kamchiliklari borligi ko'zda tutiladi. Tom ma'noda yomon odam bo'lmagani singari, ideal darajada yaxshi odam ham yo'q. Asar qahramonini anglash yo'lida berilgan savol-topshiriqlar, ijodiy insholar, mustaqil ishlar ko'magida o'quvchi insonni o'rgana boradi. U orqali o'zini taniydi;

- *adabiy asarlarda adib shaxsining aks etishini anglatish.* Ma'lumki, har bir asar – bir insonning ijodi mahsuli. Hatto, u xalq

og'zaki ijodi namunasini ham kimdir, qachondir yaratgan. O'sha asar botiniga inson o'z dardini to'kadi, unga orzu-istaklari, hayotining iztirobli yoki quvonchli lahzalarini joylaydi. Asar yaratuvchisi ruhiyatini his etish, uning shodlik va iztiroblarini tuyish ma'naviyatni poklashda muhim ahamiyat kasb etadi. Matn ustida ishlashda asar qahramonlari kechinmalari va shaxsini baholash o'quvchiga insonni o'rganish, tanish orqali o'zligini shakllantirish imkonini beradi. O'quvchini o'z shodligi, qayg'u va iztiroblariga sherik qila olgan, uni loqaydlikdan chiqarib hamdardligiga sabab bo'lgan adibni tushunish, yozganlarini o'rganish orqali uning shaxsini bilish bugungi adabiy ta'limning muhim jihatlaridandir. Asar qahramonlarini baholash o'quvchilarda qilgan amallariga qarab atrofidagi odamlarga baho berish qobiliyatini shakllantiradi;

-Adabiyot darslarida o'quvchini baholash. Hamonki adabiyot darslari ko'ngil tarbiyalanar, ma'naviyat shakllantirar ekan, ko'ngilga "yomon" baho qo'yish, ma'naviyatni salbiy baholash unchalar to'g'ri bo'lmasligi adabiyot o'qitish metodikasi ilmida alohida ta'kidlanadi. Asarlar ustida ishlash mobaynida uning mohiyatiga kirib borayotgan, o'z fikri va munosabatlarini asardan misollar keltirib asoslayotgan, mustaqil fikr bildirayotgan yoki bunga intilayotgan o'quvchiga yomon baho qo'yilmaydi. Umuman, adabiy ta'lim jarayonida salbiy baholardan imkon qadar tiyilish, o'quvchilarni bilimlari uchungina emas, ma'naviy qiyofalari uchun ham baholash lozimligi yodda tutilishi joiz. Zero, adabiyot maktab ta'lim tizimidagi o'zga predmetlarga o'xshamaydi, shu bois uni o'zlashtirganlik yuzasidan qo'yiladigan baho bir qadar shartli bo'lib, aslida o'quvchi ma'naviyati baholanishi lozim.

O'qituvchi adabiyot darslarida o'quvchini mustaqil mulohaza yuritishga yo'naltiruvchi topshiriqlar berib, bilimini tekshirar ekan, u yo'l qo'yan xatolarni ko'rsatish bilan birgalikda uning sabablarini aniqlashga e'tibor qaratishi va ulardan qutulishga yo'naltirishi lozim. Masalan, "Menga yoqqan tasvir" mavzusida insho yozish topshirig'ini olgan o'quvchi ijodiy ishni boshlashdan oldin asar matnidan o'ziga yoqib qolgan, mazmunan boy va qiziqarli tasvirni ajratib oladi. Inshoda tasvirga mos sarlavha qo'yiladi, tasvirning asar umumiy mazmuniga ta'siri; uning badiiy qiymati; bu tasvirni tanlash sabablari, u o'quvchida qanday fikr va tuyg'ular uyg'otgani kabi masalalar yoritiladi.

O'quvchi asardagi biror tasvirni ajratib olish uchun uni qayta-qayta o'qiydi, o'ylanadi, izlanadi. Tanlangan tasvir tahlil qilinadi. Tasvirni o'rganishdan olingan taassurotlar, fikr va tuyg'ular ifodalalanadi. Bunday ishlarning darajasi qanday bo'lishidan qat'i nazar, ularga yomon baho qo'yilmaydi. Odatda, o'quvchilar yozgan ishlarida darslik mualliflari yoki o'qituvchining timsollar haqidagi fikrlariga yopishib olishadi. Ularning yozma ishni qanday bajarishni bilmagani, o'z fikrini ifodalashga o'rganmagani, asar timsollari haqida o'z qarashlarining yo'qligi, matn mazmuni yoki timsollarning qaysi o'rni va jihati unga ta'sir etganini ajrata olmaganliklari bu holning asosiy sabablaridir. Bunday ishlarni tekshirishdan oldin o'qituvchi tarbiyalanuvchilar badiiy asarni qanday o'qigani va qanchalik tushunganini aniqlaydi. O'quvchi bilan suhbat asnosida tushunilmagan o'rinlar va uning sabablari aniqlanadi. Shu tariqa, o'quvchi shaxsiyatida tafakkur mustaqilligi va ma'naviyatning sog'lomlashuvi amalga oshiriladi. O'quvchi ma'naviyatining sog'lomlashuvi esa: *"...o'z manfaatini o'zgalar manfaatiga qarshi qo'ymaslik, o'zinikini afzal bilmaslikdir. Boshqalarning ham o'zi singari inson ekanini his qilish va ularga daxl qilmagan, halal bermagan holda birgalikda yashay bilish san'atidir. Sog'lom ma'naviyat – o'zni yengmoq, o'zning istag-u mayillarini jilovlay bilmoq, ayni vaqtda o'zlikni tanimoqdir. Sog'lom ma'naviyat sudbinlikni yenga bilmoqdir, makonda turib makoniy manfaatlardan, zamonda yashab zamoniy tuslanaverishlardan balandroq tura olmoq demakdir"*¹.

Xulosa qilib aytganda, adabiyot darslarida o'quvchi shaxsi bosh qadriyatga aylansa, unga bilim berish bilan birga ma'naviy dunyosini shakllantirishga ham ustuvor qaralsa, o'quvchi shaxsiyatidagi asosiy ko'rsatkich bo'lgan ma'naviyatning sog'lomlashuvi jarayoni ham tabiiy ravishda tezlashadi.

* * *

Ta'limdagi muhim yo'nalishlardan biri unga **kreativ yondashuv**dir. O'qitish kechimiga kreativ yondashuv dunyo bo'ylab fan va texnologiyadan tortib falsafa, san'at, aniq, tabiiy va gumanitar fanlarni o'qitishda ustuvor ahamiyat kasb etadi. Ta'limdagi kreativ

¹ Йўлдошев Қ. Ўзликни таниш – Аллохни танишдир. // "Тафаккур" журнали, 1996 йил 4-сон, 22 – 27-бетлар.

yondashuvning asosi bo'lgan individning kreativ fikrlashi shunchaki tasodifiy g'oyalari berish tutumidan balandroq tushuncha. U insonga murakkab sharoitlarda, yanada yaxshiroq natijalarga erishishga imkon beruvchi bilim va tajribaga asoslangan real ko'nikmadir. Kreativ fikrlash ta'lim amaliyotida mustaqil va mantiqli fikrlash ko'nikmalari safida turadi. Butun dunyoda jamiyatlar va tashkilotlar muammolarini hal etishda, xususan, ta'lim tizimida innovatsion bilim va yaratuvchanlikka tobora ehtiyoj sezmoqda va bu, o'z navbatida, mazkur sohani innovatsion va kreativ yo'nalishga solishni yanada kuchaytirmoqda.

“Kreativ” va “kreativlik” tushunchalari (*lotin va ingliz tillaridan o'girilganda “create” – yaratish, “creative” – yaratuvchi, ijodkor ma'nolarini anglatadi*) – individning yangi g'oyalarni yaratishga qodirligini tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilik tarkibiga kiruvchi **ijodkorlik qobiliyati**, deb baholanadi.

Avvalo, ta'lim tizimida faoliyat olib boradigan pedagogning o'zi kreativlik sifatlariga ega bo'lishi lozim. Bu uning shaxsiy qobiliyatlari va kasbiy faoliyatini sifatli, samarali tashkil etishiga zamin yaratadi. O'qitishning didaktik ta'minotini kreativ yondashuv asosida tashkil etish dars jarayoni samaradorligini kafolatlaydi.

O'qituvchining ta'lim jarayonidagi kreativ (ijodkor)ligi:

– o'quvchilarda o'qishga bo'lgan qiziqishni orttiruvchi kreativ savol va topshiriqlar tuzish;

– turli rasm, tasvir, jadval, diagramma, multimedia materiallari, elektron adabiyotlar, internet materiallari, elektron lug'atlar, kichik guruhlarda ishlash, mavzular asosida o'quv muammolari yaratish va o'quvchilarni ularga qiziqtirgan holda yechim sari yo'naltirish;

– o'quvchilarga xos bo'lgan ijodiy, mustaqil va mantiqli fikrlash qobiliyatlari va mustaqil faoliyatini farqlay olish;

– tarbiyalanuvchilarning bu kabi ko'nikmalari darajasini farqlash va munosib baholashga qodirlik kabi ish turlarida o'z aksini topadi.

Muallim tomonidan tarbiyalanuvchilarining mustaqil, mantiqli va ijodiy (kreativ) fikrlashlariga erishilishi, ta'lim jarayonida ijodiy faoliyatga undash va bunday faoliyatni rag'batlantirish bilishi sinfdagi boshqalarni ham shunday ijodiy faoliyatga undashga asos bo'ladi.

Ta'limga kreativ (ijodiy) yondashuv o'quvchilarni kreativ fikrlashga yo'naltirish asosi sifatida butun jamiyatga sezilarli innovatsiyalarning asosi hisoblanadi. Ayni zamonda, u universal va

teqlashtiruvchi xususiyatga ega fenomen hamdir. Ya'ni har qanday shaxs, u yoki bu darajada kreativ, mustaqil va mantiqli fikrlash qobiliyatiga ega. Ta'lim sohasidagi mutaxassislar va psixologlarning fikriga ko'ra, ijodiy faoliyat bilan bog'liq fikrlash jarayoni bir qator boshqa shaxsiy ko'nikmalarning rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ya'ni metakognitiv (fikrlash haqida o'ylash, bilim haqida bilish, ongni anglash qobiliyati) qobiliyat, insonlar bilan muomala qilish va shaxsning o'zlikni anglash hamda muammoni hal etish ko'nikmalari shakllanishiga asos bo'ladi. Bundan tashqari, ta'limga kreativ yondashuv shaxs kamoloti, ta'lim olishdagi, kelajakdagi kasbiy va hayotiy muvaffaqiyatlarida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'limga kreativ yondashuv asosida individni uning kreativ fikrlashini baholashga yo'naltirilgan xalqaro tadqiqot dasturi talablari darajasida rivojlantirishga, ta'lim siyosati va pedagogikasida ijobiy o'zgarishlarga erishish mumkin. Bugun PIRLS va PISA tadqiqotlari o'quvchining kreativ fikrlashi va faoliyati yo'nalishini baholashda mutasaddilarga dalillarga asoslangan to'xtamga kelishda ko'maklashuvchi aniq, ishonchli va amalga oshirish mumkin bo'lgan baholash vositalarini ham taqdim etmoqda. Dunyo miqyosida rivojlangan davlatlarga bu borada erishilgan natijalar milliy ta'limdagi tarbiyalanuvchilarda bu muhim ko'nikmani ta'lim orqali rivojlantirishning ahamiyati va usullari borasida bahslarga sabab bo'lmoqda.

Ta'limga kreativ yondashuvning asosiy vazifasi o'quvchiga jamiyatda muvaffaqiyatli hayot kechirishi, bugun va kelajakda kerak bo'ladigan ko'nikma va malakalarni shakllantirish hamda ularni rivojlantirishdan iboratdir. Bu yondashuvning asosi bo'lmish kreativ fikrlash va kreativ faoliyat bugungi yoshlar ega bo'lishi kerak bo'lgan muhim ko'nikmadir. Bu ko'nikma ularning doimiy tarzda va shiddat bilan o'zgarayotgan, oddiy savodxonlikdan tashqari "XXI asr ko'nikmalari"ga ega individlarni taqozo etayotgan dunyoga moslashishga ko'maklashadi.

Ta'limga kreativ yondashuv jarayonining asosi bo'lgan ijodiy fikrlash va faoliyat dunyo miqyosida «yangi g'oya va yechimlarni berish» kechimi deb baholanadi. Ta'limga kreativ yondashuv:

- 1) bilimlarni ta'riflash, vaziyatni kuzatish va sezish, o'zgaga hamdard bo'lish;
- 2) g'oyalar qidirish, yangi g'oyalar ishlab chiqish va tadqiq qilish;

3) bilimlar aloqadrligini kashf etish, sohalararo o'z nuqtai nazarini taqdim etish;

4) noodatiy yoki kuchli g'oyalar bilan «o'ynash»;

5) yangi mahsulotni tasavvur qilish, ifodalash, ishlab chiqish, yaratish;

6) yechimning yangiligini tan olish va yangi yechimlar topish singari faoliyat turlarini nazarda tutadi.

Maktabda kreativ fikrlash va faoliyatni rivojlantrishning ahamiyati faqatgina mehnat bozori bilan cheklanmaydi. Maktab yoshlar uchun ijodkor iste'dodlarni kashf etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, ta'limning kreativ yo'nalishida o'quvchilarning kreativ faoliyati ularning ta'lim olishini hodisalar, tajribalar va xatti-harakatlarni yangicha va shaxsan mazmunli usulda talqin etish orqali qo'llab-quvvatlanadi. O'quvchining xayolparastligi va qiziquvchanligi kreativ ta'lim jarayonida qo'l keladi, ijodiy fikrlash shu tariqa o'zaro kelishuv vositasiga aylanadi. Maktabda o'quvchining motivatsiya (ichki ehtiyoji)si va qiziqishini oshirish uchun, barcha o'quvchilarning ijodiy salohiyati va shijoatini hisobga oluvchi ta'limning yangi shakllari yo'lga qo'yilishi zarur. Bu o'qishga unchalik qiziqmaydigan o'quvchilarga ham yordam berishi mumkin va ularning o'z fikrini aytilish, salohiyatini ochishiga xizmat qilishi mumkin.

Ta'limga kreativ yondashilganda boshqa bir qator ko'nikmalar singari kreativ fikrlash va faoliyat ham ma'lum maqsadga yo'naltirilgan amaliy yondashuv orqali rivojlantiriladi. Ba'zi o'qituvchilarga o'quvchining kreativ fikrlashi va ijodiy faoliyatini rivojlantirish o'quv dasturidagi boshqa o'quv fanlar evaziga bo'layotgandek tuyulishi mumkin. Aslida, o'quvchilar barcha darslarda ijodiy fikrlash va faoliyatga moyil bo'ladilar.

Kreativ (ijodiy) fikrlash va faoliyat bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan har bir dars mobaynida ko'r-ko'rona yodlash, takrorlash o'rniga tadqiqotchilik va yaratuvchanlikni qo'llab-quvvatlaydigan yondashuvlar orqali rivojlantiriladi. O'qituvchilar ijodiy faoliyatni ajrata olishlari, bunday tutumlarga mos shart-sharoitlarni yarata bilishlari va o'zlari ham o'quvchilari kabi ijodkorlikka moyil bo'lishlari, har qanday ishga ijodiy yondashishga yordam bera olishni bilishlari kerak. O'qituvchi ta'lim jarayonidagi ijodkorlik (kreativ fikrlash, kreativ faoliyat) qay tariqa vujudga kelishi borasida aniq

tasavvurga ega bo'lishi, ta'lim jarayonida o'quvchilarda ijodiy g'oyalarni tug'ilishi uchun muayyan vaqt va sharoit talab etilishini anglashi, amalda bunga erisha olishi zarur.

Ta'limga kreativ yondashuv o'quvchilarni har qanday sohada original va samarali yechimlar, yutuqlar va tasavvurni ta'sirchan ko'rinishlarga olib keladigan g'oyalarni yaratish, baholash hamda ularni amalda qo'llashda samarali ishtirok etish qobiliyatini egallashga yo'naltiradi.

Rivojlangan davlatlar ta'lim yo'nalishlarida yetakchilik qiluvchi yana bir yondashuv **kognitiv yondashuv** deb nomlanadi. "Kognitiv" tushunasining asosi lotincha "sognitio" so'zidan olingan bo'lib *bilish, tushunish* ma'nolarini ifodalaydi. Inglizcha "kognitiv" so'zi esa "o'rganilgan", ya'ni shaxsning bilimlarni o'zi mehnat qilib, o'zini ham aqlan, ham ruhan zo'riqtirib o'zlashtirish ko'nikma va malakalarini shakllantirishini anglatadi. Bugun milliy tarbiyashunoslik amaliyotida o'zbek tilida ming yillardan beri qo'llanib kelinayotgan tutilarni inglizcha atama shakli (kreativ, kognitiv)da milliy ta'lim amaliyotiga go'yo yangidan olib kirish avj oldi. Bu ham mutasaddi tashkilotlar xodimlarining sohadan yiroqligi, ta'lim amaliyoti, milliy metodika ilmidan bexabarliklariga dalildir. Bu atamalar hamon "yangilik" deb qabul qilindimi (o'ng quloqni chap qo'l bilan qashish kabi), ularning talqini haqida gapirish kerak bo'ladi.

Mazkur atama bilan bog'liq kognitiv grammatika, kognitiv lingvistika, kognitiv psixologiya, kognitiv ta'lim, kognitiv yo'nalish kabi bir qator so'z birikmalari mavjud. "Kognitiv" atamasi obyektiv voqyelik (dunyo)ni bilish, inson tomonidan uni idrok etish, xotiraga muhrlash, axborotni tushuntirish, qayta ishlash kabi jarayonlar bilan bog'liq holda tushuniladi. O'quvchi faqat tinglash orqaligina emas, balki mustaqil o'qib-o'rganish natijasida o'zi uchun zarur bilimlarni izlab topadi, maksimal darajada o'zlashtiradi va bu ta'limga kognitiv (bilish, o'zlashtirishga qaratilgan) yondauv hisoblanadi. Bevosita mutaxassislarining tili bilan aytganda, "kognitiv yondashuv"ni nutqiy faoliyatdagi bilish jarayoni tarzida tushunish mumkin¹.

Kognitiv jarayon bilimlarni egallash bilan yakunlanadi.

Bugungi ta'lim jarayoni o'qitish kechimiga "kognitiv yondashish" deganda, o'quvchining bilimlarni nafaqat darslik yoki o'qituvchi

¹ Леонтьев А. А. Основы психолингвистики. – С-Пб.: Смысл. – 203-с.

bergan ma'lumotlardan, balki qo'shimcha adabiyotlardan izlab topish, yo'naltiruvchi savollar yordamida muayyan tushunchaga ega bo'lishga doir faoliyati orqali bilim olishini nazarda tutiladi. Bu jarayonda o'qituvchining mavzu mazmuni asosida tuzgan savol va topshiriqlari, avvalo, o'quvchiga qiziqarli bo'lishi, shu bilan birga, mavzuning ongli o'zlashtirilishini ta'minlovchi, uni bu borada mustaqil izlanishga yo'naltiruvchi tarzda bo'lishi kognitiv ta'limning asosi hisoblanadi.

O'qituvchining bilimlarni har xil metod va usullardan samarali foydalangan holda o'quvchilar xotirasiga joylab qo'yishga intilishidan, tarbiyalanuvchilarning esa berilayotgan ma'lumotlarni quruq yodlab olishi yoki xotirasiga joylab olishi va takrorlashidan ko'ra, o'qituvchining yo'naltirishlari asnosida o'zi mustaqil ravishda o'rgangan bilimi uning ruhiyatidan o'rin oladi, u yerda bir umrga saqlanib qoladi.

Milliy tarbiyashunoslikda keyingi davrda *"kognitiv ta'lim"*, *"kognitiv yondashuv"* atamalari barcha o'quv fanlari ta'limi amaliyotiga kirib bormoqda. Bunday ta'lim yoki ta'limga kognitiv yondashuv reproduktiv ta'limdan farqli o'laroq mustaqil bilim olishga undaydi, izlanuvchanlik asosida bilim olish yo'llarini o'rgatadi, usullarini tavsiya etadi, o'quvchini bilimlarni mustaqil egallashga yo'naltiradi. Kognitiv ta'limning psixologiya va pedagogikaning yo'nalishlaridan biri sifatida asosiy maqsadi individning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishdan iboratdir. U o'quvchining yangi bilimlarni o'zlashtirishga moslashish imkoniyatlarini oshirishga qaratilgan ta'limiy strategiyalar majmuiga asoslangan o'qitishni ilgari suradi.

Xullas, ta'lim tamoyillari va yondashuvlari, xususan, adabiyot o'qitish tamoyillari va bu kechimda o'quvchilarni har jihatdan ijodkorlikka yo'naltirish, bu jarayonda ularning bilishga, bilimlarni mustaqil egallashga undash millat va mamlakat kamoloti garovidir.

Badiiy matnning didaktik tahlili namunasi

"Oygul bilan Baxtiyor" ertak-dostonini o'rganish yo'llari

Umumta'lim maktablari adabiy ta'limida Hamid Olimjonning "Oygul bilan Baxtiyor" ertak-dostonini (5-sinf) o'rganish ham

o'quvchilarda har xil janrdagi badiiy mantlar ustida ishlash ko'nikmasini shakllantiradi.

O'qituvchi adabiy ta'limni, u o'qitishning qaysi bosqichida bo'lishidan qat'i nazar, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga yo'naltirish, ularni o'z qarashlariga ega bo'lgan, ma'naviy komillik sari yuz tutgan insonlar qilib tarbiyalash maqsadiga erishishiga yo'naltirishga xizmat ko'rsatadigan mas'ul shaxsdir. Shunday maqsad yo'lida ish boshlagan muallim avval «Oygul bilan Baxtiyor» ertagining to'liq matni¹ bilan o'quvchilarini tanishtiradi, shundan so'ng o'quvchilar bilan birgalikda asar tahliliga kirishadi. O'qituvchi bu ikki darsni bir kunga ko'chirib, ketma-ket tashkil etishga erishsa, yanada maqsadga muvofiqroq bo'ladi.

O'rni kelganda shuni ham aytib o'tish kerakki, darslikning yangilangan varianti metodik jihatidan noto'g'ri rasmiylashtirilgan. Ya'ni hamma narsa mualliflarning qolipiga solingan. "Oygul bilan Baxtiyor"dagi eng ta'sirli va yoqimli, she'rxon ruhiyatini muvozanatdan chiqaradigan, ko'nglida o'zgacha bir tuyg'ularni jumbushga keltiradigan, o'quvchilar xotirasida bir umr saqlanib qolishi mumkin bo'lgan ozoda misralar asosiy matndan ajratib olinib mualliflarning shoir haqidagi qolip maqolasiga kiritilgan. Darslik mualliflarining qarashlariga singdirib yuborilgan. Bu bilan asarning ta'sir qudrati yo'qqa chiqarilgan. Qolaversa, yillar hisobidan iborat bu ma'lumotnomaning beshinchi sinf o'quvchisiga nima qizig'i bor?

O'qituvchi vaziyatga ijodiy (kreativ) yondashgan holda bu biografik ma'lumotga vaqt sarflab o'tirmagani va doston-ertakning original matnini boshqa manbalar²dan topib o'qib bergani va asar ustida ishlashni, bitikning didaktik tahlilini darslikdagi matnga tayangan holda tashkil etishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Mazkur ertakning o'z o'qilish ohangi bor. Asarning o'qilish ohangi va ifodaliligi darsning yarim muvaffaqiyati sanaladi. O'qituvchi ifodali o'qishining o'zi bilan o'quvchilar ko'nglini bezovta qilib, ularning e'tiborini o'ziga qaratib olishi mumkin. Butun diqqat-e'tibori matnga qaratilgan o'quvchi boshqa narsalarga chalg'imaydi. U bor vujudi bilan yoqimli ohangda o'qilayotgan ertakni tinglaydi.

¹ Ahmedov S. va boshq. Adabiyot. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. 2- qism
Uchinchi nashr – T.: «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati toshkent, 2020. – 62–
14 b.

² <https://ok.ru/gulxanatrofida/topic/67047877039590>

O'quvchilar o'qituvchi bilan birgalikda o'z darsliklaridan ertak matnini o'qib borsalar, yana ham yaxshi bo'ladi. Bunda ular quloqlari ko'magida asarning o'qilish ohangini, ko'zlari orqali esa tez o'qish mashqini oladilar.

Ayni zamonda, o'qituvchi o'qish davomida ertak qahramonlarining ruhiyati, fe'l-atvori ifodalangan, ularning tabiati tasvirlangan lavhalarni, shoirning so'zni "o'ynatib yuborgan" o'rinlarini o'quvchilarga belgilatib borishi (masalan, "shu so'zning tagiga chizib qo'ying", "shu misralarni ajratib qo'ying" kabi) maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu bilan asar matni ustida ish boshlanganda, avvalo, e'tibor qaratilgan o'rinlarni matndan qidirishga sarflanadigan vaqtdan yutiladi, qolaversa, ajratib qo'yilgan so'z, insonlarga xos bo'lgan baland sifatlar, chinakam fazilatlar o'quvchining diqqat markazida turadi, u ruhan munosabat bildirishga tayyorlana boradi. O'quvchilar tomonidan e'tibor qilingan, munosabat bildirilgan sifatlar ularning shaxsiyatida albatta iz qoldiradi.

Doston o'qib chiqilganidan so'ng matn ustidagi ish "Shoir ertakning birinchi bo'limini bolalik xotiralariga bag'ishlagani sababi nimada bo'lishi mumkin? Asardagi: "*Buvimning har qissasi, Har bir qilgan hissasi Fikrimni tortar edi, Havasim ortar edi*" misralarida ko'zda tutilgan mazmun haqida o'ylab ko'ring. Bo'lajak shoirga buvisining qaysi ishlari bu qadar kuchli ta'sir ko'rsatganini ayting. Ertakdagi:

*Tinglar edim betinim
Uzun tunlar yotib jim.
Seza olardim kuchin,
Ko'pi – yolg'on, ko'pi – chin*

satrlariga e'tibor bering. Gap nima haqida ketayotganligini anglating va shoirning shunday deya-yotganligi sababini tushuntiring" kabi savol-topshiriqlarni o'rta tashlashdan boshlanadi. Mazkur savol-topshiriqlar ustida ishlanayotganda asarning birinchi bandini qayta o'qib berish ham mumkin.

"Oygul bilan Baxtiyor" – adabiy ertak. Uning birinchi bandidagi tasvirlar esa ertak haqidagi hikoya. Lekin ular, ayni vaqtda, asl haqiqat ifodalari ham. Unda tirik inson va uning bolalik tuyg'ulari, hayotidagi eng go'zal davr aks etgan. Shoirning dostonida ifodalangan holati

ertakni tinglayotgan bolaning hozirgi kayfiyati bilan deyarli hamohang. Asarda aytilayotgan ertaklarning deyarli barchasi o'quvchilarga ham tanish. Shuning uchun ertakning bu bandi ko'p o'qilmasdanoq, o'quvchilarning xotirasiga mixlanib qolishi aniq.

Bo'lajak shoirga buvisining aytgan ertaklari va ulardan chiqarib olgan hissalarini qanday ta'sir qilgani, eshitganlarida fikrini tortgan, havasini orttirgan narsalar uning taqdirida qanday rol o'ynaganini savol tariqasida o'quvchilarga eslatib o'tgan ma'qul. Buvisining ertaklarini tinglayotgan yosh shoir ularning "ko'pi – yolg'on, ko'pi – chin" ekanini biladi. Mana shu yolg'on-u chinlarning ta'sir kuchi qanchalar baland ekanini ham his qiladi. So'zni his qilish, undan ta'sirlanish inson taqdiri uchun qanchalik ahamiyatli ekani o'qituvchi tomonidan aytilgan ikki og'iz gap orqali o'quvchilarning "qulog'iga tushib qolgan"i foydadan holi bo'lmaydi.

Ba'zi savollar mazmunini o'quvchi to'la anglamay qolishi mumkin. Shunda o'qituvchi ularni soddalashtirgani ma'qul. Toki, savol yoki topshiriqda ko'tarilgan haqiqat o'quvchiga yetib borsin. Savolga javob berish, topshiriqni bajarish uchun o'quvchi matnning qayeriga qarashi, nimalarni eslashi lozimligini tasavvur qila olsin. Shunda uning javoblari asosli, salmoqli bo'ladi. Fikri qat'iylashadi. Hunda bolaning matnini o'qituvchisi bilan birga ichdan o'qib borgani, ustoz ta'kidlagan joylariga belgi qo'yib borgani qo'l keladi.

O'qituvchi ertakdan "*Bosh ko'tardik, zulmdan Bo'lmoqchi edik ozod. Lekin bu gal bo'lmadi, Ammo tilak o'lmadi*" misralarini o'qib beradi va "Darxonning iqrori zamirida qanday ma'noni angladingiz? Darxon o'ldi-ku, tilakning o'lmagani nimani anglatadi?" savolini o'rtaga tashlaydi. Qul Darxonning xon bilan to'qnashuvi sahnasi, uning xonga munosabati sabablarini o'quvchilar matnga tayangan holda o'zlari tahlil qilganlari ma'qul. Shunda ular qo'zg'olonchilarning tilagi – zulmdan ozod bo'lish ekanini, zulm, xorlik, qashshoqlik bir kun shunday yakunlanishi aniqligini o'zlari anglab yetadilar.

"*Xon qovog'ini uydi, Bulutlar yomg'ir quydi*" tasviri zamiridagi badiiy ma'noni topishga yo'naltirilgan o'quvchilar matnning shu o'rniga murojaat qiladilar. Xonning qovog'ini uyishi bilan osmonning yomg'irli holati o'rtasidagi o'xshashlikni ularning biri bo'lmasa biri topadi. O'qituvchi bu holat shoirning mahorati ekanini bildirib qo'ygani ma'qul bo'ladi.

Ozodlik sari Darxondek mard, dovyurak odamlar yo‘l boshlaydilar. Shunday odamning farzandi bo‘lmish Oygulning taqdirga tan berib, xon saroyida yashab qolishi mumkinmidi? Dovyurak kishilarning do‘stlari ham ko‘p bo‘ladi. “Qora kun”da, g‘amda insonlar bir-birlariga juda tez yaqinlashadilar, g‘am kishilarni birlashtiradi. O‘quvchilar ertakdagi:

*“Qaldirg‘och qoshlaridan
To‘yib qarashlaridan
Hayot sochilar edi,
Gullar ochilar edi.*

tarzidagi misralar kim haqda ekanini va nima uchun shunday ifodalanganligini o‘ylab ko‘ring” topshirig‘ini bajarish uchun matndan shu o‘rinni topgan o‘quvchilar uning Oygul haqida ekanini darrov anglaydilar. Uning shunday qarashi, bu qarashlardan “hayot sochilishi, gullar ochilishi” sababini ham o‘zlaricha topishga urinsinlar. O‘quvchilar bu bilan o‘z ma‘naviy kamolotlarini tezlashtirishda ishtirok etadilar.

Susambilga ketmoqchi bo‘lgan jambilliklarga “Oygul nazar tashladi, Shunday bir so‘z boshladi:

*“Zolim xon quchdi o‘lim,
Endi sizga yo‘q zulm.
El, osoyish yasharsiz,
Va bekoyish yasharsiz.
Susambilni qo‘yinglar,
Va Jambilni suyinglar.
Siznikidir tuprog‘i,
Sizniki tosh-u tog‘i.
Xon bo‘lmasa Jambilda,
Qayg‘u ham bo‘lmas dilda.
Mana bu ota Tarlon
Hammangizga bosh bo‘lur.
Sizlar uchun berur jon,
Har yerda yo‘ldosh bo‘lur”.*

Bu gaplari bilan Oygul vatandoshlariga yurt, uning tuprog'i, toshigacha azizligi, o'zgalarning Susambildan o'zlarining Jambili yuqori turishini ta'kidlaydi. Bu hayotiy haqiqatni o'quvchilar ham anglashlari maqsadga muvofiqdir. Chunki asl farzand kambag'al yurtni tashlab qochmaydi, balki qo'lidan kelganicha uni farovon qilishga intiladi. Birovning boy davlatida sig'indi bo'lib yashashdan ko'ra, o'z yurtida erkin yashash afzalligini, uni ham boy va farovon makonga aylantirish uchun kurashish kerakligini onglari bilan anglaydilar, ko'ngillari bilan his qiladilar.

O'qituvchi tomonidan o'rtaga tashlangan: "Siz o'qigan "Susambil" ertagi bilan "Oygul bilan Baxtiyor" doston-ertakdagi Susambil yurti orasida yaqinlik bormi?" savoli o'quvchilarni o'tgan darslarda olgan bilimlarini faollashtirishga xizmat qiladi. Bu o'z navbatida ularni ta'limning taqqoslash, qiyoslash metodlarida ishlashga o'rgatadi. O'qituvchining: "Shoirning o'z ertagida "Susambil"ni eslatishi nimadan dalolat beradi?" tarzidagi savoli o'quvchilarning xotirasini qitiqlab, shoir buvisidan eshitgan ertaklar orasida "Susambil" ham bo'lganini, u o'z yurtini Susambildek ozod va obod vatanga aylanishini qachonlardir orzu qilganidan dalolat berishini ayta bilsalar, marra adabiyot darsi va o'qituvchiniki bo'ladi.

Asarlar matni mazmuni yuzasidan tuzilgan savol-topshiriqlarning har birida matn mohiyatidagi o'quvchi diqqatini tortishi, uning ko'ngliga o'rnashib qolishi kerak bo'lgan lavhalar, fikrlar bo'lishi zarur. Asarning badiiy jihatidan go'zal chiqqan o'rinlari savol-topshiriqlarda, albatta, o'z aksini topishi, ularning har biriga badiiy, axloqiy, ijtimoiy, ma'naviy yuk qo'yilishi, ularning har biri o'quvchini asar matnini shunchaki takrorlashga emas, balki u haqida o'ylash, mulohaza yuritish va tasavvur qilishga yo'naltiradigan tutum bo'ladi.

O'qituvchi ertak matni ustida ishni davom ettirib, o'quvchilariga quyidagi savol-topshiriqlar bilan murojaat qilishi mumkin: "O'ylab ko'ringlarchi, ertakdagi: "*Qora kunda qul Tarlon Qizga qayg'udosh keldi, G'amiga yo'ldosh keldi*" satrlarida "qora kun" birikmasi nimani ifodalayapti?"; "O'tinchi chol: "*hovliqib, bo'lib xushhol Qaqqayib turib qoldi*". Nega shunday ekanini tushuntiring"; "*U yo'q edi o'zida, Bir sandiq suv yuzida Lopillab kelar edi, To'lqinda yelar edi. Olmayin ikki ko'zin yechina solib darhol, Sandiq ketidan o'zin Daryoga tashladi chol*" tasviriga tayanib cholning qanday odam ekanligi haqida fikr ayting"; "*Oxirida qiz turib, yerga qadar bukilib, Ularga ta'zim*

qildi, Cholga qarab egildi” misralarida xonlarga bo‘yin egmagan qizning podachiga ehtirom ko‘rsatishini qanday tushundingiz?”; “Oygulning tabiatini anglashga yordam beradigan quyidagi satrlar: *Ikki katta halqalik Gavhar topuvdi unda. Qadrini bilgan edi, Ehtiyot qilgan edi*” misralarida nima haqida gap ketayotir deb o‘ylaysiz? Oygul ulardan qanday foydalandi? Bu, sizningcha, nimadan dalolat beradi?”; “Eslashga urinib ko‘ringchi, Susambil mamlakati, uning o‘ta obodligi haqida yana qaysi ertakda o‘qigansiz? Susambil degan mamlakat borligiga ishonasizmi yoki har qanday ozod va obod yurtni Susambil deb atasharmikin?”; “Oygul bilan Baxtiyorning tabiatiga xos xususiyatlarni sanang va o‘xshash tomonlarini ko‘rsating” va hk.

Bu savol va topshiriqlar o‘quvchilarga ertak mazmunini chuqurroq anglash imkoniyatini yaratadi. Bundan tashqari, badiiy asarlar mohiyatiga shu tariqa kirib borgan o‘quvchilar keyinchalik badiiy asarlarni shunchaki o‘qimaydigan, unda tagma‘no izlaydigan bo‘lishadi.

Alohida ta‘kidlash joizki, berilgan savol-topshiriqlarga sinfdagi hamma o‘quvchilarning bir xil javob berishlari shart emas. Ma‘lumki, har bir o‘quvchi o‘z imkoniyati darajasida bilim o‘zlashtiradi. O‘quvchidan imkoniyatidan ortiqcha narsani talab qilish uni ta‘lim olishdan bezdirib qo‘yadi.

Uyga vazifa sifatida ertakning nasriy davomini talab qilish mumkin. Ertakdan istalgan parchani yod olishni taklif etish mumkin. Iqtidorli o‘quvchilar ertak matni asosida surat chizishlari mumkin. Keyingi darsda hammasi mualliflari tomonidan o‘qib eshittiriladi. O‘qituvchi tomonidan baholanadi.

Savol va topshiriqlar:

1. Ta‘limning umumiy tamoyillari bilan bevosita adabiy ta‘lim tamoyillarini taqqoslang. Ulardagi umumiy va farqli jihatlarni sanab ko‘rsating.

2. Hamma pedagoglar amal qilishi shart bo‘lgan tamoyillarni adabiy ta‘lim bilan bog‘lagan holda biror badiiy asarni o‘rganish misolida tahlilga torting. Xulosalaringizni asardan misollar keltirgan holda asoslang.

3. Yuqorida ta‘kidlangan quyidagi fikrga e‘tibor qiling: *“Muallimning o‘quvchi intellektual kuchiga ishonchi tarbiyalanuvchining mustaqil fikrlash va bilim olishga bo‘lgan*

qiziqishini uyg'otuvchi motivdir". Bu qanoatning mohiyatiga kiring, bo'lajak o'qituvchi sifatida uni izohlang.

4. Bu fikrga qanday qaraysiz: *"O'qituvchining loqaydlik bilan, majburiyat ostida qilayotgan mehnati o'quvchida salbiy hislarni qo'zg'otishi, uning bilim olishga bo'lgan intilishini so'ndirishi tayin"*? Ziminangizga olayotgan mas'uliyatning salmog'ini chamalab ko'ring. Uu xulosaning mag'zini chaqing, qarashlaringizni asoslang.

5. *"Go'zal xulqli, sog'lom ma'naviyatli kishilarning so'zlari ham, ishlari ham o'zlariga munosib ekani, toza ko'ngil sohibi hamisha rag'bat va marhamatlarga munosibliigi adabiyot orqali anglashiladi"*. Bu xulosada ilgari surilgan fikrlarni izohlashga urinib ko'ring. Fikringizni asoslang.

6. O'quvchilarning *"o'z-o'zini tarbiyalash"*ini qanday izohlash mumkin? Siz, bo'lajak o'qituvchi sifatida buni qanday tasavvur qilasiz? Fikrlaringizni biror badiiy asar misolida dalillang.

7. Mana bu qanoatning mohiyatiga kirishga harakat qiling: *"Hamonki adabiyot darslari ko'ngil tarbiyalar, ma'naviyat shakllantirar ekan, ko'ngilga "yomon" baho qo'yish, ma'naviyatni salbiy baholash unchalar to'g'ri bo'lmasligi adabiyot o'qitish metodikasi ilmida alohida ta'kidlanadi"*. Bu, Sizningcha, nima degani?

8. Adabiyot darslari uchun yetakchi o'rinda turadigan *"inson ko'ngli"*, *"tarbiyalanuvchining ma'naviyati"* singari tushunchalarni izohlang. Ularning mag'zini chaqing.

9. Adabiyot darslarida o'quvchilarni *"ma'naviy qiyofalari uchun"* baholash masalasiga qanday qaraysiz? Siz bu fikrga qo'shilasizmi, yo'qmi? Nima uchun?

10. O'quvchini baholashning yana qanday shakllari mavjud? Bu qaysi darslarda amalga oshiriladi? Nazaringizda, mazkur baholashlar orasida qanday farq bor? Qarashlaringizni asoslang.

11. Adabiyot darslariga xos bo'lgan *"o'quvchiga kashf etish lazzatini tuydirish"* tamoyiliga e'tibor qiling. Sizningcha, uni qanday tushunish va amalga oshirish mumkin?

12. O'quvchi ma'naviyatining sog'lomlashuvi bilan bog'liq quyidagi fikrga e'tibor qiling: *"Sog'lom ma'naviyat o'z manfaatini o'z g'alar manfaatiga qarshi qo'ymaslik, o'zinikini afzal bilmaslikdir. Boshqalarning ham o'zi singari inson ekanini his qilish va ularga daxl qilmagan, halal bermagan holda birgalikda yashay bilish san'atidir."*

Sog'lom ma'naviyat – o'zni yengmoq, o'zning istagu mayllarini jilovlay bilmoq, ayni vaqtda o'zlikni tanimoqdir. Sog'lom ma'naviyat xudbinlikni yenga bilmoqdir, makonda turib makoniy manfaatlardan, zamonda yashab zamoniyl tuslanaverishlardan balandroq tura olmoq demakdir". Inson ma'naviyatining sog'lomligi darajasini aks ettiradigan har bir belgini alohida yozib chiqing. Ularning har biriga izoh bering. Qarashlaringizni xulosalang. So'ngra o'zingizning "Men"ingizga nazar soling. Yashirin holda o'zingizga baho bering.

13. "Talabalik – oltin davrim" mavzusida insho yozing. Bir-biringizning ishlaringizni pedagog sifatida tekshiring. Yutuq va kamchiliklaringizni muhokama qiling.

6-MAVZU. BO'LAJAK O'QITUVCHILAR KOMPETENTLILIGINI SHAKLLANTIRISHDA ADABIYOT O'QITISH METODIKASI FANINING O'RNI VA ROLI

Reja:

- 1. Kompetensiya va kompetentlilik. Tushunchaning mazmuni va mohiyati.*
- 2. Kompetentlilik tushunchasi va uning tarmoqlari.*
- 3. O'qituvchi kasbiy kompetentliliigi.*
- 4. Adabiyot o'qituvchisiga xos bo'lgan xususiy kompetentlilik.*
- 5. Badiiy matnning didaktik tahlili namunasi.*

Bugungi iqtisodiy sharoitning har qanday yo'nalishi bo'yicha mehnat bozorida o'ziga munosib o'rinni egallab turish uchun har bir mutaxassisdan raqobatbardoshlik talab qilinmoqada. Bu barcha soha xodimlaridan kasbiy kompetentlilikni taqozo etsa, o'qituvchi-tarbiyachidan ma'naviy mukammallik ham talab qilinadi. Pedagogning tarbiyalanuvchilar oldida obro'-e'tibori baland bo'lishi uchun uning shaxsiyatida har ikki xususiyat uyg'unlashtirilgan bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Chunki har qanday pedagog inson bilan ishlaydi. Shu ma'noda, adabiy ta'lim ko'ngil tarbiyalashga xizmat qiladi. Faqat bilim bilan qalbg'a kirib bo'lmaydi.

Milliy tarbiyashunoslik taraqqiyotidagi bu o'zgarishlar har qanday pedagogdan o'z kasbiy mahoratini tinimsiz oshirib borishni taqozo etmoqda. Bugun davlat, jamiyat va davr ta'lim tizimidan ma'naviy barkamol, har tomonlama kamolotga intilgan, har qanday jamiyatda ijtimoiy moslashuv qobiliyatiga ega bo'lgan, mehnat faoliyatini boshlashga, mustaqil ta'lim olish va o'z-o'zini rivojlantira borishga qodir shaxslarni tarbiyalab berishni talab etmoqda.

Bo'lajak adabiyot o'qituvchilari ham "Umumiy pedagogika" kursida kompetensiya va kompetentlilik haqida batafsil bilimga ega bo'lganlar. Shu bilimlarni qisqacha takrorlash va umumlashtirish maqsadida aytish mumkinki, shaxs kompetentliligini ta'minlashda qo'lingizdagi mazkur bitikning ham o'z hissasi bor. Unda bevosita bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetentliligini adabiy ta'lim maqsadiga muvofiq tarzda shakllantirish nazarda tutiladi.

Mustaqil mulohaza yuritadigan, o'z faoliyati va uning natijalarini tahlil qila oladigan, ta'lim jarayonini modellashtira biladigan

o'qituvchi qo'yilgan bu talablarning garovi hisoblanadi. Aynan shu ma'noda, bugun o'z sohasini yaxshi biladigan, erkin-ijodiy fikrlay oladigan, raqobatbardosh, shaxs tarbiyalashga qodir pedagogga, kompetentli o'qituvchiga talab oshib bormoqda.

Avval millat va mamlakat taqdiri uchun mas'ul bo'lgan shaxslarga, xususan, tarbiyachi-o'qituvchilarga xos bo'lgan bu tushunchaning mohiyatiga kirish, uni yaxshilab tushunib olish maqsadga muvofiq bo'ladi. Mazkur mavzuning o'rganilishiga bag'ishlangan adabiyotlarda ta'kidlanishicha *kompetensiya* (ingl. competence – qobiliyat) – har qanday faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy ko'nikma va malakaga, mahorat va iqtidorga egalik demakdir.

Kompetentlilik – ya'ni kompetensiyaga egalik esa har qanday shaxsning, xususan, o'qituvchilarning o'zi faoliyat olib borayotgan sohada samarali ish yuritishi uchun zarur bo'ladigan *bilim, ko'nikma, malaka va tajribaga* egaligi, ayni zamonda bu sifatlarning *shaxslik fazilat* (yuksak madaniyatlilik, keng dunyoqarash, baland saviya, mustaqil faoliyat va hk.)lar bilan uyg'unligini anglatuvchi tushunchadir.

“Kompetentlilik” atamasi ta'lim sohasiga psixologik izlanishlar natijasida kirib kelgan. Bu tushuncha ruhshunoslar nazdida har qanday mutaxassisning noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan holatlarda vaziyatga mos mulohaza yo'llarini topa bilishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi usullarni qo'llay olishi, murakkab topshiriqlarni bajarishda zarur ma'lumotlardan bilgichlik bilan foydalanishi, uzluksiz ravishda o'z ustida ishlashi, bilim, ko'nikma va malakalarini izchil ravishda takomillashtirib borishini anglatadi.

Shaxs kompetentliliigi odamning kundalik tirikchilik o'tkazish, kasbi bo'yicha faoliyat ko'rsatish yoxud ijtimoiy turmushda o'z o'miga ega bo'lishga doir hayotiy muammolarni echishga yaroqli bilim, ko'nikma, malaka va tajribalarni egallaganlik holatiga ko'ra muayyan tarkibiy qismlardan iborat bo'ladi. Bu tushuncha shaxsning mustaqil bilish faoliyatidagi, ijtimoiy-fuqarolik sohasidagi, ijtimoiy-mehnat tarmog'idagi, maishiy turmushdagi va madaniy hamda dam olish sohasidagi kompetentliliigi singari tarmoqlarni ham o'z ichiga qamrab oladi:

- *mustaqil bilish va ijodiy faoliyat kompetentliliigi* (kognitiv tarmoq). Unda mutaxassisning turli yo'llar bilan, jumladan, ta'lim

muassasalaridan tashqari manbalardan bilim olish malakasini egallashi;

- *ijtimoiy-fuqarolik kompetentligi* (ijtimoiy tarmoq). Shaxsning fuqarolik, saylovchilik, iste'molchilik va boshqa bir qator vazifalarni bajarishi;

- *ijtimoiy-mehnat kompetentligi* (mehnat tarmog'i). Odamning o'z kasbiga doir mehnat bozori ma'lumotlaridan xabardor bo'lishi, undagi vaziyatni tahlil qila olishi, o'zining professional imkoniyatlarini to'g'ri baholay bilishi, o'zaro munosabatlardagi axloqiy qoidalarni hisobga olishi va amal qilishi;

- *maishiy kompetentlik* (oila tarmog'i). Shaxsning o'zi va oila a'zolarining salomatligi, oiladagi turmush tarzi, burchlari va vazifalari hamda boshqa oilaviy masalalarni bilishi;

- *madaniy va dam olish kompetentligi* (madaniy tarmoq). Odamning bo'sh vaqtdan to'g'ri foydalanish, o'z shaxsini madaniy-ma'naviy jihatdan rivojlantirishga doir faoliyati nazarda tutiladi.

Bugungi ta'lim tizimi o'z ishini har bir tarbiyalanuvchining maktab davridayoq yuqorida sanab o'tilgan kompetentlik xususiyatlariga ega bo'lishini ko'zda tutgan holda faoliyat ko'rsatishini tashkil etishi maqsadga muvofiqdir.

Har qanday soha mutaxassislariga xos bo'lgan ***kasbiy kompetentlik*** esa – shaxs tomonidan o'z kasbiy faoliyatining samarali tashkil etilishi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi hamda ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishini anglatadi. Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan faqat alohida bilim, ko'nikma, malaka hamda shaxsiy sifatlarning egallanishinigina emas, balki o'ziga zarur yo'nalishlar bo'yicha integrativ bilimlar hamda harakatlarning o'zlashtirilishini ham qamrab oladi.

Har qanday odamda, u tarbiyachimi – tarbiyalanuvchimi, o'qituvchimi – o'quvchimi yoxud boshqa sohalarining xodimimi, unda uyg'otiladigan va mahsuldor imkoniyatlar mavjud bo'ladi. Ta'lim-tarbiya ishi bilan shug'ullanadigan mutaxassislarga monand kasbiy kompetentlik o'quvchi-tarbiyalanuvchi shaxsiga xos bo'lgan mana shu *uyg'otiladigan* imkoniyatlarni muvozanatdan chiqarib *mahsuldor* imkoniyatga aylantira olishni, odamga xos bo'lgan bor imkoniyatdan uning o'zi uchun oqilona foydalana bilishni nazarda tutadi. Boshqacha qilib aytganda, kasbiy kompetentlik shaxsning biror ishni qilishga

yaraydigan yashirin, ichki, ya'ni uyg'otiladigan imkoniyatlarining voqeyelikka aylantirilishi, amaliy faoliyatga tatbiq etilishi demakdir. O'qituvchi-pedagoglarning kasbiy kompetentligi, sodda qilib aytganda, o'quvchi-tarbiyalanuvchilardagi mana shu uyg'otiladigan imkoniyatlarni har xil yo'llar bilan harakatga keltira olish va ulardan shaxs shakllanishi yo'lida oqilona foydalana bilishidir.

O'qituvchi-pedagoglar kasbiy kompetentligi darajasi quyidagi:

- murakkab vaziyatlar vujudga kelganda;
- favqulodda vazifalarni bajarishda;
- bir-biriga zid ma'lumotlardan o'rni bilan oqilona foydalanish

kabi holatlarda yaqqol namoyon bo'ladi.

Kasbiy kompetentlikka erishishga intilgan o'qituvchi: o'z bilimlarini izchil boyitib boradi; yangi axborotlarni o'zlashtiradi; davr talablarini chuqur anglaydi; yangi bilimlarni izlab topadi; ularni qayta ishlaydi va o'z amaliy faoliyatida samarali qo'llaydi.

Keyingi paytlarda jahon ta'lim amaliyotida har qanday tarbiyalanuvchini kompetentli qilib tayyorlash asosiy vazifalardan biriga aylandi. Negaki, komponentlilik o'zida:

- ta'limning intellektual va amaliy jihatlarini uyg'unlashtiradi;
- o'qitish kechimida ta'lim mazmunini o'zlashtirishning standart bo'yicha qanday natijaga olib kelishini bildiruvchi ko'rsatkichlarni aks ettiradi;

• shaxs faoliyati va madaniyatining bir yoki bir-biriga yaqin qator sohalarni qanchalik umumlashtirganligini namoyish etadi.

Bulardan tashqari, dunyoning globallasuvi mutaxassislarning endi birgina mamlakat hududida emas, balki dunyoning istalgan mamlakatida yashab, faoliyat ko'rsatishi, raqobatbardosh bo'lishi uchun har jihatdan kompetentli bo'lishini taqozo etmoqda.

O'qituvchi-pedagoglar ta'limning dunyo miqyosidagi talablarga moslashgan holda professional kompetentlikka ega bo'lishlari zamirida pedagogik faoliyat va tarbiyalanuvchilar bilan muloqotda, ta'lim-tarbiya jarayonida muntazam ravishda yuqori natijalarga erishishlari maqsadga muvofiqdir. O'qituvchining kasbiy kompetentligi – ijodiy intellektning ortib borishi, o'z sohasidagi innovatsiyalarni o'zlashtirishga moyilligi, o'zgaruvchan pedagogik vaziyatlarga moslashuvchanligi bilan ham belgilanadi. Pedagogning kasbiy kompetentlik darajasi to'g'ridan-to'g'ri jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy taraqqiyotiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Pedagogning kasbiy kompetentligiga xos bo'lgan asosiy belgilarni boshqa soha mutaxassislariga qo'yiladigan talablarga tayanilgan holda quyidagicha sanab ko'rsatish mumkin:

1. Har xil yoshdagi tarbiyalanuvchilar bilan ularning yoshi va intellektual imkoniyatlariga tayangan holda ishlay olish.

2. O'z sohasi bo'yicha o'quvchilarning yosh psixologiyasi, jismoniy, ruhiy, pedagogik imkoniyatlarini anglagan holda ish olib borish.

3. Amaliy faoliyatida innovatsion g'oyalardan foydalanish, yangi pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish.

4. Ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogik qo'llab-quvvatlashning har xil shakllaridan foydalana bilish.

5. O'qituvchilar faoliyati bilan bog'liq tashkil etilgan har xil tanlov, festival va musobaqalarda ishtirok etish.

6. Har qanday pedagogik shart-sharoitlarda o'zining o'qituvchilik mahoratini namoyish eta bilish.

7. Mamlakat davriy matbuotida hamkasblari bilan o'z tajribalarini o'rtoqlashish va hk.

Bu sifatlarning birortasi o'qituvchida o'z-o'zidan shakllanib qolmaydi. Buning uchun u kasbiy mahoratini oshirishga ehtiyoj sezishi, bunga intilishi lozim. O'qituvchilarga xos bo'lgan kasbiy kompetensiyaning shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini quyidagicha ajratib ko'rsatish mumkin:

- kasbiy mahoratini oshirishning o'qituvchi tomonidan tahlil qilinishi va anglanishi;

- o'z-o'zini rivojlantirish (maqsad, vazifa va hal etish yo'llarini)ning rejalashtirilishi;

- o'z-o'zini namoyish qila bilish, faoliyatini tahlil va tahrir qila olishi.

O'qituvchi kasbiy kompetentligining shakllanishi va rivojlanishi uzoq hamda uzluksiz tarzda amalga oshadigan jarayondir. Ya'ni pedagogik faoliyatda tinimsiz ravishda o'z ustida ishlashi, soha yangiliklaridan xabardor bo'lishi, darsdan-darsga o'zida yangi sifatlarni shakllantira borishi lozim.

O'qituvchining kasbiy kompetentligi mutaxassis tomonidan alohida bilim, ko'nikma va malakalarning egallanilishinigina emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini ham nazarda tutadi. Shuningdek,

kasbiy kompetensiya muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni ham taqozo etadi.

N. Muslimov va boshqalar tomonidan ta'kidlangan kompetentlilikka¹ ijodiy yondashgan holda o'qituvchilar o'zlarida mujassamlashtirishlari nazarda tutilgan kompetensiyani quyidagicha aks ettirish mumkin:

- *psixologik kompetentlilik* – pedagogik amaliyotda sog'lom muhit yarata olish, tarbiyalanuvchilar bilan ijobiy muloqotni yo'lga qo'ya bilish, turli ziddiyatli holatlarni vaqtida payqash va ularni bartaraf eta bilish;

- *metodik kompetentlilik* – maktab ta'lim jarayonini metodik jihatdan bilimli tashkil etish, ta'limiy yoki tarbiyaviy faoliyat uchun zarur metod va vositalarni maqsadga muvofiq tarzda tanlay olish;

- *informatsion kompetentlilik* – minglab axborotlar oqimi orasidan sohasi uchun zarur, muhim va samarali ma'lumotlarni topib saralay olish, ularni qayta ishlab ta'lim amaliyotida oqilona foydalana bilish;

- *kreativ kompetentlilik* – o'z pedagogik amaliyotiga tanqidiy va ijodiy yondosha bilish, ish faoliyatida ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish;

- *innovatsion kompetentlilik* – o'qituvchilik faoliyatini vaziyatga moslashgan holda takomillashtira borish, ta'lim-tarbiya sifatini yaxshilash, bu jarayon samaradorligini oshirishga doir yangi g'oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq eta olish;

- *kommunikativ kompetentlilik* – dars jarayonida har bir tarbiyalanuvchi bilan samimiy muloqotda bo'lish, uni tinglay bilish, unga ijobiy ta'sir ko'rsata olish, har biriga xos bo'lgan xarakter-xususiyatlarga mos muomalani, yondashuvni topa bilish;

- *shaxsiy kompetentlilik* – o'zining kiyinish, muomala madaniyatini kuzatib borish, dunyoqarashini, badiiy didini, ma'naviy fazilatlarini boyitib, yuksaltirib borish;

- *texnologik kompetentlilik* – o'z sohasidagi bilim, ko'nikma va malakalarni boyitadigan ilg'or texnologiyalarni izchil o'zlashtirib,

¹ Muslimov N., Usmonboeva M., Сайфулов Д., Тураев А. Педагогик компетентлик ва креативлик асослари. –Т.: Sano-standart, 2015. –7-бет.

yangilab borish, zamonaviy texnika vositalaridan, texnologiyalardan oqilona foydalana olish;

- *ekstremal kompetentlilik* – tarbiyalanuvchilar orasida, o'zi bilan o'quvchilar o'rtasida yuz berishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarda, tabiiy ofatlar yuz bergan holatlarda, texnologik jarayonlardan chiqqanda tez va oqilona qarorlar qabul qila olish, to'g'ri xulosani chiqarish hamda shu asosda harakatlanish malakasiga ega bo'lish;

- *baholash kompetentligi* – aytilgan fikrlardagi o'ziga xoslik, betakrorlik, sodda, qisqa, lekin ma'lum asoslarga ega bo'lgan pishiq-puxta javob, munosabatning tanqidiyligi darajasidan kelib chiqib munosib baholay bilish, ya'ni rag'batlantira olish va hk.

Ko'rinadiki, ta'lim muassasalarida faoliyat olib boradigan muallimning bunday sifatlarga ega bo'lishi uchun bugungi talabalar oldiga yuqori sinflar o'qituvchilariga qo'yiladigan talablarni qo'yish ta'limdagi uzluksizlik va uzviylikning ta'minlanishiga asos bo'ladi.

O'qituvchi kasbiy kompetentligiga xos bo'lgan o'quvchilarning bilimini to'g'ri baholay olish, ularni uzluksiz ravishda mustaqil faoliyatga yo'naltira borish va ayni zamonda, tarbiyalanuvchilar tafakkurining mustaqillik darajasini aniqlab, baholay bilish» o'quvchilarning ma'naviy kamolot yo'lini aniqlashda katta ahamiyat kasb etadi. Bu mezonni sharhlab shuni aytish mumkinki, ta'lim tizimida tarbiyalanuvchilarning har qanday badiiy asar, tasviriy san'at namunalari tahlili asnosida aytgan fikrlaridagi o'ziga xoslik, o'zgalarning qarashlaridan xoli betakrorlik, soddagina, qisqagina bo'lsada ma'lum asoslarga ega bo'lgan pishiq-puxta javobini munosabatining tanqidiyligi darajasidan kelib chiqib to'g'ri baholay bilish ham o'qituvchi kompetentligi darajasiga bog'liqdir.

Shu ma'noda aytish mumkinki, tarbiyalanuvchilarning tafakkuri va faoliyati mustaqilligi darajasini aniqlash hamda uni munosib baholay bilish o'qituvchining o'zi mustaqil fikr sohibi bo'lishini taqozo etadi. Chunki o'zi mustaqil fikr egasi bo'lmagan muallim tarbiyalanuvchilarini mustaqil faoliyatga yo'naltira olmaydi, ularni munosib baholashga ham qodir bo'lolmaydi. O'zining mustaqil nazari bo'lmagan pedagog o'rganilayotgan ta'lim obyektidagi tarbiyalanuvchilardan mustaqil mulohaza yuritishni talab etadigan detallarni ilg'amaydi. Natijada o'quvchilar badiiy asarning mazmunini qayta hikoyalab berish, tasviriy san'at asarlari bo'yicha ko'rinib turgan

asosiy va yuzaki jihozlarni sanash bilan chegaralanadilar va ularning aqliy, ma'naviy taraqqiyoti ham shu atrofda bo'laveradi.

To'g'ri, tarbiyalanuvchilarining har xil janrdagi asarlarning yuzaki jihatlarini ajratib aytib berishlari, timsollarning xatti-harakatlariga munosabat bildirishi ham yetarli, deydiganlar ham topiladi. Amaldagi DTS va dasturlarning asosiy talablari ham bundan baland emas. Lekin har sinfda ommaga o'xshamaydigan, o'z intellektual imkoniyatlari bilan atrofda gilardan ajralib turadigan individlar bo'ladi. Gap shu tarbiyalanuvchilarning o'rtachalar qurboni bo'lib ketmasligida. o'qituvchi adabiy ta'limni imkon qadar yuqori saviyada tashkil eta olishi, uni tarbiyalanuvchilarning har biri o'z imkoniyatlari darajasida qabul qilishlari uchun zaruriy shart-sharoitni yarata bilishi muallimning kompetentligi darajasini namoyon etadi.

Bevosita adabiyot o'qituvchisining kompetentligi dasturda o'rganish uchun taqdim etilgan badiiy asarlardagi o'quvchilar ruhiyatining sog'lomlashuviga ijobiy ta'sir ko'rsata oladigan, ularni ma'naviy kamolot sari etaklaydigan, tuyg'ularini noziklashtiradigan jihatlarini ilg'ay bilishi, ulardan dars jarayonida har bir o'quvchiga mos ravishda foydalana olishini nazarda tutadi. Bundan tashqari, didaktik tahlil kompetentligi (har qanday janrdagi badiiy matn adabiy ta'lim maqsadiga muvofiq tarzda didaktik tahlilga torta bilish)ni chuqur egallaganlikni ham taqozo etadi.

Xullas, adabiy ta'limni uning maqsadiga muvofiq tashkil etishda bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetentligi uning saviyasi, dunyoqarashi, bilimi, ko'nikma va malakalarini takomillashtirishini, ayni zamonda, o'zining ma'naviy sog'lomligi uchun qayg'urishini ham taqozo etadi.

Badiiy matnning didaktik tahlili namunasi

“Uch og'a-ini botirlar” ertagi

Boshlang'ich sinfdan yuqori bosqichga o'tgan o'quvchilar, hali ertaklar dunyosidan uzulib ulgurmagan xayolparast bolakaylarning o'rta bosqich adabiy ta'limida ham ertaklar bilan tanishishi ularning shaxs sifatida shakllanishida yanada muhim ahamiyat kasb etadi.

“Uch og'a-ini botirlar” ertagini o'qishga kirishishdan oldin o'qituvchi keyingi dars “Ertak darsi” bo'lishini, unda o'quvchilar

o'zlari ertak to'qishlarini, «Uch og'a-ini botirlar» ertagini o'zi o'qib berishi, o'quvchilar uning matni ustida ishlash jarayonida bo'lajak ertak darsiga material yig'ib borishlari lozimligini aytadi. Bu o'quvchilarni hayajonlantirishi tabiiy. Chunki ertak yaratish mas'uliyatli ish va o'quvchi buni ich-ichidan his qilib turadi. Bundan tashqari, o'qituvchining ogohlantirishi ularni ertak yaratish haqida o'ylab yurishday faoliyat atrofiga birlashtiradi.

Dars boshida o'qituvchi asar matnini zarur ohangga solib, ifodali o'qib beradi. Adabiy ta'limda o'rganiladigan asar matnini o'quvchilarga o'qitirish metodik jihatidan to'g'ri tadbir emas. Hatto o'qituvchining o'zi ham ertakni ifodali o'qishga alohida tayyorgarlik ko'rish shart. Ertak o'qilish yo'sini bilan ham tinglovchilarni rom etib olsa, dars muvaffaqiyatli chiqishi aniq.

O'qituvchi tarbiyalanuvchilarining "Uch og'a-ini botirlar" ertagi haqida to'liq tasavvurga ega bo'lishlariga erishgani ma'qul. Ertakni o'qish uchun darsning 28–30 daqiqasi sarflanadi. Qolgan vaqt matn mazmuni yuzasidan o'qituvchi tomonidan taqdim etilgan savol-topshiriqlar ko'magida asarni tahlil qilishga bag'ishlanadi.

O'qituvchi ertak mazmuni yuzasidan taqdim etilayotgan quyidagi savol-topshiriqlar ko'magida uni didaktik tahlilga tortishi mumkin:

"Ertakning "Uch og'a-ini botirlar" deb atalishining sabablari haqida fikringizni ayting" topshirig'i yuzasidan o'quvchilar hech qiynalmay fikr bildiradilar. Lekin: "Otaning o'g'illariga aytgan: *"Birinchidan, sog'lom vujudli qilib o'stirdim – quvvatli bo'ldingiz. Ikkinchidan, yarog' bilan tanishtirdim – yarog' ishlatishga usta bo'ldingiz. Uchinchidan, qo'rqitmay o'stirdim – botir bo'ldingiz"*, tarzidagi so'zlariga e'tibor qiling. Bu so'zlarning yigitlar tabiatiga xos xususiyatlarni belgilashdagi o'rni haqida mulohaza yuriting" tarzidagi ikkinchi topshiriq o'rta tashlanganda o'quvchilar o'ylanishi, o'zlarini bir oz zo'riqtirishi kerak bo'ladi.

Bu topshiriq ularni yigitlar tabiatiga xos bo'lgan baquvvatlilik, yarog' ishlatishga ustalik, botirlik, topqirlik, zukkolik, sinchkovlik kabi sifatlar aka-ukalarning qaysi ishlarida ko'ringanini matndan qidirishga yo'naltiradi. O'quvchilar botirlarning sher, ajdar va o'g'rilar bilan to'qnashuvdagi qahramonliklari tasvirlangan lavhalarga

¹ Ahmedov S. va boshq. Adabiyot. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. 2- qism *Uchinchi nashr* – T.: «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati toshkent, 2015. – 46–55-b.

murojaat qiladilar. Topshiriqni bajarish mobaynida ular botirlarning shaxsi bilan bog'liq jihatlarni kashf qiladilar.

O'qituvchi muntazam ravishda o'quvchilardan fikrlarini matnga tayangan holda bayon etishni, aytganlarini asardan misollar keltirib asoslashni talab qilishi bolalarni ijodiy fikrlashga, xulosalarini asoslashga yo'naltiradi.

Tarbiyalanuvchilar otaning: "Sog'lom vujudli qilib o'stirdim – quvvatli bo'ldingiz" degan gapi zamirida qanday haqiqat borligi, sog'lom, baquvvat bo'lib o'sishning garovi nimada ekanligi, bunda otaning vazifasi nimalardan iboratligi haqida ham o'ylab ko'rsinlar. Buning uchun o'qituvchi shu tasvirni savolga aylantirib, ota tarbiyasidagi: "Qo'rqitmay o'stirdim – botir bo'ldingiz" tarzidagi jihatda nimalar nazarda tutilganiga, "qo'rqitmay o'stirish"ning ma'nosini chaqishga, buning qanday amalga oshirilishiga o'quvchilar e'tiborini qaratgani ma'qul. O'quvchilar bu ibora zamiridagi ma'noni qanday tushunadilar? Bular – ertak zamiriga singdirilgan milliy tarbiyaning asoslari. O'qituvchi buni e'tbirdan chetda qoldirishi mumkin emas. Qadimda jasurlik, yarog' ishlata bilish, ot minish yigit kishining fazilatlaridan hisoblangan.

Ikkinchi darsda asar tahlilini davom ettirib, o'quvchilar otaning: *"To'g'ri bo'ling – bexavotir bo'lasiz. Maqtanchoq bo'lmang – xijolatga qolmaysiz. Dangasalik qilmang – baxtsiz bo'lmaysiz"* tarzidagi nasihatiga o'z munosabatlarini bildiradilar. O'quvchilar Otaning har bir gapini o'zlaricha tahlil qilishlari kerak. To'g'ri, o'quvchilarning bu nasihat mazmuni borasida fikrlari sodda, o'z bilganlari doirasida bo'ladi, albatta. Fikrlar o'qituvchi yoki boshqa kattalarning qarashlariga nisbatan jo'nroq bo'lishi tabiiy. Lekin muhimi – o'quvchida fikrning, o'z qarashining shakllanib borishi. Uning o'qituvchi tomonidan to'ldirilishi, tuzatilishi metodik jihatdan unchalar ham to'g'ri bo'lmaydi. Bu o'rinda o'qituvchining vazifasi fikr kishisini rag'batlantirish, yangi qo'shimcha savollar bilan uning ichidagi gaplarini «chiqarib» olish, bir-birlarining fikrini takrorlarsiz to'ldirishga o'rgatish, xato ketgan o'rinlarini o'zlariga toptirish, kamchiliklarini o'zlari anglab, o'zlari tuzatishlariga imkon yaratishdan iborat. O'quvchilar otaning aytganlari mohiyatiga kirishlari, to'g'rilik mahsuli bo'lgan xotirjamlikning, maqtanchoqlik tufayli hijolatga qolishning, dangasalik oqibatida baxtsiz bo'lishning nima ekani haqida tasavvurga ega bo'lishlari uchun bu tushunchalar mazmuni

haqida: “To‘g‘rilik deganda nimani tushunasiz?”, “Hijolatga qolish» degani sizningcha nimani anglatadi?”, “Dangasalik nimalarda ko‘rinadi?”, “Siz baxtsizlikni qanday tushunasiz?” kabi qo‘shimcha savollar bilan o‘ylab ko‘rishga yo‘naltiriladi. Shu tariqa tushunchalarning, ular yordamida ertakning mohiyatiga kira borib o‘quvchilar o‘zlarining tarbiyalanishi jarayonida bevosita ishtirok etadilar. Ya‘ni o‘qituvchisining ko‘magi, yo‘naltirishlari asnosida o‘zlarini o‘zlari tarbiyalaydilar.

Og‘a-inilarning o‘z sarguzashtlarini bir-birlariga ham darrov aytib bermaganliklari ularga xos yana qanday fazilatning belgisi ekanini o‘quvchilar o‘zlari kashf etsinlar, maqtanchoqlik yot bo‘lgan botirlarning og‘ir-bosiqiligi, kamtarligiga munosabat bildirsinlar. Bu sifatlarning yigitlarda shakllanishi manbai haqida o‘ylab ko‘rsinlar. Albatta, bu o‘qituvchining shu mazmundagi savol va topshiriqlari asosida amalga oshiriladi. Botirlarga xos bo‘lgan bu fazilatlar o‘quvchilarning havasini qo‘zg‘ashi tabiiy. Ayniqsa, bolalik paytida u yaxshilarga, kuchlilarga havas qiladi. Bu – fazilat. O‘quvchilarda bunday fazilatlarini shakllantirish boshlang‘ich adabiy ta‘limning vazifasidir. O‘rta ta‘limning dastlabki bosqichi buning yakunlovchi qismi hisoblanadi. Buning uchun matn yuzasidan o‘quvchilar e‘tiborini shunday tuyg‘ularni qo‘zg‘atadigan, ruhiyatini muvozanatdan chiqaradigan savol-topshiriqlar berib borilsa, kifoya. Ko‘rinib turibdiki, o‘qituvchidan ortiqcha narsa talab qilinayotgani yo‘q. Qahramonlarga xos bo‘lgan ijobiy sifatlarni payqash, o‘quvchilarida ularga havas uyg‘otib, bu fazilatlarini ko‘ngillariga joylash bolalar ma‘naviyatida, albatta, ijobiy iz qoldiradi.

“Kenja botir sarguzashtlariga e‘tibor bering. Uning o‘g‘rilarni o‘z holiga qo‘yib ketib qolmaganiga qanday qaraysiz?” savol-topshirig‘i matndagi har bir o‘quvchidan mustaqil mulohazani talab qiladi. Sirtidan qaraganda o‘zgalarni muhokama qilish juda osonday tuyuladi. Lekin o‘sha o‘zgalar o‘rniga o‘zini qo‘yib ko‘rish, o‘zini ularning o‘rnida tasavvur qilish talab qilinganda ba‘zan “tillar bog‘lanib qolishi” mumkin. O‘quvchilarni vaziyatga shunday yondashishga undash ham ularni ijodiy fikrlashga yo‘naltiradi. Javob bergan o‘quvchilarning fikri diqqat bilan eshutiladi, zarur bo‘lganda qo‘shimcha savollar bilan qarashlarga aniqlik kiritiladi.

“Kenja botirning tadbirkorligi, topqirligi, jasurligi bilan ertak boshida ota tomonidan aytilgan gaplar o‘rtasida qanday bog‘liqlik bor

deb o'ylaysiz?" savoli berilganda, unga aniqlik kiritish maqsadida "Kenja botirning tadbirkorligi uning qaysi ishida ko'rinadi?", "Uning topqirligini qaysi xatta-harakatlarida ko'rish mumkin?" "Kenja botir otasining o'sha nasihatidan keyin birdaniga jasur bo'lib qoldimi?" singari qo'shimcha savollardan ham foydalanish mumkin. Shu tariqa o'quvchilar e'tibori Kenja botirning qaysi fazilati uning qaysi amalida ko'rinishiga, jasurligini namoyish etgan ishlari tasviriga qaratiladi. Bu kabi faoliyati bilan ular adabiy qahramonlarni o'zlari uchun qayta kashf etadilar. Bu kashfiyotlari ma'naviyatlarining kamol topishiga xizmat qiladi.

O'rdaga kelgan botirlarning ziyofat paytida dasturxonga qo'yilgan go'sht, shinni, non taxlami to'g'risidagi fikrlariga ham o'quvchilarning diqqati qaratiladi. Yigitlar tabiatidagi bilgichlikning omillari haqida o'ylab ko'rishga undalgan o'quvchilar mulohaza yuritib, o'z fikrlarini o'rtaga tashlaydilar.

"*Qizlar yo'qotgan tillariga gavhar qo'shib oldilar,*"- degan iborani qanday tushundingiz?" savoli o'quvchilarni asar matnida ilgari surilgan g'oyalar haqida mulohaza yuritishga undaydi. O'quvchilar "qizlar yo'qotgan tillalar" deyilganda nima nazarda tutilgan-u "qo'shib olingan gavhar" deyilganda nima ko'zlangani haqida mulohaza yuritadilar. O'z qarashlarini asardan kelib chiqib bayon qiladilar. Bu kabi savol va topshiriqlar 5-sinf o'quvchilariga xos bo'lgan ko'p o'ylab o'tirmay gapirib yuboraverish yoki o'rtoqlarining fikrini takrorlash kabi odatlarini ular tabiatidan chiqarishga ko'maklashadi. Javoblarda har bir o'quvchining o'z xulosasi, qarashlari ifodalanadi. Berilgan savol va topshiriqlarga kimningdir aqli yetar, kimnikidir yetmas. Muhimi, sinfdagi barcha o'quvchilarning bular haqida o'ylashi, izlanishidir.

Asar mazmuni yuzasidan taqdim etilgan: "Kenja botir hikoyasidagi to'tiga e'tibor qiling. Va'daga vafo qilish uchun otanasi, aka-ukalari va yaqinlari, eng muhimi, o'z ozodligidan kechib kelgan to'tining olijanobligiga ko'rsatilgan oqibatga munosabat bildiring" topshirig'ini bajarishga tutingan o'quvchilar to'ti, podshoh va vazir shaxsini tahlilga tortadilar. O'qituvchi vaziyatga qarab ularning har bir xatti-harakatini alohida savolga aylantirishi ham mumkin. Shunda o'quvchilar ularning xatti-harakatiga munosabat bildiradilar, baholaydilar. To'ti qaytib kelmasligi ham mumkin edi-ku! Lekin u mardlik qilib sadoqatini namoyish etdi, buning ustiga

yoshartiruvchi meva ham olib keldi. O'quvchilar bunday olijanoblikning nima uchun o'limga mahkum etilgani, podshoh nima sababdan to'lining emas, vazirning gapiga ishongani haqida mulohaza yuritadilar. Bolalar podshohning o'z fikri yo'qligi, vazir mevaning bittasini podshohga yedirib, ikkinchisini o'zi yeganda hammasi yaxshilik bilan tugashi mumkinligini, to'lining o'limini istagani vazirning o'z boshini yegani haqida ham fikrlashadilar. Bu bilan yomonlik, albatta, jazolanishini, haqiqat ma'lum vaqt egilsada, lekin tinchligini o'quvchilar anglab yetishlariga imkon yaratish o'qituvchining asosiy yumushi bo'lishi kerak.

“Ertakdagi va hikoyadagi shohlarni bir-biriga solishtiring” topshirig'i o'quvchilarni ikkala podshohning tabiatidagi xislatlarni aniqlashga, ertak va hikoya matniga qayta-qayta murojaat qilishga undaydi. Chunki Kenja botirning hikoyaga singdirgan maqsadini anglash muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun bu hodisa ustida ishlanayotganda o'qituvchi qo'shimcha savollar bilan yo'nalish berib yuborishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Hikoyadagi to'ti va podshoh timsollariga xos sifatlar: va'daga vafo va shoshqaloqlik bilan tadbir ko'rish haqida o'quvchilarda bolalarcha sodda xulosalar chiqariladi. Ertakdagi va hikoyadagi shohlarni taqqoslash asnosida o'quvchilar ularning har ikkisiga o'ylamay ish ko'rish, yaqinlarni ayamaslik, shafqatsizlik, qahri qattiqlik kabi sifatlar xosligini aniqlaydilar.

“Og'a-ini botirlarning saroydan ketish to'g'risidagi qaroriga o'z munosabatingizni bildiring” topshirig'i ham o'quvchilarni o'ylantirishi tabiiy. Ularning ko'pchiligidan kutilgan javob chiqmasligi ham oddiy hol. Lekin bu vaziyatga o'quvchilarning munosabati keyingi soatda bo'ladigan ertak darsining samarasini ta'minlaydi. Kenja botirning nohaq jabrdan dili og'rigani, endi aka-ukalar u yerda ortiq qololmasliklarini his etgani uchun ketishga, tabiatlariga singdirilgan tarbiyaga muvofiq yashashga intilishlarini o'quvchilar bola ko'ngillari bilan his qiladilar. Ular tuyganlarini so'z bilan ifodalab berolmasliklari ham mumkin. Lekin adabiy ta'lim uchun o'quvchida tuyg'u uyg'otishning o'zi ham katta yutuq.

Suhbat so'nggida “Ertak tahlilidan so'ng ko'nglingizda qanday tuyg'ular paydo bo'ldi? Ularni sharhlashga urinib ko'ring” topshirig'i o'quvchilarning asarni o'qishdan olgan dastlabki va tahlildan keyingi

ikkilamchi, asosiy taassurotlarini farqlab, tasavvurlarini tiniqlashtirib olishga ko‘maklashadi.

Uy vazifasi sifatida ertakdagi: “Kenja botir podshohga qarab bir hikoya aytdi...” jumlasidan keyingi hikoyani o‘quvchilar ertakdagi voqealar rivojiga moslashtirib yangidan yaratishlari mumkin. Bu – o‘quvchilarning imkoniyati doirasida bajariladigan topshiriq. Yoki ertakdagi istalgan qahramon timsoli o‘rniga o‘zini qo‘yib yangi ertak yaratish taklifi ham o‘quvchilarni ruhlantiradi. O‘g‘il bolalarning ko‘pchiligi o‘zlarini Kenja botir o‘rnida tasavvur qilishlari va ertaklarini shu asosga qurishlari mumkin. Ma‘lum qismi ikala katta akalar o‘rnida o‘zlarini tasvirlashlari ham mumkin. Har qanday holatda ham o‘quvchilarga: «Nega o‘zingni aynan shu timsolga o‘xshatib ertak yaratding?» savolini berish shart. Shunda o‘quvchilarning o‘zlarini o‘zlari o‘z imkoniyatlari darajasida baholashi namoyon bo‘ladi.

Yangi yaratilgan ertaklar muhokamasiga bag‘ishlangan darsda o‘quvchilar tomonidan yaratilgan ertaklar eshitilib, ularning yutuq va kamchiliklari tahlilga tortiladi. Baholanadi.

Savol va topshiriqlar:

1. Siz “kompetensiya” va “kompetentlilik” tushunchalarini qanday angladingiz? Uni o‘z so‘zlaringiz bilan tushuntirib berishga harakat qiling.

2. Nima deb o‘ylaysiz, “kompetentlilik” bilan “ma‘naviy barkamollik” tushunchalari o‘rtasida farq bormi? Bo‘lsa, u, sizningcha, nimalarda ko‘rinadi?

3. Shaxs kompetentliligiga xos bo‘lgan “*bilim, ko‘nikma, malaka va tajribaga egalik hamda shaxslik sifatlar*”ga alohida to‘xtaling: ilm nima-yu bilim nima? “Ko‘nikma” va “malaka” singari tushunchalarni izohlang. “Shaxslik sifatlar” deganda nimalarni tushunasiz?

4. Avvalo, “*uyg‘otiladigan*” va “*mahsuldor*” imkoniyat nima ekani haqida o‘ylab ko‘ring. “*Har qanday mutaxassisga xos bo‘lgan uyg‘otiladigan imkoniyatning mahsuldor imkoniyatga aylanishi*”ni izohlashga harakat qiling. Har ikkala imkoniyat orasida, sizningcha, qanday farq bor?

5. Kompetentlilikning tarmoqlariga diqqat qiling. Ularning qaysi biri sizda qay darajada shakllanganligi haqida o‘ylab ko‘ring, o‘zingizga o‘zingiz baho bering.

6. Har qanday mutaxassisga xos bo'lgan kompetentlilikning tarmoqlarini alohida tahlilga torting. O'zlashtirganlaringizni tushunchangiz doirasida izohlang. Qarashlaringizni misollar bilan asoslang.

7. O'zingiz she'riy matn yaratishga urinib ko'ring.

7-MAVZU. ADABIY TA'LIMDA MUSTAQIL FIKRLASHNING AHAMIYATI

Reja:

- 1. O'quvchi ma'naviyatining shakllanishida mustaqil fikrlashning o'рни va roli.*
- 2. Adabiyot o'qitishda o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishning ahamiyati.*
- 3. Adabiyot darslarida mustaqil fikrlashga o'rgatish metodikasi.*
- 4. Adabiyot, ma'naviyat va mustaqil fikrlash.*
- 5. Badiiy matnning didaktik tahlili namunasi.*

Har qanday jamiyatning taqdiri unda yashaydigan insonlar tomonidan belgilanadi. Jamiyatni nurli kelajak sari etaklash ham, tubanlik qa'riga tortish ham odamning qo'lida. Shuning uchun ham jamiyat a'zolari, ayniqsa, o'sib kelayotgan avlodning ma'naviy kamoloti bugungi kunda o'ta dolzarb masalaga aylangan.

Bugun ta'lim tizimida o'quvchi shaxsining aqliy va ma'naviy kamoloti birinchi o'ringa chiqarilmoqda. Ta'lim konsepsiyasi, standarti, dastur, darslik, o'quv va metodik qo'llanmalar insonparvarlik yo'nalishiga solindi. Ular mutaxassis tayyorlashga emas, balki sog'lom ma'naviyatli odam shakllantirishga xizmat qila boshladi. Milliy pedagogika ilmi ham ma'naviy barkamol avlod tarbiyalash yo'llarini tadqiq etmoqda. Yosh avlod aqliy-ma'naviy kamolotini ta'minlashda ularning mustaqil fikrlashi muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bois, avvalo, «mustaqil fikrlash» tushunchasi nima ekanligi hamda uning barkamol insonni shakllantirishdagi ahamiyati qandayligini aniqlab olish muhimdir. Tafakkur jarayoni, xususan, uning mustaqil fikrlash turi haqida psixologlar, pedagoglar turli daraja va miqyosda o'z qarashlarini bayon etganlar.

Psixologlarning ta'biricha, fikrlash, ya'ni tafakkur – odam miyasida sodir bo'ladigan jarayon. Sezgi organlari etarli bo'lmay qoladigan o'rinlarda odam va olamning xususiyatlari tafakkur orqali o'rganiladi. Tafakkur – aqliy faoliyatning, ongli xatti-harakatlarning majmui. U tevarak-atrof, voqyelik hamda ijtimoiy muhitni bilish quroli, inson faoliyatini to'g'ri va samarali amalga oshirishning asosiy sharti hisoblanadi. Kishi fikrlash jarayonida o'zi ko'rgan, idrok qilgan,

bezpan, tasavvur etgan narsa va hodisalarning to'g'riligi, aniqligi, haqiqiyliги hamda ularning borliqqa munosabatini aniqlaydi¹.

Tafakkur orqali kishi odam va olam sirlarini o'rganishda o'zidan oldingi qarashlar, tushunchalar, farazlar, chiqarilgan xulosalar hamda qabul qilingan qarorlarning qanchalik to'g'ri yoki noto'g'riligini belgilab oladi. Mulohaza yuritib, narsa-hodisalar o'rtasidagi munosabatlar, xossalar, xususiyatlar, ularni bir-biri bilan bog'lab yoki ajratib turuvchi jihatlar hamda ularning faoliyati mexanizmlarini anglab etadi. Bu haqiqatni hazrati Navoiy bundan necha yuz yillar ilgari: "*Har ishniki qilmish odamizod, Tafakkur birla bilmish odamizod*"², - deya ifodalagan.

Tafakkur jarayoni insonning ruhiyati bilan uzviy bog'liqlikda kechadi. Fikrlayotgan odamning ichki dunyosi qanchalik boy, dunyoqarashi nechog'lik keng, bilimi qay darajada chuqur bo'lsa, fikrlari, xulosalarining saviyasi ham shuncha baland bo'ladi. Teranlik, tiniqlik, mantiq, erkinlik, mustaqillik, badiiylik, ijodiylik inson tafakkuri darajasini ko'rsatuvchi ijobiy xususiyatlardir. Odam dunyoni tafakkur orqali anglaydi, fikr va ruhiyat yordamida undan o'ziga xos tarzda ta'sirlanadi, xulosalar chiqaradi.

Odam ruhiyati bilan shug'ullanadigan mutaxassislarining dalolat berishlaricha, inson fikrlash jarayonini yuzaga keltirishning asosiy sharti undagi borliq sirlarini bilishga bo'lgan intilish, ichki ehtiyoj, ya'ni motivdir. Siz insonda fikrlash paydo bo'lmaydi. Fikrlovchi shaxs atrofdaгилarning birgalikdagi mehnati, o'zaro muloqoti va hamkorligida shakllanadi, rivojlanadi. Fikrlashning shakli va mazmunini ajratar ekan, L. Vigotskiy odamdagi fikrlash mexanizmi, uning shakl va darajalari, kishining intellektual rivojlanishiga qarab o'sib borishini ta'kidlaydi. Fikrlashning mantiqqa tayanishi esa bola 12-14 yoshga etganda, u o'z tafakkuriga egalik qilib, uni boshqara bilganda yuzaga keladi. Vigotskiyning ta'biricha, mantiqiy fikrlash – ongli ravishda, o'z-o'zini nazorat qilgan holda ilmiy-nazariy asoslarga tayanib fikrlash demakdir. Uningcha, fikrlashda mantiqning yo'qligi

¹ Фозиев Э. Тафаккур психологияси. – Т.: "Ўқитувчи", 1990; Боговялинский Д. Н. Развитие самостоятельности мышления школьников как основа активных методов обучения. Сб. "Пути повышения качества усвоения знаний в начальных классах". – Москва, АПН РСФСР, 1962; Психология мышления. /Под ред. Матюшкина А.М. –Москва: "Прогресс", 1965. Тихомиров О. К. Психология мышления. – Москва: МГУ, 1984.

² Алишер Навоий. Танланган асарлар. 20 жилдлик. 8-жилд. Хамса: Фарход ва Ширин. – Т.: "Фан", 1991. 122-6.

fikrlash jarayonida mustaqillikning, erkinlikning, onglilikning yo‘qligi demakdir¹.

Fransuz faylasufi Dekart: “*Men fikrlayapman, demak men mavjudman*”², - degan g‘oyani ilgari surgan. Bu fikr inson hayotida tafakkurni odamning odamligi belgisi sifatida yetakchi o‘ringa chiqaradi. Uning fikricha, hech narsa insonning odam ekanligini fikrlashchalik asoslab berolmaydi. Demak, mustaqil ravishda muhokama qilish, tahlil etish, ijodiy-mantiqiy fikrlash asosiy insoniy xususiyatdir. Fikrlash insonning aqlan va ruhan sog‘lomligining asosiy belgilaridir. Uning mustaqilligi tushunchalar, mantiqiy birikmalar, mavjud til vositalaridan oqilona foydalanish bilan tavsiflanadi.

“*Fikrlash jarayoni*, - deb yozadi L. Vigotskiy, - *bolaning o‘tanasini bilan muloqotidan boshlanadi. Mustaqil fikrlash esa bu suhbatlarni bola “yutib”, o‘zicha “hazm qila” boshlaganidan so‘ng shakllanadi*”³. Bu qarashga tayanib, shunday xulosa chiqarish mumkinki, fikrlash bevosita o‘z yo‘naltiruvchi kuchi, maqsadi, usullariga ega bo‘lgandagina mustaqil faoliyatga aylanadi. Fikrlashning mustaqilligi uning yuqorida sanalgan shakllaridan biri sifatida kishi shaxsiyati va siyrati, ichki “men”i bilan bog‘liq.

Demak, umuman, fikrlanganda narsa-hodisalarning boshqalar tomonidan kashf etilgan jihatlari bilib olinadi. Mustaqil fikrlanganda esa, odam olam hodisalari va hayotiy vaziyatlar mohiyatini o‘zgalarnikiga o‘xshamagan yo‘sinda, o‘ziga xos yo‘l bilan bilib oladi.

Olib borilgan kuzatishlarga tayanib, mustaqil fikrlashga quyidagicha ta‘rif berish mumkin: **mustaqil fikrlash** – *insonning o‘z oldida turgan muammoni aniq belgilangan maqsad va vazifalarga muvofiq holda bilimi hamda hayotiy tajribalariga tayanib, o‘z intellektual imkoniyati darajasida turli yo‘l, usul, vositalar yordamida, mustaqil ravishda hal qilishga qaratilgan aqliy faoliyatidir.*

¹ Выготский Л. С. Воображение и творчество в детском возрасте. – Москва: «Просвещение», 1991; Выготский Л. С. Педагогическая психология. – Москва: «Педагогика», 1991; Выготский Л. С. Психология искусства. – Москва: «Педагогика», 1987.

² Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 3-жилд. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002. – 242-бет.

³ Выготский Л. С. Воображение и творчество в детском возрасте. – Москва: «Просвещение», 1991. – 90-бет.

Ma'lum bo'lishicha, fikr mustaqilligi darajasi inson aqliy faoliyatining tashabbuskorligi, pishiqligi va tanqidiyligida aks etadi. Kishi fikri mustaqilligining belgilaridan biri – *tashabbuskorlik* insonning o'z oldiga aniq maqsad va vazifalar qo'yishi, ularni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan usul hamda vositalarni qo'llashida namoyon bo'ladi. Bu faoliyatning *pishiqligi* vazifalarni tez bajarish, bu jarayonda qo'l keladigan usul va vositalarni tezkorlik bilan izlab topish, ularni farqlashda ko'rinadi. Aqliy faoliyat *tanqidiyligi* esa mustaqil fikrlovchining voqea-hodisaga munosabati, uning xususiyatlarini ajrata bilishida namoyon bo'ladi.

Ma'lumki, tafakkur faqat ta'lim jarayonida shakllantirilmaydi. Inson faqat ta'lim-tarbiya muassasalarida fikrlashga o'rgatilmaydi. U har bir ruhan sog'lom insonda tabiatan mavjud bo'lgan aqliy-jismoniy hosiladir. U har kimda o'ziga xos tarzda, o'z intellektual darajasida mavjud. Ta'lim-tarbiya jarayonida tafakkurning shakli, sifati, darajasini tarbiyalash, ma'lum yo'nalishini belgilash, uni sayqallash va rivojlantirish mumkin. O'quvchi fikrining ta'sirchanligi, ehtiyotkorligi, harakatchanligi yoki faoliyatsizligi, o'sish-rivojlanishi uning ta'lim jarayonida shakllantiriladigan sur'ati va sifatiga ham bog'liq. Inson fikrlashining hissiy, obrazli, mantiqiy salmog'i tafakkur jarayonining rivojlanish sur'ati bilan qanchalik aloqador bo'lsa, uning sifat yo'nalishlari bilan ham shunchalik bog'liq.

“Maqsad, vazifalari o'zga shaxslar tomonidan belgilab qo'yilgan, tayyor usul va vositalarga tayangan holda boshqalarning bevosita yordami bilan amalga oshiriladigan jarayonda ishtirok etgan tafakkur fikr qaramligini anglatadi. Mustaqil tafakkurga ega bo'lmagan kishilar tayyor qarashlar quliga aylanadilar. Ularning tafakkuri o'sish-rivojlanishdan orqada qoladi. Mustaqil fikrlash rivojlanmagan hollarda kaltabin, aqlan erinchoq, behafsala, loqayd odam shakllanadi. Tafakkurning qaramligi, muteligi jamiyat rivojiga, millat taraqqiyotiga to'siq bo'lib, alohida odam uchun fojidadir”¹, - deydi taniqli psixolog E. G'oziev.

Fikrning mustaqilligi uning sermahsulligi, samaradorligi bilan uzviy bog'liq. Agar inson tomonidan muayyan vaqt ichida ma'lum soha uchun qimmatli va yangi fikrlar, g'oyalar, tavsiyalar yaratilgan, nazariy hamda amaliy vazifalar hal qilingan bo'lsa, bunday fikr

¹ Гозиев Э. Тафаккур психологияси. – Т.: «Укитувчи», 1990. 60-бет.

sermahsul, samarali hisoblanadi. *Ma'lum vaqt oralig'ida mustaqil ravishda bajarilgan aqliy ish ko'lami va sifati (ishning pishiqligi, asoslarning kuchliligi)* – tafakkur mustaqilligi darajasini o'lchash **mezoni** bo'lib xizmat qiladi.

Ish jarayonida inson aqlining faoliyati uning o'zi tomonidan kuzatilmaydi. O'quvchilarda fikrlashning mustaqilligi darajasini nazorat qilish, uni farqlash hamda rivojlantirish o'qituvchining vazifasi. Buning uchun o'qituvchidan ziyraklik, ta'lim jarayonining har bosqichida har bir o'quvchi shaxsi, intellektual imkoniyatlari, intilish va qiziqishlarini bilish talab qilinadi.

Bola yosh bosqichlariga ko'ra turfa qiziqishga ega bo'ladi, o'ziga xos fikrlaydi va his qiladi. Har yoshida turlicha faoliyat ko'rsatadi, borliqqa munosabati ham har xil bo'ladi. Beshinchi, oltinchi sinf o'quvchilari – kichik o'smir yoshidagi bolalarning o'qituvchilar va bir-birlari bilan o'zaro munosabatida ma'lum o'zgarishlar ro'y bera boshlaydi. Bu davrda faollikning xususiy shakllari kuzatiladi, ularning intellekti o'zini namoyish eta boshlaydi. 11–13 yoshli bolalarning ko'pchiligi o'qishga beparvolik bilan qaraydilar: o'zlarini oshiqcha qiynamaydilar, uy vazifasini berilgan topshiriq darajasidagina bajaradilar, ba'zan shuni ham qilmaydilar. Ko'pincha, o'zlarini ovutadigan boshqa narsalarni o'ylab topishga moyil bo'ladilar.

O'smir yoshidagi o'quvchida boshlang'ich maktab bolasiga xos bo'lgan insonni baholashdagi biryoqlamalik kamayadi. 5–7-sinf o'quvchisini shaxsning axloqiy sifatlari, uning ichki dunyosi, xarakterining shakllanishi va bunga turtki bo'lgan omillar qiziqtiradi. Ammo o'smir hali adabiy qahramonni uning shaxsiga xos bo'lgan barcha jihatlar bilan yaxlit qabul etish va baholashga qodir emas.

U ko'pincha qahramonning biror fazilatiga tayanib shaxsini baholaydi. O'rta maktabning dastlabki bosqichidagi bolalar fikrlashida anchagina sabrsizlik seziladi. Bu davrda ular darsda bajariladigan ishlarning tezligiga ehtiyoj sezadilar, oradagi bo'shliqlarni qiynalib o'tkazadilar. Qiyin, murakkab vaziyatlarning uzoq saqlanishini yoqtirmaydilar. Shunisi xarakterliki, bu yoshdagi bolalarning ko'pchiligi berilgan topshiriqni yoki bir o'tirishda qoyillatib hal qiladilar yoki umuman bajarmaydilar.

Bu bosqichdagi o'quvchilar bilimlarni o'ta maydalangan holda tayyor qabul qilishni xushlamaydilar. Ayrimlar vazifani ko'chirmasdan o'zlari echishga moyil bo'ladilar, agar topshiriqni

o'zlari hal qila olishlariga ko'zlari etsa, ustozining qo'shimcha tushuntirishlaridan qochadilar. Ba'zan ularning fikr ifodalashlarida mustaqillikni ham ilg'ash mumkin.

Mustaqil fikr aytish istagi, o'rganganlari orasidan o'zinikini ajratib ifodalashga harakat 5-sinf bolasida ham kam uchraydi. O'quvchilarning bunday xulqi shaxs taraqqiyotining yangi pog'onasiga ko'tarilishi bilan izohlanadi. O'smirlar ko'proq oltinchi sinfdan boshlab o'zlarida mustaqil fikrlash sifatini namoyon eta boshlaydilar. Bolalarning bu davrdagi jismoniy va aqliy rivojlanishi tafakkur faolligi xarakterini ham o'zgartiradi: ularni mustaqil aqliy zo'riqishga undaydigan topshiriqlarga boy darslar ko'proq o'ziga torta boshlaydi. Bu hol, avvalo, har bir predmet bo'yicha alohida o'qituvchi bo'lishi, o'qituvchiga munosabatning tubdan o'zgarishi va o'quvchi mustaqilligining ortishi bilan izohlanadi.

O'smir yoshidagi bolalarga xos bo'lgan faoliyatga moyillik, ishtiyoqning zo'rliigi, mustaqillikka intilish shaxslik shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktab ta'limi o'rta bosqichining birinchi bo'g'ini – 6–8-sinflar o'quvchilarida mustaqillikning shakllanish davri hisoblanadi. Bu yoshdagi bolalar boshlang'ichdagi kabi intizomli o'quvchi bo'lib, talab etilgan narsalarni bajarishdan ko'ra o'z kuchini o'zi uchun qiziqarli bo'lgan narsalarga sarflashni xush ko'radilar. O'quvchilarda ayrim ishlar va amaliy topshiriqlarni mustaqil bajarishga moyillik kuchli bo'ladi. Bu davrda o'quvchini avvalgi bosqichlarda uchramagan topshiriqlar ruhlantiradi.

Yuqori sinf yoshidagi (9–11-sinf) o'quvchilarda inson tuyg'ularini, uning dunyoqarashini tushunishga bo'lgan qiziqish ortib boradi. To'qqizinchi sinf o'quvchilarini o'smirlar bilan taqqoslab ularda nazariy fikrlarning rivojlanganligini payqash qiyin emas. Bu yoshdagi o'quvchilarda har xil muammolarni o'zlaricha mustaqil hal qilishga intilish kuchayadi. O'zaro tortishuvlar, munozaralar, har xil muhokamalarda qatnashish o'quvchining tabiiy ehtiyojiga aylanadi. Sinflar yuqorilab borgan sari bolada tanqidiy mulohaza kuchayadi.

Ma'lumki, darsga tegishli bo'lmagan biror qiziqarli hayotiy mavzu va hodisalar kino yoki futbol o'yinlari kabilar muhokama qilinganda o'quvchilarning tillari "yechilib ketadi". Bunday vaziyatlarda ularning juda ko'p narsa bilishlari ma'lum bo'ladi. Shuning uchun darsliklarda bolalarning tabiati va yosh xususiyatlariga

mos keladigan qiziqarli materiallar berilishi, matnlar yuzasidan taqdim etilgan savol-topshiriqlar biri ikkinchisiga o'xshamaydigan tarzda turfa bo'lishi o'quvchilarni faollashtiradi.

Maktab davrining bir bosqichidan ikkinchisiga o'tish jarayonida bolalarda shunchaki evolyutsion o'zgarish emas, balki sifat jihatidan bir yangilanish yuz beradi. Bu jarayonda o'quvchi taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi jihatlarni umumlashtirgan holda quyidagicha ko'rsatish mumkin. Masalan:

- o'quvchilar aqliy rivojlanishi bilan beriladigan bilim, ko'nikma va malakalar nomutanosibliigi;
- bilimlarning hamisha ham mantiqqa asoslanmagani;
- oila bilan maktab tarbiyasi o'rtasidagi tafovut;
- 5-7-sinf o'quvchilariga xos bo'lgan harakatchanlik bilan intizom tizimining nomutanosibliigi, ishtiyonning zo'rliigi, ayrim murakkab muammolarni mustaqil hal qilishga bo'lgan moyillik, erkinlik, mustaqillik sari intilishning balandligi bilan ta'lim-tarbiya jarayonidagi bir xillik, sustlik;
- 8-9-sinf o'quvchilaridagi odamlarga, atrof-muhitga tanqidiy nazar bilan qarashning kuchayishi hamda ta'lim jarayonida bunday intilishlarni qondirish imkoniyatining etishmasligi, tabiiy taraqqiyot bilan ta'limiy-tarbiyaviy jarayon orasidagi nomutanosiblik singari jihatlar ko'zga tashlanadi.

Ma'lumki, bolalar maktabgacha bo'lgan davrida favqulodda ijodkorlik xususiyatiga ega bo'ladilar. 5-6 yoshida ona tilini to'liq o'zlashtirib oladilar, o'zlarining amaliy faoliyatlari va borliqni anglashlari uchun zarur bo'lgan har xil ma'lumotlarga ega bo'ladilar. Ularning bu davrdagi taraqqiyoti, odatda, muntazam o'qitish ishlarisiz, kattalar va tengdoshlari bilan tabiiy muloqoti jarayonida amalga oshadi. Bolalar maktab hayotiga kirib kelganlarida, ularning faoliyati dasturlar asosida tizimli bilim olishga o'tganda bir qadar o'zgaradi. Bu o'qish-o'rganish jarayonida tabiiylikning buzilgani, unga sun'iylik aralashuvi tufayli sodir bo'ladi. Bola maktabga kirgach, uning mustaqilligi, o'z intellektual darajasidagi fikrlashi va ixtiyoriy faoliyati ma'lum darajada cheklanadi. U maktab talablariga muvofiq ravishda ish yuritishga majbur etiladi.

Bolalarga bu tarzda singdirilgan bilim, ko'nikma, malaka va ma'naviy sifatlar ularni doimiy ma'rifiy xizmat ko'rsatilishga muhtoj iste'molchiga aylantirib qo'yadi. Bunday ta'lim boladan bilimlarni

mustaqil ravishda ijodiy o'rganishni talab qilmaydi. Bir necha yillik shunday o'qitish natijasida bola mustaqil fikrlamaydigan kimsaga aylanadi. U har qanday aqliy zo'riqishdan o'zini tortib, bunday yumushlarni yaqinlari bo'lmish o'qituvchi, ota-ona, o'rtoqlarining zimmasiga orta boshlaydi. Bunday bolalar, tabiiyki, biror ishni bajarishdan zavq, lazzat yoki qoniqish tuymaydilar.

Adabiyot darslarida mustaqil fikrlashga o'rgatishning o'ziga xos xususiyatlari. Ma'naviy-ma'rifiy buloqlarimiz hisoblangan Qur'oni Karim va muborak Hadislarda ham, Imom al-Buxoriy, Imom Termiziy, Ahmad Farg'oniy, Abu Nasr Forobiy, Mahmud Qoshg'ariy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy va boshqa allomalarning qarashlarida ham odam ma'naviy kamolotini ta'minlashga doir fikrlar ustuvorlik qiladi.

Sovetlar davrida yaratilgan ilmiy asarlarda o'zbek adabiyotini o'qitish asnosida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish masalasi maxsus tadqiq etilmagan. Albatta, bunga o'sha davrdagi siyosiy qarashlar imkon bermagan. Mustaqillik davrida adabiyot o'qitish metodikasi sohasida tadqiqot olib borgan Q. Yo'ldoshev, S. Matjonov va M. Mirqosimova singari olimlarning ilmiy ishlarida o'quvchi tafakkuri mustaqilligi masalasiga ma'lum darajada e'tibor qaratilgan.

Maktab davrida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishda adabiy ta'lim o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ma'lumki, boshqa o'quv fanlari bo'yicha o'tiladigan darslardagi izlanishlar natijasida o'quvchilar avvaldan ayon bo'lgan yagona xulosaga kelishadi. Masalan: to'qqiz karra to'qqiz dunyoning hamma burchagida, qaysi tilda, qanday yo'llar bilan echilishidan qat'i nazar, natija, to'g'ri javob bitta – sakson bir. Bu mutaxassislar tomonidan qat'iy belgilab qo'yilgan haqiqat-xulosa. Yoki ona tili darslarida "kim?", "nima?" so'roqlariga javob bo'ladigan so'z turkumi hamisha ot deyilishi qabul qilingan. O'quvchilar gapning morfologik tahlili jarayonida qanday misol berilishidan qat'i nazar, bu so'roqlarga javob bergan so'zlarni ot ekanligini aniqlaydilar. Bu ham avvaldan aniqlab qo'yilgan yagona haqiqat. Ammo adabiy ta'limning o'ziga xosligi shundaki, unda har bir o'quvchi o'z oldiga qo'yilgan muammoni tegishli maqsad va vazifalarini belgilagan holda bilimi, hayotiy tajribasiga tayanib turli yo'l, usul, vositalar yordamida mustaqil ravishda hal qilib, faqat o'zining badiiy haqiqatini chiqarishi mumkin.

O'rganilayotgan badiiy matn, undagi qahramonlar, tasvirlangan biror hodisa yoki vaziyat borasida har bir o'quvchining asar va darslik muallifinikidan farq qiluvchi o'z xulosasi bo'lishi mumkin va bu mantiqqa zid bo'lmaydi. Masalan: "Kumushbibining halokatida kimni aybdor deb hisoblaysiz?" degan savol o'rta tashlanganda unga har bir o'quvchining o'z javobi bo'ladi. O'quvchilardan biri Otabekni, ikkinchisi Zaynabni, uchinchi ota-onalarni, yana biri davrni, kimdir Kumushbibining o'zini ayblaydi. Har kim nima uchun shunday xulosaga kelganini matndan dalillar keltirgan holda yoki hayotiy xulosalari bilan asoslaydi va bu har bir o'quvchining o'z fikri, xulosasi, aytish joiz bo'lsa, o'z haqiqati hisoblanadi. Bugungi adabiy ta'limda bir paytlar chiqarilgan yalpi xulosa – Kumushbibining halokatida faqat va faqat Zaynabni aybdor hisoblash mumkin emas. Bunga bugungi o'quvchilarning barchasini birday ishonitirib ham bo'lmaydi va agar shunga harakat qilinsa, tarbiyalanuvchilarning ma'naviyatiga zug'um o'tkazilgan bo'lardi.

Adabiyot o'qitish metodikasi ilmida adabiy qahramonning shaxs sifatidagi o'ziga xos ruhiy olami va axloqiy sifatlarini anglash o'quvchi oldiga qo'yilgan muhim didaktik talablardan hisoblanadi. Ma'lumki, har qanday bilimni o'zlashtirish ma'lum darajada fikriy zo'riqish asosida kechadi. Darsda asar ustida ishlash mobaynida adabiy qahramon shaxsi va hayoti tahlili asnosida o'quvchining o'zi ham hayotga faol kirib boradi. O'zgalarni o'rganish orqali o'z shaxsiyatiga xos sifatlarni shakllantiradi. Asar qahramonlariga munosabatiga qarab, o'quvchi shaxsini belgilash mumkinligi ham haqiqatdan yiroq emas.

Bolaning qiziquvchanligi, bilishga intilishi so'nmagan davrida undagi mavjud imkoniyatlardan unumli foydalanib uning shaxsiyatida ijobiy fazilatlar shakllantirishga, mustaqil fikr egasini tarbiyalashga erishish maktab ta'lim-tarbiya jarayonining asosiy vazifasidir. *"Agar bolalarni mustaqil fikrlashga o'rgatmoqchi bo'lsak, eng avvalo, ularni ertaklar to'qishga, sarguzashtlar tuzishga undash kerak. Fikrni faqat yangi, avval uchramagan, tortishuvlarga sabab bo'ladigan masalalarga sarflash lozim. Zerikish – fikrning dushmani"*¹, - degan edi italiyalik ertakchi adib J. Rodari.

¹ Родари Ж. Грамматика фантазий. Перевод с итальян. Ю.А. Добровоцкий. –Москва: "Прогресс", 1978. С. 190.

Ko'pincha, ta'lim amaliyotida o'quvchiga tayyor bilimlarni "yig'ib oluvchi"lik roli topshiriladi. Ta'limning bunday bir yoqlama tashkil etilishi xotiraning mexanik faoliyatiga tayangan bo'lib unda tuyg'ular, fikrlar ishtirok etmaydi, binobarin, bunday ta'lim o'quvchini faol ijodiy ishlashga o'rgatmaydi.

Inson psixologiyasi yuzasidan olib borilgan tadqiqotlardan ma'lumki, o'quvchi bir narsani ikki marta eshitishni xushlamaydi. Vaholanki, ta'lim tizimida, hatto, bugun ham o'quvchi bitta ma'lumotga kamida to'rt marta – o'quv materiali yangi mavzu sifatida tashuntirilganda, u mustahkamlanganda, uy vazifasini bajarish mobaynida va keyingi darsda javob berish jarayonida to'qnashadi. Hamma darslarning uy vazifasini so'rash, yangi mavzu bayoni, uni mustahkamlash va uyga topshiriq berish tarzida bir xil tizimda olib borilishi o'quvchidagi qiziquvchanlikni susaytirib, ta'lim-tarbiya jarayonini zerikarli qilib qo'yadi. Darslar o'quvchining qiziqish va istaklariga muvofiq tashkil qilingandagina samarali bo'ladi.

O'qituvchi o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish maqsadida tashkil qilingan adabiyot darslarida ularga ma'lum vaqt ichida bajarilishi lozim bo'lgan topshiriq beradi. Masalan, 8-sinfda Alisher Navoiy va Nodiraning umrbayoni hamda g'azallari o'rganilib, o'quvchilar shoirlar uslubini bir qadar farqlaydigan bo'lganlaridan so'ng, ularga o'rganilgan g'azallar ichidan ikkitasi maqta'si olib qo'yilgan holda taqdim etiladi. O'quvchilardan ularning qay biri Navoiy qalamiga, qaysinisi Nodira ijodiga mansub ekanini aniqlash talab qilinadi. Topshiriqni to'g'ri bajarish uchun o'quvchi asarning mazmuni, uslubi va unga singdirilgan muallif shaxsiyatiga xos jihatlarga asoslanishi kerak bo'ladi. Bu topshiriqni o'z muddatida bajarish uchun o'quvchi vaqtini to'g'ri taqsimlashi va qiladigan ishlarini puxta rejalashtirishi talab etiladi. Shuning o'ziyiq o'quvchini mustaqil o'ylashga majbur qiladi. Har ikkala g'azalni o'qib, adabiy qahramon hissiyotini tuyib shu asosda muallifini aniqlash o'quvchini ilmiy haqiqatni topishga intiladigan tadqiqotchi holatiga soladi.

O'smir o'quvchilar oldiga har xil adabiy timsollarni mustaqil taqqoslash talabini qo'yish ularda qat'iy qaror qabul qilish ko'nikmasini shakllantirishga xizmat qiladi. O'quvchida bunday ko'nikmani hosil qilish uchun, avvalo, uni konkret shaxs yoki hodisani kuzatish, taqqoslab o'xshash va farqli tomonlarini ko'ra

bilish, umumiy va xususiy jihatlarni, ikkinchi darajali narsalarni ajratib bilishga yo'naltirish talab qilinadi.

Adabiy ta'lim jarayonida taqqoslash – tafakkurning oddiy, shu bilan birga favqulodda ahamiyatli turi hisoblanadi. U muayyan umumiylikka ega bo'lgan har xil hodisalarni qiyoslashdan yuzaga keladi. Umumiy belgilarga ega bo'lgan predmetlar solishtirilganda ularning farqli tomonlari ham ko'rinadi. Ikki yoki bir nechta timsol tabiatidagi o'xshash va farqli tomonlarni aniqlash uchun inson fikran ularning o'ziga xos xususiyatlarini ajratadi, belgilarini aniqlaydi (analiz qiladi) va ularni taqqoslagan holda umumiy tomonlarini tayin etadi (sintez qiladi).

9-sinfda Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar" asari qahramonlari Kumushbibi va Zaynab timsollarini o'zaro taqqoslash mumkin. Bunday vaziyatlarda o'qituvchidan quyidagicha yo'naltiruvchi savol-topshiriqlar tuzish talab qilinadi: "Kumushbibi bilan Zaynabning qanday o'xshash jihatlari bor? Kumush tabiatidagi fazilatlarining ildizini matndan topib, izohlang. Zaynabda o'z baxti uchun kurashish fikri qanday tug'ilgani haqida o'ylab ko'ring. U kurashning boshqacharoq yo'lini topishi mumkinmidi? Nega topolmadi? Zaynabga nisbatan ko'nglingizda qanday tuyg'u paydo bo'ldi? Achinishmi, nafratmi, rahm-shafqatmi? Buning sababini toping" va hk.

Adabiy ta'lim jarayonida o'quvchi tafakkuri mustaqilligiga erishish uchun o'qituvchidan o'quvchilarni darslikda berilgan tushuncha-yu xulosalarning to'g'riligini tekshirish va dalillashga, bu yo'lda eng qulay usul va metodlardan foydalanishga, har bir narsa-hodisa yuzasidan mustaqil fikr yuritishga, vaziyatga ijodiy yondashishga, birovlariga, hattoki o'qituvchisiga ham, yoqish-yoqmasligidan qat'i nazar, o'z fikrini aytishga o'rgatish talab qilinadi. O'quvchilarini mustaqil mulohaza yuritishga o'rgatmoqchi bo'lgan muallim:

- tarbiyalanuvchilarni mantiqiy fikr yuritish usullari bilan tanishtirib borishi;
- qolipda fikrlashga yo'l qo'ymasligi, nafaqat darslik mualliflari, balki o'rtoqlarining fikr-mulohazalarini takrorlamaslikka, ijodiy izlanishga etaklashi;
- o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olib, ularning aqliy imkoniyatlarini ishga sola bilishi;

- har bir o'quvchi oldiga o'ziga xos muammo qo'ya olishi va uni yechishga yo'naltirishi;

- uchraydigan qiyinchiliklarni yengishga odatlantirishi zarur.

O'quv topshiriqlarining noto'g'ri qo'yilishi, o'quvchilardan erkin madohaza yuritishni izchil ravishda talab etmaslik va mustaqil fikrlash qobiliyati qanchalik rivojlanganiga e'tibor bermaslik adabiyot darslarida fikr yuritish faoliyati mustaqilligini rivojlantirishga to'siq bo'ladigan asosiy sabablardir. O'quvchilardagi tanqidiy tafakkur va madohazaning etarli darajada taraqqiy etmaganligi, estetik did hamda madaniy saviyaning pastligi badiiy asar qimmatini yuzaki baholashga olib keladi. Asar to'g'risida chuqur fikr yuritmasdan turib, unga baho berishga shoshilish hollari asl turmush bilan badiiy asar o'rtasidagi farqni anglay olmaslikdan kelib chiqadi.

Bugungi adabiy ta'lim metodikasi o'quvchining u yoki bu badiiy asarni o'qib, tushunishining o'zini yetarli emas deb hisoblaydi. O'quvchi asarga yangicha yondasha bilishi ham kerak. Shunda uning mustaqil nuqtai nazari shakllanadi. O'z-o'zidan ma'lumki, bu fazilat o'zqularning tashqaridan bergan ko'rsatmalari mahsuli emas, o'zspirinning shaxsiy fikri, mustaqil o'ylashi va bir qarorga kelishining natijasi bo'ladi. O'qituvchi o'quvchilarining tortinchoq bo'lishiga, fikrini ochiq aytmay, dilida saqlab qolishiga yo'l qo'ymasligi kerak.

Adabiyot darslarida o'quvchini faqat o'zi yaxshi bilgan, ko'p va chuqur o'ylagan narsalar haqida fikrlashga, yozishga undash kerak. O'quvchi uchun o'zi yaxshi bilmagan, o'ylamagan mavzu haqida yozishdan azobliroq yumush yo'q. Bunday topshiriq uning shaxsida yuzakilikni keltirib chiqaradi, ko'chirmachilikka majbur qiladi. O'quvchida bezovta, uyg'oq qalbni tarbiyalash uchun, avvalo, unda arof muhitga, tabiatga, hayvonot va nabotot olamiga, insonga kuchli qiziqish uyg'otish, har bir narsaning mohiyatiga kirishga yo'naltirish lozim bo'ladi.

L. Tolstoyning fikricha, bolalarda tafakkur erkinligini o'stirish uchun ularni ijodga undovchi hayotiy omil va kerakli material bilan ta'minlash zarur. Bolaga erkinlik berish, "uni o'qitishni bas qilish" shaxs shakllantirishda juda katta samara beradi. *"Agar mening bolalarga berganlarimni usul deb atash mumkin bo'lsa,- degan ekan L. Tolstoy, - u usullar quyidagilardan iborat: a) ularga eng katta va silma-xil mavzularni taklif etish va tanlash ixtiyorini berish. Bu mavzular bolalar uchun maxsus tanlangan bo'lmay, o'qituvchining*

*o'zi uchun o'ta jiddiy va qiziq bo'lishi kerak; b) ularga bolalarning insholarini o'qishga berish va namuna sifatida faqat bolalarning ishlarini berish; v) eng muhimi, bolalarning ishlarini tekshirayotganda daftarining ahvoliga, xatining sifatiga, xatolariga va ayniqsa, uning ifoda tarziga, aytish joiz bo'lsa, uslubiga hech qachon tanbeh bermaslik kerak*¹. Ana shunda adabiy ta'lim oldiga qo'yilgan maqsad amalga oshishi bir muncha tezlashishi mumkin.

O'quvchining mehnati oson bo'lishi kerak emasligi, ularni mustaqil bilim olish, ko'nikma shakllantirish, malaka hosil qilish, mehnatga qiziqtirish, o'zida muayyan axloqiy sifatlarni qaror toptirishga odatlantirish zarurligi, bu esa qiyinchiliksiz amalga oshmasligi taniqli pedagoglar tomonidan ko'p bor ta'kidlangan. Faqat qiyinchiliklarning me'yorini bilish muhim ahamiyat kasb etadi. Toki, bu mehnat o'quvchining yosh xususiyatlariga mos, o'zlashtiriladigan bo'lishi, uni bajarish huzur va zavq bag'ishlashi lozim. Insonga nisbatan bo'lgan talabchanlik uni kamolot sari etaklashi va o'zini rivojlantirishga undashi kerak.

O'quvchilarda o'z fikrini ifodalash ko'nikmasini shakllantirishga boshlang'ich sinflardan e'tibor berish lozim. Ma'lumki, boshlang'ich sinf va kichik o'smirlilik davrida diktant yoki bayon yozishda yaxshigina natijalarga erishgan o'quvchilar yuqori sinflarga borganda adabiy yoki erkin mavzularda ijodiy ishlar yozishga qiynalib qoladilar. O'zgalarning fikrini juda chiroyli qilib takrorlab beradigan "savodli" o'quvchilar ko'pincha o'z fikrlarini ifodalab berolmaydilar. Ular yo asar mazmunini qayta hikoya qiladilar yoki darslik mualliflari yoxud o'qituvchining asar haqidagi fikrlarini takrorlaydilar. Ko'pchilik o'quvchilar maktabni o'z fikr va qarashlaridagi originallik keraksiz ekaniga ishongan holda bitirib ketyaptilar. Shuning uchun ham fikrni ifodalash ishini fikr aytishga uyalmay-digan davrdan, ya'ni boshlang'ich sinflardan boshlash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Adabiyot darslarida badiiy asarlar bilan ishlash ijodkorlarning asarlari zamiriga singdirgan yuksak insoniy g'oyalarni o'quvchining ko'ngil mulkiga aylantirishdir. Bu o'quvchilar ularni faqat o'qishi bilan emas, balki tom ma'noda uqishi, o'rganishi va bilganlarini yozma yoki og'zaki ravishda ifodalashi orqali amalga oshiriladi. Adabiyot darslarida asosiy ish asarni o'qish, matn haqida o'quvchilar

¹ Стоюнин В. Я. Избранные педагогические сочинения. – Москва, «Педагогика», 1991. С. 361.

bilan suhbatlashish, uni tahlil qilishdan iborat. Badiiy asarlar orqali o'quvchining hayotga yaqin, qiziqarli masalalar bilan doim band bo'lgan aqli o'quv materialini o'zlashtiradi. Kuzatishga, mantiqiy asoslar va xulosalarga o'rgangan o'quvchi asta-sekinlik bilan qochonlardir o'zi uchun mavhum bo'lgan fikrlarni ham ilg'aydi, ularda ham qiziqarli narsalarni ko'ra biladi.

O'qilgan badiiy asarni o'rtoqlari bilan birgalikda tahlil qilish, asar matnidagi hayotiy muammolarga munosabat bildirish o'quvchida tanqidiy nazarni shakllantiradi. Bu hol tarbiyalanuvchilarni biror ishga yuzaki yondashmaslikka, puxta o'rganmay, asoslar topmay turib fikr aytmaslikka o'rgatadi. Aslida tanqid to'plangan qator ma'lumotlar asosida tahliliy muhokama qilishdir. O'quvchini shunday belgilarni qidirishga va ularni tahlil qilishga o'rgatish uni jiddiy fikrlashga, ehtiyojkorlik bilan mulohaza yuritishga moyil qiladi.

Adabiyot darslarida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishda ular bilan asar haqida suhbatlashish, ularni asar matnidan javob berishga majbur etadigan savollar berish, bu savollar yordamida o'quvchini asar mohiyatiga olib kirish, undagi tasvir haqida ongli ravishda, to'la ishonch bilan ma'lum xulosalarga kelishga ko'maklashish juda muhim. Badiiy asar tahlili jarayonida asarning mazmun va shakli orasidagi aloqani nazardan qochirmaslik, unda aks etgan shaxs bilan jamiyat orasidagi munosabatga e'tibor qaratish darsning samaradorligini ta'minlaydi.

Adabiyot darslarida badiiy asarlarni ijodiy o'rganish o'quvchilardan ko'p tomonlama, murakkab faoliyatni talab etadi. O'quvchi o'z tasavvur, tuyg'u va tafakkur kuchi bilan asar timsollarini o'rganadi, muallifning axloqiy-estetik qarashlarini anglaydi, bularning burchasini o'z hayotiy olami bilan taqqoslaydi. Shu yo'l bilan asar mohiyatiga imkon qadar kirib boradi. Badiiy asarlar va ular haqidagi qarashlarni o'zlashtirish jarayoni o'quvchining tushuncha-yu tuyg'ulari hamda dunyoqarashining shakllana borishi bilan tabiiy ravishda bog'liq bo'ladi. Badiiy asar tahlili muallif obrazli tafakkurining mohiyatini anglatadi. Bunga erishish uchun asar badiiy tahlilini to'g'ri tashkil etish, adabiy asar bilan nazariy tushunchalarning tabiiy aloqasini anglash lozim. Ilmiy, ayniqsa, badiiy bilishda tasvir olamining inson tuyg'ulari orqali o'tishiga erishish juda muhim. Bilish inson tafakkurining olamni anglashga bir umr, to'xtovsiz intilishi demakdir.

Badiiy asarni to'laqonli o'zlashtirish tuyish va fikrlashning birligi orqali amalga oshadi. O'zlashtirish uchun esa fikrlash lozim. Har qanday asar zamirida uning tahliliga asos bo'ladigan jihatlar ifodalangan bo'ladi. Hamma gap tahlil jarayonida hayotiy va badiiy mantiq asosida mana shu jihatni ilg'ay olishdadir.

Masalan, 7-sinf "Adabiyot" darsligida "Ravshan" dostonidan parcha berilgan. Darslikda "O'zbek xalqining go'zal qiz to'g'risidagi tasavvurlariga o'z munosabatingizni bildiring" degan topshiriq bor. O'quvchi bu topshiriqni bajarish uchun doston matniga qayta-qayta murojaat qilishga majbur bo'ladi. Darslikda berilgan parchada Zulxumorning go'zalligi ta'rifi: *"Ravshanbek qarasa, Zulxumorning kamoli, oyday jamoli, oq yuzida xoli, yangi to'lgan oyday ikki qoshi hiloli. Ravshanbek zehni qo'yib qarasa, yasangan hurday, tishlari durday, ko'zlari yulduzday, qoshlari qunduzday, lablari qirmizday, og'izlari o'ymoqday, lablari qaymoqday, ikki yuzi oyday, tarlon-qarchig'ay uchadigan qushday, muhrlangan qog'ozday yalt-yult etib o'tiribdi. Zulxumoroyning bu yog'ida to'qson besh, bu yog'ida to'qson besh — o'n kam ikki yuz kokili bor, bir yog'ini tilla suvga botirgan, bir yog'ini kumush suvga botirgan, tong shamolida qotirgan. Jamoli chillaning qoriday tingjirab, yaltirab o'tiri..."* tarzida keltirilgan. O'quvchi Zulxumorning ta'rifini o'z so'zlari bilan ifodalash uchun matndan mana shu bo'lakni qayta o'qishi va o'zlashtirishi, uning mohiyatiga kirishi kerak. Asar ustida ishlashning keyingi bosqichlarida mana shu qism va unsurlarning o'zaro aloqasi chuqurroq anglab yetiladi.

Adabiyot darslarida o'quvchilarning mustaqil fikrlash asosida bilim olishlarini ta'minlashda ta'lim maqsadini to'g'ri belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Adabiyot metodikasi ilmi har bir adabiyot darsi oldiga tarbiyaviy, ta'limiy, yo'naltiruvchi va rivojlantiruvchi singari maqsadlar qo'yilishi lozimpligini ko'zda tutadi. Bu xil maqsadlar to'g'ri belgilab olinsa, dars jarayoni shu asosda tashkil etilsa, o'quvchilarning mustaqil fikrlashlari uchun ulkan imkoniyatlar paydo bo'ladi. Afsuski, dars jarayonida o'qituvchining diqqat markazida o'quvchilarning mustaqil faoliyatini ta'minlash emas, balki o'z faoliyatini tashkillashtirish turadi.

Adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishda dars shaklini aniqlab olish muhim ahamiyatga ega. Bunda o'quv materialining mazmuni, hajmi, darsning o'z oldiga qo'ygan

maqsadlari va qiyinlik darajasini belgilash; materialning o'quvchi hayotiy tajribasi, ilgari o'zlashtirgan bilimi va aqliy-amaliy faoliyati bilan aloqasini o'rnatish; o'quvchining mustaqil ishlari va o'quv topshiriqlari tizimini aniqlash; darsning jihozlarini, axborotlarning asosiy va qo'shimcha manbalarini o'rnatish ko'zda tutiladi.

Adabiyot darslari sinfdagi o'quvchilar bilan yalpi ishlash, ayni vaqtda har bir bolaning mustaqil faoliyatini birgalikda qo'shib olib borish ko'zda tutilgan holda, o'qitishning jamoa, guruh yoki individual shakllarida tashkil etilishi mumkin. Bundan tashqari, adabiyot darslarining maqsad va vazifalariga, mazmun va metodlariga mos keladigan tizim ham zarur.

Adabiyot, ma'naviyat va mustaqil fikrlash. Olam sarvari bo'lgan Odamning Yaratganga xush yoqadigan fazilatlar bilan ziynatlanishi ming-ming yillardan beri ta'lim-tarbiyaning asosi bo'lib kelgan. Ko'rinadiki, insonning ma'naviy to'kislik sari intilishi – tabiiy jarayon. Shu tabiiy taraqqiyotga tayangan holda fuqarolari erkinligini ta'minlash, xalqining ham moddiy, ham ma'naviy to'kisligiga erishish har qanday mamlakatning kuchli bo'lishi garovidir. Shu ma'noda, yurtimiz ta'lim-tarbiya tizimida ham inson ma'naviyatining sog'lomlashuviga, uning yaxshi sifatlar bilan to'yinishiga birlamchi yumush sifatida yondashish ustuvor ahamiyat kasb eta boshladi.

O'quv-tarbiya amaliyotida ham muayyan o'zgarishlar sodir bo'layotir. Ta'lim kechimi insoniylashdi, mazmuni insonparvarlashdi. O'qitish jarayoni oliy maktabga kiruvchi abituriyent tayyorlashdan barkamol shaxs shakllantirishdek, sog'lom ma'naviyatli odamni tarbiyalashday keng qamrovli maqsadga yo'naltirildi. Tarbiyalanuvchilar o'zgalar tomonidan o'qitilishi kerak bo'lgan ta'lim obyektidan o'qitish va tarbiyalash kechimida o'zi bevosita faol ishtirok etadigan subyekt darajasiga ko'tarilmoqda. Ya'ni tarbiyalanuvchi xuddi o'qituvchi singari dars jarayonining ijrochisiga aylanib bormoqda.

Bugungi pedagogika ilmi va amaliyotida ta'lim-tarbiya tizimining vazifasi o'quvchidagi ichki imkoniyatlarni uyg'otib, uni o'zi o'qiydigan va o'zini o'zi tarbiyalaydigan qilish, bu jarayonda o'zi tashabbuskor, ehtiyojmand bo'lishiga erishish lozimligi hamda butun kuchni shunga yo'naltirish zarurligi tushunib olindi.

Bugungi yoshlarning kitob o'qish borasidagi imkoniyatlari shunchalar kattaki, ular nafaqat o'zbek adabiyotini qog'oz-kitob

shaklida yoki internet orqali, balki chet el adabiyotidan istagan asarini «kindle» (kindl)lar – elektron kitoblar ko‘magida asliyatda o‘qishyapti.

Kattalarning bundan bexabarligi yoshlarning aybi emas. Ko‘pchilik yoshlar bugun rus tilini kattalarchalik bilmasliklari mumkin, lekin ingliz va boshqa chet tillarni, kompyuterni juda yaxshi o‘zlashtirib oldilar. Katta avlodda bunday imkoniyatlar bo‘lmagan, axborot olishning yagona yo‘li davriy matbuot, radio-televidenie bo‘lsa, ma’naviy ozuqa manbai faqat qog‘oz kitoblar edi.

O‘zbekiston Qahramoni E. Vohidov o‘tgan asrning 50-yillarida bobolar tilidan «boshqacharoq chiqdi hozirgi yoshlar» degan edi. Bugungi bobolar – kechagi yoshlar ham shu gaplarni takrorlashyapti. Sababi, yoshlar hamisha jamiyatdagi taraqqiyot asnosida kattalardan boshqacharoq fikrlaydilar, har qanday vaziyatga kattalarnikidan farqli nazar bilan yondashadilar. Albatta, erishilayotgan yutuqlar bilan bir joyda to‘xtab qolish, zamondan, dunyo tamaddunidan ortda qolish mumkin emas.

Bolani badiiy adabiyotga oshno qilish uchun, avvalo, oilada ota-onaning, ayniqsa, onaning o‘zida bunga moyillik kuchli bo‘lishi zarur. Har bir inson ruhiy dunyosining shakllanishida ona muhim o‘rin tutadi, ayni vaqtda, onaga munosabat uning ma’naviy qiyofasini belgilovchi asosiy omil ham sanaladi. Ma’lumki, bolalar hamisha kattalar bilan birga bo‘lishni, ularning atrofida “o‘ralashib” yurishni, ota-ona, bog‘cha opa yoki o‘qituvchining maqtovlarini eshitish yoxud e’tiroflarini his qilib turishni xush ko‘rishadi. Afsuski, o‘zbek oilalarining ko‘pchiligida kattalar, ayniqsa, onalarning bolalari bilan o‘ynashga vaqti yo‘q. Ularning bundan “muhim”roq ishlari ko‘p. Aslida har bir onaning oiladagi asosiy vazifasi – bolasining qiziqishlari, intilishlari, xohishlarini anglash, o‘sib kelayotgan zurriyodining jismonan sog‘lomligini ta’minlash, uni ma’naviy barkamollik yo‘liga solib qo‘yishdan iborat.

O‘quvchilarni ko‘rkam asar o‘qishga qiziqtirish, badiiy so‘zni tuyish, undan ta’sirlanish va zavq ola bilishga yo‘naltirish ularning ko‘ngillarini injalashtiradi, tabiatini tozalaydi. Ko‘pchilik ota-onalar, ta’lim-tarbiya ishlari bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar, ziyolilar yosh avlodda badiiy kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishni rivojlantirish yo‘lida qayg‘urmoqda.

Ota-onalarni maktabgacha ta'lim va boshlang'ich sinflar yoshidagi bolalariga kitob o'qib berishga majbur qilish lozim. Buning uchun "bog'cha"da, maktabda bolalar va ota-onalarning kitob o'qishiga bag'ishlangan birgalikdagi majlislarini tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday majlislarda ota-onalarga farzandlariga o'qib berishi lozim bo'lgan yoki bolalari o'qishi kerak bo'lgan kitoblar ro'yxatini yozdirish, avvalo, maktab kutubxonasini zaruriy adabiyotlar bilan boyitish yoki sotib olish mumkin bo'lgan joylar yoxud internet sahifalari haqida ma'lumot berish kerak bo'ladi. Kitoblarning o'qilish muddatini belgilash va ota-onalarni bundan xabardor qilish zarur.

Bolasining ertasi uchun qayg'urayotgan ota-onalar bu ishlarni bajarishadi. Bog'cha opa yoki o'qituvchi belgilangan muddatda o'qilgan badiiy asarlar ustida ishlash darslarini tashkil qilishi, suhbat asnosida o'quvchilariga matn mazmunini qayta hikoyalashni emas munosabat bildirishni talab qiluvchi savol-topshiriqlar bilan murojaat qilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bugungi avlodning kompyuterga qiziqishlari baland ekani ayon. O'qituvchi o'quvchilardagi shu tabiiy xususiyatdan foydalanishlari kerak. Ya'ni ular o'qishlari lozim bo'lgan badiiy asarlarni elektron kutubxonalaridan topib o'qishni tavsiya qilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Yoki kompyuter orqali ko'rilgan multfilm, kinolar bilan ularning kitob variantini solishtirish borasida ham suhbatlar tashkil etish mumkin. Bunday taqqoslash darslarida o'quvchilar kitobda ifodalangan, kino yoki multfilmda aks ettirish aslo mumkin bo'lmagan muhim jihatlarni topishga yo'naltirilishi, buning sabablari haqida o'ylab ko'rishga undalishi, qahramonlar shaxsini ochishda kitobda aks ettirilgan baland tuyg'ular tasviri, iztiroblar ifodasining qanchalar muhim ekanini anglashga yo'naltirilishi zarur.

O'quvchilarni kitob o'qishga yo'naltirishning yana bir yo'li ularni rag'batlantirishdir. O'quvchilar ma'lum bir sinfni tamomlasalar ularga maqtov yorliqlari beriladi.

Ana shu yorliqlar o'rniga taniqli shoir yoki yozuvchilarning kitoblari sovg'a qilinsa, foydaliroq bo'ladi. Qolaversa, taniqli shoir yoki yozuvchilar bilan o'quvchilar uchrashuvlarini tashkil etish, ular bilan yosh kitobxonlar o'qigan asarlar yuzasidan suhbatlar uyushtirish ham o'quvchilarning badiiy so'zga muhabbatini oshirishi tabiiy.

Xullas, yosh avlod ma'naviy takomilini ta'minlashda kitobdan oqilona foydalanish, buni to'g'ri tashkil eta bilish oilada ota-onaning, ta'lim muassasalarida tarbiyachi va o'qituvchilarning burchidir.

Badiiy matnning didaktik tahlili namunasi

Ma'naviyat dorisi

Chingiz Aytmatov ijodida shaxsdagi yuksak ma'naviy sifatlarni shakllantirishda katta samaralar bera oladigan asarlar bisyor. Yozuvchi falsafiy mushohadalarga boy asarlarida ham yosh bolakaylar shuuridan mustahkam o'rin olishi mumkin bo'lgan shunday lavhalarni chizadiki, ular bilan tanishish kelajak egalari shaxsiyatining shakllanishida hal qiluvchi o'rin tutishiga shubha yo'q.

Adibning beshinchi sinf "Adabiyot" darsligiga kiritilgan "Qiyomat" romanidan olingan "Oltovlon va yettinchi" afsonasi¹ "Afsonalar sadosi" ruknida berilgan bo'lib, uni to'liq o'qib chiqish uchun 23–24 daqiqa kerak bo'ladi. Mutolaadan so'ng o'quvchilarning tuyg'ulari uyg'ongan holatidan foydalanib, ularning asarni batafsil tushunib olishlariga erishish kerak.

Asardagi voqealar bizga birmuncha yaqin kunlardan – sotsialistik jamiyat barpo etilishi davridan olingan bo'lib, unda bir millatga mansub o'g'lonlarning bir-biriga qarshi qo'yilishi, og'a-inidek yigitlarning dushmanlarga aylanib, bir-biriga qurol ko'tarishi bugun tarixga aylangan kechagi tuzumning mudhish oqibati ko'rsatilgan. Asar tahliliga o'tishdan oldin o'qituvchi bolalarga ana shu haqda qisqacha ma'lumot bergani ma'qul bo'ladi. Shunda o'quvchilarning davr haqidagi tasavvurlari asardan olgan taassurotlarining chuqurroq bo'lishini ta'minlaydi, uning matni ustida ishlash ham samarali kechadi. Beshinchi sinf o'quvchisi bizning kechagi kunimiz haqida ko'p narsa bilmaydi. Tarix darslarida ham hali bu haqda yetarli ma'lumot berilmagan bo'ladi. Sotsializm o'rnatilayotgan davrlarda bizning yurtimizda ham ushbu asarda aks ettirilganidek birodarkushliklar bo'lganini, millat erki va ozodligi uchun kurashganlar "bosmachi" tamg'asini olganini, o'z yurtini bo'ysundirib

¹ Н. Каримов, У. Норматов. Адабиёт. 5-синф учун дарслик. – Т.: «Ўқитувчи», 1999. – 102–106-б.

berish uchun kurashganlar esa qahramon atalganini bildirish o'rinli bo'ladi.

Asar tahlili mukammal bo'lishi uchun darslikda berilgan savol-topshiriklar yetarli emas. Qolaversa, ular o'quvchini mulohaza yuritishga, fikr aytishga, munosabat bildirishga emas, asar matnini qayta hikoyalashga qaratilgan.

O'qituvchi asar haqidagi o'z haqiqatlarini bolalarga tayyor holda bergandan ko'ra, tahlilni bolalar bilan birgalikda qilgani ma'qul. Bugungi pedagogika, xususan, adabiyot o'qitish metodikasi shuni talab qiladi. O'quvchi matnlar qa'riga yashiringan hayot haqiqatini o'zi kashf qilishi o'qituvchi esa ularning bu ishlarini yo'naltirib, boshqarib turishi maqsadga muvofiq.

Tahlil jarayonida o'quvchi mustaqil mulohaza yuritish, fikrlash, savollarga javob berish uchun matnga qayta-qayta murojaat qilishi, asarni tahlil qilib, timsollarga munosabat bildirishi va aytganlarini asoslashga o'rganishi lozim. Asar matni ustidagi ish "*Bunday sharoitda asosiy qonun bitta – agar dushman taslim bo'lmasa, uni yanchib tashlaydilar. Ammo shafqatsizlikka javoban shafqatsizlik yuzaga chiqadi – bu ham qadimdan qolgan qonun*" jumllariga o'quvchilar e'tibori tortish bilan boshlanadi. Adabiy ta'limdagi yetakchi tadbir shundan iboratki, o'quvchilar o'qiyotgan matnidagi muhim narsani nomuhimrog'idan farqlay olishga o'rganishlari zarur. Agar hamma tovushlar, so'zlar, jumlar bir xilda qabul etilaversa, o'quvchi badiiy asardan hech qanday zavq ololmaydi.

O'quvchilar savol ustida ish boshlashlaridan avval "Bunday sharoit" deyilganda urush, dushmanlik, qon to'kish holati nazarda tutilayotganini anglashlari kerak. Shundan so'ng "*Shafqatsizlikka javoban shafqatsizlik yuzaga chiqadi*", – degan qadimdan qolgan qonuniyat zamirida nima yotganini o'quvchilar tushunadilar. Mehr mehr uyg'otgani, muhabbat muhabbat chaqirganidek, shafqatsizlik odamda nafrat hissini paydo qiladi. Mazkur asarda gruzin millatiga mansub ikki tabaqa vakillarining bir-biriga munosabatdagi shafqatsizliklari o'zaro qahr va nafratga sabab bo'lgan. Afsona bir millatga mansub og'a-inilarning mana shunday munosabatlari tasviriga qurilgan.

Matnni tahlil etish, uning mohiyatiga kirish asnosida o'quvchilar asar qahramonlarini tanib boradilar. Asar mohiyatiga chuqurroq kirib borilgani sari undagi voqealar mohiyati yaxshiroq bilib olinadi. Shu

ma'noda matndagi: «*Chekist mingan o'tning esa ayili bo'shab ketadi. U butalar panasida otdan tushadi*» tasviriga o'quvchilar e'tibori tortilgani ma'qul. Sho'rolar hukumati vakillariga qarshi kurashchilar safiga kirib olgan josus Sandro sheriklarini o'qqa ro'para qilgan holda, go'yo o'tining egari bo'shab ketganligi uchun daraxt panasida qoladi.

Odamlar juda murakkab, beshinchi sinfdagi o'qiydigan o'smirlar hali bu murakkabliklar bilan to'qnashmagan. Ular kitob sahifasida bo'lsa ham shunday holatga duch kelar ekanlar, unga munosabatini aniqlab olishlari zarur: Sandro oddiy insoniy mantiqqa ko'ra xiyonatkor, sho'roviy mezonlarga ko'ra qahramon. Chunki topshiriqni bajardi. O'quvchi bunday dilemma oldida o'ylanib qolishi tabiiy: nega bunaqa? Haqiqat qaysi tomonda? Haqiqatni aniqlash ushbu masalaga qanday mezonlar bilan yondashishga bog'liq. Ilohiy va insoniy-axloqiy mezonlar bo'lganidek, siyosiy mezonlar ham bor. Odamning xatti-harakatlari ilohiy va insoniy mezon bilan o'lchangani ma'qul. Hali beshinchi sinf o'quvchisi bunday mezonlar va ularning talablari haqida tushunchaga ega emas, albatta. Lekin o'qituvchi ularni har qanday vaziyatda shu mezonlarga tayanishga yo'naltirib borishi lozim. Chunki asl insoniy-axloqiy mezonlar ijtimoiy-siyosiy mezonlardan yuqori turadi.

O'quvchilar Guram Jo'xadze tabiatiga xos xususiyatlar haqida fikr yuritganlari ma'qul. Uning qanday odamligi borasida personajning o'y-iztiroblari, aytgan so'zlariga tayanib mulohaza qilish lozim bo'ladi. Bu topshiriq o'quvchilarni anchagina o'ylantirib qo'yishi tabiiy. Yoppasiga sovetlashtirish boshlanganida har bir millatning millatparvar o'g'lonlari bosh ko'targan. Asar qahramoni Guram Jo'xadze – ona yurti, millati ozodligini saqlab qolish uchun kurashganlardan biri. U o'z millati erkini, vatani mustaqilligini o'zгалar qo'liga topshirib qo'ymaslik uchun uringan, yurt tuprog'ini o'zгалar toptashini istamagan. Vatanga, xalqiga bo'lgan muhabbati uni jangu jadal qilishga undagan. Lekin Jo'xadze singari gruzin farzandlari Sandroning sotqinligi tufayli ayovsiz qirildi.

O'quvchilar e'tibori shu qirg'indan omon qolgan yettovlon to'g'risidagi: “*Besh kishi shu zahoti o'likday dong qotib uxlab qoladi. Ikki kiishning esa ko'zlariga uyqu kelmaydi*”, – degan tasvirga tortilishi kerak. Jo'xadze mag'lubiyatning sabablarini o'ylayotgani, vatanni tark etish iztiroblarini kechirayotgani uchun uxlolmaydi. Sandro esa chekistlarning topshirig'ini to'liq bajarish yo'lini o'ylaydi.

Ularning biri – millat erki va ozodligi yo'lida jonini fido qilishga tayyor, berilgan qurbonlar uchun, yengilgan jonlar, toptalgan tuproq uchun o'zini aybdor deb his qilayotgan el farzandi. Ikkinchisi – o'z vatani va xalqi erkini o'zgaralar qo'lga topshirishga shaylangan, "katta"lar buyrug'iga ko'r-ko'rona bo'ysunadigan kimsa. U ham shu millatning bolasi. Birinchisini qiynayotgan narsa – vijdon va burch. Ikkinchisining uyqusini o'chirgan sabab – buyruqni bajarish burchi. Shu holatda qaysi birining tashvishi ko'proq, g'ami ulkanroq, maqsadi pokizaroq ekanligini o'quvchilar matn mazmunidan kelib chiqib, asoslashlari lozim.

O'quvchilarning diqqati asar matnidagi: *"To'lin oy ularning o'ng tomonida nur yog'diradi. Tungi o'rmon og'ir, bosinqi xo'rsinadi. Pastda toshlardan toshlarga urilib daryo shag'illaydi. Atrof tog'lar tosh sukutga ketgan"* tasviriga qaratiladi. Tabiatning bu holati tasviri asarga nega kiritilgan? Afsona qahramonlari holati bilan tabiatdagi ushbu vaziyat orasida aloqadorlik bormi? Qonli kecha oldidan tabiatning sokinligini bu qadar batafsil tasvirlashdan muallifning maqsadi nimaligini anglashga urinib ko'ring. Dahshatli voqealarni o'rmon ham, tog'-tosh ham kutayotganga o'xshamaydimi? – degan savol-topshiriqlar o'rta tashlanadi.

Ma'lumki, tabiat hamisha insonning ko'makdoshi, dardini, qayg'usini bo'lishadigan sirdoshi. Tashvishli kunlarda inson o'zini tabiatning qo'yniga uradi. Tabiatga yaqin insonlar uning holatini yaqindan tuyadi, o'zicha xulosalar chiqaradi. Asar muallifi ham tabiatdagi sokinlikni bekorga tasvirlamagan. Qarama-qarshi holatlar asardan olinadigan taassurotni kuchaytiradi. Shuning uchun ham adib dunyoni ostin-ustun qilgudek qonxo'rlik oldidan tabiatning bu qadar beg'ubor, go'zal va sokinligini ataylab tasvirlagan. O'quvchilar bu haqda o'zlarining tushunchalari darajasida fikr aytadilar. Bu javob o'qituvchi istagandek, keng qamrovli bo'lishi mumkin ham, shart ham emas. O'qituvchi o'quvchilarning fikrini eshitgani holda, ularga daxl qilmagani – tuzatib, to'ldirmagani ma'qul.

Vijdoni toza bo'lmagan odam har narsadan gumonsiraydi. Shunday ekan, o'quvchilar e'tiborini uyqusi kelmayotgani uchun Jo'xadzening g'orga borib yotmoqchi bo'lganligi xiyonatchi chekistga qattiq ta'sir qilgani tasviriga qaratish kerak. Asarda bu holat birgina jumla bilan beriladi: *«Sandro etagi kuyganday tipirchilab qoldi»*. Nega? Uning bu holati izohlanishi, buning sabablari o'quvchilar

tomonidan ilg'anishi va ochilishi zarur. So'ng "Jo'xadzeni g'orda yotishga undagan narsa nima edi?" qabilidagi yordamchi savol bilan o'qituvchi o'quvchilar fikrining yo'nalishini ko'rsatib berishi mumkin. Bo'lib o'tgan voqea Jo'xadzeni qiynar, mag'lublik vatangadolik ekanini tushungan odam sifatida undagi ruhiy azob jismoniy charchoqdan ustun edi. O'quvchilar Sandroni tezroq buyruqni bajarish tashvishi qiynayotganini his etishadi. Bolalarga ko'ngillaridagi tuyg'ularni tashqariga chiqarish imkoniyati berilishi lozim. O'quvchining Guramni yoqtirib, Sandrodan nafratlanishi tabiiy, lekin bundan ko'ra ko'proq ularning xatti-harakatlari, o'y-hayollarini tahlil qilishi, mulohaza yuritib munosabat bildirishi ma'naviyatining sog'lomlashuviga ko'proq ta'sir etadi.

Asarda shunday so'zlar bor: *"Shom tushganda oltovlon va yettinchi bir joyga to'plandilar"*. O'quvchilar bu ifodaning aynan shunday berilayotganligi sababini aniqlashga urinib ko'rishlari kerak. Ular yetti kishi. Yettovi ham bir millatning bolasi. Go'yo bir maqsad yo'lida yurishibdi. Muallif ularning oltovi aslida bitta maqsad yo'lidagi kishilar bo'lib, yettinchisining maqsadi esa tamomila boshqa ekanligini bir zum ham unutmaydi. O'quvchi ham ana shu nozik o'ringa e'tibor qaratishi kerak. Chunki oltovlon bilan Sandroning qoni bir, tili bir, dini bir bo'lsada, ruhi, maqsadi bir emas. Shu bois u begona – u yettinchi... Bolalar shuni anglab yetishsa, demak, asarni chuqur tushungan bo'ladilar.

O'quvchilar e'tibori afsonadagi Jo'xadzening qiyofasini belgilaydigan quyidagi gaplariga tortilishi kerak: *"Urush degani shu. Biz qon to'kdik. Bizning qonimizni to'kishdi. U tarafdan ham, bu tarafdan ham ko'p asl o'g'lonlarning boshlari ketdi... Halok bo'lgan do'stlarimdan va g'animlarimdan uzr-ma'zur so'rayman. Jangda o'lgan g'anim – g'anim emas. Oyog'im uzangida turganda ham, bari bir, men halok bo'lganlardan kechirim so'rar edim..."*

Kurashning mohiyatini anglagan, dushmanidan ham uzr so'rashga tayyor odamning halolligi, adolati, mardligi borasida o'quvchilar o'ylab ko'rishlari zarur. Jo'xadzening buyuk vatanparvar ekanligini o'quvchilar nimalarda ko'rishyapti? Agar tarbiyalanuvchilar asar matnidan Jo'xadzening shunday fazilatlarini aks etgan o'rinlarni topib, ularni o'zicha tahlil qilishsa, qahramonning tabiatini chuqurroq tushunishadi.

O'quvchilar uning ota yurtidan chiqib ketish oldidan aytgan quyidagi gaplariga ahamiyat berishlari kerak: "*Kelinglar, bir-birimiz bilan xayrlashaylik, ona yerimiz bilan xayrlashaylik, gruzinning non-tuzi bilan xayrlashaylik, vinosi bilan xayrlashaylik*". Uning so'zlarida elga, yurtga bo'lgan muhabbat qanday aks etayotgani xususida o'ylab ko'rish lozim. Bu haqda yuritilgan fikrlar salmog'i o'quvchilar ichki dunyosining teranligi va bilimi darajasida bo'ladi. Shunday teran mulohaza yurita oladigan, aybdorni qidirib, hodisani taftish qiladigan, bu dunyoni tark etgan dushmanini ham kechira oladigan, xalqining non-tuzini aziz va muqaddas bilgan o'g'longa munosabat bildirish asnosida o'quvchilar ham o'zgaradilar, ham ulg'ayadilar.

Asarda Jo'xadzening armoni naqadar buyuk va so'ngsiz ekanligi baland mahorat bilan aks ettirilgani o'quvchilar nazaridan chetda qolmasligi kerak. Uning: "*Biz o'zimiz bilan tariqcha narsa olganimiz yo'q. Vatanni olib ketib bo'lmaydi. Faqat sog'inch va armonlarimizni olib ketamiz. Agar vatanni xurjun kabi olib yurish va tashib ketish mumkin bo'lganda, u sariq chaqaga ham arzimasdi*", – degan gaplaridan yigit shaxsiyatiga xos xususiyatlar anglashiladi. O'quvchilar o'qituvchilarining yo'naltirishi va ko'magi bilan Jo'xadzening shu otashin gaplarini so'zma-so'z tahlil qilishlari, unga munosabat bildirishlari kerak.

Asarda Guram va Sandrogina emas, balki nomlari tilga olinmagan bo'lsada, yana besh yigitning timsoli ham g'oyat esda qoladigan qilib chizilgan. Quyidagi parchaga tayanib, o'quvchilarni asardagi nomsiz qahramonlar holatini sharhlashga undash lozim: "*Ular davra yasab turishar, ba'zan qo'llarini bir-birlarining yelkalariga tashlashar, ba'zan qamchiday yerga solintirishar, ba'zan esa, bilib bo'lmas va ko'rib bo'lmas, lekin har narsani biluvchi va har nimani ko'ruvchi ilohiy qudrat eshitsin debmi, qo'llarini osmonga ko'tarar edilar*". Bu tasvirdan kitobxon ko'z oldida qolgan besh yigit ham namoyon bo'ladi. Mazkur satrlarda ulkan samimiyat, adoqsiz dard, inson qismatining beaded chigalligi aks etganini o'smirlar his etadilar. Asar qahramonlarining holati ularga ta'sir etmasdan qolmaydi. Ular afsona qahramonlari timsolida insonni, uning dardlarini tasavvur qilishadi.

Adib qahramonlar ruhiyatini, ularning miyasida quyunday g'ujg'on o'ynayotgan adoqsiz savollar tartibsizligini quyidagicha aks ettirgan: "*Agar Yaratgan hammasini ko'rib turgan va bilib turgan bo'lsa, nega unda ularni o'z ona yerlaridan quvg'in qilmoqda, bu*

qanday bo'ldi axir? Nega axir bunday, nega axir odamlar bir-birlari bilan urishadilar, qon to'kadilar, ko'z yoshlarni daryo qilib oqizadilar, hammalari o'zlarini haq, boshqalarni nohaq deb hisoblaydilar, qani axir haqiqat, kim haqiqatni aytadi, kim?" - kabi misralar o'quvchilar ruhiyatiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Bu savollarga ularda tayyor, to'g'ri javob bo'lmasligi aniq. Chunki bu savol nafaqat o'quvchilar, balki butun insoniyatni o'ylantirib qo'yadi. Asar muallifi tomonidan ketma-ket qo'yilayotgan bunday savollar nafaqat matndagi, balki hayotdagi voqea-hodisalar asnosida uning o'zini ham qiynaganidandir? Ularning parokandaligi hayajonning, ichki alamning zo'ridandir? U ham qahramonlari singari alamzadaligidandir? Uning nutqidagi takrorlar ruhiyatining, taqdirining qahramonlari ruhiyatiga, taqdiriga u yoki bu darajada hamohangligidadir?

Sinfdagi o'quvchilar asar qahramonlari holatini tasavvur qilishlari tabiiy. Chunki ular asarni o'qir ekanlar u yoki bu darajada qahramonlar taqdiriga aralashib, ularning holatini his qilishadi. "yettovlon" emas, "oltovlon va yettinchi" so'zlari tashiyotgan ma'noni anglatmasliklari mumkin emas.

Ayni shu tasvir asnosida asarda chekist haqida: "*Sandro esa dam-badam davradan chiqib, gulxanga o'tin tashlar, olov qarsillab, tobora qizdirib, kuydirib baland o'rlardi*", – deb yozilgan. O'quvchilar tinmay osmonga o'rlayotgan olovning nimaligini: nafratmi, xiyonatmi, afsusmi ekanini o'ylab ko'rsinlar. Nega nafratu nega xiyonatu nega afsus? U kimniki? Sandronikimi? Nafrat kimga qaratilgan, xiyonat nimaga qilingan, afsus nimadan?

Bu savol ham o'quvchilardan mantiqiy zo'riqishni talab qiladi. Agar ular javob berolmasalar, masala shunday ochig'icha qolavergani ma'qul. Lozim topsa, o'qituvchi o'zi javob berishi, lekin bu uning shaxsiy fikri ekanligini, bu haqda o'quvchilar yana o'ylab ko'rishlari mumkin ekanini ta'kidlab qo'ygani ma'qul.

Yuqoriga o'rlayotgan olovda kimdir Sandroning o'z og'a-inilariga nafratini ko'rar, kimdir uning xatti-harakatlarida xiyonatni ko'rar, so'nggi ishiga asoslanib o'z qilmishidan afsusini ko'rar? Har uchala holatda ham mantiq bor, har uchala javobni ham noto'g'ri deb bo'lmaydi. Javobdagi nafrat ham, xiyonat ham, afsus ham o'quvchilarning diqqatini tortgani ma'qul. Olti yigitga tegishli bo'lgan dard – vatan bilan vidolashish dardi unga yot. Uning ko'nglida boshqa maqsad mavjud.

O'quvchilarning e'tibori oltovlon va yettinchining chigal ruhiy holati to'g'risidagi: "*Boshlarini quyi egib, qo'shiq boshlashdi – ohang go'yo yer ostidan guvillab kelayotganday o'ychan va qudratli yangrab borardi*" tasviriga tayanib, yigitlarning kayfiyati, o'ylari haqida mulohaza yuritishlari zarur. Bunda o'quvchilar qo'shiq ham, uning ohangi ham yigitlarning ko'ngil qa'ridan juda katta dard, alam bilan chiqib kelayotganini, shuning uchun yer ostidan chiqayotgandek guvillashini his qilishar, lekin buni so'z bilan ifodalash bolalar uchun og'irroq bo'lishi mumkin. Chunki afsonaga ortilgan badiiy yuk o'ta og'ir. O'quvchilar ham o'quv yili davomida badiiy asarlar bilan ishlab, bunday og'irliklarga asta-sekin ko'nikib boradilar.

O'quvchilar dunyo oq va qora ranglardan iborat emasligini, odamlarni yaxshi va yomonlarga, do'st va dushmanlarga ajratish oson emasligini bilib borishadi. Buning uchun o'quvchilarni o'rganilayotgan asardagi Sandroning shaxsiyati haqida o'ylab ko'rishga undash katta yordam beradi. Sandro qanday odam? Bunda asardagi tasvirga tayangan ma'qul: "*Ko'shiqlarni ham u barcha qatori chin yurakdan aytar – axir qo'shiq hammaga bab-baravar tegishli emasmi?*" Odam – g'oyat tushunarsiz yaratiq. Ham chin yurakdan qo'shiq aytayotgan, ham shu paytning o'zida birodarlarini o'ldirishni rejalashtirayotgan kimsa qanday odam? Balki Sandro qo'shiqni chin yurakdan aytmayotgandir? Axir qo'shiqlarda uning ijrochilari dardi ifodalanayotir-ku? Sandroda vatandan ayrilish xavfi yo'q-ku! Buni o'quvchilar o'ylab ko'rsinlar: Asar muallifi haqmikan?

O'quvchilar Sandroning o'z sheriklarini halok qilgandan keyingi holati tasviriga e'tibor qilib, u haqda mulohaza yuritishlari juda muhim. Bu asarda shunday tasvirlanidi: "*U meshni shart ko'tardida, tagida qolgan vinoni to'kib-sochib yutoqib icha boshladi, u ichida yonayotgan olovni bosmoqchi bo'lardi*". O'quvchilar uning ichida nega o't yonayotganligi, bu otashni biror narsa bilan o'chirish mumkin yoki mumkin emasligi borasida o'ylab ko'rishlari kerak. Birodarkushning holati bundan boshqacha bo'lishi mumkinmidi? Uning ichida xiyonat o'ti, alam o'ti yonyapti. U ham inson. Uning ham ko'ngli, vijdoni bor. Buyruqni bajargan bo'lsada, ichki bir qudrat oldida hisob berishga majbur. U shu holatdan qiynalayotir. O'quvchilar ana shular haqida o'ylab ko'rishlari kerak. Buning uchun mazkur holat o'qituvchi tomonidan savol yoki topshiriqqa aylantiriladi. Uning o'zini o'ldirishdek dahshatli qarorga kelishi

viydon qiynog'idir. O'quvchilar yettinchi o'qning avvalgi oltitasidan farqi haqida mulohaza yuritsinlar.

O'quvchilarning diqqatini oltovlon halok etilgandan keyingi manzara tasviriga ham qaratish kerak: "*Gulxan yonib bitmagandi. Daryo vag'illardi, o'rmon va tog'lar bari o'z joyida edi, oy yuksaklarda sokin kezardi, hech narsa yuz bermaganday, yolg'iz uzoq davom etgan taronagina uzildi, uzildi*". Nega hech narsa o'zgarmadi? Sizning ko'nglingizda-chi? Bu savol o'quvchilarni o'z ko'nglini, ruhiyatini taftish qilishga undaydi. Ular ko'ngillarida alam, nafrat, achinish hissini tuyishlari tabiiy. O'quvchilar ta'sirchan bo'lishadi. Asar ularning dillarini og'ritadi, ta'blarini xira qiladi. Nachora, foydali dori hamisha achchiq bo'ladi. Badiiy asar esa, ma'naviyat dorisidir.

Savol va topshiriqlar:

1. Mustaqil fikrlash tushunchasiga berilgan quyidagi ta'rifga diqqat qiling: "*insonning o'z oldida turgan muammoni aniq belgilangan maqsad va vazifalarga muvofiq holda bilimi hamda hayotiy tajribalariga tayanib, o'z intellektual imkoniyati darajasida turli yo'l, usul, vositalar yordamida, mustaqil ravishda hal qilishga qaratilgan aqliy faoliyatidir*". Uni qanday tushunganingizni birorta badiiy matnga tayangan holda asoslab bering. Adabiyot darslarida o'quvchilarni mustaqil mulohaza yuritishga yo'naltirish borasida mulohaza yuring.

2. Inson tafakkuri mustaqilligi darajasining belgilari – *tashabbuskorlik, pishiqlik* va *tanqidiylik* haqida o'ylab ko'ring. Ularni o'z qarashlaringiz asosida, hayotiy yoki badiiy haqiqatlar misolida tahlil qiling.

3. Quyidagi fikrni o'qing: "*Maqsad, vazifalari o'zga shaxslar tomonidan belgilab qo'yilgan, tayyor usul va vositalarga tayangan holda boshqalarning bevosita yordami bilan amalga oshiriladigan jarayonda ishtirok etgan tafakkur fikr qaramligini anglatadi. Mustaqil tafakkurga ega bo'lmagan kishilar tayyor qarashlar quliga aylanadilar. Ularning tafakkuri ...o'sish-rivojlanishdan orqada qoladi. Mustaqil fikrlash rivojlanmagan hollarda kaltabin, aqlan erinchoq, behafsala, loqayd odam shakllanadi. Tafakkurning qaramligi, muteligi jamiyat rivojiga, millat taraqqiyotiga to'siq bo'lib, alohida odam uchun fojidadir*". Undagi kalit so'zlarni alohida ajratib yozing. Har bir so'zning mazmun-mohiyatini ochib bering. Olingan

ko'chirmadagi har bir jumlani alohida-alohida tahlilga torting. Mustaqil fikrga ega bo'lmagan fuqarolar jamiyatining, alohida shaxsning fojiasi darajasi haqida birgalashib mulohaza yuring.

4. Inson tafakkurining mustaqilligi darajasini o'lchash **mezoniga** e'tibor qiling: *“Ma'lum vaqt oralig'ida mustaqil ravishda bajarilgan aqliy ish ko'lami va sifati”*. Siz buni qanday tushundingiz? Bo'lajak adabiyot o'qituvchisi sifatida o'quvchilar bilimining mustaqilligi darajasini nimalarga asoslanib baholash to'g'risida o'ylab ko'ring. Kursdoshlar o'zaro muhokama qilib, bir asar misolida qarashlaringizni asoslang.

5. Quyidagi fikrga diqqatingizni qarating: *“Ammo adabiy ta'limning o'ziga xosligi shundaki, unda har bir o'quvchi o'z oldiga qo'yilgan muammoni tegishli maqsad va vazifalarini belgilagan holda bilimi, hayotiy tajribasiga tayanib turli yo'l, usul, vositalar yordamida mustaqil ravishda hal qilib, faqat o'zining badiiy haqiqatini chiqarishi mumkin”*. Bunga nima deysiz? Ona tili yoki matematika darslarida kelinadigan yagona haqiqat-xulosa bilan adabiyot darslarida qabul qilinadigan turfa haqiqatlar bir-biridan mazmunan qanday farq qiladi? Ularning mohiyatida, Sizningcha, nima yotadi? Ko'chirmaning mazmunini sharhlang.

6. Italiyalik mutaxassis J. Rodarining: *“Agar bolalarni mustaqil fikrlashga o'rgatmoqchi bo'lsak, eng avvalo, ularni ertaklar to'qishga, sarguzashtlar tuzishga undash kerak. Fikrni faqat yangi, avval uchramagan, tortishuvlarga sabab bo'ladigan masalalarga sarflash lozim. Zerikish – fikrning dushmani”*, degan qarashlariga asoslanib buni amaliyotga tatbiq etish yo'llari haqida o'ylab ko'ring. Siz, bo'lajak adabiyot o'qituvchisi, mazkur holatni qanday tashkil etgan bo'lardingiz?

7. Yuqorida o'quvchilarga namuna sifatida keltirilgan topshiriq: *“Abdulla Qodiriyning “O'tgan kunlar” asari qahramonlari Kumushbibi va Zaynab timsollarini o'zaro taqqoslash”* zamiridagi savol va topshiriqlar ustida Siz ham o'ylab ko'ring. O'z munosabatingizni bildiring, xulosa chiqaring. Nega shunday xulosaga kelganingizni asoslang.

8. Yuqorida: *“Muallim tarbiyalanuvchilarni mantiqiy fikr yuritish usullari bilan tanishtirib borishi; qolipda fikrlashga yo'l qo'ymasligi, nafaqat darslik mualliflari, balki o'rtoqlarining fikr-mulohazalarini takrorlamaslikka, ijodiy izlanishga etaklashi; o'quvchilarning*

individual xususiyatlarini hisobga olib, ularning aqliy imkoniyatlarini ishga sola bilishi; har bir o'quvchi oldiga o'ziga xos muammo qo'ya olishi va uni echishga yo'naltirishi; uchraydigan qiyinchiliklarni engishga odatlantirishi zarur", degan fikr bor. Siz buni, bo'lajak adabiyot o'qituvchisi sifatida, qanday tasavvur qilasiz? Muallim zimmasiga qo'yilayotgan har bir talabni alohida ajratib yozing. So'ngra ularni tahlilga torting. Amalda qanday bajarish kerakligi haqida birgalashib mulohaza yuriting.

9. Lev Tolstoyning *"bolani o'qitishni bas qilish kerak"*ligi haqidagi fikriga qanday qaraysiz? Unda o'qituvchi, ya'ni Siz, darsda nima qilasiz? Bu haqda mazkur qo'llanmadan o'qib o'rganganlaringiz, bilimlaringizga tayanib mantiqli mulohaza yuriting. Tolstoyning qanchalar haq ekaniga o'zingiz qanoat hosil iling. Xulosalaringizni kursdoshlar bilan o'rtoqlashing.

10. Matnda alohida ta'kidlangan: *"O'quvchining mehnati oson bo'lishi kerak emas"* degan fikrga o'z munosabatingizni bildiring. Bu haqiqatga qo'shilasizmi, yo'qmi? Har ikkala holatda ham fikringizni asoslang.

11. Mavzuda taqdim etilgan adabiyot darslarida o'quvchilarni mustaqil mulohaza yuritishga undovchi har bir tavsiya (detal)ni alohida ajratib yozing. Ularni qanday tashkil etish borasida o'qituvchingiz bilan birgalikda fikrlashing. Qay birini qanday yo'sinda amalga oshirish mumkinligi borasidagi qarashlaringizni o'rtoqlashing.

12. Bo'limdagi "Ravshan" dostonidan olingan parchaga diqqat qiling. Undan Zulxumorda mavjud bo'lgan sifatlarni ajrating. O'zbek xalqining go'zallikka qo'ygan mezonini birma-bir yozing. Sizningcha, ularning qay biri haqiqatga yaqin qay biri mubolag'a? Siz, bo'lajak adabiyot o'qituvchisi, mazkur matn yuzasidan o'quvchilaringizni mustaqil mulohaza yuritishga undaydigan qanday savol va topshiriqlarni tavsiya etgan bo'lardingiz?

13. Zamonaviy ta'lim-tarbiya tizimiga xos bo'lgan: *"o'quvchidagi ichki imkoniyatlarni uyg'otib, uni o'zi o'qiydigan va o'zini o'zi tarbiyalaydigan qilish, bu jarayonda o'zi tashabbuskor, ehtiyojmand bo'lishiga erishish lozimligi hamda butun kuchni shunga yo'naltirish"* tarzidagi vazifalarning mohiyatiga kirishga urinib ko'ring. Bularni adabiy ta'lim amaliyotida qanday tashkil etish mumkin deb o'ylaysiz? Fikrlaringizni o'rtoqlashing.

14. O'quvchilarni kitob o'qishga jalb qilish borasidagi taklif va mulohazalarga diqqat qiling. Ularni yana qanday tavsiyalar bilan boyitgan bo'lardingiz?

15. "Oltovlon va yettinchi" afsonasini topib o'qing. Asar matnidan ajratib olingan (kursivdagi) ko'chirmalar asosida mantiqli savol va topshiriqlar tuzing. Ko'chirmalarni muhokamaga torting. Munosabat bildiring.

16. "Mashrab g'azallarida ilohiy ishq tavsifi" mavzusida tahlil-insho yozing. Har biringizning ishingizni birgalikda muhokama qiling. Xato va kamchiliklari ustida suhbatlashing.

8-MAVZU. TA'LIM TEXNOLOGIYALARI. ADABIY TA'LIMDA HAMKORLIKDA O'QITISH TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH

Reja:

1. *Ta'lim amaliyotida o'qitishning turfa texnologiyalari.*
2. *Sinergetika, ya'ni hamkorlik ilmiy yo'nalish sifatida.*
3. *Ta'lim amaliyotidagi subyekt va obyekt munosabatlari.*
4. *Hamkorlik pedagogikasining asosiy maqsad va vazifalari.*
5. *Hamkorlikda o'qitish texnologiyasining afzalliklari va istiqboli.*
6. *Kichik guruhlarda hamkorlikda o'qitish.*
7. *Badiiy matnning didaktik tahlili namunasi.*

Dunyo tarbiyashunosligi amaliyotida, xususan, milliy ta'lim-tarbiya amaliyotida ham ta'lim texnologiyalaridan keng foydalanilmoqda. Adabiy ta'lim amaliyotida ham o'qitish texnologiyalari va ulardan amaliy faoliyatda qanday foydalanishni bilish bugungi talaba, ertangi o'qituvchiga qo'yiladigan talablardandir.

Texnologiya so'zi yunoncha "texne" – mahorat, san'at; "logos" – ta'limot ma'nolarini bildiradi. Bu so'z sanoatda yoki qishloq xo'jaligida tayyor mahsulot olish uchun ishlab chiqarish jarayonida qo'llanadigan usul va metodlar yig'indisini bildiradi. Ta'lim jarayoniga nisbatan esa o'qish va o'qitishning o'zaro uzviylikni, aloqadorlik bosqichlarini ajratish, ta'lim-tarbiya jarayonida belgilangan maqsadga erishish uchun bajariladigan ishlarni muvofiqlashtirish, ularning ketma-ketligi hamda bosqichma-bosqichligini ta'minlash, rejalashtirilgan barcha ishlarni talab darajasida bajarishni anglatadi.

Ya'ni ta'lim texnologiyasi tushunchasi ta'lim berish san'ati, ta'lim berish mahorati ma'nolarini ifodalaydi. «Yangi pedagogik texnologiya» deyilganda ta'lim berishning yangicha san'atini ishga solib uni samarali tashkil etish, jahon andozalari darajasiga ko'tarish nazarda tutiladi.

Ta'lim amaliyotida o'qitishning turfa texnologiyalari mavjud bo'lib shulardan biri hamkorlikka asoslangan ta'lim texnologiyasidir. O'qituvchi bilan ta'lim oluvchi hamkorligini tashkil etish muammosi barcha davrlarda ham o'ta dolzarb masalalardan bo'lib, mazkur

hamkorlikning nazariy asoslari pedagogik sinergetika doirasida tadqiq etilgan. Bu ta'lim beruvchi uchun ham, ta'lim oluvchi uchun ham o'z faoliyatini mustaqil tarzda tashkil etishga oid nazariy yondashuvlardan biri bo'lib, o'qituvchi-o'quvchi hamkorligini to'g'ri tashkil etish bilan bog'liq yangi dunyoqarashdir.

Sinergetika (yunoncha *sunergeia* – hamkorlik, hamjihatlik) – tizimlarning o'z-o'zini mustaqil tarzda tashkil etish nazariyasi, o'z-o'zini boshqarish, nomuntazam hodisalarni o'rganish, dunyoviy hodisalarni yangicha izohlash, tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy murakkab tizimli jarayonlarning tabiatini bilishga qaratilgan ilmiy yo'nalish, tafakkur usulidir¹.

Sinergetika, ya'ni hamkorlik ilmiy yo'nalish sifatida XX asrning 60–70-yillarida shakllangan. XXI asrda paydo bo'lgan pedagogik sinergetikani esa ta'lim-tarbiya jarayoni subyektlari – o'qituvchi va o'quvchi hamkorligini anglashga ko'maklashadigan nazariy-amaliy yondashuv sifatida talqin etish o'rinlidir.

Ma'lumki, XX asrning oxiri XXI asrning boshlariga kelib, ta'lim jarayoni subyektlari faoliyatiga nisbatan yangicha yondashuvlar vujudga keldi. Bu yondashuvlarning ahamiyati shundaki, shaxslararo munosabatlar o'zaro hamkorlik jarayonida yangi sifat ko'rsatkichlariga ega bo'ladi va kutilgan natijani beradi. Pedagogik hamkorlik ta'lim jarayoni subyektlari faoliyatida yangicha sifat o'zgarishlarining shakllanishi va namoyon bo'lishiga ko'maklashadi. Pedagogik hamkorlikning muhim jihati shundaki, u ta'lim jarayoni subyektlari faoliyatini muayyan tarzda uyg'unlashtirishga xizmat qiladi.

Kuzatishlar ko'rsatmoqdaki, nafaqat turg'unlik, balki mustaqillikning dastlabki yillarida yaratilgan pedagogikaga oid darslik va ilmiy manbalarda ham «pedagogik hamkorlik» tushunchasi bevosita muammo sifatida ko'tarilmagan.

Vaholanki, pedagogik hamkorlik va uni o'qitish kechimida qo'llash zamonaviy ta'limda hal etilishi zarur bo'lgan muammolardandir. Maktab o'qituvchilari pedagogik hamkorlik, uning dialektik tabiati, o'ziga xos xususiyatlari, samaradorligi, bunday hamkorlikni tashkil etish yo'llari haqida etarlicha tasavvur, bilim va

¹ Азимов Э. Г., Шуккин А. Н. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). – Москва: “ИКАР”, 2009. – 448 с. С. 247.

tajribaga ega emaslar. Bularning barchasi mazkur hodisani har tomonlama tadqiq etish ehtiyoji mavjudligidan dalolat beradi.

Hamkorlik masalasining pedagogika ilmida chuqur o'rganilmaganligi sababi quyidagilardan iborat:

1) pedagogik hamkorlik hodisasi milliy pedagogika va didaktika uchun yangi fenomen ekanligi;

2) ta'lim jarayonini subyekt-subyekt asosida tashkil etish kechagi jamiyatda shakllangan talablar maqsadiga monand emasligi;

3) o'qituvchi va o'quvchi faoliyatida subyekt-obyekt munosabatlari barqarorlashib qolganligi;

4) ijtimoiy-siyosiy sabablarga ko'ra soha mutaxassislarining e'tiborini jalb qilmaganligi;

5) bu tushunchaning o'qituvchi o'rganib qolgan hokimlik faoliyatiga mos tushmasligi;

6) pedagogik faoliyatning tezkorligi, bilimlarni o'zlashtirishda o'quvchi erkinligining ustuvorligi va hk.lardir.

Pedagogik hamkorlik jarayon subyektlari uchun o'zligini namoyon qilish imkoniyatidirki, unda o'qituvchi bilan o'quvchining o'zaro hamkorligi: o'quvchining erkinligi; ijodkorligi; bu jarayonda tartibsizlikning namoyon bo'lishi singari jihatlarni yuzaga keltiradi.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasining afzalliklari va istiqboli. Pedagogik hamkorlik ta'lim subyektlari faoliyatining tadrijiy yo'lini namoyon qiladi. Pedagogik hamkorlik jarayonida o'qituvchi bilan o'quvchi faoliyati uyg'unlashib, ijodiy xarakter kasb etadi. U ta'lim jarayoni subyektlaridagi har bir o'ziga xos jihatni hisobga olishni taqozo qiladi. Pedagogik hamkorlikning yuzaga kelishi uchun o'qituvchi va o'quvchi pedagogik jarayonning o'zaro aloqador subyektlari darajasiga ko'tarilishlari kerak. Zero, o'quv-biluv jarayonining shaxsga yo'naltirilganligi markazida subyektlar orasidagi hamkorlik yotadi. O'quv-tarbiya jarayonidagi hamkorlik subyektlarning birgalikda yangi axborotlarni o'zlashtirishlari va ularni o'z faoliyatlarida ijodiy qo'llashlariga ko'maklashadi.

Ma'lumki, uzoq yillar davomida ta'lim tizimida ham turg'unlikka yo'l qo'yildi. O'qitish kechimidagi bir xillik o'quvchini itoatkor tinglovchiga aylantirdi. O'quvchi faoliyatining o'qituvchi tomonidan boshqarilishi ta'lim jarayonini bir tizim va qolipga soldi. Endilikda o'quvchi-o'qituvchi munosabatlariga bunday yondashuv ta'limning yangilangan maqsadiga javob bera olmasligi ayon bo'lib qoldi.

Pedagogik hamkorlik, avvalo, bilimlarni o'zlashtirishda jamoa bo'lib faoliyat ko'rsatishni nazarda tutadi va uning asosiy maqsadi – talitirokchilarning his-tuyg'uga asoslangan obrazli tafakkurini shakllantirishdir. Bu serqirra usuldan murakkab didaktik-ijodiy masalalarni echish, pedagogik amaliyotda esa o'quv-biluv muammolarini hal etish yo'li sifatida foydalaniladi. Bu usul o'quvchi tomonidan o'zlashtirilishi mo'ljallangan o'quv materialiga ijodiy yondashish imkoniyatini kengaytiradi.

Pedagogik hamkorlik jarayonida jamoa bo'lib ishlash guruhda mavzu doirasida yangi mushtarak g'oyalar tug'ilishiga zamin hozirlaydi. Tabiiyki, pedagogik hamkorlik texnologiyasi ta'lim jarayonida samaradorligi sinalgan ilg'or metodlardan foydalanishni taqozo etadi. Ta'lim jarayonida ulardan vaqti va o'rnida foydalanilsa, o'quvchining izlanuvchanlik qobiliyati muntazam rivojlanib borayotganini payqash mumkin. Hamkorlikda ishlaganda qo'yilgan muammoning yechimiga yo'naltirilgan savol va topshiriqlardan foydalanish o'quvchilarni yangi farazlar, his-tuyg'uga asoslangan xulosalar chiqarishga undaydi va bunga ma'lum miqdorda erishiladi ham. O'quvchilar o'z ijodiy qobiliyatlarini namoyon qilishga odatlanib boradilar.

Amerikada o'tgan asrning 60-yillaridan boshlab hamkorlikka asoslangan ta'lim jarayoni, o'qitish metod va usullari, o'quv topshiriqlari variantlarini ishlab chiqish, tajriba-sinovdan o'tkazishga kirishilgan va bu borada jahon pedagogikasi foydalanishiga arzigulik yutuqlar qo'lga kiritilgan. Ta'limiy ishlarni hamkorlikda tashkil qilishda quyidagi asosiy holatlar mujassamlashadi:

- 1) ta'limiy muammoning o'quvchi muhokamasiga dastlabki ko'rinishda qo'yilishi;
- 2) o'quvchida ta'limiy muammoning tahlili va buning uchun zarur bilimlar haqida tasavvur uyg'otish;
- 3) ta'limiy muammoni echish imkoniyatlarini aniqlash va chegaralash;
- 4) o'quvchi ongida uning shaxsiy dunyoqarashi va ilmiy-amaliy tushunchasi doirasida muammoni qayta shakllantirishga erishish;
- 5) qayta shakllantirilgan muammo variantlaridan qulayini tanlay olishga erishish;
- 6) hamkorlik uchun asosiy bo'lgan bosqichlardan o'tish;

7) qo'yilgan muammo yechimi talablariga asoslangan holda yondashuvlar yoki tayyor javoblarni bayon qilish¹.

Hamkorlik asosida o'rganishda (o'rgatish emas!) e'tibor subyekt sifatida muayyan o'quvchi emas, balki o'quvchilar guruhiga qaratiladi. Bu o'rinda o'qituvchi bilan o'quvchilar guruhi subyekt-subyekt munosabatlariga kirishadilar. Bunday jarayonning xarakterli jihati izlanuvchanlik faoliyatining birgalikda amalga oshirilishidir. Hissiy-obrazli muhokama va tanlov natijasida shaxslararo mustahkam birgalikdagi harakat vujudga keladi, hamkorlikka oid ishlab chiqilgan qat'iy talablar uni o'quv jarayonida to'g'ri amalga oshirilishiga asos bo'ladi. Mazkur murakkab va serqirra texnologiyadan ko'zlangan maqsad yo'lida foydalanish o'qituvchidan yuksak darajadagi bilim, pedagogik-psixologik tayyorgarlik, mahorat va fidoiylikni talab qiladi. Agar ta'lim beruvchida shu jihatlarning birortasi etishmasa yoki qaysidir jihatida «kemtik»lik sezilsa, mazkur jarayon o'rganish faoliyatiga aks ta'sir ko'rsatishi ham hech gap emas.

Pedagogik hamkorlikning o'ziga xos jihatlardan yana biri har xil ta'limiy sharoitlarda turlicha tabiatga, dunyoqarashga ega bo'lgan subyektlar imkoniyatlarini ro'yobga chiqara olishidir. Bu sohadagi dastlabki yondashuvlar shuni ko'rsatadiki, pedagogik hamkorlikka oid konsepsiyalar murakkab, muntazam bo'lmagan ochiq didaktik vaziyatlar, uning tarkibiy qismlari va tarbiya jarayonini qamrab oladi. Bugungi kunga kelib, ta'lim jarayonidagi hamkorlik ta'limni rivojlantiruvchi ilg'or g'oya sifatida namoyon bo'lmoqda. Zero, pedagogik hamkorlik tushunchasi ostida mustahkam nuqtai nazarga ega bo'lgan pedagogik yondashuvlar, nazariyalar, qonuniyatlar hamda pedagogik tizimlar birlashadi, mushtaraklik kasb etadi.

O'quv-tarbiya jarayoniga pedagogik hamkorlik g'oyasining tatbiq etilishi, an'anaviy pedagogik tafakkurda bir tomonlama qotib qolishga barham beradi. Bu nazariyani milliy tarbiyashunoslik amaliyotiga joriy etish alohida dolzarblik kasb etmoqda. Maktab o'quvchisida pedagogik hamkorlik asosida faoliyat ko'rsatish ko'nikma, malakalarini shakllantirish va rivojlantirishni boshlang'ich ta'lim jarayonidayoq tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Chunki ta'limning mazkur bosqichida o'quvchida ijodiy faoliyat ko'rsatishning ilk ko'rinishlari shakllanadi va o'zining rivojlanish bosqichiga kiradi.

¹<https://ru.wikipedia.org/wiki>. Википедия. Свободная энциклопедия.

Bolada ijodkorlik imkoniyatlarini yuzaga chiqarish va o'z-o'zini namoyon qilish ko'nikmalari tarkib topadi. O'qituvchi bilan muloqotga kirishish, hamkorlik, hamjihatlik ko'nikmalarini ta'limning ushbu bosqichida shakllantirish nihoyatda zarurligini amaliy tajribalar yaqqol ko'rsatmoqda.

Hamkorlikda o'qitish g'oyasi Amerikadagi J. Xopkins universiteti professori R. Slavin, Minnesot universiteti professori R. Jonson, D. Jonson, Kaliforniya universiteti professori Sh. Sharonlar tomonidan tahlil chiqilgan¹.

Amerika olimlari tomonidan yaratilgan hamkorlikda o'qitish g'oyasi, asosan o'quvchilarda DTS va fan dasturida qayd etilgan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishni nazarda tutadi. Isroil va yevropa olimlari tomonidan tavsiya etilgan hamkorlikda o'qitish nazariyasi o'quv materialini barcha o'quvchilar tomonidan qayta ishlash, loyihalashtirishni bahs-munozara asosida tashkil etishni nazarda tutadi. Mazkur g'oyalar bir-birini to'ldiradi, didaktik jihatdan boyitadi va bir-birini taqozo etadi.

Hamkorlikda o'qitish g'oyasi didaktikada o'tgan asrning 70-yillarda paydo bo'lgan. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi Amerika qo'shma shtatlari, Buyuk Britaniya, Kanada, Germaniya, Avstraliya, Niderlandiya, Yaponiya, Isroil mamlakatlari ta'lim muassasalarida keng qo'llanilmoqda. Tom ma'noda, pedagogik hamkorlik masalasi uzoq yillardan buyon dunyo didaktlari va pedagoglarini qiziqtirib kelgan. Jumladan, rus olimi V. M. Myasishevning qarashlarida, shaxs o'zaro hamkorlik va boshqalar bilan munosabat asnosida o'zligini namoyon etishi ta'kidlanadi. O'tgan asrning 80–90-yillarida ijtimoiypsixologiya, mehnat va boshqaruv psixologiyasi sohalarida hamkorlik faoliyatini amalga oshiradigan guruhlarga qiziqish birmuncha o'sdi. Rus olimi B. F. Lomov: *“insonning individual xususiyatlari jamoa bilan hamkorlikdagi faoliyati asnosida namoyon bo'ladi”*², deya ta'kidlagan edi.

Rus pedagogi B. G. Ananyev hamkorlikdagi faoliyatning muhim omili hisoblangan muomala madaniyatiga oid tadqiqotlarida o'qituvchining baholash, tahlil qilish, tarbiyachilik imkoniyatlari o'quvchilarning aqliy vaaxloqiy rivojlanishlari uchun muhim manba

¹ Азимов Э. Г., Шукин А. Н. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). – Москва: ИКАР, 2009. – С. 133.

² <https://ru.wikipedia.org/wiki/Википедия>. Свободная энциклопедия.

ekanini alohida ta'kidlagan¹. A. V. Petrovskiy esa shaxslararo munosabatlar jamoadagi faoliyatdan kelib chiqishini o'rganish holda, ta'lim jarayonida o'qituvchining o'quvchilar bilan hamkorligini tashkil etish faqat ularning muloqot, muomalaga nisbatan ehtiyojini qondirish vositasi emas, balki o'quv materialini o'zlashtirishning ham muhim sharti ekanligini ta'kidlaydi².

Hamkorlikda o'qitishning asosiy g'oyasi o'quv topshiriqlarini nafaqat birgalikda bajarish, balki hamkorlikda o'qish-o'rganishdir. Hamkorlikda o'qitish har bir o'quvchini kundalik qizg'in aqliy mehnatga, ijodiy va mustaqil fikr yuritishga o'rgatish, shaxs sifatida onglilik, mustaqillikni tarbiyalash, har bir o'quvchida shaxsiy qadr-qimmat tuyg'usini vujudga keltirish, o'z kuchi va qobiliyatiga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, tahsil olishda mas'uliyat hissini shakllantirishni ko'zda tutadi.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi har bir o'quvchining ta'lim olishdagi muvafaqqiyati guruh muvafaqqiyatiga olib kelishini anglagan holda mustaqil va sidqidildan aqliy mehnat qilishga, o'quv topshiriqlarini to'liq va sifatli bajarishga, o'quv materialini puxta o'zlashtirishga, o'rtoqlariga hamkor bo'lib, o'zaro yordam uyushtirishga zamin tayyorlaydi.

Hamkorlikda o'qitishda o'quvchilarga topshiriqni hamkorlikda bajarish uchun ko'rsatma berilishining o'zi etarli emas. O'quvchilar tom ma'nodagi hamkorlikda ishlashlari, har bir o'quvchi qo'lga kiritgan muvafaqqiyatidan quvonishi, bir-biriga sidqidildan yordam berish hissini tuyishi uchun qulay ijtimoiy-psixologik muhit vujudga keltirilishi zarur. Mazkur texnologiyada o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish sifatini aniqlashda ularni bir-biri bilan emas, balki har bir o'quvchining kundalik natijasi avval qo'lga kiritilgan natijasi bilan taqqoslanadi. Shunda har bir o'quvchi o'zining dars davomida erishgan natijasi o'z jamoasiga foyda keltirishini anglagan holda mas'uliyatni his qilib, ko'proq izlanishga, bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga intiladi.

O'quv jarayonida o'zaro hamkorlikka asoslangan do'stona muhitni vujudga keltirish shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonini tashkil etish nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyatga ega.

¹ O'sha asar.

² <https://ru.wikipedia.org/wiki/Википедия>. Википедия. Свободная энциклопедия.

Maktabdagi o'quv-biluv jarayoni o'quvchining huquqlari va e'timliklarini himoya qilish asosida tashkil qilinishi lozim. O'qituvchi bilan o'quvchi orasida o'zaro hamkorlik muhiti yaratilayotganda barcha o'quvchilarning imkoniyatlari va ehtiyojlari hisobga olinishi juda muhimdir. Bu jarayonda o'zaro tenglik muhiti hukmron bo'ladi, o'quv jarayonida o'quvchilarning aksariyat muammolarini echishga ko'maklashadigan ta'lim-tarbiyaviy muhit tashkil etiladi. Ta'lim-tarbiya maktab, ota-onalar, mahalla va o'quvchilar jamoasi hamkorligida, demokratik va tolerantlik tamoyillari asosida amalga oshiriladi. Bu jarayonda o'quvchilar oddiy ta'lim oluvchilar emas, ta'lim-tarbiya jarayonining teng huquqli, hamkorlik asosida jipslashgan ishtirokchilari bo'lishlariga erishiladi. Sinfdagi barcha o'quvchiga bir xil muomala va munosabat, hamkorlikdagi ta'lim, o'quvchi, o'qituvchi va ma'muriyat orasida do'stona munosabat ustuvorligi asosida sifatli ta'lim berish jarayoni vujudga keladi. O'quvchilarga nisbatan do'stona munosabat muhiti o'zaro adolatli munosabatlar zahirida yaratiladi. Adolat bor joyda haqiqat, haqiqat bor joyda o'zaro hurmat muhiti hukm suradi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, o'qituvchi o'quv-biluv jarayonini tashkil etar ekan, har bir o'quvchining betakror ekanligi, uning ta'lim-tarbiyasi oilaviy muhitga, sinfdagi mavqeyiga, ustozlarining munosabatiga, ruhiy kechinmalari va kayfiyatiga ko'p jihatdan bog'liq bo'lishini unutmasligi lozim. Ta'lim muassasasidagi har bir pedagog o'quvchining qalbidan chuqur joy ola bilishi, ularning hurmat-ehtiromiga erishishi, o'quvchining eng yaqin kishilaridan biriga aylanishi, quvonch va tashvishiga sherik bo'lishi, muammoli vaziyatlarda to'g'ri yo'l ko'rsata olishi zarur. Shunda ta'lim-tarbiya oldiga qo'yilgan maqsadga erishish mumkin bo'ladi.

O'qituvchi bilan o'quvchilar orasidagi o'zaro hamkorlik muhitini shakllantirish uchun, avvalo, quyidagilarni amalga oshirish kerak:

- o'quv jarayonida ijodkorlik muhitini vujudga keltirish;
- o'quvchilar faoliyatini muayyan tartib asosida tashkil etish;
- o'quvchilar orasida o'zaro do'stona muhitni vujudga keltirish kabilar.

O'zaro hamkorlik va do'stona muhitni vujudga keltirish uchun o'quv-tarbiya jarayonining ochiq xarakter kasb etishi va o'zaro axborotlar almashinuvi uchun qulay bo'lishini ta'minlash muhimdir.

Ta'lim jarayonida o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish uchun o'quvchilarda ongli faoliyat ko'rsatish ko'nikmasini tarkib toptirish, ularni mustaqil, ijodiy fikrlashga o'rgatish alohida ahamiyatga ega.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarning hamkorlikka asoslangan ijodiy faoliyatini tashkil etish uchun axborotlardan oqilona foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bilimlarni modellashtirish turli ilmiy yo'nalishlarda turli maqsadlarda amalga oshiriladi. Ekspert tizimlar nazariyasida bu metoddan intellektual vazifalarni kompyuter vositasida echishda foydalaniladi. O'quv muhitida o'qituvchi ham jismoniy, ham virtual ekspert model sifatida namoyon bo'ladi. Pedagogik amaliyotda o'quvchilarning bor imkoniyatlarini ularning o'zlari uchun maksimal darajada yuzaga chiqara bilish muhim ahamiyat kasb etadi. Ya'ni yangi bilimlarni o'zlashtirishda bor imkoniyatdan samarali foydalana bilish zarur. Jumladan:

1) o'quvchilar aniq ilmiy, amaliy muammolarni echishga jalb etilishi, bu jarayonda ular muayyan qiziqishlar hosil bo'lishi;

2) mantiqiy-lingvistik modeldan topshiriqlarni echish vositasi va ularning yechimlarini tekshirish usuli sifatida foydalanish imkoniyati vujudga kelishi;

3) qo'lga kiritilgan natijalar aksariyat hollarda elektron ko'rinishlarda ifodalanishi lozimligi.

Buning natijasida o'quvchilarda kompyuterdan ma'lum maqsadlar yo'lida foydalanishga oid dastlabki ko'nikmalar tarkib topadi va har bir o'quvchida o'zi uchun zarur bo'lgan axborotlar bazasini yaratishga bo'lgan intilish vujudga keladi. Bu jarayonda ular birgalikda harakat qila boshlaydilar, har bir o'quvchi o'z bilim zahirasini sinfdoshlari egallagan bilimlar yordamida boyitish imkoniyatini qo'lga kiritadi. Bunda ularga yangi bilimlar bilan boyitilgan o'quv materiallari yaqindan yordam beradi. O'qituvchi intellektual xarakterdagi o'quv topshiriqlaridan kengroq foydalangan holda hamkorlikka asoslangan o'quv muhitini vujudga keltirishi lozim. Ta'lim-tarbiya tizimiga bunday yodashuvni tatbiq qilish natijasida maktab ta'limida yangi yo'nalish vujudga keladi.

Pedagogik hamkorlik va hamjihatlikka asoslangan bilimlar to'rt ko'rinishda namoyon bo'ladi. Hamkorlik nazariyasi:

1) fundamental ilmiy nazariyalarning vujudga kelishiga asos bo'ladigan, umumiy ilmiy nazariyalar, dunyoqarashlar, g'oyalar, tamoyillar, timsollar, tasavvurlar tizimidan iborat paradigma;

2) nomuntazamlilik, ochiqlik, o'tish xarakteridagi jarayonlarning tengsizligiga asoslangan g'oya atrofida birlashadigan muayyan xususiy ilmiy qarashlar;

3) tizimlarning o'z-o'zini tashkil etish yoki o'tish jarayonlariga oid umumiy ilmiy yondashuvlar;

4) ilmda mavjud bo'lgan hukmron tafakkurga barham berish, o'zgarimas tushunchalar va barqaror tafakkur, o'tish xarakteridagi daliliy shakllar va obrazlar, yangicha dunyoqarash¹.

Ta'lim jarayonida o'quvchilar faoliyatini, dunyoqarashini har tomonlama o'zgartirish tamoman yangi ilmiy-pedagogik asoslarga tayanishni taqozo qilmoqda. Umumiy o'rta ta'lim oldiga qo'yilgan maqsad, vazifa va tamoyillarni amalga oshirish nafaqat ta'lim mazmunini o'zgartirishni talab qilmoqda, balki uning shakllari, metodlari, o'qituvchi faoliyatini ham takomillashtirishga bo'lgan ehtiyoj kuchaymoqda.

Kichik guruhlarda hamkorlikda o'qitish. Bu yondashuvda kichik guruhlar sinfdagi o'quvchilarning sonidan kelib chiqqan holda to'rt, olti, sakkiz o'quvchidan tashkil topadi.

O'qituvchi avval mavzuni tushuntiradi, so'ngra o'quvchilarning mustaqil ishlari tashkil etiladi. O'quvchilarga berilgan o'quv topshiriqlari ham shuncha qismga ajratilib, har bir o'quvchi topshiriqning ma'lum qismini bajaradi. Topshiriq yakunida har qaysi o'quvchi o'zi bajargan qism yuzasidan fikr yuritib, o'rtoqlarini o'qitadi, so'ngra guruh a'zolari tomonidan topshiriq yuzasidan umumiy xulosa chiqariladi.

O'qituvchi har bir kichik guruh axborotini tinglaydi vabilimlarni nazorat qilishning turfa usullaridan foydalangan holda aniqlab baholaydi. O'quvchilarning kichik guruhlardagi o'quv faoliyati o'yin (turnir, musobaqa) shaklida ham tashkil etilishi mumkin. O'qituvchi va o'quvchining hamkorlikdagi faoliyatiga doir tadqiqotlarda asosiy e'tibor o'zaro munosabatning rivojlanishini o'rganishga qaratiladi, o'qitishni guruhli tashkil qilish jarayoni bayon qilinadi.

Psixolog A. V. Petrovskiy jamoadagi shaxslararo munosabatlar faoliyatidan kelib chiqishini o'rganib, ta'lim jarayonidagi o'qituvchining o'quvchilar bilan hamkorligini tashkil qilish faqat

¹ <https://ru.wikipedia.org/wiki>. Википедия. Свободная энциклопедия.

ularni muloqotga bo'lgan ehtiyojini qondirish emas, balki o'quv materialini o'zlashtirishning ham vositasi ekanligini ta'kidlaydi¹.

O'zaro hamkorlikning muhim omili va o'quvchilarning o'zaro munosabati xususiyatini belgilovchi asos o'qituvchi bilan o'quvchi hamkorligining shakllaridir. Hamkorlikdagi o'quv faoliyati o'qituvchi va o'quvchi munosabatlarining va birgalikdagi xatti-harakatlarining alohida turidirki, u o'zlashtirish obyektini, bilim faoliyatining barcha qismlarini qayta qurishni ta'minlaydi.

Hamkorlikdagi o'quv faoliyatining maqsadi o'zlashtiriladigan faoliyat va birgalikdagi harakatlar, munosabat hamda muloqotning boshqarish mexanizmini yaratishdir. Hamkorlikdagi faoliyatning mahsuli o'quvchilarda ilgari surgan yangi g'oyalar va o'zlashtirilayotgan faoliyatning mohiyatiga bog'liq maqsadlar hamda sheriklikdagi shaxs pozitsiyasini boshqarish istaklarining yuzaga kelishidir.

Pedagogika-psixologiya fanida hamkorlikning quyidagi sakkizta shakli mavjud:

- 1) faoliyatga kirishish;
- 2) o'qituvchi bilan o'quvchi hamkorlikda bajaradigan mustaqil harakatlar;
- 3) o'qituvchi harakatni boshlab beradi va unga o'quvchini jalb etadi;
- 4) taqlid harakatlari (o'qituvchidan ibrat olgan o'quvchi ana shu namunaasosida harakat qiladi);
- 5) madad harakatlari (o'qituvchi o'quvchiga oraliq maqsadni va unga erishish usullarini tanlashda yordam beradi hamda oxirgi natijani nazorat qiladi);
- 6) o'z-o'zini boshqarish harakatlari (o'qituvchi faqat umumiy maqsadni ko'rsatishda va oxirgi natijani baholashda ishtirok etadi);
- 7) o'z-o'zini ko'rsatuvchi harakatlar;
- 8) o'z-o'zini uyushtiruvchi harakatlar².

Hamkorlik faoliyatini takomil bosqichiga o'tish jarayonida o'zaro ta'sir o'tkazish harakatini baholashdan o'z-o'zini baholash darajasiga ko'tarilishi sodir bo'ladi. Ushbu jarayon hamkorlik dinamikasidan dalolat beradigan eng muhim omil vazifasini o'taydi.

¹ <https://ru.wikipedia.org/wiki/Википедия>. Википедия. Свободная энциклопедия.

² Азимов Э. Г., Шуккин А. Н. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). – Москва: "ИКАР", 2009. С. 134.

Bugun «interfaol metodlar» nomi bilan ta'lim amaliyotiga kirib kelayotgan metodlarning barchasi (fikriy hujum, guruhlarda ishlash, qarorlar shajarasi, Ven diagrammasi, yelpig'ich, yangilangan suhbat metodi va hk.) mazkur hamkorlikda o'qitish texnologiyasi asosini tashkil etadi. Mlumki, bu metodlarning barchasida o'ziga xos va mos usullardan foydalaniladi.

Hamkorlik pedagogikasini novator-pedagoglar pedagogik jarayon ishtirokchilari (o'qituvchi va o'quvchilar) o'rtasida insonparvarlik tamoyiliga asoslangan o'zaro munosabatlari tashkil etishini ta'kidlab o'tadilar. Hamkorlik pedagogikasining konseptual qoidalari bir qator psixolog va pedagog olimlarning qarashlarida ifoda etilgan. Pedagogik hamkorlik g'oyalari bugungi kunda boshqa barcha pedagogik texnologiyalar mazmuniga ham singdirilgan.

Adabiy ta'limda o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyatini tashkil etishga qaratilgan dars namunasi sifatida hamkorlarning har ikkalasiga ham shoir sifatida yaxshi tanish bo'lgan M. Yusufning shaxsini kashf etish mashg'ulotini keltirish mumkin. Ayonki, inson Muhammad Yusufni hamkorlarning har ikkalasi ham yaxshi bilmaydi. Bu dars nafaqat o'quvchi uchun qiziqarli, balki o'qituvchining o'zi uchun ham ma'lum yangiliklarni kashf etish imkonini beradi. Uni bilish uchun birgalikda shoir asarlari mohiyatiga kirish taqozo etiladi.

Badiiy matnning didaktik tahlili namunasi

Muhammad Yusuf she'riyati

Muhammad Yusuf ijodidan namunalar umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun yaratilgan "Adabiyot" darsligida berilgan bo'lib, dasturda ularni o'rganish uchun ikki soat belgilangan. Darslikda shoarning «Vatan», «Mehr qolur», «Yurtim, ado bo'lmas armonlaring bor» va «Biz baxtli bo'lamiz» she'rlari o'rin olgan¹. Ularning dasturiy talqini quyidagicha: *«Mehr qolur» she'rida dunyodagi barcha narsalar o'tkinchi, faqat insonlar o'rtasidagi mehr-oqibat, muhabbatginaabadiy ekanligining samimiyat va mahorat bilan*

¹ Олимов С., Ахмедов С., Кучкоров Р. «Адабиёт». 8-синф ўқувчилар учун дарслик-мажмуа. –Т.: Гафур Ғулوم номидаги НМИУ, 2019. – 296–309-б.

*kuylanishi. Muhammad Yusuf she'rlarining jozibadorligi, o'ynoqiligini ta'minlab turgan nozik lirizm, samimiyluk va musiqiylik. "Yurtim, ado bo'lmas armonlaring bor" she'ri fidoyi va dardkash farzandning ona yurt tarixiga kuyunchakligi poetik ifodasi ekanligi. She'rdagi tilga olingan siymolarning yurtimiz tarixidagi o'rni". "Biz baxtli bo'lamiz" she'rida oshiqlik va insonga xos bo'lgan samimiy tuyg'ularning tarannum etilishi. Tuyg'ularni ifodalashda shoir mahorati. Insonlarga xos bo'lgan muhabbat Yaratganning buyuk bir ne'mati ekanligi va uning har kimga ham taqdim etilavermasligi. She'rdagi baxtli bo'lish hissi va bunga bo'lgan ishonch taqini"*¹.

Har qanday adib asarini o'rganishdan oldin o'quvchi uning shaxsi haqida imkon qadar mukammal ma'lumotga ega bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Shunda uning ijodini to'laroq anglash imkoniyati ortadi. "Adabiyot" dasrliklarida avval adibning tarjimai holi bilan bog'liq ma'lumotlar taqdim etilishi ham shundan. 8-sinf darsligida M. Yusuf haqida berilgan hasbi hol ham uning hayotiy faoliyatini ochib berishga qaratilgan. Lekin bu bilan o'quvchi uning shaxsi haqida mukammal ma'lumotga ega bo'lolmaydi. Darsda o'qituvchi tomonidan shoir shaxsi bilan bog'liq bir qator qo'shimcha ma'lumotlarning taqdim etilishi o'quvchiga uning asarlarini to'laroq anglash, chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi. Bunday qo'shimcha ma'lumotlar uchun o'qituvchi «Kiyikso'qmoqdagi yo'lovchi» kitobiga murojaat qilishi ham mumkin².

Milliy tarbiyashunoslikda: "Millatning ulug'lari o'z shaxsi bilan o'sib kelayotgan avlod ma'naviyati shakllanishi va rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi" degan qarash mavjud. Yosh avlod ulug'lar shaxsi ko'magida o'z-o'zini tarbiyalashi uchun ularning shaxsiga xos sifatlarni bilishi, ulardan ta'sirlanishi, hayratlanishi va bahra olishi kerak.

Ulug'lardagi o'quvchini hayratga solgan, uni ta'sirlantirgan, havasini uyg'otgan sifatlar unga asta-sekinlik bilan "yuqa" boshlaydi. Hayrat va havas ta'sirida shoir yoki yozuvchi shaxsidagi o'quvchi tuyg'ularini junbushga keltirgan fazilatlar hech qanday tashqi zo'riqishlarsiz, pand-nasihatlarsiz o'quvchi shuuridan, ruhiyatidan joy

¹ Узвийлаштирилган давлат таълим стандарти ва ўқув дастури. Она тили. Адабиёт. Ўзбек тили. (5-9-синфлар). –Т.: РТМ, 2010 йил. 82-бет.

² Қ. Йўлдош., Қ. Хусанбоева, М. Йўлдошева. Кийиксо'қмоқдаги йўловчи. Монография. – Т.: ЎЭМЭ, 2014.

ola boshlaydi. Adiblarning bunday fazilatlarini o'quvchilarga ochib berish adabiyot o'qituvchisining vazifasi hisoblanadi.

Shoir Muhammad Yusufning shaxsi ham, avvalo, uning asarlarida o'z ifodasini topgan. O'qituvchi har qanday muallifning «men»i bilan bog'liq sifatlarni uning yozganlaridan topa bilishi, adabiy ta'lim uchun muhim ahamiyat kasb etadi. O'z topildiqlarini o'quvchilari bilan bo'lishmay, ularni o'quvchilarning o'zlari kashf etishlariga imkon yaratishi uning o'qituvchilik mahorati namunasidir.

Shu ma'noda, avval shoirning shaxsi berkitilgan asarlarini kichik guruhlardagi o'quvchilarga taqsimlab beriladi:

*Osoyishta o'tmadi biror kunim,
Talashib, tortishib tolmadim.
“Og'irroq bo'l inim, siporoq bo'l inim...”
Men o'z bilganimdan qolmadim.*

*Quvroq bo'l deyishdi, yolg'on ham kerak,
Jindek xushomad ham. Quloq solmadim.
Oqni oppoq ko'rdim, qorani qora,
Men o'z bilganimdan qolmadim.*

*Ko'nglim sezar, endi bu yog'i ayon,
Do'stlarim... do'stlarim, baxtli bolaman:
Yo Toshkentda eng zo'r shoir bo'laman,
Yo uyimga ketib, ariq bo'yida
Yalpizga suyanib o'lib qolaman!*

“Mehrim qattiq bo'ldi...”

O'qituvchi va o'quvchilar hamkorligiga asoslangan bunday darslarda kichik sheriklar shoir shaxsiyatidagi fazilatlarini to'laroq his qilishlari uchun katta yoshli hamkor o'z qarashlari-yu xulosalarini o'quvchilarga uqtirish yo'lidan bormay, shoirning misralarga tizilgan o'zligini quyidagi shaklda savol-topshiriqlarga aylantirmog'i talab etiladi: «Birinchisi to'rtlikka e'tibor qarating: undan shoirning shaxsiga xos qanday sifatlarni ilg'ash mumkin? “Og'irroq bo'l inim, siporoq bo'l inim...”, “Quvroq bo'l, yolg'on ham kerak. Jindek xushomad ham” degan gaplar kimga tegishli deb o'ylaysiz? Siz bu fikrga qo'shilasizmi yoki yo'qmi? Nega? Nima deb o'ylaysiz, shoir “...o'z

bilganidan qolma”ganida nimalar nazarda tutilgan? U to’g’ri qilganmi, yo’qmi? Sizning nazaringizda, uning o’zi bilganlari nimalardan iborat bo’lishi mumkin? She’rdagi «*Oqni oppoq ko’rdim, qorani qora*» satrlarini qanday tushinish mumkin? Bu, sizningcha fazilatmi yoki illatmi? Shoirning: “*Ko’nglim sezar, endi bu yog’i ayon*” degan e’tirofini qanday tushundingiz? Shu misralar zamirida shoir shaxsiga xos bo’lgan qanday sifatlarni ilg’adingiz? O’zingizni u bilan taqqoslang. Ayting-chi, Muhammad Yusuf o’zi aytmoqchi: “*Toshkentda eng zo’r shoir*” bo’loldimi, yo’qmi? Buni siz nimalarda ko’rasiz?» va hokazo.

Bu savol-topshiriqlar bilan ishlash jarayonida o’qituvchining roli faqat yo’naltirib turishdan iborat bo’ladi. Haqiqatlarni o’quvchilarning o’zlari kashf etadilar. She’rdagi muallif shaxsini ochib beruvchi jihatlar umumlashtirilib alohida sanaladi va ham xattaxtaga, ham daftarga yozib olinadi.

*So’ngra quyidagi ikki misraga o’tiladi:
Shamoldek el, suvdek tosh,
Hech kimsaga bukma bosh...*

“O’g’il bo’lsang...”

O’g’il bolaga shunday talab qo’ya bilishga ruhan o’g’il bola bo’lgan odamgina qodir. Chin shoir ilohiy holatga tushganda, faqat ko’nglidagi rost tuyg’ular qog’ozga to’kiladi. O’qituvchi aniqlashga urinib ko’rsin-chi, sheriklari – o’g’il bolalar bu talabga qanchalik javob berisha olarkin? Ularning qo’llaridan «*shamoldek elib, suvdek toshib*» yashash kelarmikin? Ular boshqalarga bosh egmay yashashning nima ekanligini bilisharmikin? O’zlari bunga qodirmikin? Bu sifatlarning muallifga qanchalik daxldor ekanligi haqida o’ylab ko’rishsin.

Quyidagi satrlarda ichki “Men”ning dardlari ifodalangan:

*Tug’ildingmi demak yon,
Shoh qo’lida zanglagan
Qilich bo’lma hech qachon.
Undan ko’ra bitta mard
Qul qo’lida xanjar bo’l!..
O’g’il bo’lsang o’jar bo’l,*

*Qolgan bari safsata.
Erking uchun, el uchun
Nomusingga navkar bo'l.*

“O‘g‘il bo‘lsang...”

Bu misralar –shoir o‘zligining ifodasi. Kichik guruhlardagi hunkorlar bu haqda ham birgalashib o‘ylab ko‘rsinlar. Bunday gaplarni odam shunchaki aytishi mumkin emas. Tabiatan shunday xarakterga ega bo‘lgan odamgina bu kabi sifatlarni ilg‘aydi, ularga nom topadi va so‘z bilan ifodalay biladi. O‘qituvchi sheriklarini o‘ylashga yo‘naltirarkan, ularga qator savol-topshiriqlar bilan murojaat qiladi. Ayni zamonda, bu savol-topshiriqlar haqida o‘zi ham o‘ylashi, ularga o‘zining ham javobi tayyor bo‘lishi shart: “O‘g‘il bola”ning sizga qo‘yayotgan talabiga qanday qaraysiz? Talab sizga ma‘qulmi, yo‘qmi? Nega? «O‘jar»lik, sizningcha fazilatmi yoki illatmi? Fikringizni asoslang. Shoirning «*Nomusingga navkar bo‘l*» degan talabini qanday tushundingiz?» Bu satrlar zamiridan o‘quvchilar topgan, shoirga xos bo‘lgan sifatlar ajratib olinib yozib qo‘yiladi.

Muhammad Yusufning ilohiy tuyg‘u – muhabbatga ham munosabati o‘zgacha: “*Sevdingmi, yuz yil kut, Sevmasang unut!*”- deydi “Sevgi sadosi” she‘rida. Sevish va muhabbat hissi haqida ayuhannos solish, bizning yigitlarimizdek jamoat transporti yoki bog‘lardagi o‘rindiqlarga, ko‘cha-ko‘ylarda devorlarga sevgilisining ismini yozib qo‘yish o‘g‘il bolaning ishi emas. Shoirning nazarida xatto buni ma‘shuqaga aytish ham shart emas. Chunki uningcha: “*Suymoq bu – gulxanda kuymoq azali*”. Ma‘lumki, inson, ko‘pincha, o‘zida yo‘q hisning nima ekanligini ham bilmaydi. Shoir yozyaptimi, demak bu tushunchalarning hammasidan xabardor, hammasi uning o‘zida u yoki bu darajada mavjud. Hamkorlar satrlardagi shoirning xarakteriga xos bo‘lgan katta haqiqatlarni birgalikda topishlari va o‘quvchilar daftarlariga, o‘qituvchi esa xattaxtaga qayd etib borishlari maqsadga muvofiqdir.

*Men beun sevarman, men jim sevarman,
Qiyomatgacha shul sukutdadirman.*

“Men bittadurman”

O'qituvchi bu misralar bilan o'quvchilarni tanishtirib, so'ng ularga: "Shu ikki satrga tayangan xolda shoir shaxsiga xos bo'lgan sifatlarni ochishga urinib ko'ring. Nima deb o'ylaysiz, Qiyomatgacha ichda saqlanadigan muhabbat kimga tegishli bo'lishi mumkin? Bu misralardan shoirga xos bo'lgan qanday fe'l-atvorni ilg'ash mumkin? Sizningcha, muhabbatini ichda saqlashdan oshiqqa nima naf?» singari savol-topshiriqlarni berishi mumkin. Olingan natijalar yana qayd etib boriladi.

*Men ham o'sha-o'shaman, nodon,
Goh pand berib, gohida pand eb.
Mashhur qil deb so'rab Xudodan,
Tilamabman baxtli bo'lay deb...*

"Muddao"

Shoirilar, bir qaraganda hamma qatori oddiy odamday, bir qarasa, ilohiy yaratiqday. Ba'zan, jayronlarga tug'ishgan og'a bo'lishni, kapalaklar bilan oshno tutinishni, momoqaymoqlarga jo'ralikni-yu, qizg'aldoqlarga himoyachilikni istab qolishadi, goh qarasangiz, oddiy insoniy baxtga tashna. O'qituvchi sheriklariga yuqoridagi misralardan shoir shaxsini qidirishga undovchi savol bilan murojaat qilgani ma'qul. Buyuklik va oddiylikni o'quvchilarning o'zlari, o'z darajalarida farqlaganlari durust.

*Yo'ling kesib o'tsam – o'zim xijolat
Uzoqdan bir seni ko'rsam kifoyat,
Bir nigohing o'zi menga inoyat,
Seni hech kim sevolmaydi meningdek.*

"Suvpari"

O'quvchilar yuqoridagi misralarga tayanib "yo'lini kesib o'tish" tushunchasi haqida mulohaza yuritsinlar. Bu qanday tushuncha? U xalqimizda qanday vaziyatlarda qo'llanadi? Shunga asoslangan holda shoirning milliy qadriyatlarga munosabati haqida o'ylab ko'rsinlar. Hamkorlarning kattasi (o'qituvchi) juda yaxshi bilsa kerak, o'zbeklarda ayol zoti erkakning oldidan kesib o'tmaslik odati bor. Bu erkakka hurmatsizlik sanaladi. Lekin bu odatning muhabbatga qanday daxli bo'lishi mumkin? Muhabbat tuyg'usini har kim o'zicha tushunadi. Oshiqning ma'shuqasiga hurmati shunchalarki, uning

oldiga chiqishga, u bilan yuzma-yuz bo'lishga ichki qudrati etmaydi. Mobodo, chiqa olgan taqdirda ham hayajon, xijolat qurshovida qoladi. O'quvchilar oshiq ma'shuqasini shunday seva olishiga ishonisharmikin? Bugungi she'rxon ham shundoq seva olarmikin? O'quvchi shular haqida o'ylab ko'rsin, munosabat bildirsin.

*Muhabbat, ey go'zal iztirob,
Ey ko'hna dard, ey ko'hna tuyg'u.
Ko'kragimga qo'lingni tirab,
Yuragimni to'kib qo'yding-ku.*

“Muhabbat”

Yuqoridagi to'rtlikni o'qib bergach, o'qituvchi o'quvchilar e'tiborini shoirning so'z qo'llashdagi, fikr ifodalashdagi mahoratiga qaratadi. Muhabbat atalmish qadim tuyg'uning shoir qalbiga kirib kelishi ifodasi tasviri ham o'quvchilarning nazaridan chetda qolmagani ma'qul. Bu M. Yusufning she'riyatdagi, shoir sifatidagi o'ziga xos xususiyatidir.

*So'rsang, sevinchimdanda o'kinchim ko'proq,
Sendan-da kumushroq sochimdagi oq.
Yilim kelmay turib, yilim ketmoqda,
Ko'zda tabassum-u kiprikda titroq...*

“Yangi yil kechasi” she'ridan olingan bu misralar shoir hayoti, turmush tarzining tasviri. O'quvchilar bu misralarni o'zlari sharhlasanlar. Ulardan shoirning shaxsini qidirsinlar. Buning uchun tarbiyalanuvchilarga quyidagi savol-topshiriqlar bilan murojaat qilinsa, maqsadga muvofiq bo'ladi: “Sendan-da kumushroq sochimdagi oq” deb shoir kimga murojaat qilayotir deb o'ylaysiz? “Ko'zda tabassum-u kiprikda titroq...”ni qanday tushunish mumkin? O'ylab ko'ringchi, ko'zda nima ifodalanayotir-u kiprikda nimaning tasviri? Bu satrlardan muallif xarakteriga xos bo'lgan xususiyatlarni toping» va hk.

*Mening kimligimni bilmaydi hech kim,
Men bir g'alatiman, men – alohida.
Ko'zimning yoshini keladi ichkim,
Tilimni chaynagim kelar gohida.*

*Mening kimligimni bilmaydi hech kim,
Men bir g'alatiman, men – alohida.
Kiyiklar qonini keladi ichgim,
Chayonni chaynagim kelar gohida.*

“Surat”

Shoirning alohidaligini o'quvchilar nimalarda ko'rishdiykin? Shu haqda ularning fikrini so'rash lozim. Ko'pchilik adabiyotshunoslar “asl tuyg'ularni so'z bilan ifodalab bo'lmaydi” deyishadi. Shoirning shaxsi bilan bog'liq yuqoridagi misralar uning o'zi ham o'zligini to'liq anglay olmaganidan dalolatdir, balki. Bu o'zni anglash – Allohni anglashdir degan g'oya bilan bog'liqmikin? O'quvchi shular haqida ham o'ylab ko'rsin.

«*Kiyiklar qonini keladi ichgim, Chayonni chaynagim kelar gohida*» satrlari zamirida qanday haqiqat yashiringan bo'lishi mumkin? Ular shoir xarakteridagi qanday sifatlardan dalolat berayotir deb o'ylaysiz? Kichik hamkorlar shular haqida o'ylarga to'larkan, muallifni o'zining darajasida tushunishga harakat qiladi, shoir yordamida o'z shaxsini anglashga, aniqlashga intiladi. Bu shoirning ham, o'qituvchining ham, adabiy ta'limning ham katta yutug'idir.

*Osmon cho'kib qoldi bu oqshom,
Yulduz bo'lib yog'ildi bir sas.*

*Bir mahalla nigohni ko'rdim:
«Yashash kerak, sevish shart emas».*

*Yoqa ushlab qolsin ko'rganlar,
Olovlarga otgum uni, bas.
Yonib ketsin charsillab qalbim,
Sevish kerak... Yashash shart emas!*

“Osmon cho'kib qoldi bu oqshom...”

«Yuqoridagi misralarda shoirning alohidaligi qaysi satrlarda o'z aksini topgan? O'quvchi “*bir mahalla nigoh*”ning fikriga qo'shiladimi yoki shoirning gapigami? Nega? Shoirning: “*Olovlarga otgum uni, bas*” deganini siz qanday tushunasiz? U, Sizningcha, nimani nazarda tutayotir deb o'ylaysiz? «*Sevish kerak... Yashash shart emas*»ni

hamkorlar birgalikda tahlilga tortishlari kerak. Inson uchun, ayniqsa, shoir uchun nimalar muhim ekanini topish kerak. Shu muhimlar shoirning shaxsini belgilaydi.

*Toshkanda... tog'larni sog'indim,
Yashil o'tloqlarni sog'indim.
Suv bo'yiga chordona qurgan
Momoqaymoqlarni sog'indim.*

*...O'zim tashna, menga tashnalar –
Yalangoyoqlarni sog'indim.
...To'ydim tillabarmoq qizlardan,
Qo'li qadoqlarni sog'indim.*

“Sog'indim”

Bu misralarda ifodalangan shoir sog'ingan timsollarga tayanib uning shaxsiga baho berishga o'quvchilarni undash lozim: «U qanday odam? «...*O'zim tashna, menga tashnalar – Yalangoyoqlarni sog'indim*»ni qanday tushunish mumkin? «Yalangoyoqlar» deganda kimlar nazarda tutilayotir deb o'ylaysiz? O'quvchilar «*qo'li qadoqlar*»da kimlar ifolanayotganini bilarmikinlar? Shoir ularning nimasini sog'ingan? «*Suv bo'yiga chordona qurgan Momoqaymoqlar*»ni o'quvchilar qanday tasavvur qilisharkin? Bu tasvirda shoirning qanday sifati namoyon bo'lgan?» singari masalalar ustida ishlash hamkorlarni mustaqil, ijodiy fikrlashga, munosabat bildirish va xulosalar chiqarishga, ayni zamonda odamni kashf qilish, shu asnoda o'zligini anglashga o'rgatadi.

So'ngra keyingi she'rdan olingan parchaga hamkorlarning diqqati qaratiladi:

*...Menimcha, dunyoda eng katta gunoh –
Sog'inmay yashamoq...
...Menimcha, dunyoda eng katta gunoh –
Hiringlab she'r o'qimoq!*

“Yolg'on yomon derlar...”

8-sinf tarbiyalanuvchilari savob va gunoh kabi tushunchalarni yaxshi farqlaydilar. M. Yusufning nazaridagi gunohlarga e'tibor qilishsin. «Ular “*sog'inmay yashash*” va “*hiringlab she'r o'qish*”ni

qanday tushunisharkin? Kichik hamkorlar ham bu hislarni gunoh hisoblashadimi yoki bu ular uchun noaniq, tushunarsiz tuyg'umi? O'zi she'r qanday o'qiladi?» Agar tushunisha olmayotgan bo'lishsa, shoir bilan o'zlari oralaridagi masofani chamalab ko'rishsin. Shu tariqa shaxsiyatlarini o'rganishadi.

*Tunlari charog'on shunday shaharda,
Hech kimga ko'nglimni yora olmayman.
Men siz aytgandayin hammani sevdim,
Hammaga ishondim, mana oqibat...*

“Onamga xat”

Mazkur to'rtlik o'qib bo'lingach, o'quvchilarga quyidagi savollar bilan murojaat qilgan ma'qul: «Shoir yozganidek onasining gapiga kirib hammani yaxshi ko'rgani, hammaga yaxshilik qilgani, hammaga ishongani qanday oqibatlariga olib keldi deb o'ylaysiz? Bu yaxshimi, yomonmi? Nega? Onaning bolasiga o'rgatganlari to'g'rimi yoki noto'g'ri? Bunday fazilatlarining rag'batini shoir kimdan olishi mumkin deb o'ylaysiz? Siz qandaysiz?» Satrlar zamiridan muallifga xos fazilatlar hamkorlarning birgalikdagi izlanishlari asnosida topilib qayd etib qo'yiladi.

“Oqibat” she'ridan olingan quyidagi misralar ham tarbiyalanuvchilarga o'qib eshittiriladi. Odamlar orasida oqibat yo'qolib borayotganidan yozg'irgan shoir:

*Bo'ldi. She'rim tamom. Axir siz chidab
Yuribsiz-ku, nima qipti men yursam.
Tomog'imda jonim turibdi yig'lab,
Jondan ayrilaman endi gapirsam!..*

deydi. Odamlar orasidagi mehr-muruvvat, muhabbat, oqibat singari fazilatlarining yo'qolib borayotganidan shoir shunchalar qiynalgan, millatga xos bo'lgan bu illatlar uni ruhan ado qilyapti. «U aytmoqchi, biz, hech narsani bilmaganday chidab yuribmiz. Nega? Buning sabablari nimada? Nega shoir chiday olmayapti? Bu uning shaxsidagi qanday sifatdan dalolat beradi? “Tomog'imda jonim turibdi yig'lab”ni qanday tushunish mumkin, sizningcha?» kabi savollar o'quvchilar

orasiga tashlansa, ular bu haqda o'ylab ko'rsalar, ruhiyatlarida shaxslik sifatleri shakllanishida foydadan holi bo'lmas.

Shoir bir she'rida yozadi: *"Men yorug' dunyoda ko'nglim quliman..."* «Xo'sh, o'quvchilar buni qanday tushunishadi? Inson aqlining, manfaatlarning etovida yurgani ma'qulmi yoki ko'ngilning boshqaruviga bo'ysungani tuzukmi? Qay holatda yashash ma'qul bo'ladi? Nega? Ko'ngliga qul bo'lgan shoir ularga yoqyaptimikin yoki yo'q? Sababi nimada?» shular ustida birgalikda fikrlashgan hamkorlar ayni zamonda o'zlarini ham taftish qilib boradilar. Bu nafaqat o'quvchilar, balki o'qituvchining o'zini ham jiddiy o'yg'a toldirishi aniq.

*Bo'ldi. She'r yozmayman. Men endi odam
Oddiy odam bo'lib yashay boshlayman.
Ko'nglimga achinib agar yozsam ham,
Tunda yozib, tongda o'tga tashlayman!*

"Iqror"

Yuqoridagi misralarni o'quvchilar sharhlashga urinib ko'rishingin. «M. Yusuf faqat she'r yozgani uchun oddiy odamlardan farq qiladimi yoki buning boshqa asosi bormi? She'r yozadigan hamma odamlar "murakkab"mi? «Ko'ngilga achinib yoz»ishni qanday tushunasiz? Nima deb o'ylaysiz, shoir nazarida Ko'ngilning o'rni qanday? Bu tushunchaning mohiyatida qanday fikr mavjud, sizningcha?» va hk.

O'quvchilar o'zlarining Muhammad Yusuf shaxsi haqida chiqargan xulosalari, qarashlarini millatning boshqa ulug'lari fikrlari bilan solishtirib ko'rishlari uchun ularga quyidagilarni o'qib berish mumkin:

"Muhammadjonning she'rlari bir qarashda juda sodda, jo'n yozilganga o'xshaydi. Ammo unga o'xshatib yozib ko'ring-chi! Qo'lingizdan kelmaydi! Uning oson yoziladiganga o'xshab ko'ringan misralari muxlislarini yig'latadi, kuldiradi, o'z og'ushiga tortadi. Odamlar uning she'rlarini hayajonsiz o'qimaydigan, kitoblarini do'konlardan qidirib yuradigan bo'ldilar. ...Muhammadjon kamdan-kam tug'iladigan iste'dod egasi bo'lish bilan birga, kamdan-kam shoirda uchraydigan xislat egasi – shuhratdan qochadigan kamsuqum inson edi. U shuhratni emas, shuhrat uning ortidan quvib yurardi..."

Ozod Sharafiddinov,
O'zbekiston Qahramoni.

“Muhammad Yusuf odamlarning esini og‘dirgan, o‘ylatgan, kuldigan, yig‘latgan, topgan-tutganini odamlar ustidan sochgan saxiylik timsoli edi. Qo‘lida borini do‘stlariga tarqatmaguncha, cho‘ntagi bo‘shab qolmaguncha ko‘ngli to‘lmasdi. U hammani o‘ziga do‘st deb bilardi. ...Aslini olganda, asl shoirlar uzoq yashamaydi. Endi shoirning o‘zi yo‘q. Ammo Muhammad Yusuf deb atalmish She‘riyat bor...”

Said Ahmad,
O‘zbekiston Qahramoni,
O‘zbekiston Xalq yozuvchisi.

“Chinakam shoirning qalbida sohir qush doimo sayrab turadi, degan gapni ko‘p bor eshitgandik. O‘sha qush aynan Muhammadjonning ko‘nglida oshiyon qurganiga men astoydil ishonaman. Uning chehrasi ham, ko‘zlari ham hamisha latif bir kuyni xonish qilganday edi... Birinchi navbatda Muhammadjon yaxshi inson edi. Yaxshi insonlarga boshqalar hamisha talpinadilar... U obro‘ talashmas, izzatini so‘roqlab yugurib yurishdan or qilardi. Xuddi shundoq yaxshi insongina yaxshi ijodkor bo‘lishi tabiiy va qonuniydir...”

Abdulla Oripov,
O‘zbekiston Qahramoni,
O‘zbekiston Xalq shoiri.

“...Inson umrining oxirigacha ilm o‘rganadi. Ammo she‘r yozish ilmi shunday ilmki, uni o‘rganib bo‘lmaydi. U tug‘ma bo‘lishi kerak. Muhammadjon tug‘ma iste‘dod sohibi edi... U juda tez og‘izga tushdi. Uning tanqidiy yo‘nalishdagi luqmalari, kichik-kichik qatralari, bir qator maqolalari Maqsad Yaxshiev nomi bilan gazetalar sahifalarida tez-tez ko‘zga tashlanadigan bo‘ldi. Sal keyinroq Muhammad Yusuf nomi bilan elga tanildi. U omadli yigit edi... Muhammadjon ustozlari, yaqinlari, farzandlari xotirasida yaxshi ishlari, xokisorligi, mehriligi bilan muhrlanib qolsa, muxlislari tasavvurida yig‘latadigan, o‘ylatadigan, ezgulikka yetaklaydigan she‘ru qo‘shiqlari bilan yashab qoladi”.

Erkin Vohidov,
O‘zbekiston Qahramoni,
O‘zbekiston Xalq shoiri.

“Muhammad! Men agar Sizdan Vatanni sevishni, yorni suyishni, ardoqlashni asrashni o‘rgandik, desam bu so‘zimdagi qilcha mubolag‘a yo‘q... Siz atrofingizdagi bor mavjudotni jondan sevdiniz, qarqarali, nash‘u namoli sevdiniz. O‘pay desangiz “peshonasi yo‘q qizg‘aldoq”dan tortib, “ko‘zi to‘la yosh jayron”gacha... Aytganlaringizning har satriga ko‘zmunchoq taqib yashadik. Oriyat, g‘urur, tiklik haqida har birimiz imkonimiz qadar nimalardir deganmiz, lekin birortamiz: “Bo‘ynim egilguncha ketsin uzulib!” demaganmiz. Bunday baland pardalarga shu qadar osonlik bilan chiqish hammaga ham nasib qilavermaydi...”

Halima Xudoyberdieva,
O‘zbekiston Xalq shoiri.

“U kishining she‘rlarida dard bor edi. Muhammad Yusuf xalq dardini tushunardi. Xalq uchun, Vatan uchun, Mustaqillik uchun yonib yozdi. Shu bilan birga inson qalbining tub-tubidagi dardini topib yozdi. U kishining yuragi xalq yuragi bilan hamohang urardi...”

Yulduz Usmonova,
O‘zbekiston Xalq artisti

Sheriklar shoirning she‘riyatidan topgan uning shaxsi bilan bog‘liq haqiqatlarini millatning ulug‘lari aytganlari bilan solishtirib ko‘rishsin. Albatta birgalikda.

Keyin qanday sifatlar shoir shaxsida ustuvor ekanini ajratib chiqsinlar va shu fazilatlarining qaysi biri o‘zlarida mavjud ekani haqida o‘ylab ko‘rsinlar.

Bu masalada o‘quvchilarning javob aytishlari shart emas. O‘ylab ko‘rishlarining o‘zi kifoya. Javobni o‘zlari uchun bilib qo‘yganlari bas. Agar o‘zaro o‘xshashlik topa olsalar, bundan faxrlansalar arziydi.

Shu tariqa shoirning shaxsiyati bilan tanishib olingach, keyingi soatlarda uning darslikda taqdim etilgan asarlari ustida ishlashga o‘tish mumkin bo‘ladi.

Ularni didaktik tahlilga tortishda darslikda taqdim etilgan savol va torshiriqlarga tayanish maqsadga muvofiq. Shunda shoir M. Yusuf she‘riyati ustida ishlash bolalarning ma‘naviy kamolotida maksimal darajada samara berishi aniq.

Savol va topshiriqlar:

1. *“Sinergetika”* atamasiga berilgan ta'rifni qayta o'qing. Uning mohiyatiga kiring. Tushunganlaringizni o'z so'zlaringiz bilan ifodalab bering.

2. Hamkorlikda o'qitish masalasining pedagogika ilmi va amaliyotida shu kunga qadar chuqur o'rganilmaganligi sabablarini alohida-alohida tahlilga torting. Har birining mohiyatiga kiring. Bu sabablarning oqibatlari haqida birgalikda mulohaza yuriting.

3. *“Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim”*ni qanday tushundingiz? Bu boradagi qarashlaringizni asoslashga urinib ko'ring.

4. Ta'lim amaliyotidagi subyekt va obyekt munosabatlari haqida o'ylab ko'ring. Sizningcha, “subyekt” kimu “obyekt” kim?

5. Hamkorlik pedagogikasining asosiy maqsad va vazifalari nimalardan iborat ekanini aniqlang. Ularni o'z tushunchangiz doirasida sharhlang. Bugungi milliy tarbiyashunoslik, xususan, adabiy ta'lim uchun bu texnologiyaning nega va qanchalar zarurligi borasida mulohaza yuriting.

6. *“Pedagogik hamkorlikning yuzaga kelishi uchun o'qituvchi va o'quvchi pedagogik jarayonning o'zaro aloqador subyektlari darajasiga ko'tarilishlari kerak”* degan fikrni qanday tushundingiz? Vaziyatga o'qituvchining darsdagi hokimligi va o'quvchining ustozlari aytganlarini so'zsiz bajarishi lozim bo'lgan obyektligi nazaridan qarang. Kimni, qaysi darajaga va qanday qilib ko'tarish kerak deb o'ylaysiz?

7. *“O'qituvchi bilan o'quvchilar orasidagi o'zaro hamkorlik muhitini shakllantirish uchun amalga oshiriladigan: o'quv jarayonida ijodkorlik muhitini vujudga keltirish; o'quvchilar faoliyatini muayyan tartib asosida tashkil etish; o'quvchilar orasida o'zaro do'stona muhitni vujudga keltirish kabilari”*ni qanday tushundingiz? Ularga o'z munosabatingizni bildiring va qanday tashkil etish borasida fikrlashing.

8. *“Pedagogik hamkorlik va hamjihatlikka asoslangan bilimlar to'rt ko'rinishi”*ni qayta o'qing. Ularning har biriga o'z tushunchangiz doirasida izoh bering.

9. Hamkorlik pedagogikasi bizning ta'lim amaliyotimizga shu davrga qadar kiritilmaganligi sabablari haqida o'ylab ko'ring. Firingizni asoslang.

10. Shoir Muhammad Yusufning ijodidan taqdim etilgan o'quv materiallari bilan tanishing. Ular yuzasidan tuzilgan savol va topshiriqlar ustida o'ylab ko'ring. O'z munosabatingizni bildiring, ularga javob bering. Hamkorlarning biri bo'lib faoliyat yuriting. Bu sizning pedagogik amaliyotingizda qo'l kelishi aniq.

11. Muhammad Yusuf ijodida vatan madhi" mavzusida insho yozing. Insholaringizni bir-biringizga o'qishga bering. So'ngra uning tahlili ustida suhbatlashing.

9-MAVZU. O'QUVCHI MA'NAVIY KAMOLOTINI TA'MINLASHDA MUAMMOLI TA'LIM TEXNOLOGIYASINING O'RNI

Reja:

1. *Muammoli ta'lim texnologiyasi va uning asosiy xususiyatlari.*
2. *Muammoli vaziyat yaratishning o'ziga xos xususiyatlari.*
3. *Muammoli ta'lim texnologiyasining asosiy vazifalari.*
4. *Adabiyot darslarida muammoli ta'lim metodidan foydalanishda o'qituvchining asosiy vazifalari.*
5. *Badiiy matnning didaktik tahlili namunasi.*

Milliy pedagogikada ta'lim-tarbiya jarayoniga bugun butunlay yangicha talablar asosida yondashilmoqda. Zamonaviy tarbiyashunoslikda ta'lim-tarbiyaning oldiga o'quvchini zarur bilimlar yig'indisi bilan ta'minlash doirasidan chiqib, o'quvchi ma'naviyatini shakllantirish, unda mustaqil bilish (kognitiv)ga ichki ehtiyoj (motivatsiya) paydo qilish, mustaqil, mantiqiy, ijodiy (kreativ) fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish kabi sifat jihatidan yangi talablar qo'yilyapti. Maktabdan o'quvchi o'z ma'naviy kamolotini ta'minlash uchun mustaqil ravishda kitob o'qish malakasini shakllantirish, bilim olish yo'lida bor imkoniyatlarini qo'llagan holda ijodkorlik ko'nikmalarini qaror toptirish talab qilinyapti. Ta'limga bunday yondashuv, o'z navbatida, o'quvchini taqlidchilik, mute ijrochilik, ko'chirmachilikdan, tayyor andozalar, belgilangan qoliqlar asosida faoliyat yuritishdan qutqaradi.

Shu ma'noda muammoli ta'lim mustaqil, mantiqiy, ilmiy, ijodiy fikrlashga o'rgatish, bu yo'lda uchragan to'siqlarni mustaqil ravishda, unga ijodiy (kreativ) yondashgan holda bartaraf etish garovidir. Bu ta'lim o'quv materialini o'zlashtirilganligini tezgina namoyish etadi, mustahkamlaydi, bilimlarni qat'iyilastiradi. O'quvchida o'qishga ijobiy hissiy munosabat uyg'otadi, bilim olishga ehtiyoj paydo qiladi. Ta'lim amaliyotida muammoli o'qitish texnologiyasidan foydalanilganda tarbiyashunoslikning bosh maqsadi – o'quvchida shaxslik sifatlarini shakllantirish va rivojlantirishga erishish osonlashadi.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarni muallim aytganlarini bajaradigan ishtirokchilikdan ta'lim-tarbiya kechimining ijrochilari darajasiga

ko'tarish maqsadida o'zlashtiriladigan bilimlarni tarbiyalanuvchilar oldiga muammo shaklida qo'yish masalasi jahon pedagogikasida o'tgan asrning o'rtalarida, sho'rolar pedagogikasida esa etmishinchi yillarda ko'tarilgan.

O'qitishning muammoli turi bo'yicha u yoki bu yo'nalishda Buyuk Britaniyada Shmidt N. G., Parland M., Nobel M. kabi olimlar, Qo'shma Shtatlarda Vinset J. P., Loxman X., Finkelshteyn M. S. va Barrous H.lar ham izlanishlar qilishgan. Polshada V. Okon, Singapurda O. S. Tan, Xe S. Y., Konvay J. kabi olimlar va Yaponiyada Tivari A., yen K.lar o'z mamlakati milliy tarbiyashunosligini takomillashtirishda, yosh avlodni dunyo standratlari talablariga javob bera oladigan tarzda tarbiyalashda muammoli o'qitish usullaridan foydalanishning nazariy va amaliy namunalari bilan shug'ullanishgan.

Ta'limning bu yo'nalishi bilan rus olimlari M. Maxmutov, V. Kudryavsev, V. Maransman, N. Mochalova, A. Matyushkin, I. Ilnitskaya kabi mutaxassislar, o'zbek tarbiyashunoslik ilmida esa A. Abdurazzoqov, Q. Husanboyeva, I. Rahimova, Sh. Jamoldinova alohida tadqiqot ishlari olib borganlar va o'quvchini intellektual (ongli, mustaqil va mantiqiy firlash asosidagi) faoliyatga undovchi ichki ehtiyoj muammoli vaziyatlarda paydo bo'lishini, bu ehtiyoj uning oldiga qo'yilgan murakkab masala mohiyatini bilishga bo'lgan qiziqishdan tug'ilishini asoslaganlar.

Ularning ko'pchiligi amalga oshirgan tadqiqotlarda o'quvchi faolligini oshirish orqali bilimlarni o'zlashtirish samaradorligini ko'tarish maqsadi yetakchilik qilgan. Q. Husanboyevaning tadqiqotlarida esa adabiyot o'qitish jarayonida muammoli ta'limdan o'quvchida shaxslik sifatlarini shakllantirish, ma'naviy kamolotini ta'minlash maqsadida foydalanish, bu yo'lda mustaqil mulohaza yuritishga o'rgatish masalalari yetakchilik qilgan. I. Rahimova boshlang'ich sinflar o'qish darslarini tashkil etishda muammoli ta'limdan foydalanish yo'llarini tadqiq etgan bo'lsa, Sh. Jamoldinova maktab adabiy ta'limida xalq og'zaki ijodi namunalarini muammoli o'rganish borasida tadqiqotlar olib borgan.

Ma'lumki, har qanday inson o'z oldida ko'ndalang turgan hayotiy yoki ilmiy muammoni hal etish uchun o'ylanadi, izlanadi, bilganlarini taftish qiladi, zo'riqadi, mashaqqat chekadi. Bu ruhan sog'lom odamga xos bo'lgan tabiiy xususiyat. Ta'lim jarayonida shunday

vaziyatga solingan o'quvchi ham ta'limiy muammoni hal qilish orqali bilim olish yo'lida shunday hislarni kechiradi.

Muammoli ta'limga o'qitish jarayonidagi barcha kamchiliklarni bartaraf etadigan universal vosita deb qarash ham unchalik to'g'ri emas, albatta. Muammoli ta'lim hamisha ham yuqori darajada samara beraveradigan hodisa emas. O'quvchilar egallashi lozim bo'lgan bilimlar, ayrim hollarda kamroq kuch va vaqt sarflangani holda, an'anaviy metodlar orqali ham maksimal darajada o'zlashtirilishi mumkin. Bunda hamma narsani darsda o'zlashtiriladigan materialning tabiati, o'qituvchining bilimdonligi va mahorati hal qiladi. O'qituvchining rahbarlik roli muammoli ta'limda ham muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi o'quv materialiga o'quvchilarning umumiy va individual taraqqiyoti, egallagan bilim, ko'nikma, malakalari darajasi, qo'yilgan muammoning umumiy maqsadga qanchalik mosligidan kelib chiqib ish tutadi.

Muammoli ta'limda o'quvchi oldiga uni bilim olishga yo'naltiradigan masalalarni qo'yish va uning ma'naviyatini sog'lomlashtirish yo'lida qo'yiladigan muammoli savol yoki topshiriqlar muhim o'rin egallaydi. Ular muammoli vaziyat hosil qilishning asosiy sharti sanaladi. Bilim berish yoki ma'naviyatni sog'lomlashtirishga qaratilgan muammoli savol yoki topshiriqlar o'quvchi uchun ma'lum qiyinchilik tug'diradigan darajada bo'lishi, avval egallagan bilimlariga mos kelishi, shu bilan birga, uning imkoniyatlari doirasidan chetga chiqmasligi lozim. Ya'ni muammoli vaziyatlar bolaning hayotiy tajribasi va nazariy bilimini hisobga olgan holda yaratilishi kerak.

Muammoning qo'yilishi va uni echish jarayoni uzilmas bir zanjirdir. Muammo ko'tarilishi bilanoq uning yechimi ustida o'ylanadi va bu, o'z navbatida, yangi muammolarni keltirib chiqaradi. Shu tariqa, uzluksiz tarzda yangi bilimlarni o'zlashtirish amalga oshadi. Ta'lim amaliyotida o'qituvchining sinfga olib kiradigan ma'lumotlari: 1) o'quvchilar tayyor bilim sifatida qabul qiladigan; 2) o'zlari mehnat qilib o'zlashtiradigan shaklda bo'ladi.

Ta'limning dastlabki bosqichlarida, ya'ni maktabgacha va boshlang'ich sinflarda birinchisi (o'quvchilar tayyor bilim sifatida qabul qiladigan), ularni ham o'quvchi yoshi va intellekti (tarbiyalanuvchi-o'quvchining yoshi bilan bog'liq ongliligi darajasi, mustaqil va mantiqli fikrlashi, faoliyatdagi ijodkorligi darajasi)ga mos

tarzda muammoli shaklda tashkil etish mumkin va ko'proq qo'llanilishi ham tabiiy. Yuqori sinflar va oliy adabiy ta'lim amaliyotida esa ikkinchisi (o'zlari mehnat qilib o'zlashtiradigan) muammoli ta'lim shaklida amalga oshirilishi mumkin. Lekin o'qitish kechimidagi bilimlarni mehnat qilib o'zlashtirish (ikkinchi) shakli muntazam qo'llanilishi va uni tashkil etishda quyidagi me'yorlarga amal qilinishi maqsadga muvofiqdir:

a) o'quvchilar mustaqil ravishda o'zlashtirishlari lozim bo'lgan bilimlar ularning imkoniyatlariga mos murakkablikda bo'lishi;

b) berilajak materialning yechimi dasturda belgilangan vaqt oralig'ida amalga oshirilishi;

v) ijodiy yo'l bilan o'zlashtirilgan bilimlar mustahkamligi va darajasi reproduktiv yo'l bilan olinadigan bilimlardan baland bo'lishi.

Muammoli ta'limda o'quvchilar qiyinchiliklarga duch kelishlari, tabiiy. Muammoli vaziyatda qiyinchilik o'zlashtirilishi lozim bo'lgan noma'lum narsaning yangiligi va umumlashtirilishi zarurligi hamda o'quvchi intellektual (o'quvchining ongliligi, mustaqil va mantiqli fikrlashi, faoliyatdagi ijodkorligi darajasi bilan bog'liq) imkoniyatlari darajasi bilan xarakterlanadi. O'quvchining intellektual imkoniyati qancha kichik bo'lsa, biror masalani hal qilishda muammoli vaziyatning murakkabligi shuncha katta bo'ladi.

O'qituvchi dars boshida muammoni qo'yish bilan birga butun dars davomida uning muammolilik darajasini uzluksiz tarzda saqlab tura olsagina, biror mavzuni muammoli tarzda o'rganish mumkin bo'ladi. Shundagina o'quvchining bilim olishdagi faolligi va mustaqilligi to'liq ta'minlanadi. Aslida muammoli o'qitish kechimi uchun masalaning yechimi maqsad emas, balki o'quv materialini ongli ravishda o'zlashtirish va o'quvchi qobiliyatlarini o'stirish yo'lidagi vositadir.

Muammoli ta'limda o'qituvchi o'quvchilar bilan individual ishlaydi. Bu undan kasbiy mahoratni talab qiladi. Gap shundaki, u yoki bu o'quv topshirig'i bir bola uchun qiyin, ikkinchisi uchun oson. O'quv jarayonini to'g'ri tashkil qilish uchun har bir o'quvchi dars jarayonida o'zining kuchi darajasidagi masalani hal qilish bilan shug'ullanishiga erishish kerak bo'ladi. Shundagina o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini saqlab qolish mumkin. Buning uchun o'qituvchilarning oldida hamisha qiyin didaktik masala ko'ndalang turadi: u dars mavzusida nafaqat o'quv-biluv muammosini echishi,

balki qanday yo'llar bilan bu mavzu mazkur sinfdagi o'quvchilarning barchasi tomonidan o'zlashtirilishi mumkinligini oldindan ko'ra olishi kerak bo'ladi.

Muammoli ta'limda o'qituvchining asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarda intellektual zo'riqishga ehtiyoj va qiziqish uyg'otishdir. Buning uchun avval qiyinchiliklar chamalanadi. O'quvchiga hamma muammoli masalalar ham qiziq bo'lavermaydi. Tarbiyalanuvchini masalaning shunchaki yechimi emas, balki undan intellektual zo'riqish, zehn, onglilik talab qiladigan masalani hal etish jarayoni qiziqtiradi.

Qiyinchiliklarni chamalaganda, o'qituvchi o'quvchilarning intellektual imkoniyatlarini hisobga olishi shart. Ayrim o'quvchilar uchun masala qancha qiyin bo'lsa shuncha qiziqarli bo'ladi. Boshqalarning esa birdaniga "tarvuzi qo'ltig'idan tushadi". Shuning uchun muammoning obyektiv qiyinligidan tashqari, echuvchining subyektiv imkoniyatlari ham hisobga olinishi zarur. Gap faqat o'quvchilarning har xil tayyorgarlik darajasi haqida emas, ular aqliy faoliyatining individual xususiyatlari haqida ham ketyapti. O'quvchi chinakamiga qiziqtirilsa, u asta-sekin mustaqil ravishda muammoni o'zi shakllantira olishiga erishish mumkin. Bu muammoli ta'limning bosh maqsadlaridan biridir. Mazkur maqsadga erishish o'quvchining shunday ishlarni bajarishga bo'lgan ehtiyoji darajasi bilan asoslanadi.

Ta'lim jarayonini muammoli tashkil etish o'qitish kechimini tarbiyaviy, ta'limiy, qiziqtiruvchi, rivojlantiruvchi imkoniyatlar bilan ta'minlaydi. Muammoli ta'limning uchta maxsus-yetakchi vazifasi mavjud:

1. Mantiqiy usullar yoki ijodiy faoliyatning maxsus yo'llaridan foydalanib o'quvchilarda bilimlarni ijodiy o'zlashtirish ko'nikmasini shakllantirish.

2. Hayotiy vaziyatga ko'ra mavjud bilimlardan ijodiy (kreativ) foydalanish ko'nikmasini tarbiyalash.

3. Har qanday vaziyatda ijodiy faoliyat ko'rsatish ko'nikmalarini shakllantirish.

Bundan tashqari, muammoli ta'limning quyidagi vazifalari ham mavjudki, bu jarayonni tashkil etishda ularni ham nazardan qochirmaslik maqsadga muvofiqdir:

1. O'quvchilarning bilim olish faoliyatini mustaqil va ijodiy yo'nalishga chiqarish.

2. O'quvchining yangi bilim va faoliyat usullarini o'zlashtirishini ta'minlash.

3. Ta'limning ilmiyligi darajasini oshirish.

4. O'quvchida ilmiy dunyoqarash shakllanishini ta'minlash.

5. Shakllanib kelayotgan shaxsda hissiy-irodaviy sifatlarni rivojlantirish, uning ko'nglidagi odam va olam sirlarini bilishga bo'lgan ichki ehtiyojini qondirish.

Ko'pincha, ilmiy-metodik adabiyotlarda ham, ta'lim amaliyotida ham muammo bilan murakkab savol aralashtirib yuboriladi. Bir qator olimlar muammoni har qanday savoldan ajratib turadigan belgi hal etilishi kerak bo'lgan masalaning muhimligi yoki qiyinligida, deb biladilar. Ammo muhimlik ham, qiyinlik ham muammoning asosiy xususiyati emas. Chunki o'ta muhim va murakkab savollar ham muammo darajasiga ko'tarila olmasligi mumkin. "Savol" so'zining xususiyatlari va ahamiyati lug'atlarda: *«javob talab qiladigan murojaat; o'rganiladigan, muhokama qilinadigan predmet, yechimini talab qiladigan masala»*¹ deb ko'rsatilgan. Savolda ifodalangan bilmaslik ilmiy izlanish natijasida ma'lumga, o'rganilgan narsaga aylansa, bunday savol muammo bo'lolmaydi.

Savolda, odatda, javob uchun zarur bo'lgan deyarli barcha ma'lumotlar mavjud bo'ladi. Savol uni so'rayotgan odam javobini biladigan yoki bilishni istagan, soddaroq fikrlashni talab qiladigan, butun vaziyatning etishmayotgan qismlarini to'ldirishdan iborat bo'lgan hodisa. Buni o'quvchi savolni tushunib, unga javob berish uchun kerak bo'ladigan faktlar orasida shunday aloqa o'rnatadi, deb tushunish mumkin. Ba'zan savolga javob berish uchun qandaydir bir faktni eslashning o'zi kifoya. O'quvchi yo'naltirilgan fikrlash usullari, odatda, avvallari foydalanilgan bo'ladi va u shu andaza bo'yicha harakat qiladi.

Agar savol yangi qonuniyatlarni kashf etish imkoniyatlari haqidagi taxminlar bilan uyg'unlashtirilsa, muammoga aylanishi mumkin. Muammoda uning yechim uchun tayyor javob yoki ma'lumot yo'q.

«Murakkab savol» tushunchasiga birorta badiiy asar misolida yondashadigan bo'lsak, buni Sh. Xolmirzaevning "O'zbeklar" hikoyasi (7-sinf) misolida quyidagicha tashkil etish mumkin:

¹ www.ziyo.comkutubxonasi. Узбек тилининг изоҳли луғати. – S.pdf (SECURED). 407-бет.

1. Sizningcha, asar qahramonlaridan qaysi birini chinakam o'zbek?

2. Ergashvoyning gaplari, ishlari g'ashingizni keltiryaptimi yoki yoqyaptimi? Nima uchun?

3. Hikoyaning qaysi qahramoni o'z tabiati va qiliqlari bilan sizga ko'proq ma'qul? Nega?

4. Siz chinakam o'zbeklik bilan chin odamlilik haqida nima deya olasiz?

5. Siz cho'pon va ayoli bilan faxrlanasizmi yoki ular uchun hijolat bo'lasizmi yohud rahmingiz keladimi? Nega? Hasharchi talabalardan-chi?" kabi savollar muammo bo'lolmaydi. Ular mustaqil mulohaza, shaxsiy munosabatni talab qiladigan savollar.

Muammoli vaziyat yaratish uchun eng avvalo, fikrlash asnosida unga mos keladigan ma'lumotni topish talab qilinadi. Muammo tashkil etish uchun o'qituvchi ko'tarilgan masalada nimalar etishmayotganini aniqlashi va o'sha faktlarni qanday topish, uning yechimini qanday amalga oshirish yo'llarini ham aniq belgilab olishi kerak bo'ladi. O'qituvchining vazifasi ma'lum muammoli vaziyatni tashkil etish ekan, o'quvchilarni uning yechimi sari yo'naltirish uchun, avvalo, o'quvchiga muammo nimadan iborat ekanini to'g'ri anglatishi, unda shu masalani hal etishga xohish-qiziqish paydo qilishi, ichki ehtiyoj (motivatsiya) uyg'otishi zarur hisoblanadi.

Muammo bir necha yechimga egaligi bilan savoldan farqlanadi. yechimlarning har biri salmoqli asosga ega bo'ladi. Ko'p muammolarni qisqalik maqsadidan kelib chiqib savol yoki topshiriq tariqasida qo'yish ham mumkin.

Polyak pedagogi V. Okon muammoli ta'linga xos vaziyatni muammoni biror masala yuzasidan tashkil qilish, uni shakllantirish bilan birga hal etish jarayonida o'quvchilarga zarur ko'mak berish, bu jarayonning izchilligini ta'minlash va boshqarish, olingan natijalarni tekshirish hamda bilimlarni mustahkamlash kabi faoliyatlar yig'indisi sifatida baholaydi¹.

I. A. Ilnitskaya mazkur ta'limni o'quvchining maktab ta'lim-tarbiya maqsadlariga mos muammolarni o'qituvchi rahbarligida o'zi

¹ Окня В. Основы проблемного обучения. – Москва: «Просвещение», 1968.

uchun yangi bo'lgan ilmiy-amaliy bir tizimda hal etishda ishtirok qilishidan iborat faoliyati, deb qaraydi¹.

V. T. Kudryavsev muammoli ta'limning mohiyatini o'quvchining oldiga didaktik muammo qo'yish, o'quvchi uni echish asnosida bilimlarini umumlashtirishi va muammoli masalani hal qilish tamoyillarini o'zlashtirishida, deb hisoblaydi².

A. M. Matyushkinning fikricha, esa muammoli ta'lim – o'qitishning bilimlarni qiziqarli yo'llar bilan berishga tayanadigan turidir³.

Muammoli ta'lim masalasi bilan maxsus shug'ullangan rus pedagogi M. Maxmutovning fikricha, muammoli ta'lim bilimlarni ijodiy o'zlashtirish va faoliyatning maxsus qonuniyatlariga asoslangan, ilmiy izlanishning asosiy jihatlarini o'zida jamlagan, o'qitish hamda o'qish metodlari, usullarini uyg'unlikda qamrab olgan didaktik tizimni o'zida aks ettiradi. U bilimlar asosini chuqur o'zlashtirishni ta'minlaydi, o'quvchining bilim olishdagi mustaqilligi, ijodiy qobiliyatini oshiradi, dunyoqarashini shakllantiradi, kengaytiradi⁴.

Olimlarning fikriga qo'shimcha qilib yana shuni aytish mumkinki, muammoli ta'lim o'quvchilarda shaxslik sifatlarining shakllanishiga, ma'naviyatining boyishiga ham sharoit yaratadi. U bilimlarni, yangi tushunchalarni o'qituvchi rahbarligida, o'quvchilarning o'zlari tomonidan ongli ravishda o'zlashtirilishini ta'minlash va faollashtirishga xizmat qiladi.

Psixologlarning fikricha, o'quvchi muammoning, muammoli vaziyatning vujudga kelganini hodisa bilan u haqdagi tasavvur orasida qarama-qarshilik paydo bo'lganda his qiladi. Bu qarama-qarshilikni bartaraf qilish uchun unga avval o'zlashtirgan bilimlari va tajribasining o'zi kamlik qiladi. Muammoni anglab etishning o'zi har qanday fikrlash jarayonining boshlanishidir.

Muammoli ta'limdagi keyingi masala, bevosita muammoning yechilishidan iborat. Bu jarayonni quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin:

¹ Ильницкая И. А. Проблемные ситуации и пути их создания на уроке. – Москва: «Знание», 1985.

² Кудрявцев В.Т. Внедрение принципа проблемности в обучении. – Москва: «Высшая школа», 1968.

³ Матюшкин А. М. Проблемные ситуации в мышлении и обучении. – Москва: «Педагогика», 1972.

⁴ Махмутов М. Теория и практика проблемного обучения. – Казан: ТКИ, 1972.

1. Muammoning tahlili va asoslovini ilgari surish. Muammo ma'lum qiyinchiliklar bor joyda paydo bo'ladi va uning yechimi uchun o'quvchida mavjud bo'lgan bilimlarning o'zi yetarli bo'lmay qoladi.

2. Masalaning yechimini qidirish va uni hal etish. Muammoni tekshirishda uning yangi aloqalari va ilgari ma'lum bo'lmagan sifatleri aniqlanadi. Shu tariqa asta-sekinlik bilan obyektga doir yangi bilim to'planadi. Har safar uning yangi jihatlari va xususiyatlari ochila boradi. Bu bosqichni masalani hal etish yuzasidan farazlarning shakllanish bosqichi deb atash mumkin. Unda urinishlar va xatolar, avvalgi tajribalarga tayanish, yechimning taxminiy yo'llarini belgilash, yechish tamoyillarining isboti va fikrlarni asoslash ishlari amalga oshiriladi.

3. Yechish yo'llarining to'g'riligini tekshirish va olingan natijani baholash¹.

Har bir bosqich ma'lum umumiy jihatlar, o'quvchining muammoni yechish yo'llarini qidirishi va topishidan iborat faoliyati bilan xarakterlanadi. O'quvchi xato qilishdan cho'chimay, o'z izlanishlari asosida masalani hal etishning rejasini tuzadi. Bu jarayonda muqobil yo'llarni ham ko'zda tutadi. Masalani anglash bilan uning yechimigacha bo'lgan yo'l qiyin va uzoq bo'lishi ham mumkin. Masalaning hal etilishida o'quvchi uchun eng muhim jihat uning yechimi haqida o'z tasavvuriga ega bo'lishdir. Bu tasavvurga asta-sekinlik bilan samarasiz urinishlardan keyin, kutilmaganda erishish ham mumkin.

Adabiy ta'lim amaliyotini yuqorida talab qilingandek, ya'ni muammoli shaklda tashkil etishda milliy adabiy ta'lim metodikasi ilmida Q. Husanboyeva², I. Rahimova³ va Sh. Jamoldinova⁴lar maxsus tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Adabiyot o'qitish tizimiga muammoli ta'limni olib kirish yo'llari haqida gapirishdan oldin, muammoli adabiy ta'lim, didaktik muammo, muammoli savol, muammoli vaziyat tushunchalariga aniqlik kiritib olish zarur bo'ladi.

¹ Скалкова Я. От теории к практике обучения в средней общеобразовательной школе. – Москва: «Педагогика», 1983. – С. 49 – 50.

² Хусанбоева Қ. Адабий таълим жараёнида ўқувчиларни мустақил фикрлашга ўргатишнинг илмий-методик асослари. Пед. фан. докт. ... дисс. Т., 2007. –240 б.

³ Раҳимова И. Р. Бошланғич синфлар ўқиш дарсларида муаммони таълимдан фойдаланишнинг назарий-амалий хусусиятлари. Пед... ф. д. (PhD) дисс. – Т., 2020. – 175 б.

⁴ Жамолдинова Ш. Мактаб адабий таълимида халқ оғзаки ижоди намуналарини муаммони метод асосида ўргатиш йуллари (5–9-синфлар мисолида). Пед... ф. д. (PhD) дисс. – Самарқанд, 2021. – 157 б.

Adabiyot darslarida o'quvchilar o'zlashtirishlari lozim bo'lgan bilimlarni o'zlarining kuchi, tafakkuri, bilimi va mehnati bilan o'zlashtirilishini ta'minlash maqsadida bolalar oldiga muammo qo'yish yo'li bilan amalga oshiriladigan o'qitish jarayonini **muammoli adabiy ta'lim** deb atash mumkin.

Muammoli ta'lim asosiga qo'yiladigan, muammoli masala tarzida foydalansa bo'ladigan, o'qish jarayonida muammoli vaziyat hosil qilishga, o'quvchilar orasida tortishuv va fikrlar bahsiga asos bo'ladigan, qarashlar xilma-xilligini keltirib chiqarishga arziydigan ta'limiy masala **muammo** sanaladi.

O'quvchi oldiga muammo shaklida qo'yilgan, uni asar matni ustida o'ylashga, izlanishga undaydigan, uning zamiridagi ma'nolarni tushunish uchun hayotiy tajribalariga qayta-qayta murojaat qilishga majbur qiladigan savol yoki topshiriqni **muammoli masala** yoki **muammoli savol-topshiriq** deyish mumkin.

Darsda an'anaviy yo'llar bilan o'zlashtirilishi qiyin bo'lgan yoki mohiyatiga o'quvchilar chuqurroq kirishi lozim deb topilgan biror mavzu yuzasidan o'qituvchi tomonidan tashkil qilinadigan vaziyat, holat **muammoli vaziyat** deyiladi.

Muammoli ta'lim texnologiyasining asosida yagona muammoli metod yotadi. Muammoli metodning o'z usullari mavjud. Ularning har biri qo'yilgan muammoning yechimiga xizmat qiladi.

Muammoli ta'limdan adabiyot o'qitishning har bosqichida o'quvchilarning yoshi va intellektual imkoniyatlariga tayangan holda, tanlangan mavzuga mos tarzda foydalanish mumkin. Adabiyotning inson shaxsi shakllanishiga ta'siri bebaho ekanini alohida ta'kidlash shart emas. Gap shundaki, badiiy asarlarning mazmuni bevosita inson hayotining mohiyati bo'lmish o'zaro ijtimoiy munosabatlar, faoliyatning yutuq va mag'lubiyatlari, parvoz va qulashlari bilan bog'liq.

Har bir tarbiyalanuvchi, anglab-anglamay hayotdan o'z o'rmini izlar ekan, adabiyot darslaridan o'ziga kerakli ma'naviy saboqni oladi. Uning mana shu tabiiy ehtiyojini qondirishga xizmat qiluvchi adabiyot darslarida muammoli ta'limga murojaat qilinadi, bu yo'lda undan samarali foydalaniladi. Buning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u yangilangan pedagogik tafakkur sharoitida sog'lom ma'naviyatli odam tarbiyalashga yo'naltirilgan. Boshlang'ich sinflar o'qish darslarida o'ziga xos tarzda, yuqori sinflarda o'ziga mos shaklda

qo'yilgan muammoni hal etish asnosida badiiy asarlar tahlil qilinadi, adabiy qahramonlarning shaxsi, xatti-harakatlari muhokamaga tortilar, o'quvchi odam va olam sirlarini o'rganar, asar muallifi hamda adabiy qahramonlar timsolida insonni kashf etar ekan, bu bilan bola o'zligini anglashga yuz tutadi. Allohning go'zal va betakror yaratig'i bo'lmish o'z shaxsini, siyratini o'rgana boradi.

Sog'lom ma'naviyatga ega shaxsni tarbiyalashda asosiy yuk maktab adabiy ta'limi zimmasiga tushadi. To'g'ri, ma'naviyatni shakllantirish vazifasi maktabdagi barcha o'quv fanlari zimmasida ham u yoki bu darajada mavjud. Lekin adabiy ta'lim, boshlang'ich sinflarda ham, ta'limning o'rta va yuqori bosqichida ham bu borada karvonboshilik qiladi. Chunki uning asosiy diqqati inson va uning ruhiyatini sog'lomlashtirishga qaratilgan.

Adabiy ta'limda odamga xos tuyg'u, kechinma, quvonch va iztiroblar adabiy qahramonlar timsoli misolida o'rganilib, tahlil qilinadi. O'quvchilar asar qahramonlari bilan birga xursand bo'lishadi, yig'lashadi, iztirob chekishadi, xulosalar chiqarishadi. Adabiy ta'limda o'quvchining butun e'tibori asar qahramonlari timsolida insonni o'rganishga qaratiladi. Bugungi adabiyot o'qitish kechimida, u ta'limning qaysi bosqichida bo'lishidan qat'i nazar o'quvchida shaxslik sifatlarini tarbiyalashga, uyg'oq ruhiyat kishisini shakllantirishga, shu bilan birga, san'at asarlarining har qanday turini tushunish, uni tahlil qila bilish hamda o'zlashtirishni ta'minlashga yo'naltirilgan. Adabiyot darslarida, birinchi navbatda, adabiy asarlarning o'quvchi shaxsiga qanday ta'sir etishiga e'tibor qaratiladi. Asar ustida ishlagan o'quvchi undan o'z oldida turgan ijtimoiy, axloqiy, estetik savollarga javob topishi kerak.

Adabiyot darslarining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri o'rganiladigan asar matni bilan tanishishning istisnosiz tarzda majburiy ekanligidadir. Muammoli vaziyatlarni yaratishdan oldin o'quv materiali bilan bevosita tanishish, ayrimlari parcha holda bo'lsa-da, muammoning yechimini topishda, ayni zamonda inson ma'naviyati shakllanishi va uning sog'lomlashuvida favqulodda muhim ahamiyat kasb etadi. Badiiy asarni birinchi marta o'qish yoki mohir mutaxassis ijrosida tinglash o'quvchi aqligagina emas, balki ruhiyatiga ham katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'qish va adabiyot darslarida asar bilan ilk uchrashuv o'quvchida unutilmas taassurotlar qoldiradi. Uning o'quvchi shuuriga nechog'lik chuqur o'rtnashib

qolishini ham hal qiladi. Ayni zamonda, tarbiyalanuvchining kitobxonlik biografiyasida, uning axloqiy-ma'naviy rivojlanishida alohida hodisaga aylanadi.

Adabiy ta'limda muammoli o'qitish texnologiyasidan foydalanilganda uning o'quvchi ma'naviy kamoloti yo'lidagi samaradorligini ta'minlash uchun tarbiyalanuvchilarning faolligi, individual rivojlanish darajasi va yosh xususiyatlarini inobatga olish zarur. Muammoli darsda o'quvchilar bilan ishlashda o'qituvchi ularning shaxsi, qobiliyati, imkoniyati, qiziqishlari, aqliy va ruhiy faollik darajasini puxta bilishi taqozo etiladi. O'quvchilar ta'limning har bosqichida asar matnidani yaratilgan muammolar yechimi ustida o'ziga xos tarzda ishlashga o'rgatilsa, timsollar badiiyati, so'zning qudrati chuqurroq his etiladi. Muammoning yechimini topish jarayonida o'quvchi qahramonning ichki dunyosi, shaxsi va xarakteri uning xatti-harakatlari, fikrlari, nutqida namoyon bo'lishini o'rgana boradi. Shunday belgilarga qarab odamni baholashga odatlanadi. Odamning odamlilik darajasi uning so'zidan ko'ra tutumlarida yaqqolroq namoyon bo'ladi. Badiiy matndagi o'zgalarning xatti-harakatlarini tahlil qilish asnosida o'quvchi o'zligini anglab, shakllantirib boradi. Badiiy asarlar tahlilidagi bunday faoliyat maktabgacha adabiy ta'limdan to oliy adabiy ta'limga qadar belgilangan maqsadni amalga oshirish yo'lida asos bo'lib xizmat qiladi.

Badiiy so'z san'atini puxta o'zlashtirish, undan to'liq va chinakam zavq ola bilish uchun o'rni bilan muammoli ta'limdan foydalanish insonga tabiatan berilgan ruhiy hisni, o'qilgan asarlar tahlili asnosida, intellektual rivojlanish jarayonida etilgan tuyg'uni badiiy did darajasiga ko'taradi. Ma'lumki, to'liq anglash bo'lmagan joyda zavqlanish ham bo'lmaydi. San'at asarini tushunish oddiygina muloqot ehtiyojidan boshlanadi. Bu o'zganing tushunish istagi, uning dunyosini ochish bilan o'z dunyosini boyitish ehtiyoji hisoblanadi. Badiiy so'z san'atida bunday muloqot imkoniyati, bu kabi ehtiyojni qondirish imkoniyati g'oyat kuchli. San'at asari nafaqat uni yaratuvchi insondan, balki iste'molchidan ham to'liq ruhiy berilishni talab qiladi. Bularning amalga oshirilishida muammoli ta'limga tayanish shaxs shakllanishi samaradorligi garovi hamdir.

Muammoli ta'lim bilan yo'g'rilgan adabiyot o'qitishning vazifalaridan yana biri asar ustida ishlash mobaynida, uni o'zlashtirish

va his etishda o'quvchida bilim hamda hissiyot birligini ta'minlashdan iborat. Badiiy asarlarni o'rganish samaradorligi o'quvchi tuyg'ularining samimiyligiga bevosita bog'liq. Asar ustida muammoli ishlash yuqoridagilarni ta'minlash bilan bir vaqtning o'zida o'quvchini badiiy va hayotiy tushunchalari rivojini ham ta'minlaydi. Adabiyot darslarini muammoli tashkil etish, adabiy asarlar ustida ishlash o'qituvchidan yuksak adabiy va pedagogik bilimdonlik, ijodiy mustaqillik, topqirlik, yosh kitobxon ruhiyatini yaxshi bilish, uni o'ziga xos inson sifatida chuqur his etishni talab qiladi.

O'quvchi ruhiyati – murakkab dunyo. Jamiyatning bugungi taraqqiyot shiddati tufayli hayotdagi o'zgarishlar, bolalar ruhiyatining boyishi va shaxsining rivojlanishi o'ta darajada tez kechmoqda. O'quvchining zamon bilan hamnafas faollashuvi, ruhiy olamining murakkablashuvi metodika ilmi oldiga badiiy asar ustida ishlash yo'llarini boyitish va kengaytirish talabini qo'yyapti. So'z san'atining o'quvchi rivojiga kuchli ta'sir ko'rsatuvchi usullarini topishni taqozo qilyapti. Chinakam badiiy asarda hamisha o'quvchiga qiziqarli bo'lgan, uning ma'naviy tozarishiga o'z ijobiy ta'sirini ko'rsatadigan hayotiy va badiiy haqiqatlar singdirilgan bo'ladi. Mana shu qiziq jihatlarni muammoga aylantirib o'quvchi oldiga qo'yilganda u masalaning yechimini topish bilan birga asarda tasvirlangan qahramonlar ruhiyatini anglab, ularga o'z munosabatini bildirib boradi. Buning uchun, eng muhimi, o'quvchini asar matnining muammoli tahliliga torta bilishdir. Asar ustida ishlashning har qanday usuli matndan uzoqlashmasligi kerak. Buningsiz kitob o'qishga doimiy ehtiyoj sezadigan va badiiy asar bilan oshno bo'lishdan zavqlanadigan kitobxonni tarbiyalash mumkin emas.

Adabiyot darslarida, u qanday yo'nalishda tashkil etilishidan qat'i nazar badiiy asar loqaydlik bilan o'qilmasligi va befarq tinglanmasligi kerak. O'qituvchi o'quvchilarni asar bilan tanishtirish jarayonida ulardagi loqaydlikni yo'qotishga bor kuchini sarflamog'i lozim. San'at asari bilan muloqotga kirishganda bevosita estetik zavqning yo'qligi boshqa barcha tadbirlarning samarasizligiga sabab bo'ladi. O'quvchilar o'qish asnosida badiiy asardagi boshqachalikni, g'ayrioddiylikni his qilib borishlari lozim. Buning uchun o'qituvchining qiziqarli, ilmiy va hayotiy asoslarga boy, o'quvchi diqqatini o'ziga tortadigan kirish so'zi kerak bo'ladi. Shu bilan birga matnni o'qishga kirishish ko'p vaqtni olmasligi ham kerak. Har bir

asarni o'rganishda qat'iy maqsadni belgilash va aniq yo'nalishga tayanish lozim bo'ladi.

Muammoli ta'lim asosidagi adabiyot o'qitish vazifalaridan navbatdagisi o'quvchini asarning takrorlanmas badiiy olamiga olib kira bilish, bu ijodiy olamni imkon qadar kengroq va chuqurroq anglatish uchun sharoit yaratish, uni bugunning ruhi bilan o'zlashtirishga ko'maklashishdir. Adabiyot darslaridagi bunday tadbirlar muammoli ta'lim texnologiyasidan oqilona, bilgichlik bilan foydalanilganda yanada samarali bo'ladi.

Muammoli tahlilga tortilgan badiiy matnni o'qish uning tahlili va o'zlashtirilishi uchun birinchi bosqich sanaladi. Mutolaa davomida kitobxon ko'nglida u yoki bu qahramonga nisbatan muayyan hissiyot – munosabat tug'iladi, o'quvchi ularning xarakteri va asar voqealari rivoji o'rtasidagi munosabat to'g'risida o'ylaydi. Asarga o'zining dastlabki bahosini beradi. O'qituvchi matn ustida ish boshlashdan oldin o'quvchilar uni qanchalik o'zlashtirganliklarini, nima yetib bordi-yu nelar anglashilmay qolgani, nima noto'g'ri tushunilgani-yu qay bir jihatlar umuman ilg'anmaganini kichik suhbat asnosida aniqlab olishi kerak bo'ladi. Bu o'qituvchiga asar ustida muammoli ishlashni qiziqarli tashkil etish, vaqtni tejash, busiz ham tushunarli bo'lgan narsalarga vaqt sarflamaslik imkonini beradi.

Muammoli adabiy ta'limda tushunarsiz qolgan yoki o'quvchilar e'tibor qilmay o'tkazib yuborgan jihatlariga ko'proq to'xtalish va ularni qiziqtirish uchun o'sha o'rinlar bilan bog'liq jumboqli savollarni o'rtaga tashlash tarbiyalanuvchilar e'tiborini tortadi. Asar qanchalik qiziqarli ekanligini, o'quvchilarning asar syujeti, muallifning hayotga munosabatdagi o'ziga xoslikni ilg'ash darajasini, timsollar va hodisalar orasidagi aloqa qanchalik anglanganligini ularning javoblaridan bilish mumkin. Shundan so'nggina tarbiyalanuvchilar oldiga qo'yilgan muammoning samarali yechimiga erishish mumkin bo'ladi.

Muammoli ta'lim texnologiyasidan foydalanganda adabiyot o'qituvchisi o'quvchilarning o'zgani his qilish, tushunish, tuyish, hamdard bo'lishiga asar qahramonlari kechirgan hislarni ularga "yuqtirish" orqali erishadi. Buning uchun o'qituvchining asarlarga munosabati, xatti-harakatlari, o'ylari, kechinmalari rost va samimiy, badiiy adabiyotga muhabbati baland bo'lishi shart. Muammoli

masalalar yechimi asnosida bunday tuyg'ular uyg'unligiga erishish bilan o'quvchining hissiyot olamiga ta'sir ko'rsatiladi.

Umuman, shuni aytish mumkinki, inson ma'naviyatining sog'lomlashuvi uning fikrlari va xatti-harakati tozarishida aks etadi. Shuni anglagan holda o'quvchilarni ta'limning dastlabki bosqichi – maktabgacha ta'limdan to'g'ri tarbiyalashga erishmoq lozim. To'g'ri tarbiya – tarbiyalanuvchida tabiatan mavjud bo'lgan sifatlarni uyg'otish va ularning rivojlanishi, ma'lum maqsad sari yo'nalishiga ko'maklashish, shu jarayonga monand ravishda bilim berishdan iborat. Adabiyot o'qitish jarayonida beriladigan tarbiyada hissiyot, badiiylik va samimiylik o'zaro uyg'unlikda bo'ladi. Badiiylik o'quvchida bilim, ko'nikma, malaka shakllantirish bilan birga unga hayotning rangi, ohangi, mohiyatini ochib beradi. Tarbiya jarayonidagi hissiyot va samimiyat esa, tarbiyaviy tadbirlarning ta'sirchanligini ta'minlaydi. Bolalarga beriladigan bilimlar ham hissiyot bilan sug'orilgandagina ularning ruhiyatiga kirib, chuqur o'rnashadi.

Nimanidir yoqlash yoki unga qarshi kurashish uchun kishi ko'ngilda o'sha narsaga nisbatan munosabat bo'lishi kerak. Mana shu munosabat hissiyot hisoblanadi. Buning uchun yaratilajak yangilikni sevish kerak. Bu ham hissiyot sanaladi. Xullas, hissiyotga qorishgan faoliyatgina kishini kurashga, intilishga, izlanishga undaydi.

Shu paytgacha maktabning vazifasi yoshlarni oliy maktabga tayyorlash bo'lib kelgan. O'qituvchi ham, dastur ham, darslik ham shu vazifani bajarish yo'lida xizmat qilgan. Maktab adabiy ta'limi ham bundan mustasno emas, albatta.

Bugungi adabiy ta'lim amaliyotida o'qituvchi "Qanday yozishayotganiga, o'ylashayotganiga qara va o'z imkoniyating doirasida bor kuching bilan ishla" tamoyiliga amal qilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Adabiyot darslarida muammoli dars yoki vaziyat hosil qilishning umumiy talablari quyidagilardan iborat:

- adabiy ta'lim amaliyotida muammoli vaziyatni tashkil qilish uchun shunday amaliy yoki nazariy masala qo'yilishi kerakki, uning echilishi davomida o'quvchi o'zlashtirishi lozim bo'lgan yangi bilimlarni o'zi o'rganib olsin. Muammoli vaziyatni hosil qiluvchi masalani qo'yishda quyidagi shartlarga amal qilinadi:

1) muammoli topshiriq o'quvchilarda oldin shakllantirilgan bilim, ko'nikma va malakalarga tayanishi lozim. O'quvchilar topshiriqning shartlarini tushunib olish va uni bajarishga astoydil urinishlar natijasida uning yechimiga mustaqil ravishda etib kela olishlari kerak. Muammo tarkibiga o'quvchi uni hal qilish davomida aniqlashi zarur bo'ladigan bitta noma'lum masala (faoliyatning yo'llari, shartlari yoki munosabat), qo'yilgan bo'lishi kerak;

2) o'quvchi oldiga qo'yilgan muammoni hal qilish uchun shu kabi masalalarga doir umumiy qonuniyatni, shu xildagi topshiriqlarni bajarishning umumiy yo'llari yoxud ayrim shartlarini o'zlashtirgan bo'lishi lozim.

3) muammoli masalani yechish o'quvchilarda yangi bilimlarni o'zlashtirishga ehtiyoj uyg'otishi kerak. Adabiyot darslarida muammoli vaziyatlar yaratish uchun yuqorida aytilganlardan tashqari ma'naviy-axloqiy masalalar ham qo'yiladi.;

- adabiyot darslarida o'quvchiga taklif etilayotgan muammoli masala uning intellektual imkoniyatlariga mos tushishi lozim. Qo'yiladigan muammoli masalaning murakkabligini o'zlashtirilishi lozim bo'lgan o'quv materialining yangiligi va umumlashganlik darajasiga qarab aniqlash mumkin. O'quvchilarning intellektual imkoniyatlari qancha katta bo'lsa, o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilimlarning yangilik darajasi va umumlashganligi shunchalik baland bo'ladi. Muammoli masalani hal qilish uchun zarur bo'lgan harakat turlari va yechish yo'llari ham shu darajada yuqori bo'ladi;

- adabiyot darslarida qo'yilgan muammoli masala o'rganilishi lozim bo'lgan bilimlardan oldinda bo'lishi kerak. Agar o'quvchilarda o'rganiladigan hodisa haqida yetarli darajada ma'lumot bo'lmasa yoki o'quvchi mustaqil faoliyatining dastlabki belgilari aniq bo'lmasa, ularga shunday tushunchalarni beradigan bosqich tashkil qilinishi lozim. Yoki ular hosil qilingan muammoli vaziyatda faoliyat yuritishga maxsus tayyorlanishlari kerak bo'ladi. Muammoli vaziyatda o'rganilishi lozim bo'lgan o'quv materialini to'g'ri ajrata bilish zarur. O'quv materialini tayyorlash jarayonida o'quvchilar o'zlashtiradigan material bilan ular ijodiy o'rganishi va o'zligiga singdirishi darkor deb topilgan sifatlar aniq belgilanishi kerak. O'quv materialining birinchi turiga daliliy ma'lumotlar va zarur ko'nikmalar kiradi. Ikkinchi turiga esa faoliyatning umumiy qonuniyatlari, harakat

yo'llari, o'zlashtiriladigan bilim va ma'naviy fazilatlarining umumiy shartlari kiradi;

- adabiyot darslarida muammoli topshiriq sifatida adabiy-nazariy masalalar, mulohaza yuritishga yo'naltirilgan savollar, amaliy ishlarni ham sanash mumkin. Ammo muammoli vaziyat bilan muammoli masalani aralashtirib yubormaslik kerak. Muammoli masala o'z-o'zidan muammoli vaziyat hosil qila olmaydi. Yuqoridagi shartlarga to'liq amal qilingandagina muammoli vaziyat vujudga kelishi mumkin. O'qituvchi tomonidan qo'yilgan har qanday savol o'z-o'zidan muammoli vaziyatni paydo qilavermaydi;

- o'quvchilarning oldiga qo'yilgan amaliy yoki nazariy masala ularda muammoli holatni paydo qilsa, muammoli vaziyat ko'rsatgichiga aylanishi mumkin. Buning uchun o'qituvchi tomonidan muammoli savolga aylantirilgan masala o'quvchilar ko'nglidagi savollarga mutanosib bo'lishi talab qilinadi. Agar o'qituvchi tomonidan shakllantirilgan muammo o'quvchilarning shaxsiy muammolariga muvofiq kelmasa, bu muammoli ta'lim talablariga mos tushmaydi va o'quvchilarda ijodiy holat uyg'otishga xizmat qilmaydi;

- adabiyot darslarida tashkil qilingan bitta muammoli vaziyat har xil turdagi topshiriqlar bo'yicha ham yaratilishi mumkin. Muammoli vaziyat tushuntirish, ma'lum voqea-hodisani oldindan aytish talab qilinadigan nazariy masalalar bo'yicha ham chiqarilishi mumkin. Bunday holatlarda muammoli nazariy masala zarur faktlar haqida ma'lumot berishga xizmat qilishi kerak. Muammoli vaziyatni talab qiladigan nazariy masala muammoli masalani echish shartlariga mos keladigan faktlarga asoslanishi lozim. Muammoli vaziyatni amaliy masalalar yuzasidan ham tashkil etish mumkin. Bunday muammoli vaziyat o'quvchi oldiga qo'yilgan nazariy masalasini bajara olmagan holatlarda vujudga keltiriladi. O'quvchiga oldindan ma'lum yo'llarga tayanib, masalani echish mumkin bo'lmagan hollarda tabiiy ravishda muammoli vaziyat paydo bo'ladi, o'quvchiga harakat va faoliyatning yangi, noma'lum yo'llarini topish kerak bo'ladi;

- adabiyot darslarida muammoli vaziyatni o'qituvchi masalani bajarishda yo'l qo'yilgan xatoliklarning sabablarini anglatish yoki biror dalilni bu yo'lda tushuntirib bo'lmasligini ko'rsatish uchun ham tashkil etishi mumkin.

Muammoli ta'limga bag'ishlangan metodik adabiyotlarda muammoli vaziyatda o'quvchilarning o'zlashtirish jarayonini tashkil

etish va boshqarishga doir qator talablarga asoslangan holda bugungi adabiyot darslaridagi muammoli vaziyatlarni boshqarishga quyidagi talablarni qo'yish mumkin:

1. Adabiyot darslarida o'zlashtirilishi lozim bo'lgan o'quv materiali yaratiladigan muammoli vaziyatga asos bo'lishi va ular o'quvchilarning bilishga bo'lgan ehtiyojiga muvofiq kelishi kerak. An'anaviy usullarda o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilimlarni o'quvchilar o'qituvchi, darslik yoki boshqa ta'limiy vositalar orqali o'rganardi. Muammoli ta'limda esa o'quv materiali muammoli vaziyat orqali o'quvchilarning o'zlari tomonidan o'zlashtiriladi.

2. Adabiyot darslarida o'quvchilar o'zlashtirishlari lozim bo'lgan ma'lumotlarni etkazish ba'zan bolalarning har xil ijodiy imkoniyatlaridan foydalanish yo'li bilan ham tashkil etilishi mumkin. O'quvchilarning ma'lum qonuniyatlarni mustaqil ravishda anglashlari, zarur yo'llar yoki harakat shartlarini belgilashlari, ayrim hollarda, ulardan katta tayyorgarlikni talab qilsa, ba'zan kichkinagina turtki ham yetarli bo'ladi. Ba'zi bir holatlarda o'quvchiga o'zlashtirish qonuniyatlarini o'rganishda ko'maklashish, unga harakat yo'llarini ko'rsatish, vaziyat talab qilganidek ish tutishni o'rgatish kerak bo'ladi.

3. Adabiy ta'lim amaliyotida o'quvchi muammoli masalani hal qilishning dastlabki bosqichida avval olgan ma'lumotlaridan yoki talab qilingan faoliyat yo'nalishidan foydalanishi lozim. Ba'zi hollarda o'zlashtirilgan ma'lumotlardan foydalanish ayrim faktlarni tushuntirishdangina iborat bo'ladi, boshqasida zarur xatti-harakatlar tizimini amalga oshirish talab qilinadi.

4. Adabiyot darslaridagi o'quv topshiriqlari nisbatan qiyin bo'lgan hollarda u o'quvchi tomonidan hozir yechilishi zarur bo'lgan xususiy muammoli masala sifatida umumiy noma'lumliklar tizimining izchil davomi bo'lishi mumkin. Bitta muammoli masala bir yoki ketma-ket keladigan ikki muammoning davomi sifatida ham taqdim etilishi mumkin. Darslarda tashkil qilingan muammoli holatlarda o'quvchilar o'zlashtirishlari lozim bo'lgan adabiy-nazariy bilim hamda ma'naviy-axloqiy sifatlar ularning ongli ishtiroki va mehnati bilan amalga oshiriladi. Keltirib chiqariladigan muammoli vaziyatga noma'lum bilimlarni o'zlashtirish, oldin tuyilmagan insoniy kechinmalarni tuyish va odamni his qilishga ehtiyoj uyg'otadigan, harakatning to'g'ri bajarilishiga xizmat qiladigan, o'quvchini adabiy

ta'lim maqsadi sari yetaklaydigan nazariy-amaliy, ma'naviy-axloqiy masalalar asos bo'ladi.

Adabiyot darslarida muammoli vaziyatlar yaratishni:

- Said Ahmadning 8-sinf "Adabiyot" darslik-majmuasiga kiritilgan «Ufq» romanidan keltirilgan parcha¹ bo'yicha "Yozuvchi Tursunboyga nisbatan noxolis munosabatda bo'lgan";

- Abdulla Qodiriyning 9-sinf darsligida berilgan "O'tgan kunlar" romani asosida "Kumush o'z xudbinligining qurboni";

- Tog'ay Murodning 6-sinf darsligida taqdim etilgan "Yulduzlar mangu yonadi" qissasi yuzasidan "Bo'ri polvon yaxshi kurashchi-yu, yomon ota";

- Odil Yoqubovning 6-sinf darsligida taqdim etilgan "Muzqaymoq" hikoyasi asosida "Egamberdi Yoqubov davrning emas, o'z o'jarligining qurboni";

- Pirmiqul Qodirovning 6-sinf darsligida berilgan "Avlodlar dovoni" romani asosida "Humoyun uquvsiz, bilimsiz, noshud shahzoda. Shuning uchun ham jangda mag'lubiyatga uchradi" va hokaz o'quvchilarda darhol qarshi munosabat uyg'otadigan, ularni muvozanatdan chiqaradigan, tuyg'ularini junbushga keltiradigan, qahramonlar himoyasiga otilib chiqishga yo'naltiradigan muammolar asosida tashkil etish mumkin.

Umuman, xulosa qilib shuni aytish mumkinki, adabiyot darslarini samarali tashkil etishda muammoli ta'lim texnologiyasiga murojlat qilish va uni har jihatdan to'g'ri tashkil eta bilishda adabiyot o'qituvchisidan kattagina bilim, mahorat talab etiladi.

Badiiy matnning didaktik tahlili namunasi

"Hellados" hikoyasini o'rganish

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining "Adabiyot" dasturida taniqli gruzin adibi Nodar Dumbadzening "Hellados" hikoyasini beshinchi sinfda to'rt soat mobaynida o'rganish tavsiya etilgan². O'qituvchi ushbu hikoyani o'rganish darsiga tayyorgarlik ko'rayotganda hikoyadagi bolalar hayoti va ular orasidagi murakkab munosabatlarga,

¹ Каттабеков А., Йулдошев Қ., Болтабоев Ҳ. Адабиёт. 8-синф учун дарслик-мажмуа. –Т.: "Укитувчи", 2002. 288-бет.

² Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-9-sinfi uchun adabiyotdan o'quv dasturi. – T.: RTM, 2017.

vatanga muhabbat tuyg'usining o'ziga xos tasviriga, Yanguli va Jamol timsollaridagi ayricha xususiyatlar hamda tabiatlaridagi umumiy va farqli jihatlariga, Yanguli xarakteriga xos bo'lgan jangarilik, olijanoblik va vatanparvarlik tuyg'ulari tasviriga e'tibor qaratib, shular aks etgan o'rinlarni belgilab oladi. Hikoyada vatanga bo'lgan muhabbat hissi insondagi qator tuyg'ularning eng ulug'i ekani tasvirlangan. Asar qahramonlari ham sinfdagi o'quvchilar qatori bolalar. Ular kabi urushqoq, shu bolalar singari to'polonchi. Hikoyada qalamga olingan har bir bolalarning ruhiyati, ko'ngli, ichki olami turfa. Buni didaktik tahlil jarayonida o'quvchilar ham farqlashlari kerak.

O'qituvchi "Hellados"ni o'rganishga ajratilgan to'rt soatni ikkitadan ikki kunga birlashtirishga erisholsa, darsning yutug'iga ilk sharoit yaratgan bo'ladi. Chunki hikoyaning hajmi kattagina. O'rni kelganda shuni ham aytish kerakki, amaldagi 5-sinf "Adabiyot" darsligida¹ hikoyaning matni to'liq berilmagan. Mualliflar darslikda asardan parchalar berib, (afsuski, bu parchalar ham uzuq-yuluq, o'quvchi uni o'qib baraka topolmaydi) uning to'liq matnini o'quvchilar o'zlari topib o'qiydilar degan fikrni nazarda tutishgandir. Lekin barcha o'quvchilar bu hikoyaning to'liq matnini qaerdan topadi? Istasa-istamasa hikoya bilan chala tanishiladi.

Bu hikoya mazmun-mohiyati bilan ushbu yoshdagi bolalarga juda yaqin bo'lgani, ularning tabiatida asar qahramonlari bilan mushtarak jihatlar ko'pligi va uning ayni shu yoshdagi tarbiyalanuvchilarga ma'naviy ta'siri kuchli bo'lishi nazarda tutilib dasturga kiritilgan. Shuning uchun o'qituvchi hikoyaning to'liq matnini topib, o'qib bergani ma'qul². Hikoyani to'liq o'qish uchun 40–41 daqiqa kerak bo'ladi. Aytish kerakki, o'quvchilar darsda shunchaki tinglovchi bo'lib o'tirsalar, bu vaqt ichida fikrlari chalg'ishi mumkin. Demak, o'qituvchi bolalarni jimgina tinglashdan asarning qaysidir o'rinlarini qayd etish, nimanidir belgilab qo'yish yo'li bilan ishlab tinglashga o'rgatishi kerak.

Hikoya o'qib chiqilgach, Jamol bilan Yanguli orasidagi dastlabki to'qnashuvlar va keyingi munosabatlar tasviri hamda hikoyaning fojeali yakuniga o'quvchilar diqqati qaratiladi. Avval boshda

¹ Ahmedov S. va boshq. Adabiyot. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. – T.: «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2020. – 253–268-b.

² <https://ziyouz.uz/jahon-nasri/nodar-dumbadze/nodar-dumbadze-Hellados-hikoya/>

Yangulini xushlamagan o'quvchilar keyinroq uni yaxshi ko'rib qolishlari, g'ururli Jamolga esa havas bilan qarashlari tayin. O'quvchi ko'nglidagi mana shu havas va muhabbat tuyg'usi jo'sh urib turganda, tuyg'ulari sovimasdan turib, asarning tahliliga kirishilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Shuning uchun ham ikki soatni birlashtirish kerak degan fikr o'rtaga tashlangan.

O'quv yili davomida anchagina tajriba orttirgan o'quvchilar keyingi darslar asar tahliliga ajratilishini yaxshi biladilar va ruhan shunga tayyorlanadilar. Shu bois o'quvchilar asar o'qilganidan so'ng uning mazmuni va timsollarga munosabatlarini aniqlashtirib, fikrlarini tiniqlashtirib olishga tayyorlana boshlaydilar. Bu – mohir o'qituvchi tomonidan o'quvchilarida yil davomida shakllantirilgan ko'nikma. Ularning asar tahlilini nechog'lik ustalik bilan amalga oshirishlari esa egallangan ko'nikmaning qanchalik malakaga aylanayotgani darajasini ko'rsatadi. Ular har bir o'qigan, eshitgan, bilgan narsalarini shunchaki eshitib, shunchaki bilib qo'ya qolmaydilar. Har holda, endi bunday qila olmaydilar. Ular hammasini tahlil qilib ko'radilar, munosabat bildiradilar, xulosa chiqaradilar. O'quv yili oxirida o'quvchilar bilan "Hellados"ning go'zal tahlilini amalga oshirish mumkin.

Hikoya tahliliga kirishilar ekan, dastlab Yangulining portreti tasviriga o'quvchilarning e'tibori qaratiladi. O'qituvchi hikoyaning shu o'rinlarini qayta o'qib beradi. Shundan so'ng o'quvchilardan Yangulining tashqi ko'rinishi bilan ichki dunyosi o'rtasida bog'liqlik bor-yo'qligi, o'smirning bezoriliklari tagida qanday maqsad yotganligi to'g'risida so'raladi. Shundoq bezori bola qalbida samimiylik, insonga mehr, vatanga shunchalar katta muhabbat borligini tasavvur qilish qiyin. Insonning ko'rinishi, tabiati, qilmishlari hamisha ham uning ichki "Men"ini to'liq ko'rsatavermasligini, odamning nechog'li murakkab yaratiq ekanini o'quvchilar Yanguli timsolida ko'radilar.

Hikoyada Jamolning Yanguliga bergan bahosiga tayanib, uning ruhiyati, shaxsiga xos jihatlarni o'quvchilar tasavvurida qayta tiklashga urinish kerak. Jamolning tabiatidagi barcha sifatlar – mard, o'ziga ishongan, mag'rur o'smirlarga xos. Tabiatan mag'rur yigitlarning barchasining qiladigan ishi ham, gapiradigan gapi ham o'xshash bo'ladi. Bundaylar fe'lidagi mag'rurlikni ilg'ab olgan kishi ularning hamisha shunday yo'l tutishini biladi. Hayotdagi Yangulilar murakkab. Ularning qachon nima qilishlarini, qachon o'zlarini qanday

tutishlarini bilmaysan, kishi. O'quvchilar ham Jamolni boshdan yaxshi ko'rib qolishadi. Uning yaxshi sifatlarini sanashlari ham tabiiy.

Suhbatni davom ettirib o'qituvchi: *"Ammo har gal men yaqinlashganimda Yanguli bolalardan birortasiga tashlanib qolar – goh telpagini ko'ziga bostirib qo'ysa, goh hech narsadan hech narsa yo'q, yumshoq joyiga tepar edi. Shunda negadir nigohini men tomondan uzmasdi"* tasviriga e'tibor bering. Yangulining nega shunday qilganligini tushuntiring" deya o'quvchilarini mulohaza yuritishga undaydi. Buning uchun tarbiyalanuvchilar o'zlarini Yangulining o'rniga chinakamiga qo'yib ko'rishlari kerak bo'ladi. O'z oldilariga: "Yanguli nega shunday qilyapti? Men shunday qilarmidim? Nima uchun shunday qilgan bo'lar edim? Jamolning e'tiborini tortish uchunmi? Unga o'zimning zo'rligimni ko'rsatib qo'yish uchunmi?" kabi savollarni qo'ysa, Yanguli o'zi istagan narsaga erishganini, Jamolga o'zini ko'rsata olganini anglaydilar. Jamol uning bu qiliqlariga e'tibor qilgani aniq. Boshqacha bo'lishi ham mumkin emasdi. Chunki ular bir-birlarini o'rganayotgan edilar.

Ustozi tomonidan qo'yilgan: "Jamolning: *"Aslida esa hoziroq bolalarga qo'shilib ketgim kelib turar – ularga o'zimning nimalarga qodirlikimni ko'rsatib qo'yishni istardim"* degan iqrorini siz qanday tushundingiz?" savoli asnosida o'quvchilar Jamolning Suxumida yangiligini, bolalar bilan uning orasida Yanguli turganini, tabiatidagi mag'rurlik tufayli bola bo'lib yayray olmayotganini o'zlari anglagan darajada ifodalaydilar. Lekin Jamolning: *"Ammo o'rtamizdagi betaraf maydon tobora qisqarayotganini, vishillab yonayotgan pilik pistonga yaqinlashib qolganini, bir kunmas-bir kun portlash yuz berishini ko'nglim sezib turardi"* – degani uning ziyorakligidan, vaziyatni to'g'ri baholay bilishdan ekanini o'quvchilar sezadilar. Bunday chiroyli ifoda vaziyat haqida xabar beribgina qo'ymay, o'quvchida muayyan kayfiyat ham uyg'otishiga ko'ra diqqatga molikdir. O'qituvchi bu jumlaning qayta o'qib berib, o'quvchilar uni qanday tushunganlarini so'rashi kerak bo'ladi.

Musiqqa muallimi baliqchalari o'lib qolib: *"...faqat baliqshunoslarga tasavvur qila oladigan hodisa"* yuz berganda Jamolning holatini, tuyg'ularini izohlashga o'quvchilarni undash o'rinli bo'ladi. Ayolning holatini, uning boshiga faqat baliq boqish bilan shug'ullanadigan kishilarga to'liq tasvur qila oladigan darajadagi baxtsizlik tushganini o'quvchilar ham his etishga urinib

ko'rishsin. Ular gunohsiz ammo aybdor Jamolning iztiroblariga ham diqqat qilishlari zarur. O'quvchilar musiqa muallimini ham, Jamolni ham tushinishga, ularga o'z munosabatlarini tayin etishga urinib ko'rsinlar.

“Jamolning Yanguli bilan to'qnashuvi baliqlar halokati tufayli unda yuz bergan ruhiy holatmi yoki boshqa biror sabab bormi? Nima deb o'ylaysiz, Jamol baliqchalarni o'ldirib qo'yib, o'qituvchisidan shapaloq yemaganida shu mushtlashuv bo'lmasligi mumkinmidi?” savollari o'quvchilardan vaziyatni o'zicha tahlil qilib, munosabat bildirishni talab qiladi. Har kimning nazari har xil va munosabati ham shunga yarasha bo'ladi. O'qituvchi turfa fikrlarni eshitishdan, o'quvchilar esa bir-birining fikrini tinglab, to'g'ri-noto'g'riligidan qat'i nazar hurmatlashdan zerikmasliklari kerak. O'qituvchi tahlil mobaynida mana shularni ham nazorat qilib borishi kerak bo'ladi.

Skripka sindirilganida Jamolning atrofdegilar haqidagi: *“Bolalar xoxolab, yerga dumalashdi”* tarzidagi e'tirofi bor. O'quvchilari e'tiborini shu lavhaga qaratgan ustozning: “Siz o'sha bolalar haqida qanday fikrdasiz? Ularning yoniga o'zingizni qo'yib ko'ring. Siz nima qilgan bo'lardingiz?” kabi savollari tarbiyalanuvchilarni jiddiy o'ylantiradi. Ularni o'ziga, o'z xatti-harakatlariga tashqaridan qarashga, taftish qilishga undaydi. O'quvchilar tomonidan chiqarilgan xulosalar ijobiy bo'lib *“Men bunday qilmasdim...”* deguvchilar ko'p bo'ladi, albatta. Javoblarning orasida samimiysi, rosti ham bo'lsa ajabmas. Lekin muhimi bu emas. Muhimi, o'quvchilarda tanlash va yaxshini yomondan farqlash mas'uliyati paydo bo'ladi. Bunday narsalar haqida o'ylay boshlagan o'quvchi vaziyatga qul bo'lmaydi. Unda har bir hodisaga nisbatan o'z yondashuvi qaror topa boradi. Dunyoda faqat tomoshabin bo'lib, yakkash zo'rlarga chapak chalib yashab bo'lmasligi haqida o'ylab ko'rishga odatlanadi.

O'quvchilar diqqati Jamolning skripkasi Yanguli tomonidan sindirilgandagi: *“Yuragim go'yo to'xtab qolganday bo'ldi, miyamga qon urildi, quloqlarim bitib qoldi. Men hech narsani eshitmas, sezmas edim”*, – degan iqroriga tortiladi. Uni shu holatga tushishiga sabab bo'lgan narsaga munosabatlari so'raladi, vaziyat tahlilga tortiladi. Jamolda Yangulining kimligini bilgani holda unga qo'l ko'tarishga kuch qayerdan paydo bo'ldi? Jamol musiqa o'qituvchisi tomonidan yuziga tortilgan shapaloqning zarbi, alamidan shunday holatga tushdimi yoki Yangulining qilig'idanmi? Yoki *“o'sha kuni musiqa*

olamidagi sarguzashlariga nuqta qo‘yil‘ganidanmi? Axir uning musiqaga muhabbati ham uncha baland emas edi-ku! Yoxud adolatsizlikning miqyosidanmi? Shular haqida o‘ylab ko‘rish, o‘z haqiqatlarini topib olishga urinish, o‘z xulosalarini asoslashga intilish o‘quvchilarning ma‘naviy kamolotiga ta‘sir ko‘rsatmay qolmaydi.

Tarbiyalanuvchilarning e‘tibori o‘zidan kichiklarning cho‘ntagini qoqlashdan toymaydigan, qimor o‘ynaydigan, ayni vaqtda, mushtlashuvda faqat halol yo‘l tutadigan Yanguli tabiatiga qaratiladi. Ular Yanguliga xos bo‘lgan sifatlarning har biriga alohida to‘xtalib munosabat bildirsinlar. Qaytmaslik, halollik, ayni vaqtda zo‘ravonlik singari qarama-qarshi jihatlarning bir kishida mujassamlashgani haqida o‘ylab ko‘rish ma‘naviy dunyosi shakllanayotgan o‘quvchiga saboq bo‘ladi.

Jamol bilan mushtlashishdan oldin Yangulining “*amirona ishora bilan...*” aytganlariga asoslanib o‘quvchilar asli grek bo‘lgan bu boladagi Gruziyada o‘zini yurt egasi deb his qilish tuyg‘usi va o‘sha yerlik bolalar ham uni o‘z sardori deb tan olishlari haqida o‘ylab ko‘rishsin. O‘qituvchi tomonidan taqdim etilgan: “Yanguli asli qayerlik bola? Unda Gruziyaga nisbatan bunday egalik hissi qayerdan paydo bo‘lgan?” singari qo‘shimcha savollar o‘quvchilarga o‘z fikrlari yo‘nalishini belgilab olishlariga imkon beradi. Bundan tashqari, o‘quvchilar bu sifatlarning Yanguli hayotiga, uning oxirgi tutumiga qanday aloqasi borligi to‘g‘risida ham mulohaza yuritishsin. Vatanparvar bo‘lish uchun vatanda tug‘ilish yetarli yoki uni sevish muhimroqmi? Bu savol o‘quvchilarni o‘ylantirishi shubhasiz.

Yangulining Jamol bilan bir qo‘lda mushtlashmoqchi bo‘lgani sababi haqida, uning nega shunday qilganligi to‘g‘risida o‘quvchilarning fikrini so‘rash o‘rinlidir. Bir qo‘lli raqib bilan olishishni istamagan: “...*shartta burilib, bir og‘iz ham gapirmay, jang maydonini tark et*”gan Jamolni, har safar uni masxaralaydigan bolalarning bu gal unga indamay yo‘l bo‘shatishlari, Yangulining Petyaga tarsaki tushirgani sabablarini ham o‘quvchilar muhokama qilsinlar, munosabat bildirsinlar. O‘quvchilar Jamolning: “...*men yig‘lardim, bolalar ko‘z yoshlarimni ko‘rishlarini istamasdim. Yig‘lardim-u, lekin bugungi olishuvda g‘olib chiqqanimni ich-ichimdan his etardim*”, – tarzidagi fikriga asoslanib uning shaxsiga xos sifatlari: “Jamolning holatini siz qanday baholaysiz? Siz ham

Jamolni g'olib deb bilasizmi? Nega shunday deb o'ylaysiz?" singari savollar ko'magida muhokamaga qo'yiladi. Munosabatlar so'raladi.

Koka bilan Jamolning: "*Onasiga o't! -Yo'q, onani aralash tirib bo'lmaydi!*" tarzidagi suhbatiga ham o'quvchilar munosabat bildirganlari ma'qul. G'oyat qaltis vaziyatda ham Jamol imkon qadar o'zligiga xiyonat qilmaslikka tirishadi. U Yangulining onasini so'kishni istamaydi. Azbaroyi yengilib qolmaslik uchun, o'shanda ham Kokaning zo'ri bilan o'zi unchalik ham tushunmaydigan so'kishlarni qo'llaydi. Lekin Jamolning: "*Sezdimki, Yanguli ham onamga til tekkizdi, ammo bu so'zlar shu qadar xushohang, shu qadar yoqimli eshitildiki, go'yo u go'zal bir qo'shiqni boshlaganday bo'ldi nazarimda*" tarzidagi e'tirofi bor. Nega Yangulining onadan so'kinishi Jamolga bunday xush yoqdi? Hatto shunday tarzda bo'lsa ham onasi haqida nimalardir eshitganidanmikin? Yoki o'zi onadan so'kinmasligi bilan Yangulidan baland kelgani uchunmikin? Savol o'rta tashlangandan keyin har bir o'quvchi u haqda o'ylashga majbur bo'ladi, albatta. Hammasi o'zicha javob berishga urinib ko'radi, izlanadi. Kishida asardagi mana shunday nozik va yashirin holatlarni ilg'agan, ular ustida o'ylagan o'smirlarda shaxslikning go'zal sifatleri shakllanadi, degan umid paydo bo'ladi odamda.

Yangulining onaga ehtiromi ham havas qilgulik. O'quvchilarning e'tibori Jamol bilan har kuni onadan so'kishadigan bolaning to'satdan so'kinmay qo'yanligiga, kemada xayrlashayotganda nima uchun "*Jamol, oyingni yaxshi ko'raman!*" deganiga qaratiladi. Shu holatdan kelib chiqib ular Yangulining fe'li-xo'yiga, shaxsiyatiga munosabat bildiradilar.

Yangulining: "*Onam yo'q, hatto eslolmayman ham. Otam uzzukun tomorqada yoki tirikchilik tashvishida... Men ko'chada, Venesian ko'chasida katta bo'ldim... Mening vatanim, mening hyelladam bu – Suxumi, ko'cha, Chalbash; bu – Koka, Petya, Kurlika, Fema, Qora dengiz, ko'prik... – U bir yutinib olib davom etdi. – Bu – Mida... qolaversa, sen...*" - degan so'zlarini o'qituvchi qayta o'qib berib, bu gaplar ularda qanday tuyg'ular qo'zg'aganini so'rashi kerak. Bu savolga tuyg'ularini farqlay oladigan o'quvchilar javob berishadi. Hamma fikr aytmasa ham, o'ylab ko'rishi aniq.

O'qituvchi Jamolning: "*Nega birga ketmoqchimassan?*" degan savoliga Yangulining yuqoridagi javobidan so'ng Jamolning a'zoyi badani nima uchun jimirlab ketganini so'rashi kerak bo'ladi. Yanguli

soʻzlariga oʻquvchilarning ham munosabati aniqlanadi. Xoʻsh bu soʻzlar oʻquvchilarda qanday tuygʻularni qoʻzgʻadiykin? Bunday savollarga javob berish asnosida tarbiyalanuvchilarda tuygʻularini taftish qilish koʻnikmasi shakllanadi.

Yangulining: *“Vatan – ichkariroqda, naqd yurakning oʻzida!”* - degan soʻzlariga ham oʻquvchilarning diqqati tortilishi kerak. Bu shunchaki gap emas. Yangulining bu gapi oddiy gaplardan emas, u hikoyaning ham, har bir odamman degan mavjudotning ham bosh gapi sanaladi. Yanguli koʻkragiga *“Hellados”* (Gretsiya) deb yozib olgan boʻlsada, ayni koʻkrakning ichiga Gruziyani, Venetsian koʻchasini joylab olganini oʻquvchilar his etishlari kerak. *“Nima deb oʻylaysiz, hikoya bolalar haqidami yoki ularning ichidagi vatanga muhabbat tuygʻusi toʻgʻrisidami?”* degan savol oʻquvchilarning fikrlash jarayonini maʼlum manzilga yoʻnaltirib yuboradi.

Jamolning: *“...unga moʻltirab turishga bardoshim yetmadi. Kemaga ters oʻgirildim-da, yigʻlagancha uyga joʻnadim”*, - degan soʻzlarida uning holati qanday aks etganligiga oʻquvchilarning diqqati tortiladi. Uning shu holatidan shaxsiyatiga oʻtiladi. Asar boshida bir-birlari bilan kelisholmay yurgan bolalarning xayrlashuv oldidagi suhbati va holati tahlil qilinib, ular bir-birlariga gʻoyat oʻxshash oʻsmirlar ekani kashf etiladi.

“Yangulining halokati Sizda qanday tuygʻular uygʻotdi?” degan savol ham oʻquvchilarni oʻz fikrini aytishga undaydi. Ularning koʻngillarida oʻsmirga achinish, uning vatanga sadoqatiga havas hissi paydo boʻlishi tabiiy. Asarni oʻrganishdan kelib chiqadigan maʼno ham shunda.

Uyga vazifa sifatida *“Jamol va men”* yoki *“Yanguli va men”* mavzusida qiyosiy insho yozishni topshirish mumkin. Bunday rostlik, samimiyat va ziyraklik talab qiladigan inshoni hamma ham yozolmaydi, albatta. Lekin kimdir yozsa, oʻqituvchi bunga alohida hurmat bilan qarashi, insho muallifini birorta yangi kitob bilan ragʻbatlantirishi kerak. Bu oʻquvchi ertaga soʻz kishisi boʻlib yetishadi. Oʻqituvchisining bu eʼtirofi uni yuqoriga yetaklaydi, oʻziga ishonchini oshiradi.

Savol va topshiriqlar:

1. Muammoli taʼlimning maqsadi va vazifalari, uning oʻzigagina xos boʻlgan jamiki yetakchi jihatlarni ajrating va yozib oling. Soʻngra

ularning har birini alohida sharhlang. Yutuq va kamchiliklarini farqlang.

2. Ta'limning bu turi bilan maxsus shug'ullangan olim (V. Okon, M. Maxmutov, I. Ilitskaya, T. Kudryavsev, A. Matyushkin)larning muammoli ta'lim bilan bog'liq qarashlaridagi alohida jihatlarni ajratib yozing va taqqoslang. O'xshash va farqli tomonlarini aniqlab ularni tahlilga torting.

3. Muamoli ta'limda "...o'qituvchining asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarda intellektual zo'riqishga ehtiyoj va qiziqish uyg'otishdir", degan qarash mavjud. Siz, bo'lajak o'qituvchi, bunga qanday qaraysiz? Nima deb o'ylaysiz, inson biror masalani hal etishda o'zini ixtiyoriy ravishda zo'riqtirishi, yana bunga qiziqishi mumkinmi? Agar mumkin bo'lsa, o'qituvchi buni qanday amalga oshiradi?

4. Oddiy savol bilan muammoli savol orasida qanday tafovut borligini bilib oldingiz. Biror badiiy asar matni yuzasidan oddiy va muammoli savol tuzing. Oradagi farqni misollar asosida sharhlab bering.

5. Adabiyot darslarini muammoli ta'lim asosida tashkil etish yo'llariga e'tibor qarating. Bu jarayondagi muhimlarni ajrating. Har biriga alohida to'xtalib sharhlang.

6. Adabiyot darslarida muammoli ta'limdan foydalanishning o'ziga xos jihatlarni ajratib yozing va izohlang. Topildiqlaringizga tayangan holda o'zingiz tanlagan biror asar ustida muammoli ishlash yo'lini tayin eting.

7. Bugungi adabiyot darslaridagi muammoli vaziyatlarni boshqarishga qo'yiladigan talablar bilan alohida tanishing. Har birining mohiyatiga kirishga urinib ko'ring va izohlang. Ularni tashkil etish borasida o'z munosabatingizni bildiring. Fikrlaringizni kursdoshlaringiz bilan o'rtoqlashing.

8. Said Ahmadning "Ufq" romanidan keltirilgan "Qochoq" nomli parcha bilan tanishing. So'ngra shu matn mazmuni asosida tuzilgan muammoli masala: "Yozuvchi Tursunboyga nisbatan noxolis munosabatda bo'lgan" – ustida o'ylab ko'ring. Fikrlaringizni birgalikda o'rtoqlashing.

9. "Kumush o'z xudbinligining qurboni"; "Bo'ri polvon yaxshi kurashchi-yu, yomon ota"; "Egamberdi Yoqubov davrning emas, o'z o'jarligining qurboni"; "Humoyun uquvsiz, bilimsiz, noshud

shahzoda. Shuning uchun ham jangda magʻlubiyatga uchradi” singari muammoli masalalar haqida fikrlashish uchun avval bu asarlar bilan tanishing. Keyin har biri boʻyicha birgalikda muammoli daqiqalar tashkil eting.

10. «Hellados» hikoyasi mazmuni asosida muammoli savol va topshiriqlar tuzing. Bu jarayonda mantiqli-murakkab savol bilan muammoli savol haqidagi bilimlaringizga tayaning.

11. “Abdulla Oripov ijodida muhabbat tarannumi” mavzusida insho yozing. Bir-biringizning inshoyingizni tekshiring. Xatolar ustida suhbatlashing.

10-MAVZU. PEDAGOGIK INNOVATSION TEKNOLOGIYALAR VA ADABIY TA'LIM

Reja:

1. *Pedagogik innovatsiyalar va ularning yuzaga kelishi, tasnifi.*
2. *Adabiyot o'qitishga xos bo'lgan pedagogik innovatsiyalar.*
3. *Adabiy ta'limda innovasion texnologiyalardan foydalanish.*
4. *Badiiy matnning didaktik tahlili namunasi.*

«Innovatsiya» – lotincha soʻz boʻlib «yangilanish, yangilik, oʻzgartirilish» maʼnolarini anglatadi. Bu atama dastlab Gʻarb mamlakatlarida XIX asrda paydo boʻlgan. U yurt jtimoiy hayotiga boshqa bir mamlakatlar tilidan oʻtgan va uning turmush tarziga kirib borayotgan yangi tushunchalarni nazarda tutadi. XX asrning boshlarida ilmning “innovatika” degan yangi sohasi paydo boʻldi va u mamlakatda paydo boʻlgan texnik yangiliklarni oʻrganish bilan shugʻullanadi. Pedagogik innovatsiya tushunchasi Gʻarb mamlakatlarida XX asrning oʻrtalaridan boshlandi, bizning yurtimizda esa keyingi yigirma yil davomida paydo boʻldi va maxsus oʻrganila boshlandi.

Pedagogik jarayonga nisbatan innovatsiya tushunchasi taʼlim-tarbiyaning maqsadi, mazmuni, usul va shakllari, oʻqituvchi va oʻquvchilarning birgalikdagi faoliyatini tashkil etish kabi faoliyatlarga kiritilgan yangiliklarni anglatadi. Pedagogika fanidan joy olgan «taʼlimdagi innovatsiya» va «pedagogik innovatsiya» atamalari sinonim sifatida qoʻllaniladigan tushunchalardir.

Pedagogik innovatsiya – taʼlim va tarbiyaning samaradorligini oshirish maqsadida uning mazmuni, texnologiyasi hamda tashkil etish kechimiga kiritilgan yangiliklarni anglatadi. Shunday qilib innovatsiya jarayoni taʼlim-tarbiyani tashkil etish va uning mazmunini oʻstirishga kiritilgan yangiliklardan iborat tushunchadir.

Yangi taʼlimiy usul yoki bir necha metod va usullar yigʻindisi – **texnologiya**, bir qator vosita va usullardan iborat yangiliklar – **novatsiya**, ana shu vositalarni pedagogik amaliyotga tatbiq etish kechimi esa **innovatsiyadir**. **Pedagogik innovatsiya** taʼlim-tarbiya tizimini bir holatdan tubdan yangilangan boshqa holatga oʻtkazishga olib keladigan unsur va oʻzgarishlarni maqsadga muvofiq tarzda kiritishni koʻzda tutadigan izchil jarayondir.

Masalan: “texnologiya”, “interfaol metodlar”, “kreativ fikrlash”, “kognitiv yondashuv”, “PIRLS”, “PISA”, “TIMES” tadqiqotlari, “FLESH INDEX”, “Sun’iy intellekt” singari atamalar, soʻz va iboralar novatsiyalar; bugun ularning maʼlum bir tizimga (bizning vaziyatimizda milliy taʼlim ilmi va amaliyotiga) kirib kelishi jarayoni innovatsiya; ulardan foydalanish qatʼiy talablar asosida amaliyotga singib ketishi esa pedagogik innovatsiya hisoblanadi. Jumladan, test sinovlarini olaylik. Bundan bir necha yil avval “test” atamasi novatsiya sifatida tilimizda paydo boʻldi, rivojlangan davlatlardan kirib keldi. U milliy tarbiyashunoslikda innovatsion yangilik boʻldi. Test milliy taʼlim amaliyoti baholash tizimiga, oliy oʻquv yurtlariga kirish jarayoniga asos qilib olindi va pedagogik innovatsiyaga aylandi. Test sinovlari taʼlim tizimiga shunday sigʻishib ketdiki, hozir uning yangilik xususiyati ham qolmadi.

Pedagogik innovatsiya jarayoni quyidagi uch bosqichdan iborat boʻladi:

- 1) yangi gʻoya yoki kashfiyotni yuzaga kelish bosqichi;
- 2) gʻoyaga ishlov berish, uni amaliyotda foydalanish mumkin boʻladigan holatga keltirish bosqichi;
- 3) yangilikni sohaga joriy etish bosqichi.

Shunga muvofiq ravishda pedagogik innovatsiya jarayonini ilmiy gʻoyani amalga oshirish va ijtimoiy-pedagogik muhitda shundan kelib chiqadigan oʻzgarishlarni oʻzaro muvofiqlashtirishdan iborat kechim deyish mumkin. Yangilikni pedagogik amaliyotga olib kirish va bu yangilikni boshqarish tizimini tashkil etishga qaratilgan faoliyat innovasion faoliyat deyiladi.

Taʼlim jarayoni uchun maxsus loyihalashtirilgan, tadqiq etilgan yoki pedagogik tashabbuskorlik natijasi sifatida tasodifan kashf qilingan yangiliklar ham pedagogik innovatsiyalar hisoblanadi. Muayyan yangilikni ilmiy-nazariy jihatdan asoslash, yangi samarador oʻqitish texnologiyalari, amaliyotga joriy etishga tayyorlangan biror pedagogik tajribaning ilmiy-texnologik bayoni kabilar pedagogik innovatsiyaning mazmunini tashkil etishi mumkin. Yangilik – bu pedagogika fani yutuqlarini amaliyotga joriy etish, ilgʻor pedagogik tajribalardan foydalanish jarayonida oʻquv-tarbiya jarayonining yangi sifatga ega boʻlishini taʼminlaydigan vositalardan iborat.

Pedagogik innovatsiyalar davlat organlari, pedagogik jarayonni boshqaradigan maʼmuriyat singari yuqori tashkilotlar tomonidan emas,

balki fan va ta'lim tashkilotlari xodimlari, ya'ni pastdan, ishlab chiqarish jarayonidan tavsiya etilishi kerak. Yuqoridan pastga tushirilgan innovatsiyalar hech qachon kutilgan samarani bermaydi, ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirishga yetarli darajada xizmat qilmaydi. Afsuski, milliy ta'limshunoslikda mana shu ikkinchi holat kuzatiladi. O'qituvchi va tarbiyachi pedagoglar mutasaddi tashkilotlar tomonidan olib kirilgan innovatsiyalarning mazmun-mohiyatini tushunmayaptilar, ulardan amalda foydalanish yo'llari yaxshi o'rgatilmayapti. Natijada bu innovatsiyalardan dunyo miqyosida olingan natijalarga milliy ta'lim amaliyotida erishilmayapti.

Pedagogika ilmida innovatsiyalarni innovatsion o'zgarishlar shiddati yoki innovatsiyalik darajasiga ko'ra quyidagi sakkiz toifaga ajratish mumkinligi ko'rsatiladi:

1. Birinchi toifadagi innovatsiyalar mavjud ta'lim tizimi yoki uning biror qirrasiga xos jihatlarni bir qadar takomillashtirgan holda qayta yaratishga qaratilgan bo'ladi.

2. Ikkinchi toifa innovatsiyalarga ta'lim-tarbiya tizimining sifatini o'zgartirmagan holda unda miqdor o'zgarishlari qilishni ko'zda tutadigan yangiliklar kiradi.

3. Uchinchi toifa innovatsiyalar mavjud pedagogik tizimdagi vositalarning o'rnini almashtirish, ularni qayta joylashtirish, qo'llash qoidalari takomillashtirish orqali yuzaga kelgan innovatsiyalardir.

4. To'rtinchi toifa innovatsiyalar eski ta'lim modelidan voz kechmagan holda ta'lim tizimini yangi sharoitga moslash ko'zda tutilib amalga oshiriladigan innovatsiyalardir.

5. Beshinchi toifa innovatsiyalarda ta'lim tizimining ayrim qismlariga oddiy sifat o'zgarishlari kiritish orqali mavjud muammoga yangi yechim topish ko'zda tutiladi.

6. Oltinchi toifa innovatsiyalarda ta'lim-tarbiya tizimining "yangi avlodi" yaratilishiga uriniladi. Mavjud tizimga xos xususiyatlarning ko'pchiligi o'zgarishga yuz tutadi.

7. Yettinchi toifa innovatsiyalarni amalga oshirish natijasida ma'rifiy tizimlarning mutlaqo o'zgacha sifat xususiyatlariga ega bo'lgan "yangi turi" tashkil etiladi.

8. Sakkizinchi toifa innovatsiyalar ta'lim-tarbiya tizimidagi eng yuksak darajadagi yangilanishlar tufayli bu tizimning tubdan

o'zgartirilib, tamomila yangi sifat xususiyatlariga ega bo'lishiga erishilgan oliy darajasidir¹.

Pedagogik innovatsiyalarni ularning yuzaga kelishi holatiga ko'ra quyidagicha tasnif etish mumkin:

1. Tasodifiy innovatsiyalar.
2. Foydali innovatsiyalar.
3. Tizimli innovatsiyalar.

Ta'lim-tarbiya tizimining ichki mantiqi rivojidan kelib chiqmaydigan, tashqaridan sun'iy ravishda kiritiladigan pedagogik innovatsiyalar *tasodifiy innovatsiyalar* deyiladi. Ko'pincha bunday innovatsiyalar yuqori tashkilotlarning buyrug'iga ko'ra joriy etiladi va yaratilganidanoq samarasizlikka mahkum bo'ladi.

Muayyan ta'lim-tarbiya muassasalari vazifasi bajarilishiga muvofiq keladigan, lekin ilmiy-tashkiliy jihatdan atroflicha tayyorlanmagan, pedagogik tizim bilan yaxlit vujudga aylanib ketmagan pedagogik yangiliklar *foydali innovatsiyalarni* yuzaga keltiradi.

Aniq belgilangan maqsad va vazifalarga ega, mavjud ilg'or pedagogik qarashlar hamda an'analarga tayangan holda yaratilgan, o'quvchi va o'qituvchilar manfaatiga mos keladigan innovatsiyalar *tizimli innovatsiyalar* sanaladi.

Bunday innovatsiyalar juda puxta tayyorlangan bo'ladi, keng miqyosda yoyilishi ko'zda tutiladi. Malakali kadrlar, tashkiliy qurilma, tegishli moddiy-texnik baza hamda ilmiy-metodik materiallar bilan ta'minlangan bo'ladi².

Ma'lumki, ta'lim jarayonini amalga oshiruvchi o'quv ishlari, uning mazmuni, shakl va metodlarini zarur emotsiya bilan ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Hissiy holatlar hamisha ruhiy bezovtalik, ko'ngil hayajonlari, o'zgani tuyish, quvonch, nafrat, hayrat singari tuyg'ular bilan bog'liq. E'tibor qilish, eslab qolish, anglash jarayonlariga shaxsning chuqur ichki bezovtaligi, hayajoni qo'shilganda u faollashadi, zaruriy intellektual marraning egallanishi ta'minlanadi. Insonning his-tuyg'ulari ishtirokisiz haqiqatga intilish va erishish mumkin emas. Ayniqsa, adabiy ta'limda hamma narsaga

¹ Азимов Э. Г., Шукин А. Н. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). – Москва: "ИКАР", 2009. – С. 286.

² Азимов Э. Г., Шукин А. Н. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). – Москва: "ИКАР", 2009. – С. 288.

erishish uchun his-tuyg'u birinchi o'rinda turadi. Gap faqat uni zarur shakl va miqyosda uyg'ota bilishda. Hissiy bezovtaliklar, insonning ruhiy muvozanatdan chiqishi, asosan, hayrat orqali namoyon bo'ladi. Badiiy asarda ifodalangan hodisa, asar qahramonlari tuyg'ulari, ulardagi g'ayrioddiylik, ruhiy kechinmalar ifodasining samimiyligidan hayratlanish o'quvchida turli hissiyotlarni uyg'otadi.

Adabiyot darslarida emotsional holatlarni vujudga keltirishda o'qituvchi nutqining hissiyotga yo'g'rilganligi, tiniqligi, badiiyligi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Faqat bu holat o'ta samimiy bo'lishi kerak. Busiz o'qituvchining nutqi foydali axborotgina bo'lib, o'quvchiga hissiy ta'sir ko'rsatolmaydi. Shu bilan birga, darsning qiziqarliligini ta'minlashda bilishdan zavqlanish hissining ham o'rniga katta. Hissiyot o'quvchini muammoning ichiga kirishga undaydi. Ko'ngil ochish hislari bilan bilim olishdagi hislarning farqi shunda.

Polshalik taniqli pedagog V. Okon o'quvchining o'qitish kechimidagi mustaqilligini ta'minlash uchun asosiy e'tiborni ta'limning o'zlashtirish, kashf etish, his qilish, intilish singari yo'llariga qaratgan¹. O'zlashtirish yo'li bilan amalga oshiriladigan ta'lim, uning fikricha, o'quvchidan tayyor bilimlarni xuddi o'qituvchisi aytib berganday, bir tizimga solingan shaklda eslab qolishni talab qiladi. Bu holatda asosiy ish xotiraning zimmasiga tushadi. Bunday ta'limning natijasi u yoki bu bilimlarni esda saqlab qolishdangina iborat bo'ladi. Ta'limning o'zlashtirish yo'lida aqliy mehnat bilan bog'liq o'quv ko'nikmalari kam shakllanadi.

Qayta kashf etish yo'lidan borilganda ta'lim jarayonini ilmiy tadqiqotlarga imkon qadar yaqinlashtirish nazarda tutiladi. V. Okon qayta kashf etishning ikki muhim jihatini ajratadi: a) o'quvchilarda tadqiqotchilik faolligining ortishi; b) bilimlarni mustaqil ravishda o'zlashtirish. U bu yo'lning yana bir jihatiga – mehnat orqali erishilgan bilim o'quvchi shuurida chuqur o'rnashib qolishiga ham diqqat qaratadi².

Bu usuldan foydalanilganda bilimlarni o'zlashtirish tezlashadi, o'quvchilarning nazariy va amaliy muammolarni hal etishdagi faolligi ortadi, ko'nikmalari mustahkam bo'ladi. Bunday yondashuv asosan tafakkur mustaqilligi, kuzatuvchanlik, tasavvur, e'tibor va xotiraning

¹ Оконь В. Основы проблемного обучения. – Москва: «Просвещение», 1998. С.198.

² O'sha asar, 203-bet.

rivojlanishiga, umumiy aqliy madaniyatga katta ta'sir ko'rsatadi. Ya'ni, kashf etish asnosida tuyilgan lazzat har qanday odamni yangi-yangi kashfiyotlar sari yetaklaydi.

His qilish yo'li bilan bilim olishni tavsiflab, V. Okon Polsha maktablarida bilimlarni o'quvchini ruhiy muvozanatdan chiqarish orqali o'zlashtirilishiga erishish ustida ish olib borilganiga to'xtaladi. Olimning fikricha, o'quv materialini his qilish orqali o'zlashtirish ma'lum ijobiy xususiyatlarga ega. Unda bilimlar insonning ijodiy faoliyati orqali o'zlashtiriladi. Hissiyot bilimni o'quvchining ongiga mustahkam joylaydi¹. Bunda ta'limning tarbiyaviy ahamiyati ortadi. Chunki bu tadbirlar qanchalik darajada ta'limiy bo'lsa, shunchalik tarbiyaviy hamdir. Insonga o'z xudbinligi, nafsini engishga imkon beradigan ijobiy tuyg'ularning rivojlanishi uning kamolotini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etishi milliy tarbiyashunoslik tarixidan ham ma'lum.

Rus olimi S. Juykov o'quvchi mustaqil fikr faolligining yuzaga kelishidagi psixologik shart-sharoitlar, uni amalga oshirish va rivojlantirish yo'llari, o'quvchi tafakkurini boshqarish, nazorat qilish usullari hamda fikriy faoliyatda o'quvchi individualligi masalalariga to'xtaladi². O'quvchining intellektual faolligi biror o'quv masalasini hal etishda aqliy faoliyatning mustaqil ravishda ishtirok etishi va o'z-o'zini nazorat qilishida (aqliy operatsiyalarni bajarishda zarur usullarni qo'llash, tafakkur yo'llarini qidirishda) ko'zga tashlanadi. Bunday faollikni oshirishni S. Juykov o'qituvchi, darslik va boshqa o'quv ashyolari ta'sirida bajariladigan faoliyatdan mustaqil ravishda savol-topshiriq qo'yishga, ularning o'quvchi tomonidan bajarilishida qoliplardan voz kechib, masalalarni o'z bilimi va malakalariga tayanib, mustaqil hal etishida ko'radi. Uning fikricha, o'quvchi aqliy faoliyati mustaqilligi rivojlanishi masalaning muammolilik darajasiga bog'liq.

Innovatsion metodlarni tasniflashda ular yordamida o'quvchilarga tayyor bilimlarni zo'rlab singdirishga emas, balki tarbiyalanuvchilarning tafakkur imkoniyatlarini hisobga olishi, fakt va tajribaga asoslanishiga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Bir qator pedagog va psixologlar tomonidan ta'lim metodlari orasidan:

¹ Оконь В. Основы проблемного обучения. – Москва: «Просвещение», 1998. С. 211.

² Жуйков С.Ф. Проблема активизации учащихся в психологии обучения. //Советская педагогика 1966. № 8. С. 68–80.

muammoli, suhbat, evristik, tadqiqot, taqqoslash, induktiv, deduktiv singari umumdidaktik metodlarning samarali ekanligi ta'kidlangan. O'qituvchining ta'lim metod va usullari haqidagi bilimi qanchalik chuqur, ularni ma'lum maqsad yo'lida qo'llash imkoniyati qanchalik keng bo'lsa, har bir darsni tashkil qilish oson, unumli, foydali va jonli bo'ladi. Darsning o'zlashtirilish darajasi uning ko'rgazmaliligi, tashkiliy jihatdan benuqsonligidan tashqari, o'quvchilar mustaqil faolligini oshirishni, ularning nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olishini ham taqozo etadi. *"Ta'lim metodlari, - deb yozgan edi M. Maxmutov, - o'quvchi rivojlanishining yangi bosqichida tafakkur psixologiyasida to'plangan, ular tomonidan bilimlar va faoliyatni o'zlashtirish jarayonini boshqarishni yaxshilashga imkon beradigan barcha ma'lumotlarni qamrab olishi kerak"*¹.

Agar dars avvaldan ma'lum bilimlarga asoslanib o'tilsa, mantiqan yangi dalil va tushunchalarga tayanilmasa yoki o'rganilayotgan mavzu avval o'qilganlarning yangi bosqichiga aylanmasa, o'qituvchi ta'limni qanchalik baland darajada, qanday ilg'or metodlar bilan uyushtirmasin, muvaffaqiyat qozonolmaydi. Ta'lim metodlari faqat ma'lumotni qanday berishni belgilamaydi. Ular materialning tizimi va uni ayni shu yo'l bilan ishlashga tayyorlashni ham nazarda tutadi. Ya'ni u o'quv materialiga singdirilgan bilimni o'quvchi o'zlashtira oladigan tarzda berishni, bolalarda bilim olish qobiliyatini rivojlantirishni ham qamrab olgan bo'lishi kerak.

Ta'lim jarayonida ikkita harakatlanuvchi subyekt: o'qituvchi bilan o'quvchining har biri o'z maqsadi yo'lida faoliyat ko'rsatishar va ta'lim metodi ularning faoliyat usuli ekan, bu subyektlarning maqsadga erishish yo'llari har xil bo'lishi mumkinligi ham ko'zda tutilishi kerak. O'qituvchi faoliyatida yo'naltirish, bilimlarning o'quvchi tomonidan o'zlashtirilishini ta'minlash yetakchilik qiladi. O'quvchining faoliyatida esa o'z-o'zini tarbiyalash, o'qish-o'rganishning samarali yo'llaridan foydalanish ko'zga tashlanadi.

Badiiy asarda ilgari surilgan g'oya, fikr va mulohazalarni anglash uchun ularning mantiqiy asosini topish talab qilinadi. Shuning uchun o'quvchi tafakkuri va faoliyatida mustaqillikni ta'minlovchi mantiqiy metodlardan alohida maxsus darslarda emas, umuman adabiy ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida, yangi darsni tushuntirishda ham,

¹ Махмутов М. И. Современный урок. – Москва: «Педагогика», 1985. – С. 9–10.

o'tilganlarni mustahkamlashda ham, topshiriqlarni bajarishda ham foydalanish mumkin. O'quvchida ma'naviy barkamollikni ta'minlash asosi bo'lgan mustaqil tafakkurni shakllantirish va rivojlantirishda mantiqiy metodlar ko'proq samara beradi.

Ta'lim jarayonidagi o'zgarishlardan o'quvchi ham xabardor qilinishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Har bir mashg'ulot darsning maqsadi va mavzuni o'rganishning rejasini ma'lum qilishdan boshlansa, o'quvchilarga darsda o'z faoliyati yo'nalishini aniqlab olishga imkon beriladi. O'qituvchi tomonidan e'lon qilingan mana shu qisqagina rejada yangi mavzu mazmunining muhim jihatlari belgilab qo'yilgan bo'ladi. Bu, o'z navbatida, o'quvchini darsga, bilimlarni o'zlashtirishga ham ruhan tayyorlaydi.

Xullas, bugun mazkur darslikdagi mavzular mazmunida milliy adabiy ta'lim amaliyotiga olib kirilayotgan bir qator: "subyekt-subyekt", "hamkorlikda ishlash", "ijodiy faoliyat", "kreativ yondashuv", "kognitiv munosabat", "muammoli o'qitish" kabi iboralarni, o'qituvchi va o'quvchi munosabatlaridagi o'qituvchi hokimligiga chek qo'yish, o'qitishni bas qilish, o'qituvchining vazifasi o'qitish emas, balki o'quvchilarni bilimlarni o'zlari o'zlarini ham aqlan, ham ruhan zo'riqtirgan holda o'zlashtirishlariga yo'naltirish, o'qiydigan vaziyatga solish singari bir qator tushunchalarni ham qaysidir darajada innovatsiyalar, ya'ni milliy adabiy ta'lim maetodikasi ilmi va amaliyotidagi o'ziga xos innovatsiyalar deyish mumkin.

Badiiy matnning didaktik tahlili namunasi

"Mahbub ul-qulub" asarini o'rganish yo'llari

Navoiy ijodini o'rganish umumiy o'rta ta'limning hamma bosqichlarida ko'zda tutilgan bo'lib, bunda soddadan murakkabga tomon borish didaktik tamoyiliga amal qilingan. Jumladan, 6-sinf "Adabiyot" darslik-majmuasi da "So'zda hikmat bor" rukni ostida Alisher Navoiyning "Mahbubul-qulub" asaridan olingan parchalar o'rganishga dasturda uch soat ajratilgan. "*Mahbub ul-qulub*" hayotiy

¹ Ahmedov S. va boshq. Adabiyot. Umumiy o'rta ta'lim maktablarning 6-sinfi uchun darslik. II qism. – T.: «Ma'naviyat», 2017. – 31–46-b.

*hikmatlar majmuasi sifatida. Asardagi ilm va hunar, yaxshilik, insoniylik, rostgo'ylik va yolg'onchilik, sabr va qanoat, mehr, vafo, insoniylik haqidagi hikmatlarning o'ziga xosliklari. Ularning xalq maqollariga yaqinligi, ulardan farqi. Bu hikmatlarning ma'naviy-axloqiy, ta'limiy, tarbiyaviy va badiiy ahamiyati, hikmatlarda hayotiy hodisalarning qisqa, ixcham, lo'nda va ta'sirchan ifodalangani. Ulardagi badiiy tasvir vositalari"*¹

tarzida asarga yondashuv yo'llari taklif etilgan.

Mazkur asardan berilgan namunalardan biri – "Tavoze va odob to'g'risida"gi rivoyatda yaxshi va yomon sifatlar insonni qanday oqibatlarga olib borishi aks ettirilgan.

O'quvchilarni bu mavzuga qiziqtirish va uning didaktik tahliliga tayyorlash uchun o'qituvchi Alisher Navoiy haqida kim nima bilishini so'ragani ma'qul. Shunda o'quvchilar: 2-sinfda o'rgangan "Alisher Navoiy va bulbul", "Shoir bilan shoh", "Hikoyat" ("Saddi Iskandariy"dan), "Yolg'onchi"; 3-sinfda o'qigan "Donolarning donosi", "Aziz ustoz bobom", "Navoiy hikmatlari"; 4-sinfda o'qib o'rgangan "Alisherning yoshligi"; 5-sinfda o'zlashtirganlari "O'ninchi maqolot" va "Sher bilan durroj" kabi asarlarni eslashadi. Bunda o'qituvchi bu asarlarning qay biri Navoiyning o'zi yozganlari-yu, qay biri Navoiy haqida boshqalar yozganlari ekanligini ajratib, bevosita ulug' bobokalonga tegishli asarlarga alohida e'tibor qaratadi va ularga qisman to'xtaladi. Ana shundan so'ng shoir haqida darslikda berilgan ma'lumot yuzasidan kichik suhbat tashkil qiladi va bunda Alisher Navoiyning bizga qoldirgan ma'naviy merosidagi yirik nasriy asarlaridan biri "Mahbubul-qulub" ekanligi haqida alohida so'z yuritadi. O'rganiladigan parchalar Navoiyning shu asaridan olingan bo'lib, u shoir umrining so'nggi yillarida, ya'ni 1500 yilda yozilganini ma'lum qiladi.

Navoiy "Mahbub ul-qulub"da shunday yozadi (bu darslikda berilmagan): "...kamina bolalikdan to qarilikka qadar ko'hna davron voqealaridan, ...zamonning rang singari guno-gunligidan ko'p vaqt va uzoq muddat har xil xayol va taraddudlar bila... yurdim. ...turli yo'llarga kirdim, yaxshi-yomonning xizmatini qildim; katta-kichikning suhbatida bo'ldim; goh xorlik va qiyinchiliklar vayronasida nola qildim; goho izzat va ma'murlik bo'stonida majlis qildim. ...ba'zan

¹ Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-9-sinfi uchun adabiyotdan o'quv dasturi. – T.: RTM, 2017.

ilm-fan madrasalarida quyi saflardan joy oldim va olimlar majlisida ilm nuridan ko'nglimni yoritdim; goh pastkash va baxil kishilar qo'lida xo'rlandim va razil-nokaslar oldida e'tiborsiz bo'ldim. ...goho axiyalar xizmatidan va ular suhbatidan bahramand bo'ldim hamda o'z so'zimni ularga yoqimli topdim. ...har yo'lda yurdim; olamda bo'lmish har nav odam bilan ko'rishdim; yaxshi-yomonning xislatlarini tajribadan o'tkazdim; yaxshilik va yomonliklarning sharbatini ichib, zahrini totib ko'rdim. Baxil va pastkashlarning zaxmini, saxovatli kishilarning malhamini ko'nglim darhol sezadigan bo'lib qoldi... Shu jihatdan hamsuhbatlarni va do'st-yoronlarni bu hollardan ogoh va xabardor qilmoq vojib ko'rindiki, toki ular ham har toifaning xislati haqida bilimlari va har tabaqaning ahvoli haqida tushunchalari bo'lg'ay. Ular ham munosib kishilarning xizmatig'a bel bog'lab, nomunosib odamlar suhbatidan, azob-uqubatlaridan o'zini tortish lozimigini bilgaylar va maxfiy sirlarini har kimga so'zlamagaylar, shayton sifat odamlarning hiyla-nayranglariga aldanib qolmagaylar...

Umid shulki, bu asarga o'quvchilar diqqat-e'tibor bilan nazar solib, har qaysilari o'z fahmi-idroklariga yarasha dillarini obod va yozuvchi ruhini ham duo bila shod etgaylar»¹ Buyuk shoirning bu e'tirofi, o'z hayotidan chiqargan saboqlari ekani bolalarga tushuntirilsa, ular Navoiy timsolida bundan besh asr avval yashab o'tgan tarixiy shaxsining o'z ota-bobolari singari bir inson bo'lganini his qiladilar.

Asar uch qismdan iborat ekani, birinchi qism har xil odamlarning fe'l-atvori va ahvoli haqida, ikkinchisi yaxshi fe'l xosiyati va yomon xislat kasofati haqida, uchinchisi turli foydali kuzatishlar hamda misollar haqida ekani ma'lum qilinadi. "Tavoze va odob to'g'risida"gi parcha "Mahbubul-qulub"ning "Kishilarning ahvoli, fe'l-atvori va gap-so'zlarining ahamiyati haqida"gi ikkinchi qismidan ekanligi aytilib, matn o'qishga kirishiladi.

O'qituvchi matnni o'qiyotganda o'quvchilar uni darslikdan kuzatib borishlarini talab qilishi lozim. Shunda ular o'qituvchi bilan birgalikda matnni o'qib boradi, tez va ifodali o'qishga o'rganadi, matnning qirotatiga moslashadi. O'qituvchi matnning qay o'rnini qanday ohangda o'qish kerakligini avval o'zi uchun aniqlab olishi

¹ Алишер Навоий. Махбубул-қулуб. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983. – 13–14-б.

kerak, chunki o'qituvchining o'qish ohangi, uslubi, ifodasi qanday bo'lsa, bolalar matnni shunday qabul qiladilar va o'zlari ham shunday o'qiydilar. Asar matni katta yoshli kishilarga xos salmoqli, og'ir-bosiq ovoz bilan o'qiladi.

Matnni ifodali o'qishi uchun 6–7 daqiqa yetarli. Keyin asarning tahliliga kirishiladi. Taxlil qilinadigan har bir so'z yoki so'z birikmasining ma'nosi haqida avval bolalardan so'raladi, ularning fikrlari tinglanadi, shundan so'nggina o'qituvchi xulosa qilib tushuntirish beradi. Masalan, "xoksorlik", "kamtarlik", "hurmat", "izzat", "ehtirof", "itoatgo'ylik", "bo'ysunish" kabi ma'nolarni o'z ichiga olgan birgina "tavoze" so'ziga shoir nega alohida e'tibor berganiga diqqat qaratiladi. Insonga xos bo'lgan yetti fazilatni o'zida mujassamlashtirgan bu birgina sifat – tavozening odam uchun qanchalar zarurligi va bunday fazilatga ega bo'lgan kishi atrofdegilar uchun nechog'li qadrlil ekani ta'kidlanadi. Navoiyning bu sifatga alohida to'xtalgani bejiz emasligini o'quvchilar xis qilishlari lozim.

Shundan so'ng ularning diqqati adibining: "*Tavoze – do'stlik gulshanida toza gullar ochadi va gulshandan oshnolik va ulfatchilik bazmiga xilma-xil gullar sochadi*" jumlasidagi "do'stlik gulshani", "toza gullar", "bazm", "gullar sochadi" kabi so'z va iboralarga, ularda ifodalangan obrazlilikni ochishga undaladi. Ya'ni, tavozeli kishilar davrasini Navoiy bir gulshanga o'xshatadi. U yangi-yangi do'stlar orttirishni toza gullar (shunday sifatlarni egallagan avlod, yoshlar)ning ochilishi (tarbiyalanishi, shakllanishi)ga, oshnolik va ulfatchilik (shunday sifatlarga ega bo'lgan kishilar davrasi) suhbatlarini guliston (odamlar dunyosi, jamiyat)ning yanada ko'rkamlashuviga qiyoslaydi. Tahlil shunday olib borilishi kerakki, o'quvchilar xulosani o'zlari chiqarsinlar. Buning uchun o'qituvchi o'quvchilarni badiiy so'zni his qilishga, undan zavq olishga o'rgatishi kerak, tarbiyalanuvchi bu borada o'zicha nimalarnidir kashf qilishga intilib, izlansin.

Shundan so'ng tavozeli kishi qanday ne'matlarga sazovor bo'lishi bolalardan so'raladi. Bolalar savolga javob topish maqsadida matnga yuzlanib, bunday kishilar erishishi mumkin bo'lgan jihatlarni ifodalovchi so'zlarni topib o'qiydilar. Bu sifatga ega bo'lgan kishilar, Navoiyning ta'biricha: atrofdegilarning muhabbatini qozonadi; odamlar u bilan do'stlashadi – do'stlari ko'payadi; u takabburga muloyimlik va kamtarlik yo'lini ko'rsatadi; gerdaygan dushman ko'nglida insoniylikni uyg'otadi; takabburni uyat chegarasi tomon

yo'laydi; insofsizlarni yomonlikdan qaytaradi. O'quvchilarning topildiqlaridan keyin tavoze egasi erishishi mumkii bo'lgan yutuqlar birgalikda tahlil qilinadi.

«Odobli» so'zi ustida ham xuddi shu tarzda ish olib boriladi. Bunda o'qituvchi ishni "Siz odobli deganda qanday odamni tushunasiz?" degan savolni tashlashdan boshlagani ma'qul. O'quvchilar bu savolga bilganlaricha javob beradilar, albatta. Shundan so'ng Navoiyning odobli kishilar haqidagi fikrlariga e'tibor qaratiladi. O'quvchilar o'qituvchining taklifi bilan matndan: *"Odobli inson barcha odamlarning yaxshisidir va barcha xalqlar uchun yoqimlidir. U mansabdor kishilardan go'zalroq va badavlat odamlardan hurmatliroqdir. Odobli odam o'z tengdoshlari orasida ham tahsinga loyiq, hech qanday ehson bermay, kattadan-kichik – hammani shod qiladi, hech qanaqa hadya qilmay, kishilarning g'amini tarqatadi.*

Odob kichik yoshlilarni kattalar duosiga sazovor etadi, yoshlar u duo barakasidan umrbod bahramand bo'ladilar. Odob – ulug'lar ko'nglida yoshlarga mehr uyg'otadi va u odobli yoshga bo'lgan muhabbat ko'ngilda abadiy qoladi. Yoshlarni ko'zga ulug' qilib ko'rsatadigan fe'l-atvor odobdir, odoblilarning yurish-turishida xalq ulug'vorlik ko'radi.

Odob kishilar tarafidan qilinishi mumkin bo'lgan hurmatsizlik eshigini bekitadi va odamni hazil-mazaxdan, kamsitilishdan saqlaydi. Odob odam tabiatiga insoniylik baxsh etadi va kishi mizojiga odamiylik manzilida orom beradi" qismini o'qiydi. Ajratib ko'rsatilgan so'z va iboralar alohida tahlil qilinadi. Shu o'rinda o'qituvchi «mizoj» va «mijoz» so'zlarining ma'nosi haqida o'quvchilardan so'rab ko'rgan ham tuzuk. O'quvchilar Navoiy qo'llagan «mizoj»ni (odam organizmiga xos bo'lgan issiqchanlik, sovuqchanlik, tabiat, xarakter, ichki olam) o'zlari bilganlaricha ochishga urinib ko'rsinlar. «Mijoz» esa a'zo, xaridor, talabgor va hk. ma'nolarda ishlatilishini bilishadi o'quvchilar.

Har bir bolaning tavozeli va odobli kishi bo'lishi nimalarga olib kelishi mumkinligi haqida asar muallifi bitganlarini topib o'qishni yoki ularni adabiyot daftariga ko'chirib olish topshirig'ini bergan ma'quldir. Chunki eshitgandan ko'rgan, ko'rgandan o'qigan, o'qigandan yozgan yaxshiroq o'zlashadi. Kitobdan ko'chirib yozayotganda ham bu so'z va iboralar, tushunchalar o'quvchilarning ko'nglidan o'tishi, ruhiyatida ma'lum iz qoldirishi tabiiy. O'qituvchi

tarbiyalanuvchilarda shakllantirishni istagan sifatlarni o'quvchilar Navoiy bobolarining aytganlari asnosida o'zlari uqishlari, ruhiyatlariga o'zlari singdirib borishlari maqsadga muvofiqdir.

So'ng barcha fuqarolari odob va tavoze egasi bo'lgan yurt, millat qanday bo'lishi mumkinligi haqida savol berilib, o'quvchilarning javoblari eshitiladi. Ular o'z darajasida fikr yuritadilar. Bunday vaqtlarda o'quvchilarning aytganlarini hadeb tuzataverish, darhol ularni to'ldirishga urinib, ularning fikriga daxl qilish noto'g'ri. O'quvchi tomonidan aytilganlar o'qituvchi istaganday to'g'ri, ravon, silliq bo'lmasligi tabiiy. Ammo u o'qituvchining yoki adabiyotchining darslikdagi fikri emas, bolalarning o'z fikri, mustaqil mulohazasi bo'lganligi bilan ham adabiy ta'lim oldida qadrliroqdir. Yuqoridagi kabi tahlillar bolalarni fikrlovchi kishiga aylantiradi. Janni Rodari aytmoqchi: "So'z erkinligi – barchaga!" shiori hammaning san'atkor yoki adabiyotchi bo'lishi uchun emas, balki hech kim qul bo'lmasligi uchun zarur"¹.

Darsda asar tahlili davom ettirilib, Navoiyning o'z fikrlari isboti sifatida keltirgan hikoyati qahramonlari g'ofil Mudbir va ogoh Muqbilning fazilatu illatlari haqida fikr yuritiladi, ularga munosabat bildiriladi. Har birining o'z fe'lidan topganlari o'quvchilar tomonidan baholanadi.

Vaqt yetmasa, rivoyatni qayta o'qib, uning qahramonlari fe'l-atvori va xarakteri tufayli erishganlariga o'z munosabatini yozma ravishda bildirishni uy vazifasi qilib topshirgan ma'qul. O'quvchilarni oq qog'oz bilan yuzma-yuz qolishga o'rgatish, u bilan dardlasha olish, unga fikrlarini to'kishga odatlantirish ham o'qituvchining burchlaridan biri. Maktabning dastlabki davridanoq o'quvchilar o'z fikrini qog'ozga tushirishga o'rgatib borilsa, u yuqori sinflarda insho yozishga qiynalmaydi. Tarbiyalanuvchi qog'oz bilan, so'z bilan, ichki "men" bilan yolg'iz qolishdan cho'chimaydi, aksincha, bundan lazzat oladi.

Navoiy ijodini o'rganishga ajratilgan vaqtning ikkinchi soatida "Saxovat va himmat to'g'risida" va "Saxovat qanday qilinadi?" sarlavhali matnlar ustida ishlanadi. Bu matnlarni ham avval o'qituvchi o'zi o'qib beradi. Lekin asarni o'qishga kirishishdan oldin ushbu ikki

¹ Родари Ж. Грамматика фантазий. Перевод с италян. Ю. А. Добровольской. – Москва: Прогресс, 1978. – С. 27.

tanbih (asarda har xil foydali hikmatlar va pandlar “tanbih” nomi ostida berilgan) "Mahbubul-qulub"ning "Turli foydali maslahatlar va maqollar" deb atalgan uchinchi qismiga mansub ekani, unda ham odam va odamiylik, chinakam insoniy sifatlar to‘g‘risida so‘z ketishi ma‘lum qilinadi. Navoiyning mana shu pand-nasihatlariga to‘liq rioya qilib yashash barkamol bo‘lib yetishish garovi ekani, shoirning hayoti bunga yaqqol dalilligi ta’kidlanadi.

Mazkur tanbehlarining o‘qituvchi tomonidan o‘qilishi uchun 5–6 daqiqa kerak bo‘ladi. Darslikda saxovat va himmat to‘g‘risida berilgan matnda nashriyot aybi bilan matndan axiy haqidagi jumla tushib qolgani holda, axiy nimani anglatishi haqida savol berilgan. Asl matnda: "Bitta kulchani ikki bo‘lib, yarmini och odamga berganni – saxiy deb, o‘zi yemay, hammasini muhtoj odamga berganni – axiy do‘st deb bil" degan o‘rni bor. O‘qituvchi asar matni bilan o‘quvchilarini tanishtirganda buni aytishi va qo‘shib o‘qib berishi, so‘ngra “axiy” so‘zining lug‘aviy ma‘nosini tushuntirib o‘tishi kerak bo‘ladi. Axiy – birodar(im) ma‘nosini anglatadi.

Matn o‘qilgach, avvalo, “saxovat”, “himmat” so‘zlarining lug‘aviy ma‘nolari haqida o‘quvchilarning bilganlari so‘raladi. Zarurat bo‘lsa, ularning aytganlariga o‘qituvchi xam o‘z fikrlarini qo‘shishi mumkin. “Saxovat” so‘zining lug‘aviy ma‘nosi – baland himmat, saxiylik. Odamlardan hech narsasini ayamaydigan, himmatli kishilarni saxovatli, himmati baland deyilar. Himmat – birovga qilinadigan yaxshilik, marhamat, yordam, saxovat.

Insonga xos bu sifatlariga Navoiy ushbu asaridan alohida o‘rin ajratgani, saxovatli, himmatli kishilarni madh etgani, saxovat ko‘rsatishning fazilatlarini, saxovat bilan isrof, maqtanchoqlik o‘rtasidagi farq ko‘rsatilib, ularning o‘rni haqida mulohaza yuritganiga o‘quvchilar diqqati qaratiladi. Himmat ahli atalmish pokiza kishilarning qilmishlari, ulardan kishilarga yetadigan foyda, himmat egalarining hayotdagi o‘rni, ularga atrofda gilarining munosabati kabi jihatlariga alohida to‘xtalinadi. Bu haqda o‘quvchilarning fikrlari eshitiladi. Saxovat ko‘rsatish yo‘llarini bolalar matnga tayangan holda, o‘z xayotida ko‘rgan-bilganlari asosida ifodalab berishsa, nur ustiga a‘lo nur bo‘ladi. Shunda ushbu sifatlar asl holida ularning ham shuuridan o‘tadi. Tahlil davomida o‘quvchilarga o‘rni bilan quyidagi savol-topshiriqlarni berish mumkin:

1. Mutafakkirning odobli odam haqida: "...hech qanday ehson bermay, kattadan-kichik, hammani shod qiladi; hech qanaqa hadya qilmay, kishilarning g'amini tarqatadi", - deganini qanday tushundingiz?

2. Alisher Navoiyning: "Odob kichik yoshlilarni kattalar duosiga sazovor etadi; yoshlar u duo barakasidan umrbod bahramand bo'ladilar. Odob – ulug'lar ko'nglida yoshlarga mehr uyg'otadi... Yoshlarni ko'zga ulug' qilib ko'rsatadigan fe'l-atvor odobdir", – tarzidagi fikrlariga munosabat bildiring.

3. "Muqbil esa odob va tavoze sharofatidan maqsad gavharini topdi". Hazrati Navoiyning bu gapni qanday tushundingiz?

5. Adibning: "Saxovatsiz odam yog'insiz bahor bulutiga va hidi yo'q mushk-anbarga o'xshaydi" tarzidagi xulosasini sharhlang.

6. Asl odam qanday bo'lishi kerakligi borasidagi qarashlaringizni ayting. "Mevasiz daraxt ham biru o'tin ham bir. Yog'insiz bulut ham biru tutun ham bir. Saxovatsiz odamdan ichida gavhari bo'lmagan sadafning farqi yo'q. Dursiz sadaf bilan qurib qolgan toshbaqa chanog'ining farqi yo'q" singari bir-biriga unchalar aloqasi bo'lmagan tushunchalarni qiyoslash orqali ifodalanayotgan fikrlarga to'xtaling.

7. Buyuk bobomizning: "Himmatsiz kishi er sonida emas. Jonsiz badanni hech kim tirik demas", – shaklidagi fikriga munosabat bildiring. Himmatsizlikning jonsizlikka qanday aloqasi bor deb o'ylaysiz?

8. Daho shoirning: "Himmat egasi qashshoq bo'lsa ham tubanlik qilmas, himmatsiz odam xazina topsa ham buyuklarga teng bo'lmas" degan xulosasiga o'z munosabatingizni bildiring.

9. Navoiy hazratlarining: "Tilagandan so'ng berishlik ham saxovatdan yiroqdir, qistash natijasida bergandan bermagan yaxshiroqdir", – degan fikriga o'z munosabatingizni bildiring.

10. Navoiy bobomizning yumshoq tabiatli kishilarga ehtiromi sababini tushuntiring. U kishining: "yel, agar ko'kka yetsa ham, bari bir, yengil va qadrsiz. Tog' agar tuproqqa botsa ham, salobatlidir" degan xulosasi ma'nosini izohlang.

11. Shoirning: "Til shirin va yoqimli bo'lsa yaxshi. Til bilan dil bir bo'lsa, yana yaxshi. Til bilan dil insondagi eng yaxshi a'zoldir", - tarzidagi xulosasi haqida fikr bildiring. "Dil" deganda nimani tushunasiz: Fikringizni asoslang.

12. Hazrati Navoiyning dono va kerakli gaplarni go'zal badiiy libosga o'rab aytishiga e'tibor qiling: "*Chuchuk til achchiqqa aylansa, ko'pchilikka zarari tegadi. Qanddan may tayyorlansa, harom bo'ladi*". Qand va mayning chuchuk tilga qanday aloqasi bor deb o'ylaysiz?

Yuqoridagi topshiriqlarni bajarish, savollarga javob topish uchun o'quvchi asar matniga tayanib, fikrlashga urinadi. O'qituvchi bolalarni ishlata bilishi, ularni fikr aytish, munosabat bildirishga undashi, o'z qarashlarini asoslash va isbotlashni talab qilishi kerak. Bugungi adabiyot o'qituvchisining asosiy vazifasi ana shudir. Qolaversa, bu savol-topshiriqlardan barcha sinflarda birday foydalanib bo'lmaydi. Sinfdagi o'quvchilarning intellektual imkoniyatlariga ham qaraladi.

"Mahbub ul-qulub"ning 3-qismi – "Hilm to'g'risida", "Til to'g'risida"gi va boshqa bir qator tanbehlari ham shu darsning o'zida o'rganiladi. Mazkur tanbehlarni o'qib berish uchun 5–6 daqiqa ketadi. Darsning qolgan qismi ularning tahliliga qaratiladi.

Hilm – yumshoq tabiatlilik, yumshoq ko'ngillilik – insonga xos go'zal sifatlardan biridir. Alloh tomonidan taqdim etilgan bunday sifat sohiblari hayotda qanday o'rin tutishlari, ularga xaloyiqning munosabati, undan yog'ilajak iltifot va marhamatlar haqidagi asar muallifining qarashlari o'rganiladi. Hilm tabiatli kishilar tog' bilan, yengil tabiat kimsalar betayin shamol bilan qiyoslanishi savol-topshiriqlar ko'magida o'quvchilar tomonidan anglashiladi.

Til to'g'risidagi tanbehda Navoiy ezma kishilarni tuni bilan tinmay huradigan itga o'xshatadi, gapi bema'ni, ovozi yoqimsiz odamni qurbaqaga mengzaydi. Tili, so'zi shirin insonning atrofda qilarga qanchalar xush yoqishi, shirin so'z kishining yuzi ham, o'zi ham yoqimli ekani so'zda, nafasda jon borligi bilan asoslanadi. Navoiyning: "*Tilini tiyolgan odam – donishmand, oqil; so'zga erk bergan odam – beandisha va pastkash*" yoki "*Til bilan dil bir bo'lsa yana yaxshi. Til bilan dil – insondagi eng yaxshi a'zoldir*",- degan fikrlari hikmat darajasiga ko'tarilgan. Ularda til (aytilgan so'z) odamlarni bir-biridan farqlashi, insonlar tili (gapirgan gaplarining ma'nililigi)ga qarab baholanishi ko'rsatiladi.

Navoiy asarini o'rganishga ajratilgan uchinchi soatni ijod darsi sifatida o'tkazib, insho yozdirish maqsadga muvofiqdir. O'quvchilarga insho uchun mavzu sifatida "Tavozeli va odobli bola haqida ertak", "Saxovatli yoki hurmatli kishi haqida hikoya", "Mening

hilm tabiatli do'stim", "Shirin tilning fazilatları" va hokazo mavzular takdim etilib, ular istalgan biri haqida ertak yoki hikoya yozib, bu sifatların fazilatları haqida mulohaza yuritsalar, foydali bo'ladi. O'qituvchi bu borada o'quvchilar bilan maslahatlashsa, ular tanlagan yo'ldan borsa, dars yanada samarali bo'ladi. Shunda tarbiyalanuvchilarda o'zlariga ishonch shakllanadi. Qolaversa, o'z ixtiyorlari bilan olgan topshiriqni bajarmaslik noqulay bo'ladi.

Savol va topshiriqlar:

1. Pedagogik innovatsiyalar haqidagi: *"Pedagogik innovatsiyalar davlat organlari, pedagogik jarayonni boshqaradigan ma'muriyat singari yuqori tashkilotlar tomonidan emas, balki fan va ta'lim tashkilotlari xodimlari, ya'ni pastdan ishlab chiqarilishi hamda tavsiya etilishi kerak"*, tarzidagi qanoatga e'tibor qiling. Siz bu fikrga qo'shilasizmi, yo'qmi? Nega? Uni qanday tushundingiz? Qarashlaringizni ta'lim amaliyoti yoki hayotiy haqiqatlarga tayanib asoslang.

2. *"Pedagogik innovatsiya jarayonining quyidagi uch bosqichi: yangi g'oya yoki kashfiyotni yuzaga keltirish bosqichi; g'oyaga ishlov berish, uni amaliyotda foydalanish mumkin bo'ladigan holatga keltirish bosqichi; yangilikni joriy etish bosqichi"*ni biror badiiy asarni o'rganish asnosida izohlashga urinib ko'ring.

3. Pedagogika ilmida tavsiya etilgan innovatsiyalarni innovasion o'zgarishlar shiddati yoki yangilik darajasiga ko'ra sakkizta toifasi tavsiya etilganligini bildingiz. Ularning har birini alohida tahlilga torting. Sizningcha, ularning qaysi biri milliy adabiy ta'lim uchun ahamiyatliroq? Nimasi bilan? Fikringizni asoslashga, qarashlaringizni o'qituvchingiz va kursdoshlaringizga ham tushunarli qilib ifodalab berishga urining.

4. Pedagogik innovatsiyalarning tasodifiy, foydali va tizimli singari tasniflari haqida bildingiz va ularning mohiyatiga kirdingiz. Endi o'ylab ko'ringchi, ularning qaysi biri zamonaviy o'zbek adabiy ta'lim metodikasi ilmi uchun ustuvor ahamiyat kasb etadi, sizningcha? Fikringizni asoslang.

5. Mazkur innovatsiyalarning tasodifiy, foydali va tizimli innovatsiya singari turlarini badiiy asarlar, hayotiy misollar asosida tahlilga torting. Fikrlaringizni asoslang.

6. Taniqli metodist olim M. Maxmutovning: "Ta'lim metodlarida o'quvchi rivojlanishining yangi bosqichida tafakkur psixologiyasida to'plangan, ular tomonidan bilimlar va faoliyatni o'zlashtirish jarayonini boshqarishni yaxshilashga imkon beradigan barcha ma'lumotlarni qamrab olishi kerak" tarhidagi qanoatini qanday tushundingiz? Uni o'z tushunchangiz asnosida izohlab bering.

7. "Har bir dars uning maqsadi va mavzuni o'rganishning rejasini ma'lum qilishdan boshlansa, o'quvchilarga darsda o'z faoliyati yo'nalishini aniqlab olishga imkon beriladi", degan fikrga qanday qaraysiz? Sizningcha, buni qanday tashkil etish mumkin? Biror badiiy asarni o'rganish misolida qarashlaringizni asoslang.

8. Navoiy tanbehlarini o'zingiz uchun o'zingiz tahlilga torting. Natijalarni darsda o'rtoqlaringiz bilan o'rtoqlashing. Bir-biringizni to'ldiring.

9. Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub"da o'zi haqida aytganlarini qayta o'qing. Muallifni tuyishga urinib ko'ring. Anglaganlaringizni bir-biringiz bilan o'rtoqlashing.

10. "Mustaqillik mening taqdirimda" mavzusida insho yozing. Bir-biringizning insholaringizni tekshiring. Xatolar ustida birgalikda ishleng.

11-MAVZU. MODULLI TA'LIM TEXNOLOGIYASINING XUSUSIYATLARI VA ADABIYOT O'QITISHDA UNDAN FOYDALANISH

Reja:

1. *Tarbiyashunoslik ilmida modulli ta'lim tushunchasi.*
2. *Modulli o'qitishning mohiyati, xususiyatlari.*
3. *O'qitish amaliyotida modulli ta'lim texnologiyasidan foydalanish.*
4. *Adabiy ta'limda modulli ta'lim texnologiyasidan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari.*
5. *Badiiy matnning didaktik tahlili namunasi.*

Adabiy ta'limda tarbiyalanuvchilar ma'naviy kamolotini ta'minlashga xizmat qiladigan texnologiyalar orasida modulli ta'lim texnologiyasi ham o'z samaradorligi bilan alohida ajralib turadi. Modul lotincha *modulus* so'zidan olingan bo'lib qism, bo'lak, blok ma'nolarini anglatadi¹ va u biror mavzuni o'zlashtirishda undagi yetakchi qarashlarni alohida tarkibiy bo'laklarga ajratib o'rganishni nazarda tutadi. Modulli ta'lim mashg'ulot jarayonini tashkil etishdagi eng kichik ish turlaridan tortib ularning turli miqdordagi to'plamlarini ham qamrab oladi. Bunda eng kichik faoliyat turi eng kichik modul sanalib, boshqalari qancha modulni qamrab olishiga qarab o'ziga mos darajadagi modullar tizimini tashkil etadi.

“Umumiy pedagogika” kursidan mazkur yo'nalishda o'zlashtirilgan bilimlarni eslatib shuni aytish mumkinki, modul ma'lum pedagogik texnologiyani tashkil etuvchi, uning tarkibiy bo'laklarini ifodalovchi tushunchadir. Bunday bo'laklar kichik modul, birlamchi modul, modullar to'plami, modullar darajasi va modullar majmuyi kabi turlardan iborat bo'ladi. Modullar o'z ko'lamiga ko'ra mayda, o'rtacha va yirik bo'lishi ham mumkin.

Tarbiyashunoslik ilmida modul tushunchasi nafaqat ma'lumot va axborot birligi, balki o'quv faoliyatini bosqichli ketma-ketlikda tizimlashtirib o'rganishni ham qamrab oladi. Ya'ni modul tushunchasiga tarbiyalanuvchi tomonidan egallangan bilim, ko'nikma va malalalar integratsiyasining doimiy harakatdagi mexanizmi sifatida

¹ <https://ru.wikipedia.org>

qarash maqsadga muvofiq bo'ladi. Modulning har bir bosqichi muayyan o'quv topshiriqlari tizimidan iborat bo'ladi.

Modulli ta'lim texnologiyasi tushunchasiga dunyo va milliy pedagogika ilmida turli mutaxassislar o'z tadqiqotlari maqsadidan kelib chiqqan holda turfa ta'riflar berishgan:

«Modul – o'quv materialining o'quvchi bilim va ko'nikmalarini nazorat qiluvchi mantiqiy tugallangan bir qismi»¹; «Modul – bilimlarni nazorat qilish bilan hamohanglashgan, qandaydir mantiqiy yaxlitlik va tugallanganlikka ega bo'lgan... mantiqiy belgilangan qism»²; «Modul deganda, ma'lum o'quv predmeti bo'yicha aniq maqsadni ko'zda tutib, obyektlarning muhim jihatlarini mantiqan tugal va mukammal holda yorituvchi o'quv materialining didaktik birligini tushunamiz»³; «Modulli ta'lim – bu bilimlarni nazorat qilish bilan hamohanglashgan, mantiqiy yaxlitlik va tugallanganlikka ega o'quv axborotidagi mantiqiy belgilangan qism»⁴; «Ta'limiy modul – unga tegishli metodik materiallar bilan birgalikdagi o'quv kursining mazmunli qismi»⁵; «Modulli o'qitish nazariyasida modul tushunchasi bir tizimning aniq funksional vazifani bajaradigan mustaqil qismini anglatadi. O'quv moduli – har bir o'quv topshirig'ining bajarilish vaqti, uning nazorati va natijalarini tekshiruv usullari, o'quv materiallari (paragraf, mavzu, bo'lim, fan, integrallashgan kurs)ni o'rganish bo'yicha ko'rsatmalarni qamrab oladi»⁶ va hk

Modulli o'qitishning mohiyati shundan iboratki, ta'lim oluvchi o'ziga taqdim etilgan individual o'quv dasturi asosida mustaqil ishlaydi. Bu o'quv dasturida harakatlar rejasi, axborotlar blogi, o'qitish natijalariga erishish bo'yicha metodik tavsiyanomalar bo'lishi kerak. Maktab amaliyotida o'qituvchi kuzatish, maslahat berish, axborotlarni o'zlashtirishda tarbiyalanuvchining xarakterlarini muvafiqlashtirish singari vazifalarni bajaradi.

¹ Калдибекова А. С. Модулли таълим технологияси ва унинг ўзига хосликлари. //Сб. научно-методических статей. 24 частяк. Ч. 6. – С. 45.

² Эгамбердиева Н. М. Маданий-инсонпарварлик ёндашуви асосида булажак ўқитувчиларни шахсий ва касбий ижтимоийлаштириш. – Т.: "Fan va texnologiya" нашриёти, 2009. – 87-б.

³ Нуриддинов Б. С. Касб таълими ўқитувчилари малакасини оширишда фаол ўқитиш методларидан фойдаланиш: Педагогика фанлари номзоди. ... дисс. автореф. – Т., 2002. – 13-б.

⁴ Столеренко Л. Д. Педагогика. – Ростов-на-Дону: Феникс, 2003. – С. 96.

⁵ Селевко Г. К. Педагогические технологии на основе дидактического и методического усовершенствования. – Москва: НИИ школьных технологий, 2005. – С. 58.

⁶ Подласый И. П. Педагогика. – Москва: Высшее образование, 2006. – С. 379.

Modulli ta'limda eng kichik bo'lak ham mazkur texnologiyaning o'ziga xos qismi bo'lib, bunday kichik modullar zimmasiga ham o'ziga yarasha "yuk" oriladi. Bunday modullar to'plami o'qitish jarayonining sifati va samarasini ta'minlashga xizmat qiladi. Modullarning o'zgaruvchan, tinimsiz yangilanib turadigan tabiati tufayli ulardan dinamik (o'sish, rivojlanish) ravishda foydalaniladi. Modulli o'qitish – tartibli o'qitish demak. Modulli ta'lim texnologiyasidan bitta o'quv mashg'uloti doirasida, o'quv predmetining biror mavzusi yoki biror bo'limi darajasida, ba'zan esa o'quv fanining yirik tarkibiy qismida, ya'ni bloklar tarzida ham foydalanish mumkin. Oliy ta'limda bir necha turdosh o'quv fanlarining tarkibiy bo'laklarini hamda ayrim fanlarni o'qitish texnologiyasini tashkil qiluvchi modullar – bloklar tarzida o'qitish keng yo'lga qo'yilgan.

O'quv rejasi va dasturlarning tarkibiy bo'laklarini hamda ularning bajarilishini ta'minlaydigan texnologiyaga xizmat qiluvchi modullar ham mavjud. Ta'lim usullari, metodlari va vositalari uchun qo'llaniladigan modullar ham yaratilmoqda. Modullar, birinchi navbatda, ta'lim mazmuniga daxldor tushuncha, qoida, nazariya va qonunlar hamda ular orasidagi umumiy bog'lanishni ifodalovchi qonuniyatlarni tushuntirishga samarali xizmat qiladi. Bilim oluvchilarning o'quv-biluv faoliyatida ularning o'zlashtirish darajasini nazorat qilishda ham modullardan foydalanish mumkin.

Modulli o'qitishning nazariy asoslari o'tgan asrning 60–70-yillarida amerikalik mutaxassis Kurch Goldshmidt va Rassel tomonidan yaratilgan. Bu ilmiy izlanishlarga ta'lim jarayonining ilmiy-texnik taraqqiyotdan orqada qolayotgani, o'quv dasturlari fan-texnika yutuqlari va ishlab chiqarishni tashkil etish taraqqiyotiga mos ravishda takomillashib borolmayotganligi sabab bo'lgan. Bundan tashqari, o'quv-dasturiy hujjatlarini modul qoidalar asosida tuzish ham ta'lim jarayonini jadallashtirishning muhim omillaridan biri deb qaralgan.

Xalqaro Mehnat tashkiloti mutaxassislari ham o'tgan asrning yetmishinchi yillari boshlarida ishlab chiqarishning doimo o'zgarib borayotgan ehtiyojlariga mos keluvchi ishchi kadrlar tayyorlash maqsadida modulli o'qitishni joriy etishni maqsadga muvofiq deb hisoblashgan. Modulli o'qitish ingliz tilida so'zlashuvchi davlatlar ta'lim tizimi barcha yo'nalishlariga tatbiq etilgan.

O'qitish davrida o'rganilayotgan mavzu mazmuniga qarab bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash hamda ularni takomillashtirish har xil didaktik maqsadlarga ega bo'lishi mumkin. O'qitishning har bosqichida tavsiya etilgan har qanday mavzuni o'rganish, mustahkamlash va takomillashtirish reproduktiv (xotira hisobidan ishlaydigan faoliyat) xarakterga ega bo'lishi mumkin. Bunda tarbiyalanuvchi topshiriqni o'qituvchi bergan namuna asosida bajaradi, bilimlarni dastlab qanday idrok etgan bo'lsa, o'sha holda xotirasi hisobidan qayta tiklab o'z faoliyatiga tatbiq etadi.

Lekin bunday bilish faoliyati o'quvchidan muayyan bilimlar va ularni amalda qo'llashda ma'lum tajribani, sabab-natija bog'lanishlarini chuqur tushunishni, bilganlarini mustahkamlash hamda takomillashtirishni, asosan, ularning mustaqil ishlashini taqozo etmaydi. Reprodukativ ta'limda tarbiyalanuvchilar maqsadga ongli va faol intilmaydilar, paydo bo'ladigan qiyinchiliklarni o'zgalar yordamisiz bartaraf eta olmaydilar. Bunda "subyekt-obyekt" munosabatlari amal qiladi.

Modulli ta'lim texnologiyasida bu ta'lim turiga alternativ tarzda mustaqil ishlash uchun topshiriqlar tuzish va ularning bajarilish tartibi rejalashtiriladi, vaqti-vaqti bilan topshiriqlarning murakkablik darajasi o'zgartirib turiladi, dars jarayonida tarbiyalanuvchilar kuzatilib, zarur hollarda ularga yordam beriladi. Bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash hamda takomillashtirishning to'g'ri yo'lga qo'yilishi tarbiyalanuvchilarda mehnat madaniyatini, o'z faoliyatiga mas'uliyatli munosabatni tarkib toptiradi, har birining o'ziga xos mustaqil, badiiy-estetik fikrlashini rivojlantiradi. Umumlashtirib aytganda, "subyekt-sub'kt" munosabatlari yo'lga qo'yiladi.

Modulli o'qitishning umumiy yo'nalishi, maqsadi, mazmuni va tashkil etish metodikasi quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

1) modullilik – o'qitish mazmunidan alohida elementlarni ajratib olish;

2) dinamik (o'zgaruvchan)lik – bilimning xarakatchanligi (amaliyligi)ga va tezkorligiga erishish;

3) moslashuvchanlik – ta'lim mazmunini va unga erishish yo'llarini ta'lim oluvchining individual ehtiëjiga moslashtirish;

4) metodik maslahatning xar tomonlamaligi – ta'lim oluvchining bilish faoliyatida va pedagog faoliyatda professionallikni ta'minlash;

5) tenglilik – ta'lim oluvchi va pedagog o'rtasida teng huquqli xamkorlikni ta'minlash.

Modul mazmuni invariant (o'zgarmas holat)da tashkil etish va axborot almashinuvini amalga oshirishga imkon beradi. U insonda yuzaga kelgan ehtiylarning qondirilishini kafolatlaydi, yangi yo'nalishda yuzaga keluvchi qiziqishlarni aniqlaydi. Modulning asosiy ahamiyatli tomoni – inson ongi va tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Modulli ta'lim texnologiyasi quyidagi maqsadlarga yo'naltirilganligi bilan ham ahamiyatlidir:

- ta'lim amaliyotida o'qituvchini to'liq axborot berish vazifasidan ozod etish;

- tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar birgalikda ta'limning qulay yo'llarini tanlab olishlariga sharoit yaratish;

- mustaqil o'rganish, ishlash, o'z-o'ziga ta'lim berish ko'nikmalarini shakllantirish;

- o'quvchilarning reflektiv qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirish;

- ta'lim oluvchilar uchun moslashuvchan rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratish;

- tanqidiy, mustaqil, ijodiy va mantiqiy fikrlashni shakllantirish;

- avvalgi va yangi o'zlashtirilgan bilimlarni umumlashtirish;

- olam va odam sirlarini idrok etish, voqea-hodisalarni yaxlit qamrab olish ko'nikmasini shakllantirish;

- tizimli ravishda bilimlarga ichki ehtiyni rivojlantirish;

- bilish va his etishning umumlashgan mexanizmlarini boyitish.

Ta'lim amaliyotida modulli ta'lim texnologiyasidan foydalanilganda quyidagi konseptual qoidalarga amal qilinadi:

- o'quv faoliyatini algoritmlashtirish;

- ta'lim mazmunini alohida tugallangan qismlarga joylashtirish;

- bilish bosqichlarining o'zaro uyg'unligi va tugallanganligini ta'minlash;

- nazariy materiallarni bloklarga birlashtirish;

- differensiallashtirish va individuallashtirish;

- faoliyatning barcha tarkibiy qismlari (maqsad qo'yish, rejalashtirish, tashkil etish, ish jaraeni, nazorati, natijalarni baholash)ni to'liq amalga oshirish;

- sinergetik (hamkorlikdagi) yëndashuvni tashkil etish va rivojlantirish;

- o'qituvchining utarbiyalanuvchilar bilan hamkorligiga tayanish;

- tarbiyalanuvchilarning o'zaro hamkorligini tashkil etish;

- umumiylikdan xususiylikka – alohidalikka (induksiya) o'tish;

- xususiylikdan umumiylikka (deduksiya) o'tish;

- nazariy materiallarni yo'naltirish asnosida o'rganish;

- o'quv axborotlarini umumlashtirish, yiriklashtirish, tizimga solish, umumiyashtirish;

- o'z munosabatini bildirish va ijtimoiy-pedagogik shart-sharoitning tez o'zgaruvchanligiga moslasha olish;

- jadallashuvning individual sur'atini tanlab olish hamda o'z-o'zini bunga yo'naltira borish va hk.

O'qitish amaliyotida modulli ta'lim texnologiyasidan foydalanilganda mavzu mazmuni yuzasidan modullarni shakllantirish uchun asosning mavjudligi faoliyat dasturini tuzib olishga imkon yaratadi. Mavzuning mazmuni bilan tuzilajak o'quv moduli o'zaro chambarchas bog'liq, ya'ni mazmunga modullar shaklida mantiqiy izchillikda tartib beriladi.

Mavzudagi asosiy tushunchalar – o'quv fani, maktab adabiy ta'limi mohiyatini tashkil etuvchi mazmuniy birlik, atamalar, tushunchalar ma'lum qoidalarga asoslangan holda modul shakliga keltiriladi, barcha turdagi ishlarni qamrab oluvchi savol va topshiriqlar tuziladi hamda modul o'rganilganidan so'ng nazorat (odatda test shaklida) o'tkazildi.

Biror o'quv materialini modulli o'rganish uning vazifalari, ta'lim oluvchi egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar tizimini belgilab olish imkonini beradi. Modulli ta'limda butun faoliyat: o'quv materialini o'rganishning ketma-ketligi, asosiy tushunchalar, egallanishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar, o'zlashtirish darajasi va o'zlashtirish sifatini nazorat qilish ishlari oldindan dasturlashtiriladi. Modullar soni mavzuning o'ziga xosliklari ta'limdagi nazoratning istalgan qismlari bilan bog'liqlikda belgilanadi.

Modul o'quvchilarga dastlab umumiy faoliyatga kirishish, so'ng qismlar bo'yicha umumiy maqsad doirasida anglangan o'zaro harakatni ishlab chiqishga imkon beradi. Modul tufayli o'quvchi mazmunni chuqur o'zlashtiradi, ma'lum axborot qanday maqsadda

muhokama qilinaётganligini tushunib yetadi, bu bilimlarning nima uchun zarurligini anglab boradi. Modul doirasida o'quv axborotlarini tizimlashtirish pedagog va ta'lim oluvchilarning birgalikdagi faoliyatini ajratib olish hamda aniqlashni talab etadi.

Ta'lim amaliyotida qo'llaniladigan modulli texnologiyaning tasnifiy belgilari quyidagilardan iborat:

1. *Qo'llanilish darajasi va tavsifi*: umumpedagogik.
2. *Falsafiy asosi*: moslashuvchan.
3. *Individ xususiyatlariga yo'nalganligi*: bilim, ko'nikma va malakalar.
4. *Mazmuni va tuzilish tavsifi*: tushunarli, moslashuvchan-variativ.
5. *Ijtimoiy-pedagogik faoliyat turi*: ta'limiy.
6. *Qo'llaniladigan metodlari*: muammoli, evristik.
7. *Aniq shakllantirilgan o'quv maqsadi*: dastur asosida ishlash.
8. *Axborotlar jamg'armasi*: dastur, o'quv material, metodik rahbarlik.
9. *Zarur ko'nikmalarni shakllantirish*: o'quv material, ko'rgazmali qurollar majmuasi; qo'yilgan maqsad bilan mustahkam bog'liq bo'lgan tashhisli topshiriqlar.

O'quv materialini alohida-alohida modullarga ajratishda quyidagi xususiyatlarga e'tibor berish talab etiladi:

birinchidan, har bir modul o'rganilayotgan o'quv materialini o'zlashtirib olishga yo'naltirilgan bo'lishi;

ikkinchidan, modul bir va bir necha didaktik maqsadga erishishni ta'minlashi;

uchinchidan, modullar avtonom bo'lishi va vaqti-vaqti bilan yangilanib, to'ldirilib turilishi;

to'rtinchidan, modullar mazmuni tafakkur mantig'iga va amaliy faoliyatga bo'ysinishi;

beshinchidan, mantiqiy-ijodiy va mustaqil fikrlashni rivojlantirish maqsadida modulning o'quv material mazmunini muammoli tarzda berilishi.

Modulli o'qitishni qo'llashda har bir ta'lim oluvchining individual xususiyatlarini xisobga olish imkoniyati kengayadi. Bu ta'lim shaxsga yo'naltirilgan texnologiya asosida o'qitishni ta'minlaydi.

Adabiy ta'limda modulli texnologiya – badiiy asarlar ustida ishlash mashg'ulotlarida o'rganiladigan badiiy bitiklarni katta-kichik modullar asosida loyihalashtirishni nazarda tutadi. Ajratilgan har bir modul bo'yicha uning o'zigagina xos bo'lgan faoliyat mazmuni va ta'sir doirasi mavjud bo'ladi.

Badiiy asarlar ustida ishlashda, adabiy matnni o'zlashtirish jarayonida modulli ta'lim texnologiyasidan foydalanilganda o'rganiladigan mavzu bir nechta mantiqiy tugallangan bo'laklarga, ya'ni modullarga ajratiladi. Har bir modul o'quvchilar mustaqil ishlashlari uchun maxsus topshiriqqa aylantiriladi.

Maktab adabiy ta'limidagi modulli o'qitishda o'quvchilar tomonidan amalga oshirilayotgan har qanday faoliyatga *o'quv elementi* deb qaraladi. O'quv elementi o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi:

- o'quvchi faoliyatining aniq elementlarini o'rgatish bilan bog'liq nazariy va amaliy ma'lumot;
- o'quvchining o'quv faoliyatini ta'minlovchi ma'lumotlar;
- aynan o'xshash maqsadlar yig'indisi;
- tarbiyalanuvchi ishlashi lozim bo'lgan zaruriy materiallar to'plami;
- o'quvchilarning ish faoliyati, nazarda tutgan farazlari, buning uchun zarur bo'lgan shart-sharoit va topshiriqning bajarilganlik darajasini nazorat qiluvchi materiallar.

Adabiy ta'limning har bosqichida modulli ta'lim texnologiyasidan foydalanish uchun avval quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

- mazkur yo'nalishning xususiyatlarini ochib beradigan metodik majmualar yaratish;
- ta'lim jarayonini tashkil etish uchun uni zaruriy didaktik ashyolar bilan ta'minlash;
- o'qitish amaliyotini nazariy-metodik va amaliy-tashkiliy jihatdan to'g'ri uyushtira bilish.

Maktabda badiiy adabiyotlar bilan ishlashning modulli texnologiyasi – ta'limning belgilangan tamoyillariga muvofiq tarzda rejalashtiriladi va amalga oshiriladi. Bunda motivatsiya (individning bilishga bo'lgan ichki ehtiyoji), modullilik, muommalilik, hamkorlikka asoslanish, subyekt-subyekt munosabati, didaktik o'yinlar, audio-vizual texnika va hk.lar nazarda tutiladi.

Badiiy asarlar ustida ishlashni modulli ta'lim texnologiyasidan foydalangan holda tashkil etishda quyidagi izchillikka amal qilinadi:

- modulli ta'lim uchun zarur shart-sharoitni yaratish;
- modulning maqsadi, vazifalari va mazmunini belgilash;
- nazariy va amaliy ma'lumotlarni ajratish;
- amaliy jarayonni rejalashtirish;
- o'quv hamda didaktik materiallar, texnik vositalarni tayyorlash;
- amaliy faoliyatlarni tashkil etish;
- zaruriy bilimlarni mustahkamlash;
- tarbiyalanuvchilarning bilimlarini aniqlash;
- o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni baholash.

Adabiyot darslarini modulli ta'lim texnologiyasi asosida tashkil etish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, avvalo, tarbiyalanuvchilarni ham aqlan, ham ruhan mazkur faoliyatga tayyorlashni nazarda tutadi. Qolaversa, bu jarayonni tashkil etish uchun zarur bo'lgan shart-sharoit va o'quv materialini vaziyat taqozosiga mos tarzda tizimlashtirish ishlariga ham alohida e'tibor qaratiladi.

Biror badiiy asar yuzasidan tayyorlanadigan modullarning mazmunini belgilashda, dastlab adabiy ta'limning bosh maqsadi – ma'naviy barkamol avlodni shakllantirish va bu yo'lda xizmat qiladigan o'quv materiallari (mazmun)ni tayyorlashga e'tibor qaratiladi. Modullar bilan ishlash yakunidagi natija esa, ya'ni tarbiyalanuvchi egallagan bilim, ko'nikma, malaka va shaxslik sifatleri mazkur maqsadga qanchalik erishilganligi darajasini ko'rsatadi. Modulli adabiy ta'limning maqsadi ham barcha ta'lim texnologiyalari singari davlat ta'lim standartiga tayanadi. Modulli ta'lim texnologiyasining maqsadi qancha aniq bo'lsa, unda muvaffaqiyatga erishish shuncha oson bo'ladi. Mazkur bosqichdagi eng muhim ishlar: o'quv materialini mazmuni va undagi muhimni nomuhimdan ajratish; badiiy asardagi o'quvchi ko'nglidan o'tsa, u yerda ma'lum ijobiy iz qoldiradigan jihatlarni umimlashtirish; ularni tarbiyalanuvchi hayoti bilan bog'lashga yo'naltirish; o'qituvchi va o'quvchi munosabatlari tabiatini belgilab olishdan iboratdir.

Umuman, adabiyot o'qitishda, u ta'limning qaysi bosqichida bo'lishidan qat'i nazar, tarbiyalanuvchilarni ma'naviy kamolot yo'liga solishda, buning uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va shaxslik sifatleri egallashida, nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq

etishida, mustaqil fikrlashga odatlanishida, didaktik tahlil malakasini egallashida, o'z bilimi, qobiliyati va imkoniyatlarini baholay bilishida, o'zining xato-kamchiliklarini anglashi hamda ularni bartaraf qila bilishida o'ziga xos o'rin tutadi.

Badiiy matnning didaktik tahlili namunasi

“Nido” dostonini o'rganish

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining oltinchi sinfida Erkin Vohidovning “Nido” dostonini o'rganishga kirishishdan oldin muallifning tarjimai holiga qisman to'xtalish kerak bo'ladi. Chunki asar qahramoni kechmishlari bilan muallif taqdirida umumiylik bor. Darslikdan o'rin olgan shoir umr yo'lini o'rgatishga alohida vaqt sarflash shart emas. Adib tarjimai holi bilan tanishish o'tgan darsda uy vazifasi sifatida topshiriladi. Yangi dars shoirning quyidagi xotiralarini o'qib berish bilan boshlangani ma'qul: *"Otam frontda ekanida onam qishloq Sovetida sekretar vazifasida ishlar, qiyinchilik bilan kun kechirar edik. Jo'xori poyasini shimib tilimni qonatganim, bolalarga qo'shilib kunjara yeganim uchun onam yuzimga shapaloq urgani va o'zi kechgacha yig'laganini unutmayman. O'ylab qarasam, bolalik xotiralarimning ko'pchiligi she'rlarga, dostonlarga ko'chgan ekan..."*

Ilk she'rlarimni maktabda o'qib yurganimda yozgandim. Taxtapuldagi 22-maktabda o'qiganman. Maktabimizning devoriy gazetasida yosh havaskor shoirlarning she'rlari chiqardi. She'riy muhit maktabimizda juda kuchli edi. Po'lat Mo'min, G'afur G'ulom, Uyg'unlarning maktabimizga kelganini eslayman. O'sha paytlar pionerlar saroyi bo'lardi. 6- 7-sinfda men ham o'sha yerdagi she'riyat to'garagiga qatnashib, shoir G'ayratidan saboq olganman. Bularning barchasi mening she'r yozishimga tutki bo'lgan. Dastlabki she'rlarim G'ayratiy domlaga ma'qul kelib, u kishi ijodimdan namunalarni «Mushtum»da va bir necha gazetalarda chop ettirgan..." Bunday xotiralar o'quvchi bilan adib orasidagi masofani qisqartirib, ularni bir-birlariga yaqinlashtiradi.

O'qituvchi darslikda adibning hayoti, ijodi yuzasidan taqdim etilgan savol-topshiriqlarni o'rta tashlab o'quvchilarning fikrini eshitishi, o'quvchilarning mantiqli javoblariga alohida e'tibor qaratib,

buni o'quvchilariga ham sezdirishi dars samaradorligini ta'minlash bilan birga tarbiyalanuvchilarning kayfiyatini ham ko'taradi. Qolaversa, bu bilan boshqa o'quvchilar ham mantiqli mushohada yuritib, o'z fikrlarini chuqurroq asoslashga, ma'noli, chiroyli, lo'nda ifodalashga intiladilar.

Dasturda asarni o'rganish uchun uch soat vaqt ajratilgan. Dostonni o'rganishning dasturiy talqini quyidagicha: *"Nido" dostonida insoniyat boshiga tushgan eng ulug' falokat – Ikkinchi jahon urushi keltirgan balolarning murg'ak o'smir taqdirida qoldirgan izning aks ettirilishi. Dostonda bola tabiatining nozik jihatlari haqqoniy tasvirlanganligi. Doston nomining ramziyligi*¹".

Dostonni o'rganishga rejalashtirilgan uch soatning ikkita juftlashtirilsa, ma'qul bo'ladi. Shunda muallif shaxsi haqidagi qisqa savol-javoblar va matnning to'liq o'qishi bilan birinchi va ikkinchi soatning bir qismi o'tadi. Ma'lumki, har qanday badiiy asarni, ayniqsa, she'riy bitiklarni tinglovchining hissiyotlari sovumasdan idrok etish va tahlil qilish kutilgan pedagogik samarani beradi.

Agar ikki soatni juftlashtirishning imkoni bo'lmasa, doston matnini taxminiy ikki qismga bo'lib olib, alohida-alohida o'qib chiqish va ularning tahlilini ham alohida tashkil etishi mumkin. Doston matni bilan tanishishni uch darsga cho'zib yurmagan ma'qul. Bunday qilinsa, asarni o'qish jarayonida o'quvchilarda uyg'ongan tuyg'ular mavji bosilib, hissiyoti sovub, matndan bir qadar uzoqlashib qolishadi. Lekin doston ustidagi ishni qay yo'sinda olib borish sinfdagi o'quvchilar bilim darajasi, didaktik tahlil ko'nikmalarini qay darajada egallanganlari va nimaga moyilliklariga qarab belgilash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Har bir asarni o'rganishga ajratilgan soatlar to'laligicha faqat o'sha asar ustida ishlashga sarflanadi. Shu bois o'qituvchi dostonning to'liq matnini topgani va dars vaqtidan unumli foydalangani adabiy ta'limning maqsadiga ko'proq muvofiq keladi. Dostonning to'liq matni²ni o'qib chiqish uchun 40–45 daqiqa lozim bo'ladi. O'qituvchi darsga tayyorlanish jarayonida dostonni oldindan o'qib chiqishi, alohida urg'u berilishi lozim bo'lgan o'rinlarini o'zi uchun belgilab

¹ Умумий ўрта таълим мактабларининг 5-9-синфи учун адабиётдан укув дастури. "Маърифат" газетаси, 2015 йил 4,7,11- октябрь.

² <https://kh-davron.uz/yangiliklar/muborak-kin/erkin-vohidov-nido-doston.html>

olishi, uning qaysi o‘rmini qanday ohangda o‘qishi kerakligini aniqlab qo‘yishi lozim bo‘ladi.

Doston inson tuyg‘ulari, murg‘ak go‘dakning dardlari, iztiroblari, urush atalmish baloning dahshatlari ifodasi sifatida yuzaga kelgan. O‘qituvchi asarni o‘qish davomida mana shu dardu dahshatlarni o‘quvchilariga tuydira olishi kerak. U, birinchi navbatda, o‘quvchilari ko‘nglidan kechishi, shuurlaridan o‘tishi lozim bo‘lgan tuyg‘ularni o‘zida uyg‘ota bilishi kerak. Shundagina ustoz o‘z “dard”ini o‘quvchilariga “yuqtira” oladi. Adabiyot o‘qituvchisining qay darajada ta’sirchanligi, hissiyot olamining qanchalik bokiraligi, ma’naviyatining ne chog‘li go‘zalligi shunday o‘rinlarda yaqqol seziladi. U qanchalar samimiy bo‘lsa, o‘z tuyg‘ularini chiroyli ifodalay bilsa, o‘quvchilari ham o‘zlarini shuncha erkin sezib, fikrlarini tortinmay ifodalaydilar. Shu tariqa ularning qarashlari shakllanadi, tuyg‘ulari noziklashadi, hissiyotlari tiniqlashadi.

“Nido” dostoni dahshatli va shafqatsiz qirg‘in tufayli otasiz qolgan millionlab ma’sum go‘daklar chekkan fig‘onlarni aks ettirgan. Begunoh bolakay tilidan bayon etil dostonida millionlab yetimlar, qora yer qa’riga bevaqt ketgan urush qurbonlari, beva qolgan baxtsiz kelinchaklar, farzand dog‘ida kuygan ota-onalar, tug‘ilmay qolgan go‘daklarning nidosi birlashib, olamdagi eng ulkan baxtsizlik – urush tufayli paydo bo‘lgan yigirmanchi asr nidosiga aylanadi. Bu nido o‘quvchining asl insoniy tuyg‘ular mohiyatini yanada teran anglab olishiga, boshqa odamlarga tegishli g‘amni chuqurroq his etishiga yordam beradi.

Tahlilni samarali amalga oshirish uchun o‘qituvchi dostonning imkon qadar ko‘p qismini yoddan bilishi lozim. Chunki o‘quvchi e’tibori tortilishi lozim bo‘lgan o‘rinlar yoddan keltirilsa, asarning ta’sir kuchi ortadi, so‘zning jozibasi o‘quvchi ko‘ngliga chuqurroq kirib boradi. O‘quv tahlili dostonning dastlabki misralari bo‘lmish:

*Hayqiraman. Tog‘lar ortidan
Gumburlagan sado keladi.
Ona yerning otash qa’ridan
“O‘g‘lim” degan nido keladi*

satrlarining o‘qituvchi tomonidan yoddan aytilishi bilan boshlanadi. O‘quvchilardan yigit yoshidagi lirik qahramon nima deb hayqirishi

mumkinligi, uni bu hayqiriqqa nima undagani, gumburlagan sado ne bois tog'lar ortidan kelayotgani haqida savol tashlanadi. Savolga javob berish jarayonida doston matniga qat'iy suyaniladi. Ma'lumki, insonga xos bo'lgan eng kuchli tuyg'ulardan biri – sog'inch. Bu tuyg'uni har bir o'quvchi qandaydir shakllarda tuygan. Odam sog'ingan, qo'msagan narsasiga erishish imkoniyatiga ega bo'lsa, tuzuk. Lekin imkon bo'lmasa-chi? O'quvchilar asar qahramonining holatini tasavvur qilishga urinishlari kerak. U otasini juda-juda sog'ingan. Axir ko'rmaganiga yigirma yil bo'lgan. Uni ko'rishning esa, aslo iloji yo'q. Chunki ota urushda halok bo'lgan. Qahramon tiyiqsiz sog'inchdan ovunish yo'llarini qidiradi. Najotni esa tabiat bag'ridan topadi. Shuning uchun ham doston qahramoni tog'lar qo'yniga intiladi. Chunki shu yerdagina u o'z xayollari bilan yolg'iz qolish imkoniga ega. Xayolida esa shahid otasi. Uning ruhiyatidagi cheksiz sog'inch, bo'g'zidan otilib chiqishga tayyor ichki faryod butun vujudini qamrab olgan. Shu sabab uning ingrog'i ham tog'lar bag'rida hayqiriqday jaranglashi va tog'lardan aks-sado kelishi tabiiy.

Yer bag'ridan “O'g'lim” degan nidoning kelishi tabiiymi yoki xayolmi? O'quvchilar bu nidoning nega yer qa'ridan kelishiga o'z munosabatlarini bildirishlari lozim. Ota urushda halok bo'lgan, ya'ni yer qa'ridan joy olgan. Lekin uning ruhi tirik. O'g'li uni doim o'ylaydi, izlaydi. Shu bois o'g'ilning hayqirig'iga yer ostidan javob kelganday tuyulishi mantiqli va samimiy.

O'g'ilning otaga murojaatini o'qituvchining o'zi qayta o'qib bergani ma'qul. Bu misralar o'qilganda hayajonning zo'ridan tomoqqa tiqilgan yig'i va titragan ovozni berkitishga urinmaslik kerak. O'zlari e'tiqod qo'yan o'qituvchisining hayajoni, iztiroblari, “dard”i o'quvchilarni befarq qoldirmaydi. Ular yigirma yil otasini ko'rmagan o'g'ilning holatini o'qituvchi hissiyotidagi jumbush orqali aniq his qiladilar, ko'ngillarida hamdardlik, achinish tuyg'usi paydo bo'ladi. Bu dostonning shoir qalb o'rtanishi, so'ngsiz armon va yurak qoni bilan bitilganiga imon keltiradilar. O'qituvchining ovozini titratgan, o'quvchilar ko'nglida hamdardlik, achinish hislarini uyg'otgan so'ngsiz armon, yurak qoni ekanini tuyadilar. Qahramonning sog'inchu iztiroblari, pinhoni o'rtanishlari, chek-chegarasiz armonlari, ko'ngil dardlari o'zgalarga shu tariqa “yuqtir”iladi.

Dostonning ikkinchi qismi olti yoshli bolakayning tilidan bayon etiladi. O'quvchilarning diqqati bu qismda tasvirlangan qishloq

ko'chasidan yugirayotgan "zanjiday qaro" bolalik bilan tuproqni titratayotgan og'ir qadamlar o'rtasida qanday munosabat borligiga tortilishi kerak. Onaning so'zlari esa alohida o'qib berilgani ma'qul. Har bir onaning ko'nglidagi eng erka, eng aziz so'zlari bolasini yupatish uchun bo'ladi. Bolasining oromi, xotirjamligi onalarning oliy tilagi. Ona o'g'liga Otani jangga undagan sabablar: hayot, erk, kelajak, "Butun yer – undagi Bor avlod" ekanini uqtiradi. Bu o'rinda bolaning otasiga xos asl insoniy sifatlarini bilib olishiga, Otoning joni evaziga erishilgan ne'matlar qadrining qanchalar qimmat ekanini tushunishga ona ko'mak berayotganiga diqqat qaratiladi. O'quvchilar onaning bolasiga qilgan:

*Sizlarga qoladi
Muqaddas zamin.
Sizlar uni avaylab kaftida tutasiz.
Sharaf yo'llaridan
Olib o'tasiz*

tarzidagi o'gitlari yana kimlarga qaratilgani haqida o'ylab ko'rishlari kerak.

Bolaning onasi qo'yinini to'ldirgan savollarini o'qituvchi qayta o'qib beradi. Ular bolalarga xos erkalik, samimiylik bilan o'qilishi kerak, toki o'quvchilar murg'ak insonning holatini to'liq his qilsinlar. Axir ular ham bolalar, lekin ularning ko'pchiligi ayriliq dardini tuya olmaydilar. Chunki ular ota-onalarining bag'rida, mehr-muhabbat qurshovida katta bo'lyaptilar. Shu mehrni, muhabbatni qadrlay bilish uchun ham asar qahramonining kechmishlarini his qilishlari kerak.

Har bir o'g'il bola "urush-urush" o'ynagan. Chunki u – tabiatan himoyachi, jangchi. Urush davri bolalari ham "urush-urush" o'ynashgan. Lekin ular o'sha davrda bu dahshatning asl mohiyati haqida o'ylab ham ko'rmaganlar. Ular urushni qiziq bir tomosha, qahramonlik ko'rsatishga imkon beradigan o'yin tarzida tushunganlar. Mazkur dostonda bola nazaridagi "urush" bilan urush atalmish chinakam dahshatning bolalar va kattalar taqdiridagi, ruhiyatidagi aks-sadosi, izlari ayricha dard, iztirob bilan tasvirlangan. Tahlil jarayonida o'quvchilar urushning qishloq ko'chalaridagi aks-sadosi bitilgan satrlarni matndan topib, munosabat bildirsalar, maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'qituvchi doston qahramonining "o'yinlardan erta to'ygan"ligi to'g'risida gap borgan oltinchi qismdagi tasvirlar borasida ham o'quvchilaridan fikr olishi kerak. O'yin nimani bildiradi? Undan to'yish-chi? Bugunning bolalari qanday o'ynaydi? Nega doston qahramoni o'yinlardan erta to'ygan? Uning erta ulg'ayishiga nimalar sabab? Faqat nasihatgo'ylik qilib emas, albatta.

Doston yettinchi qismining oxirgi to'rt misrasini o'qituvchi o'zi qayta o'qib, o'quvchilarining "*Dadam xatin o'qib savod chiqarganman*", – deya faxrlanib gapirayotgan bola tabiati haqidagi mulohazalarini eshitishi kerak.

Bolaning otasiga yozgan maktubida: "*Sizni juda sog'indim. Sog'indim ikkala ko'zim bilan teng*" degan satrlar bor. O'quvchilar shu satrlarga alohida e'tibor qilganlari ma'qul. Har bir o'quvchi o'z bolaligining shu bosqichini xotirlasa, doston qahramoni xatidagi tasvirni yaxshiroq anglaydi va kuchliroq ta'sirlanadi. Bolalikda kattalar ularga ham kimlarnidir "sog'indingmi?" deb savol berishgan. Tabiiyki, tasdiq javobini olishgan. O'shanda: "Qaysi ko'zing bilan sog'inding?" deb so'rashgan. Talabalar shu o'rinda hamma bolalarga xos umumiylikni aniq his qiladilar. Natijada, asar qahramoni bilan o'quvchilar bir-birlariga yaqinlashadilar. Shunda o'quvchilarning doston qahramonini his etishlari, tushunishlari osonlashadi.

Xatda Rustamning akasi urushdan bir oyoqsiz, qo'ltiqtayoqda qaytgani, qo'lsiz qaytgan Xol aka o'g'lini qucholmay, tik turgan joyida yig'layverгани, Tal'atning dadasidan qora xat kelganda hammalari, hatto muallim ham yig'lagani haqidagi ta'kidlarda urush degan baloning naqadar dahshatli ekani, uning insonga yetkazgan iztirobu alamlari, ozorlari samimiy, ta'sirchan va ishonarli tarzda tasvirlangan. Olti yashar bolakay nomidan yozilgan misralar zamiridagi og'ir ruhiy-hissiy ma'no oltinchi sinf o'quvchilari e'tiboridan chetda qolmasligi kerak. Shu o'rinlarni qayta-qayta yoddan o'qib berish mumkin. Shundagina bugungi bolalarning ko'nglida og'riq, alam paydo bo'ladi. Birovning dardini o'ziniki singari tuyadilar. Urush degan dahshatning oqibatlarini to'laroq tasavvur qiladilar va imkon qadar buning oldini olish kerakligini his qiladilar. Bu tuyg'u ularning ruhiyatida abadiy qoladi...

Bolaning xatidagi "*Buvim aytgan agar men tilak tilasam, Tilagim bo'larmish doim ijobat*" degan satrlarni o'quvchilarga sharhlatish o'rinli. O'zbekcha tafakkur tarzining belgilaridan bo'lmish bu xildagi

ishonch bu dostondan tashqari yana kimning qaysi asarida qanday munosabat bilan ifodalanganini o'quvchilar eslashga urinib ko'rishlari maqsadga muvofiq bo'ladi. O'quvchilar "Bemor"ni eslashlari tayin.

Dostonning o'ninchi qismida: "*Hijron kechalari g'oyatda uzun, Ayрилиq yo'llari olis nihoyat*" degan satrlar bor. O'quvchilar bu jummalarni chuqurroq tahlil qilganlari ma'qul. "Hijron kechasi", "ayriliq yo'li" kabi obrazli iboralarning asl mohiyatini ochishga, matnda tashiyotgan vazifasini aniqlashga urinib ko'rsalar, didlari noziklashib, badiiy nigohlari o'tkirlashadi.

Ikki yoqda yozilgan ikki xatning bir-biriga tomon bir vaqtda yo'lga chiqqani haqidagi satrlar o'quvchilar tomonidan alohida idrok etilishi lozim. O'quvchilarning ushbu holatni ko'z oldilariga keltirib, ko'ngillaridan kechayotgan tuyg'ularni kuzatishlari adabiy ta'limning to'g'ri yo'lga qo'yilganligidan dalolatdir. Bu hol ular birovning taqdirida ro'y bergan fojiani tuyganlaridan, o'zganing ruhiyatidagi og'riqni his qilganlaridan dalolatki, o'qituvchi uchun bundan yuksak natijaning bo'lishi mumkin emas.

O'ninchi qismda otaning farzandiga qarata: "*Otang bolasi bo'lma, odam bolasi bo'l*" tarzidagi o'giti ifodasini o'quvchilar matndan topib, unga munosabat bildirishlari lozim. Shu munosabat bilan asar qahramoni tuygan iftixor, g'urur tuyg'usining sabablari sharhlansa, uning mohiyati oydinlashtirilsa, maqsadga muvofiq bo'lardi. Dostondagi:

Mening mardlik maktabim

O'zimning otam edi.

Men otam farzandiman,

U esa odam edi

misralarida doston qahramonining otasiga cheksiz ishonchi va u bilan faxrlanishi qanday aks etganiga e'tibor qaratilishi kerak. O'quvchilardan "odam edi" birikmasini sharhlashni so'rash ham juda o'rinli bo'ladi. Odamlilikning mezonlari qanday? Chinakam Odam shunchaki odamdan nimasi bilan farqlanadi? Shu kabi savollar o'quvchilarni o'ylashga majbur qiladi. O'quvchilar qahramonning maqsadiga alohida ahamiyat bersalar, doston qahramon – bola bilan otasi o'rtasida o'xshashlik va uyg'unlik mavjud bo'lgan jihatlarni

payqay oladilar. Bunday o‘rinlar matndan topib, o‘qib berilsa, yanada yaxshi.

Dostonning o‘n birinchi qismida jang tafsiloti go‘zal badiiy yo‘sinda bayon etiladi. O‘qituvchi bu bandni asar ustida ishlash asnosida yana bir marta alohida o‘qib bergani ma‘qul bo‘ladi. O‘qish jarayonida ifodalilik bilan bir qatorda o‘qituvchining ovozi voqealar bayoniga moslashib borishi lozim. Shunda o‘quvchilar ham voqealarning rivojini tasavvur qila boradilar. O‘quvchilar o‘qituvchi bilan izma-iz shu misralarni ichdan o‘qib borishlariga erishish lozim. Asar o‘qishi jarayonida goh uzoqroq tin olinishi, matn goh mayin ovozda, goh shiddat bilan, gohida yo‘g‘on, gohida mag‘rur ovoz bilan o‘qilishi kerak. Shunda voqealar tinglovchilarning ko‘z oldidan xuddi kino lentasi tasviriday o‘ta boshlaydi. Ko‘kragida qo‘rg‘oshin bilan yerni quchgan cha toshlarga boshini qo‘yib tinch uxlayotgan to‘rt o‘g‘lonning holati, yo‘qotishning achchiqligi, tabiatdagi holatga o‘quvchilarning e‘tiborini tortish joiz. Inson fojiasiga tabiatning munosabatini ko‘rsatishga harakat qilish ham foydali.

O‘quvchilar asarning o‘n ikkinchi qismi mohiyati va jozibasini ochish uchun: “*yerni tepma, Asta bos qadam*” tarzidagi murojaatning sababini ayting va munosabat bildiring” topshirig‘ini bajarishlari kerak bo‘ladi. yerning chekkan ozori aslida uning sovuq bag‘rida yotganlarning ozoridir. Chunki yer yuzida odam suyagisiz biror qarich joy yo‘q.

Yerni tepma, Asta bos qadam,
yetar uning chekkan ozori.
Biz turgan yer, Biz kezgan olam
Ulkan fidoyilar mozori.*

Bu misralar insoniyat istiqboli, ozodligi yo‘lida jon fido qilgan urush qatnashchilarining tabarruk xotirasini qadrlashga undaydi. O‘qituvchi Ikkinchi jahon urushi janggohlarida ellik milliondan ortiq kishi halok bo‘lgani, ularning orasida sinfdagi har bir bolaning bobosi yoki biror ajdodi borligini ham aytib qo‘ysa, darsning ta‘sir darajasi yanada oshadi. O‘quvchilar lirik qahramonning: “*Tengdoshim. Asrdosh birodar!*” degan murojaati kimga qaratilgani borasida bosh qotirib ko‘rishsa, ehtimol, murojaat qilinyotganlar qatorida o‘zlari ham borligini payqab olishar. Muallifning asrdoshlariga murojaati shiorday, qasamyodday qat‘iy ovoz bilan o‘qilishi kerak.

O'quvchilar dostonning boshida tilga olingan lirik qahramon – bola nidosi bilan asar so'nggidagi asr nidosi o'rtasida yaqinlik, aloqadorlik nimalarda ko'rinishi haqida asar matniga tayangan holda fikr yuritishlari maqsadga muvofidir. Ular dostonning nomi haqida ham o'z fikrlarini aytсалar, ma'qul bo'ladi.

G'oyat ta'sirchan va shirali til bilan bitilgan doston dan parcha yod olinishi lozim. Qaysi bo'lakni yod olishini har bir o'quvchining o'zi hal qilgani ma'qul.

Savol va topshiriqlar:

1. O'ylab ko'ringchi, modulli ta'lim texnologiyasi mantiqan ta'limning qaysi metodi xususiyatlariga monand keladi? Xulosalaringizni misollar bilan asoslang.

2. Modulli ta'lim texnologiyasiga xos bo'lgan *“o'quv elementi”* haqida bilimga ega bo'ldingiz. Aytingchi, o'quv elementi o'z ichiga qamrab oladigan jihatlarni qanday tushundingiz? Ularning o'quvchi faoliyatidagi samaradorligi haqida o'ylab ko'ring.

3. Asar ustida ishlashda modulli ta'lim texnologiyasidan foydalanilganda amal qilinadigan izchillikni bir asar misolida ko'rsatib bering. Fikrlaringizni asoslang.

4. Modulli ta'lim texnologiyasidan foydalanishdagi izchillikka doir o'zlashtirilgan bilimlaringizga tayangan holda kompyuter yordamida biror badiiy asar ustida ishlash modulini yarating. Istang bir guruh bo'lib, xohlasangiz, individual holda. Bu sizning pedagogik amaliyotingizda qo'l keladi.

5. E. Vohidovning *“Nido”* dostoni modulini yarating. Uni modulli ta'lim texnologiyasidag foydalangan holda o'rganish ishlanasini tayyorlang.

6. Yuqoridagi dars ishlanmasida taqdim etilgan har bir epizod, tasvir va lavhani mantiqiy savol yoki topshiriqqa aylantiring.

7. *“Adabiyot darslari – ko'ngil darslari”* mavzusida insho yozing. Bir-biringizning ishingizni tekshiring. Xato va kamchiliklarini birlalikda bartaraf qilishga kirishing.

12-MAVZU. DIDAKTIK O'YINLAR TEXNOLOGIYASI VA UNING ADABIY TA'LIMDAGI O'RNI

Reja:

1. *Ta'lim tizimida qo'llaniladigan didaktik o'yinlar.*
2. *Adabiyot darslarida didaktik o'yinlardan foydalanish.*
3. *Adabiyot darslaridagi ijodiy o'yinlarning o'rni.*
4. *Adabiy ta'limda foydalaniladigan syujetli-rolli o'yinlar.*
5. *Badiiy matnning didaktik tahlili namunasi.*

Bugungi ta'lim va tarbiya amaliyoti, xoh u bolalar bog'chasida, xoh maktabda, xoh oliy o'quv yurtida bo'lsin, o'z mohiyatini o'zgartirmoqda. U ma'naviy barkamol avlodni shakllantirish yo'lida izlanyapti. O'sib kelayotgan avlodning ma'naviy komillik sari intilishiga jiddiy e'tibor qaratilayotgan bir paytda ta'lim-tarbiya jarayonining to'g'ri tashkil etilishi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ta'lim-tarbiya uzluksiz jarayondir. Ma'lumki, bola uyda hamisha kattalarning mehr-muhabbati va e'tibori markazida bo'ladi. Har bir ota-ona o'z farzandini ham jisman, ham ruhan sog'lom o'stirishga harakat qiladi. Bolasining intellektual imkoniyatlari va xususiyatlarini o'rganadi. Farzandining qiziqish va qobiliyatiga qarab, uni maxsus maktablarga tayyorlaydi va hk.

Jamiyatdagi o'zgarishlar natijasi o'laroq ota-onalar farzandlari uchun maxsus o'qituvchilar yollab ularni bugungi talablar asosida hayotga, maktabga tayyorlayaptilar, chet tillarni, kompyuterdan foydalanishni o'rgatmoqdalar. Ularni maxsus sport, raqs maktablariga olib bormoqdalar va hk. Qisqasi, farzandining kelajagi uchun ko'pchilik ota-ona o'z imkoniyati doirasida harakat qilmoqda. Ayni vaqtda hayotining ma'lum qismi ta'lim muassasalarida o'tayotgan bolalar ma'naviyati shakllanishida ota-onalar bilan birga o'sha ta'lim-tarbiya muassasalari ham mas'uldirlar. "Bog'cha opa"lar, o'qituvchilar o'z tarbiyalanuvchilarining jismoniy va ma'naviy kamoloti yo'lida burchli shaxslardir. Ammo o'sib kelayotgan avlodni fikr kishisi qilib tarbiyalash muammosi paydo bo'lgandan beri bu yo'nalishda tarbiyachi-o'qituvchilarga jo'yali ilmiy-metodik yordam berilmayotganligi ham ayni haqiqat.

Ta'lim tizimida qo'llaniladigan didaktik o'yinlar nafaqat bolalar bog'chalari, boshlang'ich sinflarda yoki o'rta maktablarda, balki o'rta-maxsus kasb-hunar ta'limi, xatto oliy o'quv yurtlari ta'limi amaliyotida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Didaktik o'yinlar asosida tashkil etiladigan darslar dasturda qayd etilgan mavzularning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadini hal qilishga qaratilganligi, ta'lim amaliyotdagi muhim muammolarni echishga yo'naltirilganligi, tarbiyalanuvchini ham aqlan, ham jisman, ham ruhan toliqishdan asrashga intilganligi bilan ahamiyatlidir.

Adabiyot darslarida o'quvchilarning o'z ma'naviy kamolotlarini ta'minlashda bevosita ishtirok etishlari, ijodiy fikrlashi, mustaqil tarzda bilim egallash ko'nikmalarini shakllantirish va uni rivojlantirishlari, majud bilim, ko'nikma va malakalarini yangi vaziyatlarda qo'llay bilishlarida syujetli-rolli o'yinlar muhim sanaladi.

Adabiy ta'limda foydalaniladigan syujetli-rolli o'yinlar badiiy asarlarda ilgari surilgan hayotiy-ijtimoiy masalalarni, inson va tabiat hamda kishilar orasidagi munosabatlarni badiiy ko'rinish tarzida yoritish asosida vujudga kelgan muammolarni o'quvchilarning o'zlaridagi bilim zahiralarga tayangan holda, hamkorlikda, bosqichma-bosqich hal etishida yangi bilimlarni egallashga qaratilgan didaktik o'yinlar muhim hisoblanadi. Bunda o'yin syujeti jamiyatdan yoki tabiatdan olinadi. Ba'zan jamiyat va tabiatdagi muammolar uyg'unlashtiriladi. O'qituvchi bu didaktik o'yinni o'tkazish uchun quyidagilarni amalga oshirishi nazarda tutiladi:

- badiiy asarda ko'tarilgan hayotiy muammoni aniqlash;
- dars ssenariysini o'quvchilar bilan hamkorlikda tuzish;
- rollar va vazifalarni o'quvchilar o'rtasida taqsimlash;
- muammoni hal etish yo'llarini belgilash va hk.

O'quvchilarning ijodiy izlanishi, tafakkur va faoliyatdagi mustaqilligi, mantiqiy mulohaza yuritish qobiliyatlarini rivojlantirishda, qo'shimcha bilim olishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishda ijodiy o'yinlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim jarayonida vujudga keltirilgan muammoli vaziyatlarni o'quvchilar guruhining o'zaro hamkorlikda avval o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarni ijodiy qo'llash hamda izlanishi orqali hal etishga zamin tayyorlaydigan didaktik o'yinlarni **ijodiy o'yinlar** deb atash mumkin.

Adabiyot darslaridagi ijodiy o'yinlardan biri "Tadqiqotchi" o'yinida har bir "mutaxassis"ning o'z ijodiy izlanish yo'li bo'lib,

fanga o'ziga xos yangilik kiritadi, ya'ni o'zicha kashfiyot qiladi. Masalan, biror asar ustida ishlash jarayonini ijodiy o'yin shaklida amalga oshirishda: «siyosatshunos» – asardagi siyosiy hodisalarning berilishi, mazmun-mohiyati, chinakam hayotdagi xususiyatlari, oqibatlari va hk.larni o'rganadi; «adabiyotshunos» – badiiy asarning tili, uslubi, janr xususiyatlarini aniqlaydi, timsollar tasnifiga ehtibor qaratadi, yozuvchi uslubini aniqlaydi, xullas, matnga adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan yondashadi; «tilshunos» – badiiy asrda til vositalarining qo'llanilishi, shevaga xos so'zlar, ularning xususiyatlari va b.lar tadqiq qiladi. “Mutaxassis”lar o'z ishlarini tugatgach, o'qituvchi tomonidan qo'yilgan topshiriqlarni bajarib, ko'rgazmali qurollarga tayangan holda, o'z fikr-xulosalarini asoslaydilar. Bu kabi didaktik o'yinli darslarda hamma o'quvchilar hamkorlikda ishlaydilar, avval o'zlashtirgan bilimlarini yangi vaziyatlarda qo'llab yangi bilimlarni egallaydilar. Bu, o'z navbatida, o'quvchilarning bilimi va iqtidoriga ishonch uyg'otadi, har bir o'quvchini mas'uliyatga undaydi, javobgarlik hissini shakllantiradi.

Adabiyot darslarida didaktik o'yinlardan foydalanilganda darsning maqsadi, vazifalari, borishi, mantiqiy ketma-ketligi, o'quvchilar bajarishi lozim bo'lgan topshiriqlar tizimini aniq rejalashtirib olish talab qilinadi. Didaktik o'yin davomida o'quvchilar oldiga qo'yiladigan o'quv-biluv xarakteridagi topshiriqlar muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish yo'llarini aniq bilish va oldindan loyihalashtirishni taqozo etadi. Bundan tashqari, o'quvchilarni didaktik o'yinning maqsadi va vazifalari bilan tanishtirish, o'yin taqozo etadigan vazifalarni to'g'ri taqsimlash, har bir o'quvchiga tegishli aniq yo'llanmalar, ko'rsatmalar berish o'yinning samarali natija berishini ta'minlaydi. Didaktik o'yin asosiga qurilgan o'quv-biluv xarakteridagi muammolarni hal etishda o'quvchilardagi mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni yangi, kutilmagan vaziyatlarda qo'llash imkoniyatlari shakllanadi, asta-cekinlik bilan qat'iylasha boradi.

Adabiy mashg'ulotlarda tarbiyalanuvchilarni ijodga undovchi didaktik o'yinlarning turlari juda ko'p. Masalan: hammaga tanish “Zumrad va Qimmat” ertagining nomini aytmasdan undagi beshta tanish so'z: “mehnatkash”, “erka”, “o'gay ona”, “o'rmon”, “sehrgar kampir” hamda begona oltinchi so'z “vertolyot” ko'magida yangi ertak tuzish vazifasini topshirish mumkin; “ochil dasturxon”, “laylak”,

“shum bolalar”, “qaynar xumcha”, “chol” va oltinchisi begona soʻz “uchar gilam” koʻmagida yangi asar yaratishga undash mumkin. Oʻqituvchi bunday oʻyin-topshiriqlar yordamida shakllanayotgan shaxsning yangi narsaga munosabatini oʻrganadi, oʻquvchi shaxsida yangi, begona soʻzdan oʻrinli foydalana bilish qobiliyatini shakllantiradi. Bola ijodkorlikka yoʻnaltiriladi.

Yoxud oʻquvchilardan tugagan ertakni davom ettirishni talab qilishi mumkin. Masalan, Susambilga kelgan hayvonlar boʻrilardan ham qutulib baxtli yashay boshladilar. Xoʻsh, ularning hayoti qanday davom etishi mumkin? Ertak qahramonlarining keyingi hayotini tasavvur qilishga qaratilgan bunday oʻyin tarzidagi didaktik topshiriqlar oʻquvchilar uchun oʻta foydali ijod turi hisoblanadi.

Ertak qahramonlari xarakterini oʻzgartirish bilan bogʻliq didaktik oʻyinlar ham bolalarni ham aqlan, ham ruhan zoʻriqishga undaydi. Masalan: “Uchq ogʻa-ini botirlar” ertagidagi podshoh juda ham aqlli-farosatli, mustaqil fikrli, odil podsho boʻlsin. Unda ertakning mazmuni qanday oʻzgaradi? Asarlar qahramonlarini ijobiy yoki salbiy obraz sifatida tasavvur qilib, ularni almashtirib yangi asar yaratishni talab qilish oʻquvchilarni ziyraklikka oʻrgatadi. Ertaklar, ularni kim toʻqishidan qatʼi nazar, koʻpincha inson mantiqiy fikri emas, xayolotining mahsuli boʻladi. Bolalarning esa fantaziyasi oʻta kuchli. Bundan adabiyot darslarida unumli foydalana bilish kerak, xolos.

Tanish ertak syujeti asosida yangi ertak yaratish, yaʼni oʻsha qahramonlar ishtirokida boshqa ertak toʻqish, mavjud qahramonlarning nomlarini almashtirib yangi matn yaratish, xotira bilan oʻynash – soʻzlar va hodisalarni eslash, sinfda hikoyachi rolini bajarish – oʻylab topilgan voqeani, “koʻrilgan tush”ni aytib berish singari ijodiy ishlardan ham didaktik oʻyinlar sifatida foydalanish mumkin.

Bunday ertak toʻqish, hikoyachi oʻrnini egallash singari mashgʻulotlar jarayonida oʻqituvchilar oʻquvchilarning ijodini, u qanday boʻlishidan qatʼi nazar, yozib borishi katta samara beradi. Bola ustozining biror narsani oʻzgartirib yozmaganligi, tushirib qoldirmaganini nazorat qiladi. Bu unga oʻz soʻzi, yaratigʻi eʼtiborsiz qolmaganini anglatadi.

Bulardan tashqari, oʻrta adabiy taʼlimning dastlabki sinflarida darstaxtaga birini koʻrsatib, ikkinchisini koʻrsatmay ikki soʻz yozish, shu soʻzlar asosida hikoya tuzishni talab qilish ham mumkin. Masalan,

yorug'lik-(qalam), shkaf-(it) so'zlar juftligi ishtirokida hikoya tuzish talab qilinganda yosh ijodkorlar so'zlar juftligidagi ikkinchi so'zning nimaligini bilmaydilar. Shu so'zni qidirib dunyo-dunyo voqealarni aytib yuborganliklarini o'zlari ham sezmay qoladilar. Kimning ijodida mana shu ikki so'z ham ishtirok etganini o'qituvchi belgilab boradi va o'yinning oxirida buni yuzaga chiqaradi. Bu o'yindan maqsad berkitilgan so'zni topish emas, o'quvchini ijodga, uning uchun o'ta foydali bo'lgan mashg'ulotga undashdan iborat.

Yoki "Nima qilarding agar..." (davomi kutilmagan savollar) dunyoda pul bo'lmasa; dunyoni pul bosib ketsa; Toshkent boshqa planetaga tushib qolsa; dinozavr bilan to'qnashib qolsang; suv osti shaharchasiga tushib qolsang; parilar mamlakatiga borib qolsang; sehrgar bo'lib qolsang; maktab direktori bo'lib qolsang; prezident bo'lib qolsang va hokazo g'ayrioddiy, xayolparastlikka undaydigan savollar bilan ham kichik ijodkorlarni yaratishga yo'naltirish mumkin.

Adabiyot darslarida o'rganilgan biror ertak yoki hikoyaning mazmunini o'zgartirib qayta aytish ham ancha jiddiy, ijodiy o'yin. Faqat buning uchun avval zarur vaziyatni yaratib olish kerak. Bolalar tabiatan ertaklar aslining tarafdori bo'ladilar. Ular ertak, hikoya va rivoyatlarning ayni o'sha birinchi marta eshitgan yoki o'qigan shaklda qabul qiladilar. O'sha tanish so'zlarni, ular dastlabki holatida eslab qolgan iboralarni, o'sha hayajonni qaytadan tuyish, yana qayta hayratlanish, shodlanish ularga xush yoqadi.

Psixologlarning aytishicha, har qanday bola dunyoning o'zi o'zlashtirib olgan holatidan tez-tez o'zgarib turishini xushlamaydi. Uning boshqacha yo'nalishga qo'yilishi, ya'ni tanish mazmuni o'zgacharoq shaklda eshitish bolaga yoqmaydi. U so'zlarni tuzatishga, voqealarning aslini eslatishga urinadi. Bu jarayon o'quvchini o'ylantiradi, bezovta qiladi, ziyraklantiradi, izlantiradi, xushyorlikka undaydi, aqli va xotirasini peshlaydi. Bola o'sha lazzat, hayajon, qo'rquvni qayta his qilgisi keladi. O'sha tuyg'ularni qidiradi. Agar u matnning o'zgargan holati bilan kelishgan taqdirda ham, undagi o'zgarishlar bolani yangi tuyg'ularni his qilishga majbur qiladi. Ular endi ertak bilan emas, o'z-o'zlari bilan o'ynaydilar. O'zlariga javobgarlikni oladilar. Bu hol tarbiyalanuvchilarni yomon kuchlardan qo'rqmaslikka, yaxshiliklardan zavqlanishga, go'zallikdan hayratlanishga o'rgatadi. Umuman, yosh ijodkorning qahramonlarga munosabatida o'zgarish bo'ladi.

O'quvchilar haqiqiy hayot bilan o'ylab topilgan hodisalar orasidagi farqni anglab boradilar. Bu didaktik o'yinlarning o'quvchilarni mustaqil mulohaza yuritishga undaydigan ikkinchi jihati shundaki, ular asarni o'zlaricha tahlil qiladilar. Uning dastlabki varianti bilan yangisini taqqoslaydilar. Bir vaqtning o'zida asarning har ikkala shakliga o'ziga yarasha munosabat bildiradilar. O'qituvchi o'quvchisi xayolidagi mana shu munosabatni, tahlilni, taqqoslashni so'zga aylantira olishi, yuzaga – tilga chiqara bilishi kerak. Uning o'qituvchilik vazifasi mana shuni taqozo qiladi. Bu kabi ijodkorlikning yozma ko'rinishi keyinchalik insholarda o'z aksini topadi.

Birorta badiiy matn yaratish o'quvchiga inson uchun o'ta zarur bo'lgan ko'p haqiqatlarni taqdim etadigan vositadir. Buni bolalarni ertak eshitishga, aytishga, har xil hodisalar haqida tizimli hikoya qilishga o'rgatish orqali amalga oshirish mumkin. Masalan, bolalar bilan sinfdagi "Ertakchi bobo (momo)" didaktik o'yinini tashkil qilish mumkin. Odatda, bolalar nazarida, bobo-buvilari ertaklar xazinasiga o'xshaydi. Ular har xil ertaklarni juda ko'p biladilar. O'qituvchi bolakaylarga ertakchi bolani bobo yoki buvi kiyimida ko'rish kuchliroq ta'sir qilishini yaxshi biladi. Adabiyot darslarida tashkil etilgani bunday didaktik o'yinlarda bolalar navbat bilan ertakchi momo yoki bobo kiyimida o'rtoqlariga o'zlari o'ylab topgan voqealarni, eshitgan yoki to'qigan ertaklarini hikoya qiladilar. O'zining o'rtog'i, tengdoshi aytayotgan ertak, u to'qigan hikoya atrofda qilargalarga ham qiziqarli bo'ladi. O'qituvchi esa "ertakchi"ning "asar"ini so'zma-so'z yozib borishi kerak. Bu narsa o'quvchini ertak to'qishga jiddiy yondashishga, ertagini qiziqarli qilish uchun harakatga undaydi. O'qituvchi o'quvchilarga to'qilajak asar mavzularini tavsiya qilishi ham mumkin.

Tarbiyalanuvchilarga "Assalomu alaykum" so'zi bilan ertak to'qishni taklif qilish mumkin. Bunda o'quvchilar "assalomu alaykum", "rahmat", "marhamat", "iltimos", "kechirasiz" singari "sehrli" so'zlar bilan bog'liq eshitganlarini eslashi, ular bilan bog'lab hodisalar to'qishi mumkin. Albatta, kichik ijodkorlar yaratgan matnlarida chuqur ma'no, puxta mantiq bo'lmasligi tabiiy. Bu yoshda ma'no-mantiq muhim emas. Eng muhimi – jarayon. O'quvchi bu jarayonda mustaqil ravishda o'ylanadi, izlanadi. Aqlini, xotirasini o'z ixtiyori bilan zo'riqtiradi. Chunki bu o'yin uning uchun qiziq, unga

yoqadi. Odanning ruhiyatiga yoqimli bo'lgan har qanday narsa uning uchun foydalidir.

Ertaklar qahramonlarining o'rniga o'zlarini, ota-onalari va qarindoshlari nomini qo'yib aytib berish ham o'quvchilarda shaxslik belgilarining paydo bo'lishiga katta yordam beradi. Asar qahramonlari o'rnida ajdar bilan olishish, dushmanlarga qarshi kurashish, o'g'rilarni engish, zaiflarni himoya qilish jarayoni o'quvchi ruhiyatida o'ziga ishonch hissini shakllantiradi. Ichidagi tushunarsiz va sirlil qo'ruqni engishga ko'maklashadi. Faqat hammasi real bo'lishi, rostakam, jiddiy ifodalanishi kerak. Voqealar markazda esa real shaxs, ijodkorning o'zi bo'lishi kerak. Shunda o'quvchilarning ayrimlari o'zlarini qorong'ilik yoki hayvonlardan qo'rqmaydigandek his qiladilar. Bu bilan adabiyot o'qituvchisi o'quvchilarning hayotdagi o'z o'rnini topishiga ko'maklashgan bo'ladi. O'zini voqealar markazida tasavvur qilish, o'zligini anglash uchun yordam beradi.

Adabiy ta'lim jarayonidagi har qanday tarbiya o'quvchidagi tabiiylik bilan uyg'un bo'lgandagina unga "yuqadi". "Bu bolaga og'irlik qiladi" degan fikrni birinchi planga chiqarmaslik kerak. Shu bilan birga, beriladigan topshiriq o'quvchining intellektual imkoniyatlaridan o'ta baland bo'lishi ham mumkin emas. Bu uning shashtini qaytarib qo'yishi mumkin. Topshiriq shunday tanlanishi kerakki, o'quvchi bir oz qiynalib, izlanib, aqli, xotirasi va bilimini zo'riqtirib, vazifani bajarsin. Tarbiyalanuvchilarini bunday ishlata bilish o'qituvchining mahoratiga bog'liq.

Shu bilan birga hech qanday taqiqlar bo'lmasligi kerak. Ijod paytida, yaratish daqiqalarida hamma xohlaganday o'tirsin. Kim eshitadi, kim eshitmaydi, buning ham unchalik ahamiyati yo'q. Bordiyu, tanbeh berilsa ham uni o'qituvchi emas, o'quvchilarning o'zlari qilgani ma'qul.

Bundan tashqari, adabiyot darslarida bir necha kishi bo'lib badiiy asardagi biror narsa-hodisa va timsollar rasmini chizish ham o'quvchilarning ma'naviy kamolotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ular ixtiyoriy ravishda 3–4 kishilik guruhlariga bo'linishadi. Rasmni biri boshlaydi, ikkinchisi davom ettiradi – ularning har biri rasmni o'z tasavvuri bilan davom ettiradi. Chizgilar biri birini to'ldirishi ham, uchinchisi rasmga butunlay boshqa, begona narsani yopishtirishi ham mumkin. Natijada tushunarsiz bir shakl paydo bo'ladi. Oxirida bu chizilgan "yaratiq"ni o'qish, ya'ni tasvirni ta'riflab berish so'raladi.

Har bir bola o'zidan oldin chizilgan narsani qanday tasavvur qilgani va o'zi qo'shgan tasvir nimani ifodalashini aytib beradi. Shu tariqa ma'nosiz narsadan mantiq sari boriladi. O'quvchilar bir-birlarining suratlarini ko'rib kulishlari, undan mantiq topishga intilishari, nom qo'yishga tirishishlari mumkin. Bu jarayonda kechilgan tuyg'ular samimiy, tabiiydir. O'qituvchining vazifasi adabiyot darslarida o'quvchilarni shunday holatlarga sola bilishdan iborat. O'quvchilar bu didaktik o'yinning havosini bir qadar olganlaridan keyin o'ylab chiza boshlashadi.

Bolalar tabiatan asarlarning qahramoni bo'lishni, hech qursa, ertak yoki hikoyada nomi tilga olinishini juda-juda xush ko'rishadi. Bu nafaqat bolalar, hatto katta yoshlilar ruhiyatida ham bir bezovtalik keltirib chiqaradi. Hikoya yoki rivoyatlar aytish jarayonida asardagi geografik nomlarni o'quvchilarga tanish joylar bilan o'zgartirish ham ularning diqqatini o'ziga tortadi. Bu tinglovchini ruhiy muvozanatdan chiqaradi, o'quvchining qiziqish va e'tiborini kuchaytiradi, unga tegishli nom shaxsning ruhiy shakllanishida o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bu hodisa biror asar o'qiylayotganda, kino yoki sahna asarini ko'rayotganda ham alohida vazifani bajaradi. Bu jarayon «men»ning shakllanishiga, farzandlik burchi, vatan tuyg'usi, daxldorlik hissi singari insoniy fazilatlar rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bolalik va o'smirlik davrida kattalar shaxsiyatidagi insoniy sifat-fazilatlar hech qanday zo'riqishlarsiz ular tomonidan aytilayotgan hikoya yoki ertakning ifoda ohangi, aytuvchining munosabatlaridan tabiiy ravishda uning ruhiyatiga o'tadi, o'rnatiladi. Bu jarayonga hech qanday tashqi kuch aralashmaydi.

Maktab adabiy ta'limi mana shu tabiiylikka hamohang ravishda oqilona tashkil etilishi, o'qituvchidagi otalik, onalik mehri, insonlik sifatlari xatti-harakatida, gap-so'zida aks etib turishi kerak. O'quvchilar o'qituvchilarning har bir narsa-hodisaga, o'zlariga munosabatdagi qirralarni, ustozga xos samimiylikni, rostlikni ichki bir tuyg'u bilan ilg'ab oladilar. Shunga tayanib ularga o'z munosabatini bildiradilar. Qaysidir o'qituvchini hurmat qiladilar, kimmidir o'z idealiga aylantiradilar, qay biriga laqab qo'yadilar yoki ortidan mazax qiladilar. Ularda bu jarayon faqat aql bilan boshqarilmaydi. Bu ma'lum darajada aqlning, asosan, tuyg'uning, hissiyotning ishi. Adabiyot o'qituvchisi buni unutmasligi kerak.

Ma'lumki, boshlang'ich maktab yoshida ham, o'rta maktabning dastlabki bosqichida ham topishmoqlar topish bolalar uchun juda qiziqarli jarayon. Buning qiziqarli jihati shundaki, unda bolalar o'zlari uchun noma'lum bo'lgan narsa-hodisalar dunyosida kashfiyotlar qiladilar. O'zlari uchun o'zlari "syurpriz"lar qiladilar, xursand bo'ladilar. Bilish, kashf etish hamisha ham yoqimli jarayon. Ularni topishmoqlar to'qishga o'rgatish undan ham qiziqarliroq bo'ladi.

Masalan, biror predmet – ruchka, qalam, qoshiq va hk. buyumlarning vazifasi, holati, shakli va ko'inishi o'qituvchi tomonidan sodda, tushunarli tilda aytib beriladi yoki yozib qo'yiladi. O'quvchilar esa ko'rgan-eshitganlari asosida topishmoq to'qishadi. Bu holat ham o'quvchilarning borliqni bilishida o'ziga xos manba hisoblanadi. Shakllanib kelayotgan shaxs uchun dunyo sirli va tushunarsiz. Topishmoqlar to'qish va topish jarayonida u mana shu sirlar olamiga kiradi, narsa va hodisalarning xususiyatlarini o'rganadi, shunga tayanib uni kashf etadi. Topishmoqlar to'qish va yonidagi o'rtog'i to'qigan topishmoqning javobini topish ularga katta zavq beradi. Mana shu zavq uni yangi-yangi kashfiyotlarga undaydi.

Bundan tashqari, qofiyadosh so'zlarni topish, so'zning oxirgi harfi bilan boshlanadigan yangi so'z topish, bahru bayt singari ijodiy o'yinlar ham o'quvchilarni ziyraklik, tez fikrlash singari bir qator ko'nikmalarining rivojlanishga ko'maklashadi.

Xullas, adabiy ta'limning har bosqichida o'quvchilar yoshi, intellektual imkoniyati va qiziqishlariga mos didaktik o'yinlardan foydalanish samaradorlikning o'ziga xos garovidir.

Badiiy matnning didaktik tahlili namunasi

“Urushning so'nggi qurboni” hikoyasini o'rganish

O'zbekiston xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimov shaxsi va “Dunyoning ishlari” asaridan olingan parchalar bilan o'quvchilar 5-sinfda tanishishgan. Qissaning shirali tili, jozibali ifodasi va ona timsolining samimiy tasviri tarbiyalanuvchilar ruhiyatida iz qoldirmasligi mumkin emas. Darsning boshida o'qituvchi o'quvchilarga buni bir eslatsa, adib va uning asari haqda bilganlarini gapirib berishni so'rasa, o'quvchilar o'z fikrlarini o'rtaga tashlashari, ruhan bugungi hikoyadan ham o'shanday lazzatni tuyishga tashnalikni

his qilishlari tabiiy. O'qituvchi o'z "hamkor"larini shu holatga tushirishi pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq bo'ladi.

Muallimga oltinchi sinfda O'. Hoshimov qalamiga mansub "Urushning so'nggi qurboni" nomli hikoya ustida ish boshlashdan oldin uni bir o'qib olishi lozimligini eslatib o'tishning hojati bo'lmasa kerak. Hikoyada muallif qiyinchilik, qashshoqlik inson ma'naviyatini sinovdan o'tkazuvchi bir vosita ekanini oddiy o'zbek oilasi misolida, o'ta samimiy tarzda namoyish eta bilgan.

Asarni o'rganishga kirishishdan oldin o'qituvchi uning dasturdagi talqini bilan tanishishi, asarga qanday yondashishi lozimligini qat'iy lashtirib olishi zarur. Bu talqin: *"Asarda qiyinchilik inson ma'naviyatini sinovdan o'tkazish vositasi ekanining ko'rsatilganligi. Hikoyada urush yillarining haqqoniy tasvirlanganligi. Yo'qchilik onani boladan, og'ani inidan sovutganligining ta'sirchan ifodalanganligi. Asl odam har qanday sharoitda ham ma'naviy pokligicha qolishining tasvirlanganligi. Hikoyadagi Shoikrom, Shone'mat, Hadicha va Umri xola obrazlariga xos xususiyatlarning yorqin aks etganligi"* tarzida ifodalangan¹.

Hikoyaning darslikdagi to'liq matnini o'qib chiqish uchun 25–26 daqiqa kerak bo'ladi². Mazkur hikoyani o'rganish uchun dasturda belgilangan ikki soatning birinchisi hikoya matni bilan o'quvchilarni tanishtirishga bag'ishlanadi. O'tkir Hoshimov shaxsi haqida darslikda berilgan biografik material 5-sinfidagi hasbi holning bir oz o'zgartirilgan varianti. Bu kabi takrorlardan qochib, o'qituvchi muallifning o'z xotiralaridan foydalansa, ya'ni quyidagi matndan munosib o'rinlari tanlab olinsa, dars samarasi ortishi aniq: *"Men 1941 yil 5-avgustda Toshkent biqinidagi Do'mbiroboq qishlog'ida tug'ilgan ekanman. Qishloqda, tag'in, poytaxt biqinidagi qishloqda tug'ilganim taqdirning hadyasi bo'lsa aqab emas. Negaki, ijodkorda qishloqning qalbi, shaharning aqli bo'lishi kerak.*

Oilamizda bir qiz, to'rt o'g'il bor edik. Men uchinchi o'g'il edim...

Otamdan qattiq hayiqar edik. Otam biron marta ham birontamizni bir tarsaki urgan emaslar. Otani qattiq izzat qilishni onam o'rgatganlar: «Hozir adang keladila, uyni supurib qo'y»,

¹ Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5–9-sinfi uchun adabiyotdan o'quv dasturi. – T., RTM, 2017.

² Ahmedov S. va boshqalar. Adabiyot. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik-majmua. II qism. – T.: Ma'naviyat, 2020. – 148–157-b.

«Adangni jahllari yomon, tinch o'tiringlar», «Adangni ketmoniga tegma», «Adangni soatiga qo'l tegizma...» Bilmadim, balki hozirgi – zamonaviy oilalarga bizning holat «feodallik» bo'lib tuyular. Ammo bizning oilamizda ota shaxsiga sig'inish farzandlarga ziyon keltirganini eslay olmayman...

yetti yoshga to'lar-to'lmas, akalaringa ergashib, Do'mbiroboddagi maktabga bordim. Bu – yetti yillik maktab edi. Uni bitirib, ancha naridagi «katta» maktabda o'qishni davom ettirdim. «Ikki eshik orasi» romanida Muzaffarning «katta maktab»ga borishi, «Alvasti ko'prik», Bo'rijar manzaralari o'sha palladagi kuzatuvlar hosili bo'lsa ajabmas. Urushdan keyingi og'ir yillar edi. O'qituvchilarda ham, o'quvchilarda ham allaqanday fidoyilik bor edi... O'qituvchilarimiz biz uchun namuna edi. Kiyinishi ham, yurish-turishi ham... Ayni paytda domlalarimiz dars o'ta turib, temir pechkaga o'tin tashlab qo'yishdan ham erinmasdi. «Alifbe»ni o'rgatgan Ma'suda opani, faqat direktor emas, haqiqiy tashkilotchi bo'lgan Odil akani, Zuhriddin aka, Abduusmon aka, Qo'chqor aka, Maryam opa, Abduvali aka degan o'qituvchilarimni unuta olmayman.

Birinchi «she'rim»ni 5-sinfda o'qiyotganimda yozganman. Erta bahor edi. Maktabdan kelayotsam devorning kungay etagida qoqigul ochilib yotibdi. Hayajonlanib ketib «Oltin tugmacha» degan «she'r» yozdim. Chamamda bu o'lgudek bema'ni she'r bo'lsa kerak. Esimda qolmagan. Faqat qoqigulni oltin tugmachaga o'xshatganimni unutilmayman.

Urushdan keyingi avlodning bolaligi qanaqa o'tgan bo'lsa meniki ham shunday o'tgan. Men halol mehnati bilan kun ko'radigan oilada voyaga yetganman. Ota-onam haromdan va yolg'ondan hazar qilishni o'rgatishgan. Haliyam shu shior bilan yashayman. Farzandlaringa ham shuni uqtiraman.

Bolaligidagi bir voqeani aytib beray. Uyimiz yonida jiydazor bo'lardi. U yerda men tengdosh o'rtoqlarim bilan sigir boqardim. O'sha paytda sigirni yog'och qoziq bilan arqonlab qo'yardik. Yog'och qoziqning yomon tomoni shundaki, qoqaversangiz, sinib ketadi. Bir kuni jiydazordan temir qoziq topib oldim, ozgina arqoni bilan. Qoziqni sigirimizning arqoniga bog'lab, uyga keldim. Yarim kechasi adam uyg'otdi. Qo'lida temir qoziq. «Qoziqni qaerdan olding?» dedi. «Topib oldim», deb javob qaytardim. «Qaerdan?» «Qiyshiq jiydaning tagidan!» «Jiydaning to'g'risi bo'lmaydi.

Hammasi qiyshiq bo'ladi», dedi adam jahl bilan va «Qaerdan olgan bo'lsang, xuddi o'sha joyga olib borib tashla, hoziroq!» dedi. Yosh bolaman, yarim tun bo'lsa, chakalakzor. Yana Darhon anhorining lopillab turgan ko'prigidan o'tish kerak... Albatta qo'rqdim! Endi chiqib ketayotgandim, menga rahmi kelib, akam ergashmoqchi bo'ldi. «O'zi tashlab keladi!» dedi adam qat'iyat bilan. Amallab ko'priqdan o'tib, chakalakzor tomonga qoziqni uloqtirib, qaytib keldim. Labimga uchq toshganini hisobga olmaganda hech narsa bo'lmadi. Lekin uch-to'rt kundan keyin adam yana yoniga chaqirib oldida, bunday dedi: «Sen topib olgan qoziqqa birov molini boylagani aniq. Agar o'sha molni kimdir o'g'irlagan yoki mol adashib ketib qolgan bo'lsayu, qoziq bizning uydan chiqib, o'sha odam seni o'g'ri gumon qilsa nima bo'ladi? Biz nima degan odam bo'lamiz?» Mana shu voqea menga bir umrlik saboq bo'lgan.

Bolaligimda osmonga, yulduzlarga tikilishni yaxshi ko'rardim. Nazarimda har bitta yulduz meni o'ziga chaqirayotgandek bo'lardi....

Mening bobolarim o'z davrining mashhur kishilari bo'lishgan ekan. Jumladan, bobokalonim – otamning bobolari Abulqosimxon eshon Turkiston tarixida chuqur iz qoldirgan ulug' shaxslardan bo'lgan ekanlar.

Toshkentda, Xalqlar do'stligi saroyi bilan Oliy Majlisning muhtasham binosi o'rtasida qadimiy obida – madrasa bor. Mana shu obidani 1832 yili Abulqosimxon eshon bunyod etgan ekanlar. Bu zukko inson o'zbek tilidan tashqari arab, fors, rus va boshqa tillarni mukammal bilgan, Turkistonning Chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishiga qarshi kurashning g'oyaviy rahnamalaridan biri bo'lgan ekanlar. 1899 yili Sankt-Peterburgda nashr etilgan “Musulmonlikka oid materiallar to'plami” kitobida bunday deb yozilgan: “1892 yili vafot etgan Abulqosimxon eshonning Toshkent va boshqa shaharlarda o'n minglab muridlari bo'lib, ulardan kelgan mablag'lar va vaqf yerlaridan tushgan daromadlar hisobidan eshon 30 ming oltin so'mga madrasa qurdirgan. Bu madrasada 100 – 150 talaba tahsil olgan... Uning aholi orasidagi nufuzi nihoyatda baland bo'lgan...” Madrasada faqat diniy emas, dunyoviy ilmlar ham o'rgatilgan.

...1892 yili Toshkentda vabo kasali tarqaladi. Ustiga-ustak kelgindilar zulmidan tinkasi qurigan xalq qo'zg'olon ko'taradi. Tarixga “Vabo qo'zg'oloni” nomi bilan kirgan milliy-ozodlik harakati boshlanadi. Chor hukumati askarlari eski shaharga bostirib kirgan

qirg'in chog'ida Abulqosimxon eshon muqarrar o'limni bo'yniga olib, o'sha paytdagi Turkiston general-gubernatori Vrevskiy nomiga rus tilida ariza yozib, uning oldiga boradi. Bosqinchi askarlar Toshkentning mahalliy aholi yashaydigan qismidan (eski shahardan) olib chiqilmasa, oqibati ikkala tomon uchun ham fojiali bo'lishini tushuntiradi. Gubernator buyrug'i bilan "sallotlar" shahardan olib chiqiladi.

Keyin esa undan ham g'aroyib hodisa ro'y beradi... 1892 yil 30 iyun kuni Abulqosimxon eshon Xo'ja Ahror jome masjidida ming-ming odamlar orasida va'z aytib, Toshkent ahli bir balodan qutilgani – bosqinchi askarlar shahardan olib chiqilgani bilan xaloyiqni qutlaydi va tag'in bir ofatni – vaboni o'zi bilan olib ketish niyatida ekanini aytib, Allohga iltijo qiladi. "Turkiston viloyatining gazetisi" muharriri N. Ostroumov "Fon Kaufman – Turkiston o'lkasining tashkilotchisi" nomli maqolasida bu hayrotomuz hodisa haqida shunday deb yozadi: "Shundan so'ng munkillagan yoshida so'nggi kunlardagi voqealardan ("vabo qo'zg'oloni"dan, demoqchi) qattiq larzaga tushgan muhtaram Abulqosimxon tezda – 4 iyulda vafot etdi. Qiziqarlisi shundaki, vabo barham topdi, toshkentlik sartlar buni uning vafotiga nisbat berdilar..."

Ajdodlarim to'g'risida bu qadar batafsil to'xtalganimning sababi shundaki, ellik yoshga chiqqinumcha bobolarimning kim bo'lganini bilmaganman. 1991 yil taniqli olim va jurnalist Sirojiddin Ahmedov shajaramiz to'g'risidagi ma'lumotni qo'limga topshirdi. Keksa yoshdagi qarindoshlarimdan bu dalillarni nega menga aytishmaganini so'raganimda juda asosli javob eshitdim. Gap shundaki, agar bu gaplarni bilganimda qaerdadir aytishim yoki yozishim muqarrar edi. Sho'ro siyosati esa "xalq dushmanlari"ga aloqador bo'lgan odamni ko'kartmasligi aniq edi..."

O'qituvchi bu asarni o'rganishga ajratilgan ikki soatni yaxlitlashi, ya'ni ikkala akademik soatdan bir kunda qatorasiga foydalanishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Shunda o'quvchilarning matn o'qishi davomida olgan taassurotlari, ko'ngillarida paydo bo'lgan iztirob, achinish singari hissiyotlar asar ustida ishlash jarayonida "issig'ida" tilga chiqa boshlaydi. Ular tahlil mobaynida tug'ilgan fikrlariga ruhiyatida paydo bo'lgan tuyg'ularni ham qo'shib ifodalaydilar. Bu esa, o'z navbatida, o'z-o'zini taftish qilish demakdir. Bu yoshdagi o'quvchilarning ruhiy kechinmalarini bir-birlaridan yashirmay,

tortinmay, uyalmay ifodalashi ularda shaxslik sifatlarining shakllanishiga ijobiy ta'sir etadi.

Muallim hikoya matnini o'zi o'qib berishi shart va o'qish jarayonida Shoikromning holati ifodalangan o'rinnlarni, uning fikrlarini toliqqan ovoz bilan, onaning so'zlarini yumshoq, Xadichaning ovozini qalbakiroq ohangda, muallifning so'zlarini qat'iyroq, Shone'matning ovozini dardli, siniq tarzda ifodalay olishga erishishi asarning ta'sir kuchini oshirishi tayin. Shoikromning pushtalar orasida mukka tushib yotgan onasini ko'rgandagi holati va qichqirig'ini o'qish jarayonida tabiiy ifodalay olish uchun o'qituvchi shu holatni to'liq his qilishi, mashq qilishi va o'zini shunga tayyorlashi lozim.

Ovoz chiqarib o'zgalar uchun o'qilayotgan asarning ta'sir kuchini boshqalar ham to'laligicha tuyishlari uchun muallifning, o'qiyotgan kishiniing tuyg'ulari ovozida ifodalanishi kerak. Bu holatni sun'iy ravishda yasab bo'lmaydi. Yasalgan narsa ko'ngilniki emas va u o'zgalarga ham istalganidek ta'sir ko'rsata olmaydi. Ko'ngilda notabiiy, nosamimiy tuyg'uga joy yo'q.

Hikoya o'qib bo'lingach, o'qituvchi bir oz tin olishi, tinglovchilarini kuzatishi lozim. Ular qanday holatdaligini, hikoya qahramonlari ruhiyati, kechmishi, dard-iztiroblari o'quvchilarga qanday ta'sir etganligini aniqlab olgani ma'qul. Shundan so'ng asar o'qishi jarayonida o'quvchilar ko'nglida paydo bo'lgan turli hislarni ularning tiliga olib chiqish uchun bir qator savollarni o'rtaga tashlash mumkin bo'ladi.

Darslikda asar mazmuni yuzasidan taqdim etilgan bir qator savol va topshiriqlarning ikkinchisi o'quvchilardan "asarning asosiy mazmunini so'zlab berish"¹ni talab qiladi. Metodik jihatdan oltinchi sinf o'quvchisi uchun bu o'ta samarasiz ish turi hisoblanadi. O'qituvchi bunga amalda aslo yo'l qo'ymasligi kerak. Matn mazmunini qayta aytib berish boshlang'ich sinflarning dastlabki bo'g'ini 1-, 2-sinf o'quvchilariga mo'ljallangan ish turi hisoblanadi. Buning o'rninga o'quvchilar diqqati Shoikromlar ro'zg'orining fayzsizligini ifodalovchi lavhaga tortilgani ma'qul.

O'quvchilarni ko'pdan beri dam olmagan, boshi tashvishlardan chiqmaydigan, yetishmovchiliklar iskanjasida qolgan kishi ko'ziga

¹ С. Аҳмедов ва бошқалар. Адабиёт. Умумий ўрта таълим мактабларининг 6-синфи учун дарслик-мажмуа. Т.: Маънавият, 2005. 166-б.

aslida g'arib va fayzsiz bo'lgan tirikchiligi nihoyatda xunuk ko'rinishi tabiiy ekanligini anglashga undash kerak: "Ro'zg'or jihozlarining Shoikrom ko'ziga bu qadar sovuq ko'rinishi sabablari nimada deb o'ylaysiz? Hamma ro'zg'orda bo'ladigan uy anjomlari nima uchun Shoikromning ko'ziga bunday ko'rinyapti? Gap ro'zg'or buyumlaridami yoki Shoikromning kayfiyatidami?" Hikoya matnida buning sabablari tasvirlanmagan. Lekin matn zamiridan, asardagi har bir detal tasvirida fayzsizlik sabablari ko'rinib turibdi. O'quvchilar ro'zg'orning bunday tarovatsizligiga Shoikromning xotini yoki uning o'zini aybdor deb qarashlari yoki buni boshqa bir sabab bilan izohlashlari mumkin. Muhimi, ular hikoya personajlariga befarq bo'lmasalar, o'zgalar tashvishini chekishga, birovlarining xatti-harakatlariga baho berishga urinsalar bas.

Tahlil ishtirokchilari hikoya qahramonining bezovta o'ylarga botganligi, uning ruhiy dunyosidagi notinchlik bilan tabiatdagi holatning: "*Yarim kecha bo'lib qolgan, atrof jim-jit. Faqat olislarda it uliydi. Ayvon to'sinidagi uzun mixga ilig'liq lampochka xira nur taratadi. Chiroq atrofida o'ralashgan chivinlar bir zum tinmaydi... Qayoqdandir shamol keldi. Hovli etagidagi yong'oq shoxlari bir guvillab qo'ydi*" singari ichki bezovtalikning sabablarini topishga urinishlari zarur. Shoikromning ruhiy dunyosidagi notinchlik bilan itning ulishi, shamolning kelishi va yong'oq shoxlarining guvillashi orasida qanday aloqadorlik bo'lishi mumkin? Bu to'rt bezovtalik tongda yuz berishi mumkin bo'lgan falokatning xabarchisimikin? "Tanqidchi"lar qiynalib qolishganda shu kabi qo'shimcha savollar o'quvchilarning fikrlash jarayonini ma'lum o'zanga solib yuborishi mumkin.

Qahramonlar haqida o'ylash, mulohaza yuritish, ularning kundalik hayoti, kechinmalari, xatti-harakatlarini taftish qilish, baholash jarayonida o'quvchilar ham aqlan, ham ruhan faollashib, ulg'aya boradilar. O'quvchilar tahlil o'rniga asar voqealarini qayta hikoyalashga kirishib ketmasligi kerak. Ustoz asarning tahlili matndan estetik ta'sirlanish, tahlil asnosida insonni, uning ruhiy olamini teran his qilish – o'zlikni o'rganishga olib boruvchi ilmiy-pedagogik jarayon ekanini unutmashligi va buni o'quvchilariga ham bildirib qo'yishi foydadan holi bo'lmaydi.

E'tibor qilinsa, hikoya boshdan-oyoq mahzun ohangda bitilgan. Chunki asarda tasvirlangan taqdirlar, shu taqdirlar namoyon bo'lgan

voqealar, ushbu voqealar ro'y bergan davr qayg'uga uyqash, urush davrining ohangi esa o'q va yig'i ovozigacha esh. Ma'lumki, o'q ovozi ham, yig'i tovushi ham shodlikni eslatmaydi, qayg'uni, g'amni yodga soladi, shularni keltirib chiqaradi. Ana shu hayotiy ohang hikoyaga ko'chgan. Ayni shu sifat uning ta'sir darajasini yanada oshirgan. Hikoyaning jiddiy tahlili o'quvchilarni hayotning nechog'lik murakkab ekanligiga, odam va uning amallari har qanday holatda ham to'g'ri bo'lavermasligi, u haqda fikr aytish, munosabat bildirish hamisha ham oson kechavermasligiga imon keltirishga majbur qiladi.

Asardagi Xadicha obrazining tabiatini baholash uchun o'quvchilar uning beshikda yotgan bolasiga, eriga, qaynonasiga munosabati, ro'zg'or tutumi haqida fikr bildirishlari lozim bo'ladi. O'shanda ham jizzaki, ayni vaqtda, eri va farzandlariga mehribon, tinib-tinchimas, ammo baxti qaro bu ayolning yaxshi yoki yomonligi to'g'risida ham qat'iy xulosa aytish mushkul. Og'ir turmush, yo'qchilik har bir odam uchun sinov, ba'zilar uchun esa, to'qchilik va farovonlik ham o'ziga xos bir sinov. Hamma ham bu sinovlardan birday o'ta olmaydi. Odamga xos asl fazilatlar ana shunday mushkul vaziyatlarda o'zini ko'rsatadi. Xadichaning shaxsini ochuvchi jihatlarning har biri savol-topshiriqqa aylantirilsa, uning fe'l-atvori o'quvchilar tomonidan ochilib, xatti-harakatlari, muomalasidagi yaxshilik va yomonlik sabablari anglashiladi.

Shoikrom timsolini Xadichadanda murakkab deyish mumkin. U – tabiatan fikr kishisi, mulohazali odam. Adib buni hikoyaning biror o'rnida aytmagan bo'lsada, tasvir maromi u haqda shu taxlit xulosa chiqarish imkonini beradi. O'quvchilar oldiga ro'zg'orning fayzsizligi, kunlar isib ketgan bo'lsada olib qo'yilmagan sandal nima uchun aynan bugun uning g'ashini keltirayotgani ham mulohaza qilib ko'rilishi kerak. Uning o'n kundan beri ukasining holidan xabar ololmay, uning og'ziga bir kosa sut tutolmaganidan ezilishi, o'zidan nafratlanishiga e'tibor qilinishi kerak. Hikoyada o'quvchilar diqqat qaratishlari lozim bo'lgan yana bir muhim jihat bor: Shoikrom ovqat borligini bila turib nega ayolini onasiga ovqat berishga majbur qilmadi? Buning o'rniga, onasidan ovqatni qizg'angan xotinini tushinishga harakat qildi. Ona uydagi ahvolni biladi, o'sha ovqatni yemasligi ham mumkin edi. Onasiga ovqat olib keltirish Shoikromning farzandlik burchi emasmi? Agar shunday qilolganda, uning ko'nglidagi iztiroblar ham

kamroq bo'larmidi? Shu jihatlarning har biriga alohida munosabat bildirish tahlilni chuqurlashtirgan bo'lardi.

Shoikrom – qahri qattiq ham, mehrsiz ham, yovuz ham emas. Xo'sh, buning uchun urushni, qashshoqlikni ayblash kerakmi? Yoki u tabiatan irodasiz-u vaziyat qiyinlashganda sinovlardan o'tolmayaptimi? Balki u vaziyatning qulidir? Vaziyatdan qanday chiqishni bilmagani uchun xayoliga o'g'ridan qasos olish fikri kelganida vujudi titrab ketsada, ahddidan qaytmagandir? Qilgan qaroridan nima uchun uning vujudi tirab ketdi? Bu nimadan dalolat beradi? Razolatga qarshi qabohat yo'li bilan kurashmaslik kerakligiga aqli yetmagandir? Shuning uchun ham o'zi bilmagan, istamagan, xayoliga ham keltirmagan holda qotilga aylangandir. Yana, o'z onasining qotiliga... O'quvchilar bu qadar murakkablik qarshisida qanchalar ko'p o'yg'a tolsalar, shuncha yaxshi. Chunki ularda shu tariqa hayotiy qarash, nuqtai nazar shakllanadi.

Asardagi ona timsoli tahlil qilinayotganda o'quvchilar Umri xola katta o'g'lininig oldiga chiqishi va: *“Payshanba kuni Komil tayibning uyiga boruvdim. Har kuni nahorga bir kosadan qo'y suti ichsa dard ko'rmaganday bo'lib ketadi, dedi”*, - deya *“o'ziga gapirganday sekin”* qo'shib qo'yishi sababini o'ylab ko'rishlari lozim.

Ular kampir nega qulupnayni o'g'lidan so'rab qo'ya qolmaganining boisini aniqlashga urinib ko'rishlari kerak. Bor ovqatni o'z onasiga berdira olmagan katta o'g'ildan ona kichik o'g'li uchun qulupnay so'rashi mumkinmidi yoki yo'qmi? O'quvchilar onaning xatti-harakatlarini shu jihatdan baholashga urinib ko'rishlari zarur. Bu masalaning bir tomoni.

Ayni vaqtda, xalqimizda har qanday sharoitda ham o'g'irlik yomon degan axloqiy qarash mavjud. Umri xola esa o'g'irlik qildi. Bemor o'g'li uchun bo'lsa ham. Begonanikiga emas, o'z o'g'linikiga bo'lsa ham o'g'rilikka kirdi.

O'quvchilar, garchi bunday huquq hech kimga berilmagan bo'lsada, onaning xatti-harakatlariga ma'naviy qozilik qilishga urinib ko'rishsin.

Umri xola qat'iyatsiz o'g'li, befarosat kelini bilan boshqacha ish tutishi mumkinmidi? Asarning dasturiy talqinida aytilgan *“Asl odam har qanday sharoitda ham ma'naviy pokligicha qolishi”* haqidagi fikrga o'quvchilar nima deyisharkin? Ma'naviy poklikni qanday

tushunisharkin? Har qanday vaziyatda ham ma'nan pok qolish osonmikin?

Ma'lumki, Allohning bandalari oldiga qo'ygan ma'lum talablari bor. U bandalarini qaysidir fazilatlar uchun rag'batlantiradi, qandaydir sifatlar uchun jazolaydi. O'g'rilik – illat. Yaratuvchi qudrat buni illat deb belgilab qo'ygan va ming yillar davomida islomiy falsafa asnosida bu qarash bizning ma'naviyatimizga juda chuqur singib ketgan. Shu ma'noda, chinakam inson har qanday vaziyatda ham Allohning haqiqatlariga xiyonat qilmaydi.

O'quvchilar mana shu haqiqatlarni anglab yetsalar, odamning faoliyatini baholash nechog'lik qiyin ekanini teranroq tushunishlari mumkin bo'ladi. Ehtimol, o'quvchilar asardagi fojia va baxtsizliklar sababchisi sifatida muallif singari urushni ko'rsatishar?! Balki kimlardir Shoikromni xasisligu, qasoskorlikda ayblar, ba'zilar betgachopar Xadichani ham fojia sababchisi sanar. Gap qotilni aniqlashda, aybdorni topishda emas. Asosiy maqsad hikoyada tasvirlangan insoniy taqdirlarga o'quvchilarning beparvo bo'lmasliklari va ularga astoydil munosabat bildirishlaridan iborat.

Muallif onaning qurbon bo'lishiga urush aybdor degan fikrni o'tkazishga moyil. Asarning nomlanishi ham shunga ishora.

Ammo bugungi kun axloqi, badiiy matnga yangicha yondashish, tahlilda ijtimoiy yo'nalishga emas, balki estetik asoslarga tayanish tufayli asarning keyingi umri boshlanishi, undan adib o'ylamagan ma'nolarni kashf etish imkonini beradi. O'quvchilar ayni shu jarayonning faol ishtirokchilariga aylanishlari lozim.

Hikoyaning didaktik tahlili yakunida har kim o'z xulosasida qolishi kerak. Ya'ni onaning halokatida "urush aybdor", "Shoikrom aybdor", "kampirning o'zi aybdor" va hk. deganlarning barchasi o'z qarashlari, xulosasini asoslab berdimi, o'z fikrida qolgani ma'qul. O'qituvchi o'zining haqiqatini ularga singdirishga urinmasligi kerak. Faqat bir haqiqat: Allohning bandalari uchun belgilab qo'ygan mezonlaridan chiqmaslik insoniy burch, bandalik fazilati ekanini, buning albatta rag'bati bo'lishini o'quvchilar anglashlari va e'tirof etishlari kerak. Mazkur asarni o'rganishdagi yetakchi adabiy maqsad mana shu.

Dars oxirida hikoyaning davomini yaratishni ixtiyoriy uy vazifasi sifatida topshirish mumkin.

Xohlovchi o'quvchilar hikoya qahramonlarining keyingi hayotini qanday tasavvur qilishlarini qog'ozga tushirib kelsinlar. Bu topshiriq qobiliyatli o'quvchilarning tasavvurini boyitish va kengaytirish, ijodiy fikrlash ko'nikmasini o'stirish, hayotga, insonga munosabatini tiniqlashtirishga zamin tayyorlaydi.

Savol va topshiriqlar:

1. O'qiganlaringiz asosida didaktik o'yinlar bilan ijodiy o'yinlar orasidagi tafovutni aniqlang. Har ikkisiga tegishli xulosalaringizni biror badiiy asar misolida isbotlang.

2. Adabiyot darslarini didaktik o'yinlardan foydalangan holda tashkil etish uchun amalga oshiriladigan ishlar sirasida *“rollar va vazifalarni o'quvchilar o'rtasida taqsimlash”* degan tushuncha mavjud. Sizingcha, bu muhim ishni qanday mezonlarga tayangan holda amalga oshirish adabiy ta'limning maqsadiga muvofiq bo'ladi? Fikringizni asoslang.

3. Adabiyot darslarida foydalanish uchun tavsiya etilgan didaktik o'yinlarning har biridan o'qituvchining ustozlik mahorati bilan bog'liq fikrlarni ko'chirib yozing. Bu o'yinlarni qanday tashkil etish mumkinligini tasavvur qiling. Ulardan amalda foydalanish yo'llarini tavsiya eting.

4. O'quvchilarning o'rniga o'zingizni qo'yib ko'ring: biror asarning mazmunini o'zgartirib yangi hikoya yarating; ertak qahramonlari xarakterini o'zgartirib o'zgacha bir asar biting; biror asardagi tanish so'zlar va bitta begona so'z ko'magida ijod qiling;

5. Tugagan biror matnning ikkinchi, uchinchi, to'rtinchi hatto beshinchi tugashini o'ylab toping.

6. Kursdoshlar birgalashib rasm chizing va uni o'qing. Sehrli so'zlar ko'magida yangi matn yarating.

7. Narsa va hodisalarning xususiyatlariga tayanib topishmoqlar tuzing. Shunda yaratish mashaqqatini o'zingiz ham tuyasiz, ertangi o'quvchilaringizni ham his qilasiz. Bularning barchasi sizni pedagogik hayotga tayyorlaydi.

8. “Urushning so'nggi qurboni” hikoyasini o'rganishga bag'ishlangan dars ishlanmasida taqdim etilgan har bir yetakchi g'oyani savol yoki topshiriqqa aylantiring.

9. Har biringiz o'zingiz tuzgan savol va topshiriqlaringizni o'rta tashlab ularni guruhiy muhokama qiling. Tuzganlaringiz savol va topshiriqlarning mantiqlilik darajasiga baho bering.

10. Shu hikoya mazmuni asosida oltinchi sinf o'quvchilari yoshi va intellektual imkoniyatlariga mos keladigan biron bir didaktik o'yin yaratishga urinib ko'ring.

11. Mazkur asar ustida ishlashni boshqa bir metod asosida tashkil etishga urinib ko'ring. Masalan, muammoli metod, modulli metod xususiyatlariga tayaning.

12. Hikoyaning filologik tahlilini amalga oshiring. Uning didaktik va filologik tahlili xususiyatlarini taqqoslang. O'xshash va farqli jihatlarini aniqlang.

13. "Adabiyot mening taqdirimda" mavzusida insho yozing. Tekshirish uchun ishingizni bir-biringizga bering. Xato va kamchiliklar ustida birgalashib ishlang.

13-MAVZU. SINOV DARSLARI TEXNOLOGIYASINING ADABIY TA'LIMDAGI AHAMIYATI

Reja:

1. *Nazorat-sinov ishlari va ularning turlari.*
2. *Nazorat ishlarini to'g'ri tashkil etishda o'qituvchining vazifalari.*
3. *O'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini nazorat qilish, tekshirish va adolatli baholashda izchillik, mantiqiy tartibga amal qilish.*
4. *Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilar bilimini nazorat qilish.*
5. *Badiiy matnning didaktik tahlili namunasi.*

O'quvchilarning bilimlarni qanchalik o'zlashtirganliklari darajasini, ulardan turli vaziyatlarda amaliyotda foydalana olish imkoniyatlarini nazorat qilib borish ham ta'lim jarayonidagi asosiy ish turlaridan biridir. Darslarda shakllanatilgan zaruriy ko'nikmalarni muntazam ravishda nazorat qilib borish orqali tarbiyalanuvchilar faoliyatiga ma'lum tuzatishlar kiritish, ta'limda va bilimlarni o'zlashtirish asnosida yo'l qo'yilgan xato- kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etish hamda har bir alohida shaxsning ta'lim dasturidagi bilimlarni o'zlashtirishida muvaffaqiyatlarga erishish ta'minlanadi.

Tarbiyalanuvchilarning adabiyot bo'yicha o'zlashtirgan bilimlarini, ma'naviyatining sog'lomlashuvini muntazam nazorat qilish, yutuqlar, xato va kamchiliklarni hisobga olib borish o'qituvchiga o'qitish natijalari hamda adabiy ta'lim vazifalarining bajarilganlik darajasi haqida aniq ma'lumotlarga ega bo'lish imkonini ham beradi.

Ta'lim ishtirokchilari bilimini nazorat qilish maqsadi va buning ahamiyatini nazarda tutgan holda bunday tekshiruvlarning har xil usullaridan foydalaniladi. Sinov jarayonining asosiy maqsadi ta'limning keyingi bosqichiga o'quvchilarning tayyorlik darajasini aniqlashdir. Muntazam ravishda olib boriladigan nazorat ishlari o'qituvchiga o'quvchilarning darslarda o'zlashtirgan bilimlarini kuzatib borish, u yoki bu bo'limlar yakunlanganida yoki chorak oxirida yakuniy natijalarni baholash imkonini yaratadi. Nazorat-sinov ishlarining quyidagi turlari mavjud:

Doimiy nazorat – o‘qituvchiga o‘quvchilarning yangi mavzularni o‘zlashtirishga tayyorlik darajasini aniqlash imkonini beradi.

Avvaldan o‘tkaziladigan nazorat ishlari – o‘quvchilarning avvalgi darslarda o‘zlashtirgan bilim va ko‘nikmalariga ehtiyoj seziladigan har qanday yangi masalaning muhokamasiga o‘tishdan oldin amalga oshiriladi. Bunday nazorat ishlarining o‘quv yilining boshlanishida, har chorak boshida o‘tkazilishi katta ahamiyat kasb etadi. O‘quvchi uzoq muddat ta‘lim amaliyotidan yiroqlashganda nimalarnidir unitishi tabiiy. Avvaldan o‘tkaziladigan nazorat ishlari o‘quvchilarning xotirasida pardalanib qolgan bilimlarini yuzaga chiqarib, ularni faollashtiradi.

O‘qituvchi ta‘lim jarayonini yo‘lga qo‘yish va uni samarali tashkil etish uchun, avvalo, darslarda o‘zlashtirilgan qaysi masalalarni takrorlash muhim ekanligini, qanday individual topshiriqlar oradagi uzilishlarni bartaraf etishi mumkinligini oldindan aniqlab olishi talab etiladi. Bunday nazorat-tekshiruv ishlarining eng samarali usullaridan biri o‘quvchilarning mustaqil ravishda bajaradigan yozma ishlaridir. Nazorat-sinov mazmunidagi yozma ishlar hajman uncha katta bo‘lmasligi, darsning 5–15 daqiqasiga (bajariladigan ish mazmunidan kelib chiqib) rejalashtirilishi maqsadga muvofiqdir. Dastlabki kunlarda bunday ishlar keyingi darslarning maqsad va vazifalarini belgilab olish, o‘tilgan mavzularning qaysi birini takrorlash va mustahkamlash zarurligini aniqlash uchun amalga oshiriladi.

Ta‘lim jarayonida o‘qituvchi o‘quvchilarning bilimlarni puxta o‘zlashtirishlari uchun zarur bo‘lgan har xil metod va usullardan foydalanadi. O‘quv materialining qanchalar tushunilganligi va o‘zlashtirilganligini bilish, keyingi mavzular ustida ishlashga o‘tish yoki o‘tmaslikni aniqlash uchun doimiy ravishda nazorat-sinov ishlari olib boriladi. Nazorat ishlarining to‘g‘ri tashkil etilishi ta‘lim jarayonining samaradorligi asosidir.

O‘qituvchi pedagogik mahorati darajasini o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirishi qanday kechayotganini bilish va his qilish ham belgilaydi. Nazorat-sinov ishlarining maqsadi – o‘quvchilarning nozik joyidan tutish, uning sha’niga tegish, kamchiliklarini yuziga solish, kamsitish emas, balki ta‘limning yuqori samaradorligini ta‘minlashda amalga oshirish mumkin bo‘lgan ishlarni aniqlab olishdan iborat.

Ta'lim tarixida o'quvchilarning bilimini nazorat qilish va ularni baholashda bir qator xato-kamchiliklarga yo'l qo'yilgani kuzatiladi. Bunga sabab shuki, o'qituvchilarning ko'pchiligi tarbiyalanuvchilarning bilimini sinash va ularni baholash metodlari, usullari borasida ma'lum bilimga ega emaslar. Bu hol o'quvchilarning bilimini baholashga yuzaki yondashuvni keltirib chiqaradi.

Ta'lim amaliyotida bugungacha ham o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari besh balli tizim asosida baholanadi. Lekin ko'pchilik o'qituvchilarning o'zlari bilim mayli, ammo ko'nikma va malaka nima ekanligi haqida aniq tushunchaga ega emaslar. O'qituvchilarning bu borada zarur bilim va ko'nikmalarga etarli darajada ega bo'lmaganliklari sabab o'quvchilar bilimini baholashning test shakli ham, yuz ballik turi ham ta'lim amaliyotida kutilgan natijani bermadi.

Dunyo ta'lim tizimida o'quvchilar bilimini test va yuz ballik baholash mezonlari asosida tashkil etilganining sababi shundaki, ruhan sog'lom bo'lgan har bir bolaning qalbida nimagadir qiziqish, nimalargadir moyillik bor. Ta'lim jarayonida har bir bolani o'z qobiliyati, qiziqishlari va eng asosiysi, uning imkoniyati darajasida munosib baholashda yomon baho bilan o'quvchining bilishga bo'lgan qiziqishini so'ndirmaslik, ruhiyatini cho'ktirmaslik, nafsoniyatiga tegmaslik, g'ururini toptamaslik yetakchilik qilmog'i shart. Milliy ta'lim tizimi bu borada, ya'ni o'quvchilar bilimini baholashda kechagi jamiyatdan qolgan illatlardan qutulib ketolmayapti. Ta'lim jarayonining katta yoshli ishtirokchilari bu kamchiliklarni o'z kasbiy mahoratlarining qashshoqligi va o'quvchilar bilimini baholash borasidagi bilimsizliklari tufayli ushlab turibdilar. O'quvchilar bilimini baholashda yangicha mezonlar va o'zgacha yondashuvlar borasida ma'lum tasavvur, bilim va ko'nikmalar egallangandan keyingina bu kamchiliklar bartaraf etilishi mumkin.

Zamonaviy pedagogikada «baho», «nazorat», «tekshiruv», «sinov» singari tushunchalar ustuvor ahamiyat kasb etmaydi. Umumiy nazorat deyilganda – o'quvchilarning bilganlarini yuzaga chiqarish, o'zlashtirilganlarni ma'lum mezonlar asosida o'lchash va bilim hamda ko'nikmalarni baholash nazarda tutiladi. Bugungi tarbiyashunoslikda «tekshirish» tushunchasi zamirida bilimlarni o'zlashtirilganlik darajasi, hajmi va sifatini nazorat qilishning bir qismi nazarda tutiladi. «Nazorat-sinov» tushunchasi mohiyatan jarayonni baholashni, baho

esa natijani anglatadi. «Baho» o'quvchini ma'naviy to'kislik sari intilishga yo'naltirish hamda uning shaxsiga ijobiy ta'sir ko'rsatish omilidir.

O'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirganligi darajasini diagnozlash va nazorat qilishda xolislik, tizimlilik, ko'rsatmalilik muhim tamoyillardan hisoblanadi. Xolislik – o'qituvchining ta'lim oluvchilar bilimini baholashda ularning barchasi bilan do'stona munosabatini nazarda tutadi. O'quvchilar bilimini baholashdagi tizimlilik tamoyilida – didaktik jarayonlarning barcha bosqichlarida nazoratning metod, shakl va usullaridan kompleks tarza foydalana bilish tushuniladi. Ko'rsatmalilik tamoyilida esa barcha o'quvchilarning bilimlarini baholashda bir xil mezonlarga asoslanish va baholashni ochiq namoyish qilgan holda amalga oshirish nazarda tutiladi.

O'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini diagnozlash, nazorat qilish, o'qiganlarini amalda sinab ko'rish, buni tekshirish va baholashda ularni o'zlashtirish qanday izchillikda amalga oshirilgan bo'lsa o'sha mantiqiy tartibga amal qilish muhim sanaladi.

O'quvchilarning bilimdonlik darajasini sinab ko'rish tizimi quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- o'quv yilining boshida o'quvchilar bilimdonligining dastlabki darajasi aniqlanadi;
- o'zlashtirilgan har bir mavzuning o'zlashtirilganligi darajasini aniqlash uchun doimiy nazorat-sinov ishlari uyushtiriladi;
- qayta tekshiruv – xuddi doimiy nazorat-sinov ishlari singari mavzular misolida bilimlarni mustahkamlash maqsadida amalga oshiriladi;
- oraliq nazorat-sinov – ma'lum ruknlar bo'yicha bilimlarning o'zlashtirilganlik sifati va umumlashmalar qila olish darajasini diagnozlash maqsadida o'tkaziladi;
- yakuniy nazorat-sinov va bilimlarni baholash ishlari ta'limning oxirgi bosqichida amalga oshiriladi;
- kompleks nazoratlar esa o'zlashtirilgan bilimlarni ma'lum amaliy-muammoli masalalarni hal etishda qo'llay bilish qobiliyatini nazorat qilishni nazarda tutadi¹.

¹ <https://ru.wikipedia.org/wiki/Википедия>. Свободная энциклопедия.

Nazorat-sinov ishlarining uch asosiy vazifasi quyidagilardan iborat:

1. *Nazorat qilish* – ta'limda muvaffaqiyatlarga erishish yo'lida bilim, ko'nikma va malakalar darajasini yuzaga chiqarishda muhim sanaladi.

2. *Ta'limiy nazorat-sinov ishlari* – ma'lumotlarning o'qituvchi tomonidan takrorlanishida, qo'shimcha tushuntirish ishlari jarayonida, o'rtoqlarining javoblari asnosida o'z-o'zini kuzatish, faollikning ortib borishida namoyon bo'ladi.

3. *Nazoratga yo'ldosh tekshiruv* – hamonki, o'rtoqlar javobi asnosida shaxsiy qarashlar nazorati amalga oshirilarkan, shu asnoda o'quv materialini takrorlash faolligi ortadi va o'qituvchining qo'shimcha tushuntirishlariga imkoniyat paydo bo'ladi.

4. *Tarbiyalovchi nazorat-sinov* – bu ham yo'ldosh nazorat bo'lib, tizimli ishlashga, faoliyatning izchilligiga yo'naltiradi, iroda shakllantiradi, faoliyatni odatga aylantiradi, o'ziga ishonch va mas'uliyat hissini paydo qiladi.

Nazorat-sinov ishlarining bu turlari bilimlarni nazorat qiluvchi metodlarni tanlashda asos hisoblanadi. Bilimlarni baholashda – DTS talablariga asoslangan o'quv dasturi va belgilangan bilim, ko'nikma va malakalar hajmi asosiy mezon bo'lib xizmat qiladi.

Bugungi ta'lim amaliyotida o'quvchilar bilimini sinab ko'rishda, asosan, uning *doimiy* va *yakuniy* nazorat turlaridan foydalaniladi. Bilimlarni baholashning doimiy nazorat turiga individual so'rov, yozma ishlar, ta'limni dasturlash, seminarlar, didaktik o'yinlar va kundalik kuzatish metodlarini kiritish mumkin.

Bilimlarni tekshirish, ularni amalda sinib ko'rishning yakunlovchi metodlari sirasiga esa har chorak oxiridagi nazorat ishlari, sinov va imtihonlarni kiritish mumkin. Bilimlarni tekshirishning bunday modulli shakli zamonaviy metod sifatida bir qator afzalliklarga ega:

– nazorat-sinov, ayni zamonda, o'quvchilar bilimlarini amalda qo'llash imkoniyatidir;

– nazorat-sinov ishlarining ayrim jihatlari umumlashgan holda bahoning nisbatan asosliliigi va ishonchliligini ta'minlaydi;

– qiziqtiruvchi va tarbiyaviy vazifalarni yuzaga chiqaradi.

Bugungi kunda o'quvchilar bilimini sinashning test usuli keng yoyildi. Nazorat-sinov ishlarining bu turi o'quvchilarni savollarga javob berishda tez fikrlashga yo'naltiradi, tekshiruv jarayonini

tezlashtiradi, baholashning xolisligini ta'minlaydi, mantiqiy tafakkurni o'stiradi, javoblarda aniqlik, izchillik va tezlikni ta'minlaydi.

O'quvchilar bilimini sinash va baholashning bu usuli o'z afzalliklari bilan birga ma'lum kamchiliklarga ham ega. Ayniqsa, adabiy ta'lim jarayonida bilimlarni sinab ko'rishning test usuli o'zini to'liq oqlolmaydi. Chunki adabiyot darslarida bilim berish yoki uni nazorat qilishdan ko'ra ko'ngil tarbiyasi, hislarning injaligi, so'zdan ta'sirlanish, so'zni tuyish, go'zallikni payqash, taassurotlar va tuyg'ularni so'z bilan ifodalash singari ishlar ustuvorlik qiladi. Inson ma'naviyatining sog'lomlashuvi, tuyg'ularining injaligi yu fikrlarining samimiyligi darajasini test sinovlari bilan o'lchash mumkin emas.

Ta'lim jarayonining demokratlashuvi, ta'lim islohotlari bilimlarni baholashning eski usullaridan voz kechishni taqozo etmoqda. Lekin taklif etilayotgan yangi usullarini ham barcha o'quv fanlari uchun birday qo'llab kutilgan natijani olib bo'lmaydi. O'quvchilar bilimini baholashning ularni yangi-yangi bilimlarni o'zlashtirishga undaydigan shakllarini topish talab etilmoqda.

Bilimlarni sinab ko'rish va baholashning asosiy maqsadi – o'quvchilarning ruhiyatida bilimga ehtiyoj uyg'otish, bilimlarni mustaqil ravishda egallashga yo'naltirishga erishishdir. Bu, o'z navbatida, ham bilimlarni nazorat qilish, ham o'quv materialiga mustaqil ravishda ijodiy yondasha bilish, shaxsiy reytingini aniqlash qobiliyatini – shaxsning jamiyatdagi o'z o'rnini belgilash darajasining ko'rsatkichi demakdir.

Dunyo miqyosidagi ko'p davlatlarda o'quvchilarning bilimlarini nazorat qilishda maxsus xizmatlar yo'lga qo'yilgan bo'lib, u uchta blokni o'z ichiga qamrab oladi: 5–6-sinflar; 7–9-sinflar (asosiy maktab); 10–11-sinflar (yuqori maktab). Mazkur xizmatlarning bankida o'quvchilar bilimini nazorat qilish bo'yicha 20 000 test topshiriqlari jamlangan bo'lib ularning har biri ma'lum mavzularga yo'naltirilgan¹.

Bundan tashqari, rivojlangan davlatlar zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilar bilimini sinab ko'rishning “Onlayn test” xizmati ham yaratilgan. “Onlayn test” xizmatlarida “O'qituvchining xususiy kabineti”, “Kurs bo'yicha o'quvchining o'zlashtirganlik darajasini nazorat qilish”, “O'quvchi bilimidagi bo'shliqlar diagnozi va xatolar

¹ https://ru.wikipedia.org/wiki.Википедия.Свободная_энциклопедия.

ustida ishlash”, “Test natijalari haqida ma'lumot”, “Har xil ko'rsatkichlar statistikasi”, “Ota-onalar nazorati sahifasi” singari ruknlar bo'lib har biri uchun o'ziga mos talab va ma'lumotlar ishlab chiqilgan. Ular maxsus tizimda internet sahifalariga kiritilgan. Afsuski, milliy ta'lim tizim amaliyoti hali to'liq kompyuterlashtirilmagani uchun o'quvchilar bilimini sinashda bunday xolis va tugal usullardan foydalanib bo'lmaydi.

O'rni kelganda yana shuni ham aytish kerakki, o'qituvchilar ota-onalarni har bir o'quv fani bo'yicha dastur va standartning talablaridan xabardor qilishlari shart. Ota-onalar bolalari dastur bo'yicha nimalarni o'rganayotgani, dasturning talablariga qay darajada javob berayotgani-yu, standartning talablarini qanday bajarayotganini, ular orasidagi tafovutni doimiy ravishda kuzatib borishlari lozim. Bu har bir o'quv fani o'qituvchisining ota-onalar oldidagi vazifasi hisoblanadi. Bunday aloqalar darsning samaradorligini ta'minlaydi, o'qituvchi, ota-ona, ayni zamonda, o'quvchining mas'uliyatini oshiradi.

Ta'lim amaliyotida alohida ta'kidlash lozim bo'lgan narsa yana shuki, bugungi kunda o'quvchilar bilimini sinab ko'rishning reyting usulini ota-onalarning ko'pchiligi “hazm” qila olmayptilar. Qo'yilgan ballarni ular bahoga aylantirib, tushuntirib berishni talab qilishmoqda. Aslida, jahon ta'limi tizimida o'quvchilar bilimini ball asosida baholash va bu ishni kompyuter zimmasiga yuklash juda oqilona tashkil qilingan. Bu usul o'quvchilar qalbini “ikki” yoki “yomon” baholar bilan jarohatlashning oldini oladi.

O'quvchining o'z intellektual imkoniyatidan tashqaridagi vazifani bajara olmagan uchun unga yomon baholar qo'yish va bu bilan uning g'ururi, sha'nini toptash xuquqi hech kimga berilmagan. Ta'lim tizimida har kim o'z imkoniyati doirasida bilim oladi. U shunga yarasha xolis baholanishi va bu baho hech kimni haqoratlamasligi kerak. Shuning uchun ham jahon ta'limi amaliyotida o'quvchilar bilimini baholashning ballik tizimi qabul qilingan. Milliy maktablarimizda ham mana shu usul qabul qilingan ekan, “baho” degan tushuncha unutilishi, “ball” atamasi boricha qabul qilinishi kerak. Uni bahoga aylantirish pedagogik jihatdan noto'g'ri. Ota-onalar majlislarida bilimlarni baholashning reyting usuli xususiyatlari, uning qabul qilinishi sabablari haqida batafsil ma'lumot berish bunday anglashilmovchiliklarning oldini oladi. O'quvchi bilimlarini sinab

ko'rish va baholashning bunday tizimiga ota-onalar ham, o'quvchilar ham birday moslashib borishlari, ko'nikishlari davr talabidir.

Badiiy matnning didaktik tahlili namunasi

“Naqorat” hikoyasi

Keyingi yillarda milliy ta'lim tizimiga ko'plab yangi innovatsion metodlar kirib kelmoqda. Pedagogika fani va amaliyotida ular interfaol metodlar nomi bilan yuritiladi. Ta'limni tashkil etishda jahon pedagogikasi amaliyotida qo'llaniladigan ilg'or metod va usullar, texnika vositalari, o'qitishning shakllarini milliy tarbiyashunoslikka har bir o'quvchi shaxsi, ruhiy o'ziga xosligi, intellektual imkoniyatlari, milliy va ijtimoiy xususiyatlarini inobatga olgan holda qo'llash o'qitish samaradorligini sezilarli oshirishi sinovdan o'tgan.

Bu metod va usullar, masalan, “6x6x6” metodi qo'llanilganda o'quvchilarni kichik guruhlariga bo'lib ishlash uchun quyidagi shartlarga amal qilish talab etiladi:

1. Guruhlar o'qituvchi tomonidan tashkil etiladi.
2. Guruhga rahbarlik qila oladigan o'quvchi tayinlanadi.
3. Har bir guruhda zehnlil va qobiliyatli o'quvchilar bo'lishiga, bo'shroq o'zlashtiradigan o'quvchilarni ham guruhlariga imkon qadar teng taqsimlashga harakat qilinadi. Guruhlar bir-biriga munosib a'zolar bilan to'ldiriladi va vazifalari belgilanadi.
4. Guruh rahbari va a'zolarining vazifalari tushuntiriladi.
5. Har bir guruh doira shaklida o'tirishi, uning har bir a'zosi bir-birini ko'rib turishi maqsadga muvofiq.
6. Ish jarayonida har bir guruhning faoliyatiga, g'oyalari e'tibor berib boriladi. Yaxshi g'oya egalari rag'batlantiriladi.

Bunday guruhlarini tashkil etishdan avval quyidagilarni ham nazarda tutish zarur:

- o'quvchilarning shu ishni bajarishlari uchun bilim va malakalari yetarliligiga ishonch hosil qilish;
- guruhlariga aniq yo'l-yo'riqlar ko'rsatish;
- vazifaning bajarilishi uchun yetarli vaqt ajratish;
- o'z vazifasini vaqtdan ilgari bajargan guruhning bandligini ta'minlash;

- qo'yiladigan masala murakkab bo'lganda guruhlarni kamaytirib, guruh a'zolarining sonini ko'paytirish;

- baholash va mukofotlash guruh a'zolarining faolligiga ta'sir etishini ko'zda tutish;

- kuchli guruhlarni mukofotlash;

- bajarilgan ish natijasini baholash va e'lon qilish;

- jamoaning erkinligiga imkoniyat yaratish va hk.

7-sinf "Adabiyot" darslik majmuasida taniqli turk adibi Umar Sayfiddinning "Naqorat" hikoyasini o'rganish ko'zda tutilgan¹. Shu hikoyani yuqoridagi interfaol metoddan foydalanib o'tish mumkin. Dasturda bu hikoya ustida ishlash uchun ikki soat ajratilgan. O'qituvchi bu ikki soatni bir kunda o'tgani har jihatdan maqsadga muvofiq bo'ladi. Dasturda asarga yondashuv quyidagi tarzda belgilangan: *"Naqorat" hikoyasida vatanparvarlik, milliy g'urur tuyg'ularining yosh turk zobiti hayoti misolida berilishi. Muhabbat va burch tuyg'ulari orasidagi to'qnashuvda vatan oldidagi majburiyat hissining g'olib kelishi tasviri. Bulg'or qizi Rada va turk zobiti orasidagi munosabatlar rivojiga vatan va millat tushunchalari o'tkazgan ta'sir*". O'qituvchi asar ustida ishlash borasida mana shu talqinga asoslanishi talab qilinadi.

Bu asarni yuqoridagi metoddan foydalangan holda o'tishda o'qituvchi guruhlarni, masalan: "Nodira nabiralari", "Navoiy nabiralari", "Bobur nabiralari", "Mashrab nabiralari", "Qodiriy nabiralari" va "Qahhor nabiralari" tarzida nomlaydi va o'qituvchi stoliga "Nodira nabiralari-1", "Navoiy nabiralari-3", "Bobur nabiralari-4", "Mashrab nabiralari-6", "Qodiriy nabiralari-5" va hk. tarzda raqamlangan 36 kartochkani qo'yadi.

Darslikda asar matnidan so'ng hikoya yuzasidan bir qator savol-topshiriqlar taqdim etilgan. O'qituvchi hikoyani o'qib berganidan so'ng, 9 sahifali matn yuzasidan tuzilgan yigirma to'qqiz savol-topshiriq orasidan turfa fikrlar keltirib chiqarishi mumkin bo'lganlarini alohida qog'ozga yozib stollarga qo'yib qo'yadi. Bu stol atrofida o'tirgan o'quvchilarning asosiy topshirig'i hisoblanadi. Har bir savol-topshiriq o'quvchilarni xilma-xil mulohaza yuritish va fikrlash asosida asarni puxta o'zlashtirishga undashi lozim. O'rtaga tashlangan savolga o'quvchining o'z hayotiy tajribalariga, badiiy asar

¹ К.Йулдошев, Б.Қосимов. Адабиёт. 7-синф учун дарслик-мажмуа. Т.: «Ўқитувчи», 2000.

matniga tayangan holda javob berishi uni hikoya qahramonlariga yaqinlashtiradi.

Yosh zobit qalbidagi vatan tuyg'usi, uning xatti-harakatlari, o'ylari, iztiroblari, samimiy muhabbati o'quvchilar dilini bezovta qiladi. Ular zobitning holatini his qiladilar. Savollarga javob berish jarayonida o'quvchilar tomonidan xilma-xil fikrlarning bildirilishi ushbu holatni kuchaytiradi, ularni faollashtiradi. O'quvchi o'zining haqligini his qilgani sari bilim olishdagi qat'iyligi ortib boradi.

O'quvchilar turk zobiti timsolida shunchaki adabiy qahramonni emas, o'z vatanini chin dildan sevgan, o'z amallariga tanqidiy nazar bilan qaray oladigan, o'zini o'zi taftish qilishga qodir, shaxsiy tuyg'ularini buyuk maqsadlar yo'liga bag'ishlay biladigan insonni ko'radilar. Tahlil hikoya matni maromiga qat'iy amal qilingan holda olib borilsa, samarali bo'ladi.

Guruhlardan biriga yurtini sog'ingan yosh zobit ko'ziga Babinaning shu qadar irkit va yoqimsiz ko'rinishiga sabab nima ekanligi haqida o'ylab ko'rish uchun: "Yosh zobitning Babinada to'xtagan joyi unga bu qadar irkit va yoqimsiz ko'rinishiga sabab nima deb o'ylaysiz?", "Qahramonning: "*Chiroq yo'q. Sassi, yog'li bir qurum bosgan tunuka qandil sariq va so'nik nur taratadi. Vujudim, zehnim horg'in... Tushuna olmayman*" tarzida ifodalangan "Zehning horg'in"ligi sababini aniqlashga urinib ko'ring" degan topshiriqli kartochka beriladi.

Mazkur topshiriqni olgan o'quvchilar hikoyaning "21-yanvar, 1319 (1903) yil, Babina" deb nomlangan birinchi bo'limi bo'yicha ishlaydilar. Ular yigit ko'ziga hamma narsaning jirkanch ko'rinishi, uning horg'inligi urushdan charchaganidan ekanini, o'ziga yoqmaydigan ishni qilayotganligi sababli vujudi ham, zehni ham toliqqanidan ekanini e'tirof etadilar. O'zi askar bo'la turib qon tomchilarining yuziga tegib ketishidan bunchalar qo'rqishiga qarab, uning tabiatan xunuklik va qon to'kishdan yiroq odam ekanligini ilg'aydilar.

Uning horg'inligi kuz havosi bilan naqadar hamohangligini payqaydilar va insonning qanchalar tabiatga yaqin ekanini yana bir bor his qiladilar. O'quvchilar e'tiborni yigitning diqqatini tortgan bir sasga – ayol tovushiga, bu sasning yigitga ta'siri va buning sabablariga qaratishlari kerak bo'ladi. Mana shu epizod guruh a'zolari e'tibor qilishlari kerak bo'lgan asosiy hodisadir. Yigitga ayol ovozing

bunchalar ta'sir qilgani uning urushdan, sarg'aygan, xarob o'rmonlarni kezishdan charchaganidandir? Balki er yetgan yigit qalbidagi tabiiy tuyg'ular uyg'onganidandir? Oddiy, osoyishta hayot bo'lganda yigit bu sasga e'tibor qilarmidi, yo'qmidi? O'quvchilar mana shularni e'tibor qaratishlari kerak. Zarurat tug'ilsa, o'qituvchi shu savollarni og'zaki tarzda o'rtaga tashlashi mumkin. O'qituvchi har bir guruh o'quvchilari o'z yo'nalishlaridan chalg'ib ketmasligini nazorat qilib borishi kerak.

Ikkinchi guruhga: *"Hikoyachining: "Hayot uyqu bo'lsa, ishq uning ro'yosidur! Mana – eng buyuk haqiqat"* degan fikriga qo'shilasizmi? Uning: *"...devorlardagi yozuvlarga bir necha satr ilova qilaman. Lekin bu na bir shikoyat, na bir oh bo'ladi! Totli, toza, bir xotira..."* degandagi holati, *"Maydonchadagi go'zal, bashang, kelishgan qiz bilan uzoqdan bir sevishish! Uning ismini ham bilmayman. So'rashdan nima foyda? Uni bilmasam, faqat yozuvlarimgina meni unga bog'lab qo'ydi"* singari iqroriga tayanib, unga baho berish topshirig'i beriladi.

Mazkur guruh o'quvchilari asar matnidagi zobitning hayotdan chiqargan xulosasiga tayangan holda munosabat bildirishlari kerak bo'ladi. Ular hikoyaning "Yanvar, 1319 (1903) va "Fevral, 1319 (1904)" deb nomlangan bo'limlari ustida ishlaydilar. Yigitning esi ham, g'ami ham ketib, bulg'or qizining ko'ziga bunchalar chiroyli ko'rinishi sabablari haqida mulohaza yuritadilar. Shu tariqa ular ishq atalmish tuyg'uning qudratini kashf etadilar. Hatto ismini ham bilmagan, tilini tushunmaydigan, biror marta gaplashmagan bir qizni bunchalar sevish, bu sevgidan shunchalar zavqlanish mumkinligidan hayratga tushadilar. Chunki ularga hali bu tuyg'u begona. Vaqti kelib o'zlari oshiq bo'lganlarida asardagi yigitning holatini his qilsalar ajab emas. Lekin hozircha uning holatini tushunishga, har bir xatti-harakati, so'zi, ochiq iqrorlariga tayangan holda munosabat bildirishga urinib ko'rishlari kerak. Bu guruh o'quvchilarning vazifasi shundan iborat bo'ladi.

Navbatdagi guruh a'zolari oldiga: "Yosh zobit ustozining: *"Fazilatli bo'lmoq insonning qo'lida emas. Lekin istasa, nomusli bo'la oladi, bu ixtiyoriy bir narsadir!"* - degan so'zlarini nima uchun xotirladi deb o'ylaysiz? Bu so'zlarning yigitga qanday aloqasi bor?" *"Uning fikricha, kim yashirin qilgan ishini ko'pchilik bilib qolgan hisoblab, jazo qonunomasining moddalarini xotiraga olsa, nomussiz*

bo'lishdan qutuladi. Lekin fazilat ichdan keladigan bir narsa. Bunga zo'rlik bilan erishmoqqa urinish "riyokorlik" bo'lar edi. Bir kishida fazilat yo bor, yo yo'q. Orzu bilan, iroda bilan unga erishib bo'lmaydi" degan fikriga munosabat bildiring, Zobit yigitning go'zal bulg'or qiziga muhabbat izhor qilmaganligi sababini tushuntirishga urinib ko'ring. Yigitning o'zidan norozi bo'lib: "...bularning hammasini o'ylab o'tirmay, muhokamasiz qilolsam edi" qabilidagi armoni va shunday qilolmayotganining sabablari haqida o'ylab ko'ring, munosabat bildiring" topshirig'i qo'yiladi.

Bu guruhdagi o'quvchilar o'qituvchining ko'magiga ko'proq ehtiyoj sezishadi. Ustozining fazilatli yoki nomusli bo'lish borasidagi falsafiy fikrining zobit yigitga qanchalik tegishli ekanini o'quvchilar anglab olishlari bir oz qiyin bo'lishi mumkin. O'qituvchi guruhdagi vaziyatdan kelib chiqib, ularning bahsini ma'lum yo'nalishga solib yuborgani ma'qul. Bu o'quvchilar hikoyaning "Fevral, 1319 (1904)" deb nomlangan bo'limi ustida ishlaydilar. O'z ruhiyatini bunchalar taftish qila oladigan, har bir ishi uchun ruhiy javobgarlikni his qilib turgan odamning hech qanday fazilat egasi bo'lmasligi mumkinmi? O'zini, tuyg'ulari va xatti-harakatini shunchalar tahlil qilish fazilatmi, illatmi? Uning armoni ko'nglidan, aqlidan chiqayotirmi? Bu stoldagi o'quvchilar mana shu fikrlar atrofida mulohaza yuritib, muayyan xulosaga kelishlari, o'z qarorlarini asoslashlari kerak bo'ladi.

Keyingi guruh ishtirokchilari oldiga: "Butun orzuim qochmoq, bandilikdan qutulmoq, vatanni oilani abadiy tark etmoq. Notanish olislarda birgina muhabbat bilan yashamoq!" singari xayollar zobit yigit tabiatining qanday jihatlarini ko'rsatishini ayting. Mas'uliyat, burch singari tuyg'ular kuchli ekanligi sababini tushuntiring. Zobitning vatansevarligi namoyon bo'lgan o'rinlarni ko'rsating, izohlang" topshiriqlari qo'yiladi. Bu topshiriqni olgan kichik guruh zobit o'z orzusini hech qachon ro'yobga chiqara olmasligiga aniq ishongan holda uning nega bunday xayollarga berilgani haqida fikr yuritadilar.

Beshinchi guruh a'zolari oldiga: "Zobitning kundaligiga: "Nash"lar shunchalar ehtirosli, shunchalar jonli, shunchalar oshiqona, shunchalar qizg'in ediki..." deb yozganligi sababini tushuntiring. Chindan ham shundaymidi yoki bunga boshqa sabab bormidi? Zobit xayolan qizga qarata: "Alvido, ey hanuz ismini bilmaganim, lekin ruhini anglaganim go'zal qiz!" deya murojaat

qilganida haqmidi? U o'zi aytmog'chi, bulg'or qizining, o'zi uchun o'zi yasab olgani ma'shuqasining ruhini bilarmidi? Hikoyachining muhabbat haqidagi hayajonli va ko'tarinki xulosalariga munosabat bildiring.

Qo'shiqning asl ma'nosini anglagandan keyin zobit tushgan holatga munosabat bildiring" topshiriqlari qo'yiladi. O'quvchilar o'rtaga qo'yilgan bu savollarga asar matniga tayangan holda javob beradilar, munosabat bildiradilar. O'qituvchi chiqarilgan xulosalarning asoslanishini talab qilishi lozim.

Oltinchi guruhga: "Bulg'or qizi Rada hamda turk zobitida o'z vataniga bo'lgan muhabbat tuyg'usi, milliy g'urur va shaxsiy jasorat hissi qay tarzda namoyon bo'lganini taqqoslang. Siz kimning xatti-harakatini ma'qullaysiz? Har ikkala qahramonning vatanga muhabbati haqida o'ylab ko'ring. Bu tuyg'u ularning qay birida kuchli deb o'ylaysiz? Nima uchun? Fikringizni asoslang" singari vazifalar qo'yiladi. Aslida bu vazifa butun sinfdagi o'quvchilar uchundir. Har bir guruh o'z faoliyati davomida ushbu savollarga qandaydir darajada javob berishga intiladi.

O'qituvchi javoblarning quruq gap bo'lib qolib ketishiga yo'l qo'ymasligi, ular albatta asoslanishini talab qilishi lozim. Sinfdagi o'quvchilarning imkoniyatiga qarab, savollar kamaytirilishi ham mumkin.

Barcha o'quvchilar qo'lida asar matni ochiq holda turishi maqsadga muvofiq. Chunki adabiyot darslarida faqat matn bilan, so'z bilan ishlanadi. Bu jarayonda o'qituvchining vazifasi har bir stol atrofida o'tirgan o'quvchilar fikrini eshitish, zarur bo'lganda maqsad sari yo'naltiruvchi qo'shimcha savollarni o'rtaga tashlashdan iborat bo'ladi. Har bir guruhdagi yetakchi o'quvchi qo'yilgan muammoning qat'iy yechimini qog'ozga tushirishi, talab qilinganda sinfdoshlariga aniq ifodalab berishi kerak.

Shu tariqa amalga oshirilgan didaktik tahlil natijasida o'quvchilarda bir-birlarining fikrini quvvatlash yoki rad etish, o'zgani anglash, bir-birini eshitish, o'z qarashlariga o'zgalarni ishontira olish ko'nikmasi paydo bo'ladi. Zobit yigit tuyg'ulari tahlili asnosida o'quvchilarda vatan va muhabbat oldidagi yuksak tushunchalari shakllanadi. Saboq so'ngida "Asardagi menga yoqqan lavha" mavzusida uy inshosi yozishni topshirish mumkin.

Savol va topshiriqlar:

1. O'quvchi-talabalar bilimini tekshirib sinab ko'rishning "dastlabki", "doimiy", "qayta tekshiruv", "oralik", "yakuniy" va "kompleks nazorat" singari turlari mavjudligini bildingiz. Har birining xususiyatlarini adabiy ta'lim misolida tadqiq qilib ko'ring.

2. "Ta'lim jarayonining samaradorligi asosi bo'lgan nazorat-sinov ishlarining to'g'ri tashkil etilishi"ni qanday tushunasiz? sizningcha, nazorat-sinov ishlari qanday amalga oshirilsa "to'g'ri" bo'ladi?

3. Nazorat-sinov ishlarini to'g'ri tashkil etishda o'qituvchining vazifasi, Sizningcha, nimalardan iborat?

4. Nazorat-sinov ishlari xolisligini ta'minlashning asosiy shakli, sizningcha nimada? Ya'ni nazorat-sinov ishlari qanday amalga oshirilsa, adolat va xolislikka to'liq erishiladi? Nima deb o'ylaysiz, umuman, ta'lim jarayonida bunga erishish mumkinmi? Fikringizni asoslang.

5. Quyidagi qat'iy qanoatga diqqat qiling: "Ta'lim jarayonining katta yoshli ishtirokchi (o'qituvchi)lari bu (o'quvchilar bilimini baholashdagi) kamchiliklarni o'z kasbiy mahoratlarining qashshoqligi va o'quvchilarning bilimini baholash borasidagi bilimsizliklari tufayli ushlab turibdilar". Bu fikrning bo'lajak o'qituvchiga, ya'ni sizga, daxldorlik darajasi qanday?

6. Nazorat-sinov ishlari borasidagi: "O'quvchilar bilimini baholashda yangicha mezonlar va o'zgacha yondashuvlar borasida ma'lum tasavvur, bilim va ko'nikmalar egallangandan keyingina bu kamchiliklar bartaraf etilishi mumkin", degan fikrga munosabat bildiring. Dunyo miqyosidagi nazorat-sinov ishlari shakli va mazmunini internet oqali o'rganing. Taklif va mulohazalaringizni ayting.

7. Nima deb o'ylaysiz, o'quvchilar bilimligining maksimal darajasini o'lchash mumkinmi? Mumkin bo'lsa, bu, sizningcha, qanday amalga oshiriladi?

8. O'ylab ko'ringchi, adabiy ta'limdagi yetakchi masalalar – o'quvchining ma'naviy takomili, tuyg'ularining injaligi, ta'sirchanligi va so'zni his etish darajasini qanday aniqlash yoki o'lchash mumkin? Bu tushunchalarni baholab bo'ladimi?

qilganida haqmidi? U o'zi aytmoqchi, bulg'or qizining, o'zi uchun o'zi yasab olgani ma'shuqasining ruhini bilarmidi? Hikoyachining muhabbat haqidagi hayajonli va ko'tarinki xulosalariga munosabat bildiring.

Qo'shiqning asl ma'nosini anglagandan keyin zobit tushgan holatga munosabat bildiring" topshiriqlari qo'yiladi. O'quvchilar o'rtaga qo'yilgan bu savollarga asar matniga tayangan holda javob beradilar, munosabat bildiradilar. O'qituvchi chiqarilgan xulosalarning asoslanishini talab qilishi lozim.

Oltinchi guruhga: "Bulg'or qizi Rada hamda turk zobitida o'z vataniga bo'lgan muhabbat tuyg'usi, milliy g'urur va shaxsiy jasorat hissi qay tarzda namoyon bo'lganini taqqoslang. Siz kimning xatti-harakatini ma'qullaysiz? Har ikkala qahramonning vatanga muhabbati haqida o'ylab ko'ring. Bu tuyg'u ularning qay birida kuchli deb o'ylaysiz? Nima uchun? Fikringizni asoslang" singari vazifalar qo'yiladi. Aslida bu vazifa butun sinfdagi o'quvchilar uchundir. Har bir guruh o'z faoliyati davomida ushbu savollarga qandaydir darajada javob berishga intiladi.

O'qituvchi javoblarning quruq gap bo'lib qolib ketishiga yo'l qo'ymasligi, ular albatta asoslanishini talab qilishi lozim. Sinfdagi o'quvchilarning imkoniyatiga qarab, savollar kamaytirilishi ham mumkin.

Barcha o'quvchilar qo'lida asar matni ochiq holda turishi maqsadga muvofiq. Chunki adabiyot darslarida faqat matn bilan, so'z bilan ishlanadi. Bu jarayonda o'qituvchining vazifasi har bir stol atrofida o'tirgan o'quvchilar fikrini eshitish, zarur bo'lganda maqsad sari yo'naltiruvchi qo'shimcha savollarni o'rtaga tashlashdan iborat bo'ladi. Har bir guruhdagi yetakchi o'quvchi qo'yilgan muammoning qat'iy yechimini qog'ozga tushirishi, talab qilinganda sinfdoshlariga aniq ifodalab berishi kerak.

Shu tariqa amalga oshirilgan didaktik tahlil natijasida o'quvchilarda bir-birlarining fikrini quvvatlash yoki rad etish, o'zгани anglash, bir-birini eshitish, o'z qarashlariga o'zgalarni ishontira olish ko'nikmasi paydo bo'ladi. Zobit yigit tuyg'ulari tahlili asnosida o'quvchilarda vatan va muhabbat oldidagi yuksak tushunchalari shakllanadi. Saboq so'ngida "Asardagi menga yoqqan lavha" mavzusida uy inshosi yozishni topshirish mumkin.

Savol va topshiriqlar:

1. O'quvchi-talabalar bilimini tekshirib sinab ko'rishning "dastlabki", "doimiy", "qayta tekshiruv", "oralik", "yakuniy" va "kompleks nazorat" singari turlari mavjudligini bildingiz. Har birining xususiyatlarini adabiy ta'lim misolida tadqiq qilib ko'ring.

2. "Ta'lim jarayonining samaradorligi asosi bo'lgan nazorat-sinov ishlarining to'g'ri tashkil etilishi"ni qanday tushunasiz? sizningcha, nazorat-sinov ishlari qanday amalga oshirilsa "to'g'ri" bo'ladi?

3. Nazorat-sinov ishlarini to'g'ri tashkil etishda o'qituvchining vazifasi, Sizningcha, nimalardan iborat?

4. Nazorat-sinov ishlari xolisligini ta'minlashning asosiy shakli, sizningcha nimada? Ya'ni nazorat-sinov ishlari qanday amalga oshirilsa, adolat va xolislikka to'liq erishiladi? Nima deb o'ylaysiz, umuman, ta'lim jarayonida bunga erishish mumkinmi? Fikringizni asoslang.

5. Quyidagi qat'iy qanoatga diqqat qiling: "Ta'lim jarayonining katta yoshli ishtirokchi (o'qituvchi)lari bu (o'quvchilar bilimini baholashdagi) kamchiliklarni o'z kasbiy mahoratlarining qashshoqligi va o'quvchilarning bilimini baholash borasidagi bilimsizliklari tufayli ushlab turibdilar". Bu fikrning bo'lajak o'qituvchiga, ya'ni sizga, daxldorlik darajasi qanday?

6. Nazorat-sinov ishlari borasidagi: "O'quvchilar bilimini baholashda yangicha mezonlar va o'zgacha yondashuvlar borasida ma'lum tasavvur, bilim va ko'nikmalar egallangandan keyingina bu kamchiliklar bartaraf etilishi mumkin", degan fikrga munosabat bildiring. Dunyo miqyosidagi nazorat-sinov ishlari shakli va mazmunini internet oqali o'rganing. Taklif va mulohazalaringizni ayting.

7. Nima deb o'ylaysiz, o'quvchilar bilimligining maksimal darajasini o'lchash mumkinmi? Mumkin bo'lsa, bu, sizningcha, qanday amalga oshiriladi?

8. O'ylab ko'ringchi, adabiy ta'limdagi yetakchi masalalar – o'quvchining ma'naviy takomili, tuyg'ularining injaligi, ta'sirchanligi va so'zni his etish darajasini qanday aniqlash yoki o'lchash mumkin? Bu tushunchalarni baholab bo'ladimi?

9. “Naqorat”ning elektron varianti¹ni topib o‘qing. Asar mazmuni bilan to‘liq tanishganingizdan so‘ng har bir guruhga mo‘ljallangan topshiriqning yechimini toping.

10. Hikoya matni asosida tayyorlangan oltita masala yuzasidan oltita muammoli savol yoki topshiriq tayyorlang. Amaliy mashg‘ulotda ularning yechimi ustida birgalikda shug‘ullaning.

11. Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” asari yuzasidan “Bobur – dilbar shaxs” mavzusida insho yozing. Bir-birlaringizning insholaringizni o‘qing, taqriz yozing, birgalikda xato va kamchiliklar ustida ishleng.

¹ <https://ziyouz.uz/jahon-nasri/umar-sayfiddin/umar-sajfiddin-ashlagich-ikoya/>

14-MAVZU. ADABIY TA'LIMDA ERKIN TARBIYA TEXNOLOGIYASINING O'RNI

Reja:

1. *Erkin tarbiya tushunchasi va uning mohiyati.*
2. *Erkin tarbiyaga qaratilgan texnologiyaning erkin, ijodkor shaxsni tarbiyalashdagi roli.*
3. *Adabiyot darslarida erkin tarbiya texnologiyasi metodlaridan foydalanish.*
4. *Badiiy matnning didaktik tahlili namunasi.*

Dunyo pedagogika ilmida tan olingan erkin tarbiya texnologiyasi insonga yo'naltirilganligi, insoniylikka asoslanganligi bilan alohida ajralib turadi. Unda Odamga mustaqil ravishda tashqi dunyo bilan aloqadorlikka mas'ul bo'lgan, o'z ma'naviyatini toza saqlash va uni rivojlantirish javobgarligi zimmasiga yuklangan, o'z hayotiga o'zi egalik qiladigan shaxs tarzida qaraladi.

Dunyoqarashi insoniylikka yo'naltirilgan shaxs botinida o'z ma'naviyatini sog'lomlashtirish ustuvorlik qiladi. Chunki bugun «ma'naviyat» nomini olgan bu tushuncha Odamdagi Allohning mulkidir. Odam tiynatida sog'lom ruhiyat, mukammallik sari intilish hissi yetakchilik qiladi. U Alloh tomonidan shunday yashash buyurilgan yaratiq. Erkin tarbiya texnologiyasi, mana shu haqiqatlarga asoslangan holda, har qanday odamga o'ziga buyurilgan yo'ldan og'ishmay taqdiri sari borish huquqi hamda imkoniyatini bergan holda bu yo'lda unga hamkorlik qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan o'qitish tizimidir.

«Erkin tarbiya» tushunchasi – insoniylik g'oyasining pedagogik talqini. Bu tarbiya an'anaviy oilaviy tarbiyaga alternativ shaklda bino bo'lgan va shakllanib kelayotgan shaxsda ijodiy mustaqillikni rivojlantirish asosiga qurilgan. Odamning mavjud tabiiy xususiyatlarini kashf etish, uning ijodiy imkoniyatlarini tabiiy sharoitlarda ochish va rivojlantirish «Erkin tarbiya texnologiyasi» nomi bilan dunyo miqyosida juda ko'p mutaxassislarining e'tiborini tortgan. Bu tarbiyada intellektning ichki dunyosini muntazam o'rganish, ta'lim-tarbiya jarayonini mana shu bilimlar asosiga qurish va ularni tabiiy ravishda rivojlantira borish nazarda tutiladi.

Ma'lumki, har qanday odam faqat sof tuyg'ular bilan dunyoga keladi. Hayot, muhit va kattalar bolalarning ruhiyatini kirlantiradi. Bolalarni aqlli – ahmoq, axloqli – odobsiz, saxiy – qizg'anchiq, kuchli – zaif deya keskin baholash o'ta noto'g'ri yondashuv bo'lib, ularning har biri odam tiyatida u yoki bu darajada mavjud bo'lgan hislatlardir. Har bir inson cheklanmagan imkoniyatlarga ega va uning ham axloqan, ham ruhan, ham jismonan kamolot sari intilishi tabiiy ravishda, hech kimga, hatto uning o'ziga ham bog'liq bo'lmagan holda amalga oshib boradi.

Erkin tarbiya tizimi uchun shakllanib kelayotgan shaxsning ko'ngli, tarbiyashunoslik ilmida ilgari surilganidek, istagan narsani yozish mumkin bo'lgan oq qog'oz emas. Har qanday sog'lom odam dunyoga kelishda haqiqat, go'zallik, halollik, adolat singari bir qator ijobiy tuyg'ulari bilan birga tug'iladi va u hayoti davomida bu hislarni faoliyati, xatti-harakatida namoyish etib boradi. Erkin tarbiya texnologiyasi odamdagi mana shu tabiiy sifatlarga uyg'un holda ish ko'rishga monandligi, ularni takomillashtirishga yo'naltirilganligi bilan dunyo tarbiyashunoslik ilmida alohida o'rinni egallaydi. Bunday tarbiya insonning tabiiy axloqiy-ruhiy taraqqiyotiga hamohang bo'lib, har qanday bola tabiiy muhit va erkin faoliyat natijasidagina o'zligini boridek namoyish qilishi mumkin.

Pedagogika ilmida belgilab qo'yilgan ta'limiy-tarbiyaviy qonun-qodalar sharoitida faoliyat olib borayotgan o'quvchi tutumlari bilan ko'chada, o'z ixtiyori ila nimalarnidir bilishga intilgan bola faoliyati tubdan farq qiladi. Ta'lim-tarbiyadagi intizom talablari, shu asosda o'quvchi shaxsiga qilinadigan bosim salbiy natijalarni keltirib chiqarishi ham mumkin. Maktab bosqichida ta'lim-tarbiya jarayoni mutlaq erkinlikka asoslanishi, bu jarayon o'quvchilar tiyatiga singdirilgan tabiiy xususiyatlarga, qiziqish va imkoniyatlariga monand bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Erkin tarbiyaga asoslangan ta'lim tizimi bilimlarni o'quvchilarga yetkazishda ularning bu bilimlarni qabul qilish yoki qilmaslik ixtiyori bilan hisoblashishga majbur bo'ladi. Erkin tarbiya texnologiyasida ta'lim-tarbiya jarayonini tarbiyalash maqsadida emas, balki *bilishga bo'lgan ehtiyojni qondirish* maqsadiga yo'naltirish ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Erkin tarbiya texnologiyasining bosh konsepsiyasi dunyo miqyosida XVI asrda paydo bo'lgan. Bu texnologiya tarafdorlari insonning bilish, pedagogik muloqot jarayonida maksimal

samaradorlikka o'qituvchi-o'quvchi, tarbiyachi-tarbiyalanuvchi munosabatlarini tubdan yangilash orqali erishish mumkinligini ta'kidlaganlar. Ya'ni o'qituvchi-tarbiyachining rahbarlik, hokimlik mavqeini yordamchilik, hamkorlik asosiga o'zgartirishni ilgari surganlar. Har bir bolaning individul va takrorlanmas yaratiq ekani nazarda tutilsa, bundan tashqari, tarbiyalanuvchilarning o'zlarini rivojlantirishlari kutilmagan holatlar bilan tez-tez almashinib turishi inobatga olinsa, har qanday pedagog o'z faoliyatini oldindan rejalashtirib olish imkoniyatidan mahrum bo'lishi tabiiy. Shu ma'noda, erkin tarbiya tizimiga o'tilganda tarbiyachi-o'qituvchilar yuz yillar davomida o'rganib qolgani ta'lim-tarbiya jarayoni algoritmini buzishga, o'quvchilarning tinimsiz o'sib-o'zgarib turuvchi ehtiyojlari va imkoniyatlarini nazarda tutgan holda faoliyatini muntazam ravishda yangilab turishga majbur bo'ladilar.

Erkin tarbiya texnologiyasida ham tarbiyachi-o'qituvchining shaxsiyati, iste'dodi va kasbiy kompetentligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Mazkur texnologiyadagi pedagogik jarayonning mohiyati o'qituvchi va o'quvchilar munosabatlarining aniqligi, samimiyligi va chuqurligi, o'zaro bir-birlarini tuyishi darajasi bilan belgilanadi. Erkin tarbiya texnologiyasi amaliyotida tarbiyachi-o'qituvchining bosh vazifasi bilimlarni har bir tarbiyalanuvchiga imkon qadar to'liq yetkazish emas, balki har bir bolaning bu bilimlarga o'z yo'li bilan kelishini kuzatish va buni ta'minlashdan iboratdir.

Erkin tarbiya texnologiyasi o'ziga xosligining yana bir jihati shundaki, unda pedagog didi, fikrlari va haqiqatlarining tarbiyalanuvchilarga tiqishtirilmasligi, qat'iy jadvalga amal qilinmasligi, majburiy vazifalarning yo'qligi, ya'ni shaxs tabiiy taraqqiyoti jarayoniga xalaqit bermaslik g'oyasining qonuniylashtirib qo'yilganligidir. Ya'ni ta'lim muassasalarida bolalar va o'smirlar faoliyatini qat'iy qonun-qoidalarga bo'ysundirilmasligining qonuniylashtirilganligi bu texnologiyaning o'ziga xos yetakchi xususiyatidir.

Mazkur tarbiya texnologiyasiga xos bo'lgan yetakchi qarashlarning an'anaviy ta'limga zid bo'lgan yana bir jihati – unda o'qituvchi-tarbiyachi rolining pasaytirilganligi, uning butun ta'lim tizimini, ayniqsa o'quvchini boshqarib turishiga yo'l qo'ymasligidir. Mana shular milliy pedagogikada mazkur texnologiyaning bugun ham qabul qilinmayotganligi va keng yoyilmayotganligiga asos bo'lishi mumkin.

Aslida, erkin tarbiya texnologiyasida ham o'qituvchi-tarbiyachining roli va o'rni rad etilmaydi. Faqat shakl-shamoyili o'zgaradi. Ya'ni erkin tarbiya texnologiyasida pedagogning vazifasi o'quvchi shaxsining tom ma'noda o'zligini namoyish qilishiga va bilish imkoniyatlarining maksimal darajada ishlashiga sharoit yaratishdan iborat bo'ladi. Pedagogning bu tizimdagi ishtiroki o'quvchi ma'naviyatidan salbiy sifatlarning chiqib ketishi va ruhiyatida shunday tuyg'ularga ongli ravishda qarshi tura olish ko'nikmasi shakllangunga qadar saqlanib qoladi.

Erkin tarbiya texnologiyasi tarafdorlari bu jarayonda pedagogning vazifasi bolaning o'zidagi bor qobiliyat va iqtidorini namoyish etishiga halaqit bermaslik, har xil talablar va sun'iy mehribonliklar bilan bu jarayonga to'siq bo'lmaslik, ayni zamonda, har bir bolaga erkin va keng miqyosda, o'ziga xos va mos ravishda, individual tarzda ko'maklashishdan iborat, deb hisoblaydilar.

Erkin tarbiya texnologiyasi o'qituvchi-tarbiyachining tarbiyadagi bevosita emas, balki shaxsning shakllanishida bilvosita ishtiroki tarafdoridir. Chunki erkin tarbiya texnologiyasining bosh maqsadi bolaning ijodiy imkoniyatlarini yuzaga chiqarishdan iborat. Pedagogning bu jarayonga bilvosita ta'siri o'quvchining tabiiy taraqqiyotiga, xatti-harakatlari faollashuviga, undagi shaxslik sifatlarning shakllanishiga to'siq bo'ladigan hislatlarni bartaraf etishga ko'maklashishdan iboratdir.

Ma'lumki, ta'lim jarayonining tashkilotchilari – tarbiyachi va o'qituvchilar haligacha erkin tarbiya texnologiyasiga xos bo'lgan bu kabi vazifalarini qabul qilolmayaptilar va bu muammoning yechimini ham topa olmayaptilar. Gap shundaki, erkin tarbiya texnologiyasi bo'yicha hech bir tarbiyachi yoki o'qituvchi tarbiyalanuvchini tarbiyalash maqsadini belgilashga haqli emas. Bu da'vosi bilan u o'zi bilib-bilmay, istab-istamay bolaning tabiiy taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Erkin tarbiyaga xos bo'lgan ta'lim jarayonini san'at ta'limiga xos bo'lgan xususiyatlar misolida aniqroq tasavvur qilish mumkin. Ya'ni bolaning musiqa bilan muloqotga kirishishi **shaxs-musiqa** tamoyili asosida, musiqa ta'limi jarayoni va pedagogning o'quvchi bilan muloqoti esa **ustoz-musiqa-shaxs** tamoyili tarzida amalga oshadi. Ya'ni pedagog musiqa bilan ta'lim oluvchi orasiga aralashmaydi. San'at ta'limida faqat musiqiy kommunikatsiya qonuniyatlariga amal

qilinadi. Ko'rinadiki, musiqa muallimi va talabgor bir-biri bilan individual shug'ullanishi, tuyg'ularining o'zaro monandligi, ta'lim jarayonidagi hamkorligi o'quvchining faqat musiqiy bilimga bo'lgan ehtiyojini qondirish asosida qonuniylashtirib qo'yilgan. Erkin tarbiyada ham ta'lim subyektlarining o'zaro munosabati tarbiyalanuvchi subyekt ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda tenglik, bir-biriga ishonch, biri ikkinchisini his qilishi va ikkinchisi birinchisini taqozo etishiga asoslaniladi.

Milliy tarbiyashunoslik amaliyotidan haligacha chiqib ketolmayotgan tarbiyalanuvchi ongi, aqli, jismi va faoliyati ustidan hokimlik qilish, uni har tomonlama mukammal qilib tarbiyalashga intilish tizimi o'z aqlliligi bilan o'quvchi ruhiyatidagi tabiiy fazilatlar: go'zallikka, soflik va samimiyatga intilish hissini nazardan qochirib qo'ymoqda.

Umumlashtirib aytganda, erkin tarbiya texnologiyasi ta'lim tizimida bolalarga bolaligini qaytarib berish, tarbiyalanuvchilarga Alloh tomonidan berilgan tabiiy sifatlarni saqlab qolish va ularning rivojlanishiga zarur shart-sharoitni yaratish asosiga qurilgan. Bolalarning bolaligini ularni hayotga tayyorlashga emas, balki shu bosqichdagi hayotni qadrlash, hayotning mazkur bosqichidagi eng qadrli damlarni kelajakda nima berishi mumkinligiga sarflamaslik, bolalik va o'smirlilik davrini ham hayotning tuhfasini sifatida qabul qilishdir. Bola yoki o'quvchiga: kelajakning odami emas, balki shunchaki buguni bilan yashayotgan; erkin, tushunilishi, boridek qabul qilinishi kerak bo'lgan; kattalarning ularga teng huquqli hamkor, ularning hozirgi qarashlari, g'oyalari kelajakda amalga oshishi mumkin bo'lgan haqiqatlar deb qabul qila oladigan sherik sifatida qarashlarini istaydigan shaxs deb qarash erkin tarbiya texnologiyasi tarafdorlarining aksiomasi, asosiy qoidasidir.

Dunyo miqyosida erkin tarbiya fenomeni M. Monten, M. Montessori, J. J. Russo, Rossiyada L. N. Tolstoy, V. A. Suxomlinskiy, ye. S. Ventsel singari bir qator mutaxassislar tomonidan o'rganilgan¹.

Erkin tarbiya tushunchasi shaxsning o'zligini anglashi, o'z-o'zini rivojlantirishi shaklida Sokrat (eramizdan oldingi 470–399 y.) falsafasida ham markaziy g'oyalardan biri bo'lgan. U ta'lim-tarbiyada bola erkinligi masalasiga uning o'zligini anglashi, unda faollikni

¹ https://ru.wikipedia.org/wiki/Википедия.Свободная_энциклопедия.

uyg'otish va oshirish usuli deb qaragan. U bolalarni o'zining hamkorlari deb bilgan. Sokrat: «*Men hech qachon hech kimning o'qituvchisi bo'lmaganman. Lekin kimdir mening suhbatimga moyil bo'lsa, bunga hech qachon monelik qilmaganman*», degan ekan¹. Ta'lim-tarbiyaning maqsadi, Sokratning nazarida ham jismoniy, ham ruhiy barkamol shaxsni shakllantirishdir. Bola o'zining kamoloti uchun intilsagina bu maqsad amalga oshishi mumkin.

Bu g'oya Monten pedagogikasida ham o'z aksini topgan. Mishel de Monten (1533–1592) o'zining “Tajribalar” nomli kitobida: “*Bolaga tayyor haqiqatlarni hali ularning mohiyatini bilmaydigan vaqtdan uqtira boshlaydilar. Haqiqatlar haqida boshqalarning bilganlariga asoslanib xulosa chiqarish mumkin emas*”, - deb yozgan edi². Ko'rinadiki, tarbiyashunoslikda har qanday bilimni o'zlashtirishning uz o'rni va o'z vaqti bor. Vaqtda berilmagan har qanday bilim bolaning yoshi o'tgach uning uchun keraksiz va ahamiyatsiz bo'lib qolgani singari vaqtdan oldin tiqishtirilgan tarbiya ham samarasiz qolaveradi.

Fransuz yozuvchisi Jan-Jak Russo (1712–1778): “*Inson mukammal bo'lib tug'iladi, ammo jamiyat o'zining tarbiyasi bilan uni mayib qiladi*”, - degan ekan³. Russo bolaning erkiga daxl qilmaslikni, uni hech qachon, hech narsaga majburlamaslikni taklif qilgani holda, tarbiyalanuvchiga nisbatan qat'iyatli va talabchan bo'lishni ham unutmashlikni, ayni zamonda, bolaning har qanday injiqliklarini qondiravermaslikni ham ta'kidlaydi. U odamni o'z ixtiyori bilan yaxshiliklarga yo'naltirish shu ishni kuch bilan qilishga majburlashdan ko'ra yaxshiroq samara beradi, deb hisoblaydi.

O'ziga xos pedagogik qarashlarga ega bo'lgan L. N. Tolstoy (1828–1910) ta'lim mazmuni va maktabning ichki tuzilishini bolalarning xohishlari asosida amalga oshirish, bilimlarni ixtiyoriy tarzda o'rganish kutilgan samarani berishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, bola xohlagan narsasini, xohlagancha eslab qoladi. Bolani tarbiyalash, unda qandaydir axloqiy fazilatlarini shakllantirishga urinishni Tolstoy kattalar tomonidan bolaga o'tkaziladigan zug'um deb biladi. Uningcha, tarbiya bolada mavjud bo'lgan axloqiy

¹ Нерсесянц В. С. Сократ. – Москва: «Наука», 1977. – С. 151.

² Монтень Мишель. Опыты. Избранные произведения в 3-х томах. Том 2. Пер. с фр. – Москва: «Педагогика», 1992. – С. 560.

³ Руссо Ж. Ж. «Эмиль или о воспитании». – Москва: 1995. – С. 62.

fazilatlarga maksimal darajada uyg'un bo'lmog'i lozim, xolos. Ortiqcha hech qanday zo'riqishlarga hojat yo'q¹.

Mariya Montessori (1870–1952)ning erkin tarbiyaga qaratilgan texnologiyasi pedagogning har bir tarbiyalanuvchiga individual yondashuviga asoslangan. Uning fikricha, har bir bola o'quv materialini va shug'ullanish uchun zarur bo'lgan vaqtni o'zi tanlaydi, ya'ni o'zi istagan mavzuda qancha xohlasa shuncha (joniga tekkunicha yoki charchagunicha) shug'ullanaveradi. Bu jarayonda u o'z xususiy ritmi va yo'nalishida tabiiy ravishda rivojlanib boradi. Montessori ham bolaga avtoritar ta'sir ko'rsatishga qarshi bo'lgan. U o'z amaliy faoliyatida xotira hisobidan ishlashdan ko'ra bola shaxsi uchun zarur bo'lgan muammolar ustida mulohaza yuritishga imkon beradigan ta'limiy muhitni yaratishga harakat qilgan. Bunda bola o'ziga qanday vaziyat qulay bo'lsa shuni tanlashiga imkon berilgan.

Montessori qarashlarini amaliy tarzda shunday ko'rsatish mumkin. Masalan, bola o'zining e'tiborsizligi bilan guldon, stul (yoki boshqa biror predmet)ni turtib yuborsa, u sinadi yoki shovqin-suron bilan polga ag'anaydi va bolaga uning be'e'tiborliligini namoyish etadi. Har qanday bola bu ishining yaxshi emasligini ichdan his qiladi va o'zini aybdor sanaydi. Agar barcha ashyolar biror narsaga qotirib qo'yilgan bo'lganda, bola hayoti davomida o'z tabiatiga xos bo'lgan bunday shoshqaloqlik va beparvolik sifatini payqamay katta bo'lardi. Ma'lum bo'ladiki, bola o'z faoliyatini to'g'ri boshqara bilganida guldon yoki stul (yoki shu beparvolikning qurboni bo'lgan boshqa biror buyum) shovqin-suronsiz o'z joyida turgan yoki sinmagan bo'lardi. Shunday haqiqatlarni ilg'agan, o'z xatti-harakatlarini kuzata va boshqara bilgan bolada ziyraklik va mas'uliyat hissi shakllanib boradi².

Bu jo'ngina misolga singdirilgan haqiqat shundan iboratki, bola jim turgan ashyolardagi yaxshilik bilan o'zining beboshvoq faoliyati natijasida yuz bergan yomonlikni aralashtirib yubormasligi, ularni farqlashi yoki bu kabi hodisalarga beparvo bo'lmasligi kerak. Bu bolaning kattalarga bo'ysunuvchanligi, itoatkorligi yoki passiv bo'lishi uchun emas, balki o'z faoliyatida, mehnati jarayonida ichki ziyraklikni shakllantirish uchun zarurdir.

¹ <https://ru.wikipedia.org/wiki/Википедия>. Свободная энциклопедия.

² Монтессори М. Дом ребёнка: Метод научной педагогики: Пер. с итал. – Гомель. 1993. – 230-с.

Taniqli fransuz pedagogi – gumanist S. Frene (1896–1966): «*Jamiyatning demokratlashuvi maktabning demokratlashuvidan boshlanadi. Avtoritar maktab demokratik jamiyatning bo‘lajak fuqarolarini shakllantira olmaydi*», - degan ekan¹. Ko‘rinadiki, millatning, mamlakatning taqdiri va kelajagi maktabgacha ta’limi tizimi, maktab, oliy ta’lim va pedagogning qo‘lida. Tarbiyachi-o‘qituvchi ko‘tarilmas ekan, millat ko‘tarilmaydi. Millat ko‘tarilmas ekan, mamlakat ko‘tarilmaydi. Shu ma’noda, bo‘lajak pedagoglarning bugun o‘zlashtirayotgan bilimlari ertaning buyukligi garovidir.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, erkin tarbiya g‘oyasi zamirida ham tabiat, jamiyat va madaniyat singari faktorlar mavjud. Bu uchlikning markazida erkin shaxs turadi. Ta’lim jarayonida erkin tarbiya tamoyillariga tayanilganda pedagog va bola, tarbiyalanuvchi-o‘quvchilar orasidagi o‘zaro muloqot jarayoni tenglik asosiga ega bo‘ladi. Tarbiyalanuvchi olam va odamni kuzatishga, ularni o‘rganishga, kuzatganlariga tayangan holda mulohaza yuritish, taqqoslash, xulosalar chiqarish va baholashga o‘z ixtiyori bilan kirishadi, to‘g‘rirog‘i erkin tarbiya asosiga qurilgan ta’lim jarayoni uni shunga yo‘naltiradi.

Rus pedagogi ye. S. Ventsel (1907–2002) ham ta’limda erkin tarbiyani targ‘ib qilgan. Uning fikricha, axloqiy fazilatlar tarbiyalanuvchilarning “miyasiga joylab qo‘yish” bilan emas, balki bolada ma’naviy sifatlarga ixtiyoriy moyillik uyg‘otish yo‘li bilan singdirilishi lozim².

Ventselning qarashlari bo‘yicha, erkin tarbiya tamoyillariga tayangan pedagog hech qachon asabiylashmaydi, biror narsadan xafa bo‘lmaydi, o‘z hissiyotlarini boshqara biladi, o‘ziga ishonadi, o‘z egotsentrizmini engaladi, o‘zgalarga va ularning fikriga sabrli bo‘ladi, o‘z agressiyasini ushlab turishga o‘rganadi, tarbiyalanuvchilarni xolis baholaydi, o‘quvchilardagi bezovtalik, qo‘rquv hamda asabiy zo‘riqishlarni kamaytiradi.

V. A. Suxomlinskiy (1918–1970)ning pedagogik qarashlari zamirida ham erkin tarbiyaning belgilarini ko‘rish mumkin: bolalarga ishonish; nomajburiy ta’lim; hech qanday jazolarsiz tarbiyalash; kattalar va bolalar hamkorligi; ijodiy mehnat va axloqiy erkinlik;

¹ Френе С. Избранные педагогические сочинения. – Москва. 1990. С. 153–156.

² Вентцель Е. С. Теория свободного воспитания и идеальный детский сад. Антология гуманной педагогики. – Москва. 1999. – С. 30–216.

bolaga turmush tarzi, xatti-harakati va o'zini qanday tutish ixtiyorini berish; o'zi tanlagan narsalar uchun mas'uliyatni zimmasiga olish va hokazo¹.

Suxomlinskiyning bu prinsiplarini amalda rus pedagoglari Sh. A. Amonashvili, ye. N. Ilin va boshqalar, o'zbek pedagoglari M. Abdurasulov, A. Boyirbekova, K. Qodirovalar faoliyatida kuzatish mumkin².

Mustaqil mamlakatimizning o'z fikriga ega bo'lgan grajdanlarini, egamanlarini shakllantirish uchun butun ta'lim tizimini bugun jamiyat talab qilayotgan avlodni tarbiyalashga qaratish, xususan, maktabgacha adabiy ta'limdan to oliy ta'limgacha bo'lgan jarayonni erkin tarbiya texnologiyasiga tayangan holda tashkil etish davr talabidir.

Albatta, har qanday ta'lim-tarbiya tizimini shaxsga u yoki bu darajadagi bosimsiz amalga oshirish qiyin. Ammo bugungi milliy pedagogika ilmida buni imkon qadar minimal darajaga tushirish yo'llari qidirilayotgan ekan, bu jarayonda erkin tarbiya texnologiyasiga tayanish, ta'lim tizimida tarbiyachi-o'qituvchilardan maksimal darajada natija beradigan metod va usullardan foydalanish talab etiladi.

Badiiy matnning didaktik tahlili namunasi

“Go‘zal” she'rini o‘rganish

Masalan, adabiy ta'lim amaliyotida Cho'lponning “Go‘zal” she'ri³ tahlilini erkin tarbiya talablariga tayangan holda tashkil etish uchun dars jarayonida qanday ishlash masalasini o'quvchilar bilan maslahatlashgan holda amalga oshirish ularning ruhiyatida ma'lum o'zgarish yasashi tayin. Agar o'quvchilar kichik guruhlarda ishlashni ixtiyor etsalar: “She'rdagi Go‘zal obrazini kim deb o'ylaysiz? Odam timsolimi, vatan obrazimi, ozodlik ramzimi yoki baxt ifodasimi?” degan muammoli savol o'rtaga tashlanadi. O'quvchilar o'zlari kelishgan holda istalgan timsolni – kim vatan, kimdir qiz, qay biridir baxt, yana kimdir ozodlik timsolini tanlab, o'zlari tanlagan mavzuga

¹ Сухомлинский В. А. Сердце отдаю детям. – Киев. 1972. – 243с.

² Иудлошев К. Янгича педагогик тафаккур ва адабиёт ўқитишнинг илмий-методик асослари. Пед. фан. док... дисс. –Т.: 1997.

³ К. Иудлошев ва бошқалар. Адабиёт. 7-синф учун дарслик-мажмуа. –Т.: «Ўқитувчи», 2005. 106-бет.

asoslangan holda guruhlarga birlashadilar. O'z qarashlarini matndan misollar keltirgan holda asoslashga intiladilar. O'zaro kelishilgan holda xulosalar chiqariladi. Bu jarayonda o'qituvchining vazifasi fikrlarni tinglash, ularning asosiga diqqat qilish, guruh a'zolarining fikr va xulosalariga isbot talab qilishdan iborat bo'ladi.

Asarning didaktik tahlili jarayonida o'quvchilarning fikrlariga daxl qilinmaydi, e'tiroz bildirilmaydi. A'zolarning xulosalari bir-birlariga qarshilantirilmaydi. Faqat birgina nozik jihat bor: tahlil jarayonida o'quvchilarning fikrlari, qarashlari sog'lom, toza ma'naviyat mahsuli ekani ustuvor ahamiyat kasb etishi lozim. Agar ozgina chetlangan o'rinlar bo'lsa, o'qituvchi buni nazoratga olishi kerak bo'ladi. Chunki har qanday erkinlikda ham ma'lum mezonlar mavjud. O'zbek tarbiyashunosligi tayanadigan milliy ma'naviyat, o'zbekona axloqiy mezonlar, qanday tarbiya asosida bo'lmasin, shakllanib kelayotgan shaxsning ruhiyatiga singdirib borilishi bosh maqsaddir. Guruh a'zolari chiqargan turfa xulosalarini o'zaro umumlashtiradilar yoki har bir a'zo o'z xulosasida qoladi. Guruh a'zolarining har biri o'z qarashlarida qolishga haqlidir. Bu ham ta'lim va tarbiyadagi erkinlikning xususiyatlaridan biridir.

She'r yozilgan davrga tayaniladigan bo'lsa, undagi Go'zal timsolini vatan deyish uchun ham, ozodlik deyishga ham, baxt deb qarashga ham asos bor. Chunki XX asr boshlarida vatanni ozod ko'rishni hamma narsadan ortiq ko'rgan shoir Cho'lpon ko'ngil istaklarini asarida go'zal timsoli zamiriga berkitishi ham tabiiy hol edi. Vatanning ozodlik ramzi bo'lmish oqqa burkanishi, baxt va erkdan, mustaqillik shodligidan "yanoqlari"ga qizil yugurishi shoir fantaziyasining mahsuli, deb qarash ham mumkin. Guruh a'zolari hurlik va ozodlikka erishgan vatanning qanday bo'lishini bir ko'rgan shamolning shunday vatanni izlab Turkiston ustida yurishini o'z dalillari bilan isbotlab bera olsalar, marra "yosh sinchilar"niki. She'rning qolgan bandlaridan ham o'zlari bilgan va ishongan haqiqatni topa bilsalar, ijobiy bahoga haqlidirlar. Go'zalni ozodlik yoki baxt ramzi ekanini ham shu tariqa ochib berishlari mumkin.

Agar sinfdagilarning barchasi asar matni bilan tanishganidan so'ng Go'zalni qiz timsoli deb bilsalar, demak tahlilni umumiy holda tashkil etish ham mumkin. Badiiy matn tahlilini umumiy holda amalga oshirishda dars jarayoni asar matni yuzasidan o'rtaga tashlanadigan savol-topshiriqlar ko'magida amalga oshiriladi. "Go'zal"ning matni

tahlili yuzasidan taqdim etilayotgan quyidagi qarashlarga bir kishining fikri o'laroq namuna sifatida yondashish taklif etiladi.

She'rnig birinchi bandini qayta o'qib bergan o'qituvchida "savol tug'iladi": "Nima uchun oshiq qorong'u kechada bedor? Ne sababdan ma'shuqasi haqida yulduzdan so'rayapti? Nega aynan eng yorug' yulduzdan?"

Ma'lumki, chin oshiq uchun uyqu harom. Oshiq uchun na kechasi, na kunduzi halovat bor. Uning yagona tilagi – visol. U tinimsiz visol dardi bilan yashaydi. Ma'shuqa esa yo'q. Qaerdadir, qandaydir tashvishlar bilan band. Qorong'u kechada esa oshiqning yagona hamrohi – yulduzlar va oy. Ma'shuqasini so'rab oshiq faqat yulduzlargagina murojaat qilishi mumkin. Oshiq uchun ma'shuqa faqat eng buyuk sifatlarga munosib. Shuning uchun u ma'shuqasi haqida eng yorug' yulduzdan so'rayapti. Boshqa yulduzlar oshiqning ma'shuqasi haqida biror narsa bilishga munosib emaslar, oshiqning nazarida.

Mulohaza uchun navbatdagi savol o'rta tashlanadi: "Yulduz nimadan uyalyapti? Nega yulduz ham, oy ham ma'shuqani tushlarida ko'rishyapti?" Oshiqni telba qilgan ma'shuqa shunchalar go'zalki, yulduz ko'kdagi eng yorug', demakki, eng chiroyli yulduz bo'lishiga qaramay hijolatda. Shu hijolati sabab boshi egik. O'ziga ishonch bilan gapirolmaydi. Yulduz yigitning ma'shuqasini uyquda ekanida uchratgan. Oshig'ining dardidan bexabar, tushlar ko'rib yotgan uyqudagi malakni tasavvur qiling. Go'zallik bilan ichki xotirjamlik mutanosib bo'lgandagi uyqu eng yorug' yulduzni ham muvozanatdan chiqargan – u barcha yulduzlar jam bo'lganida ham ma'shuqaning go'zalligiga tenglasha olmasliklarini samimiy e'tirof etmoqda. Yorug' yulduz yigitning ma'shuqasini bir martagina, tasodifan ko'rib qolganu yo'qotgan, shundan beri ko'rishni istagani go'zalning qiyofasini faqat tushlarida ko'radi. Uning qanchalar go'zalligini biladi va shu bois hech ikkilanmay oy uchun ham javob bermoqda.

Ma'shuqasining hammadan go'zal ekanini bilgan, lekin uning manzil-makoni haqida yulduzdan jo'yali javob ololmagan oshiq oyga murojaat qilishga majbur. Oy ham o'zi to'lganda nurlarini sochib uyqudagi malakni bir martagina ko'rib qolgan. Ma'shuqaning tabiiy go'zalligi bilan oppoq nurning mutanosibliigi oyni ham "telba" qilgan. Oy o'z go'zalligiga qancha bino qo'ygan bo'lishiga qaramay ma'shuqaning o'zidan dilbarroq ekanini e'tirof etishga majbur. Uning

oppoq nuriga cho‘milgan qizil yanoqli ma‘shuqa esa qayta ko‘ziga ko‘rinmagan. Oy ham ma‘shuqani yana bir marta ko‘rishni qattiq istaganu, lekin, afsus, faqat tushlarida ko‘radi.

O‘qituvchi o‘quvchilarini mulohaza yuritishga undab: “O‘ylab ko‘ring-chi, shamol go‘zalni qanday holatda ko‘rgan bo‘lishi mumkin?” degan savolni o‘rtaga tashlaydi. Bu savolga o‘quvchilar banddagi birinchi misraga tayangan holda javob beradilar. Bu borada o‘quvchilarning qanday javob berishi va fikrini nimalar bilan asoslashi katta ahamiyat kasb etmaydi. Lekin go‘zalni bir martagina ko‘rib qolgan shamolning yo‘lidan ozib go‘zalni negadir tog‘u toshlar orasidan izlab yurishi ularni o‘yga toldirishi aniq. O‘qituvchi bu holatni ham savolga aylantiradi va javoblardan mantiq qidirishi ham shart emas. Chunki o‘quvchilarning aytgan fikrlari mustaqil tafakkur mahsuli bo‘lgani bilan qadrli. Mantiqiy asoslar shu tariqa ishlanaverish asnosida shakllanib boradi.

Bezovta oshiq hali o‘z savoliga arzirli javob topolgani yo‘q. Go‘zalni nafaqat oshiq, balki barcha oshiqqlar qidirmoqda. Uni kimdir o‘ngida, qimdir tushlarida qayta-qayta ko‘ryapti. Go‘zalligini e’tirof etyapti. Hatto kun ham bundan mustasno emas: u ham xuddi shamol singari go‘zalni o‘ngida ko‘rgan. “*Ul-da o‘z o‘tidan berkinib, qochib*” misrasini, sizningcha, qanday tushunish mumkin?” savoli o‘quvchilarni jiddiy o‘ylashga majbur qiladi. Sinfdan kimlardir mulohazasini aytar, lekin to‘g‘ri javob bo‘lmasa ham o‘qituvchi o‘z fikrini aytmagani ma‘qul. O‘quvchilarni bu haqda o‘ylab yurishga majbur qilgan to‘g‘riroq bo‘ladi. Ular matnga qayta-qayta murojaat qilganlari, satrlar orasidan o‘zlari istagan haqiqatni topishlari adabiy ta‘lim maqsadiga muvofiqroqdir.

She‘rning so‘nggi bandini o‘quvchilarning o‘zlari qayta o‘qislar. Undan oshiqning e’tirofi aks etgan satrlarni ajratsinlar. “Zo‘r ish” deganda nima nazarda tutilayotgani haqida o‘ylab ko‘rsinlar. Oshiqning o‘ziga bergan savoliga javob berishga urinib ko‘rsinlar...

“O‘quvchilar she‘rda chindan ham inson haqida gapirilayotgan bo‘lsa, nega u oy bilan quyoshga mengzalayotgani haqida fikrlab ko‘rishsin. yerda boshqa go‘zalliklar kammi qiyoslash uchun? Yoki Go‘zal boshqa biror yaratilmikin?” O‘quvchilar mana shu masalalar haqida ham mulohaza yuritib ko‘rishlari lozim. Bu savollarga hamma javob berishi shart emas, albatta. O‘quvchilarning ta‘lim olishdagi erkinligi buni rad etmaydi, lekin hamma o‘ylab ko‘rishi shart.

O'qituvchi tarbiyalanuvchilarni shunga yo'naltirishi lozim. Qolgani har bir o'quvchining imkoniyati, qobiliyati va iqtidoriga bog'liqdir.

Ko'rinadiki, ta'lim va tarbiya jarayonida tarbilanuvchilarning erkinligi masalasi "oydan tushgan" yoki erishib bo'linaydigan haqiqat emas. Hamma gap uning mohiyatiga kira bilishda. Har qanday g'oya yoki qarashlarning mazmun-mohiyati to'g'ri va to'liq anglashilsa, uni amalga oshirish jarayoni ham osonlashadi.

Xulosa qilib aytganda, har qanday ta'limda, xususan, adabiyot o'qitishda imkon qadar o'quvchilarning erkinligini ta'minlashga urinish bu jarayonda samaradorlik garovidir. Shunda qobiliyatli o'quvchilar o'z imkoniyatlari darajasida ilgarilab boraveradilar, qolganlar esa qo'llaridan kelganicha harakat qilib ularning orqasidan ergashaveradilar.

Savol va topshiriqlar:

1. Matndagi: *"Dunyoqarashi insoniylikka yo'naltirilgan shaxs botinida o'z ma'naviyatini sog'lomlashtirish ustuvorlik qiladi. Chunki bugun «ma'naviyat» nomini olgan bu tushuncha Odamdagi Allohning mulkidir. Odam tiynatida sog'lom ruhiyat, mukammallik sari intilish hissi yetakchilik qiladi. U Alloh tomonidan shunday yashash buyurilgan yaratiq»* tarzidagi haqiqatni qanday tushundingiz? Qarashlaringizni o'z so'zlaringiz bilan dalillab baring..

2. *"...har qanday odam faqat sof tuyg'ular bilan dunyoga keladi. Hayot, muhit va kattalar bolalarning ruhiyatini kirlantiradi»* degan fikrga munosabat bildiring. Fikringizni asoslang.

3. Erkin tarbiya texnologiyasiga xos bo'lgan: *"o'qituvchi-tarbiyachining rahbarlik, hokimlik mavqeini yordamchilik, hamkorlik asosiga o'zgartirish"*ni qanday tasavvur qilasiz?

4. Erkin tarbiya texnologiyasida ustuvor ahamiyat kasb etuvchi: *"Bolalarning bolaligini ularni hayotga tayyorlashga emas, balki shu bosqichdagi hayotni qadrlash, hayotning mazkur bosqichidagi eng qadrli damlarni kelajakda nima berishi mumkinligiga sarflamaslik, bolalik va o'smirlilik davrini ham hayotning tuhfasi sifatida qabul qilish"* tarzidagi qanoatga o'z munosabatingizni bildiring. Siz buni qanday tasvur qilasiz?

5. *"Bola yoki o'quvchiga: kelajakning odami emas, balki shunchaki buguni bilan yashayotgan; erkin, tushunilishi, boridek qabul qilinishi kerak bo'lgan; kattalarning ularga teng huquqli*

hamkor, ularning hozirgi qarashlari, g'oyalarini kelajakda amalga oshishi mumkin bo'lgan haqiqatlar deb qabul qila oladigan sherik sifatida qarash"ni siz, bo'lajak o'qituvchi sifatida qanday tasavvur qilasiz?

6. Mazkur tarbiya texnologiyasiga xos bo'lgan yetakchi qarashlardan biri: *"o'qituvchi-tarbiyachi rolining pasaytirilganligi, uning butun ta'lim tizimini, ayniqsa o'quvchini boshqarib turishiga yo'l qo'ymasligi"*ni qanday qabul qilasiz? Fikringizni asoslang.

7. Erkin tarbiya texnologiyasining ilmi va amaliyoti bilan shug'ullangan M. Monten, M. Montessorining yetakchi fikrlarini ajratib oling. Ularni taxlilga torting va munosabat bildiring. Qarashlaringizni asoslang.

8. S. Frenening quyidagi fikriga o'z munosabatingizni bildiring: *«Jamiyatning demokratlashuvi maktabning demokratlashuvidan boshlanadi. Avtoritar maktab demokratik jamiyatning bo'lajak fuqarolarini shakllantira olmaydi»*.

9. Rossiyada L. N. Tolstoy, V. A. Suxomlinskiy, Sh. A. Amonashvili singari mutaxassislarning qarashlaridagi umumiy va farqli jihatlarni aniqlang. Mazkur texnologiyaga xos bo'lgan yetakchi xususiyatlarni adabiy ta'lim bilan bog'lang va bu qanday ko'rinishda bo'lishini dalillang.

10. Mariya Montessorining erkin tarbiyaga qaratilgan texnologiyasiga xos bo'lgan quyidagi qanoatga diqqat qiling: *"... har bir tarbiyalanuvchiga individual yondashuviga asoslangan. Uning fikricha, har bir bola o'quv material va shug'ullanish uchun zarur bo'lgan vaqtni o'zi tanlaydi, ya'ni o'zi istagan mavzuda qancha xohlasa shuncha (joniga tekkunicha yoki charchagunicha) shug'ullanaveradi. Bu jarayonda u o'z xususiy ritmi va yo'nalishida tabiiy ravishda rivojlanib boradi"*. Buni maktab hayotida amalga oshirish mumkinmi? Sizingcha, bu tutum ta'limning qaysi bosqichiga mos keladi? Fikringizni asoslang.

11. Jan-Jak Russo va S. Frene qarashlarini qayta o'qing va tahlilga torting. Munosabatingizni bildiring.

12. Ventselning: *"...axloqiy fazilatlar tarbiyalanuvchilarning "miyasiga joylab qo'yish" bilan emas, balki bolada ma'naviy sifatlarga ixtiyoriy moyillik uyg'otish yo'li bilan singdirilishi lozim»* degan qarashini qanday tasavvur qilasiz? O'ylab ko'ringchi, adabi ta'lim jarayonida buni qanday tashkil qilish mumkin, Sizingcha?

13. Cho'lponning taqdim etilgan "Go'zal" she'rini har biringiz o'zingizningtasavvuringiz doirasida tahlilga torting. Go'zal timsolini nima yoki kim deb bilishingizdan qat'i nazar har bir aytgan fikringizni she'r matnidan misollar keltirib dalillang.

14. Siz, talabalar, o'z'laringizning ta'lim olishdagi erkinligingizni qanday tasavvur qilasiz? Qanoatlaringizni albatta o'z asosi bilan ayting.

15. Xorijdagi oliy o'quv yurtlari talabalarining bilim olishdagi erkinligi nimalarda aks etishini internet orqali aniqlang. Bunga qo'shilish yoki qo'shilmasligingizni tavsiflang. Sabablarini aniq ifodalang.

16. Bo'lajak o'qituvchi sifatida "Go'zal"ni filologik tahlilga torting. Go'zalni qanday tasavvur qilsangiz unga tahlilda shundayo yondashing. Qarashlaringizni asoslang.

17. "Odil Yoqubov qissalarida muhabbat mavzusi" nomi ostida insho yozing. Adibning bir yoki bir nechta asari misolida muhabbatning kuylanishini tavsifga torting. Ishlaringizni birgalikda muhokama qiling.

15-MAVZU. AXBOROT-KOMMUNIKATIV TEXNOLOGIYALAR VA ADABIYOT DARSLARIDA KO'RSATMALILIK

Reja:

1. *Ko'rsatmali vositalarning turlari.*
2. *Axborot tarmoqlaridan foydalanish imkoniyatlari.*
3. *Darsni loyihalashtirishda dasturiy mahsulotlardan foydalanish.*
4. *Badiiy matnning didaktik tahlili namunasi.*

Insonga xos bo'lgan bilish hissining birinchi pog'onasi – jonli mushohada, ya'ni tevarak-atrofdagi narsa va hodisalarni ko'z bilan ko'rish orqali idrok etishdir. Ta'limdagi ko'rsatmalilik tamoyili idrok etishni osonlashtirishi va nazariy bilimlarni hayot, amaliyot bilan bog'lash imkonini beradi. Bu tamoyil o'rganilayotgan hodisalarga qiziqishni oshiradi, bilimlarni puxtaroq egallanishiga yordam beradi.

Ibn Sinoning qayd qilishicha, inson o'zining o'quv mashg'ulotlari boshlanishida narsaning tashqi xossalarini o'rganadi, uning aslini va tasvirini ko'rib o'zicha bevosita bilimlarni hosil qilishi mumkin. Har qanday narsaning ta'rifi uning mavjudligini isbotlash vositasida bilinadi, ya'ni narsa va hodisalar qaysidir bir fan aniqlaydigan xususiyatlardan iborat bo'ladi. Bu qanoat o'qitishdagi ko'rsatmalilik tamoyilining faqat bir jihatini yoritadi. Insonda mavjud narsalar yoki ularning tasvirlarini idrok etish orqali obyektiv voqyelik to'g'risida tasavvur hosil bo'ladi va shu asnoda ularni to'g'ri ta'riflash imkoniyati tug'iladi.

Mutaxassisning ta'limotlaridan inson narsa va hodisalar, ularning xususiyatlarini ko'rish (vizual), eshitish (audial), tatib ko'rish, hidlash, sezish (taktil) orqali qabul qilishi, ularning asosiy qismini, ya'ni to'qson foyizdan ortig'ini ko'rish va eshitish orqali o'zlashtirishi ma'lum bo'ladi. Narsa va hodisalarni idrok etish tashqi sezgi organlari orqali amalga oshadi va ushlab ko'rish bilan ham ro'y beradi. Ushlab ko'rish sezilgan narsaning issiqligi, sovuqligi, namligi, quruqligi, qattiqligi, yumshoqligi, og'irligi, engilligi, shakli va hokazolarini bilish imkonini beradi. Teri va mushaklar esa sezgi qurolidir. Nervlar ana shu hisni mushaklar va teriga yetkazadi¹

¹ Ибн Сино Абу Али. Избранные произведения, Т. I. – Душанбе: Ирфон, 1980. – С. 97–98.

Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, internet orqali o'zlashtiriladigan o'quv materiallari ham ko'rish va eshitish orqali o'zlashtiriladi. Ma'lum bo'ladiki, internet materiallari nisbatan o'zlashtiriluvchan ahamiyat kasb etadi.

Yan Amos Komenskiy ham «Buyuk didaktika» asarida ifodalagan «oltin qoida»sida o'quvchilar sezib idrok etishi mumkin bo'lgan narsalarni, albatta, sezgilar vositasi bilan, xususan: ko'rish mumkin bo'lgan narsalarni ko'z bilan ko'rib, hidi bor narsalarni hidlab ko'rib, ta'mini sezish mumkin bo'lgan narsalarni tatib ko'rib, ushlab sezish mumkin bo'lgan narsalarni ushlab bilib olishlari kerakligini ta'kidlagan. Birdaniga ko'p sezgilar yordamida idrok etish mumkin bo'lgan narsalarni, iloji boricha, bir necha sezgilar yordamida idrok etish lozimligini aytgan. Bu qoidaning uch asosi bor.

Birinchidan, avval sezmagani narsasi haqida kishida bilim ham bo'lmaydi. Shuning uchun ham o'qitish narsalar haqida quruq mulohaza yuritishdan emas, balki narsa va hodisalarni bevosita kuzatishdan boshlanishi kerak.

Ikkinchidan, bilimning to'g'ri va aniqligi ham faqat sezgilarning guvohligiga bog'liq. Demak, bilim sezgilarga qanchalik ko'proq tayansa, u shunchalik ishonchli bo'ladi. Bolalarga haqiqiy va mustahkam ilm berish uchun, umuman, hamma narsa bevosita kuzatish va sezgilar asosida o'qitilishi kerak.

Uchinchidan, sezgilar – xotiraning eng ishonchli vositasi. Agar kishi tuyani bir ko'rgan bo'lsa, biror marta qand yegan bo'lsa, Rimga bir marta borib, uni diqqat bilan tomosha qilgan bo'lsa, bulbul xonishini bir marta eshitgan bo'lsa, bularning hammasi xotiracida mustahkam qoladi va hech qachon esidan chiqib ketmaydi.

Olim bu mulohazalarini mustahkamlash uchun Plavtning quyidagi fikriga tayanadi: «Eshitganini aytib beradigan o'nta kishidan o'z ko'zi bilan ko'rgan bitta guvoh afzal»¹.

Komenskiy xulosasi bo'yicha aytish mumkinki, o'quvchini boshqalarning narsa va hodisalar haqidagi kuzatishlariyu guvohliklarini emas, balki o'sha narsalarning o'zini bilishga, uni o'zi tadqiq etishiga yo'naltirish zarur. Maktab amaliyotida ham darsda o'rganiladigan hodisaning eng muhim tomonlarini aniq ifodalaydigan,

¹ Коменский Я. А. Буюк дидактика. –Т: Уқитувчи, 1975. – 174–175-бетлар.

ana shu belgilarni avval ajratishda, keyin guruhlashda, umumlashtirishda o'quvchilarga xalaqit beradigan ortiqcha elementlardan xoli ko'rsatmali qo'llanmalardan, shuningdek, obrazli tasvirlarga uyg'unlashgan holda, ya'ni o'quvchilarning fikrlashini muayyandan mavhuma oson yo'naltiradigan qilib ishlangan ko'rsatmali qo'llanmalardan foydalanish g'oyat samarali tadbir.

Umumiy o'rta ta'limning dastlabki bosqichi bo'lmish boshlang'ich sinflarda obyektlarning o'zini namoyish etish yoki ular bilan bevosita tabiatda tanishish, darslarda narsalarning o'zidan iborat tarqatma materiallarni qo'llash keng miqyosda amalga oshiriladi. Rasmi ko'rsatmali qo'llanmalar: manzara tasvirlari, diapozitiv va diafilmlarning samarasi kamroq bo'lsa-da, ular orqali ham u yoki bu narsalar to'g'risida qaysidir darajada yaxlit tasavvur hosil qilish mumkin. Aralash ko'rsatmali vositalar to'plami ham o'quv jihozlarning muhim elementi hisoblanadi. Ular darc vaqtida turli ko'rsatmali vaziyatlarni yaratish, tez o'zgartirish va birlashtirishda yordam beradi. Buning uchun rasmi materiallardan foydalaniladi yoki doskaga bo'r bilan rasmlari, chizmalari chiziladi va har xil yozuvlar bajariladi.

Mazkur vositalar jumlasiga magnitli taxta va flengatlar ham kiradi. Ularning didaktik imkoniyatlari bir xil. Ular boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda beqiyos katta ahamiyatga molikdir, ammo o'quv jarayonida audio-vizual qo'llanmalar, ahyon-ahyonda boshqa ko'rsatmali vositalardan ham foydalanish zarur. Sinflar yuqorilab borgan sari ko'rgazmalilikning elektron variantlaridan foydalanish ustuvorlik kasb eta boshlaydi.

Bunday ko'rsatmali vositalaring quyidagi turli variantlari bor:

1. Dasturdagi ashyolarni qayta ishlash mavzu bo'yicha kirish darsida o'quv filmlarini namoyish etish va keyingi darslarda kino – kolsovkalar, fragmentlar, diapozitivlar, diafilmlar va jadvallar.

2. Mavzuning xususiy masalalarini diapozitivlar, diafilmlar, jadvallar, namoyish kilinadigan tajribalar, kinofragmentlar va kinokolsovkalardan foydalanib ishlab chiqish. Mazkur mavzu bo'yicha umumlashtirish darsida o'quv filmlari va hk.

3. Darsda o'qituvchining tushuntirishi bilan birgalikda diafilmlar, diapozitivlar, kinofragmentlarni va darsning oxirida namoyish etiladigan o'quv filmlari.

4. O'quvchilarning tasavvurini kengaytirish, ularda shakllanadigan tushunchalar mazmuning to'liqligini ta'minlash uchun ekran qo'llanmalarining bitta seriyasidan foydalanib o'quv materialini ishlab chiqish va ularning boshqa to'plamlari.

Ko'rsatmali vositalarning turli didaktik vazifalari va imkoniyatlarini nazarda tutib ularni kompleks holda qo'llash talab qilinadi. Shu taqdirdagina darsning bilish bilan bog'liq vazifasini hal qilish eng yuqori bosqichga ko'tarilishi mumkin. Shu bilan birga, o'rganilayotgan hodisaning turli jihatlarini yoritish lozim bo'lganda har xil ko'rsatmali qurollardan foydalanish o'zini oqlaydi. Chunki mazkur jihatlarining har birini ko'rsatmalilikning ma'lum turi yordamida ishonarli tarzda va to'la yoritish mumkin. Ko'rsatmali vositalarni tanlashda ularning imkoniyatlarini har bir o'quv predmetining o'ziga xos xususiyati va har qaysi darsning mazmuni bilan taqqoslash zarur.

Ko'rsatmali qo'llanmalar o'quvchilarga ko'rsatmalilikning quyidagi har xil turlaridan foydalangan holda taqdim etiladi:

1. *Tabiiy ko'rsatmalilik* – o'quvchilarni mavjud obyektlar, o'simliklar, hayvonlar, minerallar va hk.lar bilan tanishtirishni taqozo etadi. Tabiiy ko'rsatmalilikni sinfda ham, ekskursiyalar paytida ham namoyish etish mumkin.

2. *Hajmli ko'rsatmalilik* – mavjud olam hajmining aks etishidir. Bu fotosuratlar, rasmlar, diafilm va diapozitivlardan iborat bo'ladi.

3. *Ovozli ko'rsatmalilik* – tovush obrazlarini ifodalash uchun ovozli vositalardan foydalanish. Gramplastinkalar va magnitafon yozuvlarini eshitish, ovozli kino va hk.

4. *Simvolik va grafik ko'rsatmalilik* – xaritalar, rejalar, sxemalar, chizmalar va diagrammalar. Ular mavjud voqelikni shartli umumlashgan simvolik ko'rinishda aks ettirishi sababli fikrlashni rivojlantiradi¹.

Maktabda birinchi sinfdan o'ninchi sinfgacha ko'rsatmalilikning barcha turlaridan foydalaniladi. Tabiiyki, maktabgacha ta'lim va boshlang'ich sinflarda tarbiyalanuvchilarning yoshini hisobga olib, ularga bevosita kuzatishlarni, shu asosda fikrlash va faoliyat olib borishni topshirish, yuqori sinflarda o'quvchilarning mustaqil va

¹ Azimov-slovakoplya.pdf – 313c.

mantiqli fikrlashi rivojlanishiga ko'ra simvolik, grafik va elektron kuzatishlarni ko'proq qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ko'rsatmalilik o'quvchilar o'rganiladigan u yoki bu narsalar to'g'risida muayyan tasavvurga ega bo'lmagan paytda juda zarur. Ammo shuni ham unutmaslik lozimki, ko'rsatmali qo'llanmalarni namoyish etishga tayyorlanmaslik yoki ularni noto'g'ri tanlash faqat zarar keltiradi.

Ta'lim tizimida zamonaviy ko'rsatmalilikda axborot texnologiyalaridan foydalanish yil sayin rivojlanib borayotgani, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ta'lim jarayonini sifat va mazmun jihatidan yanada yuqori bosqichga ko'tarishga xizmat qilayotgani ma'lum. Ta'lim jarayonini mazmunli tashkil etish uchun zamonaviy texnik vositalardan foydalanish davr talabi. Jumladan, kompyuter, multimedia, internet, yagona axborot muhiti va shunga o'xshash axborot-kommunikatsion texnologiyalarning zamonaviy vositalaridan foydalanish dunyo tarbiyashunosligida o'z samarasini bermoqda.

Bugungi kunga kelib milliy tarbiya tizimida ham intertet nafaqat o'qituvchi, balki o'quvchilar hayoti va faoliyatining bir qismiga aylanib bormoqda. Chunki u yangi ma'lumotlar olishning eng qulay va ko'nikilgan manbaiga aylandi.

Adabiy ta'limda ham o'zni bilan axborot kommunikativ texnologiyalarga murojaat qilish o'quvchilarning idrok, tasavvur, tafakkur bilan bog'liq bilish jarayonini shakllantirish, dunyoqarashini kengaytirishi, fan asoslarini chuqur o'zlashtirish, eng muhimi, intellektual salohiyatini rivojlantirishni ta'minlaydi.

Ma'lumki, AKT axborotlarni uzatish, qabul qilish, muayyan ma'lumot yoki obyekt tasvirini ifodalashda samarli va ta'sirchan vositadir. Kompyuter animatsiyasi va modellashtirish syujet elementlari yoki portret, peyzaj, detal kabi kompozitsion qurilishni idrok qilish uchun universal vositadir. Adabiy ta'limda AKTlardan foydalanish uchun o'qituvchilar virtual laboratoriyalarga murojaat qilishadi. Milliy tarbiyashunoslikda ham pedagoglarning ma'lum qismi darslarida axborot tarmoqlaridan olgan materiallaridan foydalanishadi. Internetning cheksiz-chegarasiz imkoniyatlari darsga tayyorlanish uchun o'quv materiallarini qidirishni osonlashtirdi. O'qituvchilarning ko'pchiligi bugun o'quv materialini internet orqali elektron variantda topishning afzalliklarini juda yaxshi bilishadi.

Bu bilan o'qituvchilar:

- o'z bilimlarini mustaqil ravishda orttirib boradilar;
- masofadan o'qish orqali malakalarni oshirib boradilar;
- darslarni tayyorlash va tashkil etish bo'yicha o'quv materiallarini topadilar;
- mutasaddi idoralarning zaruriy hujjatlarini topadilar;
- pedagogik yangiliklar haqida ma'lumotlar oladilar;
- eng yangi pedagogik topilmalarga ega bo'ladilar;
- o'z metodik ishlanmalarini hamkasblari bilan o'rtoqlashadilar;
- o'zining maqola, reja va dars ishlanmalarini chop etadilar;
- boshqa hududlardagi hamkasblari bilan ma'lumot almashadilar;
- internet-do'konlardan metodik adabiyotlarni sotib oladilar va hk.

Bulardan tashqari, o'z faoliyatlarida internet darslar tashkil qilishda ham foydalanadilar: o'quvchilarni sinfda va sinfdan tashqari o'qishini tashkil etadilar; o'quvchilarning internetdan to'g'ri, maqsadga muvofiq tarzda foydalanishlariga ko'maklashadilar; tarbiyalanuvchilarining jamoa bo'lib ishlashlarini tashkil etadilar; o'quvchilarning ma'lumot olish imkoniyatlarini oshiradilar va hk.

Internet-resurslarning dunyo tarbiyashunosligida zamonaviy darslarni tashkil etishdagi imkoniyatlarini quyidagilarda ko'rish mumkin: o'qituvchi uzoq yillar o'rganib qolgani an'anaviy o'qitish bo'yicha bilimlarini yangilab, internet orqali o'zining metodik bilimlar omborini boyitib boradi; boshqa hamkasblarining tajribalarini, ularning tavsiyalari va dars ishlanmalarini o'rganadi; o'zining dars rejasi, ishlanmalari, maqola va yangi g'oyalarini chop ettiradi va hk.

Bularning barchasi o'qituvchining kasbiy faoliyatini sifatli amalga oshirishga imkon beradi. Buning uchun o'qituvchilarning quyidagilarni amalga oshirishi maqsadga muvofiqdir:

- o'quvchilarga yuklanadigan topshiriqlar hajmini aniqlab olish;
- o'z an'anaviy o'qitish usullari bilan birga zamonaviy internet materiallaridan foydalanish;
- internet orqali hamkasblar darslarini kuzatish, zarurat tug'ilsa, ularning tajribalaridan o'z amaliyotida foydalanish.

Bundan tashqari, nafaqat o'qituvchilar, balki o'quvchilar ham sinfda yoki kutubxonada internet orqali zarur o'quv materiallarini topishi, topgan materiallarini o'rtoqlari bilan bo'lishishi, bilimlarini, uy vazifalarini o'qituvchisiga internet orqali topshirishlari ham

mumkin. O'qituvchi va o'quvchilarning internet orqali doimiy muloqoti bu faoliyat samaradorligini ham ta'minlaydi.

Internetdan izlash tizimi o'quvchilarga har xil yo'nalishdagi multimedia-ma'lumotlarini tanlash imkoniyati bilan taqdim etadi. O'quvchilar har xil ma'lumotnoma (spravochnik)lar, lug'atlar, qomus (ensiklopediya)lar va o'quv materiallariga kirish, eng so'nggi yangiliklardan xabardor bo'lish imkoniyatiga ham ega bo'ladilar. Internet imkoniyatlari bugungi kunda shunchalar kattaki, u har xil masalaning uyda yoki maktabda, o'tirgan joyidan qimirlamay yechimini topish imkoniyatini yaratdi. Ma'lumotlar omboriga kutubxona, fonoteka va filmotekalar orqali kiriladi. Bu shakldagi qidirish serverlari bilan ishlash aynan nimani qidirish kerakligini aniq bilganda qulay va oson kechadi.

Internet tarmog'ida materiallarning turfa multimedialari mavjud. O'quvchilar mavjud materiallar orasida muhimini va zarurini tanlab olishlari qiyin kechadi. Shu bois qidiruv serverlariga murojaat qilish maqsadga muvofiq deb topilgan. Ularda ham har xil mavzularga yo'naltiruvchi bunday serverlar foydalanuvchilarning talablariga binoan zarur manbani qidirishga kirishadi.

O'qituvchilarning darslarida AKTlardan foydalanishi darslarni ham, o'quv fanini ham belgilab qo'yilgan vaqt me'yoridan chiqib ketishiga sabab bo'lishi mumkin. Sababi o'quvchining bilimlarni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishi dars tugashi bilan to'xtab qolmaydi. Bola qiziqdimi, demak izlanadi.

Maktab va oliy o'quv yurtlari kutubxonalarining internetga ulanishi o'quvchi va talabalarning qidirish, to'plash, ma'lumotlarni qayta ishlash ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi. O'z navbatida, ta'lim maqsadi va DTS talablariga muvofiq vazifalarni amalga oshirish imkoniyatlarini ham kengaytiradi.

Zamonaviy maktabning vazifasi o'quvchi shaxsining muvaffaqiyatli taraqqiyotini ta'minlash, uning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan ma'naviy fazilatlarini oshirishi o'quvchining dunyo miqyosidagi ma'lumotlar olamida teng huquqli foydalanuvchi sifatida shakllana borishi garovidir.

Maktab va oliy o'quv yurtlari ta'lim-tarbiya jarayonida internet texnologiyalari, telekommunikatsion vositalardan tizimli foydalanilishi, xodimlarning innovatsion vositalar ko'magida ish yuritishi darslarning maqsadi, o'quv rejasi, dars shakllari va

metodlaridan o'quvchilarni o'qitishda qanchalik qo'l kelayotganini kuzatish imkonini ham bermoqda.

Masalan, texnologiya darslarida o'quvchilarni elektron pochtdan qanday foydalanish, qidirish ishlarini qanday amalga oshirish, zarur ma'lumotlarni internet orqali qanday qilib tez topish, uy vazifalari uchun zarur bilim va ma'lumotlarni topish yo'llari o'rgatilmogda.

O'qituvchi dars rejasini noan'aviy, nisbatan qiziqarli tarzda tuzish va shu asosda darsni tashkil etish uchun u internet orqali ko'rgazma materiallar (suratlar, jadvallar, fotosuratlar)dan, multimedia materiallaridan foydalanadi. Har xil tanlov, ko'rgazma va grantlarda qatnashish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Dunyo miqyosida maktablar internet-texnologiyalarining yangi bosqichiga, ya'ni o'quv rejalarida alternativ ta'lim elementlarini qo'llashga o'tib bormoqdalar. Bu bilan ba'zi o'quv muammolarini hal qilishga erishmoqdalar.

Bu nafaqat o'qituvchilar, balki o'quvchilarga ham o'quv maqsadlarini amalga oshirishni, dunyoqarashini kengaytirish, bilimlarini orttirish, mantiqli fikrlash va shaxsini to'g'ri shakllantirishga imkoniyat yaratishi nazarda tutilgan. O'quvchilar har xil saytlardan o'zlariga qulay sharoitlarda ta'lim olishlari mumkin. Bunda asosiy mas'uliyat bolalarga yordam berish, ularni yo'naltirish va nazorat qilish vazifasi ota-onalarga yuklatiladi.

Yangi, zamonaviy informatsion texnologiyalar orqali o'quvchilar bilimlarni istagan joylarida olishlari mumkin. Ma'lum mutaxassislik bo'yicha bilimlarni, dunyoqarashini kengaytirish va mlakalarini oshirishda zarur bo'ladigan ma'lumotlarni uyda o'tirgan holda dunyo miqyosidagi kutubxonalardan olish imkoniyatiga ham ega bo'lmoqdalar. O'quvchilarda dunyo bo'ylab tengdoshlari bilan muloqot imkoniyatlari paydo bo'ldi. Ular boshqa o'qituvchilar, dunyo miqyosidagi olimlar, mutaxassislardan o'zlariga kerakli ma'lumotlarni olish imkoniyatini ham qo'lga kiritdilar. O'quvchilar internet-bilimlarni kompyuterlashtirilgan sinflarda o'tirib mustaqil ravishda olishlari mumkin.

Internet-texnologiyalar tarbiyalanuvchilarga ta'lim berish va ularni tarbiyalashdan tashqari ularning ma'lumotlar bilan to'yinish muammosini ham keltirib chiqaryapti. Bu vaziyat o'quvchilarni ma'lumotlar orasida adashib ketishlari bilan asoslanadi. Bundan tashqari, o'quvchilar ayrim nokompetent saytlardan yolg'on

ma'lumotlarni ham olyaptilar. Bu internet imkoniyatlari kengligining salbiy xususiyatidir.

O'quvchilar internet ma'lumotlar oqimiga kirib tayyor ma'lumotlarni olish bilan birga mavjud mavzu bo'yicha o'z nuqtai nazariga ham ega bo'lishlari kerak. O'quvchi bu masalani mustaqil ravishda hal qilolmaydi. Bu degani, o'quvchini ma'lumotlar oqimida yolg'iz qoldirish mumkin emas.

Bundan tashqari, internet-texnologiyalarni bolalarni o'qitish ishlariga olib kirishning ijobiy tomonlarini qayd etgan holda shuni ham aytish joizki, ular har qanday ma'lumotga tekin kirish imkoniyatiga ega bo'lgandan keyin o'zgalarning ishlarini o'zlashtirib olib, oddiygina fikrlash yoki munosabat bildirish, mulohaza yuritishdan voz kechmoqdalar. Aniq aytiladigan bo'lsa, o'quvchilar tayyor insholarni ko'chirib olib ularni o'zlarining mustaqil ijodiy ishlari sifatida taqdim etmoqdalar. Bunday salbiy hislatlar shakllanishining oldini olish uchun o'qituvchi yordamiga ehtiyoj seziladi.

Qisqa qilib aytganda, milliy maktabni zamonaviy informatsion texnologiyalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Kompyuter texnologiyalaridan foydalanib dars o'tish o'qituvchilar va o'quvchilar uchun oddiy ta'lim jarayoniga aylanib bormoqda. Lekin internetdan oqilona foydalanish uchun avval tarbiyalanuvchilarning saviyasiga ishlash, ma'naviyatini sog'lom shakllantirish, ruhiyatini tozartirish taqozo etiladi.

Bugun internet butun ijtimoiy hayotni qamrab olmoqda. Internetdan foydalanuvchilar va informatsion sahifalarning soni kundan kunga ortib bormoqda. Internet, eng avvalo, ma'lumotlar ombori. Juda katta ma'lumotlar hajmi internetni ma'lumotlar qidirishda tengsiz tarmoqqa, manbaga aylantirib qo'yimoqda. Bu tarmoqdan nafaqat o'qituvchi, o'quvchilar ham foydalanib o'zlariga kerakli ma'lumotlarni olmoqdalar. Bugungi talabalar bilim va ma'lumotlarni kitoblardan emas, osongina, uyda o'tirib internetdan qidirmoqdalar. Bugun o'quvchilar ham internet resurslaridan unumli foydalanishga ehtiyoj sezmoqdalar. Ota-onalar ham, maktab ham o'quvchilarning veb-imkoniyatlardan samarali foydalanishlariga e'tibor qilishlari, masalan, yo'nalishli onlayn konferensiyalarda qatnashishlari, o'z saytlarini tuzish ishlarida foydalanishlarini nazorat qilishlari, ularni foydali ishlarga yo'naltirishlari maqsadga muvofiqdir.

Mutaxassislar farzandlarini internetdan foydalanishni ta'qiqqlagan ota-onalarni ham ayblamoqdalar. Bu, o'z navbatida, bolalarga tengdoshlari bilan muloqotda bo'lishga, tengdoshlaridan ortda qolishga, ota-onalarga nisbatan salbiy munosabat paydo bo'lishiga olib kelishini ta'kidlamogdalar.

Axborot texnologiyasi faqatgina ta'lim tizimiga kirib kelmasdan shu sohaning barcha bo'g'inarini boshqarish, tashkil qilish, axborot resurslari bilan ta'minlash, ish yuritish hujjatlarini tezlik bilan topish, moliyaviy tizimini yo'lga qo'yish kabi muhim ishlarni amalga oshirishda ham xizmat qiladi. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta'lim tizimiga kirib kelishi – ta'lim tizimida ham sifat o'zgarishi omili bo'lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda, ta'lim tizimining har bosqichini axborot-kommunikatsiya texnologiyalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Kundalik hayotda media-texnologiyalarning o'rni tobora kengayib bormoqda. Katta hajmdagi yangi axborotlar, reklamalar, televidenie ko'rsatuvlarida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish, kompyuterlar va ulardan foydalanish talabalarning ta'lim-tarbiyasi, ularning atrofdagi voqea-hodisalar to'g'risidagi tasavvurlari, tafakkuri hamda idrokiga katta ta'sir etmoqda.

Ilgari talabalar istalgan mavzuga oid axborotlarni: darslik, ma'lumotnoma adabiyotlar, o'qituvchi beradigan saboqlar, darsni konspektlashtirish vositasida egallagan bo'lsalar, bugungi kunga kelib, asosan elektron darsliklar, internet orqali o'zlashtirmogdalar. Shu sababli ham o'qituvchi zamonaviy voqyelikka to'g'ri yondashgan holda ta'lim jarayoniga axborot uzatishning yangi metodlarini olib kirishi zarur.

Katta hajmdagi axborotlarni har bir talaba qisqa vaqt mobaynida o'zlashtirishi, ongida shakllantirishi va amaliy faoliyatida foydalana olishni bilishi zarur. Zamonaviy texnika vositalaridan foydalanilgan darslarda har bir talaba o'zini erkin his etib, faol ishtirok etishi, darsga qiziqish bilan yondashib, ijodiy fikrlashi, o'z mehnati samarasini ko'rib, uni baholay olishi zarur. Oliy maktab domlasi axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib, dars o'tishga tayyorgarlik ko'rishda bu jiddiy ta'lim dasturiga oid dars materiali ekanligini unutmasligi zarur.

Darsni loyihalashtirishda o'qituvchi turli dasturiy mahsulotlardan foydalanadi. Dars jarayoniga tayyorgarlik ko'rishda tayyor dasturiy

mahsulotlar (ensiklopediya, lug'atlar, ta'limiy dasturlar va hk.lar)dan foydalanishda kompyuterning o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Kompyuter texnologiyasi vositasida dars o'tish barcha fanlardan laboratoriya mashg'ulotlarini, amaliy mashg'ulotlarni, yangi mavzularni ko'rgazmali tushuntirish imkoniyatiga ega bo'lib, o'tilgan darslarning materiallarini talaba mustaqil qayta ko'rib chiqishi mumkin.

Axborot kommunikativ texnologiyalardan foydalanishning afzalligi:

- ta'limni individuallashtirish;
- tarbiyalanuvchilarning mustaqil ishlarini mujassamlashtirish;
- darsda amalga oshirilgan topshiriqlar hajmining oshishi;
- axborot oqimi doirasining kengayishi natijasida o'zlashtirishda faollik, darsda motivatsiyaning kuchayishini ta'minlaydi.

Darslarni axborot kommunikativ texnologiyalardan foydalanib tashkil etishda o'qituvchi o'z mehnatining ko'p qismini kompyuterga yuklashi mumkin bo'ladi.

Bu bilan darsni yanada qiziqarli, rang-barang qilib, mazmunan boyitadi. O'qituvchi o'quvchining bilimini o'z vaqtida xolisona baholab boradi, ularga noan'anaviy saboq berish usullarini topishga ijodiy yondashadi. Bu o'qituvchining kasbiy rivojlanishiga ham asos bo'ladi.

O'quvchining bilimini qisqa vaqt mobaynida aniqlab, uni to'g'ri yo'naltirishda o'qituvchi oldida qulay imkoniyat yaratiladi.

Bundan tashqari, o'quvchi olishi kerak bo'lgan axborotni hali davr talabiga mos vaqtida, o'z dolzarbligini yo'qotmasdanoq olish imkoniyati va topshiriqning murakkablik darajasini to'g'ri baholash sharoiti yaratiladi.

O'quvchilar kompyuterda masalalar yechish, jadval va grafik yechimlarni tuzish, chizmalar chizish, bog'lanishli matnlar yaratish, rasmlar chizish kabi ko'plab imkoniyatlarga ega bo'ladilar. Bu, o'z navbatida, o'quvchilar ijodiy tafakkuri rivojlanishiga zamin bo'lib xizmat qiladi.

Shunday bo'lsada, o'z kasbining mahoratli sohibi bo'lgan o'qituvchi tomonidan o'zining chuqur bilimi, katta tajribasiga tayangan holda, axborot kommunikativ texnologiyalardan foydalanib o'tkazgan dars mashg'ulotlari, o'quvchi-talabalar ko'z oldida namoyish etilgan media-mahsulotlari, ko'rgazmali materiallari asosida

yanada qiziqarli bo'lib, oson o'zlashtiriladi va ularda mustaqil fikrlash hamda o'z ustida ishlash malakalarini mustahkamlaydi.

Oliy maktab ta'limi jarayonida axborot kommunikativ texnologiyalardan foydalanib dars o'tishni o'zlashtirib olgan bo'lajak adabiyot o'qituvchilari ham o'z amaliy faoliyatlarining samaradorligini ta'minlashda internet ma'lumotlariga murojaat qiladilar.

Masalan, adabiy ta'limni samarali tashkil etish maqsadida internet orqali mavzuga daxldor syujetli rasmlar, ilmiy-ommabop lavhalar, badiiy asarlarning mazmuni va qahramonlariga ishlangan suratlar, o'zi uchun zarur bo'lgan nazariy ma'lumotlarni topib foydalanishi mumkin bo'ladi. Bundan tashqari, o'quvchilarini ham internet ma'lumotlaridan foydalanishga yo'naltiradi.

Adabiy ta'limning bunday zamonaviy tarzda tashkil etilishi o'quvchilarning ham diqqatini tortadi, bilimlarni o'zlashtirish jarayonini qiziqarli bo'lishini ta'minlaydi. Faqat buning uchun o'qituvchi ham, o'quvchi ham ingliz va rus tillarini bilishi taqozo etiladi. Sababi hozirda o'zbek tilida istalgan ma'lumotni internetdan topish imkoniyati kam.

E'tibor qilinsa, mazkur darslikda ham bir qator ma'lumotlar internet orqali olinganini, talabalarga yo'nalish berishda, tavsiyalar berishda internet orqali ma'lumotlar tavsiya etilganini payqash mumkin. Bu ham, o'z navbatida bo'lajak adabiyot o'qituvchilarining amaliy faoliyatini tashkil etishda internet materiallaridan foydalanishga yo'naltirishdir.

Masalan, adabiy ta'limda syujetli rasmlardan foydalanilganda tavsiya etilgan internet manbalarini ochib tavsiya etilgan suratlarni ekranda namoyish etish va bevosita uning tahlilini amalga oshirish mumkin bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, ko'rgazmalilikning zamonaviy usullari bilan birga an'anaviy tamoyillaridan ham o'rni bilan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Ayni zamonda, o'quvchilarning zamonaviy axborot texnologiyalariga oqilona yondashishini nazorat qilish ham o'qituvchining bugun paydo bo'lgan yangi vazifasidir.

Badiiy matnning didaktik tahlili namunasi

Qiyomatga qolmagan qasos

S. Is'hoq qalamiga mansub "Qiyomatga qolmagan qasos" nomli roman yangilangan milliy dastur loyihasi 7-sinfda o'rganish uchun taqdim etilgan¹ (to'rt kitobdan iborat asrning birinchi kitobi)da qalamga olingan davr haqida Hamid Ismoilning "Jinlar bazmi" romanida ham so'z yuritilgan. Unda Qo'qon xoni Umarxon vafotidan keyin o'g'li Madalixonning (uni emizib katta qilgan ayolni kanizak qilib haramiga olib kelgani, otasining nikohida bo'lgan ayolga uylanib undan ikkita o'g'illik bo'lgani) qilmishlari, shoira Nodiraning hayoti va Buxoro amiri Nasrulloning xonni jazolash maqsadida Qo'qonga qilgan hujumi haqida hikoya qilinadi. Soyim Is'hoqning bu romani xuddi shu voqealarning davomidek tasavvur uyg'otadi kishida. Albatta, uslubi va tili jihatidan ular orasidagi tafovut ancha katta.

Asarga yondashuvning dasturiy talqini quyidagicha: *"Qiyomatga qolmagan qasos" tarixiy detektiv romanida ezgulik, adolat va vatan ravnaqi yo'lida yurgan Shamshodbek, Abduqayum to'qsoba singari olijanob zotlar, o'z nafsidan boshqa narsani bilmaydigan, arzimagan foyda uchun istagan odamdan kechib ketaveradigan Iziddin inoq, Abdulboriy kabi shayton yo'lidagi kimsalar, Bolaboy, Jangir yanglig' o'z yo'lini izlayotgan odamlarning o'ta qaltis, sarguzashtlarga to'la ko'rgan-kechirganlari tasvir etilishi. Yovuzlik qanchalik makkor, puldor, qudratli bo'lmasin, ezgulik hamisha yengib chiqishining jonli odamlar taqdiri misolida ishonarli va qiziqarli aks ettirilgani*". Mazkur romanning didaktik tahlili manashu talqin asosida amalga oshirilgani adabiy ta'limning maqsadiga muvofiq keladi.

Romanda dastlab: *"...muazzinning azoni eshitilgach, sotuvchi va haridorlar mollarini joy-joyida qoldirib, ustiga namatmi, bo'yrami tortadilar-u, shosha-pisha tahoratini qilib, masjidga shoshiladilar. Namozdan so'ng, timlarning yo'laklarida yana odam gavjumlashadi"*² tasviri o'quvchi e'tiborini tortadi. Bundan biz – kechagi jamiyatda shakllangan, inqilobdan oldingi hayot haqida salbiy tasavvuri qat'iy lashib ulgurgan o'quvchi ham, bugungi o'zbek bozorlarini ko'rib

¹ Умумий ўрта таълим мактаблари миллий дастури лойиҳаси. Адабиёт. – Т., РТМ, 2020.

² Исҳоқ С. Қиёматга қолмаган қасос. Биринчи китоб. – Т.: Фафур Фулом номидаги НМИУ, 2016. – 5-бет. Кейинги кучирмалар ҳам шу манбадан олинган.

turgan yosh o'qirman ham ajablanadi. Mazkur holatni hozir aqlga sig'dirish qiyin. Demak yurtida shariat hukumronlik qilgan zamonlarda, garchi mamlakatni boshqarib turgan xon va amirlar haqida yaxshi gaplar gapirilmasa-da, o'zbek xalqi yoppasiga juda toza, o'ta halol bo'lgan. Bir-biriga ishongan.

Yozuvchi Soyim Is'hoq qalamiga mansub bu romanda Buxoro amiri Nasrullo hukumronligi davri qalamga olingan bo'lib, unda zulm va adolatsizlik haddan oshgan jamiyatda ham yaxshilik, adolat, imon va insofni unutmagan baland kishilar yashaganiga, yomonliklarning albatta jazoga mustahiqligiga ishora qilinadi. Romanda: birinchi marta qo'lga tushganida shariat qonunlari bo'yicha o'ng qo'lining ikki barmog'i kesilgan, lekin shunga qaramay hunarini tashlamagan Xo'rozboy o'g'ri; ichini xasad va xudbinlik qamrab olgan Iziddin inoq va uning o'ziga o'xshagan o'g'li Abdubori; yo'lto'sarlik va mayda o'g'rilik bilan shug'illangan Bolaboy va uning marazlikda oldiga bironi tushurmaydigan sherigi Jangir; karvonlarni talab yuradigan, o'ziga qaroqchilikni kasb qilib olgan, maqsadi yo'lida otasiga qo'l ko'tarishdan ham toymagan Shahboz, Sharif va sheriklarining qing'ir ishlari; bu jinoyatchilarga qarshi olib borilgan kurash va o'sha davr izquvarlarining ustomonliklari; el orasida "qassob" laqabini olgan amir Nasrulloning Shahrisabzni bosib olishdagi mag'lubiyatlari va bu jarayondagi sirli hodisalar to'g'risida hikoya qilinadi.

XIX asrda Qo'qon va Xorazm xonliklari bilan Buxoro amirligi o'rtasidagi munosabatlarning tarqoqligi va, hatto, umumiy dushmanga qarshi ham birlasha olmaganliklari oqibatida Turkiston atalmish bepoyon o'lkaning ruslar tomonidan osongina bosib olinishi, natijada yuz yildan ortiq vaqt mobaynidagi mustamlakachilik tufayli xalq boshiga tushgan musibatlar millat tarixiga qora harflar bilan yoziladi. Lekin hukmdorlar qanday bo'lishlari va davlatni qay yo'sinda boshqarishlaridan qat'i nazar oddiy xalq orasida podshohlarda hayiqadigan Mirzo Shafeiylar, millat mustaqilligi va erki uchun kurashga tayyor Qorabekbiy, uning o'g'li O'tagul mergan, el orasida yaxshi nom chiqargan, to'g'ri gapni hayiqmay zolim amir Nasrulloga ham ayta olgan va shu fe'li tufayli uning ham hurmatini qozongan Abduqayum to'qsoba, hamisha yaxshilik va ma'naviy komillik sari intilgan Shunqorbek, qozoq eli orasida to'g'riligi va halolligi bilan nom qozongan Xudoybergan xo'ja singari kishilar bo'lgan. Hamma zamonlarda yaxshi va yomon, halol va harom, to'g'ri va noto'g'ri

baqamti yashagan. Yomon, noto'g'ri va haromxo'r jazolarga, yaxshi, halol va to'g'ri rag'batlarga sazovor bo'lgan. "Qiyomatga qolmagan qasos"da mana shu haqiqatlar qalamga olinadi.

Asardagi bozor bo'ylab kelayotgan ikki yigitdan birining: *"bug'doyrang, kalta kuzalgan mo'ylovi o'ziga yarashgan, istarasi issiqqina"* ekani, ikkinchisining: *"badqovoqroq, cho'zinchoqroq yuzlari oq-sariqqa moyil, mo'ylovi sarg'ish"*ligi tasvirining o'ziyoq o'quvchida ularning shaxsiga nisbatan dastlabki munosabatni uyg'otadi. Yigitlarning o'zaro suhbatidan xabardor bo'lingach esa shakllangan bu munosabat qat'iylashadi. O'quvchilar shu tashqi tasvirga tayanib yigitlarning suvrati va siyratiga munosabat bildirishlari o'rinli bo'ladi.

Romanda ruhiyati qora chirkinliklar bilan to'yingan obrazlar bosimlik qiladi. Ma'lumki, odamzod Xudoning eng oliy va eng murakkab yaratig'i. Uning murakkabligi jism, ong va ko'ngil uchligining mujassamligidadir. Allohning boshqa birorta yaratig'ida uchramaydigan ko'ngil degan mulk nafaqat aqlli, bilimli kishilar, hatto jinoyatchilarda ham mavjud. Chunki u ham, garchi jinoyatchi yoki qotil bo'lsa-da, odam. Ko'ngliga yo'l topilsa, u ham ochiladi. Shunda ashaddiy jinoyatchining ham qalb qo'rida yaxshilik mudrab yotganini payqash mumkin. Bunday talqinni Tohir Malikning bir qator asarlarida uchratish mumkin. Tom ma'noda yomon odam bo'lmagani singari ideal darajada yaxshi va mukammal odamning o'zi yo'q.

Muallif Abdubori xarakterida mavjud bo'lgan salbiy illatlarni uning tiyatida pardalangan ijobiy sifatlar bilan qorishiq holda tasvirilaydi. Agar tarbiya degan mo'jiza bilan uning xarakteridagi qora kuchlarga qarshi kurashilganda, ruhiyatida qo'r bosib borayotgan fazilatlarining ko'zi ochilib rivojlantirilganida, balki uning ham boshiga tushgan ko'rgiliklarning oldi olingan bo'larmidi. Asarda shunday satrlar bor: *"Nafsilamrini aytganda, u Shaxobiddin domlaniing maktabida yomon o'qimovdi... Dastlabki to'rt-besh yilda madrasada ham durust o'qidi. Keyin aynidi. Vaqt o'tgani sari fe'lu a'molida qandaydir o'zgarishlar yuz berayotganini o'zi ham sezardi. Biroq qanday o'zgarish — buni aniq bilmasdi. Bilgani shuki, yil sayin dilida Shunqorbekka nisbatan xasad kuchayib borardi"*. Asarning didaktik tahlili kechimida o'qituvchi shu satrlar qayta o'qib: "Abdubori tabiatida yuz berayotgan o'zgarish sabablari haqida o'ylab

ko'ring. Nega u yaxshilikka emas, yomonlik tomonga o'zgardi? Buning sabablari nimada, Sizningcha?" kabi savol va topshiriqlar bilan o'quvchilarga murojaat qilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Abduborining otasi Iziddin inoq bilan suhbatda Shunqorbekning fazilatlarini chin dildan e'tirof etgani ham, garchi zamirida ozgina manfaatdorlik bo'lsa-da, diqqatga sazovor.

O'zining kaltao'yiligi tufayli xom xayollarga berilib valiahdning oldidan o'rinli quvilgan Abdubori: *"yo'l-yo'lakay Shunqorbekning go'riga g'isht qalab kelgan bo'lsa-da, o'zida ham ayb borligini bilardi... Baribir haqiqatga bo'y bergisi kelmadi. O'zi haydalib, Shunqorbek valiahd yonida qoldi. Bu alamini badtar oshirib, ichini it tirnamoqda edi. Bu "it"ning tirnoqlaridan ko'chayotgan shatta zaifgina ko'zg'alib turgan vijdon ovozini ko'mib yubormoqda edi"*, degan iqror bor asarda.

Odanzod, negadir o'zining muvaffaqiyatsizliklari, xato va mag'lubiyatlarida, deyarli hamisha o'zgalarni ayblaydi. Abdubori ham ayb o'zidaligini bilgani holda sherigidan norozi bo'ldi. Uning to'g'ri yo'ldan ozib ketishiga mana shunday qaltis vaziyatlarda oqilona ish tuta bilmasligi sabab bo'ldi. Otasi Iziddin inoq ham Abdubori o'ziga kerak bo'lganda yolg'onni ham, qasamni ham suvday ichib yuboraverishini juda yaxshi bilardi. Lekin o'zida ham Shunqorbekning otasi Abduqayum to'qsobaga bir dunyo bo'lar-bo'lmas sabablarga asoslangan ichki xasad kuchli edi.

Qolaversa, qizini to'qsobaga kelinlikka taklif qilib borib noumid qaytganining alami uning aql ko'zini pardalab qo'ygandi. Otaning fe'lidagi bu illatlar o'g'lini ham o'z jinoyatiga sherik qilish va bu bilan farzandiga eng mudhish taqdirni ravo ko'rishiga olib keldi. Agar Iziddin inoq shunday qaltis vaziyatda o'g'lining ruhiyatida miltillab turgan yaxshilik o'tini ilg'ab, uni alangalatib, vijdonini uyg'otib to'g'ri yo'lga solib yuborishga qodir bo'lganida, balki bolasi ko'nglidagi yomonliklarni yenga olgan va boshidan kechirgani jazolarga mustahiq bo'lmagan bo'larmidi?! O'qituvchi shu holat va tasvirni savol yoki topshiriqqa aylantirib o'quvchilarining muhokamasiga qo'yishi kerak. O'quvchilar fikrlashib, munosabat bildiradilar.

O'quvchilar Abduborining Shunqorbekni "Upai do'zaxiy" bilan zaharlaganidan keyingi ahvolini – *"vahimaga tush"*gani, do'stining *"dardga tob berolmay to'lg'anib yotganini ko'rib chinakam*

baqamti yashagan. Yomon, noto'g'ri va haromxo'r jazolarga, yaxshi, halol va to'g'ri rag'batlarga sazovor bo'lgan. "Qiyomatga qolmagan qasos"da mana shu haqiqatlar qalamga olinadi.

Asardagi bozor bo'ylab kelayotgan ikki yigitdan birining: *"bug'doyrang, kalta kuzalgan mo'ylovi o'ziga yarashgan, istarasi issiqqina"* ekani, ikkinchisining: *"badqovoqroq, cho'zinchoqroq yuzlari oq-sariqqa moyil, mo'ylovi sarg'ish"*ligi tasvirining o'ziyoq o'quvchida ularning shaxsiga nisbatan dastlabki munosabatni uyg'otadi. Yigitlarning o'zaro suhbatidan xabardor bo'lingach esa shakllangan bu munosabat qat'iylashadi. O'quvchilar shu tashqi tasvirga tayanib yigitlarning suvrati va siyratiga munosabat bildirishlari o'rinli bo'ladi.

Romanda ruhiyati qora chirkinliklar bilan to'yingan obrazlar bosimlik qiladi. Ma'lumki, odamzod Xudoning eng oliy va eng murakkab yaratig'i. Uning murakkabligi jism, ong va ko'ngil uchligining mujassamligidadir. Allohning boshqa birorta yaratig'ida uchramaydigan ko'ngil degan mulk nafaqat aqlli, bilimli kishilar, hatto jinoyatchilarda ham mavjud. Chunki u ham, garchi jinoyatchi yoki qotil bo'lsa-da, odam. Ko'ngliga yo'l topilsa, u ham ochiladi. Shunda ashaddiy jinoyatchining ham qalb qa'rida yaxshilik mudrab yotganini payqash mumkin. Bunday talqinni Tohir Malikning bir qator asarlarida uchratish mumkin. Tom ma'noda yomon odam bo'lmagani singari ideal darajada yaxshi va mukammal odamning o'zi yo'q.

Muallif Abdubori xarakterida mavjud bo'lgan salbiy illatlarni uning tiynatida pardalangan ijobiy sifatlar bilan qorishiq holda tasvirlaydi. Agar tarbiya degan mo'jiza bilan uning xarakteridagi qora kuchlarga qarshi kurashilganda, ruhiyatida qo'r bosib borayotgan fazilatlarining ko'zi ochilib rivojlantirilganida, balki uning ham boshiga tushgan ko'rgiliklarning oldi olingan bo'larmidi. Asarda shunday satrlar bor: *"Nafsilamrini aytganda, u Shaxobiddin domlaning maktabida yomon o'qimovdi... Dastlabki to'rt-besh yilda madrasada ham durust o'qidi. Keyin aynidi. Vaqt o'tgani sari fe'lu a'molida qandaydir o'zgarishlar yuz berayotganini o'zi ham sezardi. Biroq qanday o'zgarish — buni aniq bilmasdi. Bilgani shuki, yil sayin dilida Shunqorbekka nisbatan xasad kuchayib borardi"*. Asarning didaktik tahlili kechimida o'qituvchi shu satrlar qayta o'qib: "Abdubori tabiatida yuz berayotgan o'zgarish sabablari haqida o'ylab

ko'ring. Nega u yaxshilikka emas, yomonlik tomonga o'zgardi? Buning sabablari nimada, Sizningcha?" kabi savol va topshiriqlar bilan o'quvchilarga murojaat qilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Abduborining otasi Iziddin inoq bilan suhbatda Shunqorbekning fazilatlarini chin dildan e'tirof etgani ham, garchi zamirida ozgina manfaatdorlik bo'lsa-da, diqqatga sazovor.

O'zining kaltao'yiligi tufayli xom xayollarga berilib valiahdning oldidan o'rinli quvilgan Abdubori: *"yo'l-yo'lakay Shunqorbekning go'riga g'isht qalab kelgan bo'lsa-da, o'zida ham ayb borligini bilardi... Baribir haqiqatga bo'y bergisi kelmadi. O'zi haydalib, Shunqorbek valiahd yonida qoldi. Bu alamini badtar oshirib, ichini it tirnamoqda edi. Bu "it"ning tirnoqlaridan ko'chayotgan shatta zaifgina ko'zg'alib turgan vijdon ovozi ko'mib yubormoqda edi"*, degan iqrar bor asarda.

Odanzod, negadir o'zining muvaffaqiyatsizliklari, xato va mag'lubiyatlarida, deyarli hamisha o'zgalarni ayblaydi. Abdubori ham ayb o'zidaligini bilgani holda sherigidan norozi bo'ldi. Uning to'g'ri yo'ldan ozib ketishiga mana shunday qaltis vaziyatlarda oqilona ish tuta bilmasligi sabab bo'ldi. Otasi Iziddin inoq ham Abdubori o'ziga kerak bo'lganda yolg'onni ham, qasamni ham suvday ichib yuboraverishini juda yaxshi bilardi. Lekin o'zida ham Shunqorbekning otasi Abduqayum to'qsobaga bir dunyo bo'lar-bo'lmas sabablarga asoslangan ichki xasad kuchli edi.

Qolaversa, qizini to'qsobaga kelinlikka taklif qilib borib noumid qaytganining alami uning aql ko'zini pardalab qo'ygandi. Otaning fe'lidagi bu illatlar o'g'lini ham o'z jinoyatiga sherik qilish va bu bilan farzandiga eng muhdish taqdirni ravo ko'rishiga olib keldi. Agar Iziddin inoq shunday qaltis vaziyatda o'g'lining ruhiyatida miltillab turgan yaxshilik o'tini ilg'ab, uni alangalatib, vijdonini uyg'otib to'g'ri yo'lga solib yuborishga qodir bo'lganida, balki bolasi ko'nglidagi yomonliklarni yenga olgan va boshidan kechirgani jazolarga mustahiq bo'lmagan bo'larmidi?! O'qituvchi shu holat va tasvirni savol yoki topshiriqqa aylantirib o'quvchilarining muhokamasiga qo'yishi kerak. O'quvchilar fikrlashib, munosabat bildiradilar.

O'quvchilar Abduborining Shunqorbekni "Upai do'zaxiy" bilan zaharlaganidan keyingi ahvolini – *"vahimaga tush"*gani, do'stining *"dardga tob berolmay to'lg'anib yotganini ko'rib chinakam*

daxshatga tush”ganini, rangi o’chib, ovozi qaltiraganini, ko’zlari chaqchayib, yuzlari paxtaday oqarib ketganini, uyiga borib ko’rpa-to’shak qilib yotib olganini qo’rquv bilan bir paytda mudroq vijdonning bezovtaligiga ham yo’yish mumkin. Vijdon mudroq va aql qafasda bo’lgach inson o’z xatti-harakatlarini boshqarish va baholashga qodir bo’lmay qoladi. Lekin yaxshiliklar uchun rag’bat va yomon qilmishlar uchun jazo muqarrar. Yozuvchi romanda mana shu haqiqatni ilgari surgan. O’qituvchi bularni o’quvchilarga aytib, tushuntirib berishi emas, balki vaziyatni savol yoki topshiriqqa aylantirib ularning munosabatini so’rashi kerak bo’ladi.

Amerikalik hindular tayyorlagan bu zaharni S. Is’hoq qaydan topgani kishini o’ylantiradi. Bu g’oya originalligi bilan diqqatga sazovor. U shunday g’alati zaharki, ta’sirida Abduborining: *“Tomirlaridan ko’tarilayotgan sovuq oqim ko’ksiga yetgach, a’zoyi badani qaqshab og’rishga tushdi... Chidab yana besh-olti daqiqa turdi. Keyin asta-sekin ingradi. Og’riq miyasiga chiqib iskanjaga olavergach, bor ovozida bo’kira boshladi. Ikki soatlar to’lg’anib, ingrab yotgach, xushini yo’qotdi. Ertasiga xuftondagina o’ziga kela boshladi. Tongga borib tamom boshqa odamga, to’g’rirog’i, na odamga va na maymunga o’xshamaydigan bir mahluqqa aylanib "tirildi": na savolga javob bera oladi va na gapga tushunadi. yeyish-ichishni ham unutgan, o’tmishini va o’zligini mutlaqo bilmaydi. Avval amallab suv ichirishdi, ovqatlanishga ham shunday o’rgatishdi. Bir haftadan keyingina "non", "suv" deb aytoladigan bo’ldi. Biroq na otasonasi va na o’z ismini esly oldi. To’rtinchi kuni uni otasiga ko’rsatishdi...»* Mazkur dahshatli tasvir o’quvchilarni ham befarq qoldirmasligi aniq. Ular bu borada muallif mahoratiga munosabat bildirishlari kerak.

«Izziddin inoqni qo’li orqasiga bog’langan holda haydab kelishdi. Nariroqdanoq o’g’liga ko’zi tushib yuragi shuvilladi. Kiyimi Abduboriniki, aft-angori sira o’xshamasdi: sariqqa moyil yuzlari qorovtan, ko’zlari o’liknikidek sovuq va loqayd boqadi, jussasi kichrayib qolganday. O’zi bilan o’zi bo’lib, merovsib qoq. yerda yolg’iz, aftodahol o’tirardi. U ro’parasiga kelib to’xtagan otasini ko’rsa ham o’tirishini buzmadi... Abdubori umrida birinchi marta ko’rayotganday haqrayib qarab otasini tanimadi. Gapirishni esa bilmasdi”. Ota-bola jazosining qiyomatga qolmagani o’quvchini seskantiradi.

Romandagi ikkinchi qahramon Bolaboy hayotining bir qismini o'g'rilik va qalloblikka bag'ishlagan bo'lsa ham qilmishlari uchun vijdon azobi bilan to'lov to'lagan odam timsoli. Gap shundaki, Abduborining qonida qalloblik, xasad va ko'rolmaslik illatlari bor edi. Iziddin inoqning tabiatidagi bu illatlar o'g'liga to'g'ridan-to'g'ri o'tgandi. Lekin Bolaboy: *"Shu yoshigacha birovning ignasiga ham ko'z olaytirmagandi. O'g'rilikdan or qilardi"*. O'quvchilar Bolaboy bilan Abduborining ildizlarini tadqiq qilsinlar.

Otasining o'limiga sabab bo'lgan Rahimboydan qasos olish hissi uni jinoyat ko'chasiga boshladi. Bolaboy sherigi Jangirga nisbatan anchagina insonparvar, mehrlı, aqlli va adolatpesha odam. Shu bois ham Iziddin inoq *"Upai do'zaxiy"* bilan zaharlangan Shunqorbekni qabrdan kavlab olib uzoq yurtlarga olib ketib sotib yuborishni taklif qilganda avval rad etadi. Lekin baloi nafs, hamyon to'la oltin uning fikrini chalg'itadi. Ikki oydan keyin qaytib kelib yana qo'shimcha haq olish taklifi uni tamoman o'z domiga tortadi. Bu holat ham savol yoki topshiriqqa aylantirilishi kerak.

Shunga qaramay Bolaboyning fikrlash tarzi boshqacharoq. U qilmishlarini taftish qila biladi: *"Bu ishga bosh qo'shganlaridan buyon Bolaboy ilk marta jiddiy o'ylanib qoldi. Tong otgach qabrning ochilgani va mayyitning yo'qolgani ma'lum bo'ladi. Shubhasiz kovkov boshlanadi. Iziddin inoq boshlagan bu mashmashadan hozirning o'zida, kamida, uch-to'rt kishi xabardor. Shuncha odam bilgan sir – sir bo'lib qolarmikan? Inoq fosh bo'lmagan taqdirdayam o'zlarining ortlaridan odam tushishi muqarrar – barcha yo'llar va karvonsaroylar nazoratga olinishi shubhasiz. Shundoq ekan, buyog'i qanday bo'ladi?"* qo'yilgan bu savol haqida o'quvchilar ham o'ylab ko'rishlari, munosabat bildirishlari kerak bo'ladi.

Bolaboyning romandagi boshqa o'g'ri va qaroqchilardan boshqacharoq odam ekanini quyidagi tasvirdan ham ko'rish mumkin: *"Umrida birinchi marta dilida Shunqorbekka nisbatan achinish hissini tuydi. Nima qilib bo'lsa-da uni Jangirning zug'umidan qo'riqlab, tezroq darmonga kiritishni istab qolganidan o'ziyam hayron. Bu nimaning alomati: qariyotganiningmi yo qo'lga tushish ehtimolidan qo'rquvningmi? U ehtiyotkor edi, lekin qo'rqqoq emasdi"*.

O'ychil odam hamisha o'zini taftish qiladi. Bolaboy ham, jinoyatchi bo'lishiga qaramay qilmishlarining yomon ekanini ruhan his qiladi, biladi. Harakatlariga chegara qo'yishga ham aqli yetadi.

Jangirga qolsa Shunqorbekni hech ikkilanmay o'ldirib, jasadini to'qayga tashlab ketgan bo'lardi. Bolaboy unday qilolmasdi. U: *"Shunchaki, beyoziq birovni o'ldirishni istamasdi: pulini olding, molini olding — bo'ldi-da. Odam o'ldirib, busiz ham oshib-toshib yotgan gunohlariningni yana ko'paytirishlarining nima xojati bor. Yovuzlikni qancha ko'paytirsang, dushmaning shuncha ko'payadi. Odamzod qilmishlarimni birov bilmaydi, bilsa ham mendan ko'rmaydi deb o'ylaydi. Ammo, kunlarning birida barcha qilmishlari ko'pchilikka ayonligini payqab qoladi"*. Romanda ilgari surilgan bu haqiqatlarga o'quvchilarning diqqati qaratilishi kerak.

Bolaboy bir musulmon banda sifatida qilmishlari uchun qachondir javob berishi kerakligini, hamma narsaning hisob-kitobi borligini, bu dunyoda bo'lmasa u dunyoda Yaratganning jazosiga mustahiqligini hamisha ich-ichidan his qilib yashaydi. Shu bois ham Jangir Shunqorbekning jonsiz tanasini tushirib yuborganida uni ehtiyotkorlikka chaqirarkan, qachondir bir vaqti kelib shu bola, agar tirik qolsa, albatta, ularni o'lim jazosidan qutqarib qolishi mumkinligini, Shunqorbekni sog'omon ota-onasiga qaytarishsa, gunohlari ancha yengillashishi mumkinligini ich-ichidan his qiladi.

Shuning uchun qaerda bo'lmasin, kim bilan tanishmasin hammasiga o'z gunohlarini ochiq aytadi, vijdon azobida yashayotganini hech kimdan yashirmaydi. Qilmishiga yarasha jazosini olgan Jangirning oilasini qo'llab quvvatlaydi, ayolini qiyomatlik singlim deb bilib, ularga savdogarchilikdan topgan halol moli bilan ko'mak berib turadi. Bu qilmishi uchun hayotida juda ko'p jabr ko'rgan bo'lsa-da, lekin alal oqibat Shunqorbekni o'limdan asrab qolgani gunohlarining kechirilishiga sabab bo'ladi. Uni olib kelib otasiga topshirib vijdon azobidan qutuldi. Bu dunyo hisob-kitobli. Har kim qilmishiga yarasha jazo oladi. Bolaboy ham asli dehqor bolasi bo'lgani, halol non yeb katta bo'lgani uchun o'z aqli bilan vaqtida noto'g'ri yo'ldan qayta bildi va hukumat nozirlari tomonidan ham avf etildi.

Qasosi qiyomatga qolmagan jinoyatchilardan yana biri Shahboz Bolaboyning butunlay ziddi. Bolalikdan to'kin-sochinlikda katta bo'lgan. U to'qlikka sho'xlik qilgan, noto'g'ri tarbiyaning qurboni bo'lgan shaxs timsoli. Ma'lumki, hech bir ota-ona bolasiga yomonlikni ravo ko'rmaydi. Lekin otalik, onalik mehrini tiyolmay, ba'zan o'zi istamagan va sezmagani holda farzandiga yomonlik qilib qo'yadi.

Shahbozning ota-onasi ham tarbiyaning burilish nuqtasida xatoga yo‘l qo‘ydi va undan keyin qo‘llagan choralarning hammasi hayf ketdi: o‘g‘il ota boyligini qo‘lga kiritish uchun hech bezovta bo‘lmay uni o‘ldiroldi. Bu haqiqatlar ham o‘quvchilarning muhokamasiga qo‘yilishi kerak.

Qanchalik kazzob, shafqatsiz bo‘lishiga qaramay Shahboz ham bir odam sifatida: *“qiynalgan paytlarida Xudoni va otasini eslardi. Xudodan madad tilardi-yu, otasini imkon qadar tezroq xayolidan chiqarishga urinardi. Vaziyatdan chiqib ketgach, ikkovini ham unutardi”*, degan tasvir bor romanda. Bu ham e‘tibor qaratilishi bo‘lgan muhimlardan biri.

Gap shundaki, otasi haqidagi o‘ylar, ashaddiy jinoyatchi, padarkush bo‘lishiga qaramay, uning ruhiyatida jimitdekkina bo‘lsada mavjud bo‘lgan vijdonini qiynaydi. U shu qiynoqni, oldida turgan hisob-kitobni imkon qadar orqaga surishga harakat qiladi. Cho‘ldagi sarson-sargardonlikda o‘limi haq ekanini sezib tursa-da, ich-ichida o‘lim hozircha undan hazar qilayotgani belgisi mavjud edi. Shuning uchun uning ruhiyatida qilmishlaridan afsuslanish, tavba hissi yo‘q edi, hali sarhisob boshlanmagan edi.

Hayotda hamisha yovuzlikka qarshi kurashuvchi kuchlar mavjud bo‘ladi. Xudo o‘zining mezonlarini buzgan, o‘ziga yot bo‘lgan sifatlarga moyil bo‘lgan bandalarining ortga qaytishiga hamisha imkon yaratib beradi. Faqat banda bu imkoniyatlarni ilg‘ashi va ulardan oqilona foydalana bilishi kerak. Romandagi Kabir shayton timsoli yovuzlikka qarshi kurashning o‘ziga xos bir ko‘rinishidir. Kabir shayton obrazi ham o‘ziga yarasha betakror.

Uning ishbilarmonligi nafaqat bugungi o‘quvchini, balki zamonaviy izquvarlarni ham xayratga solishi aniq. U qancha shum bo‘lishiga, “shayton” laqabi unga bekorga berilmaganiga qaramay Bolaboyning ham, Shahbozning ham izini yo‘qotib qo‘yadi va vaziyatga oqilona yo‘l topib o‘g‘rini o‘g‘rining qo‘li bilan tutishga bel bog‘laydi.

Asarda ijobiy mezonlarga tom ma'noda javob beradigan Shunqorbek obrazida ishonuvchanlik, bee‘tiborlilik, beparvolik kabi noqisliklar borkim, shu kamchiliklari tufayli uning ham boshiga ne ko‘rgiliklar tushmadi. Shunqorbek ilmga intilgan bir odam sifatida saroyda mansab egallashni xayoliga ham keltirmaydi. Uning orzusi

biror madrasada mudarrislik qilib dunyoviy ilmlarni o'rganish, bilganlarini tolibi ilmlarga o'rgatish edi.

Otasi ham saroydagi yolg'onlar, adolatsizliklari shafqatsizliklardan xabardor bo'lgani uchun bolasining u yerda ishlashini xushlamasdi. Iziddin inoqdan farqli o'laroq bolasiga buni singdirishga ham intilmagan edi. Lekin taqdirida bor ekan, amir Nasrullo uning yoshligiga, tajribasi yo'qligiga qaramay, o'zidan ham so'ramay saroydagi eng mas'uliyatli lavozimlardan biriga tayin etdi.

Chunki amir uning otasini yaxshi bilar va qattiq hurmat qilardi. Abduqayum to'qsobaning takliflarini hamisha ham qabul qilavermasada, uning halol, adolatli va o'ziga bir xodim sifatida sodiq odam ekaniga ko'p marta amin bo'lgandi. Qolaversa, Shunqorbekning Mir Arab madrasasini bitirishi uchun alohida tashkil etilgan imtihon jarayoni va natijasidan habardor. Aqlli, ham diniy, ham dunyoviy bilimlardan xabardor yigit har qanday lavozimda hech qiynalmay ishlab ketishi mumkinligiga ishonardi. Bunday talqinni o'quvchilar o'zlari kashf etishlari kerak. Savol yoki topshiriq bilan o'qituvchi ularni bunga yo'naltirishi kerak bo'ladi.

Shunqorbekni olib ketishib cho'l va to'qaylardagi sarsonlikdan keyin dam olib o'tirishganda uni kuzatib turgan Bolaboy ko'nglidan: *"Zaharlanguniga qadar qanday odam bo'lgan? Bekorga xatmi kugubdan keyinoq bosh mushriflik martabasiga ko'tarilmagandir? Uzunquloq gaplarga qaraganda, halol ishlagan, poraxo'r, yulgich, zolim soliqchilarning tanobini tortib turgan. Oz bo'lsa-da, raiyatga qayishgan. Uning fojiasi shunda emasmikan? Halol odamlarning bu cho'ltoq dunyoda emin yashashlari qiyin: odam zamonida shunday edi, bolam zamonida ham shunday bo'lib qoladi. Hamma davrlarda uddaburonlar, olg'irlar, g'irromlar yashaydi. Halol bo'laman deganlarning og'zi qurtlab, keti bitlab yuraveradi!"* - degan o'ylar kechadi.

Sirtidan qaraganda qaroqchi haqday ko'rinadi. Lekin hayotga, hayotiy hodisalarga Allohning mezonlari bilan yondashiladigan bo'lsa, Bolaboyning nohaqligi ayon bo'ladi. Hayotda hamisha, hamma zamonlarda ham fazilatlar sohiblari bo'lgan. Bir oz qiyinchiliklar bilan bo'lsada, yaxshilar va yaxshiliklar rag'batlantirilgan. Shunqorbek ham, "upai do'zaxiy"ning ta'sirida Abduboridan bundayroq holatga tushganiga qaramay, Allohga xush kelgan qiliqlari evaziga hamisha yaratganning panohida bo'ldi, yaxshi odamlar

himoyasida yashadi. O'zini o'nqlab olishga, kimligini anglashga, nasl-nasabini aniqlashga intildi.

Buni yozuvchi: *"Ehtiyoj, zaruriyat atalmish janobi oliylarining qudrati shunchalikki, u inson vujudida yashirilib qolgan eng so'nggi kuchni ham topib, harakatga soladi"*, - degan haqiqat bilan asoslaydi. Bu yorug' dunyoda odamzodga fe'liga yarasha taqdir, taqdiriga yarasha fe'l u bino bo'lganda bir vaqtning o'zida Alloh tomonidan peshonasiga bitilsa kerak. Inson ruhiyatida bino bo'ladigan o'sha ehtiyoj uni shu taqdiri sari borishga undaydi. Shu haqiqatlar muhokama jarayonida o'quvchilarning tiynatiga singdirib borilishi kerak. Buni faqat adabiyot darslari, asarlarning didaktik tahlili ama'lga oshiradi.

Har yaxshida bir yomon, har yomonda bir yaxshilik bor, deganlaridek, boshiga tushgan ko'rgiliklar tufayli Shunqorbek inson uchun nafaqat diniy va dunyoviy bilimlar, aqliy va ruhiy barkamollik, balki jismoniy yetuklik ham birday zarur ekanligini anglaydi. O'taguldan qilichbozlik, nayzabozlik va ko'pkari sirlarini o'rganib, ham jismoniy baquvvatlikka erishadi, ham hayot qozonida qaynab tajribasi ortadi, xarakterida ham qat'iyatlilik, kurashuvchanlik singari yangi fazilatlar shakllanadi. Mukammallikka erishish buyurilgan bo'lsa, bandasi albatta erishadi. Buni o'quvchilar asarning shu bandi ustida ishlaganda anglab boradilar.

Romanda o'quvchini hayratga soladigan hodisalardan yana biri amir Nasrulloning Shahrisabzga qilgan hujumlari va mag'lubiyatlari tasviridir. Shahrisabzni o'ziga bo'ysundirishga avvallari ham bir necha marta urinib ko'rgan amir bir yilning o'zida yana ikki marta harakt boshlaydi. Ikkalasida ham sharmandalarcha mag'lubiyat bilan ortga chekinadi. To'g'ri, urushlar hamma zamonlarda bo'lgan. Urushda talon-tarojlar, talofatlar, halokatlar bo'lishi tabiiy. Urushda bir taraf bosqinchi, ikkinchi taraf himoyachi bo'ladi.

Agar bosqinchi taraf insof va adolat bilan ish tutsa, bosib olinajak yerlarga ilmu urfon, ma'rifat, madaniyat olib kirishni niyat qilgan bo'lsa, Alloh uni qo'llab-quvvatlaydi, aksincha bo'lsa, sharmandalarcha ortga chekinadi. Bunga urushlar tarixidan anchagina misol keltirish mumkin. Amir Nasrulloning ham bad niyatlari o'zining boshini yesa mayli edi, jabrini minglab begunoh va urushning hadisini olmagan, unga yetarlicha tayyorlanmagan odamlar tortdi. Xudo Mirzo Shafeiyning iltijolarini dargohida qabul qilib, himoyachilar tarafidan

kam talofat bilan urushni nihoyasiga yetkazdi. Niyatga yarasha taqdir mustahiq. Mazkur fasl mazmuni muhokamasi o'quvchilarga bu haqiqatni anglatib qo'yadi.

Roman haqida xulosa qilib aytish mumkinki, hayotda, mamlakatda qanday jamiyat hukmronlik qilishidan qat'i nazar, hamisha yaxshilar, adolatpeshalar, insofli-diyonatli odamlar bo'ladi va to'g'rilik, halollik g'alaba qozonadi. Yozuvchi mana shu haqiqatni o'quvchiga singdirish niyatida qalam tebratgan va bunga erisha olgan. Asar bilan tanishish va uning didaktik tahlili asnosida o'quvchilar ham bu hayotiy haqiqatlarni aknglashlari, shu asosda ma'naviyatlarini sog'lomlashtirishga yuz burishlari adabiy ta'limning maqsadiga muvofiq bo'ladi. Faqat bularning barchasini o'quvchilar o'zlari kashf etishlari, o'zlari anglashlari kerak.

Savol va topshiriqlar:

1. Darslikda taqdim etilgan barcha internet sahifalariga kiring. Mazkur sahifalardan mavzuga doir materiallardan foydalanishga urinib ko'ring.

2. Internet sahifalaridan adabiy ta'limni samarali tashkil etishga yordam beradigan sahifalarni qidirib toping. Topgan ma'lumotlaringiz va yangiliklaringizni bir-biringiz bilan o'rtoqlashing.

3. Internet orqali Xurshid Davron saytiga kiring. Uning "You tube"dagi va "Fasebook"dagi sahifalariga ham kiring. U yerdan har bir sinf yoshidagi o'quvchilarga mos deb bilganingiz bolalar adabiyoti bilan bog'liq materiallarni qidirib toping va ko'chirib oling. Topgan materialingizni darslarda o'rganganlaringiz asosida tahlilga torting.

4. «Qiyomatga qolmagan qasos» romanini topib o'qing. Roman bilan to'liq tanishuvingiz ertangi amaliyotingizda asqotadi.

5. Dars ishlanmasida romandan keltirilgan barcha lavhalarni bir o'qituvchi sifatida savol va topshiriqqa aylantiring. Ularga o'zingiz javob bering. Darsda birgalashib asarning didaktik tahlilini amalga oshiring.

6. Siz ham o'quvchilarga berilgan savol va topshiriqlarga javob berishga urinib ko'ring.

7. "Internet mening taqdirimda" mavzusida kichik esse yozing.

16-MAVZU. ADABIYOT O'QITISHDA MULTIMEDIA TEKNOLOGIYASINING O'RNI VA ROLI

Reja:

1. *Multimedia nima?*
2. *Multimedialarning yaratilishi bilan bog'liq xususiyatlar.*
3. *Multimedialarining qo'llanilish sohalari.*
4. *Adabiy ta'lim amaliyotida multimedialarning o'rni va roli.*
5. *Badiiy matnning didaktik tahlili namunasi.*

Milliy tarbiyashunoslik, xususan, adabiyot o'qitish metodikasi ta'limi ilmini takomillashtirish, ayniqsa, amaliyotini samarali tashkil etishda bugun axborot-kommunikativ texnologiyalar, virtual laboratoriya va multimedialar muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Ularning yaratilishi va rivojlanishi texnik jihatdan ancha murakkab jarayon bo'lib ko'p bilim va vaqt talab qilishi ma'lum. Ayniqsa, ularni ta'limning biror sohasga moslashtirish bir nechta soha mutaxassislarining hamkorligini taqozo etadi. Masalan, adabiyot o'qitish amaliyotini multimedia texnologiyalaridan foydalangan holda tashkil etish ta'lim samaradorligini, o'quvchilarning o'quv faniga, badiiy matnlarni o'zlashtirish va ularga bo'lgan qiziqishlari ortishiga, ayni zamonda o'qituvchiga dars vaqtini tejashga zamin hozirlaydi.

Avvalo, "multimedia" atamasining mazmun-mohiyatiga kirib olish maqsadga muvofiq bo'ladi. "Multimedia" deganda (inglizcha multi – ko'p, media – muhit), ya'ni bir maqsadga xizmat qiladigan turli ko'rinishdagi axborotlar (matn, tasvir, ovoz, video, animatsiya (haraktlantirish)dan iborat bo'lgan yaxlit bir muhit, sharoit va tizimni umumlashtirgan holda ekranda namoyish etish jarayoni tushuniladi. Multimedialar kompyuter yoki raqamli ma'lumotlar bilan ishlovchi boshqa texnik vositalar orqali taqdim etiladigan matn, tasvir, ovoz va videodan iborat murakkab ko'rinishdagi ma'lumotlar tizimini qamrab oladi¹. Har qanday iste'molchi o'zi uchun zarur bo'lgan ma'lumotni ekranda harakatda, videotasvir, matn va ovozli tahlil shaklida, tasviriy vositalar yordamida batafsil tarzda qabul qilishi, foydalanishi va o'zlashtirishi mumkin. Multimedialardan foydalanish jarayoni interaktivlik (foydalanuvchilararo muloqot) kasb etsa, bilimlarni

¹ <https://ru.wikipedia.org/wiki/multimedia>

o'zlashtirishning ta'sir doirasi kengayadi, o'zaro fikr almashish imkoniyati paydo bo'ladi.

Ta'limning **multimedia texnologiyasi** har xil mavzularga mos tasviriy maxsulotlarni yaratish jarayonidagi: texnik va dasturiy vositalarni tanlash; mavzuga doir matniallar to'plash; ulardan maxsus metod, usul, shakllar yordamida maqsadga muvofiq tarzda foydalanish bilan bog'liq tizimni anglatadi. Multimedia texnologiyasining asosiy maqsadi bilimlarni o'zlashtirish uchun qo'l keladigan sodda va qulay tasviriy maxsulot yaratishdir.

Bugungi kunda multimedia mahsulotlaridan inson hayotining barcha jabhalari (biznes, bank, ta'lim, tibbiyot, harb va hk.)da keng foydalanilmoqda. Bu sohalar faoliyatini tashkil etishda multimedia mahsulotlarini yaratish uchun keng ko'lamdagi kompyuter-dasturiy vositalar mavjud.

Multimedia mahsulotlarining texnik va dasturiy vositalari foydalanuvchining ovoz, videotasvir, matn, animatsiya (harakatlanish) yordamida muloqotga kirisha olishida qo'l keladigan apparat va dasturiy vositalarning yig'indisini anglatadi.

Multimedia qurilma vositalariga quyidagilar kiradi:

- ma'lumotni yozib olish qurilmalari;
- ma'lumotni chiqarish qurilmalari;
- manipulyatorlar (manipulyator – mehnat qurollari, mehnat obyektlari, tarkibiy bo'linmalar va elementlarning fazoviy holatini boshqarish mexanizmi. Manipulyatorlar esa monitor ekranidagi kursor bilan buyruq yoki ma'lumotlarni kiritish joyini ko'rsatib ma'lumotni to'g'ridan-to'g'ri kiritishni amalga oshiradi. Kompyuter boshqaruvini yengillashtiradi)¹;

- virtual (xayoliy obyekt, holat yoki vaziyat ma'nolarini anglatadi) borliq qurilmalari;

- axborot tashuvchi qurilmalar;
- tasvirlarni qayta ishlash qurilmalari.

Multimedia elementlari mana shu dasturiy vositalar yordamida birlashtirilib yaxlit tasvir hosil qilinadi. Bu jarayonda soha mutaxassisi bilan kompyuter-dasturchi hamkorlikda ish olib boradi.

Umuman olganda, multimedialar biror sohaga doir bilim va axborotning mukammallashtirilgan shakli hisoblanadi. Bunday

¹ [https://ru.wikipedia.org/wiki/Манипулятор_\(компьютер\)](https://ru.wikipedia.org/wiki/Манипулятор_(компьютер))

ma'lumotlar to'g'ri yaratilishi asnosida bilimlarning mazmuni va samaradorlik darajasi ortadi. Hozirgi kunda multimedialarning dasturiy vositalarini matn bilan bir qatorda tasvir, audio va video axborotlar bilan boyitish, slayd-shou shaklida namoyish qilish imkoniyati ham takomillashib bormoqda.

Multimediadan o'quv jarayonida, xususan, adabiy ta'lim amaliyotida ham keng foydalanilmoqda. O'z sohasini yaxshi ko'radigan, darslari samaradorligi uchun qayg'uradigan o'qituvchilar o'z faoliyatlari davomida internet sahifalariga murojaat qilib darsda o'rganiladigan mavzu doirasida bir qator multimedia materiallaridan samarali foydalanmoqdalar. Bu jarayonda xavfsizlik qoidalariga, internet materiallaridan foydalanish madaniyatiga rioya qilish maqsadga muvofiqdir.

Ta'lim multimedianeing eng ko'p ishlatiladigan sohasi xisoblanadi. Lekin mamlakat miqyosida axborot texnologiyalari kirib bormagan ta'lim muassasalari ko'pligi ham rad etib bo'lmaydigan haqiqat. XTV va OO'MTV mutaxassislari internet tarmog'ini har bir auditoriya, kutubxonalarga ulash maqsadida bir qator ishlarni amalga oshirib kelmoqda. Hozirgi kunda ko'pgina maktablar va kutubxonalar Ziyonet tarmog'iga ulangan. Multimediali elektron o'qitish o'qituvchi va o'quvchi uchun kuchli, qulay va samarali vosita hisoblanadi.

Multimedia o'quv jarayonida katta o'zgarishlarga sabab bo'ladi, natijada o'qitishning an'anaviy usullaridan tashqari usullar ham mavjudligi namoyon bo'ladi. An'anaviy o'qitish usullari faol o'qish-o'zlashtirish modeli bilan almashtiriladi. Bunday ta'lim jarayonida o'qituvchining vazifasi o'qitishdan emas, faqat yo'naltirishdan iborat bo'ladi. O'qish va o'rganish jarayonining asosini o'qituvchi o'rniga o'quvchining o'zi tashkil etadi. Multimediali elektron ta'lim o'qitish jarayonining an'anaviy usullari o'rnini bosadi, ta'lim olish jarayonini mustaqil bilim olish va o'z-o'zini tarbiyalash kechimiga aylantiradi.

Maktablarda multimedia o'quvchilar tomonidan ham foydalaniladigan ko'rinishlari: interaktiv jurnallar, axborotnomalar, shaxsiy multimedia ilovalarini yaratish va hk. o'quvchilar o'zlarining o'quv jarayonlari haqida videolavhalarini yaratishlari, va "Youtube"ga joylashtirishlari ham tezkorlik va keng miqyosni qamrab olmoqda. Bundan tashqari, o'z veb-sahifasini yaratish va internet tarmog'iga joylashtirish ishlari ham jadallik bilan hayotga kirib kelmoqda.

ITV (Interactive TV) orqali turli makondagi o'quvchilar va o'qituvchi bir auditoriyaga jamlanishmoqda¹. Maktablarning internetdagi shaklida turli mamlakatlardan, makonlardan yig'ilgan o'quvchilar o'zaro muloqot o'rnatishlari uchun qulay sharoitlar yaratilmoqda. Shu bilan bir qatorda, o'qituvchi bilan bevosita aloqa vositalari orqali masofadan o'qitish, muloqotga kirishish imkoniyatlari ham ortib bormoqda. Masalan, Telegram, Zoom va boshqa bir qator Online muloqotlar o'quvchi va talabalar uchun qulay o'qish sharoitini yaratdi. Bunda o'quvchi-talabalar bir qator xarajatlardan ozod bo'ladilar, bu boradagi sarf-xarajatlarni internet to'lovlariga sarflash va ko'proq ma'lumot olish ikoniyatiga ega bo'lmoqdalar.

Multimedialarning ijodiy mahsuloti virtual borliq xisoblanadi. Maxsus ko'zoynak, shlem, maxsus qo'lqoplar va g'aroyib interfeys o'quvchi-talabani virtual borliqqa olib kiradi. Bu makonda foydalanuvchining harakatlari orqali tasvir yaqinlashishi, u mos ravishda harakatlanishi, virtual aloqa o'rnatilishi ham amalga oshiriladi. Virtual borliq bilan real aloqaga kirishiladi. Buning uchun maxsus ish anjomlari kerak bo'ladi. Virtual borliq bu kompyuterda yaratilgan har xil o'lchovli muhit (3G, 4G, 5G) bo'lib, virtual makon va foydalanuvchi orasidagi o'zaro muloqotni o'rnatib beruvchi model hisoblanadi. Virtual makon texnologiyalarining texnik asosi kompyuter modellashtirish orqali xarakat imimtatsiyasini yaratish asosida har xil o'lchovli tasvirlar bilan birga virtual maydonda real harakat qilishga imkon yaratiladi. Bu har xil faoliyat turlari dunyo miqyosida kompyuter o'yinlari shaklida juda keng tarqalgan va bugunning bolalari bu borada o'qituvchilarning ko'pchiligini ortda qoldirishi aniq.

O'tgan asrning oltmishinchi yillari oxirlarida amerikalik M. Kryuger tomonidan "Sun'iy borliq" atamasi kiritilgan. Oradan yigirma yillar o'tib "raqamli qo'lqop"lar yaratilgan va hk. Virtual borliq bilan bog'liq kashfiyotlar bugungi kungacha davom etib kelmoqda².

Bugungi kunda telekommunikatsiya tarmoqlari global virtual borliq hisoblanadi. Global tarmoq orqali kitob va jurnallar matnini, badiiy filmlarni ko'chirib olish, real vaqtda yangiliklardan bohabar bo'lish, ta'limga doir o'quv material va videoma'ruzalarni saqlab olish,

¹ <https://ru.wikipedia.org/wiki/ITV>

² https://ru.wikipedia.org/wiki/Крюгер,_Майрон

shahar va qishloqlarning xaritasini ko'rish, zarur bino yoki inshootlarni kuzatish va hk.larni amalga oshirish mumkin. Xizmatlarning har birining o'ziga hos manzil-makonlari bo'lib, ularning har biri amalga oshiriladigan multimediali loyiha xisoblanadi. Bugungi kunda internet tarmog'i orqali dunyoning istalgan burchagidagi shaharlar, restoranlar, dam olish maskanlari, sayohat manzillari haqida ma'lumot olish mumkin. Dunyoning istalgan oliy yoki umumiy o'rta ta'lim muassasalari sahifasiga kirib u bilan hamkorlik qilish imkoniyati mavjud. Afsuski, o'zbek tili bu jarayonning muloqot tili darajasiga ko'tarilmagani bois bu jarayon foydalanuvchilardan hozircha ingliz yoki rus tilini mukammal bilishni taqozo etadi.

Multimedia komponentalarini quyidagilar tashkil etishi haqida yuqorida gapirilgan edi:

- matn;
- audio;
- animatsiya;
- videotasvir¹.

Matndagi har bir simvol bir baytni ifodalaydi. Kompyuterda matn bilan ishlashning qulay imkoniyatlaridan biri gipermatn bilan ishlash imkoniyatining mavjudligidir. "Gipermatn" atamasi matnni ixcham va qulay ko'rinishda ifodalanishi hamda bo'laklar bir biri bilan bog'liq holda ishlashini anglatadi.

Hozirgi kunda murakkab ko'rinishdagi xujjatlarni, jurnal va kitoblarni veb-brauzer yordamida olish mumkin. Bundan tashqari, oddiy matnlar bilan emas, balkin internet bo'ylab sermazmun va qiziqarli sayohat qilish ham mumkin.

Shriftlar grafik simvollardan iborat bo'lib, o'z o'lchami va turiga ega. Shrift bir oilaga mansub o'lcham va stiliga ega simvollar to'plamini tashkil qiladi. Kompyuterdagi dasturiy vositalar qo'shimcha stil atributlarini keltirib chiqaradi.

Kompyuterdagi biror bir loyihani matnsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Matn o'z navbatida turli tasvirlar va simvollar bilan boyitiladi. Hozirgi kunda zamonaviy loyihalar yaratishda audio va video axborotlardan ham foydalaniladi. Bu, o'z navbatida, tinglovchining ham ko'rish, ham eshitish organlari orqali axborot

¹ Anisimova.Мультимедиа.pdf

qabul qilishini ta'minlaydi. Inson turli organlari: ko'rish, eshitish, xis qilish orqali murakkab shakldagi axborotni qabul qilish jarayonida uni xotirasida saqlab qolish samardorligi darajasi yuqori bo'ladi. Multimediali ilovalarda matndan yordamchi ma'lumot, menyu qatorlari, navigatsiya bo'limlari, mundarija va hk. bo'limlarda foydalaniladi.

“Audio” (lot. audio – eshitmoq) atamasi ostida ovoz texnologiyasiga taalluqli bo'lib, foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatuvchi yozilgan ovoz, tovush, bundan tashqari ovoz bilan ishlash tizimi va texnologiyalari tushuniladi. Multimediali axborotning audio komponenti ovozli ma'lumotlarni uzatish uchun xizmat qiladi.

Multimedianing audio komponenti tarkibiga ko'ra: a) musiqiy; b) ovoz va nutq shaklida tasniflanadi. O'z navbatida, ovozni baholashda ikki asosiy ko'rsatkich: 1) ovoz chastotasi; 2) ovoz kuchi mavjud¹. Va har birining o'z o'lchov birligi va xususiyatlari mavjudki, bu bevosita mutaxassislariga daxldor bilimdir.

Animatsiya – (lotincha “anima” so'zidan olingan bo'lib) rux, jon (ruxlantirish, jonlatirish) ma'nolarini anglatadi. Inson tasavvurida timsollarni xosil qilish uchun sun'iy yaratilgan tasvirlarning mantiqiy ketma-ketligi ya'ni harakatga keltirilishi animatsiyani ifodalaydi.

Animatsiya xosil qilish texnologiyalariga fotonusxalashni misol qilish mumkin. Bunda har bir kadr alohida chizib olinadi va tasvirga olinadi. Bu texnologiya “xarakatni yozib olish” deb ataladi. Animatsiyaning quyidagi turlari mavjud:

- chizilgan animatsiya – animatsiyaning bir ko'rinishi bo'lib, xar bir kadr mutaxassislar tomonidan alohida chiziladi;
- qumli animatsiya yoki kukun texnikasi tasviriy san'atning bir yunalishi hisoblanib, multiplikatsiya yaratishda xam qo'llaniladi;
- plastilinni animatsiya har bir kadri plastlin yordamida alohida yaratish orqali hosil qilinadi;
- siluetli animatsiya – yassi figuralar qirqmalari qo'llaniladi (figuralar kog'oz, mato, va boshqa materiallardan qirqib olish natijasida hosil qilinadi);

¹ <https://ru.wikipedia.org/wiki/Аудио>

- kompyuterli animatsiya – hozirgi kunda kompyuterli animatsiya yaratishda eng qulay va zamonaviy texnologiya xisoblanadi¹.

Multimediali obyektlar katta xajmga ega, shuning uchun xam multimedia texnologiyalarida axborotni siqish algoritmi muhim o'rin tutadi. Videosignallar har doim juda ko'p ortiqcha axborotga ega, shuning uchun siqish jarayoni o'tkazish eng kamida 10 barobar qisqartirish imkonini beradi. Siqish vositalarini kombinatsiyalash va integrallash mumkin bo'lishi uchun maxsus standartlar mavjud va ularga amal qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Aks holda foydalanuvchining juda keng miqyosdagi ma'lumotlar orasidan keragini topishi qiyin kechadi. Oxirgi vaqtda bunday standartlar paydo bo'la boshladi va mazkur soha bozori bu standartlar talabiga javob beradigan darajadagi apparat va dasturiy ta'minotlar bilan to'lib boryapti.

Videotasvir kamera orqali olingan tasvirlar ketma-ketligidan xosil qilinadi. Animatsiya uchun har bir kadr alohida yaratiladi va harakat imitatsiya (biror narsaga taqlid qilish, o'xshatma) qilinadi. Video format fayli video fayl strukturasi, ya'ni fayl tashuvchilarda qanday ko'rinishda saqlanishini aniqlab beradi. Bu ham bevosita soha mutaxassislarining bilim ombori materialli hisoblanadi va hk.

Adabiy ta'lim jarayoni, xususan, umumta'lim maktablari adabiyot darslarida o'rganilayotgan o'quv materialiga xos va mos bo'lgan multimedia mahsulotlaridan foydalanish dars samaradorligini ta'minlash bilan birga o'quvchilarni shunday multimedia mahsulotlarini tayyorlashga yo'naltirishi bilan ham diqqatga sazovordir.

Bugun o'quvchilarning kompyuter o'yinlariga kiziqishi hech kimga sir emas va bu davr talabi. Bugungi yoshlar davr bilan, dunyo texnologik hayoti bilan hamnafas yashashga intilmoqdalar.

Adabiyot o'qituvchilari yosh avlodning bu boradagi qiziqishlari va qobiliyatidan oqilona foydalangan holda o'quvchilarni badiiy asarlar mazmuni, qahramonlar faoliyati, asarlardagi tabiat tasviri singari jihatlar asosida multimedia mahsulotlarini yaratishga yo'naltirishi kamida ikki tomonlama muvaffaqiyatga erishish garovidir. O'quvchilar ruhiyatidagi qiziqish juda katta kashfiyotlar

¹ [https://kartaslov.ru/ значение-слова/анимация](https://kartaslov.ru/значение-слова/анимация)

qilishga qodir his. Adabiy ta'limning bu tuyg'udan unumli foydalanishi o'qituvchining ziyrakligi, tashabbuskorligi va yo'naltiruvchi qobiliyati bilan chambarchas bog'liqdir.

Badiiy matnning didaktik tahlili namunasi

«Kuntug'mish» dostonini o'rganish

Umumta'lim maktablari yuqori – sakkizinchi sinflari uchun mo'ljallangan «Adabiyot» darsligidan o'rin olgan «Kuntug'mish» dostoni¹ni muammoli ta'limning **muammoli-dialog** metodidan foydalangan holda tashkil etish mumkin. «Kuntug'mish» dostonini o'rganishga dasturda 4 soat ajratilgan bo'lib, uni o'rganishning dasturiy talqini quyidagicha: *“Xalq dostonlarining millat ruhiyatini aks ettirishdagi o'rni. Xalq epik dostonlarining turlari. Turkiy dostonlarning dunyo dostonchiligi rivojida tutgan yuksak mavqeyi.*

«Kuntug'mish» ishqiy-sarguzasht dostonlarining go'zal namunasi sifatida. Dostonda Ergash Jumanbulbul mahoratining namoyon bo'lishi. Asar syujetining sarguzashtlarga boyligi. Qahramonlar taqdirini belgilovchi hodisalarning maishiy turmushga yaqinligi. Kuntug'mish obrazi. Unga xos jo'mardlik, tantilik, jasurlik va ayni vaqtda soddalik sifatlari. Kuntug'mishning jangchi, oshiq, er, ota sifatidagi xususiyatlari. Kuntug'mish tabiatidagi samimiyat va ishonuvchanlik xislatlari. Xolbeking favqulotda go'zal va mehribonligi. Xolbeka – o'zbek qizlariga xos o'ktamlik, erkalik, shaddodlik va mayinlik sifatlariga ega shaxs. Xolbeka – farzandlari va erining hayoti uchun o'zini baxshida qiluvchi ayol. Dostonda ayollarga xos sershubhalilik, injiqlik, sinchkovlik sifatlarining ishonarli tasvirlanganligi. Xolbeking onalik xususiyatlari tasviri. Dostonda Gurkiboy va Mohiboy obrazlarining mahorat bilan tasvirlanganligi. Gurkiboyga xos bosiqlik, mehribonlik, mulohazakorlik hamda ukasi Mohiboyning quv, tajang, qaytmas yigitcha ekanligi. Bolalar tabiatiga xos xislatlarning ular taqdiriga ta'siri. Dostondagi Buvraxon, Azbarxo'ja, Qosim, Xolmo'min, cho'pon obrazlarining o'ziga xos shaxslar sifatida aks ettirilganligi.

¹ Olimov S. va boshq. Adabiyot. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik. Qayta ishlanian va to'ldirilgan to'rtibchi nashri. – T.: G'afur G'ulom nomidagi NMTU, 2019. – 7–43-b.

*Dostonning badiiy xususiyatlari. Asar syujet chiziqlarida mantiqiy izchillikning kuchliligi*¹.

Sakkizinchi sinf o'quvchilari bilan muammoli-dialog tashkil etish uchun ularning oldiga bilimlarni mustahkamlash bosqichida: «*Siz ikkita doston – «Ravshan» va «Kuntug'mish» bilan tanishdingiz. Sizningcha, ularni nima birlashtiradi va ular bir-birini qanday to'ldiradi?*» tarzidagi va nazorat bosqichida: "*Dostonga berilgan eng maqbul (sizning nazaringizda) talqin qaysi? Sizning nazaringizda uning to'g'riligi va asosliliigi nimalardan iborat?*" shaklidagi turfa javoblarni taqozo etadigan muammoli savol va topshiriqlarni qo'yish mumkin.

O'quvchilar o'z oldilariga qo'yilgan mazkur muammoning yechimini topishilari uchun ularga internet orqali quyidagi bir qator sahifalarga murojaat qilishlari va u yerda ifodalangan fikrlar bilan tanishib o'zlari uchun muhim deb bilganlarini konspektlashtirib olish vazifasi oldindan topshiriladi². O'quvchilar o'zlari istagan, tanlaganlari mavzu bilan bog'liq boshqa saytlardan ham mavzuga doir maqolalarni izlab topishlari ham, mutaxassislarning kitoblaridan foydalanishlari ham mumkin.

Albatta, o'quvchilar bu muammoli masalalarning yechimida faol qatnashishlari uchun avval dostonning didaktik tahlilini amalga oshirish kerak bo'ladi. Buning uchun o'qituvchi quyidagi savol va topshiriqlarga tayanishi mumkin: "Doston matniga tayanib Kuntug'mishning bolaligi va ko'rgan tarbiyasi haqida mulohaza yuriting. Sizningcha, Buvraxon zug'umiga Xolbekaning bergan javobi qiz tabiatidagi qanday sifatlarni namoyon etadi? Buni o'z nuqtai nazaringiz asosida tushuntirishga urinib ko'ring. Xolbekani ko'ndirish uchun mamlakat podshosi ko'rgan chorani qanday izohlaysiz? U boshqa qanday chora ko'rishi mumkin edi, Sizningcha? Xolbekaning: "*Oshiq-ma'shuqlik avvaldan pok bo'lsa, shu sandig'im Kuntug'mishdan boshqaga tegmasin*", - degan niyatiga munosabat bildiring. Qizning niyati ijobat bo'lgani sabablari haqida fikrlashing. Zangarda belgilangan tartiblardan bexabar Kuntug'mishni xavfu

¹ Умумий ўрта таълим мактабларининг 5–9-синфи учун адабиётдан ўқув дастури. – Т.: PTM, 2017.

² <https://asaxiy.uz/product/knigi/badiy-adabiyot/ozbek-adabiyoti/kuntugmish-hallqogzak-i-zhodi?language=ru>; <https://qomus.info/encyclopedia/cat-k/kuntugmish-uz/>; <http://www.e-adabiyot.uz/kitoblar/qollanmalar/867-uzbek-xalq-ogzaki-ijodi.html?start=14>; <https://accredit.uz/product/knigi/badiy-adabiyot/%D1%9Ezbek-adabiyoti/ravshan-hal%D2%9B-o%D2%93zaki-i-zhodi>; <http://library.ziyonet.uz/uz/book/download/7636>

xatardan saqlash notanish kampirga ne sababdan kerak bo'ldi deb o'ylaysiz? Kuntug'mish qanday yigit deb o'ylaysiz? Xolbekaning jamoli tasvirlangan o'rnlarni qayta o'qing. Qizning ko'rinishini tavsiflang. Sizga bu ta'rif yoqdimi? Xolbekaning qaysi sifati sizga ma'qul keldi? Nima uchun? Kuntug'mishning qizni ko'rgandagi holati tasviriga e'tibor qiling. Tasvirga ishondingizmi? Fikringizni asoslang. Kanizlarning savdogar qiyofasidagi Kuntug'mishdan mata ololmaganligini qanday izohlaysiz? Fikringizni matnga tayanib asoslang. Dostondagi *"Xolbeka Kuntug'mishga joy berib, qo'liga bir piyola qandchoy berib..."* tarzidagi tasvirni izohlashga urining. Sizningcha, bu nimadan dalolat beradi? Yigitning: *"O'laman deb yorin ko'rmay ketarmi"*, - tarzidagi qanoatiga tayanib uning shaxsiga xos bo'lgan sifatni aniqlang. *"Omonat, sanamjon, odamning joni, Qilichdan seskanmas botirning tani"* so'zlari Kuntug'mish tabiatidagi qanday sifatni namoyon etadi, sizningcha? Xolbekaning nard o'yiniga bu qadar mohirligini qanday izohlaysiz? Bu hol, Sizningcha, nimadan dalolat beradi? Kuntug'mishning jallodlar qo'lida o'lguncha, ko'shkdan sakrab o'lishga tayyorligini qanday izohlaysiz? Zamonqul, Sizningcha, qanday odam? Fikringizni doston matniga tayanib asoslashga urining. Uning o'limiga nima sabab bo'ldi deb o'ylaysiz? Xolbekaning somonxonadagi holatini tushuntirib berishga harakat qiling. *"Gavharni ne bilsin ushalgan sopol"* ifodasini izohlang. Bu iboraning doston qahramonlari hayotiga qanday aloqasi bo'lishi mumkin, nima deb o'ylaysiz? *"Paydo bo'ldim ikki gavhar donadan"* iborasini o'z tushunchangiz doirasida sharhlang. Xolbekaning: *"Esiz, yorim yolg'iz ekan onadan, Merganlar irim qib otmas yolg'izni"*, - tarzidagi so'zlari mazmunini sharhlang. Yigitning: *"Yalinib dushmandan obro' olguncha, Mardonalik bilan o'lgan yaxshidir"*, - tarzidagi fikri uning shaxsiyatidagi qanday fazilat dalolat beradi deb o'ylaysiz? Kuntug'mishning: *"Nomus bilan orim ketdi, Qatorimda norim ketdi"*, - tarzidagi iztirobli so'zlarini sharhlang. Siz uni qanday tushundingiz? Kuntug'mish bilan tanishgan cho'pon haqida fikr bildiring. Uning insoniy fazilatlarini haqida doston matniga tayanib mulohaza yuriting. Buvraxonning Xolbekaga qarata aytgan: *"Qarayman, etaging kebdi yenglikka"*, - shaklidagi mazaxnamo ta'nasini qanday tushundingiz? Munosabat bildiring. Xolbekaning: *"Vo hasrato, ichar suvim loylandi, Falokat boshima yomon aylandi"*, - tarzidagi shikoyatida nimalar ifodalangan, Sizningcha? Gurkiboy

bilan Mohiboyning cho'ponlar hamda baliqchilar qarorgohidan qochishga majbur qilgan gunohlari ularning tabiatidagi qanday sifatlardan dalolat beradi, Sizningga? Daryoning u qirg'og'idagi Mohiboyning do'stlik taklifi zamirida qanday fikrlar mavjud deb o'ylaysiz? Buning sabablarini tushuntiring. Mohiboyning: *"O'zim yetim, yetimlikdan kamim yo 'q"*, - shaklidagi iqrori zamiridagi ma'noni izohlashga urinib ko'ring. U, Sizningcha, nimani ko'zda tutgan bo'lishi mumkin? Mohiboyning: *"Oh ursam, g'amxona ko'nglim jo'shadi, Alam tortdim, bandi buvnim bo'shadi"*, - shaklidagi e'tirofini sharhlashga urinib ko'ring. *"G'amxona ko'ngil"* iborasi, Sizningcha, nimani anglatadi? Aka-ukalarni bir-biridan ajratib turgan daryoga Mohiboy emas, Gurkiboy tushgani sabablarini yigitlarning tabiatidan kelib chiqib izohlang. Gurkiboy tilidan aytilgan: *"Aql degan oqib yotgan ariqdir, Birov ko'proq, birov ozroq olibdir"* so'zlarini o'z tushunchyaangiz doirasida izohlang. Xolbekada: *"Shu ikkovi ikki bolam bo'lmasin?"* shaklidagi fikrning paydo bo'lishiga asos bo'ladigan sabablarni aniqlang. Onaning g'ayri tabiiy, izohlash mushkul bo'lgan tabiati haqida o'ylab ko'ring. Mohiboyning ko'ngilsiz qiliqlari haqida nima deysiz? U podshoning yilqilarini chindan ham o'g'irlamoqchi edi deb o'ylaysizmi? Xolbekaning bolalari osiladigan dorga murojaatini nima bilan izohlash mumkin? Aka-ukalarning dor tagidagi tortishuvi sabablarini izohlang. Akaning: *"Yo'l meniki"*, - degan so'zlari sababini izohlang. U "yo'l" deganda nimaning nazarda tutayotganini tushuntiring" va hk.

Shu savol va topshiriqlar asnosida o'quvchilarini asarning mohiyatiga chuqur olib kirgan, ularni dostonidagi har bir qahramonning xarakter-xususiyatlarini farqlashga yo'naltirgan o'qituvchi muhokamalardan so'ng ularga yuqoridagi muammoli masalaning birinchi qismini qayta eslatadi: **«Siz ikkita doston – «Ravshan» va «Kuntug'mish» bilan tanishdingiz. Sizningcha, ularni nima birlashtiradi va ular bir-birini qanday to'ldiradi?»** "Xolbekaning tushini izohlang. Siz avval o'qigan qaysi asarda tush detalidan foydalanilgan edi? Uning "Kuntug'mish" dostonidagiga o'xshash va farqli jihatlari haqida to'xtaling. Har ikkala dostonidagi oshiq va ma'shuqalar timsollarini taqqoslang. Oshiq-ma'shuqlarning muhabbat yo'lida chekkan iztiroblari misolida xalqning bu boradagi qarashlarini to'plagan materiallaringiz asosida baholang" singari bir

qator savol va topshiriqlar o'quvchilarni muammoning yechimi sari yetaklaydi.

O'quvchilar o'z javoblarida o'qigan asarlari, darsliklardagi har ikkala doston haqidagi maqolalar, qo'shimcha akdabiyotlar va internet materiallari asosida to'plagan ma'lumotlariga, adabiy tanqidchilikdagi qarashlarga tayangan holda fikr aytadilar. Bir-birlarining fikrlariga munosabat bildiradilar. Bu jarayonda o'qituvchining yordamchi savollari asnosida o'z qarashlarini konkretlashtiradilar. "Kuntug'mish" dostonining boshqa varianti haqida fikr aytilganda ikkala variantdagi o'xshashlik va farqli jihatlar haqida ham mulohaza yuritishga undalib: "Ma'shuqasidan xabar topgan Kuntug'mishning singlisidan ruxsat olishni so'rab uning o'ziga emas, balki o'zining yigitlariga murojaat qilganligi sababini tushuntirib bering" tarzidagi turfa savol va topshiriqlar ham o'quvchilarning adabiyotshunoslik ko'nikmalarini takomillashtirishga ko'maklashadi.

So'ngra, o'quvchilar to'plagan materiallari asosida: "***Dostonga berilgan eng maqbul (sizningcha) talqin qaysi? Sizning nazaringizda uning to'g'riligi va asosliligi nimalardan iborat?***" tarzidagi savollarga javob berar ekanlar, anglab-anglamay o'zlarida adabiy sinchilikning belgilarini namoyon etadilar. Ziyraknazar o'qituvchi o'quvchilarida bo'y ko'rsatgan bu sifat-qobiliyatni ilg'ab olib uni rivojlantirish yo'lini tutgani maqsadga muvqofiq bo'ladi.

Savol va topshiriqlar:

1. Multimedia deganda nimalarni tushunganingizni o'z so'zlaringiz bilan izohlab bering.

2. Multimedyaning apparat vositalariga tegishli bo'lgan jihozlarni tasavvur qila oldingizmi? Buni kompyuter oldida, bir tasvir misolida tahlillashga urinib ko'ring.

3. Multimedia dasturiy vositalariga bevosita multimedialar asosida misollar keltirib tushunishga va tushuntirib berishga qodirmisiz? Urinib ko'ring-chi.

4. Multimedia texnologiyalarining adabiy ta'limda qo'llanilishi borasida yuqoridagilarga qo'shimcha ravishda nimalarni ayta olasiz?

5. Multimedia texnologiyalarining maktab adabiy ta'limi uchun afzalliklari va xususiyatlarini biror badiiy matn misolida tushuntirib berishga urinib ko'ring.

6. Birorta multimedia mahsulotini adabiy ta'lim amaliyotida qanday qo'llashni misollar asosida tashkil etib bering.

7. «Kuntug'mish» dostoni bo'yicha qo'yilgan muammolarning yechimini amalga oshiring. Internet materiallari asosida muammolarga yechim toping.

8. Muammoli ta'lim texnologiyasi mavzusida o'rganganlaringizga tayanib «Kuntug'mish» dostoni matni asosida boshqa muammoli savol va topshiriqlar tuzing. Ularning eng muammolisini amaliy mashg'ulotda muhokamaga torting.

9. O'zingiz biror asar misolida multimedia mahsuloti yaratishga urinib ko'ring.

10. Internet materiallari asosida «Jahon va milliy adabiy ta'lim» mavzusida maqola tayyorlang. Yutuq va kamchiliklarni taqqoslang.

17-MAVZU. ADABIY TA'LIM METODLARI VA USULLARI HAMDA ULARNING O'ZARO ALOQADORLIGI

Reja:

1. *Adabiy ta'lim metodlarining mazmun-mohiyati.*
2. *Adabiyot o'qitish shakllari va usullari.*
3. *Adabiyot o'qitish metodlarining o'zaro o'xshash va farqli jihatlarini.*
4. *Badiiy matnning didaktik tahlili namunasi.*

Bugungi adabiyot o'qituvchisidan o'quvchi ma'naviyatining sog'lomlashuvi asosi bo'lgan bir qator an'anaviy va mantiqiy metodlar (suhbat, evristik, tadqiqot, taqqoslash, induktiv, deduktiv) bilan birga "fikriy hujum", "6x6" va hk. interfaol metodlardan ham samarali foydalana bilish talab etiladi. Ma'lumki, pedagogik yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalari "Umumiy pedagogika" kursida ta'lim metodlari va ularning mazmun-mohiyati haqida batafsil bilim beriladi. Talabalarni takrorlardan qo'rg'ash maqsadida ta'lim metodlarining adabiyot o'qitish amaliyotiga bevosita daxldor bo'lgan ayrimlari xususida qisqacha ma'lumot eslatib o'tiladi.

Adabiy ta'lim amaliyotida hamisha yetakchi o'rinlardan birini egallab kelgan **suhbat metodi** o'quvchi tafakkuri mustaqilligini ta'minlashda, uni erkin ijodiy faoliyatga yo'naltirishda ham qo'l keladigan metodlardan biridir. Metodika ilmida bu metodga bag'ishlangan anchagina ishlar mavjud. Jumladan, A. Tojievning "Adabiyot darslarida suhbat" qo'llanmasida adabiy ta'lim samaradorligini ta'minlashda suhbat metodining o'rni va ahamiyati haqida so'z yuritilgan¹.

Bugun ta'limda yangi bilimlar, ma'naviy sifatlarning "kashf etilishi" o'quvchilar ishtirokida o'qituvchi tomonidan emas, balki o'quvchilarning o'zlari tomonidan o'qituvchi ishtirokida amalga oshirilishi talab qilinmoqda. Bunday qayta kashfiyotlar asar ustida ishlash davomida o'qituvchi va o'quvchining jonli muloqotida, tom ma'nodagi izlanuvchi suhbatlarda amalga oshadi. Darsda yaxshi tashkil etilgan suhbatning ahamiyati shundaki, u yosh kitobxonning

¹ Тожиёв А. Адабиёт дарсларида суҳбат. –Т.: «Ўқитувчи», 1997.

o'qiganlariga o'z munosabatini bildirish, qarashlari bilan o'rtoqlashish kabi ehtiyojlarini qondiradi.

Suhbatda ishtirok etgan o'quvchi o'z fikrlarini muhokama qiladi, qarashlarini so'z bilan ifodalashga tayyorlanadi. Bu fikrning aniq va muayyan maqsadga yo'naltirilishini ta'minlaydi. Suhbat jarayonida o'quvchida o'z fikrini aytish, uning to'g'riligiga hamsuhbatlarini ishonitirish ehtiyoji tug'iladi. O'quvchida o'z fikrini isbotlash uchun asar matnidan dalillar topa bilish, misollar keltirish ko'nikmasi shakllanadi, e'tiroz bildirishga odatlanadi. Suhbat o'quvchini hamsuhbatni eshitish, munozarada ishtirok etishga o'rgatadi, o'z bilimini chuqurlashtirishga ehtiyoj tug'diradi, qiziqishlari doirasini kengaytiradi.

Adabiy asarlarni o'rganishda suhbat metodi o'quvchiga nafaqat bilimlar beradi va tarbiyalaydi, balki aqliy faoliyatga ham yo'naltiradi. Suhbat xotirani, kuzatuvchanlikni, bilish jarayonini, tasavvur va hissiyotni faollashtirishga imkon beradi. Suhbat davomida har bir o'quvchining individual jihati namoyon bo'ladi. Adabiyot darslarida to'g'ri tashkil etilgan suhbatlarda bitta masala bo'yicha bir nechta o'quvchi, ba'zan butun sinf fikr aytadi. O'qituvchi tomonidan bitta murakkabroq, bolalarni o'ylashga, munosabat bildirishga undaydigan mavzu o'rta tashlanadi va suhbat asnosida shu masala ustida birgalikda ishlanadi. O'qituvchi sinfning faoliyatini kuzata borib, uni yo'naltiradi, shu bilan birga o'quvchilarning o'zlari ishlashlari uchun sharoit yaratadi.

Suhbat metodi adabiy ta'limning barcha bosqichlarida: kirish darslarida ham, badiiy asarni o'zlashtirishda ham, uning tahlili mobaynida ham, yakunlovchi bosqichida ham qo'l keladi. Adabiyot darslarida suhbatning asosiy talablaridan biri – savollarning shakl tomonidan ham, mazmun jihatidan ham har xil bo'lishi. O'quvchiga bir xil narsa bilan uzoq shug'ullanish o'ta salbiy ta'sir qiladi. O'quvchini o'ylantiradigan, mustaqil ravishda mulohaza yuritishga undaydigan savollarni tayyorlayotganda o'qituvchi sinfdagi barcha o'quvchilarning rivojlanganlik darajasini nazarda tutishi lozim bo'ladi.

Bundan tashqari, suhbat uchun tuzilgan savollar o'quvchi ruhiy faoliyatining xilma-xilligini ham ta'minlashi kerak. O'quvchining savolga javob berish uchun o'ylanishi, eslashi, tasavvur qilishi, izlanishi unda shaxslik sifatleri shakllanishida juda foydalidir. Suhbat

uchun tuzilgan savollar orasida o'zaro kuchli mantiqiy aloqa bo'lishi kerak. Savol ko'magida asardan o'quvchi tomonidan kashf qilingan mantiq bilan asar muallifi fikrlari murakkab yaxlitlikni tashkil etishiga e'tibor qaratilishi maqsadga muvofiqdir.

Badiiy asar o'quvchi uchun hayotni, odamni bilish, shu asosda o'zligini anglash va baholash o'lchoviga aylanganda chinakamiga qadrlı bo'ladi. Suhbatlar jarayonida o'quvchilarning hayot bilan uzviy aloqasini ta'minlash uchun o'qıtuvchi asar ustida ishlash jarayoniga ularning kitobxonlik va hayotiy tajribasi bilan bog'liq savollarni ham kiritishi o'rinlidir. Bunday savollarning yo'nalishi nafaqat asar mohiyati ochilishiga, balki o'quvchi xarakteri shakllanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Suhbat davomida o'quvchi asar haqidagi dalillarni aniq bilgandagina o'z qarashlarini aytishi mumkin. Lekin ko'pincha, bunday vaziyatlarda bilimning, dalilning o'zi kamlik qiladi. O'quvchi asarni mustaqil tahlil qila bilishi, xulosalar chiqara olishi kerak bo'ladi. Asar matni yuzasidan izlanishga undaydigan tarzda tuzilgan savol-topshiriqlar ham shunga qaratilishi lozim. Yaxshi savol ahamiyatli, keng qamrovli, o'ylashga, his qilishga, izlanishga majbur etadigan, kashfiyotlar qiladigan, tasavvur uyg'otadigan bo'ladi. Jaloliddin Rumiy hazratlari: "Yaxshi savol yarim bilimdir", - deb bejiz aytmagan.

Yuqori sinflarda asar muallifi timsolini tushunish uchun suhbatlarning soni ham, doirasi ham kengayadi. O'quvchilar ko'p asarlar orasidan ayni adibning ovozi, uslubi, shaxsini ajrata olishi, unga yaqinlashishi, uni his qilishi lozim. Lirik asar yuzasidan tashkil qilingan suhbatlar qaysidir o'rinlarda muallif timsolidagi, uning fikr va tuyg'ulari olami haqidagi suhbatlarga buriladi. Suhbatlar o'quvchini qiziqtirgandagina uning shaxsiyati, ma'naviyati uchun samarali bo'ladi. Odatda, o'quvchilarga tushunarli bo'lgani holda, javob berish bir qadar qiyinchilik tug'diradigan mantiqli savollar qiziqarli tuyuladi. Ular - o'quvchi uchun o'ziga xos topishmoq. O'quvchilarda emotsional holat hosil qilishda, eng asosiy yumush muhokama jarayonini bog'lab turadigan sasosiy savolni tuza bilish.

Yuqori sinflardagi suhbatlarda beriladigan savollar nafaqat tez tasavvur qilish yoki matnni bilishni, balki zarur materialni tanlash, ularni tizimga solish, anglash, tahlil qilish va munosabat bildirishni ham talab qiladi. Suhbatlarda foydalaniladigan savollar har xil bo'ladi:

ayrimlari o'quvchini asar matnini qayta o'qishni, misollar ajratishni, dalillar topishni talab qilsa, ba'zilari asar matnini tahlil qilishni taqazo etadi. Ammo bu savollarning har biriga beriladigan javob mehnatni, aqliy va ruhiy zo'riqishni talab qiladigan bo'lishi o'rinlidir.

O'quvchilar suhbat davomida savollarga hamisha ham asoslangan, jiddiy javoblarni beraverishmaydi. Savollarga o'quvchilarning to'laqonli javob berishida o'qituvchining yordamchi savollari ham qo'l keladi. Amaldagi 6-sinf "Adabiyot" darsligida X. To'xtaboyevning "Sariq devni minib" asaridan parcha berilgan¹. Shu asarni suhbat metodidan foydalangan holda o'tish uchun "Muallif o'quvchini Hoshimjonning tabiati bilan qanday tanishtiradi?" degan asosiy savol o'rta tashlanadi. O'quvchilar uning mohiyatiga chuqurroq kirishlari uchun esa: "Hoshimjonning tashqi jihati, xatti-harakatlarida qanday belgilar ko'zga tashlanadi?", "Uning o'rtoqlari bilan munosabatida qanday xususiyatlarni ko'rish mumkin?", "Singlisiga munosabatida Hoshimjonning fe'lidagi qanday jihatlarni ilg'adingiz?", "Uning onasi bilan munosabatlarida-chi?", "Hoshimjonning jurnalga baholarni o'zi qo'yanini tan olishini qanday baholash mumkin?" singari yordamchi savollar taqdim etiladi. Ular o'quvchilarni asar matnini mustaqil ravishda tahlil qilib, mustaqil xulosalar chiqarishga, qarashlarini asoslashga ko'maklashadi.

Suhbatni elvizak metod ham deyishadi. Undan badiiy asar ustida ish olib borish uchun har bir sinfda foydalanish mumkin. Yuqori sinflarda suhbat metodi o'quvchilarning mustaqil ishlari va ma'ruzalari bilan birgalikda amalga oshiriladi. Suhbatga tayyorlanishda o'qituvchi o'quvchilar bilan jonli muloqot jarayonida yuz berishi mumkin bo'lgan favqulodda holatlarga, tayyorlagan savolini vaziyatga qarab o'zgartirishga tayyor turishi joizdir.

Suhbat metodida bilim berish ustuvorlik qilmaydi. Balki o'quvchilarda olingan bilimlar, o'zlashtirilgan fazilatlarini mustahkamlash, munosabat bildirish, tuyg'ularni so'z bilan ifodalash, uni asoslash, o'z fikrida tura bilish xususiyatlari tarbiyalanadi. O'qituvchidan birinchi savoldan keyin o'quvchilar kayfiyatini ilg'ab olish, savol tushunarli bo'lganini his qilgan holda suhbatni yangi-

¹ Ахмедов С., Кўчкоров Р., Ризаев С. Адабиёт. 6-синф учун дарслик-мажмуа. – Т.: «Маънавият», 2005. 10-б.

yangi yo'nalishlarga burish talab qilinadi. Suhbat metodi asosida tashkil qilingan darsning ichki tartibi shu tariqa yaratiladi.

Suhbatni muvaffaqiyatli tashkil etishning shartlaridan biri – o'quvchilarning javoblariga e'tibor va hurmat bilan yondashishdir. Javob berayotgan o'quvchining fikrlari ba'zan chalkashib ketishi yoki noaniq bo'lishi tabiiy. O'qituvchining vazifasi uni butun sinfga tushunarli qilib aytib berish emas. Bu adabiy ta'lim metodikasida mutlaqo noto'g'ri yo'l hisoblanadi. O'quvchi aytmog'chi bo'lgan fikrini qiynalib, izlanib, munosib so'zlarni topib, o'zi ifodalashi kerak. Uni boshidan shunga o'rgatish lozim. O'quvchining fikrini aytishga o'rinsiz ko'maklashish uni o'ylamaslikka o'rgatib qo'yadi. Agar yordam berish kerak bo'lsa, qo'shimcha savollar bilan o'quvchining o'z fikrini aniqroq ifodalashiga ko'maklashish mumkin.

Suhbat jarayonida o'qituvchi va o'quvchi munosabatlari nafaqat savolning to'g'ri qo'yilishi, balki o'qituvchining har xil xarakterdagi javoblar orasida o'zini yo'qotmay suhbatni boshqara bilishiga ham bog'liq. Yaxshi tashkil qilingan suhbatlarda o'qituvchi-o'quvchilar fikr va qarashlari bilan hisoblashadigan teng huquqli suhbatdoshlarga aylanadi. O'qituvchi o'quvchi javoblaridagi sillqlikni birinchi o'ringa ko'tarmasligi kerak. O'qituvchi o'quvchi javoblarini muntazam ravishda tuzatib, to'ldirib borishi ham noto'g'ri. Albatta, o'quvchining xulosasi o'qituvchining fikridek to'kis bo'lmaydi. U to'mtoq, jo'n, jaydari, tarqoq bo'lsa ham adabiy ta'lim uchun olimnikidan qadrliroq, o'qituvchinikidan qimmatliroq. Chunki u hech kimni – muallifni ham, muallimni ham takrorlayotgani yo'q. Bu o'quvchining o'z mustaqil fikri, o'z xulosasi. O'quvchining fikr ifodalashida mantiq, madaniyat va bilimni ta'minlash, boshqalarning fikriga munosabatda aytganlari uchun javob bera olish hissini tarbiyalash o'qituvchining vazifasi hisoblanadi.

Suhbat bu ovoz chiqarib mulohaza yuritish, bir savol atrofida birgalikda o'ylashdir. Asar ustida ishlash jarayonida bo'ladigan suhbatlar nafaqat ovoz chiqarib fikrlash, balki ovoz chiqarib his etish ham. O'quvchilar hamisha ham tuyg'ularini so'z vositasida ochiq ifodalayvermaydilar. Asl tuyg'ularning tabiati shunaqa, ularni hamisha ham so'zga ko'chirib bo'lmaydi. Tortishuvlar uchun vaziyat yaratish suhbat jarayonida o'quvchilar mustaqil fikrlashini faollashtirishning muhim yo'llaridan biri.

Suhbat jarayonida o'qituvchining diqqati faqat bir nechta o'quvchiga qaratilib qolsa, jamoa suhbatini buziladi. Qolgan o'quvchilar tezgina tinglovchilik mavqeiga o'tib oladilar. Sinfda "suhbatda faqat a'lochi o'quvchilar qatnashadi" degan qarash shakllanib qoladi. Chinakam suhbat o'qituvchi savol berib, birinchi bo'lib javob bergan o'quvchining fikri bilan chegaralanib qolmay, boshqa o'quvchilarning mulohazalari bilan ham qiziqish, barcha o'quvchilarning fikrlarini eshitib bo'lgachgina javoblar sifatini baholash bo'lgan joyda amalga oshadi. Suhbatlarda o'quvchilar o'zlarini teng huquqli suhbatdoshlar darajasida his qilgandagina maqsadga erishiladi. Suhbatdagi tenglik, shu bilan birga undagi tabiiylik, samimiylilik, erkinlikni o'qituvchi tashkil etadi. Sinfga tashlangan umumiy savol ba'zan ayrim yo'naltiruvchi qo'shimcha savollarni ham taqozo etadi.

O'qituvchi savol berayotganda ovoz ohangining tovlanishi ham suhbat samaradorligini ta'minlashga ko'maklashadi. Savolning berilish ohangi ba'zan o'quvchiga javobning yo'nalishini belgilashga ko'maklashishi mumkin. Suhbatlar o'qituvchining qiziqarli luqmalari, munosabatlari bilan jonli chiqadi. O'qituvchi o'zining noo'rin savollari va luqmalari bilan o'quvchilarda tuyg'ular shakllanishiga halaqit berib qo'yishi mumkinligini ham unutmagan ma'qul. U baland, hukmron ovozda gapirmasligi, hatto, eng jo'n, qashshoq fikrlar aytilganda ham kulmasligi, e'tiroz bildirmasligi o'quvchilardan faqat to'g'ri fikrlashni talab qilmasligi kerak. Suhbat davomida shunday lahzalar bo'ladi, o'qituvchining sukuti barcha xususiyatlari bilan savolga, luqмага, bazan esa xulosaga teng bo'ladi. Shu o'rinda marhum metodist olim Ro'zmon Keldiyorovning o'qituvchi shaxsiga qo'ygan "Ehtiyot bo'ling, qalb bor!" degan da'vatini qo'llash juda o'rinli bo'ladi.

Suhbatning yakunlangani savolning kun tartibidan tushib qolishi degani emas. Aksincha, o'qituvchi tomonidan yaxshi tashkil qilingan suhbatning yakunlanishi sinfda muhokama qilinadigan yangi-yangi savollarning tug'ilishiga sabab bo'ladi. Suhbat o'zining tabiiy kuchi, samimiy insoniy muloqotga asoslanganligi bilan qadimiy metodlardan sanaladi.

Suhbat metodini qo'llash o'quvchi tafakkuri va bilim olishdagi mustaqilligining nisbatan baland darajasini ta'minlashi tayin. Mazkur metodda o'qituvchining faoliyati o'zlashtirilgan axborotlarni yodga soladigan savollar qo'yish, tegishli topshiriqlar berish, qiziqarli

savollar tuzish, bilimlarni yangi vaziyatga muvofiqlashtirish va qayta ishlashga yoʻllaydigan savollar berish, xulosa chiqarishga undash, chiqarilgan xulosalarni asoslashni talab qilishdan iborat. Oʻquvchining faoliyati esa vaziyatni tahlil etish, oʻzlashtirilgan axborotlarni yodga soladigan savollarni qayd etish, ularga javob izlash, javob berish, yarim mustaqil va mustaqil xulosalar chiqarish, fikrlarini asoslashdan iborat boʻladi.

Suhbat metodi oʻqituvchining oʻquvchilar jamoasi bilan dialogik hamkorligini nazarda tutadi. Bu metodning mohiyati oʻqituvchi tomonidan oʻquv materialini qiziqarli tarzda bayon etish, oʻquvchilarni javob topish yoʻllarini izlashga, bilim va maʼnaviy sifatlar, xulosa, qonuniyat va qoidalarning bolalar tomonidan qayta kashf etilishiga jalb qilishdan iboratdir.

Suhbat metodiga xos boʻlgan xususiyatlar quyida fikr yuritiladigan barcha metodlarning zahirida mujassamlangan.

Adabiyot darslarida oʻquvchi maʼnaviyatining tozarishida qoʻl keladigan metodlarning navbatdagisi **evristik metod**dir. Bu metod *evristika* (yunoncha *izlayman, topaman* degan maʼnolarni anglatadigan "*heurisko*") soʻzidan olingan boʻlib) – mahsuldor ijodiy fikrlash jarayonini tashkil qilishni nazarda tutadi. Oʻquvchi maʼnaviy kamolotini taʼminlashda qoʻl keladigan evristik metod uning oldiga yoʻnaltiruvchi masalalar qoʻyish, tekshirish, hal etish, aks savollar vositasida oʻqitish usuli hisoblanadi. Evristik metoddan foydalanganda oʻqituvchi oʻquv materialining suhbat metodida foydalangan tizimini toʻliq qoʻllashi mumkin. Faqat uning tarkibi qoʻshimcha bilim olishga yoʻnaltiradigan savollar bilan toʻldiriladi.

Mazkur metod tahlili shuni koʻrsatadiki, u suhbat metodida boʻlgan barcha usullarning birgalikda qoʻllanilishini taqozo etadi. Evristik metodda yetakchilik qiladigan savollar qoʻzgʻotuvchi ahamiyat kasb etadi. Bunday asosdagi suhbat tizimi topshiriqni bajarish, jarayonni kuzatish, savollarga javob berish, maʼlumot olish, xulosa chiqarish va xulosalarni taqqoslash yoʻlga qoʻyilganda, oʻquvchilarning fikrlash hamda bilim olish mustaqilligi ancha koʻtariladi. Oʻquvchilar taqqoslash, tahlil qilish, dalillar keltirish bilan birga maʼlum umumlashmalar qiladilar, farazlarni ilgari suradilar, zarur ashyolar, materiallar toʻplaydilar, xulosalar chiqaradilar, oʻz faoliyatini rejalashtiradilar. Bu oʻqitishning yangi usullari boʻlmish bilimlarni faollashtirish zaruratini tugʻdiradi.

Evristik metoddan foydalanib ta'lim jarayonida belgilangan maqsadga erishish uchun o'qituvchi xabardorlikni talab qiluvchi savollar qo'yish, taqqoslash uchun materiallar taqdim etish, farazlarni ilgari surish, ularni tasdiqlovchi tajribalar qilish, kuzatish uchun topshiriqlar berish, tahlilga yo'naltirish, qiyoslash uchun murakkab amaliy topshiriqlar berish, muammoli savollar qo'yish, muammoli vaziyatlar hosil qilishi kerak bo'ladi. Shu metodda tashkil qilingan darslarda o'quvchilarning faoliyati bilimlarni vaziyatga muvofiq qo'llash, taqqoslash, farazlarni ilgari surish va asoslash, kuzatish, farazning to'g'riligini tekshirish, tajriba tahlili, bilimlarni o'zgartirgan vaziyatlarda qo'llash, dalillar keltirish, umumlashtirish, mustaqil amaliy ishlar tahlilini amalga oshirish, muammoli masalani hal etish kabilarni o'z ichiga oladi.

Evristik metodda taqdim etilgan savol, topshiriq va ko'rsatmalar ogohlantiruvchi xususiyat kasb etadi. Ya'ni ular topshiriqning bajarilishi oldidan, mazkur bosqichga moslab qo'yiladi yoki uning yechimi davomida o'rta tashlanadi. Adabiy ta'lim jarayonida qo'llanilgan evristik metod o'quvchilarning fikr mustaqilligini ta'minlaydi, ularda mmantiqli mulohaza yuritish, muhokama qilish, xulosa chiqarish ko'nikmasini shakllantiradi.

Tadqiqot metodi ham o'quv jarayonida bir muncha qiyin bo'lgan nazariy yo'nalishdagi masalalar ko'tarilishini nazarda tutadi. Bu metodda bilim olishning nisbatan yuqori bosqichida ta'limning samarali izlanish usullarini mustaqil ravishda qo'llash talab qilinadi. Bunda o'quvchilar dalil to'plash va ularni nazariy tahlil qilish, tizimga solish, umumlashtirish va ilmiy xulosalar chiqarish kabi amaliy ishlarini bajaradilar. Tadqiqot metodining evristik metoddan farqi shundaki, "kashfiyot" avvaldan ajratilgan materiallar tahlil qilinib, faktik materiallar umumlashtirilganidan so'ng, amaliy ish jarayonida sodir bo'ladi. Bunda o'quv-biluv faoliyatining to'liq turkumini o'quvchilar o'qituvchi rahbarligida o'zlari bajaradilar. Ya'ni ma'lumot to'plashdan tortib, uni tahlil qilish va yangi bilimlarni amaliyotda qo'llashgacha bo'lgan ishlarning barchasini o'quvchilar o'zlari mustaqil ravishda amalga oshiradilar.

O'quvchilar tomonidan faktik material to'plash tadqiqot metodining zaruriy qismidir. Mustaqil ravishda tajribalar o'tkazish o'quvchining bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshiradi. O'qituvchi o'quvchilar ixtiyoriga dalillarni topish, ularni taqqoslash, tizimga

solish, umumlashtirishni topshirgani bilan uning muammolik darajasi kamaymaydi. Tadqiqot metodini qo'llashda topshiriqlarning o'quvchilar tomonidan bajarilishi muhim hisoblanadi. Topshiriqlarni bajarishda ularning biror bosqichi tushib qolsa, topshiriq o'z tadqiqiyiligini yo'qotadi.

O'quvchilarning rivojlanganlik darajasi mustaqil ravishda tadqiqot ishlarini olib boradigan darajaga etganda, ya'ni yuqoriroq bosqichiga o'tilganda tadqiqot metodidan foydalaniladi. Bunda o'quv materiali evristik metoddagiday tuzilishi kerak bo'ladi. Savollar, ko'rsatmalar, topshiriqlar tartibi ham shunday bo'ladi. Tadqiqot metodini qo'llaganda savol-topshiriqlar bosqichning so'ngida, o'quvchilarning ko'pchiligi muammoni hal qilib bo'lgandan keyin qo'yiladi. Bu kuchli o'quvchilar uchun mo'ljallangan metod bo'lib, muammolarni hal etishda o'z-o'zini nazorat qilish va tekshirish usuli sanaladi. Rivojlanishi nisbatan sustroq bo'lgan o'quvchilarga ularning o'zlari darajasidagi topshiriqlar beriladi. Topshiriqlar har bir o'quvchining individual imkoniyatlariga qarab taqsimlanadi. Tadqiqot metodidan nafaqat yangi asarni o'rganish, balki uni mustahkamlash va badiiy tahlil bosqichida ham foydalanish mumkin.

O'quvchining ijodiy imkoniyatlarini aniqlash uchun o'quv ishlarining asosiy usullarini tahlilga tortilgan matnni o'zlashtirish imkoniyatlari darajasiga qarab aniq belgilash zarur. Tadqiqot metodini qo'llaganda ham o'quvchi bilimlarni o'zlashtirish jarayonida foydalaniladigan tahlil, sabab-oqibat orasidagi aloqadorlikni belgilash, taqqoslash, birlashtirish, o'z farazlarini keltirish, isbotlash, rejalashtirish singari usullarni istifoda etish mumkin. Tahlil va sabab-oqibat orasidagi aloqadorlikni belgilash usuli adabiy ta'limda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ijodiy jarayonda, bilmaslikdan bilishga o'tish yo'lidagi qiyinchiliklarga yo'liqqan o'quvchilarning analiz-sintez faoliyatida ruhiy holatning ahamiyati ko'zda tutilmog'i zarur.

Adabiy ta'limda tadqiqot metodidan foydalanish, asosan, badiiy timsol taqdiri, ro'y bergan vaziyatning sabablari, omillarini tekshirishga qaratiladi.

Taqqoslash metodi ham yangi bilim va tushunchalarni o'zlashtirishda keng qo'llaniladigan ta'lim metodi hisoblanadi. Yangi o'zlashtiriladigan bilimlarni avvalgilari bilan taqqoslash usuli, o'z navbatida, yangi tushunchalarni mustaqil ravishda tadqiq qilishning bir ko'rinishidir. Taqqoslash metodi asosida o'quvchilarda

sinfdoshlarining isbot va dalillariga o'zlarining mantiqiy qarashlarini qarshi qo'yishga intilishlari yotadi.

Mavzularni taqqoslash asosida isbotlashning o'qituvchi tomonidan o'quv materialini tanlash ham, uning o'quvchilar tomonidan egallanishi ham juda qiyin kechadi. Sababi, bu usuldan hamisha har xil vaziyatlarda, holatlarda foydalanishga to'g'ri keladi. Qiyin mavzularni taqqoslab o'zlashtirish bilim egallashda unchalar qiynalmaydigan o'quvchidan ham anchagina fikriy zo'riqishni talab qiladi. Adabiyot darslarida bu metoddan foydalanilganda o'qituvchi o'quvchilardan matnda mavjud bo'lgan qarama-qarshiliklarni taqqoslash bilan isbotlab ko'rsatishni talab qilishi ham mumkin. O'qituvchi tomonidan shunday savol yoki masalaning qo'yilishi, farazlarning ilgari surilishi, ulardan birining to'g'riligini isbotlash fikrlar to'qnashuvi asnosida amalga oshiriladi.

Bu metoddan "O'tgan kunlar" romanidagi Kumushbibi va Zaynab timsollarini, "Muzqaymoq" hikoyasi bosh qahramoni bilan "Nido" dostonining bosh qahramoni obrazlarini, "Bemor" hikoyasidagi betob ayol bilan "Ming bir jon" hikoyasidagi kasal ayol shaxsiga xos bo'lgan jihatlarni, "Uch og'a-ini botirlar" ertagidagi shoh bilan Kenja botir hikoyasidagi shoh timsolini, "Mening o'g'rigina bolam" hikoyasidagi Qora buvi bilan "Urushning so'nggi qurboni" hikoyasidagi ona timsoli va hokazo qator obrazlarni taqqoslab o'quvchilarni inson shaxsini o'rganishga, fazilatlarini ochishga o'rgatish mumkin bo'ladi.

Adabiyot o'qitishda ta'limning **induktiv va deduktiv** metodlarining ham o'ziga xos o'rni bor. So'nggi yillarda deduktiv ta'limga e'tibor kuchaydi. Lekin tafakkurning induktiv usullarini shakllantirmay turib ta'limda muvaffaqiyatga erishish mumkin emas. Induktiv yoki deduktiv metodlarni qo'llash o'rganilayotgan o'quv materialining mantig'ini ajratishda, ya'ni xususiydan umumiyga yoki umumiydan xususiyga o'tishda ahamiyat kasb etadi.

Yu. Babanskiy induktiv metodni qo'llaganda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining quyidagi ikki varianti mavjudligini ko'rsatadi: birinchi variantda o'qituvchi avval faktlarni keltiradi, tajribani, ko'rgazma materialini namoyish etadi, topshiriqlarni bajarishni tashkil etadi, o'quvchilarni asta-sekinlik bilan tushunchalarni aniqlashga, qonuniyatlarni o'zlashtirish va fikrlarni umumlashtirishga olib boradi. O'quvchilar o'qituvchining xususiy faktlarni o'zlashtiradilar, so'ngra

o'quv xarakteridagi umumlashma xulosalarni uning rahbarligida chiqaradilar. Ikkinchi variantda o'qituvchi o'quvchilarning oldiga xususiy jihatlardan umumiy holatlarga etaklovchi, umumiy xulosalarga olib keluvchi muammoli masala qo'yadi va u o'quvchilarning o'zlari tomonidan yechiladi¹.

Bugungi adabiy ta'limda o'quvchi ma'naviy kamolotini ta'minlash maqsadida mustaqil fikrlash va erkin faoliyatga undash yetakchilik qilayotgan ekan, induktiv metodning birinchi varianti yetarli samara bermaydi. Ikkinchi variant, ya'ni o'qituvchining umumiy holatlarga etaklovchi, umumiy xulosalarga olib keluvchi muammoli masalalarni qo'yishi va o'quvchilarning haqiqatlar ustida mustaqil ravishda mulohaza yuritib, xulosalar chiqarib, umumlashmalar qilishi – ko'proq samara beradi.

Induktiv metodning zaif tomonlari shundan iboratki, unda yangi mavzuni o'zlashtirishda ko'proq vaqt talab qilinadi. Bu metod o'quvchining mavhum tafakkurini o'stirishga xizmat qiladi. Maktab adabiy ta'limida o'quvchi ma'naviyatini sog'lomlashtirish yo'lida quyi sinflarda induktiv metodidan foydalanib, sinflar yuqorilab borgani sari asta-sekinlik bilan deduktivga o'tish o'rinliroq bo'ladi. Chunki quyi sinflarda narsa, hodisa va bilimlarning ko'proq xususiy tomonlari o'rganiladi.

Masalan, beshinchi sinflar adabiy ta'limini tashkil etishda "Susambil" ertagi qahramonlariga xos bo'lgan xususiyatlar bilan o'quvchilarni tanishtirish uchun ularga tayyor ma'lumotlar berilmay, mavzu va manbalar uy vazifasi sifatida topshirilishi mumkin. Darsda darstaxtaga ko'plab uy hayvonlarining rasmi qo'yiladi. So'ng o'quvchilardan ular to'plagan bilimlar asosida hayvonlarning har biriga xos individual xususiyatlar so'raladi: "Eshakning faqat o'zigagina xos xususiyatlaridan nimalarni bilasiz?" savoli o'quvchini eshakni tasavvur qilishga, u haqida o'qiganlarini aytishga yo'naltiradi. Boshqa barcha uy hayvonlarining shunday individual xususiyatlari o'quvchilar tomonidan to'liq ochib bo'lingach, ularning barchasi uchun umumiy bo'lgan jihatlar haqida so'raladi.

O'quvchilar uy hayvonlarining hammasi odam uchun xizmat qilishini, hammasi tirik tug'ishi, hammasi odamlar tomonidan

¹ Бабанский Ю. К. Методы обучения современной общеобразовательной школе. – Москва: «Просвещение», 1985. С. 150 – 153.

boqilishi, hammasi o't-yem bilan ozuqlanishi, hammasining oyog'i to'rttaligi, hammasining tuyog'i borligi va hk.larni bilganlaricha sanaydilar. Bu jarayonda bilim bilan xotira birgalikda faoliyat ko'rsatadi. O'quvchilar bilimlarni o'qituvchidan tayyor holda olmay, o'zlari bilganlarini namoyish etadilar.

Ta'limning deduktiv metodini qo'llaganda, umuman, o'qituvchi va o'quvchilarning faoliyati quyidagi tarzda bo'ladi: o'qituvchi avval qoida yoki qonunning umumiy jihatini so'raydi, asta-sekinlik bilan uning xususiy tomonlariga o'tadi, so'ng birgalikda ma'lum masalani echishga kirishiladi. O'quvchilar o'qituvchi rahbarligida avval umumiy holatni o'zlashtiradilar, so'ng ulardan kelib chiqadigan xususiy jihatlarni o'rganadilar. Bu induktiv metoddan foydalanish namunasidir.

O'qituvchi adabiy ta'lim maqsadidan kelib chiqib deduktiv metodni qo'llaganda umumiy holatlardan xususiy jihatlarga o'tadi. O'qituvchi o'quvchilarga yo'nalish berishi, yo'l-yo'riqlarni taqdim etishi adabiy ta'lim maqsadiga ko'proq muvofiq keladi. Ko'rsatilgan yo'ldan o'quvchilarning o'zlari umumiylikdan xususiy jihatlarni ajratishi, ularni farqlashi, asoslashi va xulosalar chiqarishi lozim bo'ladi.

Deduktiv metod o'quv materialini nisbatan tez o'tish imkonini beradi. O'quvchini tez fikrlashga o'rgatadi. Adabiy ta'lim jarayonida sharoitdan kelib chiqib, induktiv va deduktiv metodlarni birgalikda qo'llash ham katta samara beradi. Bir darsning o'zida bir masala yuzasidan avval xususiyni aniqlab, undan umumiyga o'tish va ikkinchi bir muammo bo'yicha avval umumiyini ajratib, so'ng xususiyya, mayda tafsillarga o'tish jarayoni ham o'quvchilar tasavvuri tiniqlashuvi, xulosalari qat'iylashuviga ko'mak beradi.

Bugun milliy pedagogikada keng qo'llanilayotgan metodlar o'quvchi-o'qituvchidan ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarflamay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishish maqsadini nazarda tutmoqda. Qisqa vaqt mobaynida zarur nazariy bilimlarni o'quvchiga etkazish, unda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma, malaka hosil qilish, shu bilan birga bilim, ko'nikma va malakalarni nazorat qilish hamda baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahoratni talab qiladi.

Bugun qator rivojlangan mamlakatlarda qo'llanilayotgan "Fikriy hujum", "6x6x6", "Klaster", "Qarorlar shajarasi", "Venn

diagrammasi” va hk. bir qator interfaol metodlarning ayrimlaridan adabiy ta'lim jarayonidagi badiiy asar tahlilida ham foydalanish mumkin. Aslini olganda, bu metodlarning ta'limdagi mantiqiy metodlardan farqi uncha katta emas. Ularning barchasi zahirida muammoli metodning unsurlari mavjud. Ta'lim-tarbiya jarayoniga “interfaol metodlar”ning bir ko‘rinishi sifatida kirib kelayotgan turlaridan biri “**fikriy hujum**”ning maqsadi o‘quvchilarning faolligini oshirish, ularni erkin, mustaqil mulohaza yuritishga undash, hammani bir xil qolipda fikrlashdan ozod qilish, ma'lum mavzu yuzasidan har xil fikrlarni to‘plash va masalaga ijodiy yondashuvni ta'minlashdan iborat.

Bu metod amerikalik A. F. Osborn (1888–1966) tomonidan tavsiya etilgan¹. Undan foydalanilganda, o‘quvchilar oldiga aqliy zo‘riqish talab qiladigan muayyan bir muammo qo‘yiladi. Bu metoddan foydalanilganda, tashkilotchi o‘qituvchidan o‘quvchilar tomonidan muammoni yechish uchun bildirilayotgan har bir fikrni qayd etish va ishtirokchilarning erkinligini ta'minlash talab qilinadi. O‘quvchilar tomonidan aytilayotgan fikrlarni alohida baholash, ularni tanqid qilish yoki fikrlardan kulish ta’qiqlanadi.

Bu metod o‘quvchilarning favqulodda, kutilmagan savol yoki topshiriqlar asosida bezovta ruhiyat bilan badiiy muammoga, o‘quv topshirig‘iga “hujum” qilishini nazarda tutadi. Ya'ni har bir o‘quvchi o‘z bilimi, qobiliyati, iqtidori, dunyoqarashi va imkoniyatlari darajasida uni hal etishga kirishadi. O‘quvchilar o‘z oldilariga qo‘yilgan muayyan masala bo‘yicha mulohaza yuritadilar. Bu metoddan foydalanilganda o‘qituvchidan masala atrofida ishlayotgan, mulohaza yuritayotgan har bir o‘quvchi tomonidan aytilgan fikrni qayd etib borish, har bir ishtirokchining erkinligini ta'minlash, aytilgan fikrlarning asoslanishini talab qilish, toki fikrlar tugamaguncha bahsni davom ettirish talab qilinadi. O‘quvchilar tomonidan aytilayotgan fikrlarni alohida baholash, ularni tanqid qilish yoki fikrlardan kulish ta’qiqlanadi.

“Fikriy hujum” – o‘quv muammolarini hal qilishda keng qo‘llaniladigan metod. U qatnashchilarning tasavvurlari, bor bilimi va imkoniyatlaridan unumli foydalanishga yo‘naltirilgan. Mazkur metod o‘quvchi oldiga qo‘yilgan har qanday muammoli masalaga ko‘p sonli

¹ https://ru.qaz.wiki/wiki/Alex_Faickney_Osborn

yechimlar topishga imkon yaratadi. Aqliy hujumdan foydalanilganda quyidagi qoidalarga amal qilinadi:

1. Bu usulni qo'llash jarayonida baholashlarga yo'l qo'yilmaydi. Agar jarayonning o'zida g'oyalar baholanadigan bo'lsa, qatnashchilar o'z fikrlarini himoya qilishga berilib ketib, yangi fikr aytishdan chalg'iydilar.

2. Har bir o'quvchi bitta masala yuzasidan o'ta xilma-xil mulohazalar aytishiga yo'l qo'yiladi. O'quvchilarda kutilmagan fikr, favqulodda g'oyalar tug'ilmasa, qatnashchilar bir-birlarini takrorlashga majbur bo'ladilar.

3. G'oya va fikrlarning miqdori rag'batlantiriladi. Ma'lumki, miqdor odatda o'sib sifatni keltirib chiqaradi. Qatnashchilarga tasavvurga erk berish imkoniyati yaratilishi kerak. Bu erkinlik natijasida betakror va kuchli g'oyalar tug'iladi.

4. Har bir o'quvchi o'z g'alar g'oyasiga asoslanishi va ularni o'zgartirishi mumkin. Chunki fikrdan fikr tug'iladi. Oldin taklif etilgan g'oyalarni o'zgartirish, ko'pincha, birlamchi fikrdan kuchliroq, yaxshiroq qarashlarni keltirib chiqaradi¹.

"Fikriy hujum" metodidan foydalanish jarayoni quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

- o'quvchilar erkin tartibda joylashtiriladi;
- g'oya va fikrlarni yozish uchun darstaxta yoki varaqlar tayyorlab qo'yiladi;
- hal etilishi lozim bo'lgan muammo aniqlanadi;
- ish jarayoni belgilab olinadi:
 - a) g'oyalar baholanmaydi;
 - b) fikrlashga to'liq erk beriladi;
 - v) fikrlar ko'p bo'lishiga (miqdorga) intilinadi;
 - g) o'quvchilar faoliyati "ilg'ab oling", "bilib oling", "g'oyalarga asoslaning", "qo'shing", "kengaytiring", "o'zgartiring" singari chaqiriqlarga asosan uyushtiriladi;
- qo'yilgan muammo yuzasidan fikrlar so'raladi va yozib boriladi;
- o'zgalarning fikrlaridan kulish, kinoyali sharhlar va mayna qilishlarga aslo yo'l qo'yilmaydi;

¹<https://ru.wikipedia.org/wiki/Википедия>. Свободная энциклопедия.

- varaqlar g'oya va fikrlar bilan to'lganda ular ko'rinarli yerga osib qo'yiladi;
- g'oyalar tugamaguncha ish davom ettirilaveriladi;
- shundan so'ng yangi, kuchli, asosli va original g'oyalar o'qituvchi tomonidan rag'batlantiriladi, baholanadi¹.

Adabiy ta'lim amaliyotida foydalanish mumkin bo'lgan metodlarning yana biri "6x6x6", ya'ni kichik guruhlarda ishlash metodidir. Adabiy asarlar tahlili jarayonida mazkur metoddan foydalanishda adabiyot o'qituvchisidan pedagogik mahorat va ziyalik, guruhlarini oqilona shakllantira bilish talab qilinadi. Bu metodda sinfdagi o'quvchilar oltita-oltitadan olti guruhga bo'linadi. Jami 36 o'quvchi ishtirok etadi. O'qituvchi istasa guruhlarga muayyan nomlar berishi ham mumkin. Dars mavzusi e'lon qilinib, ma'lum vaqt belgilanadi. O'quvchilar mavzu atrofida bahslashadilar, o'z munosabatlarini bildiradilar. Mavzu bo'yicha belgilangan vaqt yakunlangach, o'qituvchi guruhlarning a'zolarini almashtiradi. Yangi guruhda avvalgi guruhdan bitta vakil qoladi va u o'z guruhining mavzu yuzasidan chiqargan xulosalarini yangi guruhga bayon etadi. Yangi guruh a'zolari avvalgi guruhning fikr va xulosalarini o'rganadilar, unga o'z munosabatlarini bildiradilar. Shu tariqa qisqa vaqt oralig'ida o'quvchilar tomonidan ham mavzu yuzasidan fikr bildiriladi, ham bu fikrlar ularning o'zlari tomonidan tahlil qilinadi.

Sinfdagi o'quvchilardan kichik guruhlar tashkil etishda quyidagilarga amal qilinadi:

1. Guruhlar o'qituvchi tomonidan belgilanadi.
2. Guruhga rahbarlik qila oladigan o'quvchi va guruh a'zolari oldindan aniq belgilab olinadi.
3. Har bir guruhga zehnlil va qobiliyatli hamda bo'shroq o'zlashtiradigan o'quvchilar, imkon qadar, teng taqsimlashga harkat qilinadi. Guruhlar bir-biriga munosib a'zolar bilan to'ldiriladi va vazifalari belgilanadi.
4. Guruh rahbari va a'zolariga vazifalari tushuntiriladi.
5. Har bir guruh doira shaklida o'tirishi, guruhning har bir a'zosi bir-birini ko'rib turishi shart.
6. Ish jarayonida har bir guruhning faoliyatiga, g'oyalariga e'tibor berib boriladi. Yaxshi g'oya egalari rag'batlantiriladi¹.

¹<https://ru.wikipedia.org/wiki/Википедия>. Свободная энциклопедия.

Bunday guruhlarni tashkil etishdan avval: o'quvchilarning shu ishni bajarishga bilim va malakalari etarililigiga ishonch hosil qilish; guruhlarga aniq yo'l-yo'riqlar ko'rsatish; vazifaning bajarilishi uchun etarli vaqt ajratish; o'z vazifasini vaqtdan ilgari bajargan guruhning bandligini ta'minlashga tayyor bo'lish; qo'yiladigan masala murakkab bo'lganda guruh a'zolari sonini kengaytirish; baholash va mukofotlash jarayonining guruh a'zolariga ta'siriga tayyorlanish; kuchli guruhlarni mukofotlash; bajarilgan ish natijasini qanday topshirish yo'llarini ma'lum qilish; jamoaning erkinligiga imkoniyat yaratish kerak bo'ladi.

Bu metoddan foydalanilganda o'quvchilar guruhini bunday aralash tarzda tashkil etishning salbiy tomonlari ham mavjud. Ma'lumki, aralash guruhlarda ko'proq kuchli o'quvchilar ishlaydi. O'rtacha va bo'sh o'zlashtiradigan o'quvchilar ularning oldida "yumilib" qoladilar. Chunki vaqt tig'iz bo'ladi. Demak, hamma o'quvchilar darsda faol qatnashmaydilar.

Shuning uchun sinfdagi tez fikrlab, tez ishlaydigan, mazkur o'quv fanini yaxshi ko'radigan o'quvchilarni alohida, yaxshilarni alohida, o'rtachalarni alohida va sekin fikrlaydiganlarni alohida guruhlashtirib, har bir guruhga o'zining imkoniyati doirasidagi vazifani berish ham mumkin. Ma'lumki, o'quvchilar o'zlariga o'xshagan, bilim darajasi bir xil bo'lgan sinfdoshlari bilan yaqin bo'ladilar. O'z davralarida "ochiladi"lar. Bu ochilish ularda shaxslik sifatlarining shakllanishiga ko'maklashadi. Guruhlarning bilimi baholanayotganda urg'u berilgan topshiriqning qiyinlik darajasiga qaratiladi. Hamma uchun ajratilgan vaqt bir xil, lekin topshiriqlarning darajasi har xil. Gap shundaki, hamma o'quvchilar belgilangan vaqt oralig'ida o'z imkoniyatlari doirasidagi vazifani muvaffaqiyatli uddalaydilar va g'alaba nashidasini suradilar. Bu nashida insonning ruhiy kamolotini ta'minlaydi.

Keyingi paytlarda adabiy ta'lim amaliyotida "noan'anaviy dars" nomini olgan bahs-munozara, musobaqa, ssenariyli dars, konferensiya dars, sayohat darsi, nazm darsi, tahlil darsi (bu haqda boshqa mavzuda batafsil so'z yuritiladi) kabi dars shakllari keng tarqaldi. Ta'limning bunday shakllari 7-9-sinflar adabiyot darslarida samarador bo'lishi mumkin. Bu davrda o'quvchilarning hayotiy, ba'zan, falsafiy xarakterdagi muammolarni hal etishga moyilligi kuchli bo'ladi. Bu

¹ <https://ru.wikipedia.org/wiki/Википедия>. Свободная энциклопедия.

“dars”larning ko‘pchiligini suhbat metodining har xil usullari, shakllari deyish ham mumkin.

Ularning orasida “Ssenariyli dars» nomi bilan ta’lim amaliyotiga kirib kelgan shakli bevosita o‘quvchilarni ijodga undashi bilan ahamiyatlidir. Bu masala S. Yaminova tomonidan alohida tadqiqot tarzida ishlangan¹

. O‘rganilgan asarlar yuzasidan ssenariy tuzish ham o‘ziga xos ijod mahsuli. Bu jarayonda o‘quvchilar mustaqil fikrlab, ijod qiladilar. Adabiy ta’lim jarayonida o‘quvchi ma’naviyatini sog‘lomlashtirishning asosi bo‘lgan mustaqil fikrlashga o‘rgatishda ssenariyli o‘qitishdan ham foydalanish mumkin.

Masalan, “Mazkur vaziyatdagi Anvar bilan Ra’no faoliyati bo‘yicha ssenariy yozing» topshirig‘i o‘quvchilar Abdulla Qodiriyning «Mehrobdan chayon» romanidan olingan parchalar bilan tanishib bo‘lganlaridan so‘ng asar matni tahliliga bag‘ishlangan darslarda berilishi mumkin. Avval ssenariy va uning yaratilishi haqida o‘quvchilarga maxsus bilim beriladi. Bir qator badiiy asarlar va ularni sahnalashtirish uchun yozilgan ssenariylar matni, ularnig tuzilishi, asardagi ssenariy uchun muhim jihatlarning ajratilishi bilan bog‘liq ma’lumotlar bilan tanishtiriladi. Bundan tashqari, sahna asari ssenariysini tayyorlash uchun o‘quvchilarga yo‘nalish beruvchi: «Ularning xatti-harakatlari ma’nosini oching. Qahramonlarning so‘zlari ortidagi fikr va tuyg‘ularini harakatlarga ko‘chiring», «Qahramonlarning o‘zini tutishi bilan tabiat hodisalarini mutanosiblashtiring», “Keyingi sahifalarni o‘qimasdan burun Ra’no hayotida shunday buriilish bo‘lishini tasavvur qilganmidingiz?” yoki “Anvarda bugungi kitobxon uchun yot bo‘lgan qanday sifatlar bor? Bugungi kunda qahramonga xos qaysi sifatlar o‘z qimmatini yo‘qotmagan?”, «Spektakl-lavha qahramonlarini munosib kiyintiring», “Bu qahramonlarning har biri sizda qanday tuyg‘u va fikrlar uyg‘otadi?” singari savol va topshiriqlar qo‘yilishi maqsadga muvofiqdir.

Badiiy asarlarni har xil metodlar ko‘magida o‘quv tahliliga tortishda, ular bilan ishlashda o‘quvchilarning tasavvurlarini uyg‘otadigan, mantiqiy mulohaza yuritishga undaydigan, faqat o‘z

¹ Яминова С. Укувчиларнинг мустакил фикрлаш қобилиятини шакллантиришда сценарийли ўқитиш усулидан фойдаланиш: Пел. фан. номлюди . дисс. — Т. 1997. — 168 б.

fikri va xulosasini aytishda qo‘l keladigan savol-topshiriqlar yetakchilik qiladi. Ular shaklan ssenariy tuzishga yo‘naltirilgan tarzda bo‘ladimi, muammo ko‘rinishida bo‘ladimi, birgalikda ishlashga undovchi vazifalar bo‘ladimi, yakka ishlash tartibiga qaratilganmi ekanidan qat‘i nazar, barchasi zamirida o‘quvchining ma‘nan sog‘lomlashuvi, ruhiy erkinligi, fikr mustaqilligini ta‘minlash yotadi.

Kitobxonda tuyg‘ularning junbushga kelishi aqlning jim turishi degani emas. O‘qituvchi o‘quvchining tafakkuri faoliyatsizligiga yo‘l qo‘ymasligi kerak. Tahlil qilmay, mohiyatiga kirmay, o‘ylamay badiiy asarni o‘zlashtirib bo‘lmaydi. Aynan shunday vaziyatda, aql va tuyg‘ular hamkorligida bola tafakkurining mustaqilligi yuzaga keladi. Mustaqil fikr bilan ayni zamonda, mantiqiy va obrazli tafakkur ham rivojlanadi. Ta‘limning mantiqiy metodlari ham, interfaol metodlari ham o‘quvchilar mustaqil fikrini o‘stirish, shu asnoda ma‘naviy komillik yo‘lini tutishi maqsadiga xizmat qiladi.

Maktab amaliyotida **usul**, ko‘pincha, metod bilan bir narsa deb qaraladi. Metodni usul, usulni metod shaklida qo‘llanaveriladi. Aslida usullar metodlarni yuzaga keltiruvchi, uni tashkil qiluvchi usullardir. Masalan, ta‘limning muammoli metodi muammoli vaziyat yaratish, o‘quv farazlarini shakllantirish, ularni isbotlash singari usullarni o‘z ichiga oladi. O‘quvchilarni mustaqil fikrlashga yo‘naltiruvchi muammoli, suhbat, evristik, tadqiqot, taqqoslash, induktiv, deduktiv singari ta‘limning mantiqiy metodlarida ham o‘rganilayotgan o‘quv materialidan muhimni ajratish, o‘rganilayotgan hodisaning umumiy yoki xususiy jihatlarini topib tasnif qilish, tizimga solish, aniqliklar kiritish, isbotlash singari usullardan foydalaniladi.

Muhimni ajratish usuli qo‘llanilganda o‘zlashtiriladigan axborotni mantiqiy bo‘laklarga bo‘lish, ularni taqqoslash, materialni saralash, tayanch so‘z va tushunchalarni topish, asosiy fikrni aniqlash, o‘quv materialini guruhlariga ajratish, asosiy fikr haqida xulosa berish singari **ish turlari** amalga oshiriladi.

Badiiy asarlarning didaktik tahlilini ongli ravishda amalga oshirishda timsollardagi muhim jihatlarini ajratishda matnni qismlarga bo‘lish yoki undagi muhim tizimli belgilarni topish, sintez aloqalarni anglash va tushuntirib berish ishlari ham samarali usullardir. Aniqlik kiritish usuliga umumnazariy fikrdan xususiysiga o‘tish, uni qo‘llash yoki mavhumlikdan aniqlikka, ko‘p shakllilikka o‘tish ishlari kiradi.

“dars”larning ko‘pchiligini suhbat metodining har xil usullari, shakllari deyish ham mumkin.

Ularning orasida “**Ssenariyli dars**» nomi bilan ta’lim amaliyotiga kirib kelgan shakli bevosita o‘quvchilarni ijodga undashi bilan ahamiyatlidir. Bu masala S. Yaminova tomonidan alohida tadqiqot tarzida ishlangan¹

. O‘rganilgan asarlar yuzasidan ssenariy tuzish ham o‘ziga xos ijod mahsuli. Bu jarayonda o‘quvchilar mustaqil fikrlab, ijod qiladilar. Adabiy ta’lim jarayonida o‘quvchi ma’naviyatini sog‘lomlashtirishning asosi bo‘lgan mustaqil fikrlashga o‘rgatishda ssenariyli o‘qitishdan ham foydalanish mumkin.

Masalan, “Mazkur vaziyatdagi Anvar bilan Ra’no faoliyati bo‘yicha ssenariy yozing» topshirig‘i o‘quvchilar Abdulla Qodiriyning «Mehrobdan chayon» romanidan olingan parchalar bilan tanishib bo‘lganlaridan so‘ng asar matni tahliliga bag‘ishlangan darslarda berilishi mumkin. Avval ssenariy va uning yaratilishi haqida o‘quvchilarga maxsus bilim beriladi. Bir qator badiiy asarlar va ularni sahnalashtirish uchun yozilgan ssenariylar matni, ularning tuzilishi, asardagi ssenariy uchun muhim jihatlarning ajratilishi bilan bog‘liq ma’lumotlar bilan tanishtiriladi. Bundan tashqari, sahna asari ssenariysini tayyorlash uchun o‘quvchilarga yo‘nalish beruvchi: «Ularning xatti-harakatlari ma’nosini oching. Qahramonlarning so‘zlari ortidagi fikr va tuyg‘ularini harakatlarga ko‘chiring», «Qahramonlarning o‘zini tutishi bilan tabiat hodisalarini mutanosiblashtiring», “Keyingi sahifalarni o‘qimasdan burun Ra’no hayotida shunday burilish bo‘lishini tasavvur qilganmidingiz?” yoki “Anvarda bugungi kitobxon uchun yot bo‘lgan qanday sifatlar bor? Bugungi kunda qahramonga xos qaysi sifatlar o‘z qimmatini yo‘qotmagan?”, «Spektakl-lavha qahramonlarini munosib kiyintiring», “Bu qahramonlarning har biri sizda qanday tuyg‘u va fikrlar uyg‘otadi?” singari savol va topshiriqlar qo‘yilishi maqsadga muvofiqdir.

Badiiy asarlarni har xil metodlar ko‘magida o‘quv tahliliga tortishda, ular bilan ishlashda o‘quvchilarning tasavvurlarini uyg‘otadigan, mantiqiy mulohaza yuritishga undaydigan, faqat o‘z

¹ Яминова С. Укувчиларнинг муқтакил фикрлаш кабиласини ишлатишда ссенарилиди уқитиш усулидан фойдаланиш. Педа. фан. назарияси. дисс. Т. 1990. 168 б.

fikri va xulosasini aytishda qo‘l keladigan savol-topshiriqlar yetakchilik qiladi. Ular shaklan ssenariy tuzishga yo‘naltirilgan tarzda bo‘ladimi, muammo ko‘rinishida bo‘ladimi, birgalikda ishlashga undovchi vazifalar bo‘ladimi, yakka ishlash tartibiga qaratilganmi ekanidan qat‘i nazar, barchasi zamirida o‘quvchining ma‘nan sog‘lomlashuvi, ruhiy erkinligi, fikr mustaqilligini ta‘minlash yotadi.

Kitobxonda tuyg‘ularning junbushga kelishi aqlning jim turishi degani emas. O‘qituvchi o‘quvchining tafakkuri faoliyatsizligiga yo‘l qo‘ymasligi kerak. Tahlil qilmay, mohiyatiga kirmay, o‘ylamay badiiy asarni o‘zlashtirib bo‘lmaydi. Aynan shunday vaziyatda, aql va tuyg‘ular hamkorligida bola tafakkurining mustaqilligi yuzaga keladi. Mustaqil fikr bilan ayni zamonda, mantiqiy va obrazli tafakkur ham rivojlanadi. Ta‘limning mantiqiy metodlari ham, interfaol metodlari ham o‘quvchilar mustaqil fikrini o‘stirish, shu asnoda ma‘naviy komillik yo‘lini tutishi maqsadiga xizmat qiladi.

Maktab amaliyotida **usul**, ko‘pincha, metod bilan bir narsa deb qaraladi. Metodni usul, usulni metod shaklida qo‘llanaveriladi. Aslida usullar metodlarni yuzaga keltiruvchi, uni tashkil qiluvchi unsurlardir. Masalan, ta‘limning muammoli metodi muammoli vaziyat yaratish, o‘quv farazlarini shakllantirish, ularni isbotlash singari usullarni o‘z ichiga oladi. O‘quvchilarni mustaqil fikrlashga yo‘naltiruvchi muammoli, suhbat, evristik, tadqiqot, taqqoslash, induktiv, deduktiv singari ta‘limning mantiqiy metodlarida ham o‘rganilayotgan o‘quv materialidan muhimni ajratish, o‘rganilayotgan hodisaning umumiy yoki xususiy jihatlarini topib tasnif qilish, tizimga solish, aniqliklar kiritish, isbotlash singari usullardan foydalaniladi.

Muhimni ajratish usuli qo‘llanilganda o‘zlashtiriladigan axborotni mantiqiy bo‘laklarga bo‘lish, ularni taqqoslash, materialni saralash, tayanch so‘z va tushunchalarni topish, asosiy fikrni aniqlash, o‘quv materialini guruhlariga ajratish, asosiy fikr haqida xulosa berish singari **ish turlari** amalga oshiriladi.

Badiiy asarlarning didaktik tahlilini ongli ravishda amalga oshirishda timsollardagi muhim jihatlarini ajratishda matnni qismlarga bo‘lish yoki undagi muhim tizimli belgilarni topish, sintez aloqalarni anglash va tushuntirib berish ishlari ham samarali usullardir. Aniqlik kiritish usuliga umumnazariy fikrdan xususiysiga o‘tish, uni qo‘llash yoki mavhumlikdan aniqlikka, ko‘p shakllilikka o‘tish ishlari kiradi.

Isbotlash usuliga esa tezislarni aniqlab olish, isbotlashning yo'llarini belgilash, zarur dalillarni to'plash, xulosalarni bir tizimga solish, sababiy aloqalarni aniqlash ishlari kiradi. Dars jarayonida ta'lim usullari qo'llanilganda o'quvchilar tomonidan bajariladigan ishlarning ma'lum qismi takrorlanadi. Bu hol, o'z navbatida, bilimlar mustahkam o'zlashtirilishini ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, texnologiya, metod, usul va ish turlari ma'lum bir tizimni tashkil etadi. Ya'ni, texnologiyaning ichida metod, metodning ichida usul, usulning ichida esa har xil ish turlari mujassamlashadi.

Badiiy matnning didaktik tahlili namunasi

«Oq kema» asarini o'rganish

Yettinchi sinf darsligida asrimizning taniqli adibi Chingiz Aytmatov hayoti va faoliyati haqidagi matn hajman uncha katta bo'lmasada, unda adibning mashaqqatli bolaligi, uni kamolot sari yetaklagan insoniy fazilatlar, unga buyuklik baxsh etgan ulkan iqtidor haqida qisqa, lo'nda va shu yoshdagi o'quvchilarga yetarli ma'lumot berilgan. O'qituvchi bolalar o'rganilajak asarni mukammal o'zlashtirishlari uchun muallif shaxsini bilish ham ahamiyatga molik. O'quvchilar bo'lajak adibning otasi mas'ul lavozimlarda ishlagani va qatag'on qurboni bo'lgani, yosh Chingizning 14 yoshida qishloq kengashida kotib bo'lib ishlagani, shu sabab odamlarni, hayotni yaxshi o'rganganini alohida e'tibor bilan o'qib, anglaydilar. Mazkur umr bayoni boshqa darsliklarda taqdim etilgan yillar hisobidan iborat ma'lumotnomadan farq qiladi.

Chingiz Aytmatovning ijodi haqida so'z yuritilar ekan, o'qituvchi adibning "Jamila", "Yuzma-yuz", "Momo yer", "Alvido, Gulsari", "Baydamtol sohillarida", "Birinchi o'qituvchi", "Oq kema", "Asrga tatigulik kun", "Qiyomat", "Kassandra tamg'asi" kabi asarlari dunyoning ko'p tillariga, xususan, o'zbek tiliga ham tarjima qilingani, shuningdek, ular asosida qator badiiy filmlar suratga olinganiga ham o'quvchilar diqqatini tortish maqsadga muvofiq bo'ladi.

¹ Yo'ldoshev Q. va boshq. Adabiyot. Umumiy o'rta ta'lim maktablarning 7-sinfi uchun darslik-majmua. Qayta ishlangan 4-nashri. – T.: «Sharq», 2017. – 93–129-b.

Adibning o'quvchilar diqqat qaratishlari lozim bo'lgan jihatlaridan biri uning rus tilida ijod qilishidir. Inson o'z ona tilidan boshqa chet tillarni qancha ko'p bilsa, unga dunyo o'z bag'rini shuncha keng ochishi, uning olam va odam sirlarini bilish imkoniyati kengayishi tabiiyligiga e'tibor tortiladi.

O'quvchilarni badiiy asar o'qishga ruhan tayyorlagan o'qituvchi "Oq kema"ni o'qishga katta qiziqish bilan kirishishi shak-shubhasiz. Qissada qalamga olingan insoniy fazilatlar shakllanayotgan shaxs ma'naviyatida qat'iy o'rnamashib qolishi adabiy ta'limning bosh maqsadiga xizmat qilishini hisobga olib, o'qituvchi bu asar bolalar tomonidan to'la anglanishiga intiladi. Kimnidir yoki nimanidir yaxshi ko'ra olish insonga berilgan bebaho ne'matdir. O'quvchining xayolchan va pokiza "uka"sini yaxshi ko'rib qolishida badiiy matnning ifodali o'qilishi ham, mazkur asarga ishlangan suratlar¹ni namoyish etish ham katta ahamiyat kasb etadi.

"Oq kema"ni o'qishga kirishishdan avval o'qituvchi asar matnini soatlarga taqsimlab, qaysi bir qismi qaysi darsda o'qilishini rejalashtirib oladi.

Dastlab ikki soat mobaynida o'quvchilar bilan asarning birinchi qismi o'qiladi va savol-topshiriqlar ustida ish olib boriladi. Matn tahlili jarayonida o'quvchilar bola yashayotgan sharoitni yaqqol tasavvur qilishiga erishish kerak. Ular adabiy qahramon yashayotgan sharoitni, uning tuyg'ularini tasavvur qila olsagina asar haqida ham, uning qahramoni to'g'risida ham haqqoniy mulohaza yuritib, to'g'ri xulosalar chiqarishi mumkin. Buning uchun o'quvchilar qahramonning har bir harakatini tahlil qilishlari kerak bo'ladi.

Asar o'qilganidan keyin e'tibor bolaning ertaklariga qaratiladi: "Ular qanday ertaklar edi?" Asar matni bilan tanishgan o'quvchilar ularning biri – bolaning baliqqa aylanib oq kemaning ortidan suzib borishi va ota-onasini topishi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchisi bobosining ona bug'i haqidagi ertagi ekanini aytadilar. Bu yettinchi sinf bolasi uchun qiyin emas, albatta. Shundan keyin ularning e'tibori bolaning ko'chma do'kon kelgandagi holatiga qaratiladi. Nega bola uning kelishidan buncha quvonib ketdi? Yoki u bobosi unga portfel olib berishini bilarmidi? O'quvchilar bola portfel olganidan nega

¹ <https://www.pinterest.com/pin/673991900460253806/>;
<https://www.pinterest.com/pin/712976184735859539/>; <https://www.labirint.ru/screenshot/goods/616507/2/>;
<https://ok.ru/group/53354731012321/album/53354771316961/666287930593>.

bunchalar quvongani ustida fikr yuritishlari lozim. Buning uchun o'quvchilar oldiga: "Siz adabiy qahramonning holatiga qanday qaraysiz? Bu Sizga g'alati tuyulmayaptimi? Siz ham biror narsadan shu darajada xursand bo'lganmidingiz?" kabi savollarni qo'yish maqsadga muvofiqdir. Bu bilan o'qituvchi o'quvchilarni o'ylashga, mushohada yuritishga, munosabat bildirishga odatlantiradi, fikrlarini asoslashga o'rgatib boradi.

Shular haqida mulohaza yuritgan o'quvchilarning diqqatini o'qituvchi bolaning butalar, "tuya", "bo'ri", "tank" kabi xarsang toshlar: "... *shunchaki narsalar emasligini...* aytib, "*Ular ranjib qolishi, hatto chalib yiqitishi ham mumkin edi...*" jumllariga qaratadi. Ko'rinadiki, yozuvchi ularning "jonli" ekaniga o'quvchilar ham ishonishini istaganday bo'ladi. O'quvchilar diqqatini bolaning toshlar bilan do'stlashib, suhbatlashib yurishi boisi nima ekaniga, chaqirtikanakni ne sababdan dushman deb bilishiga qaratilib, bular haqida mulohaza yuritishga undalishi lozim. Bunga sabab qishloqda bolaning tengdoshi yo'qligidanmi yoki u tabiatan xayolparast bo'lganidanmi ekanini o'quvchilar o'zlaricha muhokam qilsalar, qanday xulosaga kelgan taqdirda ham buni asoslasalar maqsadga yaqinlashiladi.

"Bola nega pechak gullarni yaxshi ko'radi, ularga xos qaysi sifatlar ko'ngliga xush yoqadi? Bu bolaning qanday fazilatga ega ekaniga ishora?" degan savollar o'quvchilarni mulohaza yuritishga, matnga tayangan holda fikr bildirishga jalb etadi. O'quvchilar bu haqda to'g'ri xulosaga kelishlari uchun pechakgullarning sifati haqidagi tasvirlarni yana bir bor o'qitish kerak. Bu jarayonda hikoya qahramonining fantaziyasi kuchliligidan tashqari, qanchalar ziyrakligi ham o'quvchilar nazaridan chetda qolmasligi kerak.

O'quvchilar shiroljinlarning bola ko'ngli, tabiati bilan bog'liqliklari borligi, ularning panasida pinhona yig'lagisi kelishining sabablarini tushunishi uchun ularga "O'zingizni kuzatganmisiz, sizda ham shunaqa holat bo'ladimi? Bunday paytlarda siz nima qilaisiz?" savollari berilib, mantiqli javoblar olinsa, darsdan kutilgan samaraga erishiladi.

O'quvchilar e'tibori bolaning bulutlar ko'rinishidan zavqlanishiga, ularning turli shakllarga kirishini ko'ra olishiga munosabat bildirish, adibning bularni tasvirlashdagi mahoratini sezishga qaratish o'quvchini yaratuvchilik va go'zallikdan zavqlanishga o'rgatadi.

Bolaning bobosidagi "...ochiq ko'ngil, hatto, sal-pal biladigan odamiga ham biron yaxshilik qilishga tayyorligi, har kimning xizmatiga hoziru nozirligi, hammaga sadoqatli va xushmuomalaligi" kabi fazilatlarining ba'zan illatga aylanishi haqida o'quvchilar fikrini so'rash lozim. Nega shundayligi haqida mulohaza yuritish, Mo'min cholga atrofdagilarning munosabati to'g'ri yo noto'g'ri ekanini tahlil qilish o'quvchilarni odamlarga munosabatni to'g'ri belgilashga o'rgatadi. O'quvchilarni hayotda duch kelinayotgan loqaydlik va oqibatsizliklarning sabablarini bilishga undaydi. Shular ustida mulohaza yuritish asnosida o'quvchilar ularning qanchalar dahshatli illatlar ekanini his qilsalar, ko'ngillarida ularga nisbatan nafrat uyg'onadi. Nafrat esa, tabiiy ravishda, insonni bunday illatlardan nari bo'lishga undaydi.

Qissa matnida "*Mo'min bug'i avlodidan bo'lib, bu bilan g'oyatda faxrlanar, o'z qabiladoshlaridan birontasining ma'rakasidan qolmasdi*" degan jumla bor. Unga bolalarning diqqati qaratilib, buning sabablarini aniqlashga yo'naltirish kerak. Nima uchun adib Mo'min cholni "kamdan-kam uchraydigan baxtli odam" deb baholagan? O'quvchilarni bu haqda o'ylash, fikr aytishga undash, fikrini asoslashga yo'naltirish lozim.

Odamlarni kemirib tashlaydigan "balo"ga munosabat bildirishga chorlash o'quvchilarga buning yomonligini o'z ko'ngillariga singdirish imkonini beradi. O'zini boriday ko'rsatish, ko'ringanday bo'lishga intilish, samimiylik, dil, fikr, til, harakat ezguligi, go'zalligi va bir xilligi komillikning dastlabki sifatlari ekani o'quvchilar ruhiyatidan joy olishi kerak.

O'quvchilar bilan birgalikda Mo'min cholga odamlarning dovdirga muomala qilganday muomala qilishi sabablarini aniqlash, ularning hammasi Mo'min cholday emasligiga sabab nimaligi to'g'risida mulohaza yuritish zarur. Mo'min cholning tabiati haqida fikr yuritish asnosida "Bobo hurmatga loyiqmi yoki achinishga?" savoli tashlanib, bolalarni cholni hurmat qilmagan odamlarga munosabat bildirishga undash kerak bo'ladi. Mo'min cholning kengashga chaqirishmaganda qattiq ranjib, buni unutilmasligi sababi uni mensimaganlaridan emas, balki "*qadimiy urf-odatlarning poymol*" qilinayotganidan ekanini o'quvchilar tuyishlari lozim. Xo'sh, bu ikki tushunchaning orasida qanday farq bor? O'quvchilar bu haqda ham fikrlab ko'rsinlar. Bunday tahlil asnosida ularning ruhiyatiga milliy

qadriyatlarini asrab-avaylab keyingi avlodlarga o'tkazish hissi o'rtnashadi.

O'quvchilar O'rozqul va Bekey xolaning munosabatlariga ham e'tibor qilishlari zarur. Hayotning shunday azoblari borligini ham bilish, ularga o'z ota-onalari uchun qanchalar aziz ekanliklarini his qilish imkonini beradi. O'quvchilar O'rozqul va Bekey xolaning dardini his qilib, ularga achina olsalar, ko'ngillarining bir chekkasida Allohdan ularga farzand tilasalar, bu ularning jamiyatga kerakli insonlarga aylanayotganligidan nishonadir. O'quvchilar o'zgalarning muammolarini tahlil qilish asnosida o'z hayotidagi to'kislikning qanchalar buyuk ne'mat ekanini his qilib, uni qadrlash va shukronalar aytishga o'rganadilar.

Bolaning portfel va durbini bilan xuddi odam bilan gaplashgandek gaplashishiga ham e'tibor tortilishi kerak. "Nega shunday? Bu yaxshimi-yomonmi? Bola durbinni nima uchun yaxshi ko'radi? Bu muhabbatning tagida qanday asos bor? Portfelni-chi?" O'quvchilarga bu savollar berilsa, ular mazkur holatlar haqida o'ylay boshlaydilar. Ayni zamonda, bir insonning tabiatini ham o'rganib boradilar. Bolaning xarakteri o'quvchilarga yoqyaptimikin? Yoqqan bo'lsa, uning, yoqmagan bo'lsa buning sabablarini tushuntirib bera olarmikinlar? Bu ham o'quvchilarning ma'nan o'sishiga xizmat qiladi.

Mo'min cholning nabirasiga ko'lob yasab berishi, bolaning orzulari bilan ko'lob o'rtasidagi aloqaga o'quvchilarning diqqati qaratilib, ular bunga munosabat bildirsalar, dars yanada samarali bo'ladi. O'quvchilar bolaning oq kemaga shunchalar bog'lanib kolganligi sababini tushuntirishga urinishlari kerak. Ular bolaning oq kemani ko'rganda yuragi gupillab ketishining sababi haqida o'ylasalar, qahramonning ko'nglidan kechayotgan hayajon sababini his qilishlari, otasizlik, onasizlik nima ekani ba buning og'riqlarini tasavvur qilishlari mumkin.

Asar qahramonining tashqi qo'rinishi tasviriga ham o'quvchilar e'tibori tortilishi lozim. Asarda bolaning chiroyli kipriklariyu unga qahramonning munosabati tasvirlangan o'rinlar e'tibordan chetda qolmasligi kerak.

Bolada baliqqa aylanish va oq kemaga suzib borish istagi paydo bo'lishining asl sabablarini o'quvchilar qidirib topishlari lozim. Uning xayollari, otasi bilan ko'rishish orzusi, tushkun holati o'quvchilarda qanday tuyg'ular silsilasini uyg'otgani aniqlanishi g'oyat muhimdir.

Asar bilan ishlashga ajratilgan vaqtning keyingi soatida o'quvchilarga qissa matni yuzasidan darslikdagi savol-topshiriqlar ustida ishlash uyga vazifa sifatida beriladi. O'quvchilar hissiyotlari eskirmay turib, uyda matnga yana murojaat qiladilar. Ular keyingi darsgacha matn ta'sirida yuradilar va sabrsizlik bilan matnning qolgan qismini ham o'qiydilar.

Keyingi darsda asarning shoxdor Ona bug'u haqidagi ikkinchi qismi o'qiladi. To'g'ri, o'quvchilarni avvalgi darsdagi holatga solish qiyin. Lekin bu darsning ham o'z"dardi" borki, uni bolalarga yuqtira bilish kerak. Buning uchun kichkina kirish qilib, ushbu asar garchi ertak shaklida berilgan bo'lsada, uning zamirida hayotiy haqiqat borligi, tarixiy manbalarda ko'rsatilishicha, Enasoy (Rossiya hududida joylashgan hozirgi yenisey) daryosi bo'ylarida turkiy xalqlar yashab, ular chorvachilik bilan shug'ullanganliklari, Sibirdagi ko'p joy nomlarining turkiyda ekani ham ushbu holatdan dalolatligi ta'kidlanishi kerak.

Enasoy haqidagi asarda berilgan qadimiy turkiy qo'shiq matni tahlil etilishi lozim:

Sendan ulkan daryo bormi, Enasoy?!

Senday aziz tuproq bormi, Enasoy?!

Sendan chuqur dard ham bormi, Enasoy?!

Sendan ozod quchoq bormi, Enasoy?!

Sendan ulkan daryo yo'qdir, Enasoy,

Sendan aziz tuproq yo'qdir, Enasoy,

Sendan chuqur dard ham yo'qdir, Enasoy,

Sendan ozod quchoq yo'qdir, Enasoy.

Qo'shiqning birinchi bandida qo'yilgan faxrga yo'g'rilgan savollarga ikkinchi bandida javob berilgan. O'quvchilar unda daryoning tengsiz ulkanligi, uning atrofidagi tuproqning vatan tuprog'i sifatida azizligi, daryoning chuqurligi bilan inson dardlarining qanchalar katta, chek-chegarasiz, intihosiz ekanligi, ayni zamonda erkin va mustaqilligi faxr hissi bilan yo'g'rilganini his qilishlari maqsadga muvofiqdir. Birinchi to'rtlikda xallqa xos bo'lgan faxr, g'urur hissi ikkinchi to'rtlikda qat'iylashgan. Enasoyga teng keladigan hech narsa yo'q. Bu vatan hissi. Vatanga muhabbat tuyg'usi.

Qo'shiq matni tahlili jarayonida kishining ko'nglidan g'alati tuyg'ular kechadi. Xalqning o'z vatanini qanchalar chuqur mehr bilan

suyganini his qilish mumkin. Ko'ngilda ozgina alam, og'riq va rashk ham paydo bo'ladi. O'quvchilarni buning boisi nima ekanligi haqida o'ylab ko'rishga undash lozim bo'ladi. Enasoyning bugun bizniki emasligi yoki biz ena daryo bo'ylarida emasligimizdan hasrat paydo bo'ladiganday... Daryoning Enasoy deb atalishi zamirida ham katta ma'no bor. Bu borada bolalarning matnga tayangan holda chiqargan fikrlari ahamiyatlidir. O'quvchilar bu qo'shiq asarga nima maqsadda kiritilganini, u bo'lmasa asar nima yutqizishi mumkinligiyu kiritilganda nimaga erishilganini ham o'ylab ko'rsalar, yozuvchining vatansuyarligini ma'lum darajada his etadilar. Buni o'qituvchi savolga aylantirib o'rtaga tashlashi kifoya. Qolganini o'quvchilar o'zlari aniqlab olaverishadi.

Matnning "*Odam odamga ichi achimasdi*" jumlasini bilan boshlangan xatboshisiga o'quvchilarning e'tibori tortiladi. Inson – Tangrining eng oliy yaratig'i. U qancha olijanob, yaratuvchi bo'lsa, shunchalik darajadagi vahshiyliklarga ham qodir. Buni atrofimizdagi odamlarda ham har xil ko'rinishlarda uchratish mumkin. O'z sifatlarini qaysi tomonga yo'naltirib, qanday fi'lvorga ega bo'lish insonning o'ziga bog'liq. U shunday dahshatlarni sodir etmasligi, Odam degan nomiga chinakam munosib bo'lishi uchun uning ko'nglini chiroyli qilishga erishish kerak. Insonning ko'ngli chiroy va go'zallikdan quvonib, bahra oladigan qilib shakllantirilsa, o'zgalarni ayaydigan bo'lib, razilliklardan hazar qiladi. Buning uchun u badiiy adabiyot bilan, go'zallik bilan, ko'rkam so'z bilan chinakamiga oshno bo'lmog'i kerak.

O'qituvchi matnning davomi bo'yicha ish olib borar ekan, o'quvchilar ko'nglida vahshiyliklarga nafrat hissini tug'dira olishi kerak. Bu o'qituvchining ijodkorlik va ijrochilik mahoratiga bog'liq.

O'rmonda paydo bo'lgan qushning ogohlantirishida ham qandaydir ilohiylik borday. Hayotda ham shunday. Inson oldinda bo'ladigan ishlardan har xil yo'llar bilan ogohlantiriladi. Faqat bunga hamisha ham e'tibor beravermaydi. Mazkur hodisaning kiritilishi ham muallif tomonidan shunga ishora bo'lsa ajabmas. Bu masalaga savol shaklida o'quvchilar e'tiborini qaratish kerak.

Dafn marosimidagi urf-odatlarining qaysi jihatlari bugungi kunda ham saqlanib qolgan? Qaysilari yo'qolib ketgan? O'quvchilar tarixdan o'qiganlariga, asar matniga, kundalik hayotlarida ko'rgan-bilganlariga

tayangan holda shularni aniqlasinlar. Shu o'rinda millat ulug'iga bo'lgan e'tiborga ham diqqat qaratish, maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'rmon etagiga hozirlab qo'yilgan biya, ho'kiz, to'qqizlik – qo'ylarning to'qqiztadanligi nimani anglatadi? Umuman, ertaqdagi voqea-hodisalar qaysi davrga mos keladi? O'rmonga ketgan bolalarning sho'xligi va o'zboshimchaligida ilohiylik bo'lishi mumkinmi? O'quvchilar bunga nima deydi? Ertakda bolalarning holati qay darajada ishonarli tasvirlangani, ya'ni yozuvchining shu o'rindagi mahoratiga ham e'tibor tortilishi kerak. O'quvchilarni qahramonlar holatiga olib kirish kerak. Toki, ular ertakda tasvir etilgan bolalar boshiga tushgan kulfatning qay darajada og'ir ekanini his etsinlar. Bolalar kelganda o'z g'alabalarini nishonlayotgan qabiladagilar nega buncha cho'chib ketganliklariga ham o'quvchilar munosabat bildirsinlar. Bu qanday qo'rquv? Nega ularning ko'nglida shunday tuyg'u paydo bo'ldi? O'quvchilarning muhokamasida mana shu savollarga javob bo'lishi kerak.

Qabila a'zolari bilan xon o'rtasida qanday farq bor? Nega xon bolalarni shu yerning o'zida o'ldirtirib yubormadi? Bu masalalarga ham o'quvchilar diqqati tortilishi kerak, ular buni ham muhokama qilib, munosabatlarini bildirishsin. O'quvchilar odamlar bilan ona bug'i munosabatini solishtirganlari ma'qul. Shuningdek, ular oldiga: "Ona bug'uning odam bolalariga mehribonligi va sodiqligi nimadan dalolat beradi? Baymoq kampir ona bug'uga: "...odam bolalari sening yaxshiligingga yomonlik bilan javob qaytarishsa, o'zingdan ko'r", - deydi. Kampir nimaga asoslanib shunday dedi? U haqmi yoki nohaqmi?" degan savollar qo'yilib, o'quvchilar shu haqda o'ylab ko'rishga, javob berishga undaladi.

Ona bug'u bolalarga: *"Sizlar keltirgan tilni avlodlar unutmaydi. Ularga o'z ona tillarida so'zlash va kuylash yoqimli bo'ladi. Insonlar qanday yashashi kerak bo'lsa, shunday yashanglar"*, deydi. O'quvchilar shu fikrlarni sharhlasinlar, tahlil qilib, munosabat bildirsinlar.

O'qituvchi o'quvchilarga: Ona bug'uning shoxlarida beshik olib kelishida qanday ramziy ma'no bor? Bug'uboy avlodlaridagi ona bug'uga bo'lgan e'tiqod nimalarda ko'rinadi?" degan savollarni berib, ularni bu narsalar haqida o'ylab ko'rishga undaydi. O'quvchilar matndan bu o'rinlarni topib, munosabat bildirishlari va aytgan gaplarini asoslashga urinishlari kerak. Ular butun boshli ulusning

ma'naviy buzilib ketishi sabablari xaqida o'ylab ko'rsinlar. Odamlarning buzilishi asarning kaysi o'rinlarida ko'rinishini topsinlar. Mo'min cholning qavs ichida berilgan so'zlariga alohida munosabat bidirsalar, juda o'rinli bo'ladi. Matnda "*Butun umr bo'yi bug'u nima ekanligini ko'rmagan yangi insonlar tug'ildi*" jumlasining o'quvchilarga qay darajada daxli borligini o'ylab ko'rishga undash lozim.

Ikkala ertak ham tugadi. Har ikki ertak o'quvchilarning ko'nglida o'ziga xos iz qoldirgani aniq. O'smirlarni ertak ta'siridan chiqarmasdan uning qolganini o'qishni uyga topshirish o'rinli bo'ladi.

Oxirgi darsda matnning qolgan qismi va uning avvalgi bo'limlari yuzasidan umumiy savollar bilan asar tahlili mustahkamlanadi, fikrlar qat'iytlashadi. Har bir savol yuzasidan imkon qadar ko'proq o'quvchilardan javob olishga harakat qilingani ma'qul. O'quvchilar bir-birlarining fikrini eshitishga o'rganishlari kerak. Ayni vaqtda, javoblarning lo'nda va mazmunli bo'lishiga ham e'tibor berish lozim. Bolalarga bironing fikrini qaytarish, matn mazmunini hikoya qilish imkoni berilmay, ulardan o'z fikrini bildirish talab etilsa, o'quvchilar mustaqil fikrlaydigan va o'z fikrini himoya qila oladigan, har qanday vaziyatga ijodiy yondasha oladigan kishilar sifatida shakllanadilar.

Asarning uyga vazifa sifatida berilgan qismidan chol bilan bolaning bezovtaligi sababini so'rash maqsadga muvofiq bo'ladi. Bolaning shoxdor ona bug'u kallasini ko'rgandagi holati tasvirlangan o'rinlarni qayta o'qitish va o'quvchilardan bu haqdagi fikrlarini so'rash zarur: "Mazkur vaziyat tasviri ularning ko'ngillarida qanday hislarni qo'zg'agan bo'lishi mumkin?" O'quvchilar o'z fikrlarini aytar ekan, asar qahramoni holatini qayta his qiladilar. Qissa qahramoni ruhiyati, kechinmalari, holati bilan bog'liq bo'lgan birorta detal o'quvchilar nazaridan chetda qolmasligi kerak. Ana shunda o'quvchilar adabiy qahramon timsolida o'zgani, yon-atrofidagi ikkinchi bir insonni ko'rishga, uni his qilishga o'rganadilar. O'qituvchining o'quvchilarga bergan: "O'rozqulning shoxni olishdagi xatti-harakati sizning ko'nglingizda qanday tuyg'ularni paydo qildi? Siz bolaning xarakteri bilan matnni o'qish jarayonida tanishib bordingiz. Uning oxirgi xatti-harakatlarini qanday baholaysiz?" tarzidagi savollariga javob berish asnosida o'quvchilar asar, undagi personajlar, muallif mahorati borasidagi umumiy xulosalarini chiqaradilar.

“Bolaning bu dunyoga sig‘may qolishini, isyonini qanday sharhlaysiz? Sizda bolaga achindingizmi? Mo‘min cholga-chi? O‘rozqulga-chi? O‘rozquldan nafratlanish kerakmi yoki unga achinish kerakmi? Nima deb o‘ylaysiz, hayotda O‘rozqullar ko‘pmi yoki bola va uning bobosiga o‘xshaganlar? Nega shunday deb o‘ylaysiz?” kabi savollar o‘quvchilarni o‘qiganlarini hayot bilan taqqoslashga, o‘ziga xos xulosalar chiqarishga undaydi. Savollar juda ko‘p bo‘lishi kerak. Aks holda, o‘quvchilarni badiiy matn ichiga olib kirish, mustaqil mushohada yuritishga o‘rgatish qiyin bo‘ladi.

Uyga vazifa sifatida asar mazmuni asosida ixtiyoriy insho yozishni topshirish mumkin. Bunday insho yozishda o‘quvchi asar matnidani o‘ziga ma‘qul bo‘lgan sahifani ajratib olib, unda ifodalangan voqea-hodisani tahlilga tortadi, munosabat bildiradi va ayni shu sahifa unga nimasi bilan yoqqanini asoslab beradi. Yoki bola timsoliga o‘z munosabatini bildiradi. O‘zining bolalagini u bilan taqqoslab o‘xshash jihatlarni farqlaydi va tasvirlaydi. Yoinki o‘zi tanigan-bilgan qariyalarni Mo‘min chol bilan taqqoslab ish yozishi mumkin va hk. har qanday holatda ham o‘quvchi ijodiy faoliyat yuritadi. Fikr kishisiga aylanadi.

Keyingi darsda insholarni qog‘ozda tekshirish emas, balki o‘quvchilar ijod mahsulini o‘zlari o‘qib berishlari asosida baholash maqsadga muvofiqdir. Chunki adabiyot darslarida olingan insholarga yondashuv butunlay boshqa bo‘ladi. Bu talablar bilan bo‘lajak o‘qituvchi keyingi mashg‘ulotlarda batafsil tanishib oladi.

Savol va topshiriqlar:

1. Suhbat metodiga xos bo‘lgan zamonaviy talab va talqinni ajratib yozing. Ularni avvalgi xususiyatlari bilan taqqoslang. O‘xshash va farli tomonlarini ko‘rsating.

2. Suhbat metodining asosiy ashyosi bo‘lgan savollar haqida aytilgan: *“Yaxshi savol ahamiyatli, keng qamrovli, o‘ylashga, his qilishga, izlanishga majbur etadigan, kashfiyotlar qiladigan, tasavvur uyg‘otadigan”* singari sifatning har birini alohida tahlilga torting. Badiiy asarlar misolida ularni ifodalab beradigan savol-topshiriqlar tuzing. Yaratilgaringizni kursdoshlar bilan baham ko‘ring.

3. Jaloliddin Rumiy hazratlarining: *“Yaxshi savol yarim bilimdir”*, - degan hikmatini sharhlang. Yaxshi savolning bilimga qanday ahamiyati bor deb o‘ylaysiz?

ma'naviy buzilib ketishi sabablari xaqida o'ylab ko'rsinlar. Odamlarning buzilishi asarning kaysi o'rinlarida ko'rinishini topsinlar. Mo'min cholning qavs ichida berilgan so'zlariga alohida munosabat bidirsalar, juda o'rinli bo'ladi. Matnda "*Butun umr bo'yi bug'u nima ekanligini ko'rmagan yangi insonlar tug'ildi*" jumlasining o'quvchilarga qay darajada daxli borligini o'ylab ko'rishga undash lozim.

Ikkala ertak ham tugadi. Har ikki ertak o'quvchilarning ko'nglida o'ziga xos iz qoldirgani aniq. O'smirlarni ertak ta'siridan chiqarmasdan uning qolganini o'qishni uyga topshirish o'rinni bo'ladi.

Oxirgi darsda matnning qolgan qismi va uning avvalgi bo'limlari yuzasidan umumiy savollar bilan asar tahlili mustahkamlanadi, fikrlar qat'iytlashadi. Har bir savol yuzasidan imkon qadar ko'proq o'quvchilardan javob olishga harakat qilingani ma'qul. O'quvchilar bir-birlarining fikrini eshitishga o'rganishlari kerak. Ayni vaqtda, javoblarning lo'nda va mazmunli bo'lishiga ham e'tibor berish lozim. Bolalarga birovning fikrini qaytarish, matn mazmunini hikoya qilish imkoni berilmay, ulardan o'z fikrini bildirish talab etilsa, o'quvchilar mustaqil fikrlaydigan va o'z fikrini himoya qila oladigan, har qanday vaziyatga ijodiy yondasha oladigan kishilar sifatida shakllanadilar.

Asarning uyga vazifa sifatida berilgan qismidan chol bilan bolaning bezovtaligi sababini so'rash maqsadga muvofiq bo'ladi. Bolaning shoxdor ona bug'u kallasini ko'rgandagi holati tasvirlangan o'rinlarni qayta o'qitish va o'quvchilardan bu haqdagi fikrlarini so'rash zarur: "Mazkur vaziyat tasviri ularning ko'ngillarida qanday hislarni qo'zg'agan bo'lishi mumkin?" O'quvchilar o'z fikrlarini aytar ekan, asar qahramoni holatini qayta his qiladilar. Qissa qahramoni ruhiyati, kechinmalari, holati bilan bog'liq bo'lgan birorta detal o'quvchilar nazaridan chetda qolmasligi kerak. Ana shunda o'quvchilar adabiy qahramon timsolida o'zgani, yon-atrofidagi ikkinchi bir insonni ko'rishga, uni his qilishga o'rganadilar. O'qituvchining o'quvchilarga bergan: "O'rozqulning shoxni olishdagi xatti-harakati sizning ko'nglingizda qanday tuyg'ularni paydo qildi? Siz bolaning xarakteri bilan matnni o'qish jarayonida tanishib bordingiz. Uning oxirgi xatti-harakatlarini qanday baholaysiz?" tarzidagi savollariga javob berish asnosida o'quvchilar asar, undagi personajlar, muallif mahorati borasidagi umumiy xulosalarini chiqaradilar.

“Bolaning bu dunyoga sig‘may qolishini, isyonini qanday sharhlaysiz? Sizda bolaga achindingizmi? Mo‘min cholga-chi? O‘rozqulga-chi? O‘rozquldan nafratlanish kerakmi yoki unga achinish kerakmi? Nima deb o‘ylaysiz, hayotda O‘rozqullar ko‘pmi yoki bola va uning bobosiga o‘xshaganlar? Nega shunday deb o‘ylaysiz?” kabi savollar o‘quvchilarni o‘qiganlarini hayot bilan taqqoslashga, o‘ziga xos xulosalar chiqarishga undaydi. Savollar juda ko‘p bo‘lishi kerak. Aks holda, o‘quvchilarni badiiy matn ichiga olib kirish, mustaqil mushohada yuritishga o‘rgatish qiyin bo‘ladi.

Uyga vazifa sifatida asar mazmuni asosida ixtiyoriy insho yozishni topshirish mumkin. Bunday insho yozishda o‘quvchi asar matnidan o‘ziga ma‘qul bo‘lgan sahifani ajratib olib, unda ifodalangan voqea-hodisani tahlilga tortadi, munosabat bildiradi va ayni shu sahifa unga nimasi bilan yoqqanini asoslab beradi. Yoki bola timsoliga o‘z munosabatini bildiradi. O‘zining bolalagini u bilan taqqoslab o‘xshash jihatlarni farqlaydi va tasvirlaydi. Yoinki o‘zi tanigan-bilgan qariyalarni Mo‘min chol bilan taqqoslab ish yozishi mumkin va hk. har qanday holatda ham o‘quvchi ijodiy faoliyat yuritadi. Fikr kishisiga aylanadi.

Keyingi darsda insholarni qog‘ozda tekshirish emas, balki o‘quvchilar ijod mahsulini o‘zlari o‘qib berishlari asosida baholash maqsadga muvofiqdir. Chunki adabiyot darslarida olingan insholarga yondashuv butunlay boshqa bo‘ladi. Bu talablar bilan bo‘lajak o‘qituvchi keyingi mashg‘ulotlarda batafsil tanishib oladi.

Savol va topshiriqlar:

1. Suhbat metodiga xos bo‘lgan zamonaviy talab va talqinni ajratib yozing. Ularni avvalgi xususiyatlari bilan taqqoslang. O‘xshash va farli tomonlarini ko‘rsating.

2. Suhbat metodining asosiy ashyosi bo‘lgan savollar haqida aytilgan: *“Yaxshi savol ahamiyatli, keng qamrovli, o‘ylashga, his qilishga, izlanishga majbur etadigan, kashfiyotlar qiladigan, tasavvur uyg‘otadigan”* singari sifatning har birini alohida tahlilga torting. Badiiy asarlar misolida ularni ifodalab beradigan savol-topshiriqlar tuzing. Yaratiqlaringizni kursdoshlar bilan baham ko‘ring.

3. Jaloliddin Rumi y hazratlarining: *“Yaxshi savol yarim bilimdir”*, - degan hikmatini sharhlang. Yaxshi savolning bilimga qanday ahamiyati bor deb o‘ylaysiz?

4. Suhbat metodiga xos bo'lgan quyidagi: *“Asar ustida ishlash jarayonida bo'ladigan suhbatlar nafaqat ovoz chiqarib fikrlash, balki ovoz chiqarib his etish hamdir”*, degan fikrga diqqat qiling. O'ylab ko'ringchi, *“ovoz chiqarib his etish”*ni qanday tushinish mumkin, Sizningcha?

5. Matndan suhbat metodidan foydalanganda o'qituvchi qo'llaydigan amallarni ajratib yozing. Ularning har birini izohlang.

6. Suhbat metodidan foydalanganda o'qituvchi yo'l qo'yishi mumkin bo'lmagan jihatlarni ajratib yozing. Ularning nima uchun ta'qiqlanganligi sabablarini aniqlang, izohlashga urinib ko'ring.

7. Suhbat metodiga xos bo'lgan quyidagi fikrga e'tibor qiling: *“Savolning berilish ohangi ba'zan o'quvchiga javobning yo'nalishini belgilashga ko'maklashishi mumkin”*. Sizningcha, bu nima degani? Uni qanday tushundingiz? Fikringizni izohlang.

8. Evristik metodning suhbat metodidan farq qiladigan asosiy jihatlarni topib ajratib yozing. Bu farqlarni qanday anglaganingizni biror badiiy asar misolida saol-topshiriqlar tuzib tushintirib bering.

9. Tadqiqot va evristik metodlarning o'xshash hamda farqli tomonlarini aniqlang. Metodlarga xos bo'lgan umumiylik va xususiylikni bittama-bitta izohlang. Xulosalaringizni biror asar misolida asoslay bilsangiz, go'zal ish bo'lardi.

10. *“Har qanday inson oldiga savol qo'yilganda hech o'ylab o'tirmay, ichdan beriladigan ilk javob ko'ngildan chiqqan rost bo'ladi. Keyin bu jarayonga aql aralashadi. Yoki bu fikr rad etilib boshqa javob tashqariga chiqadi yoki shu fikr ovoz chiqarib aytiladi. Ya'ni jarayonga aql aralashadi. Aql manfaatlarni taftish qiladi, bilimni ishga soladi va munosabatni shakllantiradi, asoslaydi”*, tarzidagi qanoatga munosabat bildiring. Fikringizni asoslang.

11. Taqqoslash metodi xususiyatlari bilan bog'liq qarashlarni “O'tgan kunlar”dagi Kumushbibi va Zaynabni, “Muzqaymoq” bilan “Nido”dagi bolalarni, “Bemor” bilan “Ming bir jon”dagi kasal ayollarni, “Uch og'a-ini botirlar”dagi va Kenja botir hikoyasidagi shohlarni, “Mening o'g'rigina bolam”dagi Qora buvi bilan “Urushning so'nggi qurboni”dagi ona timsollari misolida o'zingiz taqqoslab ko'ring. Xulosalaringizni birgalashib muhokama qiling. O'zingizni o'qituvchilikka tayyorlang.

12. Istalgan bir badiiy asar misolida induktiv va deduktiv metodlarning xususiyatlarini butun kurs birgalikda aniqlashga urinib ko'ring. Bu sizning pedagogik amaliyotingizga zamin tayyorlaydi.

13. "Fikriy hujum" metodidan foydalanishda undagi yetakchi g'oyalarni ajrating. Biror badiiy matn misolida "hujum" qilinishi kerak bo'lgan muhimlarni ajrating.

14. Sizga taqdim etilayotgan "6x6x6" metodi har ikkala variantning afzalliklari va kamchiliklari haqida o'ylab ko'ring. Asarlar yana qaysi metodlardan foydalanib o'rganilsa samara kuchliroq bo'lishi mumkin, Sizing nazaringizda?

15. Ssenariy yaratish adabiy ta'limdagi salmoqli ishlardan biri ekanini anglagan holda bu kabi topshiriqni o'quvchilarga berishdan oldin o'zingiz uni tuzish talablariga to'liq amal qilgan holda biror badiiy asar yuzasidan ssenariy yarating. Yaratig'ingizni kursdoshlaringiz va domlangiz bilan bo'lishing. Yutuq va kamchiliklarini birgalashib o'rganing.

16. Ta'lim metodlari va usullari orasidagi tafovutni ajratib yozing. Ta'lim usullarining o'qitish metodlaridagi o'rni va ahamiyatini aniq bir metod timsolida sanab bering. Qarashlaringizni bir asar misolida asoslang.

17. «Oq kema» tahlili zamirida savol va topshiriqqa aylantirishi taklif etilgan fikrlarning barchasini savol yoki topshiriq tarzida qayta ishlang. Ularning har biriga o'zingiz javob bering.

18. Asarni amaliy mashg'ulotda domlangiz yordamida tahlilga torting. O'quvchilarga taqdim etilgan uy vazifalarini o'zingiz bajarib ko'ring.

19. Alisher Navoiyning istalgan bir g'azalini, qo'lingizdan kelganicha tahlilga torting. Yozma ishingizni har biringiz o'rtoqlaringizga o'qib berib muhozalarini eshiting.

18-MAVZU. BLUM TAKSONOMIYASI VA ADABIY TA'LIM. ADABIYOT O'QITISH METODIKASI FANIDA MOTIVATSIYA

Reja:

1. *Adabiyot darslarini tashkil etishda Blum taksonomiyasi va uning adabiyot o'qitishdagi ahamiyati.*
2. *Blum taksonomiyasi asosida fanning o'qitish bosqichlarini belgilash.*
3. *Motivatsiya.*
4. *Badiiy matnning didaktik tahlili namunasi.*

Taksonomiya qadimgi grek tilidagi (τάξις) *tartib, saf* va (νόμος) *qonun* so'zlaridan olingan bo'lib tasniflash, tizimga solish, tartib bilan joylashtirish ma'nolarini anglatadi.

Blum taksonomiyasi 1956-yilda bir guruh olimlar tomonidan taklif etilgan bo'lib, unda guruh rahbari amerikalik psixolog Benjamin Semyuel Blum (1913–1999)ning «Ta'lim maqsadlari taksonomiyasi: bilish yo'nalishi» nomli kitobidagi g'oyalari ilgari surilgan¹.

«Taksonomiya» atamasi birinchi marta 1813-yilda o'simliklar klassifikatsiyasi bilan shug'ullangan fransuz botanigi Ogyusten Dekandol (1778–1841) tomonidan fanga kiritilgan. Bu so'z avval faqat biologiya fanida qo'llanilgan. Keyinchalik lingvistika, geografiya va geologiya ilmidagi murakkab tizimlarni tasniflash nazariyasini ifodalovchi atama sifatida ham qo'llanila boshlandi. Bu taksonomiyani adabiyot o'qitish metodikasi ilmi va amaliyotiga ham uning o'ziga xos sifatlariga asoslangan holda olib kirish mumkin.

Blum taksonomiyasi o'qituvchi tomonidan tarbiyalanuvchilar oldiga qo'yiladigan qator topshiriqlarni o'quv maqsadlariga muvofiq tarzda: *kognitiv, affektiv, psixomotor* yo'nalishlarida tasniflanishini nazarda tutadi. Ta'lim maqsadining bu uch yo'nalishini oddiyroq qilib «bilaman», «his qilaman» va «yarataman» so'zlari bilan ifodalash mumkin. Buni milliy ta'lim amaliyotida bugun dars jarayonidan ko'zda tutilgan: *ta'limiy, tarbiyaviy, yo'naltiruvchi* va *rivojlantiruvchi* maqsadlarga erishishga yangicha yondashuv sifatida qabul qilish mumkin.

¹ <https://ru.wikipedia.org/wiki/Википедия>. Википедия. Свободная энциклопедия.

Psixologiya ilmidagi «kognitiv» (bilaman, ya'ni bilishga oid) so'zi axborotni qabul qilish va uni qayta ishlash ma'nosida, insonning ruhiy holati (ishonchi, xohish-istaklari va maqsadlari)ni ifodalashda qo'llaniladi. «Kognitiv» (lotincha *cognitio* so'zidan olingan bo'lib *bilish, o'zlashtirish, anglash* ma'nolarini ifodalaydi) ta'limda bilimlarni o'zlashtirish va o'zlashtirilgan axborotni amaliyotda qo'llay olishni nazarda tutadi¹. Buni bevosita adabiy ta'lim bilan bog'laydigan bo'lsak, o'qituvchilarning o'quv rejasi, adabiy ta'lim konsepsiyasi, adabiyot bo'yicha davlat ta'lim standarti, va dasturlar, dars berish amaliyoti, bu jarayonda samarali qo'llaniladigan metodlar borasida to'liq bilimga ega bo'lishlari nazarda tutiladi. O'quvchilar misolida esa: adabiy-nazariy tushunchalar – har bir bosqichda o'rganiladigan badiiy asarlar janrini farqlash, o'qish (bilish) (amaldagi ta'limiy maqsad); o'qilgan badiiy asarni tushunish, uning mazmun-mohiyatiga kira bilish (tushunish); avvalgi darslarda o'zlashtirilganlari bilim, ko'nikma va malakalardan mazkur yangi asarni o'rganish jarayonida foydalanish (qo'llash); darsda badiiy matnning didaktik tahlili jarayonida o'z qarashlari va munosabatlari bilan ishtirok etish (tahlil) (bu ham amaldagi ta'limiy maqsadga mutanosib); badiiy asar mazmuni, unda ko'tarilgan yetakchi g'oyalar, timsollar haqida o'zining asosli xulosalarini chiqarishi va umumlashtirishi (sintez) (amaldagi yo'naltiruvchi maqsad); asar, undagi yetakchi g'oyalar va qahramonlarning xatti-harakatlari, tuyg'ulari va holatini, bu boradagi qarashlarini asoslay va xulosalay bilishi, DTS talablariga javob bera olishi (baholash) (ya'ni amaldagi rivojlantiruvchi maqsadga mos keladi) nazarda tutiladi.

Blum taksonomiyasida o'quvchilarning ta'lim olishi va tarbiyalanishi borasida har bir bosqichning bunday tizimga solinishi tarbiyalanuvchilarning intellektual imkoniyatlarini har jihatdan imkon qadar kengroq, to'liq va aniq qamrab olishga harakat qilinganini ko'rish mumkin. Bundan yana bir narsani anglash mumkinki, milliy tarbiyashunoslikdagi o'quv axborotlarini o'qituvchi tomonidan imkon qadar chuqur berilishini nazarda tutadigan tizim biryozlamalikka asoslangan.

¹ Азимов Э. Г., Щукин А. Н. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). – Москва: "ИКАР", 2009. – 448 с. С. 96.

Blum taksonomiyasida o'quv maqsadlarining *kognitiv* shakli yillar davomida tajriba asosida puxtalashtirilgan va dunyo miqyosida keng tarqalgan. Kognitiv maqsad alohida shaklda ta'lim yo'nalishi sifatida ham ma'lum ahamiyatga egadir.

Kognitiv yo'nalishdagi ko'nikma va malakalar bilim, tushuncha va tanqidiy mulohaza yuritishga daxldor. Blum taksonomiyasida o'quv maqsadlarining kognitiv yo'nalishi quyidagicha: bilish, tushinish, qo'llash, tahlillash, umumlashtirish va baholash shaklida tasniflanadi. Ta'lim maqsadlarining kognitiv yo'nalishida:

- *bilish* bosqichi o'zlashtirilgan o'quv materialini esda saqlab qolishni va aniq dallillar, nazariy qarashlarni o'zlashtirishni nazarda tutadi. Bilishda o'quvchilarning mazkur bosqichni egallaganliklarini ko'rsatuvchi xatti-harakatlari quyidagilarda aks etadi: atamalar, dalillar, metodlar, asosiy tushunchalar, qoida va tamoyillarni bilishi hamda ulardan amalda foydalana olishi muhim sanaladi;

- *tushunishning* asosiy belgisi o'quv materialini bir turdan ikkinchi turga o'tkaza bilish, voqea va hodisalarning keyingi bosqichini tasavvur qila olishdan iboratdir. Tushinishda dalillar, qoida va tamoyillarni tushuntirib bera olishi, so'z bilan ifodalangan materiallarni amaliy ifodalarga aylantira bilishi, mavjud ma'lumotlarga asoslangan holda keyingi bosqichlarni taxmin qilishi nazarda tutiladi;

- *qo'llash* turida o'zlashtirilgan bilimlarni ma'lum shart-sharoitda, begona vaziyatlarda foydalana bilish nazarda tutiladi. Qo'llashda o'quvchilarning o'rgangan qonuniyat va nazariyalarni aniq amaliy vaziyatlarga tatbiq eta olishi, tushuncha va tamoyillarni har xil vaziyatlarga tatbiq etishga qodirligi ahamiyat kasb etadi;

- *tahlillash* kategoriyasi o'zlashtirilgan bilimlarni aniq tiizimga sola bilishni ko'zlaydi. Tahlil qilishda o'quvchilarning butunni ma'lum bo'laklarga ajrata olishi, ular orasidagi aloqadorlikni ko'rsatib bera bilishi, butunni tashkil etish tamoyillarini aniqlashi, mantiqiy mulohaza jarayonida yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni ko'ra olishi, dalillar va tekshiruvlar orasidagi farqni ko'rsatib bera bilishi nazarda tutiladi;

- *umumlashtirish (sintez)* kategoriyasi kashf etilgan yangilikka qismlarni yaxlitlash orqali qayta erishishni, bilganlarini amalda qo'llashni nazarda tutadi. Umumlashtirishda, masalan, adabiy ta'limda o'quvchilarning biror mavzu bo'yicha insho va referat yozishi,

chiqishlar va ma'ruzalar matnini tayyorlashi, eksperiment va boshqa tashkiliy ishlarni o'tkazish rejasini taklif etishi, har xil yo'nalishdagi masalalarning sxemasini tuzishi ko'zda tutilgan;

- baholashda esa u yoki bu o'quv materialining ahamiyati baholanadi. Baholashda o'quvchi yozma matnning tuzilishi mantig'ini, mavjud ma'lumotlar bilan xulosalarning o'zaro mutanosibli, mavjud ma'lumotning ahamiyatligi darajasini baholaydi¹.

Blum taksonomiyasida maqsadlarning boshqa ikki yo'nalishiga nisbatan keng tarqalgan, dunyo miqyosida alohida e'tirof etilgan kognitiv maqsadning bevosita maktab adabiy ta'limi bilan bog'langan holatini quyidagi jadvalda ko'rish mumkin:

Adabiy ta'lim misolida kognitiv yo'nalish maqsadlarining yaxlit ko'rinishi tasviri

O'quv maqsadlari yo'nalishlari	Bu maqsadlarga erishish uchun nazarda tutilgan bilim, ko'nikma va malakalar
Bilish	Nazariy tushunchalar, adabiy janrlar, timsollar, asardagi yetakchi g'oyalar, o'qish, turkumlash, muammolarni hal etish yo'llarini bilish, hodisalarni tushuna bilish, mustaqil fikrlash, mustaqil faoliyat yuritish va hk.
Tushunish	O'qilgan badiiy asarni tushunish, uning mazmun-mohiyatiga kira bilish, obrazlar tizimini farqlash, ularning tutumlari va xatti-harakatlari, tuyg'ulari sabablarini, oqibatning sabablarini farqlash va hk.
Qo'llash	Avvalgi darslarda o'zlashtirganlari bilim, ko'nikma va malakalaridan mazkur yangi asarni o'rganish jarayonida foydalanish, ayni ko'nikma va malakalardan har qanday vaziyat va holatda, hayotda foydalana bilish va hk.
Tahlillash	Darsda badiiy matnning didaktik (o'quv) tahlili jarayonida o'z qarashlari va munosabatlari bilan ishtirok etish, oqibatlarning sabablarini ko'rsata bilish, qahramonni tuyish, unga achinish yoki nafratlanish, tuyg'ularini farqlash va ifodalab berish va hk.
Umumlashtirish (sintez)	Badiiy asar mazmuni, unda ko'tarilgan yetakchi g'oyalar, timsollar haqida o'quvchilarning o'z asosli xulosalarini chiqarishi, umumlashtirishi, fikrlarini har jihatdan asoslay bilishi, mavjud voqea-hodisalarni hayotiy, ilmiy va ilohiy

	asoslar bilan dalillashi, insho, taqriz va esselar yozishi va hk.
Baholash	Asar, undagi yetakchi g'oyalar va qahramonlarning xatti-harakatlari, tuyg'ulari va holatini, bu boradagi qarashlarini asoslay va xulosalay bilishi, DTS va dastur talablariga javob bera olishi va hk.

Mazkur Blum taksonomiyasining qolgan ikki maqsadi – bilimlarni o'zlashtirishdagi *affektiv* yo'nalishi (lotincha *affectus* so'zidan olingan bo'lib, *ichdan to'liqlanish* ma'nosini anglatadi) shaxsning portlash xarakteridagi qisqa muddatli va yuqori intensiv emotsional holatini, biror narsadan qattiq ta'sirlanishni nazarda tutadi. Ta'lim maqsadlarining affektiv yo'nalishi o'zida insonning emotsional reaksiyasini, ta'lim jarayoni qonun-qoidalariga munosabati, o'zgalarning qayg'u yoki shodligini qanchalik his etishiga e'tibor qaratadi. Affektiv maqsadlar insonning tuyg'ulari, emotsiyasi va munosabatlari bilan bog'liqdir¹.

Adabiyot darslarida bu holatni kengroq va aniqroq kuzatish mumkin. O'qirmanning adabiy qahramon tutumlaridan ta'sirlanib yig'lashi yoki kulishi, ularga achingan holda bir necha kun asar ta'sirida xursand yoki xafa bo'lib yurishi, qahramonlarga taqlid qilib hayotda biror xatti-harakatlarni sodir qilishi insonning affektiv holatini namoyon etadi.

Blum taksonomiyasida affektiv (ta'sir) doiradagi o'quv maqsadlari ham xuddi kognitiv maqsadlar singari ma'lum qismlardan iborat bo'lib, ulardan birinchisi **idrok**dir. Bu tarbiyalanuvchining atrof-olamdagi ba'zi bir hodisalarni idrok etishga, bilishga bo'lgan tayyorligi va qobiliyatini qamrab oladi. O'qituvchining affektiv maqsadga erishish yo'lidagi faoliyati o'quvchining e'tiborini jalb qilish, uning diqqatini butun dars davomida ushlab tura bilish va yo'naltirishdan iborat bo'ladi. Bunda quyidagilar nazarda tutiladi:

- 1) o'quvchining xabardorlik darajasi;
- 2) uning bilimlarni idrok etishga tayyorlik darajasi va xohishlari;
- 3) tarbiyalanuvchining bilishga bo'lgan passiv holatidan nisbatan faol munosabatlarga (garchi o'quvchi bu darajaga hali to'liq ongli

¹ Peter Lang, Yaacov Katz, Isabel Menezes. *Affective Education. (A Comparative View.)* – London and New York, 1998. – P. 261.

ravishda, maqsadga muvofiq tarzda kirishmagan bo'lsa ham) ko'tarilishi.

Bu jarayonda o'quvchining:

- o'qishi muhimligi va zarurligini anglaganligi;
- sinfda, suhbat jarayonida boshqalarning fikrini diqqat bilan tinglashi, dars jarayonida o'zini tutishi, kiyinishi, badiiy asar va tasviriy san'at namunalariidagi estetik omillardan xabardorligi va munosabati;
- boshqalarning muammolari va ehtiyojlariga, ijtimoiy hayot muammolariga munosabati va hk.larda namoyon bo'ladi.

Blum taksonomiyasining affektiv yo'nalishida **munosabat** (javob) bosqichi ham o'quvchi mustaqil faoliyatining namoyon bo'lishini anglatadi. Ma'lumki, har qanday ruhan sog'lom o'quvchi nafaqat sezadi, balki u yoki bu hodisaga javob beradi, munosabat bildiradi, obyekt, hodisa yoki faoliyatga qiziqishini, loqaydligi yoki qiziqmasligini namoyon etadi. O'quvchining o'zgalar fikriga bo'ysunuvchanligi, o'z ixtiyori bilan javob berishi va bundan mamnunlik hissi tutumlarida namoyon bo'ladi.

O'quvchi: o'qituvchi tomonidan berilgan uy vazifasini bajaradi; maktab ichidagi tartibga va o'zini tutish qoidalariga bo'ysunadi; sinf muhokamasida qatnashadi; ijtimoiy-siyosiy va xalqaro muammolarning yoritilishi bilan mustaqil ravishda tanishadi; topshiriqni bajarishga moyillik ko'rsatadi; mavzuga qiziqishini ko'rsatadi va hk. Bularning barchasi affektiv maqsadlarni belgilashga va unga erishilganlikni asoslashga zamin bo'ladi.

Blum taksonomiyasining affektiv yo'nalishida o'quvchining qadriyatlar, qonun-qoida va tartib-intizomni o'zlashtirish jarayoni ham qamrab olingan. Ushbu toifaga o'quvchining ba'zi obyektlar, hodisalar yoki faoliyat turlariga munosabati: tartib-qoidani qabul qilish; tizim-tartib yo'nalishining afzalligi; majburiyat, ishonchlilik va hk.

Bunda o'quvchi o'z faoliyatida quyidagilarni namoyish etadi: kuchli istakni ko'rsatishi, savodliligi, og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini o'zlashtirishi; o'zlarining xulosalarini chiqarish uchun turli xil qarashlarni maqsadga muvofiq ravishda ko'rib chiqa bilishi; u yoki bu idealni qo'llab-quvvatlagan holda, ishonchni namoyish etishi va hk.

Bu jarayonda o'quvchi:

- sevimli badiiy va san'at asarining asosiy xususiyatlarini aniqlashga intiladi;
- xatti-harakati uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladi;
- qadriyatlar, tartib-intizomning imkoniyatlari va cheklovlarini tushunadi;
- o'z ongli qobiliyati, qiziqishlari va e'tiqodlariga muvofiq hayotiy rejalar tuzadi;
- ta'lim ishida mustaqillikni barqaror ravishda namoyon etadi;
- guruh faoliyatida hamkorlik qilish istagini ko'rsatadi;
- o'z hukm-xulosalarini qayta ko'rib chiqishga va harakatlarining yo'nalishini ishonchli dalillar mavjud bo'lganda o'zgartirishga tayyorligini ko'rsatadi;
- doimiy ravishda shaxsiy gigiena va sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini namoyish etadi;
- barqaror va izchil hayotiy kredo (dunyoqarashi, shaxsiy munosabati)ni shakllantiradi.

Maqsadlarning affektiv yo'nalishi bilan bog'liq ushbu xususiyatlarni bilish o'qituvchining ish faoliyatini ancha osonlashtiradi. Bu xususiyatlar asosida o'qituvchi o'quv jarayonini, uning bosqichlari va elementlari ketma-ketligini, soddalashtirilgan yoki murakkablashtirilgan o'quv faoliyatini tashkil etishi mumkin bo'ladi. Blum taksonomiyasining uchinchi yo'nalishi *psixomotor* sohasidagi ko'nikmalar esa har qanday o'quv qurollarini talab darajasida ishlata bilish, axborot kommunikativ texnika vositalarini boshqarish va ulardan o'z maqsadi yo'lida foydalana olish qobiliyatini tavsiflaydi. Psixomotor maqsadlar odatda amaliy ko'nikmalarni o'zgartirish yoki rivojlantirish bilan bog'liq.

Mazkur taksonomiyada ifodalangan psixomotor maqsadlar ta'limiy asbob-uskunalarga, o'quv qurollari, texnika vositalariga moslashishni, ulardan o'rni bilan bilimlariga asoslangan holda foydalana olishni, nazariy bilimlarni amalda mustaqil ravishda qo'llashni nazarda tutadi. Psixomotor maqsadlar amaliy ko'nikmalarni o'zgartirish va rivojlantirishga asoslanadi¹.

Ta'lim maqsadlarining psixomotor yo'nalishida o'quvchilar hamma faoliyatni o'zlari mustaqil ravishda amalga oshirishlarini,

¹ Азимов Э. Г., Шукин А. Н. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). – Москва: “ИКАР”, 2009. – 448 с. С. 96.

bilishi, o'zlashtirishi kerak bo'lgan barcha bilim, egallashlari nazarda tutilgan ko'nikma va malakalarni o'zlari amalda qo'llagan holda o'zlashtirishlarini nazarda tutadi. Bu jarayonda o'quvchilarning quyidagi amaliy faoliyatlari qamrab olinadi:

– *bilish yo'nalishi bo'yicha*: aniqlash, yodlash, yozib olish, ro'yxat tuzish, tizimga solish, yig'ish, belgilash, turkumlash, raqamlash, aniqlash, kuzatish, qayta chizish, qayta yozish, eskiz yaratish va hk.;

– *tushunish yo'nalishi bo'yicha*: tushuntirish, muhokama qilish, shakllantirish, tavsiflash, takrorlash tasvirlab berish, nomlash, guruhlash, joylashishini aniqlash, ifoda etish, rasmlarda tushuntirish, namoyish etish, chizilgan rasmni o'qish va hk.;

– *qo'llash yo'nalishi bo'yicha*: intervyu olish, intervyu berish, sahnalashtirish, namoyish qilish, ifoda etish, nashr etish, tekshirish, hal qilish, hisoblash, tajriba qilish, isbotlash va hk.;

– *tahlil yo'nalishi bo'yicha*: izohlash, fikr aytish, taqqoslash, tadqiq qilish, savollar berish, qurish, ko'rib chiqish, tahlil qilish, o'rganish, kashf etish, shakllantirish, o'lchash, bo'lishish, sahnalashtirish, tasvirlash, ko'rsatish, qurish, isbotlash, yaxshilab o'rganish, tartibga solish, diagramma tuzish, grafika, taqqoslash va hk.;

– *umumlashtirish (sintezlash) yo'nalishi bo'yicha*: yaratish, tuzish, tasavvur qilish, bashorat qilish, ixtiro qilish, o'ylab ko'rish, tuzish, faraz qilish, asoslash, tizimlashtirish, qurish, yaratish, loyihalash, yig'ish, modellashtirish va hk.;

– *baholash yo'nalishi bo'yicha*: xulosa qilish, baholash, taxmin qilish, to'g'rilash, bashorat qilish, tahrirlash, tanlash, o'lchash, hisoblash, tavsiya qilish va hk. O'quvchilarning topshiriqlarni o'z psixomotorikasini ishga solgan holda mustaqil ravishda bajarishlari nazarda tutiladi.

Blum taksonomiyasining dunyo miqyosida keng tarqalgan va alohida yo'nalish shaklida e'tirof etilgan kognitiv maqsadlari borasida yuqorida aytilgan fikrlarning amaliy namunasini quyida Ernest Seton-Tompsonning "Yovvoyi yo'rg'a" asari misolida ko'rish mumkin.

Ta'lim maqsadining har uchala yo'nalishida uning keyingi bosqichiga o'tish uchun avvalgi bosqich bo'yicha tajribaga ega bo'lish taqozo etiladi. Blum taksonomiyasining asosiy maqsadi pedagoglarda

ta'lim maqsadining har uchala sohasi bo'yicha motivatsiyaa uyg'otish va shu orqali ta'lim samaradorligini ta'minlashdan iboratdir.

Motivatsiya (lotincha *movere*) – faoliyatga undash ma'nosini anglatadi. Ya'ni, motivatsiyaa isonning xulq-atvorini boshqarish, vaziyatga mos yo'nalishni tanlash, bu jarayondagi faolligi va qat'iyatligini ta'minlash hamda o'z ichki ehtiyojlarini qondirishiga yo'naltiruvchi psixofiziologik jarayondir.

«Motivatsiyaa» atamasini birinchi marta nemis faylasufi Artur Shopengauer (1788–1860) o'z maqolasida qo'llagan. Bugungi kunda bu atama har xil olimlar tomonidan turlicha talqin qilinadi. Masalan, litvalik psixolog Vitis Kazisa Vilyunas (1944–2011) “motivatsiyaa” tushunchasini ixtiyoriy faoliyatga undovchi ehtiyojlar tizimining yig'indisi, deb hisoblaydi.

K. K. Platonov esa motivatsiya motivlarning psixik yig'indisi deb biladi¹.

Motiv – faoliyat tushunchasining psixologik nazariyalaridan biri bo'lib taniqli psixologlar A. N. Leontev va S. L. Rubinshteynlar tomonidan ishlab chiqilgan. «Motiv – «predmetga yo'naltirilgan ehtiyoj» ma'nosini anglatadi. Motivni ko'pincha maqsad va ehtiyoj bilan bir narsa deb tushunishadi. Ammo, ehtiyoj o'z mazmun-mohiyati bilan qiyinchiliklarni bartaraf etish istagi, maqsad esa ehtiyojlarini qondiruvchi bir qator yo'llarni ongli ravishda tanlash natijasidir. Masalan, chanqoq – tuyg'u, organizmning ehtiyoji; chanqoqni qondirish istagi – maqsad, chanqoqni qondiruvchi suv esa – motiv. Ya'ni, motiv – (suv) resurs; chanqoq – tuyg'u; ehtiyoj esa – chanqoqni qondirish zarurati. Shu ma'noda motiv va motivatsiyaa tushunchalari bir-biridan farqlanadi².

Motivatsiyaning tashqi, ichki, ijobiy, salbiy va qat'iy motivatsiyaa singari turlari mavjud.

1. *Tashqi motivatsiya* ma'lum faoliyatga yo'naltirilmagan, ammo subyekt bilan u yoki bu darajada bog'liq bo'lgan motivatsiyaadir. Masalan, tashqi motivatsiyaani adabiyot bilan bog'lab, badiiy asarlar mazmuni haqida umumiy tasavvurga ega bo'lish, deb tushunish mumkin.

¹ <https://ru.wikipedia.org/wiki.> Википедия. Свободная энциклопедия.

² <https://ru.wikipedia.org/wiki.> Википедия. Свободная энциклопедия.

2. *Ichki motivatsiya* esa ma'lum faoliyat mazmuniga yo'naltirilgan motivatsiyaadir. Ya'ni, (adabiy ta'lim bilan bog'laganda) konkret biror badiiy asar tahliliga, uning mohiyatiga kirishga yo'naltirilgan motivatsiyaani ichki motivatsiyaa deyish o'rinni bo'ladi.

3. *Ijobiy motivatsiya* ijobiy stimulg asoslangan, *salbiy motivatsiyaa* esa salbiy stimulg tayangan bo'ladi. Masalan, o'quvchi adabiyot darslarida yaxshi baho olish uchun uy vazifalarini bajarsa, *ijobiy motivatsiya*, yomon baho olmaslik uchungina topshiriqni bajarishi esa *salbiy motivatsiyadir*.

4. Insonning qat'iy talablariga asoslangan, qo'shimcha mustahkamlashni talab qilmaydigan motivatsiyaa esa *qat'iy motivatsiya* deyiladi.

Adabiyot darslarida, u ta'limning qaysi bosqichida bo'lishidan qat'i nazar o'quvchini bilim olishga yo'naltiruvchi motivatsiyaalardan bittasi – o'qituvchining ishonchi. O'quvchi qalbida o'qishga intiltiruvchi ichki ehtiyoj hissini shakllantirish uchun adabiyot darslarida zarur sharoit, imkoniyat vujudga keltirilmog'i lozim. Bu sharoitning yuzaga kelishi va uning o'quvchi tomonidan anglab olinishi bola shaxsining rivojlanishiga zamin tayyorlaydi. Badiiy asarni o'qishga bo'lgan motivatsiyaani shakllantirish o'quvchiga tayyor bilimlarni berish emas, balki uni ixtiyoriy motivlar, maqsadlar hamda avvalgi tajribalar asosida faoliyat ko'rsatadigan, maqsadga erishish yo'lida aqliy zo'riqishga undaydigan holatga solishdan iboratdir. Har bir o'quvchini boriday qabul qila oladigan tajribali o'qituvchi har bitta bolaning ta'lim motivatsiyaasini hamisha xayolida tutadi. Ba'zan amaliyotda o'quv ishlarining samaradorligi, o'quvchilar o'zlashtirishi motivatsiyaasiz baholanib, bolalarning bilimiga ularning bilishga bo'lgan ehtiyojidan ajratilgan holda qaraladi.

Adabiyot darslarida o'quvchilarning mustaqil fikrlash asosida bilim olishlarini ta'minlash va bilim olishga motivatsiyaa uyg'otishda ta'lim maqsadini to'g'ri belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Adabiyot metodikasi ilmi har bir adabiyot darsi oldiga tarbiyaviy, ta'limiy, yo'naltiruvchi va rivojlantiruvchi maqsadlar qo'yilishi lozimligini ko'zda tutadi. Bu xil maqsadlar to'g'ri belgilab olinsa, dars jarayoni shu asosda tashkil etilsa, o'quvchilarning ma'nan sog'lomlashuvi uchun ulkan imkoniyatlar paydo bo'ladi. Afsuski, dars jarayonida o'qituvchining diqqat markazida o'quvchilarning mustaqil

faoliyatini ta'minlash emas, balki o'z faoliyatini tashkillashtirish masalasi turadi.

Xulosa qilib aytganda, o'qituvchi, avvalo, zamonaviy adabiyot darslarini to'g'ri, mustaqil tafakkur va faoliyatga asoslangan holda tashkil qilishning shartlari nimadan iborat ekanini aniqlab olishi adabiy ta'lim samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Badiiy matnning didaktik tahlili namunasi

“Yovvoyi yo‘rg‘a” hikoyasini o‘rganish

Ushbu mavzuni o'rganishga rejalashtirilgan birinchi soatni o'qituvchi o'quvchilarning Ernest Seton-Tompson hayoti va ijodi bilan bog'liq bilimlarini tekshiruvchi savol-topshiriqlar bilan boshlashi mumkin (Yozuvchi va shoirlar haqidagi biografik ma'lumotlarni o'rganishga sinfda alohida dars soati ajratilmaydi. Avvalgi dars oxirida ushbu mavzuni o'qib kelish o'quvchilarga uy vazifasi sifatida topshiriladi). Darslikdagi 1-, 2-savollar¹ yozuvchi shaxsini ochishga yo'naltirilgan.

Bularga qo'shimcha ravishda:

1. Tog'ay Murodning adib haqidagi: “*Seton-Tompson:*

Jonivorlarga toza ko'ngil, toza ko'z bilan qaradi.

Jonivordardan o'zining qing'ir, falsafiy fikrlarini aytish uchun foydalanmadi.

Jonivorlarning ichki dunyosini halol, xolisona ochib berdi.

Hayotga jonivorlar ko'zi bilan boqdi.

Jonivorlarga tushkun munosabatda bo'lmadi...

O'z boshidan kechirgan hayotni, o'z ko'zi bilan ko'rgan tabiatni, o'z qo'li bilan ushlagan jonivorlarni qanday bo'ls-a shundayligicha badiiy asar qildi”,- degan fikrlari(ni o'qib berib, ular)ga asoslangan holda yozuvchi tabiatini ochishga urinib ko'ring.

2. “*Jonivordardan o'zining qing'ir, falsafiy fikrlarini aytish uchun foydalanmadi*” jumlasini qanday tushudingiz?

¹ Yo'ldoshev Q. va boshq. Adabiyot umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik-majmua. Qayta ishlangan 4-nashri. – T.: «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2017 – 340 – 364-b.

3. Ernest bilan suhbatdan so'ng Berrous nima uchun iztirobga tushdi? Ko'zlarida yosh qalqishining sababi nimada deb o'ylaysiz?

4. Seton-Tompsonning Berrousni lol qoldirgan shaxsiy muzeyi haqidagi tasvirlarni qayta o'qib, yozuvchining hayvonot olamiga bo'lgan muhabbatiga baho bering.

5. Seton-Tompsonning vasiyatiga e'tibor qiling. Undan adib shaxsiga xos qanday fazilatni ko'rish mumkin?

6. Seton-Tompsonga bergan bahosiga asoslanib, Tog'ay Murod shaxsini baholashga urinib ko'ring.

7. Tog'ay Murod Seton-Tompsonning asarlari tarjimasiga nima sababdan qo'l urgan deb o'laysiz?" kabi savol-topshiriqlar ustida ishlash o'quvchini Seton-Tompson shaxsiyati haqidagi bilimlar bilan boyitadi. Dars jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning bu faoliyati Blum taksonomiyasi kognitiv yo'nalishdagi maqsadlarning **bilish** tasnifiga mos keladi.

O'quvchilar shu tariqa muallif shaxsi bilan tanishtirilgach, hikoyani o'qishga kirishiladi. Asarni o'qish o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi. Bunda muallimning asar matni bilan uyda alohida tanishib chiqqanligi katta ahamiyat kasb etadi. Hikoya bilan tanishish asnosida o'qituvchi matndagi e'tibor qaratish lozim bo'lgan o'rinlar belgilab ketilishini aytsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Shunda munosabat bildirish talab qilinganda, o'quvchilar vaqti qidiruvlarga sarflanmaydi, vaqtdan unumli foydalaniladi.

Hikoya matnini o'qish uchun 40–42 daqiqa kerak bo'ladi. Agar bu mashg'ulot uchun birinchi soat kamlik qilsa, matnning qolgan qismini uyda o'qishga berishga to'g'ri keladi. Yoki o'qituvchi hikoya matnini avvaldan ikki qismga taqsimlab, bir qismini birinchi darsda o'qib tahlil qilishi, qolgan qismini keyingi darsda o'qib muhokama qilishga rejalashtirishi ham mumkin. Har ikkala holatda ham asar matni ustida ishlashda darslikda taqdim etilgan savol-topshiriqlarga tayanish mumkin. Asar tahliliga kirishishdan oldin o'qituvchi o'quvchilariga otlar haqidagi "yo'rg'a", "baytal", "to'riq baytal", "ayg'ir" va "bo'z ot" singari tushunchalar haqida ma'lumot berishi maqsadga muvofiq bo'ladi. O'quvchilar matn mohiyatiga chuqur kira olishlari uchun ular haqida bilimga ega bo'lishlari kerak. Yo'rg'a –

mayda qadam tashlab, tez va tekis yuradigan yilqi¹. Baytal – urg‘ochi yilqi². To‘riq – qora qizil (qizg‘ish malla) rangli yilqi. To‘riq baytal – qora qizil rangli urg‘ochi yilqi³. Ayg‘ir – erkak ot⁴

. Bo‘z ot – bo‘z rangli erkak yilqi. Bu o‘quvchilar asar matni ustida ish olib borishlari uchun zarur bo‘lgan bilim hisoblanib, ta‘limning keyingi bosqichlarida o‘quvchilarning faoliyatida qo‘l keladi. Bu ham Blum taksonomiyasi kognitiv yo‘nalishdagi maqsadlarning **bilish** tasnifiga mos keladi.

O‘quvchilarga yilqilarning hikoyada qo‘llanilgan turlari haqida ma‘lumot berilgach, ularning e‘tibori Joning so‘zlariga tayanib, yovvoyi otlarning xususiyatlarini ochishga qaratiladi. Ularning o‘ziga xos jihatlarini o‘quvchilar hikoya matnidani kelib chiqib aytadilar, albatta. O‘qituvchi: “Hamon yovvoyi otlardan hech qanday foyda yo‘q ekan, Jo nima uchun bu otni tutishga ishqiboz bo‘lib qoldi?” degan savolni o‘rtaga tashlashi mumkin. Bu savolga javob berishda o‘quvchilar Joning oddiygina kambag‘al galachi ekani, osongina boyib ketish haqidagi xom xayollari borligi va Qora yo‘rg‘a unga baxt keltirishiga ishonishini ma‘lum qiladilar.

“Yovvoyi yo‘rg‘aning fermerlarning qo‘lga o‘rgatilgan baytallarini ergashtirib ketishining sababi nimada deb o‘ylaysiz?” savoli o‘quvchilarni anchagina o‘ylantirishi mumkin. Chunki hikoyada unga tayyor javob aytilmagan. Hikoyadagi: “*Toy baytallarni gir aylanib, ularga homiylik qilar, ayni vaqtda hech qayoqqa ketgani qo‘ymasdi*”, “*Shunda, birdan qora toychoqning qahri keldi*” jumllaridan ham ko‘rinib turibdiki, yovvoyi yo‘rg‘ada hokimlik tuyg‘usi bor. Bu tuyg‘u egasi hamisha atrofiga o‘ziga bo‘ysunadiganlarni to‘plashni yoqtiradi. Bundaylar yolg‘izlikni xushlamaydi. Qolaversa, xonakilashtirilgan baytallar yuvosh, etovga yuradigan jonivorlar bo‘lgani uchun ham yo‘rg‘aning irodasiga osongina bo‘ysungan bo‘lsalar kerak. Yovvoyi yilqilar gala bo‘lib yashashgan va bitta kuchli ayg‘ir o‘ziga bo‘ysunadigan bir qancha baytallarni bir uyurga birlashtirib, ularni boshqargan va boshqa ayg‘irlarni yaqinlatmagan. Bu faoliyat Blum taksonomiyasi kognitiv

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. 2-ж. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. 282-б.

² O‘sha asar, 1-ж. 144-б.

³ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. 4-ж. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. 245-б.

⁴ O‘sha asar, 1-ж. 60-б.

yo'nalishdagi maqsadlarning **bilish** va **tushunish** tasniflariga mos keladi.

O'quvchilarning diqqati hikoya matnidagi: "*Ko'zimga yo'rg'a otlarning oti, dashtlarda chopib yurgan jamiki otlarning sarasi bo'lib ko'rindi, shunday noyob jonivorni nobud qilib, bir to'da masalliqqa aylantirishga ko'nglim bormadi*", "*...men uning gaplaridan zavq oldim, zo'r quvonch bilan qora yo'rg'aning chiroyi va qudrati haqida xayol surib qoldim. Yo'q, qandaydir bir baytalni deb shunday yo'rg'aning yaltiroq terisiga dog' tushirgim kelmadi!*" tarzidagi tasvirlarga qaratiladi. Ushbu fikrlar egasining boshqalarga o'xshamaydigan odamligi ko'rinib turibdi. Bu yigit, garchi ov ishqibozi bo'lsada, moddiy manfaatdan ko'ra ma'naviy zavqni, yo'rg'aning xatti-harakatlaridan, uning o'zini tutishi, baytallarni bilgichlik bilan boshqarishini kuzatishdan olinadigan ruhiy lazzatni ustun qo'yadi.

O'quvchilar hikoya matni ustida ishlash mobaynida ovchi yigitga xos bo'lgan mana shu fazilatlarini ilg'ay bilsalar, o'qituvchi shunga erisha olsa, adabiy ta'lim maqsadiga yaqinlashilgan, ya'ni o'quvchilar insonni anglashga o'rganib borayotgan bo'ladilar.

Ayg'irni ovlash jarayoni tasvirlariga asoslangan holda Jo bilan yo'rg'ani taqqoslash topshirig'i ham o'quvchilarning bu boradagi fikrlashini davom ettirishga qaratilgan. O'quvchilar avval ayg'irga xos sifatlarni matndan topadilar. Ular hikoyadan, taxminan, "*Qop-qora yolli, ko'k ko'z ulkan qora ot butun o'lka bo'ylab zo'ravonlarcha kun kechirdi, turli-tuman joylardan baytal haydab kelib, ...galasini kam deganda yigirma boshga etkazdi... Yovvoyi yo'rg'a galani shunday ishtiyiq hamda rashk bilan qo'riqladi... Yo'rg'alaganda oyog'i umuman adashmaydi... Uning ephilligi, yo'rg'asi, chayir tabiati...*

Yo'rg'a ...nima gapligini bildi, yana tolmas, ravon, yo'rg'a qadamlar otib olg'a talpindi, galani yo'lchi yulduz misol olg'a chorladi... Qora yo'rg'a hamon temirday mustahkam edi. Uning ravon yo'rg'asi aynimagan.... U hamishadagidek galasini matonat bilan boshqarar, kishnar, chopishda namuna ko'rsatib, ularni olg'a chorlardi. Ayg'ir ter bilan changdan ola-bula bo'lib ketdi, ammo yo'rg'asidan adashmadi... ...g'aroyib yovvoyi yo'rg'a esa hamon o'z erkida yuribdi... Darg'azab yo'rg'a so'nggi darmoni qolgunicha tipirchiladi, o'pkasi to'lib keldi, o'ksik zarbidan a'zoyi badani zir-zir qaltiradi, yuzlaridan marjon-marjon yoshlar oqdi... ...ammo qaysar,

badjahl ayg'ir, oppoq ter ko'piklarga botgan ayg'ir bo'yin egmadi. Ayg'ir yovvoyilarcha kishnadi, qahr bilan pishqirdi, ozodlik yo'lida telbalarcha to'lg'andi... Yovvoyi yo'rg'aning yarqiroq sag'irlari qon aralash terdan qorayib ketdi.

Behisob yiqilib-turishlar, besamar olishuvlar yo'rg'aning shunday tinka-madorini quridiki, u uzun kun davom etgan quvg'inda ham bunchalik horib tolmagan edi... Ayg'ir goh u yoniga, goh bu yoniga tinimsiz talpindi, shiddatli sapchishlari borgan sayin zaiflashib bordi, burnidan otilayotgan ko'piklar qonga belandi... Yovvoyi yo'rg'a qolgan bor kuchini yig'ib ozodlik yo'lida jon-jahdi bilan yonbag'ir bo'yilab yuqoriga talpindi. Yana, yana yuqoriladi, badaniga botayotgan arqonga ham, uni to'xtatib, iziga qaytarish uchun uzilgan o'q ovozigga ham parvo qilmadi, u ozodlikka talpindi... Yovvoyi yo'rg'a yana, yana yuqoriladi, ana, tik qoyaga ko'tarildi. Qoyadan pastga – havoga sakradi...” singari tasvirlarni belgilab, ularni sharhlashga urinadilar. Bu jarayonda yovvoyi yo'rg'aning xarakterini aniqlab oladilar. Shu asnoda uning beqiyosligi sabablarini kashf etadilar. O'rni kelganda o'qituvchi o'quvchilardan yovvoyi yo'rg'aga o'z so'zlari bilan baho berishni so'rashi ham mumkin. O'qituvchi va o'quvchilarning bu faoliyatlari Blum taksonomiyasi kognitiv yo'nalishdagi maqsadlarning **tushunish** tasnifiga mos keladi.

Shundan so'ng o'quvchilar matndan Jo shaxsiga xos bo'lgan sifatlarni topishga yo'naltiriladi. Ular matndan Joning tabiatiga xos fazilatlar aks etgan o'rinlarni o'qib berib, hikoyaning ikkala qahramonini taqqoslaydilar. Ularga xos o'xshash va farqli jihatlarni ajratadilar. Jo qaysar, chayir, tolmas, ishbilarmon vaaqli bo'lishiga qaramay, yo'rg'ani qo'lga kiritolmadi. Nega? O'quvchilar bu haqda ham fikrlab ko'rganlari ma'qul Bu jarayon Blum taksonomiyasi kognitiv yo'nalishdagi maqsadlarning **tahlil** tasnifiga mos keladi.

Bundan tashqari, ayg'irni haftalab quvib yurgan Jo *“uning biron martayam yo'rg'asidan adashib, oddiy qadamlar bosib yurganini ko'rmadi. Barcha yaxshi chavandozlar kabi bu go'zal otga boqib, undan zavq-shavq oldi. Zavqi yanada zo'rayib, shunday noyob hayvonni otgandan ko'ra, o'zimning manavi otimni otgan ma'qul degan xulosaga keldi.”* Uning ko'nglidan: *“Ayg'irga qo'yilgan mukofotni olish kerakmikan? ...Qo'yilgan pul chakana emas. Lekin ayg'irning turgan turmushi xazina, u asl zotli zurriyot yaratishi mumkin”*, - degan fikr ham o'tdi. Yovvoyi Jo shunisi bilan boshqalarga

o'xshamasligini, garchi u boshida moddiy manfaat uchun yo'rg'ani ovlashga kirishgan bo'lsada, boshqa fermerlarga o'xshamaydigan shaxs ekanini ko'rish mumkin. O'quvchilarning bu faoliyati ham Blum taksonomiyasi kognitiv yo'nalishdagi maqsadlarning **qo'llash** va **tahlil** tasniflariga mos keladi.

Hikoyada aytilishicha, otlarni *“ot ustidan o'q bo'shatish”, “galani qo'raga haydab ushlash”, “galani quvib etish”, “galani holdan toyguncha quvib borish”* va *“galma-gal ovlash”* kabi yo'llar bilan ovlash mumkin ekan. “Ko'p qochish-quvishlar, yuzma-yuz kelishlar” natijasida, garchi Jo o'zining yaxshigina otidan ayrilgan bo'lsada, nimalargadir erishdi – baytallarni yo'rg'adan ajratib olishga muvaffaq bo'ldi ham. *“Jo yo'rg'aga berahm bo'ldi, o'zi bilan otiga esa undan beshbattar beshafqat bo'ldi. Kun ayovsiz kuydirdi, qizigan yoyilma uzra o'ftob tafti jimirladi. Joning ko'zlari yondi, lablari sho'r, betamiz changdan chirsilladi”*. Shuncha azoblarni boshdan kechirgan Jo *“...lagerga piyoda keldi. Uning sarguzashti lo'nda bo'ldi: sakkiz ot nobud bo'ldi, besh odam butunlay holdan toydi...”* va u otni ovlashdan voz kechdi. O'quvchilarga: “Nima deb o'ylaysiz, nega Jo o'z niyatiga etolmadi? Sizningcha otning Jo qo'ygan tuzoqlarga tushmagani sababi nimada?” kabi savollarni berish ularni vaziyat tasvirini muhokama qilib, xulosa chiqarishga yo'naltiradi. Bu faoliyat Blum taksonomiyasi kognitiv yo'nalishdagi maqsadlarning **tahlil**, **umumlashtirish** va **qo'llash** tasniflariga mos keladi.

Kurka Izning yo'rg'ani qo'lga kiritishda uning aqli va tadbirkorligidan ham ko'ra to'riq baytalinig yo'qlab kishnashi qo'l kelgani tasviriga o'quvchilar e'tibori tortilgani ma'qul. *“Baytalinig ayg'ir yo'qlab kishnashi yo'rg'aning ko'nglidaaks-sado berdi”*. Joning hujumlaridan keyin barcha baytallardan ayrilib, butun qishni yolg'iz qishlagan yo'rg'a muvozanatdan chiqib, unga javob berishi *“Baytalinig javoban kishnashi yo'rg'aning ko'nglidagi bor hadiklarni yo'q qilib yubordi. Yo'rg'aning yuragi yonib ketdi”* tarzida tasvirlanadi. Kurka Iz mana shu vaziyatdan ustalik bilan foydalandi. Shu o'rinda o'quvchilarga: Nima deb o'ylaysiz, Kurka Iz yo'rg'ani jilovlab uyiga olib kelishi mumkinmidi? Shu holatni tasavvur qila olasizmi?” degan savollarni berish o'rinli bo'ladi. O'quvchilar Kurka Iz bilan yo'rg'aning to'qnashuvi manzarasini tasavvur qilib, o'z imkoniyatlari darajasida savollarga javob beradilar. Erki, ozodligi vahur turmush tarzini hayotidan afzal bilgan yovvoyi yo'rg'a

timsoliga munosabat bildiradilar. Bu faoliyat Blum taksonomiyasi kognitiv yo‘nalishdagi maqsadlarning **umumlashtirish** va **baholash** tasniflariga mos keladi.

Umumta'lim maktablari adabiyot darslarida badiiy matnlarning didaktik tahlilini shu shaklda amalga oshirish Blum taksonomiyasi uch yo‘nalishidagi yetachi – kognitiv sohasi maqsadlariga erishilganlikni namoyish etadi va mazkur dars ishlanmasi bu maqsadlarga erishish yo‘lidagi vazifalarning to‘g‘ri bajarilganligidan dalolat beradi.

Savol va topshiriqlar:

1. Blum taksonomiyasida o‘quv maqsadlari kognitiv yo‘nalishining: “*bilish, tushinish, qo‘llash, tahlillash, umumlashtirish va baholash*”singari tasniflari bilan tanishdingiz. Ularni amaliy shaklda bir asar yoki nazariy ma'lumot misolida izohlashga urinib ko‘ring.

2. Blum taksonomiyasidagi uchala maqsad yo‘nalishlari, Sizningcha, adabiyot o‘qitishga qanchalik aloqador? Bu adabiyot o‘qituvchisi sifatida Sizga nima berishi mumkin?

3. Matndagi “Adabiy ta'lim misolida kognitiv maqsadlarning yaxlit ko‘rinishi tasviri” jadvaliga ijodiy yondashing. Har bir tasnifga xos bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni bilimlaringiz asosida takomillashtiring.

4. Bilimlarni o‘zlashtirishning *affektiv* yo‘nalishi adabiy ta'limga qanchalar monandligi haqida matnga tayangan holda o‘ylab ko‘ring. Qarashlaringizni biror badiiy matn misolida asoslang.

5. Blum taksonomiyasining uchinchi yo‘nalishi *psixomotor* sohasidagi ko‘nikmalarni o‘z tushunchangiz doirasida tushuntirib bering. Uning maktab adabiy ta'limida ahamiyatlilik darajasini ochib bering.

6. Blum taksonomiyasi maqsadlarining har uchala yo‘nalishi: *kognitiv, affektiv* va *psixomotor* sohaslariga xos bo‘lgan xususiyatlarni taqqoslang. O‘xshash va farqli jihatlarini aniqlang.

7. Taniqli fransuz pedagogi S. Frene qalamiga mansub: «*Jamiyatning demokratlashuvi maktabning demokratlashuvidan boshlanadi. Avtoritar maktab demokratik jamiyatning bo‘lajak fuqarolarini shakllantira olmaydi*», tarzidagi qanoatni o‘z so‘zlaringiz bilan sharhlang.

8. Avval Seton-Tompsonning “Yovvoyi yo‘rg‘a” hikoyasi bilan tanishing. O‘qish asnosida sizga bilim beradigan o‘rinlarni, sizni muvozanatdan chiqarib, hayratga, affektiv holatga solgan o‘rinlarni alohida belgilab boring.

9. So‘ngra asar ustida ishlash jarayonini Blum taksonomiyasiga solinishiga diqqat qiling. Unga ijodiy yondashgan holda o‘qituvchi va o‘quvchilar faoliyatini qayta tasniflashga urinib ko‘ring. Ishingizni asoslang.

10. “Bu sun‘iy faoliyat va u sizning ma‘naviy tozarishingizga hech narsa bermaydi. Lekin, hamon uni bilish dasturiy talab ekan, urinib ko‘ring”. Shu fikrga o‘z munosabatingizni bildiring. Fikringizni asoslang.

11. Aslida “Yovvoyi yo‘rg‘a”ning yuqoridagi tahliliga diqqat qiling. Tahlilga yo‘naltiruvchi savol-topshiriqlarning tuzilishini kuzating. Ularga o‘zingiz javob berishga harakat qiling.

12. Motivatsiyaga xos bo‘lgan tashqi, ichki, ijobiy, salbiy va qat‘iy motivatsiya singari turlarning mazmun-mohiyatini adabiy ta‘lim misolida sanab ko‘rsatilgan holatidan o‘rganing. So‘ngra ularni bir asar misolida kashf etishga urinib ko‘ring.

13. Seton-Tompson bilan Tog‘ay Murod shaxsini taqqoslang. Ikki ijodkorga xos bo‘lgan otlarga muhabbat hissini baholang. Munosabat bildiring. O‘z faoliyatingizni Blum taksonomiyasining tasnifiga soling.

14. “Tog‘ay Murod asarlarida inson timsoli” mavzusida uy inshosi yozing. Auditoriyada har biringizning ishingizni birgalikda muhokama qiling.

19-MAVZU. BADIY ASAR USTIDA ISHLASHNING SHAKLI VA MAZMUNIGA KO'RA TURLARI

Reja:

1. *Badiiy asarda shakl va mazmun tushunchasi.*
2. *Adabiyot daralaridagi shakl va mazmun tushunchasi.*
3. *Badiiy asarlarga ishlangan tasviriy san'at namunalarida shakl va mazmun tushunchasining adabiy ta'lim bilan aloqadorligi.*
4. *Badiiy matnning didaktik tahlili namunasi.*

Allohning bir qator mahluqlari singari bandalar tomonidan yaratilgan barcha mahsulotlar, xususan, ta'lim jarayoni bilan u yoki bu darajada bog'liq bo'lgan san'at asarlari: mo'yqalam, haykaltaroshlik, multimedia va badiiy bitiklar ham o'ziga xos shakl va mazmunga ega bo'ladi.

Badiiy asarlarga xos bo'lgan shakl va mazmun borasida "Badiiy tahlil asoslari"¹ kitobda batafsil tanishtirilgan. Siz shu nomli kursni o'qishda bu bilimlarga ega bo'lgansiz.

Mazkur kitobda bu ikki tushuncha quyidagicha talqin qilingan: *"...asarning ruhiy-intellektual asosi – mazmun, shu asosning moddiy ifodasi – shakl. Adabiy asarning mohiyati, ruhoni mavjudligi mazmun, bu mohiyat va mavjudlikning ifoda tarzi esa shakl sifatida qabul etiladi. Fikrni yanada soddalashtirib, mazmun muallifning o'z bitigi orqali bildirgan fikri bo'lsa, shakl shu fikrni aytish yo'sini deyish mumkin"*. Bu ko'chirma asosida talabada shakl va mazmun nima ekani, bu tushunchalar zamirida qanday haqiqatlar yotishi borasidagi bilimlari xotirasida qayta tiklanadi.

"Badiiy tahlil asoslari"da shakl va mazmun masalasi batafsil yoritib berilganini nazarda tutgan holda bu yerda mazkur tushunchalar haqida emas, adabiyot daralarida ular bilan bog'liq ish jarayoni haqida qisqacha fikr yuritiladi. Bo'lajak o'qituvchilar bu kursda o'zlashtirgan bilimlari asosida mazkur mavzuning amaliy xususiyatlari haqida tushuncha va tasavvurga ega bo'ladilar.

Asarda shakl va mazmuni: *"o'quv tahliliga tortilgan asarlarga tatbiq etilganda bu ikki tushuncha bir vaqtning o'zida ham estetik,*

¹ Йўлдош Қ., Йўлдош М. Бадий тahlil асослари. Қайта ишланган 2-нашри. – Т.: "Камалак", 2016. (Барча иктибослар шу китобдан олинди).

ham pedagogik muammoga aylanadi. Sababi o'quv yurtlarining talabalari uchun bu ikki tushuncha faqat badiiy zavqning manbasi qaysi biri ekanini aniqlash vositasigina emas, balki tarbiyalanuvchilarda ezgu ma'naviy sifatlarni qaror toptirishda shakl va mazmun tushunchalarining qay biriga ko'proq e'tibor qaratilishi kerakligini aniqlash omili hamdir", deyiladi.

Adabiy ta'lim amaliyotida ham badiiy asar shakli va mazmuni muhim ahamiyat kasb etadi. Adabiyot darslarini tashkil etishda o'qituvchi o'quvchilarni avval badiiy asarning darslikdagi matni bilan tanishtiradi. Bu jarayonda u tarbiyalanuvchilarining diqqatini asosan mazmunga qaratadi. Ya'ni asardagi yetakchi fikr, unda ilgari surilgan o'quvchi ma'naviyatini sog'lomlashtirishga asos bo'ladigan ma'naviy-ahloqiy haqiqatlar ustuvor ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda badiiy matnning ifodali o'qilishi masalasi yetakchi ahamiyat kasb etadi.

Ayni zamonda, har qanday badiiy asarning janri (shakli) o'ziga mos va xos o'qish uslubini, ifoda ohangini taqozo etadi. Masalan, roman va hikoyalarni o'qishda o'ziga xos, ertaklarni o'qishda maxsus ifoda va ohang, dramatik asarlar mutolaasida o'zining talablariga bo'ysungan holda, ijtimoiy mavzulardagi she'rlarga ham farqli va lirik janrdagi asarlar mutolaasida butunlay boshqacha ifoda uslubini qo'llashga majbur bo'ladi o'qituvchi. Ayniqsa, g'azallarning har biri mutolaasi o'ziga xos ifoda ohangini talab qiladi. Demak, adabiy ta'limda shaklning o'ziga xos injiqliklari mavjud.

Mazmunda ilgari surilgan haqiqatlar ikkinchi bosqichda, asarning didaktik tahlili jarayonida savol va topshiriqlar ko'magida anglashiladi. Shakl esa badiiy matn ustida ishlashning birinchi bosqichidayoq o'z talabini ilgari suradi va bunga bo'ysunmaslik adabiyot darsini besamar bir mashg'ulotga aylantirib qo'yishi mumkin.

Chunki adabiyot darsida o'qituvchi matnni o'zгалar uchun o'qiydi va u ifodali o'qish qoidalariga amal qilishi shart. Aks holda, eng kamida, adabiyot darsining samaradorligiga putur yetadi. Bundan tashqari, o'quvchilarga badiiy matnning emotsional ta'siri yo'qqa chiqadi. O'quvchining ruhiyatiga ma'naviy ozuqa bera olmagan, uning ko'ngil muvozanatini buza bilmagan, hayajonga solmagan har qanday badiiy matnning didaktik tahlili kutilgan samarani bermaydi. Adabiy ta'limda bu eng muhim vositalardan biridir.

Ma'lumki, yozma nutq asosida soʻz bilan yaratilgan har qanday san'at asari badiiy asar, mo'ʻyqalam yoki haykaltaroshlik mahsuli ham xuddi shundek estetik ahamiyatga ega bo'lgan san'at obyekti hisoblanadi va har ikkisi ham san'atkor shaxs ongli ijodining moddiy mahsulidir. Har qaysisining ham o'ziga xos bir qancha shakllari bor. Soʻz san'atining boshqa bir qator – elegiya (dialoglar, harakatlar, musiqa, qo'shiq va raqslar bilan uyg'unlashgan komediya turi), vodevil (qayg'u bilan yo'g'rilgan lirik she'r), qo'shiq, askiya, masal singari turlari mavjudki, ular shaklan o'zining alohida o'qilish ohangini taqozo etadi. Ba'zan badiiy asarning shaklini ko'ra turib uning o'qilish ohangini belgilab olishning iloji bo'lmay qoladi. Ya'ni mazmuni bilan tanishmaguncha shaklning o'qilish ohangini aniqlash qiyin. Shakl ko'rinib turadi. Mazmunni esa o'qimasdan uqib bo'lmaydi. Masalan, quyidagi to'rtlikka diqqat qiling. Unga ko'zingiz tushishi bilan shaklga asoslangan holda uni she'riy ohangda o'qish kerakligini his qilasiz:

*Malak bog'da gullar teradi.
Sanam gullarni savatga joyladi.
Go'zal gullarni suyib hidladi.
Qushlar uchib kelib gullarga qo'nadi.*

Matn bilan tanishmaguncha uning o'qilishi haqidagi tasavvuringiz o'zgaragan edi. Xo'sh, endi bu matnni qanday o'qiysiz? Ko'rinadiki, shaklga asoslanib ifoda ohangini belgilash hamisha ham o'zini oqlamas ekan. Adabiyot o'qituvchisi darsga tayyorlanish jarayonida badiiy matnning shakli va mazmuniga birdek tayanishi, bu boradagi bilimlariga, qonun-qoidalarga amal qilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Aks holda bu bilimsizligi bilan, avvalo, o'quvchilari oldida bebro' bo'ladi va adabiyot darsi – ko'ngil darsining samaradorligiga putur yetkazadi. O'quvchilarini badiiy so'zdan bezdiradi.

*Endi quyidagi ikki baytga diqqat qiling:
Har labing o'lganni tirg'uzmakda jono, jon erur,
Bu jihatdan bir-birisi birla jonojon erur.*

Yoki:

*Zulfing ochilib, orazi diljo' bila o'ynar...
Hindu bachae sho'xdurur, su bilan o'ynar.*

Shakl jihatidan bir-biridan deyarli farq qilmaydigan ikkita bayt. Lekin ularning o'qilish ohangini, ifoda yo'sinini bir qarashda belgilab olish qiyin. Deyarli bir xil shaklga ega bo'lgan baytlarning ifodali o'qilish ohangini belgilab olish uchun avval ularni ichdan bir marta o'qib ko'rish kerak bo'ladi. Har bir baytning mazmuni va ularda ilgari surilgan qarashlar, boshqa masala. Bu ishning ikkinchi bosqichi hisoblanadi.

Birinchi baytning birinchi misrasida vergul shaklda o'ziga xos vazifani bajaradi. Bu o'rinda vergul undalmani ajratib turibdi. Ikkinchi misra shaklida hech qanday tinish belgisi yo'q. Lekin, e'tibor qilinsa, har ikki misrada "jonojon" tushunchasi shaklan har xil tasvirlangan. Ayni zamonda, har xil mazmun ham kasb etadi. G'azallarning o'z mumtoz o'qilish ohangi bor va unda shaklda ma'lum vazifani bajaruvchi tinish belgilar hech qanday rol o'ynamaydi. Har ikkala misra bitta paradigмага tushadi. Baytni o'z ohangida o'qishni mashq qilib ko'ring.

Endi ikkinchi baytga diqqat qiling. Uning shaklida har ikkala misrada ham tinish belgisi qo'llanilgan. Va har ikki vergul o'z misrasi shaklida o'ziga xos vazifani bajaryapti. Baytni o'qishni esa uning mazmun bilan tanishmay turib aniqlash aslo mumkin emas. Bu vergullarning grammatik xususiyatlari hozir biz uchun muhim emas. Bu o'rinda muhimi, shaklga asoslangan holda baytning ifodali o'qilish ohangini belgilab olish. Diqqat qilinsa, baytning har ikkala misrasi – har ikkala shakl ikki hil o'qilish ohangini taqozo etayotganini payqash mumkin. Ikkinchi misrada bitta bo'g'inning kamligi uning o'qilish ohangiga o'z ta'lsirini ko'rsatadi. Bayt mutolaasining mumtoz o'qilish usulida tinish belgilar inobatga olinmaganiga asoslanib o'qilsa, har ikkala bayt mutolaasida ohang bir xil ifodalanadi. Ikkinchi misradagi "sho'xdurur" so'zining oxirgi bo'g'ini cho'ziq ifodalanadi va shunda misralar bir-biriga monand paradigмага tushadi va o'qiladi. Ya'ni shaklda ko'zga yaqqol tashlanib turgan "kemtiklik" o'qilish ohangidagi mumtoz qoidaga tayanilganda sezilmay ketadi.

Adabiyot o'qituvchisi, umuman, har qanday o'qituvchining har bir tutumi o'quvchilari tomonidan nazorat qilinadi. O'quvchilar o'zlari anglamaganlari holda juda katta psixolog. Ular hech narsani, ayniqsa,

ularni tarbiyaga chaqirayotgan, ularning oldida o'zini aqlli va bilimli qilib ko'rsatayotgan o'qituvchining xatosini shunchaki o'tkazib yuborishmaydi. Bahosini berishadi.

Shunga qarab unga o'z munosabatlarini ham belgilab olishadi. Kimnidir hurmat qilishadi, qaysidir o'qituvchining ustidan kulib yurishadi, kimdandir hayiqishadi va hk. Ular chinakam bilimli o'qituvchini qattiq hurmat ham qilishadi. O'qituvchining obro'si, hurmati uning bilimi, saviyasi, ma'naviyati, kasbiga, tarbiyalanuvchilariga bo'lgan muhabbati bilan qozoniladi.

O'quvchilardan o'ziga nisbatan bunday munosabatni o'qituvchi talab qilib ololmaydi, so'rab ololmaydi. E'tirof, obro' bir qator fazilatlar asosida qozoniladi. Shuning uchun adabiyot o'qituvchisi, ko'ngil tarbiyalamoqchi bo'lgan shaxs o'zi ko'ngil kishisi bo'lishi, o'zi so'zni juda nozik his qilishi taqozo etiladi. U o'zidagi jamiki fazilatlarini tutumlari bilan o'quvchilariga "yuqtira" boradi. Ikkigina misrani o'quvchi ko'nglida tuyg'u qo'zg'aydigan tarzda o'qiy bilish undan shuncha mehnat, e'tibor va bilim taqozo etarkan, butun o'qituvchilik faoliyatini yo'lga qo'yish va ayni zamonda, o'quvchilari oldida hurmatini yo'qotmaslik qanchalar mashaqqatli ekanini tasavvur qilish oson emas. Bir marta, kichkinagina beparvolik tufayli yo'l qo'yilgan xatosi o'qituvchiga juda qimmatga tushishi mumkinligini bo'lajak o'qituvchi sifatida doim yodda tutish joizdir.

Endi tasviriy san'atdagi shakl va mazmun haqida ikki og'iz gap. Tasviriy san'at namunalarida ham har xil shakl mavjud. Masalan, qog'ozga tushirilgan surat shakli, moybo'yoq, xaykaltaroshlik yo'nalishidagi asarlar ham mazmunan, ham shaklan bir-biridan tubdan farq qiladi. Bu ham san'at sifatida shaxs ma'naviyati kamolotida adabiyot bilan birdek ahamiyat kasb etadi. Faqat gap shundaki, bizning milliy ta'lim amaliyotida tarbiyalanuvchilar san'atning bu turini o'qishga o'rgatilmaydi.

Tasviriy san'atga xos bo'lgan har bir asarda shakl ustuvorlik qiladi. Mazmunni o'qish esa, oson emas. Buning uchun tomoshabinda ziyrak nazar, professional bilim va nozik tuyg'ular yig'indisi mujassam bo'lishi kerak. Adabiyot o'qituvchisi badiiy asarlar mazmuni asosida yaratilgan tasviriy san'at namunalarida matndagi mazmun qay darajada shakl topganini, mazmun qanday ko'rinishga ega bo'lganini taqqoslab o'qiy bilishi kerak. Badiiy bitikdagi mazmun bilan tasviriy ifodadagi shakl mutanosibligini ko'ra bilish, badiiy matn

mazmuni bilan tasviriy mazmunni ko'ra olish, o'qiy bilish adabiyot o'qituvchisining professional burchidir. Shu ma'noda, bugun, imkoniyatlar orasida – talabalik davrida bu bilimlarni o'zlashtirib olish bo'lajak o'qituvchining kelajakdagi bilimdonligi va ustozlik obro'si garovidir.

Badiiy matnning didaktik tahlili namunasi

Yulduzlar mangu yonadi

Tog'ay Murod adabiyotga o'z tili, o'zigagina xos bo'lgan uslubi bilan kirib keldi. Uning milliy g'urur, erkaklik sha'n ulug'langan, inson "men"ini jamiki ingichka tuyg'ulari bilan ochib bera bilgan asarlari, garchi nasrda bo'lsa ham, Said Ahmad aytmoqchi "qo'shiqlar"dir.¹ Bitiklarining o'ziga xos o'qilish ohangi xuddi xalq dostonlari singari quyilib kelaveradi. Odatda har qanday takror o'qirmanning g'ashiga tegadi. Lekin Tog'ay Murodning takrorlari ko'ngilga xush yoqadi. Adibning asarlarini o'qigan har bir o'zbek qalbida g'urur, faxr hissi paydo bo'ladi. Qissalar o'qilgan sari Surxon vohasi yigitlari qonida mavjud bo'lgan erkakcha g'ururning ildizlarini anglaganday bo'ladi kishi. Tog'ay Murodning har bir so'zi ko'ngil qaridan dard bo'lib sitilib, iztirob bo'lib sizib chiqqan. O'zi suymagan, o'zi kuymagan, o'zi yonmagan qalb o'zga qalblarni suydirib, kuydirib, yondirolmagani singari muallif kuyiklari bilan o'quvchisini kuydiradi, unga o'z og'riqlarini "yuqtiradi". Yozuvchi qissa va romanlarining kitobxonlar qalbida chuqur o'rnashib qolishi sababi ham shunda.

Tog'ay Murodning "Yulduzlar mangu yonadi" qissasini o'rta maktabning oltinchi sinfida o'rganish uchun dasturda uch soat ajratilgan.

Odatda, yozuvchi va shoir haqidagi biografik ma'lumot darsliklarda berilsada, darsda ularni o'rganishga alohida vaqt sarflab o'tirilmaydi. Lekin o'quvchilar Tog'ay Murodning uslubini tushunishlari, yozganlarini his qilishlari uchun uning tarjimai holiga alohida to'xtalish kerak bo'ladi. O'quvchilar muallifni shaxs sifatida qancha yaxshi bilsalar, uning uslubini, asarlari tilini shuncha oson

¹ Тоғай Мурод. От кишнаган окшом. Сузбоши. Т.: "Шарк", 1994. 464 б.

qabul qiladilar. O'zini yaxshi ko'rib qolsalar, yozganlarini ham sevib o'qiydilar. Tog'ay Murod tarjimai holini o'rganishga ajratilgan darsda o'qituvchi darslikdagi ma'lumotnomaga qo'shimcha ravishda "Otamdan qolgan dalalar" kitobi oxirida berilgan "Men" avtobiografik maqolasi va "Men qaytib kelaman" nomli adib haqidagi xotiralar kitobidan foydalanishi mumkin.

"Men o'rta maktabni bitirib, shunday niyat etdim: o'ttiz-o'ttiz besh yoshlargacha uylanmayman, oila qurmayman, biror idorada faqat tirikchilik uchun ishlayman.

Men faqat bir maqsadni ko'zladim: o'ttiz-o'ttiz besh yoshlargacha jahon adabiyotini o'qish. Faqat o'qish, o'qish, o'qish, qo'l qotib qolmasin uchun mayda-mayda hikoyalar mashq etib turish.

Men shu niyat yo'lida imorat solmadim, mashina olmadim, mansab egallamadim, shon-shuhrat qozonmadim.

Men dunyo talashmadim!

Faqat izlandim, faqat o'qidim...

Bir chaqasiz kunlarim bo'ldi. Ijara haqini to'lay olmay ijaradan haydalmish kunlarim bo'ldi. Boshpanasiz kunlarim bo'ldi. Men qishlog'imga qaytdim.

Onam sandiq kovladi. Lattalar ostidan bir tuguncha oldi. Tugunchadan besh-olti so'm pul chiqdi... Bu pul... onamni... o'limlik puli bo'ldi.

Men devorni ushlab qoldim.

- Olmayman... - dedim.

- Ol, sen shoir bo'lsang bo'ldi, ol, - dedi onam.

- Yo'q... - deya bosh chayqadim.

- Ol, sen shoir bo'lmaguningcha men o'lmayman, - dedi onam. -

Men sening shoirligingni ko'rmagunimcha o'lmayman.

Men tag'in Toshkentga qaytib keldim. Men endi onamning o'limlik puli bilan tirikchilik kechira boshladim...

Men go'dakligimdan davralarda kurashib katta bo'ldim. Polvonlik ajdodimda bor, polvonlik qonimda bor...

Nihoyatda... nihoyatda sanoqli kunlarda "Yulduzlar mangu yonadi" nomli birinchi qissamni yaratdim...

Qissa elga manzur bo'ldi. O'zbekiston Yozuvchilari Uyushmasi hisobot yig'ilishida yilning eng yaxshi qissasi, deya baholandi.

Kech kuzda yurtimga yo‘l oldim. Uzun qish ko‘pkarixona – ish joyim bo‘ldi, chavandozlar – hamxonam bo‘ldi, otlar – birodarim bo‘ldi.

Nihoyat ko‘klamda “Ot kishnagan oqshom” nomli ikkinchi qissamni jurnalga ko‘tarib keldim...

Qissa adabiyot osmonida bir momaqaldiroq bo‘ldi. O‘zbekiston Yozuvchilari Uyushmasi hisobot yig‘ilishida yilning eng yaxshi qissasi, deya baholandi.

Men bir qishni yurtim chorbog‘ida qishladim. So‘fi Ollayor bobo bilan qabatma-qabat yotib, “Oydinda yurgan odamlar” nomli qissa bitib keldim.

O‘zbekiston Yozuvchilari Uyushmasi qissalarimga Oybek mukofotini berdilar...

Men bu mukofot pulini zindonlardan axborot olish uchun sarfladim... Dala shiyponini makon etdim. Dehqonlar o‘tirsas – o‘tirdim, dehqonlar tursas – turdim. Men dehqon bo‘lib chigit ekdim!

Men dehqon bilan paxta terdim... Surxon dalalarida olti oy kezdim...

– Men o‘zbek xalqiga haykal qo‘yaman!

Nihoyat, orzularim oqibati – ushbu (“Otamdan qolgan dalalar”) roman bo‘ldi...”¹

Mana shu lavha Tog‘ay Murodning kimligini, qanday insonligini, qay yo‘sin elga manzur yozuvchi bo‘lganini o‘z so‘zlari orqali ko‘rsatib beradi. Xotiralar kitobidan olingan tubandagi parchalar ham o‘quvchilarning adib va uning asari haqidagi tasavvurlarini tiniqlashtirishi tabiiy:

“Bir suhbatimizda Tog‘ay: “Men hech kimdan qo‘rqmayman. Har qanday zo‘ravon bilan tikka olisha olaman. Ammo kitobxondan qo‘rqaman. O‘lay agar, juda qo‘rqaman”, degandi...

“Yulduzlar mangu yonadi” degan birinchi qissasini...Tog‘ay tanasidan chiqib ketib, o‘zini ham, atrofidagi jami narsalarni, odamlarni, bahoru kuzlarni, qishu saratonlarni, osmonni to‘ldirgan turnalarni unutib, bir darvesh qiyofasiga kirib, dalli devona bo‘lib yozdi (Said Ahmad).

“U bir qarashda haddan ziyod g‘ururi g‘olib yigitga o‘xshardi. Bir qarashda qo‘pol, manman, hech kimni nazariga ilmaydigan

¹ Тоғай Мурод. Отамдан қолган далалар. Т.: “Шарк” НМАК, 1994.

odamday tuyulardi. Keyinroq ma'lum bo'ldiki, Tog'ay Murod manman emas, aksincha ko'ngli nozik, kamchiliklari ham, fazilatlarini ham o'ziga xos, gaplashish usullari ham alohida bir dunyo ekan" (O. Yoqubov).

"Agar yozuvchining o'zi shaxs bo'lmasa, u yaratgan asarlar ham biror qiymatga ega bo'lmaydi. Tog'ay Murod asarlari uning shaxsini ko'rsatib turadi..."

"Yulduzlar mangu yonadi" qissasi... faqatgina kurash haqida emas, insonning ori haqidagi kitob. Insonning g'ururi, uning nimalarga qodirligi haqida yozilgan mardona kitobdir" (Mahmud Sa'diy).

*"Tog'ay Murod degani – tog'day murod degani,
Ketganligin xabari – fig'on, faryod degani,
Kelganida odamday quvongan, ketganida –
Odamdan baland uvvos ko'targan ot degani.*

...Odamlar-ov, ketar chog'ida yuraklarni larzaga solib, bor dunyoni yig'latib ketish ham hammaning qo'lidan keladigan ish emas. Demak, Tog'ayda bizning ko'pchiligimizda yo'q nimadir bor, bor edida..." (H. Xudoyberdieva).

"Tog'ay Murod adib bo'laman, deb Toshkentga kelgan edi, arbob, rahbar, siyosatchi, vazir, saroy mirzosi bo'lib ko'tarilmadi. Nafsga sotilmadi, amalga qul bo'lmadi, zamonga, tuzumga yaltoqlanmadi. Men bunday metin irodali, qat'iy so'zli, qat'iy amalli adib, faqat yozuvchiligini qilgan, qilganda ham yonib-kuyib, boshqa hech narsani o'ylamay, endi durdona bo'lib qolgan asarlarni yaratgan o'zbek yozuvchisini keyingi chorak asrda boshqa ko'rmadim..."

"Yulduzlar mangu yonadi" qissasining bosh hikmati – kim do'stga xiyonat qilsa, insonlarni aldasa, uning aldovi oxir-oqibat o'zining qismatiga ko'chadi, haqiqatga aylanadi, adib asari orqali sen nimani so'zda o'zingga ravo ko'rsang, Haq senga shuni qismat qilib beradi, deb hayqiradi" (V. Fayzulloh)¹.

O'qituvchi birinchi darsni mana shu materiallar ustida ishlash bilan yakunlaydi. Uy vazifasi sifatida "Tog'ay Murod shaxsiga munosabatim" mavzusida ixtiyoriy uy inshosi yozishni topshirishi

¹ Мен қайтиб келаман. Тоғай Мурод замондошлари хотирасида. – Т.: "Янги аср авлоди", 2007.

mumkin. Bunday inshoni ko'nglida adabiyotga, badiiy so'zga moyilligi bor o'quvchilar yozadilar. Ular diqqat bilan o'qilishi, ular haqida o'qituvchi tomonidan mantiqli fikrlar aytilishi ijodkor o'quvchini ruhlantiradi. Alloh badiiy so'z bitish qobiliyatini berib qo'ygan o'quvchilarning iqtidorini shu tariqa rivojlantirib borish o'qituvchi oldidagi eng katta vazifadir.

Tog'ay Murod ijodini o'rganishga ajratilgan ikkinchi va uchinchi soatlar ona tili darsi hisobidan bir kunga birlashtirilib, o'quvchilarning asardan olgan hayrat va hayajonlari tarqamay, tuyg'ulari sovumay turib matn tahliliga kirishilsa, ularning bezovta ruhiy holatlaridan ma'naviy kamolot yo'lida unumli foydalanilgan bo'ladi. "Yulduzlar mangu yonadi" qissasining "Adabiyot" darsligida¹ berilgan boblarini ifodali o'qish uchun taxminan 45 daqiqa kerak bo'ladi. Sinfdagi barcha o'quvchilarning asardan to'liq bahramand bo'lishini ta'minlash uchun uni boshidan oxir o'qituvchining o'zi o'qib berishi kerak bo'ladi.

Darslikdagi matn o'z ohangida o'qilishi, to'g'rirog'i, kuylanishi kerak. O'qituvchi asarni o'qish jarayonida bolalarni sehrlay bilishi, muallifni o'quvchilariga sevdirishi shart. Bunga o'qituvchi zo'riqishlarsiz, ortiqcha kuch sarflamay, tabiiylik bilan erishadi. Chunki qissa o'z qiroat ohangi bilan tug'ilgan. Faqat o'qituvchi adib tuyg'usini ovozigga ko'chira bilsa bas. Buning uchun muallim uyda puxta tayyorgarlik ko'rishi, ajratilgan vaqt ichida asar matnining qaerini qay alfozda o'qishini aniqlab olishi kerak bo'ladi.

Yillar davomida o'quvchilar o'qib tahlil qilgan badiiy asarlarning uslubi bir-biriga ancha yaqin. O'quvchilar shu uslubga o'rganib qolishgan. Lekin Tog'ay Murodning uslubi tamomila yangicha bo'lgani uchun uning o'ziga xos tili bolalarga erish tuyulishi, ular o'rganmagan takrorlar sal g'ashlarini keltirishi mumkin. Shuning uchun o'qituvchi ehtiyot bo'lishi, o'qish jarayonida takrorlar talab qilayotgan ohangni topa olishi zarur.

Darslikda asardan berilgan boblar o'qib bo'lingach, o'qituvchi **"Bo'ri polvon yaxshi odam, zo'r kurashchi, lekin yomon ota!"** shaklida yoxud shunga o'xshash yo'sinda o'quvchilarni ruhiy muvozanatdan chiqarib, fikrlashga yo'naltiradigan, bolalarning

¹ Ахмедов С. ва бошқ. Адабиёт. Умумий урта таълим мактабларининг 6-синфи учун дарслик-мажмуа. – Т.: "Маънавият", 2017.

e'tirozlarini qo'zg'ab, polvon bobo himoyasiga o'tilib chiqishga majbur qiladigan **muammoli masalani** o'rtaga tashlashi mumkin.

Bo'ri polvonning ko'ngil dardlari, mag'rur insonning mag'lubiyat alamlari qurshovida chekkan iztirobi o'z tuyg'ulariga aylangan, har bir kurashchining orini o'z ori bilib yondashayotgan bakovul boboning halolligini, orchilligini tuyib turgan, davraga tushayotgan polvonlarning har biriga xos kechinmalar yuraklarini tebratgan o'quvchilar Bo'ri polvonning yomon ota emasligini isbotlashga urinishlari tabiiy. Bo'ri polvon – kimningdir himoyasiga muhtoj qahramon emas. Lekin o'quvchilar o'zlari shunday odamlarning fazilatlarini ko'ra bilishga, ularni qadrlashga, himoya qilishga, zarurat tug'ilganda o'z fikrlari uchun kurashishga, ta'bir joiz bo'lsa, ularga o'xshashga ehtiyojmand shaxslar bo'lib shakllanishlari uchun uni tuyishlari zarur bo'ladi. Bu ularning ma'naviy kamolotlari belgisi, adabiyot darslarining vazifasidir.

Shu muammo atrofida mulohaza yuritib ham asarning tahlilini to'liq amalga oshirish mumkin. Lekin muhokama “boshi berk ko'cha”ga kirib qolsa yoki masalaning mohiyati ochilmay fikrlar tugab qolsa, tahlil yakuniga yetishi uchun o'qituvchi vaziyatdan kelib chiqib har xil qo'shimcha savollarni o'rtaga tashlab, bahsni davom ettirishi kerak bo'ladi. Toki, o'quvchi Bo'ri polvondek baland insonlar har qanday vaziyatda, hatto, o'z jigargo'shasi, jonidan aziz farzandi taqdiri bilan bog'liq bo'lganda ham halollikdan yuz o'girolmasligini, manfaatni oridan yuqori qo'ya olmasligini anglab yetsin. O'qituvchi savol-topshiriqlar yordamida o'quvchilarini polvon boboni anglab yetishga yo'naltirishi kerak. Bolalarning o'zlari hukm-xulosa chiqarib, ma'lum to'xtamga kelgani ularda shaxslik sifatlarining shakllana boshlaganidan dalolatdir.

O'quvchilar asarning mohiyatiga to'liq kirishlari uchun o'qituvchi darslikdagiga qo'shimcha savol-topshiriqlar tayyorlashi, ularni ketma-ket o'rtaga tashlab, o'quvchilar bilan hamkorlikda javob izlab, ularni munosabat bildirishga yo'naltirishi lozim. Bundan tashqari, ushbu jarayonda tarbiyalanuvchilarning fikri qay darajada asoslanganiga, nimaga tayanib shunday deyishayotganiga diqqat qilib turish ham maqsadga muvofiqdir.

Asar tahliliga kirishib, Sadir polvon sport ustasi Maksim polvon bilan davraga chiqmaganda sho'rchiliklarning “ilkis pichingi” Bo'ri polvonga nima uchun buncha qattiq tekkani, Amir polvonning

javobidan “mehmonlar oldida izza bo‘lgani”ning sabablari haqida o‘quvchilarning fikri so‘raladi. Bu Bo‘ri polvon tabiatidagi qanday xislatdan dalolat beradi? O‘quvchilar bu savolga javobni matndan izlab topishlari, munosabat bildirishlari kerak bo‘ladi.

Keksa Normurod polvonni davraga yetaklab chiqqan tuyg‘u haqida fikr aytish uchun shu lavhani qayta o‘qib chiqishga to‘g‘ri keladi. Bu – bir darajada vaqtni olsada, asarni to‘liq hazm qilishning eng samarali yo‘li. “Normurod polvonni davraga tushishga undagan kuch nima? Har ikkala polvon bobo o‘rtasida qanday tafovut borligi haqida o‘ylab ko‘ring. Polvonlarning qay biri orchilroq?” savol-topshiriqlari o‘quvchilarni ikkala polvonni qiyoslab o‘rganishga yo‘naltiradi. Bobolarning tabiatini anglashga turtki bo‘ladi.

XIX bobda Bo‘ri polvonning: *“Xalq nimasi bilan xalq? O‘zining urf-odatlari bilan xalq! Ota-bobosidan qolgan milliy an‘analari bilan xalq!... Avlodlar almashgan sayin... yurak yo‘qolib boryapti. Jasad bor! Aql bor! Yurak yo‘q! To‘rt mucha bor! Kuch-quvvat bor! Yurak yo‘q! Farzandlar hayotga beparvo qaraydi. Musibat bilan xursandchilikning farqiga bormaydi...”*¹ degan fikri bor. O‘quvchilar polvon boboning bu qarashlari ustida mulohaza yuritishlari kerak: “Hozirda yo‘qolib borayotgan urf-odatlarimiz qaysilar? Buning sababchilari kimlar? “Yurak” deganda Bo‘ri polvon nimani nazarda tutayotgan bo‘lishi mumkin? U haqmi yoki nohaqmi? Bugungi avlod, ya‘ni sinfdagi o‘quvchilar musibat bilan xursandchilikning farqiga borolmasligi rostmi? Agar shunday bo‘lsa buning sababi nimada?” singari savol-topshiriqlar ko‘magida o‘quvchilar bu qarashlarning mohiyatini anglashga urinadilar. Bo‘ri polvon tilidan aytilgan bu hikmatona so‘zlarga kim qo‘shiladi, kimdir qo‘shilmaydi, lekin har bir o‘quvchi nega shunday xulosaga kelganini asoslab berishga urinsin. O‘quvchilarning bu tutimi adabiy tahlilda aytgan fikridan kam qarlanmaydi.

Bo‘ri polvon ham xom sut emgan banda sifatida xatolarga yo‘l qo‘ygan. Uning bu kamchiligi yosh Ismoil polvonga munosabati tasvirlangan qaltis va tahlilali lavhalar tahlili asnosida ko‘zga tashlanadi. Shu o‘rinda o‘quvchilar diqqatini Tog‘ay Murodning yozuvchilik mahoratiga qaratish maqsadga muvofiq. Odatda, badiiy

¹ Ахмедов С. ва бошқ. Адабиёт. Умумий ўрта таълим мактабларининг 6-синфи учун дарслик-мажмуа. – Т.: “Маънавият”, 2005. 291-бет.

asarlarda ijobiy obrazlar go'zal, hech qanday kamchiliklarsiz tasvirlanadi. Aslida ideal darajada yaxshi odam bo'lmagani singari tom ma'noda yomon odam ham yo'q. Har bir insonning o'ziga yarasha fazilat va illatlari mavjud. Mukammallik faqat Allohga xos.

Bo'ri polvonning Ismoil polvonni mensimay qilgan xatti-harakatlariga asoslangan holda odamning bir zumlik manmanligi bir umrlik dahshatli oqibatlariga olib kelishi mumkin ekani tadqiq etilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. O'qituvchi tomonidan: "Xo'sh, nima deb o'ylaysiz, Ismoil polvon haqiqatdan ham zo'r polvonmidi yoki bu mag'lubiyatning boshqa sabablari bormi?" tarzida davraga tashlangan savolga javob izlash jarayonida o'quvchilar Bo'ri polvonday mag'rur, orchil er yigitning "ho'ng-ho'ng yig'lashiga", "sel-sebor yig'lashiga" diqqat qiladilar. Polvonni his qilganlari, tushuna borganlari sari uning uchun dillari og'rib, u bilan birga Ismoil polvonni ta'qib qilishadi. Badiiy asarning, adabiyot darslarining qudrati ham ana shunda. Bo'ri polvonning Ismoil polvonni tinimsiz ta'qib qilishi, uning esa raqibi kelgan davralardan qochib yurishi sabablari haqida mulohaza yuritish ham o'quvchilarga polvonlarning qay biri kim ekanligini aniqlab olishga yordam beradi. Bo'ri polvonning Ismoilni davrada tutgan paytidagi polvonlik va zafar haqidagi mulohazalariga o'quvchilarning diqqatini qaratish o'rinlidir. Bu gaplar faqat polvonlikka emas, balki insonning barcha ishlariga, jamiki turmushiga qay darajada taalluqli ekanligini o'ylab ko'rish ham ma'naviy kamolot uchun foydali bo'ladi.

Tog'ay Murodning: *"Polvon xohish-iroda bilan olishsa, o'zining nimalarga qodirligini namoyish etsa, san'atini namoyish etsa, zafar o'z-o'zidan keladi!.. Polvon o'z kurashidan o'zi zavqlansa, zafar o'z-o'zidan yor bo'ladi!"* tarzidagi hikmatnamo xulosalarini sharhlashga urinib ko'rish, ularni Bo'ri polvon shaxsi bilan bog'lash o'quvchilarning tafakkurini teranlashtiradi.

Bo'ri polvonning so'nggi kurashi jarayonidagi e'tiroflari ham o'quvchilar nazaridan chetda qolib ketishiga aslo yo'l qo'yib bo'lmaydi: *"Boisi zo'rga hamma havas bilan qaraydi. Zo'rning san'atini, o'ngu chapini miridan sirigacha sinchiklab o'rganadi. Zo'rga taqlid qilib, o'shanday zo'r bo'lgilari keladi. Zo'r-chi? Zo'r o'zgalarni bilmaydi. Ayniqsa, o'zidan kuchsizlarni bilmaydi! Bilgisida kelmaydi! Boisi, ko'zga ilmaydi. Zo'rning tag'in bir fojiasi – zo'r mag'lubiyat alamini kam totadi. Zo'r – zafar og'ushida yashaydi.*

Yo'q, zo'r mag'lubiyatlar alaminida totib turishi lozim! Zo'r uchun mag'lubiyat zafar qatori bab-baravar zarur! Ayniqsa, o'ziga ishongan zo'rga! Mag'rur zo'rga!" Qahramonning zo'r haqidagi qarashlari muhokama obyekti bo'lishi kerak.

O'quvchilar diqqati Ismoilning davradagi xatti-harakatlari, Bo'ri polvonning otasi ruhidan o'tinchiga, uning inson hamisha xushyor yashashi lozim degan xulosasiga tortiladi. Bo'ri polvonning tuyg'ulari – u yoki bu darajada har bir insonga, shu jumladan har bir o'quvchiga ham xos. O'qituvchi shu holatni savol-topshiriqlar ko'magida o'quvchilarga ilg'atib qo'yishi foydadan holi bo'lmaydi.

"Ismoil polvon yulduz sanadi!.. Hay-hay-hay! Yoshlik – yoshligini, ko'pni ko'rganlik – ko'pni ko'rganligini qildi! Tajriba! Tajriba zafar qozondi!" degan fikr ham diqqatga sazovor. "Bo'ri polvonning g'alabasida tajribaliligi kurashning qaysi lavhasida nazarga tashlanadi? Nima deb o'ylaysiz, polvonning g'alabasida tajribadan boshqa yana nima bor?" O'quvchilar shu haqda ham o'ylab ko'rsalar, zarar qilmaydi.

Bo'ri polvonning uylanish borasidagi mezonlari ham bo'lakcha. U Suluvning qaysi fazilatlariga tayanib uni o'ziga ayollikka tanlagani haqida o'ylab ko'rish ham ichdan baland odamlarning shaxsiyatini ochishga ko'maklashadi: *"Bo'ri polvon ana shu qizni ko'z ostiga oldi.Suluv Bo'ri polvon ko'ngliga o'tirib qoldi.Ko'ngliga o'tirgani – Suluv erkak zoti ko'ziga tik qaramadi"*. Bugungi oltinchi sinf o'quvchilari Bo'ri polvonning bu qarashlarini tushunishlari bir qadar qiyindir. Lekin bu tasvir mohiyatida nima yotganini anglatib qo'yish ularning kamoloti uchun juda zarur.

Bo'ri polvon yolg'iz o'g'li – Tilovberdini qanday tarbiya qilganiga diqqat qilinishi, ayni vaqtda, asarning keyingi boblaridagi ota-o'g'il polvonlarning murakkab va o'ziga xos munosabatlari tasviri muhokama qilinishi lozim.

Bularni o'qituvchi darsga tayyorlanish jarayonida belgilab qo'yishi kerak. Savol-topshiriq asnosidagi didaktik tahlil mobaynida Tilovberdining shaxsiyati va xatti-harakatlariga ham diqqat qilinib, uning tutumlaridagi otasinikiga o'xshash va farqli jihatlar haqida mulohaza yuritilishi darkor. Tilovberdining g'alabasidan "totli-totli" kulimsiragan polvon otaning kerilib-kerilib tevarakka qarashi, faxrlanishi va ko'nglidan o'tgan o'ylari ham o'quvchilarning nazaridan qolib ketmasligi va tahlilga tortilishi joiz.

Abray polvonning kimligini bilgan polvon bobo tuygan hislar nazardan yashirin qolmay tahlilga tortilishi o'quvchilarning Bo'ri polvon shaxsiyati haqidagi qarashlarini yanada to'ldiradi. Bo'ri polvonda o'g'lini Abray polvon bilan olishtirish istagi tug'ilganligining sababi borasida ham o'ylab ko'rish lozim: "Nima deb o'yaysiz, nega polvon boboda shunday istak paydo bo'ldi?"

Boshqa hamma uchun shunchaki kurash bo'lib tuyulgan bu olishuv polvon bobo uchun hayot-mamot masalasi ekanini o'quvchilar anglab yetishiga erishish o'qituvchi uchun juda muhim. Garchi polvon o'g'lonlar xayollariga ham keltirmagan bo'lsalarda, otalar uchun bu olishuv yaxshilik va yomonlik, halollik va g'irromlik o'rtasidagi omonsiz jang edi. O'qituvchi shu mavzu atrofida bahslashayotgan "sinchi"larini kuzatarkan, "Tilovberdining mag'lubiyati ezgulikning yengilishi bo'lib ko'rinmayaptimikin?" degan masalaga diqqat qilishi kerak bo'ladi. Haq yo'li shu qadar poyonsiz va toshliki, unda manzilga osonlik bilan yetishib bo'lmaydi. Azoblar bilan, mashaqqatlar torta-torta borilgani uchun ham ezulikning manzili muqaddas, g'alaba nashidasi totlidir.

Bo'ri polvon yigitlik armoni Momoqizning xushsuvrat o'g'liga mehr bilan munosabatda bo'ladi va ayni vaqtda, Abray polvonning Tilovberdidan hayiqqanday turishi polvon boboni shodlantiradi. O'quvchilar Bo'ri polvonning ziyrakligiga ham diqqat qaratishlari joiz: "Abray polvonning Tilovberdi polvondan hayiqayotganini ota nimalarda ko'rdi?" O'quvchilar inson tabiatidagi shunday chigal jihatlarni payqashga, buning sabablari haqida o'ylab ko'rishga, munosabat bildirishga savol-topshiriqlar ko'magida yo'naltirilishi kerak.

O'quvchilar Tilovberdining butun davra tan olgan g'alabasini otasi Bo'ri polvon bekor qilishining sabablari haqida o'ylab ko'rishlari, buning hayotiy-ma'naviy asoslarini izlashlari zarur. Mazkur kurash tasvirlangan: "*Tilovberdi polvon Abray polvonning ko'zlariga tikildi: Abray polvon ko'zlari hayiqdi! Ana endi hamlaga o'tsa bo'ladi!*" ifodalariga tayanib, Bo'ri polvonning o'g'lida ota tarbiyasi izlarini ilg'ash o'quvchilarga g'oyat zarur.

Tahlil jarayonida Abrayning yiqilishi lavhasi qayta o'qiladi: "*Tilovberdi polvon o'ng qo'li bilan Abrayning yoqasidan ushladi. Ichidan chil berdi. Shiddat bilan ketiga surdi. Abray polvon ketiga siltanglab-siltanglab bordi. Kimningdir fonusiga qoqilib ketdi.*"

Odamlar ustiga chalqancha tushdi". Mana shu tasvirga o'quvchilarning munosabati aniqlanadi. Suhbatdoshlardan kimdir xalq tomon, kimdir Bo'ri polvon tarafida bo'lishi tabiiy. O'quvchilardan esa o'z xulosalarini asoslash talab qilinadi. Bo'ri polvon nima uchun boshqalar singari Tilovberdining g'alabasini tan olib qo'ya qolmagani haqida o'ylab ko'rish zarur. Axir Tilovberdi uning jonidan ham aziz farzandi, uning g'alabasi Bo'ri polvon uchun hayot-mamot masalasi ekani ma'lum. Tilovberdi Abray polvonni yiqitdi, o'zi ham g'alabasiga ishondi, xaloyiq tan olib "Hal-o-o-ol!" deb qichqiryapti. Polvonning haqi berilishini talab qilayotgan sharoitda Bo'ri polvonga: "...Tilovberdi polvon Abray polvonni yiqitilmadi! ...Tilovberdi polvonning yiqitgani bekor!" deyish oson bo'ldimikin? U nega farzandining g'alabasini tan ololmadi?" Bolalar shu savollar ustida mulohaza yuritsalar, Polvon boboning e'tiqodi shubhali g'alabani, chala haqiqatni qabul qila olmasligini tushunadilar. U shubha qoldirmaydigan tarzda qozonilgan g'alabanigina tan olishi o'quvchilar tomonidan his etiladi.

Bo'ri polvonning: *"Polvon polvonni osmonning ko'kiga otsayam bekor! Polvonmisan – yerning ustiga yiqit!"* degan talabi uning qanchalar halol, haqiqatpesha ekanidan dalolat beradi. Sal shubha tug'ilgani sababli, bu g'alaba uning o'zi uchun hammaga qaraganda zarurroq bo'lsada, vijdoniga xiyonat qilmasligi, bunday g'alabadan zavqlanolmasligi singari jihatlar haqida mulohaza yuritish o'zgalari xatti-harakatini tahlil qilish orqali o'z ruhiy komilligi sari intilish imkonini beradi. Shunday shaxslar ruhiyatini ta'sirchan va yuqumli aks ettirgan adibning mahoratiga tan berish lozim. Bunday yuksak ma'naviy sifatlarni o'zgalarga ta'sir qiladigan, ularni muvozanatdan chiqara oladigan tarzda tasvirlash, yuqtirish ulkan talant egasininggina qo'lidan keladi.

Bo'ri polvonning halol hakamligi avvalgi lavhalarda ham ko'ringaniga, o'quvchilar Tilovberdining *"Tavba, tag'in ota emish bu odam!"* - deya otasidan norozi bo'lishi o'rinli emasligiga, unga o'qrayib, qobog'ini uyib qarashi noo'rin ekaniga asardan asos topishlari ularning tafakkuri mantiqli va teran bo'lishini ta'minlaydi. O'quvchilar Tilovberdining o'rninga o'zlarini qo'yib ko'rishsin. Unida tushunishga harakat qilishsin.

Bo'ri polvonning o'g'liga yo'l-yo'riq ko'rsatishga urinib: *"Nimaga iddao qilasan? Nima, haromni halol deb imonimdan*

kechayinmi? Polvon bo'lsang, halol yiqit! Ko'p tersayma! Sezdingmi, Abray ko'kraklarini berib olishyapti! Yoqasidan juft qilib ushlab, tikkasiga yag'ringa ol-chi. Magaram oshib ketsa! Olayotganingda yo, otamning piri, de! Tayin ayt, bor..." kabi bergan maslahati o'g'ilni hiyla tetiklantirdi.

Lekin: "*Otasi o'ngi yag'rini bo'ldi, bolasi o'ngi uchchosi bo'ldi. Qiyin, otalar san'atini ishlatish qiyin!*" Bu tasvirlar Tog'ay Murodning kurash hadisini qanchalar yaxshi bilishini ko'rsatib turibdi.

Davradagi tahlikali olishuv jarayoni, butun xo'jasoatliklarning Tilovberdi xatosini payqab turishi, polvon otaning o'g'il xatosini ko'rib turib unga ko'mak berolmay, tasbehini "shiq, shiq" etib tashlashi, shu jarayonda ko'nglidan kechirgan iztiroblari o'quvchilarning shuuridan birma-bir o'tishi uchun shu lavhani o'qituvchi qayta o'qib berishi kerak bo'ladi. "Tilovberdining xatosi nimadan iborat bo'ldi? U qayerda xatoga yo'l qo'ydi?" savoli suhbat ishtirokchilari diqqatini yana asar matniga yo'naltiradi. O'ttiz yettinchi bobda ushbu savolning javobi berilgan. Asar mohiyatiga doir savol-topshiriqlar yechimini topish bolalarni matn ichiga olib kirib, fikrlashga o'rgatadi, xulosalar chiqarishga yo'naltiradi.

O'quvchilar tomonidan Tilovberdi polvonning mag'lubiyatiga otasidan arazlaganimi yoki Abray polvonning chinakam zo'rligimi sabab bo'lgani haqida o'ylab ko'rilishi ularning ma'naviy kamoloti uchun katta ahamiyat kasb etadi. Tilovberdining mag'lubiyati Bo'ri polvonga qanday ta'sir qilgani tasvirlangan o'rinlar o'qituvchi tomonidan qayta o'qib berilgani ma'qul. O'g'ilning otasi haqida: "*Otamiz niyatiga yetdi! Otamiz bor ekan, bizga g'animning keragi yo'q!*" singari xulosasiga o'quvchilar munosabati so'raladi: "Otaning niyati shumidi? O'g'il bunday o'ylariga sabab nimada deb o'ylaysiz?"

O'quvchilarning e'tibori Bo'ri polvonday mag'rur, mard boboning "*yonoqlaridan marjon-marjon yoshlar*" oqishi ularning ruhiyatida qanday tuyg'ular qo'zg'aganini aniqlashga qaratiladi.

Qissada Bo'ri polvoning butun umri tasvirlangan. U hayoti davomida ikki marta yig'ladi: biri o'zining Ismoil polvon ustidan g'alaba qozongan kunida, ikkinchisi o'g'lining mag'lubiyati kunida. Biri – g'alaba, ikkinchisi – mag'lubiyat ko'z yoshlari. Har ikkisi ham Bo'ri polvonday ruhan qudratli odamga yarashqli yig'i. Shu kabi haqiqatlar o'quvchilarning ham ko'nglidan o'tsa, adabiyot darslari o'z samarasini berayotgan bo'ladi.

Suhbat ishtirokchilarining diqqati Bo'ri polvon shunday og'ir vaziyatda nima uchun bolalik do'sti Nasimni yodga olganiga qaratilishi inson shaxsining tabiatini chuqurroq anglanishiga ko'maklashadi. Demak, inson eng og'ir damlarda ko'ngildosh do'st, darddosh, "bolalik oshna"ga ehtiyoj sezadi.

Odamzod hayot ekan, yulduzlar mangu yongani singari ezigulikning yovuzlik, insofsizlik, xiyonatga qarshi kurashi ham mangu davom etadi. Polvon bobo ko'nglidan kechgan pokiza, baland, yorug' o'ylar o'quvchilarda ezgu ma'naviy sifatlar shakllantirishga katta hissa qo'shishi shubhasiz.

Uyga vazifa sifatida "Bo'ri polvon va Men" mavzusida ixtiyoriy qiyosiy insho yozishni topshirish mumkin. Bu og'ir topshiriq. Shuning uchun ham ixtiyoriy. Yozishni istagan yigitlarning urinib ko'rishi, ular uchun foydadan holi bo'lmaydi. Garchi, yoza olmagan taqdirda ham kimningdir bunga urinib ko'rishi, o'zini taftish qilishi, o'zidan polvon boboga xos sifatlarni qidirib ko'rishi uning shakllanishi uchun katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'zidan iz qoldiradi. Bu iz, besamar ketmasligi aniq.

Savol va topshiriqlar:

1. Badiiy asarlardagi "shakl" va "mazmun" tushunchalarini o'z so'zlaringiz bilan, badiiy yaratilardan misollar keltirgan holda asoslab bering.

2. Allohning yaratilarga xos bo'lgan shakl va mazmuni hayotiy haqiqatlar misolida tushuntirib berishga harakat qiling.

3. Nima deb o'ylaysiz, Xudoning yaratilari orasida shaklsiz mazmun bormi? Bor bo'lsa, siz uni qanday tasavvur qilasiz?

4. Odamning yaratilishi bilan bog'liq haqiqatlarni eslang. Insonda mazmunan juda-juda boy va keng, lekin shakli noma'lum bo'lgan narsalar haqida nima deya olasiz?

5. Nima deb o'ylaysiz, insonga xos bo'lgan, uni har kuyga solishi mumkin bo'lgan tuyg'ular ham yaratilgan narsami? Fikringizni asoslang.

6. Insonga xos bo'lgan tuyg'ular shaklga egami, yo'qmi? Nima uchun? Fikringizni asoslang.

7. Tuyg'ularning mazmunini qanday tasavvur qilasiz? Fikringizni misollar bilan asoslang.

8. Matndagi ushbu satrlarga diqqat qiling: “...tarbiyalanuvchilarda ezgu ma'naviy sifatlarni qaror toptirishda shakl va mazmun tushunchalarining qay biriga ko'proq e'tibor qaratilishi kerak”ligi haqida mulohaza yuring. Sizningcha, adabiy ta'limda bu tushunchalarning qaysi biri muhim? Nima uchun? Qarashlaringizni misollar bilan isbotlang.

9. Siz o'quvchilarga qanday shakldagi va qay mazmundagi kitoblarni o'qishga tavsiya etgan bo'ladingiz? Bunda o'qituvchi sifatida nimaga asoslanasiz? Qaroringizni asoslang.

10. O'ylab ko'ringchi, nasriy, epik, dramatik asarlarning muallifi va qahramonlari bilan lirik asarlar qahramoni va muallifi o'rtasida qanday tafovut bor? Fikringizni asarlar misolida dalillab bering.

11. Nima deb o'ylaysiz, badiiy asar muallifi va undagi qahramonlar shaklmi yoki mazmunmi? Yoki bu ikkisinin ikkala tushunchaga hech qanday aloqasi yo'qmi? Xulosangizni isbotlab bering.

12. Tasviriy san'atdagi shakl va mazmun bilan badiiy matndagi shakl va mazmunni taqqoslang. O'xshash va farqli tomonlarini ajrating. Auditoriyada birgalikda muhokama qiling.

13. Birorta badiiy matnga ishlangan suratni topib uni o'qishga urinib ko'ring. Har ikkalasidagi mazmun va shaklni qiyslang. Mukamallik darajasini aniqlang. Har ikkala yaratilishning mualliflari iste'dodini taqqoslang. Baholang.

14. “Yulduzlar mangu yonadi” qissasining didaktik tahliliga bag'ishlangan maqolani o'rganib chiqing. Tahlilda ilgari surilgan qarashlarga diqqat qiling. Unga munosabat bildiring. Asarga yondashuvning boshqacha talqinlarini topishga urinib ko'ring.

15. Birorta badiiy asar mazmuni va uning tasviriy tahliliga bag'ishlab tahlil-esse yozing. Kreativ tafakkuringiz mahsulini darsda o'zaro muhokama qiling.

16. “Bo'ri polvon va Men” mavzusida qiyosiy insho yozish siz uchun majburiy. Urinib ko'ring. Ruhiyatingizni, xarakteringizni taftish qiling. O'zingizga ichdan baho bering. Hayotdagi o'rningizni belgilang.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Абдусаматов Ў. Драма назарияси. – Т.: Гафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти., 2000, 210 бет.
2. Абдукаримов Ҳ. Дарс тахлили ва унинг методикаси. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2010. 276 б.
3. Авлоний А. Танланган асарлар. Икки жилдлик. 2-жилд. – Т.: Маънавият, 1998. –304 б.
4. Авлоний А. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. – Т.: Ўқитувчи, 1992. –160 б.
5. Айзерман Л. Современный урок литературы и проблемное преподавание. – М.: Просвещение, 1969. – 222 с.
6. Айзерман Л. С. Размышляя над прочитанным. || Литература в школе. –2000. –6. – С. 64-72.
7. Азимов Э. Г., Ҳукин А. Н. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). – Москва: ИКАР, 2009. 448 с.
8. Аҳмедов Қ. 10-синфда Ҳамза Ҳакимзоданинг «Бой ила хизматчи» драмасини ўрганиш. Адабиёт ўқитувчилари учун методик қўлланма. – Т.: Урта ва олий мактаб, 1963. –98 б.
9. Бабанский Ю. К. Методы обучения в общеобразовательной школе. – М.: Просвещение, 1985. – 208 с.
10. Бехбудий. Танланган асарлар. – Т: Маънавият. 1977. –232 б.
11. Бобоев Т. Олий ўқув юртларида ўзбек шеърини поэтикаси асосларини ўрганиш. Пед. фан. доктори ...дисс. автореферати. – Т., 1998. – 546.
12. Выготский Л. С. Воображение и творчество в детском возрасте. – М.: Просвещение, 1991. – 93 с.
13. Вяткин Л. Г. Методика проблемного обучения. – Саратов: Университет, 1971. – 37 с.
14. Голубков В. В. Методика преподавания литературы. – М.: Госучпедгиз, 1952. – 464 с.
15. Долимов С., Убайдуллаев Ҳ. Адабий ўқиш методикаси. Адабиёт ўқитувчилари ва олий пед. институтларнинг студентлари учун қўлланма. – Т.: Ўздавуқувпеднашр, 1952. –290 б.
16. Долимов С. 5-синфда Айний ва Каххор ҳикояларини ўрганиш ҳақида. Ўқитувчилар учун методик қўлланма. –Т.: Ўздавуқувпеднашр, 1953. –19 б.
17. Долимов С. 5-синф «Ватан адабиёти» учун методик қўлланма. – Т.: Ўқитувчи, 1974. –104 б.
18. Долимов С., Убайдуллаев Ҳ., Аҳмедов Қ. Адабиёт ўқитиш методикаси. Университетларнинг филология факултетлари ва педагогика институтларнинг тил ва адабиёт факултетлари учун қўлланма. – Т.:

Ўқитувчи, 1967. –448 б.

19. Долимов С. 8-синф «Ўзбек адабиёти тарихи» дарслиги учун методик қўлланма. – Т.: Ўқитувчи, 1980. –144 б.

20. Зуннунов А. Юқори синфларда Ғ. Ғулум ижодини ўрганиш. –Т.: Ўрта ва олий мактаб, 1961. –76 б.

21. Зуннунов А. Мактабда Гулханий ва Муқимий ижодини ўрганиш. Ўқитувчилар учун мет. қўлланма. –Т.: Ўқитувчи, 1965.–69 б.

22. Зуннунов А. 5-10-синфларда адабий-назарий тушунчаларни ўрганиш. Ўқитувчилар учун методик қўлланма. – Т.: Ўқитувчи, 1967. –142 б.

23. Зуннунов А. 7-синф «Ватан адабиёти» дарслик-хрестоматияси учун қўлланма. – Т.: Ўқитувчи, 1975. –120 б.

24. Зуннунов А. Ўзбек адабиёти методикаси тарихидан очерклар. Ўқитувчилар учун қўлланма. – Т.: Ўқитувчи, 1980. –196 б.

25. Зуннунов А., Алиев А. Адабиётни бошқа гуманитар фанлар билан боғлаб ўрганиш. Ўқитувчилар учун қўлланма. – Т.: Ўқитувчи, 1982. –72 б.

26. Зуннунов А. Эсонов Ж. Адабиёт ўқитиш методикаси. – Т.: Ўқитувчи, 1984. –200 б.

27. Зуннунов А. Бадиий асар таҳлили методикаси: Ўқитувчилар учун қўлланма. – Т.: Ўқитувчи, 1989. –120 б.

28. Зуннунов А. ва бошқ. Адабиёт ўқитиш методикаси. – Т.: Ўқитувчи, 1992. –333 б.

29. Зуннунов А., Нурматова М. Ўрта мактабда иншо. – Т.: ТВПХМОИ, 1992. –44 б.

30. Зуннунов А., Ҳотамов Н., Хайруллаев М. ва бошқ. Ўзбек педагогикаси тарихи. Олий ўқув юртлари учун дарслик. – Т.: «Шарқ» нашриёт-матбаа концерни, 2001. –291 б.

31. Ибрагимов Р. Муаммоли дарс босқичлари. // Халқ таълими. -1998. -3. –Б. 76-78.

32. Исматов С. 8-10-синфларда иншо ва унинг таҳлили. //Конференция материаллари. – Т., 1957. –25-29-б.

33. Исматов С. Мактабда Абдулла Қаҳҳорнинг ҳаёти ва ижодини ўрганиш. Адабиёт ўқитувчилари учун қўлланма. – Т.: Ўқитувчи, 1969. –112 б.

34. Исматов С. Ҳамза ижодини ўрганиш процессида эстетик тарбия. //Мактабда адабиёт ўқитиш. – Т., 1975.– 13–23-б.

35. Йўлдошев Қ ва бошқ. Адабиёт ўқитиш методикаси. Дастурий қўлланма. –Т.: РТМ, 1994. –49 б.

36. Йўлдошев Қ. Рауф Парфи ижодидан уч дарс. //Тил ва адабиёт таълими. –1994. -1. –Б. 14-18.

37. Йўлдошев Қ. Адабиёт ўқитишнинг илмий-назарий асослари. – Т.: Ўқитувчи, 1996. –152 б.

38. Йўлдошев Қ. Ўзликни таниш Оллоҳни танишдир. // Тафаккур. -

1996. -4. -Б. 22-27.

39. Йўлдошев Қ. Янгича педагогик тафаккур ва умумтаълим мактабларида адабиёт ўқитишнинг илмий-методик асослари. Пед. фан. доктори... диссертация. – Т., 1997. –306 б.

40. Йўлдошев Қ. Ўқитувчи китоби. 7-синф «Ўзбек адабиёти» дарслик-мажмуаси учун қўлланма. – Т.: Ўқитувчи, 1997. –232 б.

41. Йўлдошев Қ. ва бошқ. Адабиёт. 6-синф учун дарслик-мажмуа. \ Қ. Йўлдошев, Қ. Хусанбоева, Н. Ғуломова. – Т.: Ўқитувчи, 1999. –352 б.

42. Йўлдошев Қ. Адабиётшунослик надур? // Тафаккур. -2000. -3. –Б. 54-65.

43. Йўлдошев Қ., Қосимов Б. Адабиёт. 7-синф учун дарслик-мажмуа. – Т.: Ўқитувчи, 2000. –384 б.

44. Каримов Н. ва бошқ. Ўзбек адабиёти. 11-синф учун дарслик. – Т.: Ўқитувчи, 1993. –350 б.

45. Каримов Н. ва бошқ. XX аср ўзбек адабиёти тарихи. Университетлар ва педагогика институтлари бакалавр ихтисосини олувчилар учун дарслик. – Т.: Ўқитувчи, 1999. –544 б.

46. Каримов Н., Норматов У. Адабиёт. 5-синф учун дарслик-мажмуа. – Т.: Ўқитувчи, 1999. –352 б.

47. Каримова В. М., Суннатов Р. Мустақил фикрлаш. Академик лицейлар ва касб-хунар коллежлари учун ўқув қўлланма. – Т.: «Шарк» нашриёт-матбаа концерни, 2000. – 112 б.

48. Каримова В., Нишонова З. Мустақил ижодий фикрлаш ва шахснинг хиссий, иродавий ва интеллектуал ҳислатлари орасидаги боғланиш. //Халқ таълими. 2001. - 3. –Б. 64-69.

49. Каттабеков А. ва бошқ. Адабиёт. 8-синф учун дарслик-мажмуа. – Т.: Ўқитувчи, 2001. –448 б.

50. Келдиёров Р. Адабиёт дарслари самарадорлигини оширишнинг илмий-методик асослари (Ўқитувчи касбий-маънавий фазилатлари асосида). Пед. фан. номзоди ...дисс. – Т.: 2001. –138 б.

51. Кийиксўқмоқдаги йўловчи. Монография. (Қ.Йўлдош., Қ. Хусанбоева, М. Йўлдошева). – Т.: ЎзМЭ, 2014. 192 б.

52. Комил инсон ҳақида тўрт рисола. Форс тилидан Н. Комилов таржимаси. – Т.: Маънавият, 1997. –280 б.

53. Комилов Н. Тасаввуф ёки комил инсон ахлоқи. 1-китоб. – Т.: Ёзувчи, 1996. –272 б.

54. Комилов Н. Тасаввуф. Тавҳид асрори. 2-китоб. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1999. –208 б.

55. Костылев Ф. В. Учить по новому: нужны ли оценки-баллы. Книга для учителя. – М.: «Владос», 2000. – 104 с.

56. Кошифий Ҳ. В. Футуватномаи султоний ёхуд жавонмардлик тариқати. Форсчадан Н. Комилов таржимаси. – Т.: Халқ мероси, 1994. –112 б.

57. Ксензова Г. Ю. Оценочная деятельность учителя. Учебно-методическое пособие. – М.: Педагогическое общество России, 2000. – 121 с.

58. Кудрявцев В. Т. Внедрение принципа проблемности в обучении. – М.: Высшая школа, 1998. – 96 с.

59. Кудрявцев В. Т. Проблемное обучение: истоки, сухость, перспективы. – М.: Знание, 1991. – 79 с.

60. Кудряшов Н. И. Взаимосвязь методов обучения на уроках литературы. – М.: Просвещение, 1981. – 190 с.

61. Лесохина Л. Н. О проблемности урока литературы. //Литература в школе. 1965. - 6. –С. 3-11.

62. Лихачев А. Е. Воспитание и духовность. //Педагогика. -2001. - 3. –С. 33-37.

63. Мадаев О. Иншо кандай ёзилади: Ўрта махсус ўқув юртларининг ўқитувчилари учун методик қўлланма. – Т.: Ўқитувчи, 1991. –88 б.

64. Мадаев О. «Алпомиш» достонининг матнини ўрганиш методикаси. – Т.: ТошДУ, 1998. –41 с.

65. Маранцман В.Г., Чирковская Т.В. Проблемное изучение литературного произведения в школе. – М.: Просвещение, 1977. –206 с.

66. Маранцман В. Г. Биография писателя в системе эстетического воспитания школьников. – Москва: «Просвещение», 1965. 275 б.

67. Матчанов С. Умумтаълим тизимида адабиётдан мустақил ишларни ташкил этиш. Пед. фан. доктори ...дисс. автореф. – Т., 1998. –38 б.

68. Матжонов С. Мактабда адабиётдан мустақил ишлар. – Т.: “Ўқитувчи”, 1996. 208 б.

69. Матжон С. Китоб ўқишни биласизми? – Т.:Ўқитувчи, 1993, 76 бет.

70. Матюшкин А. М. Проблемные ситуации в мышлении и обучении. – М.: Педагогика, 1972. – 168 с.

71. Матюшкин А. М. Теоретические вопросы проблемного обучения. //Советская педагогика. 1971. - 7. – С. 38-48.

72. Махмутов М. И. Развитие познавательной активности и самостоятельности учащихся. – Казань: Татарское книжное издательство, 1963. – 80 с.

73. Махмутов М. И. Воспитывать интеллектуально активную личность. //Народное образование (Приложение к журналу). 1967.-4-6.

74. Махмутов М. И. Теория и практика проблемного обучения. – Казань: Татарское книжное издательство, 1972. – 552 с.

75. Махмутов М. И. Организация проблемного обучения. – М.: Просвещение, 1977. – 240с.

76. Махмутов М. И. Современный урок. – М.: Педагогика, 1985. – 84 с

77. Мирқосимова М. М. Ўқувчиларда адабий таҳлил малакасини шакллантириш ва такомиллаштириш усуллари. Пед. фан. доктори ...дисс. – Т., 1995. –253 б.
78. Мирқосимова М. Ўқувчиларда адабий таҳлил малакасини шакллантириш ва такомиллаштириш асослари. – Т.: «Фан», 2006. 196 б.
79. Монтень Мишель. Опыты. Избранные произведения в 3-х томах. Том 2. Пер. с фр. –Москва: «Педагогика», 1992. 560с.
80. Монтессори М. Дом ребёнка: Метод научной педагогики: Пер.с итал. –Гомель. 1993.
81. Муҳаммаджонова Г. Дардан ташкари машғулотларда русийзабон ўқувчиларнинг ўзбекча нутқини ўстириш методикаси (5-9-синфлар мисолида). Пед.фан.ном.дисс. автореф. – Т.: 2003. - 151 б.
82. Нишонова З. Мустақил фикрлашга ўргатиш. //Бошланғич таълим. -1999. -3. 34-35-б.
83. Нишонова З. Мустақил фикр ривожланганлигининг психологик мезонлари. // Халқ таълими. -2001. -3. –Б.64-69.
84. Нишонова З. Ижодий мустақил фикрни тарбиялашда ўқитувчининг ролини янада ошириш. // Таълим ва тарбия. -2001. -1. –Б. 40-41.
85. Нишонова З., Кенжабаева К. Мустақил фикрни шакллантиришда ўқитувчи. // Халқ таълими. -2003. -2. –Б.32-34.
86. Ниёзметова Р.Х. Узлуксиз таълим тизимида ўзбек адабиётини ўрганиш методикаси. Монография. – Т.: Фан, 2007. – 215 б.
87. Ниёзметова Р. Ўзбек тили дарсларида янги ўзбек адабиётини ўқитиш масалалари. Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти. 2010. – 106 б.
88. Оконь В. Процесс обучения. \Перевод с полского. – Москва: Учпедгиз, 1962. – 172 с.
89. Оконь В. Основы проблемного обучения. – М.: Просвещение, 1968. –208 с.
90. Проблемное изучение литературы в школе. (Сборник статей). – Калининград: Книжное, 1969. – 145 с.
91. Развитие творческой активности школьников. – М.: Педагогика, 1991. – 147 с.
92. Рахимов С. Педагогические идеи Абу Али ибн Синў. Автореф. дисс... канд. пед. наук. – Т., 1964. –30 с.
93. Рахимов С. Абу Али ибн Сино таълим-тарбия ҳақида. – Т.: Ўқитувчи, 1967. –199 б.
94. Родари Ж. Грамматика фантазий. Перевод с итальянского Ю. А. Добровольской. – М.: Прогресс, 1978. – 207 с.
95. Румий Ж. Ичиндаги ичиндадир. Фалсафий-маърифий асар. У. Ҳамдам таржимаси. 2-нашр. – Т.: Мехнат, 2001. –160 б.
96. Руссо Ж. Ж. «Эмиль или О воспитании». – Москва: 1995. 262 с.

97. Рыбак Л. А. Проблема индивидуального подхода в процессе формирования самостоятельного мышления учащихся //Проблемы формирования личности и индивидуальный подход к учащимся. – М.: Просвещение, 1994. – С. 275-298.

98. Рыбак Л. А. Образное мышление и урок литературы. – М.: Просвещение, 1996. – 204 с.

99. Сладкова Д. А. Проблемное преподавание литературы в старших классах средней школы. – Казань, Университет, 1997. – 60 с.

100. Тожиев А. Адабиёт дарсларида сухбат. – Т.: Ўқитувчи, 1997.-132 б.

101. Тўракулов Э., Рахимов С. Абу Райҳон Беруний рухият ва таълим-тарбия ҳақида. – Т.: Ўқитувчи, 1992. –80 б.

102. Тўхлиев Б. Ўзбек адабиёти. 9-синф учун дарслик. – Т.: Ёзувчи, 2001. –288 б.

103. Тўхлиев Б. Адабиёт ўқитиш методикаси. – Т.: “Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси”, 2010. 111 б.

104. Узвийлаштирилган давлат таълим стандарти ва ўқув дастури. Она тили. Адабиёт. Ўзбек тили. (5–9-синфлар). –Т.: РТМ, 2010 йил. 82 бет.

105. Узлуксиз адабий таълим йўриғи (концепцияси). Муаллиф: Қ. Йўлдошев. – Т.: ЎзПФИТИ, 1995. –22 б.

106. Усмонов Р. Юқори синфларда ёзувчи биографиясини ўрганиш. – Т.: “Ўқитувчи”, 1969. – 131бет.

107. Фитрат А. Нажот йўли. – Т.: “Шарқ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2001. – 176 б.

108. Форобий А. Н. Фозил одамлар шахри. – Т.: Халқ мероси, 1993.– 224 бет.

109. Хайруллаев М. Форобий ва унинг фалсафий рисолалари. – Т.: Ўзфанакадем, 1963. –283 б.

110. Хайруллаев М. Форобий рухий процесслар ва таълим-тарбия тўғрисида. – Т.: Ўқитувчи, 1967. –95 б.

111. Хайруллаев М. Уйғониш даври ва Шарқ мутафаккири. – Т.: Ўзбекистон, 1971. –310 б.

112. Хайруллаев М. Ўтмиш мутафаккирлари таълим-тарбия ҳақида. Халқ педагогикаси – инсон камолотининг асоси. 1-китоб. – Т.: ЎзПФИТИ, 1992. –139 б.

113. Хайруллаев М. Ўрта Осиёда илк уйғониш даври маданияти. –Т.: Фан, 1994. –80 б.

114. Худойбердиева Ҳ. Садоқат. –Т.: Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983. 199 б.

115. Яминова С. Ўқувчиларнинг мустақил фикрлаш қобилиятини шакллантиришда сценарийли ўқитиш усулидан фойдаланиш. Пед. фан. номзоди ...дисс. – Т., 1997. –168 б.

116. Ўзбек адабиётидан замонавий дарслар. (Ўқитувчилар учун

методик қўлланма) Тузувчилар А. Рафисв ва бошқ. – Т.: Ўз-Силм, 1990. – 82 б.

117. Ўзбек педагогикаси антологияси. Икки жилдлик. 1-жилд. Тузувчи-муаллиф: К. Ҳошимов, С. Очил. – Т.: Ўқитувчи, 1995. –464 б

118. Ўзбек педагогикаси антологияси. Икки жилдлик. 2-жилд. Тузувчи-муаллиф: С. Очил, К. Ҳошимов. – Т.: Ўқитувчи, 1999. –480 б.

119. Ўзбек педагогикаси тарихи. Олий ўқув юртлири учун қўлланма. /А. Зуннунов тахрири остида. – Т.: Ўқитувчи, 1997. –272 б

120. Ўзбек педагогик энциклопедик сўзлиги. (К. Йўлдош, У. Долимов, Қ. Ҳусанбоева, А. Сулаймонов, М. Йўлдошева, О. Сафаров.) – Т.: Chashma print, 2014. – 446-бет.

121. Қахҳор А. Адабиёт атомдан кучли. –Т.: Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. – 183 бет.

122. Қосимов Б., Жумахўжа Н. Ўзбек адабиёти. 10-синф учун дарслик. – Т.: Ўқитувчи, 2000. –464 б.

123. Куронов М. Миллий тарбия йуриқномаси. Ғарб ва Шарқ тарбиявий тажрибалари намуналари тахлили. //Халқ таълими. 1993. -8. –Б. 6-10.

124. Ғозиев Э. Тафаккур психологияси. – Т.: Ўқитувчи, 1990. –184 бет.

125. Ҳожиахмедов А. Мактабда аруз вазнини ўрганиш. – Т.: Ўқитувчи, 1978. –151 б.

126. Ҳожиахмедов А. Шеър санъатини биласизми? – Т.: «Шарқ» нашриёт-матбаа концерни, 2001.–96 б.

127. Ҳусанбоева Қ. Адабиёт – маънавийт ва мустақил фикр шакллантириш омили. Монография. – Т.: Алишер Навоий номидаги Миллий кутубхона нашриёти, 2009. –368 бет.

128. Ҳусанбоева Қ.Тахлил – адабиётни англаш йўли. – Тошкент: Мухаррир нашриёти, 2013. –432 бет.

129. Ҳусанбоева Қ. ва бошқ. Кийиксўқмоқдаги йўловчи. Монография. – Т.: ЎзМЭ, 2014. –192 б.

130. Ҳусанбоева Қ. Literatura as a factor for development of morality and independent thinking. – Т.: Тамаддун, 2016. –350 б.

131. Q. Husanboyeva va boshq. Boshlang'ich sinflarda adabiyot o'qitish metodikasi. Darslik. – Samarqand, SamDU, 2019. – 395 b.

132. Q. Husanboyeva va boshq. Maktabgacha ta'limda badiiy matn ustida ishlash metodikasi (nutq o'stirish metodikasi). Darslik. – Samarqand, SamDU, 2020. – 394 b.

133. Q. Husanboyeva va boshq. Boshlang'ich sinflarda adabiyot o'qitish metodikasi. Darslik. – Т.: Innovatsiya-Ziyo, 2020. – 380 b.

134. Q. Husanboyeva va boshq. Maktabgacha ta'limda badiiy matn bilan ishlash metodikasi (nutq o'stirish metodikasi). Darslik. To'ldirilgan va tuzatilgan ikkinchi nashri. – Т.: Innovatsiya-Ziyo, 2020. – 394 b.

135. Q. Husanboyeva, M. Hazratqulov. Boshlang'ich sinflarda matn tahlili orqali mustaqil fikrlashga o'rgatish (PIRLSga tayyorgarlik). O'quv qo'llanma. – Samarqand, SamDU, 2020. – 160 b.

136. Q. Husanboyeva, Sh. Jamoldinova, I. Rahimova. Adabiyot oqitish metodikasi va muammoli ta'lim. – T.: Innovatsiya-Ziyo, 2021. – 401 b.

137. Q. Husanboyeva. Adabiyot oqitish metodikasi va muammoli ta'lim. – T.: Innovatsiya-Ziyo, 2022. – 401 b.

138.

139. <http://dic.academic.ru/>

140. <https://ru.wikipedia.org/wiki>.

141. www.ziyo.comkutubxonasi.

142. http://fikir.uz/blog/utkir_hoshimov/azhdodlar-abadiyligi.html

QUNDUZXON HUSANBOYEVA, ROZA NIYOZMETOVA

ADABIYOT O'QITISH METODIKASI

**Pedagogik yo'nalishdagi oliy o'quv yurtlari o'zbek tili va
adabiyoti fakulteti talabalari uchun darslik
BIRINCHI KITOB**

Darslik

Toshkent - "Innovatsiya-Ziyo" - 2022

Muharrir: Xolsaidov F. B.

Nashriyot litsenziyasi AI №023, 27.10.2018.
Bosishga 14.05.2022. da ruxsat etildi. Bichimi 60x90.
"Times New Roman" garniturası. Ofset bosma usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 25. Nashr bosma tabog'i 25.
Adadi 250 nusxa.

"Innovatsiya-Ziyo" MCHJ matbaa bo'limida chop etildi.
Manzil: Toshkent shahri, Farhod ko'chasi, 6-a uy.



+99893 552-11-21

Muallif va nashriyot rozilgisiz chop etish ta'qiqlanadi.

ISBN 978-9943-8233-8-9



9 789943 823389